


I. R. Asqarov, Y.T. Isayev,  
A.G. Mahsumov, Sh.M. Qirg'izov

# ORGANİK KİMYO



**I.R. ASQAROV, Y.T. ISAYEV,  
A.G. MAHSUMOV, Sh.M. QIRG'IZOV**

# **ORGANIK KIMYO**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan oliv o'quv  
yurtlarining kimyo ta'lif yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi  
talabalariga darslik sifatida tasdiqlangan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2012

**UDK 547 (075)**

**KBK 24.2ya 73**

**O-65**

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori, professor  
A.G.Maxsumov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi va  
ratsionalizator, kimyo fanlari doktori, professor  
I.R.Asqarovning umumiy tahriri ostida*

**Taqrizchilar:**

- Abdushukurov A.** – O'zbekiston milliy universiteti organik kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori
- Hamroqulov G'.** – Toshkent kimyo-texnologiya instituti kafedra mudiri, kimyo fanlari doktori, professor
- Ibragimov A.A.** – Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori
- Madixonov N.** – Andijon qishloq xo'jaligi instituti fizika va kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori
- Abdug'ofurov I.A.** – Andijon davlat universiteti umumiy kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

Mazkur darslik universitetlarning kimyo ta'lim yo'nalishining namunaviy o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, olyi o'quv yurtlarining kimyo yo'nalishida tahlil oluvchi talabalar uchun mo'ljalangan.

Organik kimyo: darslik/I.R.Asqarov (va boshq.) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2012. – 608 b.

ISBN 978-9943-03-446-4

I.Asqarov I.R.  
II. Isayev, Yu.T.  
III. Mahsumov, A.G.  
IV. Qirg'izov, Sh.M.

**UDK 547 (075)**  
**KBK 24.2ya 73**

**ISBN 978-9943-03-446-4**

**© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matba ijodiy uyi.  
2012 y.**

---

## SO'Z BOSHI

Hozirgi vaqtida 118 ta kimyoviy element ma'lum bo'lib, birgina uglerod atomi hosil qilgan birikmalar organik moddalar deb ataladi va ularning umumiy soni 6 mln.ga yaqindir. Qolgan 117 ta kimyoviy elementlar hosil qilgan birikmalar 50 mingdan ortiqdir. Uglerod birikmalarini bunchalik ko'p miqdorda mavjud bo'la olishligi uglerod atomlari o'zaro birikib turli xil tuzilishdagi zanjirlarni hosil qila olishligi bilan izohlanadi.

Organik moddalar odam, hayvon, o'simlik organizmlarining asosini tashkil etish bilan birga sanoatda, turmushda, insonning hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan moddalar ekanligi bilan e'tiborga loyiqidir. Chunki insonni oziq-ovqati, kiyim-kechaklari, transport vositalari, ularning yoqilg'ilarli, zavod va fabrikalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismlari, bo'yoqlar, dorivor moddalar, yuvuvchi moddalar, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan ko'plab o'g'itlar, o'stiruvechi moddalar, gerbitsidlar, fungitsidlar va boshqa ko'plab birikmalarning asosini organik moddalar tashkil etadi. Insoniyat hayot faoliyatini organik moddalarsiz tasavvur etish mumkin emas. Organik moddalar butun atrof-muhitdä; inson ehtiyojlarini qondiruvchi bebahoh kimyoviy birikma sifatida insoniyatga xizmat qiladi. Organik moddalarsiz inson mavjud bo'la olmaydi va yashashi mumkin emasligini o'ylab ko'rilsa, organik moddalar naqadar ulug' ahamiyatga ega ekanligini tasavvur qilish mumkin. Shuning uchun tabiiy va sintetik organik moddalarni tuzilishi, xossalari, ishlatilishi va boshqa ko'rsatkichlari haqida bilimga ega bo'lish har qanday mutaxassisliklar uchun zarurdir. Chunki organik kimyo olamshumul fandir. Oshpazdan tortib, kosmonavtgacha barcha mutaxassislar organik moddalar haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Kimyogar mutaxassislar esa organik kimyoni asosiy san sifatida o'rganishlari zarur.

Ushbu darslik oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha namunaviy dastur asosida yozildi. Ushbu risolada kirish, organik kimyoning nazariy asoslari, uglevodorodlar, uglevodorodlarning galogenli hosilalari, spirtlar, aldegidlar va ketonlar, karbon kislotalar, nitrobirikmalar, aminobirikmalar, efirlar, uglevodlar, oqsillar, aromatik birikmalar, terpenlar, geterosiklik birikmalar kabi eng muhim organik moddalar haqida bayon qilingan. Har bir mavzuda ayni sinf organik moddalarni tuzilishi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari, hamda amaliy ahamiyati keltirilgan.

Darslikni o‘qib o‘zlarining qimmatli maslahatlarini bergenliklari uchun O‘zbekiston milliy universiteti organik kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori A.Abdushukurovga, Toshkent kimyo-texnologiya instituti kafedra mudiri, kimyo fanlari doktori professor G‘.Hamroqulovga, Farg‘ona davlat universiteti kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori A.A.Ibragimovga, Andijon qishloq xo‘jaligi instituti fizika va kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori N.Madixonovga, Andijon davlat universiteti umumiy kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori I.A.Abdug‘ofurovga chuqur minnatdorchilik bildiramiz. Ushbu darslik haqida o‘zlarini fikrmulohazalarini bildiruvchi barcha kitobxonlarga oldindan tashakkur izhor etamiz.

*Mualliflar*

---

## KIRISH

Barcha kimyoviy elementlar ichida uglerod o'ziga xos o'zaro uzun zanjir hosil qila olish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli barcha organik moddalarning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda organik kimyo fani uglerod birikmalari to'g'risidagi fan bo'lib, tirik organizmning asosini tashkil etuvchi moddalardir. Organik moddalar insoniyatga qadimdan ma'lum. Azaldan odamlar tabiiy manbalardan sirkal kislotasi, yog'lar, o'simlik moylari, tabiiy bo'yoqlar kabi organik moddalarni ajratib olishni, ulardan foydalanishni bilganlar. To'plangan bilimlar va tajribalar boshqa fanlar qatori kimyo fanining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tabiiy organik moddalardan dorivor moddalar sifatida foydalanish Markaziy Osiyo, Xitoy, Misr kabi davlatlar hududlarida yashagan xalqlar orasida eramizdan oldingi davrlarda ham keng foydalanilganligi haqida ma'lumotlar bor. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida o'simlik va hayvonlardan ajratib olingen sodda va murakkab dorivor moddalardan foydalanish usullarini bayon qilgan. Sirkal kislotal, har xil bo'yoqlar, o'simliklardan ajratib olingen turli xil malhammlar tabiiy, ya'ni tirik organizmlardan ajratib olinib, ularni biologik faoliyklariga ko'ra ishlatalish uslublari tavsiya etilgan.

Organik kimyoni rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda to'rt davrga ajratish mumkin:

1. Empirik davr – organik kimyo alohida fan sifatida shakllangungacha bo'lgan davr bo'lib, bu davrda insoniyat organik moddalar bilan bevosita tanishuvi, ularni qayta ishlash, ajratib olish, ulardan foydalanish usullari bilan shug'ullangan davrlarni o'z ichiga oladi.

2. Analitik davr – bu davrda organik kimyoga doir dastlabki nazariyalar yaratilgan bo'lib, XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr hisoblanadi.

3. Tuzilish nazariysi davri – XIX asrning 60-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda organik moddalarni tuzilish nazariyasiga asos solinib, sintetik, organik kimyo shiddat bilan rivojlandi. Organik moddalarning olamni asosini tashkil etishi barcha sohalarda o'z isbotini topdi.

4. Organik kimyo fani rivojlanishining hozirgi zamondi ilmiy takomillashuv davri – bu davrda organik moddalar atom-molekulyar nuqtai nazardan tahlil qilinib, tirik organizmlarda, tabiatda bo'ladigan barcha o'zgarishlar ular tarkibiga kiruvchi atom va molekulalar, hamda ular-

ning mikrozarrachalaridan boshlanishligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Bundan 1000–1200 yil avval Abu Bakr Zakariyo Ar-Roziy, Abu Mansur Al-Qumriy, Abu Bakr Rabi', Yusuf ibn Sayyor, Yassa ibn Sinon, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkir olimlar asarlarida tabiiy organik birikmalardan dorivor moddalar sifatida foydalanish uslublari haqidagi ma'lumotlar keltirilganligi tabiiy organik moddalardan insoniyat qadimdan foydalanganligini tasdiqlaydi.

Organik kimyo dastavval tabiiy mahsulotlardan olinadigan moddalar haqidagi fan sifatida shakllandi. Organik moddalarni sistematik ravishda fan yutuqlari asosida o'rganish XVIII asrdan boshlangan. Organik moddalar noorganik moddalarga nisbatan beqarorroq, murakkab kimyoviy tarkibga ega edi. Organik moddalarni o'rganish bilan ilmiy asosda sistematik shug'ullana boshlagan dastlabki kimyogar olimlardan biri shved olimi K.Sheele hisoblanadi. XVIII asrning ikkinchi yarmida K.Sheele tabiiy mahsulotlardan vino, limon, olma, sut va boshqa kislotalarni ajratib oldi. Organik moddalar noorganik moddalardan asosan tarkibi bilan farq qilishi aniqlandi. 1808-yilda shved olimi Y.Ya.Berselius kimyo kursida «Organik kimyo» bo'limini ajratib, bu fanga asos soldi.

O'sha davrdagi tasavvurlarga ko'ra organik moddalar qandaydir «hayotiy kuch» (vis vitalis) ta'sirida faqat tabiiy jarayonlardagina hosil bo'ladi (vitalizm nazariysi) deb qaralar edi. Bu nazariya ta'sirida organik kimyoning rivojlanishi ancha orqada qolgan. Lekin organik moddalarni tirik organizmdan tashqarida laboratoriya sharoitida noorganik moddalardan sintez qilish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan kimyogarlar ham ko'zga tashlana boshladi. Vitalistik nazariya tarafdarlari va ularning raqiblari o'rtaсидagi kurash natijasida organik kimyoda muhim yutuqlarga erishildi.

Keyinchalik noorganik moddalardan sun'iy yo'llar bilan organik moddalarni olish mumkinligi isbotlangandan so'ng organik kimyo fani yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. 1783-yilda K.Sheele ko'mir, novshadil va potashdan laboratoriya sharoitida kaliy sianidni sintez qildi. Kaliy sianid tuziga mos keluvchi sianid kislotosi o'simliklar tarkibida oz miqdorda uchrashligi aniqlangan edi. Nemis kimyogari F.Vyoler 1824-yilda ditsiandan oksalat kislotosini laboratoriya sharoitida sintez qildi. 1828-yilga kelib ammoniy sianatdan mochevinani sintez qilishga erishdi. J.Dyuma organik moddalar tarkibidagi azot miqdorini, Yu.Libix esa uglerod va vodorod miqdorini aniqlash metodlarini ishlab chiqdilar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab organik sintez rivojiana boshladi. 1845-yilda nemis kimyogari G.Kolbe sirkasi kislotosini, 50-yillarda fransuz kimyogari M.Bertlo noorganik moddalardan chumoli kislotosini, etil spirtini, atsetilenni, benzolni, metanni, glitserin va yog' kislotalaridan yog'larni sintez qilishga muvaffaq bo'ldilar. 1861-yilda A.M.Butlerov formaldegidan shakarsimon moddani sintez qildi.

Kimyogarlar organik moddalar ham noorganik moddalar kabi ma'lum qomuniyatlarga bo'y sunishini aniqladilar. 1851-yilda nemis kimyogari A.Kekule organik kimyo fanini uglerod birikmalarining kimyosi deb atadi. 1889-yilda

K.Shorlemmer bu tushunchani kengaytirib organik kimyoni *uglevodorodlar va ularning hosilalari kimyosi* deb ta’rifladi.

Organik birikmalarning tuzilishi haqidagi tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishida J.Dyuma, A.Kekule, A.Kuper, Ya.Vant-Goff kabi olimlarning hissalarini juda katta. 1861-yilda rus kimyogari A.Butlerov tomonidan organik birikmalarning tuzilishi nazariyasi ishlab chiqilishi natijasida organik moddalarning tuzilishi va xossalariini yanada chuqurroq tushunish imkoniyati tug’ildi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab organik sintez, tabiiy va biologik faol moddalarning tuzilishini aniqlash jadal rivojlnana boshladi. Misol uchun birinchi marta alizarin, indigo kabi bir qator tabiiy bo’yoq moddalar, alkaloidlar, dastlabki sintetik dorivor moddalar sintez qilindi, oqsillar va peptidlarning kimyoviy tabiatini aniqlandi.

XX asrning birinchi yarmidan organik kimyoni rivojlanishiga juda katta ta’sir ko’rsatgan yangi metodlar – fizik tadqiqot usullari, elektron nazariyalari tatbiq qilina boshlandi.

Zamonaviy sintetik va nazariy organik kimyoni fizik metodlarsiz tasavvur qilish qiyin. Fizik metodlar organik birikmalarning tuzilishini va reaksiya mexanizmini aniqlashni sezilarli darajada osonlashtiradi. Zamonaviy organik kimyo o’ziga xos sintez usullari, moddalarni samarali ajratish va tozalash metodlariga ega. Zamonaviy elektron nazariyasi va kvant kimyo tushunchalari organik kimyoning nazariy asosini tashkil qiladi.

Organik kimyo fanining vazifalari quyidagilardan iborat: tabiiy manbalaridan alohida moddalarni ajratib olish; birikmalarni sintez qilish va tozalash; tabiiy yoki sintetik moddalarning tuzilishini aniqlash; reaksiyalar mexanizmini, hamda tuzilish va reaktion qobiliyat orasidagi bog’liqlikni aniqlash.

Organik kimyo biologiya fanlari bilan uzviy bog’liq. Biokimyo va organik kimyo fanlari negizida yangi ilmiy yo’nalishlar – molekulyar biologiya va bioorganik kimyo fanlari vujudga keldi. Molekulyar biologiya fanining vazifasi tabiiy jarayonlarni, ayniqsa, oqsillar va nuklein kislotalarni molekulyar darajada o’rganishdan iborat. Organik kimyo fani farmatsevtika, farmakologiya, qishloq xo’jaligi bilan bevosita bog’liq.

Organik kimyoning yutuqlari bevosita sanoat organik sintezining rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. O’z navbatida sanoat organik sintezi nazariy va sintetik organik sintez sohalari oldiga yangi vazifalarni qo’ymoqda.

Hozirgi paytda har qanday davlatning iqtisodiy imkoniyatlari va kuch-qudrati kimyo sanoatining, jumladan, sanoat organik sintez va neftkimyo sintezi rivojlanish darajasi bilan baholanadi. Chunki mazkur sohalar neftni, tabiiy gazni, toshko’mirni qayta ishlash, sintetik kauchuk, polimer materiallar, bo’yoq moddalar, dori moddalari, qishloq xo’jaligida ishlatiladigan organik moddalar ishlab chiqarishni o’z ichiga oladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, organik moddalarning dastlabki manbayi o’simlik va hayvonot organizmlari va ularning hayot faoliyati mahsulotlari bo’lgan. Har bir tirik organizmni sintez va parchalanish jarayonlari ketadigan

o'ziga xos tirik laboratoriya deyish mumkin. O'simlik hujayralarda oddiy moddalardan murakkab organik birikmalar hosil bo'ladi (otosintez). Hayvonot organizmlarida aksincha, murakkab organik moddalar soddaroq moddalargacha parchalanadi, ulardan ayrimlari energiya ajratib chiqarib, karbonat angidrid va suvg'a aylanadi. Shu bilan birgalikda organizmda o'ziga xos oqsillar, yog'lar va boshqa birikmalar sintez qilinadi. O'simliklarni olinadigan birikmalarni kimyoviy qayta ishlash natijasida xilma-xil mahsulotlar olinadi. Masalan, yog'ochni qayta ishlab sellyuloza, metil spirti, sirk aksidosi, aseton, fenollar kabi mahsulotlar olinadi.

Tabiatda organik moddalar to'xtovsiz o'zgarib turadi. Organik moddalar havo kislороди та'sirida asta-sekin parchalanadi yoki boshqa jarayonlar sodir bo'lib turadi. Buning natijasida metan, ammiak, mochevina kabi moddalar hosil bo'ladi. Agar parchalanish havosiz muhitda sodir bo'lsa uglerodga boy bo'lgan mahsulotlar, masalan, ko'mir, torf hosil bo'lishi mumkin.

Toshko'mirni quruq haydash natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlar – toshko'mir smolasi, koks gazi va smoladan qolgan suv har xil organik moddalarni, asosan aromatik birikmalarni olish uchun muhim xomashyo manbayi hisoblanadi.

Hozirgi paytda organik moddalarning asosiy manbayi neft va gaz hisoblanadi. Ayrim nazariyalarga ko'ra neft va tabiiy gaz qadimgi vaqtarda qirilib ketgan organizmlarning qoldiqlaridan hosil bo'lgan. Neftni qayta ishlash natijasida suyuq yoqilg'ilar bilan birga sanoat organik sintezi uchun zarur bo'lgan uglevodorodlar, masalan, alkenlar olinadi.

Neft va gazning zaxiralari cheklangan bo'lganligi uchun organik va neftkimyoviy sintez uchun yangi xomashyo manbalarini topish asosiy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday manba sifatida asosan sellyuloza va soddaroq uglevodlardan iborat bo'lgan o'simlik biomassasidan foydalanish mumkin. Karbonat angidrid asosida organik moddalar, xususan uglevodorodlar olish dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi paytda uglevodorod xomashyosining qulay va arzon manbalarini topish bo'yicha dunyo miqyosida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida S.Yu.Yunusov, O.S.Sodiqov, H.A.Aslonov, H.N.Aripov, Sh.I.Solihov, S.I.Iskandarov, A.S.To'rayev kabi yetakchi olimlar mamlakatimizda o'sadigan o'simliklar tarkibidagi organik moddalarni ajratib olish, ulardan tibbiyotda va sanoatda foydalanish usullarini ishlab chiqdilar, hamda amaliyatga joriy etdilar. A.B.Qo'chqorov alkillash reaksiyalarini, fiziologik fisiol moddalar olish, metallarni korroziyadan himoyalovchi ingibitorlar sintez qilish reaksiyalarini o'rgangan. Q.A.Axmerov, D.Yu.Yusupov, S.M.Turobjonov, A.Ikromovlar tomonidan atsetilenning azotli birkmalar bilan katalitik reaksiyalarini o'rganilib, maqsadli va selektiv katalizatorlar ishlab chiqildi. Atsetonitril va piridin asoslari va ularning hosilalari sintez qilinib amaliyatga joriy etildi.

A.S.Sultonov, M.F.Abidova, A.Abdugodirov, X.M.Mahkamov, A.K.Hasanov, M.P.Yunusov kabi taniqli olimlar tomonidan dekarboksillash,

dekarbonillash, gidridlash, uglevodorodlarni oltingugurtdan tozalash reaksiyalari uchun yangi katalizatorlar ishlab chiqildi va neft kimyosi muammolari bilan shug‘ullanib, o‘z ilmiy natijalarini amaliyatga joriy etdilar.

A.G.Mahsumov, O‘.O.Obidov, N.Madixonov, E.A.Mirzaboyev, T.Yu.Nasriddinov, I.A.Abdug‘furov, T.Q.Inaqov kabi olimlar tarkibida propargil guruhi saqllovchi organik moddalardan geterosiklik birikmalar sintez qilish usullarini ishlab chiqdilar.

H.U.Usmonov, M.A.Asqarov, S.SH.Rashidova, A.A.Yulchibayev, G‘.Xamroqulov, O‘.N.Musayev va boshqa olimlar organik birikmalar asosida yuqori molekulyar birikmalar sintez qilish va ushbu birikmalarni amaliyatga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar olib bordilar.

H.M.Shohidoyatov, L.M.Yun ko‘plab tabiiy biologik faol geterosiklik birikmalar sintez qilish usullarini ishlab chiqdilar.

A.A.Abduvahobov, D.N.Dolimovlar fosfororganik birikmalar sintez qilish va ularni amaliyatga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar.

1997-yilda I.R.Asqarov va T.T.Risqiyevlар tomonidan taklif etilgan «Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash» ixtisosligining rivojlanishida A.A.Ibragimov, G‘.Hamroqulov, Q.M.Karimqulov, M.Rahimjonov, A.A.Namozov, B.Yo.Abdug‘aniyev, M.Isaqov, O.Qulimov, Sh.M.Qirg‘izov, A.M.Jo‘rayev, N.X.To‘xtaboyevlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

## 1-§. ORGANIK MODDALARNI TOZALASH USULLARI

Organik moddalar bilan insoniyat qadimdan bevosita aloqada bo'lib kelganligi tufayli ulardan foydalananish, ajratib olish, saqlash usullarini bilganlar. Spirtli bijg'ish natijasida hosil bo'lgan etil spirtini haydash yo'li bilan ajratib olish usulini yoki sumalakni uzoq muddat qaynatganda qaynatish markazi hosil qilish uchun mayda toshlar qo'shib qaynatish zarurligidan amalda foydalanganlar.

Organik kimyoni alohida fan sifatida rivojlanishi ushbu moddalarni toza holda ajratib olib ularni xossalarni o'rganish usullari ham rivojlanib bordi.

Organik moddalarni ishlatish va ularning xossalarni o'rganishda ularni toza (individual) holatda ajratib olish zarur bo'ladi.

Tabiatda uchraydigan, hamda laboratoriyalarda va sanoatda olinadigan organik moddalar odatda aralashma holatida bo'ladi. Moddalarning tozaligini belgilovchi muayyan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar, masalan, suyuqlanish temperaturasi, kristallanish temperaturasi, nur sindirish ko'rsatkichi, zichligi, yutilish spektrlari haqida ma'lumotlar, xromatografik tahlil va boshqalar mavjud bo'lib, ular moddalarning tozalik darajasiga qarab o'zgarishi mumkin, toza moddalar uchun esa doimiy bo'ladi.

Toza modda olish uchun aralashmani alohida komponentlarga ajratish va kerakli tozalik darajasigacha tozalash zarur. Buning uchun ajratish va tozalash metodlaridan foydalaniлади. Hozirgi paytda gaz xromatografiyasi, yuqori bosim ostidagi suyuqlik xromatografiyasi kabi, yuqori tozalikdagи moddalarni olish imkoniyatini beradigan ajratish metodlari mavjud bo'lib, ular amalda keng qo'llanilmoqda.

**Kristallah.** Qattiq moddalarni tozalashning azaldan qo'llanib kelinadigan metodi. Ushbu metod turli xil moddalarni ma'lum erituvchilarda har xil eruvchanligiga asoslangan bo'lib, bunda temperaturaning pasayishi aksariyat holatlarda moddalarning eruvchanligini kamayishiga olib keladi. Qaynoq eritmani filtrlab erimaydigan qo'shimchalar ajratiladi va eritma sovitulganda erigan modda kristallanadi. Qayta kristallah yo'li bilan moddaning tozaligini yanada oshirish mumkin. Ushbu metodning varianti *suyuqlanmadan kristallah hisoblanadi*.

**Sublimatsiya.** Qattiq holatdagi moddani suyuqlanmasdan gaz holatiga o'tish jarayoni sublimatsiya deb ataladi. Bir qator kristall moddalar sublimatlanish, ya'ni qattiq fazadan bevosita gaz fazasiga o'tish va keyin gaz fazasidan kristallanish qobiliyatiga ega. Bundan foydalanib sublimatlanadigan moddalarni ajratish va tozalash mumkin. Agar moddalar qiyin sublimatlansa yoki yuqori temperaturalarda parchalansa, vakuumda sublimatlash usulidan foydalaniladi.

**Haydash usuli.** Ushbu usul yordamida moddalarni tozalash amalda eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Ko'plab oson suyuqlanadigan moddalar va suyuqliklar fraksiyaga bo'lib haydash, ya'ni distillyatsiya yo'li bilan tozalanadi. Mazkur metod ham moddalarni tozalashda qo'llaniladigan qadimiy metodlardan biridir. Bunda aralashmadagi moddalarning qaynash temperaturalari orasidagi farq kattaroq bo'lishi va azeotrop aralashmalar hosil bo'lmagligi kerak. Fraksiyaga bo'lib haydash metodining samaradorligini oshirish uchun maxsus qurilmalardan, masalan, deflegmatorlar va distillash kolonnalaridan foydalanish mumkin. Qaynash temperaturalari yuqori bo'lgan yoki qaynash temperaturasida parchalanadigan moddalarni tozalash uchun *vakuumli haydash* usuli, shuningdek, sovitilganda qatlamlarga ajraladigan sistemalarni haydash uchun *suv bug'i bilan haydash* usuli qo'llaniladi.

**Xromatografiya.** Organik moddalarni toza holda ajratib olishda keng qo'llaniladigan uslublardan biri xromatografiya usulidir. Xromatografik ajratish metodlari ilmiy-tadqiqot ishlarida va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar moddalarning sorbent sirtida adsorbillanish qobiliyatiga yoki ikkita aralashmaydigan fazalar o'rtaida taqsimlanishiga asoslangan. Bunda fazalardan biri (suyuq faza) sorbent sirtida bo'ladi. Shuning uchun xromatografik metodlar suyuqlik adsorbsion, taqsimlanish va gaz xromatografiya turlariga bo'linadi.

Suyuqlik *adsorbsion xromatografiya* moddalarning sorbent sirtida turlicha sorbillanish va erituvchi-elyuyent o'tkazilgan desorbillanish qobiliyatiga asoslangan. Sorbent sifatida aluminiy oksidi, silikagel, polisaxaridlar (masalan, dekstranlar) yoki erituvchida bo'kib gel hosil qiluvchi polimerlar qo'llaniladi.

Ajratish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi: 1) xromatografik kolonkalarda; 2) sorbentning yupqa qatlamida.

Suyuqlik *taqsimlanish xromatografiyası* adsorbsion xromatografiyaning bir turi bo'lib, sorbent qandaydir suyuqliknинг yupqa qatlami bilan qoplanadi. Elyuyent sorbentdagи suyuqlik bilan aralashmaydigan erituvchi hisoblanadi. Elyuyent o'tkazilganda moddalar suyuq faza va elyuyent o'rtaida taqsimlanadi. Xromatografiya usulining rivojlanishi oqibatida 1903-yilga kelib rus olimi M.S.Svet tomonidan alohida ixtisoslik sifatida ta'rif berildi.

## **2-\$. ORGANIK KIMYONING NAZARIY ASOSLARI HAQIDA MA'LUMOT**

Kimyoviy moddalarning tuzilishi va xossalari qadimdan tabiatshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va reaksiyon qobiliyati haqidagi, ya'ni molekuladagi atomlarning o'zaro birikishi, ularning o'zaro ta'siri va reaksiya borishi haqidagi nazariya organik kimyoning nazariy asoslari hisoblanadi.


Organik kimyo fanining nazariy asoslarini mazkur qisqa bo'lim doirasida to'la yoritib bo'lmaydi. Shuning uchun fanning eng muhim nazariy tushunchalari bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Organik kimyo tarixida organik birikmalarning tuzilishi haqidagi birinchi nazariya *radikallar nazariyasi* hisoblanadi. Bu nazariyaning shakllanishida Y.Berseliusning kimyoviy bog'larning elektrokimyoviy nazariyasi asos bo'lgan. Ushbu nazariyaga ko'ra (dualistik nazariya) barcha birikmalar o'zaro elektrostatik tortishuv kuchlari bilan ta-sirlashadigan musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalardan tashkil topadi. Organik birikmalarda zaryadlangan zarrachalar sifatida alohida atomlargina emas, radikallar deb ataladigan atomlar guruhlari bo'lishi ham mumkin. Radikallar noorganik moddalardagi elementlar sifatida qaralgan, ular kimyoviy reaksiyalarda o'zgarishsiz qoladi deb faraz qilingan. Shunday radikallardan birinchisi Yu.Libix va F.Vyoler tomonidan o'rganilgan, benzoy kislotasi, benzaldegid va benzoil xlorid-dagi benzoil radikali bo'lgan.

Radicallar nazariyasi o'sha paytda organik birikmalarning tuzilishi va xossalari tushuntiruvchi eng ishonarli nazariya sifatida qaralgan. Ushbu nazariya asosida organik moddalarni sinflash, hali noma'lum bo'lgan birikmalarning mavjud bo'lishini bashorat qilish imkoniyatini bergen.

Lekin keyinchalik radikallar nazariyasi organik birikmalarning tuzilishi va xossalari to'g'ri ta'riflay olmasligi ma'lum bo'ldi. Misol uchun, fransuz kimyogari J.Dyuma o'z tajribalarida organik birikmalar tarkibidagi vodorod atomi xlor atomiga almashinishi mumkinligini aniqladi (metalepsiya hodisasi). Shunday qilib radikallar nazariyasiga zid ravishda hodisa kuzatildi: musbat zaryadlangan vodorod manfiy zaryadlangan xlorga almashdi.

Bu hodisani tushuntirish uchun J.Dyuma yangi nazariyani – *tiplar nazariyasini* taklif qildi. Endi organik moddalalar tiplar bo'yicha sinflanishi taklif qilindi. Masalan, sirkva xlorsirkva kislotalari bitta tipga mansub bo'ldi. Ushbu nazariya bir xil tipga mansub yangi kimyoviy moddalalar sintezi uchun asos bo'ldi. Masalan, A.Gofman va A.Vyurs ammiak tipidan kelib chiqib birinchi marta ammiakning analoglari – aminlarni sintez qildilar va ularning formulalarini quyidagicha tarzda ko'rsatdilar:



Tiplar nazariyasini XIX-asrning 50-yillarida Fransiyalik olimlar Sh.Jerar va O.Loran tomonidan ishlab chiqilgan unitar nazariya rivojlantirdi. Unitar nazariyaga *o'rin olish prinsipi* asos qilib olindi. Barcha organik birikmalar ma'lum tiplardagi vodorod atomlarining o'rnnini organik guruhlar – radikallar olishidan hosil bo'ladi. Asosiy tiplar quyidagilar:

$\begin{array}{c} \text{H} \\   \\ \text{H} \end{array}\right\} \text{O}$	$\begin{array}{c} \text{H} \\   \\ \text{H} \end{array}\right\} \text{N}$	$\begin{array}{c} \text{H} \\   \\ \text{H} \end{array}\right\}$	$\begin{array}{c} \text{H} \\   \\ \text{Cl} \end{array}\right\}$
Suv tipi	Ammiak tipi	Vodorod tipi	Vodorod xlorid tipi


Unitar nazariya asosida organik birikmalarning yangi sinflari, masalan, angidridlar, ko'p atomli spirtlar mavjudligi bashorat qilindi va sintez qilindi. Ushbu nazariya bo'yicha molekulada atomlarning joylashuvini bilish imkoniyati cheklangan edi. Unitar nazariya ayrim izomeriya hodisalarini, masalan,  $\text{C}_4\text{H}_{10}$  formulali ikkita izomer uglevodorod borligini tushuntirib bera olmadidi. Bunday izomeriya «nozik izomeriya» deb atalgan.

Organik kimyoning rivojlanib borishi davomida kimyoviy tuzilishini unitar nazariya tushuntirib bera olmaydigan yangi birikmalar olindi. E.Frankland *valentlik* tushunchasini, ya'ni kimyoviy elementlarning ma'lum miqdordagi boshqa element atomlarini biriktirib olish qobiliyatini haqidagi tushunchani taklif qildi. A.Kekule birinchi marta uglerod atomining to'rt valentligi prinsipini ishlab chiqdi va uglerod atomlari o'zaro birikib zanjir hosil qila olishini isbotladi. U organik birikmalarning yangi tipi – metan tipini taklif qildi.

1860-yilga kelib organik moddalar tarkibidagi har xil guruhlar bitta birikmadan ikkinchisiga o'tishi, bir atomning o'rnnini ikkinchisi olishi mumkinligi, atomlar o'zaro muayyan nisbatlarda birikishi qonuniyat tarzida mustahkamlandi. Lekin birikmaning tarkibi va xossalari orasidagi bog'liqlik, molekulalarda atomlarning birikishida ma'lum tartib, ketma-ketlik mavjudligiga hali oydinlik kiritilmagan edi.

1861-yil 19-sentabrda rus kimyogari A. Butlerov Germaniyaning Karlsrue shahrida bo'lib o'tgan nemis tabiatshunoslari va shifokorlarining syezdida organik birikmalarning tuzilishiga oid o'zining yangi qarashlarini bayon qildi. U molekulada atomlarning joylashish tartibini ifodalovchi *struktura* tushunchasini taklif qildi. Shunday qilib *struktura nazariyasi* yoki *kimyoviy tuzilish nazariyasi* vujudga keldi.

Molekulada atomlarning birikish ketma-ketligini tasvirlash uchun A. Butlerov atomlar o'rtasida chiziqchalardan foydalanishni taklif qildi. Masalan, metan molekulasi quyidagicha tasvirlanishi mumkin:



A. Butlerov nazariyasi quyidagicha ta'riflanadi:

- organik moddalarning molekulalarida atomlar qat'iy ketma-ketlikda bog'lanadi va bunday bog'lanish kimyoviy struktura (tuzilish) deyiladi;
- moddalarning kimyoviy xossalari ularning tarkibiga kiruvchi elementlar tabiatiga, miqdoriga va kimyoviy tuzilishiga bog'liq;
- agar bir xil tarkibli va molekulyar massali moddalar har xil tuzilishga ega bo'lsa, izomeriya hodisasi vujudga keladi;
- muayyan reaksiyalarda molekulaning bir qismi o'zgarishga uchraganligi uchun reaksiya mahsulotining tuzilishini tadqiq qilish boshlang'ich moddalar tuzilishini aniqlash imkonini beradi;
- molekula tarkibidagi alohida atomlarning kimyoviy tabiatiga (reaksion qobiliyatiga) ularni atrofida joylashgan atomlar ta'sir ko'rsatadi.

Kimyoviy tuzilish nazariyasi o'sha vaqtgacha to'plangan nazariy va tajriba materiallarini muayyan tizimga soldi. Tuzilish nazariyasi belgilangan xossalarga ega bo'lgan yangi organik birikmalarni oldindan aytib berish va ularni sintez qilish yo'llarini belgilab berdi. Organik kimyoning keyingi rivojlanishi tuzilish nazariyasining to'g'riligini isbotladi. Stereokimyoviy va kvant-kimyoviy tushunchalar bilan boyitilgan tuzilish nazariyasi hozirgacha organik kimyoning nazariy poydevori bo'lib kelmoqda.

A.M. Butlerov tomonidan taklif etilgan tuzilish nazariyasi o'z davrining yetuk ilmiy xulosasi bo'lishi bilan birga organik molekulalardagi bir qator holatlarni izohlab berishga ojizlik qilar edi. Oddiy sharoitda metan, etan kabi uglevodorodlar gaz holatda bo'ladilar. Ulardagi bittadan vodorod atomi gidroksil yoki karboksil funksional guruhlariga almashinishi natijasida hosil bo'lgan metil spirti, etil spirti, sirka kislotasi, propion

kisolotasi kabi mahsulotlar suyuq holatda bo‘lishi sabablarini izohlab bera olmas edi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Kimyoviy tuzilish nazariyasi rus olimlari A.M.Zaysev, V.V.Markovnikov, A.Y.Arbusov va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. 1874-yilda niderlandiyalik fizik Ya.Vant-Goff va undan mustaqil ravishda fransiyalik kimyogar J.Le Bel to‘yingan uglerod atomining fazoviy tuzilishi – o‘rinbosarlarning tetraedrik joylashuvi haqidagi farazni ilgari surdilar. Asimmetrik uglerod atomi va optik izomeriya (ko‘zgu izomeriyasi) haqidagi tushuncha optik faol moddalar mavjudligini tushuntirish imkoniyatini berdi. Shunday qilib kimyo fanlari ichida yangi nazari soha – stereokimyoga asos solindi.

Biroq, molekulada atomlar qanday qilib bir-biri bilan bog‘lanadi va molekulalar muayyan fazoviy tuzilishga ega bo‘lishini tushuntirib bera oladigan tasavvur yo‘q edi. Atom tuzilishi kashf etilgandan va kimyoviy bog‘ning *elektron nazariyasi* ishlab chiqilgandan keyin kimyoviy bog‘ tabiatini o‘rganishdagi yangicha tushunchalar paydo bo‘ldi.

Organik moddalaragi kimyoviy bog‘larni tushuntirish uchun 1916- yilda G.Lyuis va V.Kossel tomonidan noorganik moddalar uchun ishlab chiqilgan *dublet-oktet prinsipi* qo‘llanilgan. Lyuisning izohlashicha molekula hosil bo‘lishi uchun atomlar o‘rtasida har ikkala atom uchun umumiyligi bo‘lgan juft elektronlar mavjud bo‘ladi. Natijada atomlar o‘zaro tortishib molekulani hosil qiladi. Kosselning fikricha esa molekula hosil bo‘lishi uchun musbat va mansiy zaryadga ega bo‘lgan ionlar o‘zaro tortishishlari evaziga molekula hosil bo‘ladi. Shunday qilib Lyuis kovalent bog‘li molekula hosil bo‘lishini, Kossel esa ion bog‘li molekula hosil bo‘lishini nazariy jihatdan asoslab berdilar.


1919-yilda I.Lengmyur *kovalent bog‘* tushunchasini fanga kiritdi. Kovalent bog‘dagi elektronlar ikkala atom uchun umumiyligi, shu bilan birgalikda tegishli atomning dubleti yoki okteti tarkibiga ham kiradi. Masalan,

$\begin{array}{c} \text{H} \\ \cdot \\ \text{H} : \text{C} : \text{H} \\ \cdot \\ \text{H} \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{H} \quad \text{H} \\ \cdot \quad \cdot \\ \text{H} : \text{C} : \text{C} : \text{H} \\ \cdot \quad \cdot \\ \text{H} \quad \text{H} \end{array}$
metan	etan

Elektronlar nuqtalar ko‘rinishida ifodalangan formulalar Lyuis formulalari deyiladi.

Dublet-oktet nazariyasi asosida kimyoviy bog‘larni, jumladan, kovalent bog‘ni sinflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu nazariyaga ko‘ra


kovalent bog‘ ikki xil yo‘l bilan hosil bo‘lishi mumkin. Birinchisi bo‘yicha kovalent bog‘ hosil bo‘lishida har bir atom bittadan elektroni bilan qatnashadi.



Ikkinchisi bo‘yicha esa bitta zarracha bo‘s sh orbitalini, ikkinchisi taqsimlanmagan elektronini beradi.



Bunday bog‘lanish koordinatsion yoki donor-akseptor bog‘lanish deyiladi. Koordinatsion bog‘lanishni boshqa kimyoviy bog‘lardan farqini aminlarning N-oksidlarini hosil bo‘lishida ko‘rish mumkin:



Bunda azot va kislorod atomlari orasida koordinatsion bog‘ hosil bo‘ladi. Ikkala zarracha ham neytral, kovalent bog‘ hosil bo‘lishi natijasida elektronlar qayta taqsimlanadi va kislorod atomi manfiy, azot atomi esa musbat zaryadlanib qoladi. Ba‘zan koordinatsion bog‘ni ifodalash uchun strelkadan foydalaniladi:  $(\text{CH}_3)_3\text{N} \rightarrow \text{O}$ .

Ikkita neytral zarracha o‘rtasida hosil bo‘lgan koordinatsion bog‘ organik kimyoda *semipolyar bog‘* (lotincha *semi* – yarim) deyiladi. Amalda semipolyar bog‘ kovalent bog‘ hisoblanadi. Bunda qo‘shtibog‘ hosil bo‘lishi mumkin emas, chunki to‘limgan orbital mavjud emas.

Dublet-oktet nazariyasi faqat kichik davrlarning elementlarigagina qo‘llanilishi mumkin. Katta davrlardagi elementlar atomlari 10–12 ta elektronli barqaror bog‘lar hosil qila oladi.

Klassik elektron nazariya negizida kimyoviy bog‘larda elektron siljishlar haqidagi tasavvurlar ishlab chiqildi. Elektron siljishlar ikki xil element o‘rtasida hosil bo‘lgan deyarli barcha kimyoviy bog‘larda kuzatiladi. Har bir element atomi yadro zaryadiga va atom radiusiga ega. Atomning yadro zaryadi va atom radiusi atomning elektronni o‘ziga tortish qobiliyatini belgilaydi. Atom elektronlarni qanchalik kuchli tortsa, kimyoviy bog‘dagi shu atom tomoniga elektron siljishi ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Elektronni tortish qobiliyatini tavsiflash uchun elektromanfiylik shkalasi ishlab chiqilgan. Elektromanfiylik-molekuladagi atom yoki atomlar guruhini elektronlarni o‘ziga tortish qobiliyatining o‘lchovidir. Bunday shkala birinchi marta amerikalik fizik-kimyogar L.Poling tomonidan ishlab chiqilgan. Atomning elektromanfiyligi qanchalik katta bo‘lsa, uning elektronga moyilligi ham shuncha yuqori bo‘ladi.


Agar kimyoviy bog' elektromansiyligi har xil bo'lgan elementlar orasida hosil bo'lgan bo'lsa, manfiy zaryad elektromansiyroq atomda ko'proq bo'ladi, ya'ni qutblanish sodir bo'lib, kimyoviy bog' qutbli bo'lib qoladi. Kimyoviy bog'da elektronlar zichligi notebris taqsimlangan bo'lsa bunday bog' *qutbli* deyiladi. Bog'larni qutblanishi organik kimyoda katta ahamiyatga ega. Bir qator reaksiyalarning tezligi va yo'nalishi bog'larning qutblanishiga bog'liq.

Organik birikmalarda ko'pincha vodorod bog' ham uchraydi. Vodorod bog'larning hosil bo'lishi natijasida molekulyar massasi bir xil bo'lgan yoki bir-biriga yaqin bo'lgan moddalarning qaynash temperaturalari bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan,

	$\text{CH}_3\text{-O-CH}_3$	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{-OH}$	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{-NH}_2$
Molekulyar massasi	46	46	45
Qaynash temp. °C	-23,7	78,4	16,6

Vodorod bog' elektromansiyligi kuchli atom (F, O, N, Cl kabi) bilan birikkan vodorod atomi va boshqa molekulaning elektronodonor (taqsimlanmagan elektronlar justi tutuvchi) atomi (N, O, S va b.) o'rtaida hosil bo'ladi. Bunda vodorod atomi akseptor sifatida qatnashadi. Chunki vodorod atomi qutbli kovalent bog' bilan bog'langanligi uchun qisman musbat zaryadlanib qoladi. Shunday qilib, vodorod bog'ni elektrostatik o'zaro ta'sirlashuvning bir ko'rinishi sifatida qarash mumkin.

Vodorod bog' kovalent bog'ga nisbatan ancha kuchsiz. Masalan, O-H bog'inining energiyasi 460 kJ/mol bo'lsa, O...H – bog'ning energiyasi 20–42 kJ/molni tashkil qiladi. Shunga qaramasdan vodorod bog'larining miqdori ko'p bo'lganligi uchun birikmalarning fizikkimyoviy xossalariiga, masalan, qaynash, suyuqlanish temperaturalariga, eruvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan vodorod bog'lar hisobiga barqaror assotsiatlar hosil bo'lib, ushbu bog'lar modda qaynash temperaturasida ham parchalanmaydi va bug' holatda ham mavjud bo'ladi. Misol uchun sirka kislotasida shunday hodisa kuzatiladi.



Vodorod bog'lar tabiatda keng tarqalgan. Masalan, vodorod bog'lar oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlarning fazoviy tuzilishini, fizik-

kimyoviy va mexanik xossalariini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Vodorod bog‘larning nisbatan puxtaligi biologik jarayonlarda katta ahamiyatga ega. Organizmida vodorod bog‘larning doimiy parchalanib – hosil bo‘lib turishi moddalar almashinuvি jarayonining ajralmas qismidir.

Professor A.G.Mahsumov 1986-yilda Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan butun dunyoning yetakchi kimyogarlarasi ishtirokida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda tuzilish nazariyasini keyingi ilm-fan yutuqlariga tayangan holda rus olimlari A.M.Zaysev, V.V.Markovnikov, A.E.Arbuzov, V.M.Potapov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tatqiqotlar asosida quyidagicha ta’riflashni taklif etdi:

**«Murakkab zarrachaning tabiatи uning tarkibi hamda kimyoviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog‘liq».**

Ushbu umumlashgan nazariya kimyoviy moddalarning xossalari moddaning tashkil etuvchi molekulalar tarkibiga kiruvchi atomlarning joylanish tartibigagina emas, balki, atomlarni tarkibiga kiruvchi mikro-zarrachalarning ham joylanish tartibiga bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

### **3-§. ORGANIK BIRIKMALARNI SINFLANISHI, NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI**

Dastlab organik moddalar faqat tirik organizm tarkibidagina uchraydi deb qaralgan bo‘lsa, keyinchalik sintetik organik kimyo rivojlanishi natijasida organik moddalarning soni kun sayin o‘sib bordi. Natijada ularni alohida sinflarga bo‘lish va nomlash masalalarida kelib chiqqan muammolarni hal etish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi.

Organik birikmalarni xilma-xilligini hisobga olib, ularni o‘rganishni osonlashtirish uchun sinflash va nomlash yo‘lga qo‘yilgan. Sinflash va nomlashning asosiy vazifasi organik birikmalarni bo‘limlarga ajratish va ularni nomlashdan iborat. Organik birikmalarni sinflash va nomlashda mavjud nomenklatura va sinflash tizimi o‘zaro muvofiq kelishi zarur.

Tuzilish nazariyasi organik birikmalarni sinflashda asos bo‘lib xizmat qildi. Organik birikmalar ma’lum struktura birliklari (elementlari) va molekuladagi atomlarning joylanish tartibi bo‘yicha sinflash imkoniyati ochildi. Organik birikmalarni sinflash uchun ikkita asosiy tamoyil ishlab chiqildi:

1. Molekulada uglerod atomlarining joylashuvi bo‘yicha sinflash;
2. Xarakterli struktura elementlari bo‘yicha sinflash.

Organik birikmalarni sinflash tuzilish nazariyasi va kimyoviy bog‘ hosil bo‘lishi haqidagi zamonaviy tushunchalarga asoslangan. Organik kimyoning dastlabki rivojlanish bosqichlarida organik birikmalarni sinflashni muayyan tizimi mavjud emas edi. Barcha organik birikmalarning molekulasini tuzilishiga ko‘ra uchta katta guruhga sinflanadi:

1. Ochiq zanjirli birikmalar – *asiklik*, yoki *alifatik* birikmalar va ularning hosilalari, masalan alkanlar, alkenlar va h.k.

2. Karbosiklik birikmalar:

A) *alisiklik birikmalar* – siklda uglerod atomining soni turlicha bo‘lgan har xil siklik uglevodorodlar va ularning hosilalari, masalan, sikloalkanlar, sikloalkenlar va h.k.

B) *aromatik birikmalar* yoki *arenlar* va ularning hosilaari – siklda oltita uglerod atomi va uchta qo‘sibog‘ tutuvchi siklik uglevodorodlar, masalan, benzol, naftalin, bifenil va h.k.

3. Geterosiklik birikmalar va ularning hosilalari – siklda uglerod atomidan boshqa element atomlari tutuvchi siklik birikmalar, masalan, furan, pirrol, piridin va boshqalar.

Organik birikmalarni sinflashning ikkinchi asosiy tamoyili – xarakteristik guruhlar bo‘yicha sinflash. Uglerod zanjirida vodorod atomining o‘rnini qanday funksional guruh egallaganiga qarab ma’lum turdagi organik birikmalar sinfi hosil bo‘ladi. Masalan,

- uglevodorodlar;
- uglevodorolarning galogenli hosilalari;
- spirtlar;
- fenollar;
- aldegidlar;
- ketonlar;
- karbon kislotalar;
- aminobirikmalar;
- nitrobirikmalar;
- tiospirtlar;
- efirlar;
- uglevodlar va h.k.

Uglerod zanjirida uglerod atomlari bilan bog‘langan har xil o‘rinbosarlar yoki uglerod zanjiridagi bog‘larning turlari (oddiy bog‘ yoki karrali bog‘) struktura elementlari hisoblanadi. Ushbu elementlarni quyidagilarga ajratish taklif qilingan:

- a) nofunksional o‘rinbosarlar, masalan, -F, -Cl, -Br, -I, -NO<sub>2</sub> va b.
- b) funksional guruhlar, masalan, -NH<sub>2</sub>, -OH, -SH, >C=O, -COOH va b.

IYUPAK nomenklaturasi bo'yicha struktura elementlari *xarakteristik guruhlar* deyiladi.

Barcha organik moddalar uch xil nomenklatura bo'yicha nomlanadi:

1. Tarixiy nomenklatura.
2. Ratsional nomenklatura.
3. Xalqaro ilmiy nomenklatura.

Organik kimyoning dastlabki rivojlanish davrida organik birikmalar asosan olingan manbasiga, tashqi belgilariga qarab, masalan, chumoli aldegidi, vinospirti, limon kislotasi, oksalat kislotasi, glitsin, glitserin kabi nomlar tarixiy nomlardir.

Tarixiy nomlardan so'ng fan rivojlangan sari fikrlab, aqliy ratsional nomlash usullari ishlab chiqildi. Ratsional nomenklatura mezonlariga ko'ra barcha to'yingan uglevodorodlar metanning hosilalari deb, etilen qator uglevodorodlari etilenning hosilalari deb, barcha spirtlar metil spirtining hosilalari deb qaraladi. Masalan, metilmekan  $\text{CH}_3\text{CH}_3$ , dimetilmekan  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_3$ , dietilmekmetan  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$ , trimetilmekan  $(\text{CH}_3)_3\text{CH}$ , dimetiletilmekan  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$  kabi nomlar ratsional nomlardir.

Organik moddalarning sonini ko'payib ketishi ularni ratsional nomenklatura qoidalari asosida nomlashda bir qator muammolarni keltirib chiqardi. XIX asrning 80-yillariga kelib organik birikmalar uchun yagona kimyoviy nomenklaturani ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ldi. 1892-yilda Jeneva shahri (Shveysariya) da bo'lib o'tgan xalqaro kimyogarlar kongressida organik birikmalar nomenklaturasining yangi qoidalari tasdiqlandi. Ushbu qoidalari *Jeneva nomenklaturasi* yoki *rasmiy nomenklatura* deb nomlanadi. Jeneva nomenklaturasi bo'yicha mashhur Beylshteyn ma'lumotnomasi tuzilgan.

Organik birikmalarning turlari va soni ortib borishi bilan ularni nomlash murakkablashib bormoqda. Nomenklaturaga bag'ishlangan navbatdagi anjuman 1930-yilda Belgiyaning Lej shahrida bo'lib o'tdi. Unda nomenklatura qoidalari yangi qo'shimchalar kiritildi.

Keyingi paytda organik birikmalarning nomenklaturasini takomillashtirish bilan Nazariy va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi –IYUPAK (International Union of Pure and Applied Chemistry –IUPAC) shug'ullanadi. Ushbu tashkilotning 1957, 1965 va 1986-yillardagi kongresslarida maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan va *IYUPAK nomenklaturasi* deb ataladigan nomenklaturani tavsiya qildi. Mazkur nomenklatura ilmiy adabiyotlarda va darsliklarda keng qo'llanilmoqda.

IYUPAK ma'lumotlari ingliz tilida nashr etib boriladi. Shuning uchun boshqa tillarga tarjima qilinganda tegishli til qoidalari moslashtiriladi, lekin xalqaro qoidalarning asosiy tamoyillari saqlanib qolishi zarur.

IYUPAK qoidalari nomlarni keltirib chiqarish uchun bir nechta tamoyilni taklif qiladi. Birinchisi – o‘rin olish tamoyili. Unga ko‘ra o‘rinbosar nomenklaturasi ishlab chiqilgan. Ikkinci tamoyil – bir xarakteristik guruhlari (funksiyalar) va uglevodorod qoldiqlari (o‘rinbosarlar, radikallar) tamoyili. Ushbu tamoyilga muvofiq radikal-funksional nomenklatura ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari IYUPAK karbo- va geterosiklik birikmalar uchun maxsus nomenklatura ham ishlab chiqqan.

Organik birikmalarning har bir sinfidan vodorod atomini ugleroddan boshqa elementga yoki guruhgaga almashinishi natijasida tegishli hosilalar kelib chiqadi. Uglevodorod zanjiridagi o‘rinbosarlar *funktional guruhlari* deyiladi. Hosilalarning asosiy sinflari quyidagi jadvalda keltirilgan.

### *1-jadval*


#### **Asosiy funksional guruhlari va ularning nomlanishi**

Funktional guruuh	Nomi	Birikmaning sinfi	Umumiy formulasi
-Hal	Galogen	Galogenli hosilalar	R-Hal
-OH	Gidroksi-	Spirtlar va fenollar	R-OH
-OR	Alkoksi-	Oddiy efirlar	R-O-R'
-SH	Sulfgidril	Tiollar (merkaptanlar)	R-SH
-SO <sub>3</sub> H	Sulfo-	Sulfokislotalar	R-SO <sub>3</sub> H
-NO <sub>2</sub>	Nitro-	Nitrobirikmalar	R-NO <sub>2</sub>
-NH <sub>2</sub> , -NHR, -NRR'	Amino-	Aminobirikmalar	R-NH <sub>2</sub> , HNRR', NRR'R <sup>2</sup>
-N=N-	Azo-	Azobirikmalar	R-N=N-R'
C=O	Karbonil	Aldegidlar va ketonlar	$\begin{array}{c} \text{R}-\text{C}=\text{O} \\   \\ \text{H} \end{array}$ $\begin{array}{c} \text{R}-\text{C}=\text{O} \\   \\ \text{R}' \end{array}$
-COOH	Karboksil	Karbon kislotalar	R-COOH


O‘rinbosarlar va funksional guruhlari bitta va undan ortiq bo‘lishi, o‘rinbosarlar bir xil yoki har xil bo‘lishi mumkin. Bir turdag'i ikkita va undan ortiq o‘rinbosar tutuvchi birikmalar *gomofunktional* birikmalar deyiladi. Bunga diollarni, dikarbon kislotalarni misol qilish mumkin. Ikkita va undan ortiq har xil o‘rinbosar tutuvchi birikmalar *geterofunktional* birikmalar deyiladi. Bunga monosaxaridlarni, aminokislotalarni misol qilish mumkin. Geterofunktional birikmalarni qaysi sinfga taalluqli ekanligini aniqlash uchun o‘rinbosarlarning kattasi asos qilib olinadi.

O‘rinbosar nomenklaturasining asosiy qoidalari misol tariqasida keltirish mumkin:

- Organik birikma nomining asosini bosh struktura – molekulaning asosiy zanjiri yoki siklik sistema tashkil qiladi.
- Xarakteristik guruhlar va o'rindbosarlar (struktura elementlari) old qo'shimchalar va so'z oxiridagi qo'shimchalar bilan belgilanadi.
- Asosiy zanjirning uglerod atomlari 1 dan boshlab raqamlanadi.
- Xarakteristik guruhlar kattaligi bo'yicha tabaqalanadi. Masalan, xarakteristik guruhlarning kattaligi quyidagicha tartibda kamayib boradi.



Organik birikmalarning nomlarida karrali bog'lar va asosiy xarakteristik guruh so'z oxiridagi qo'shimcha bilan, qolgan o'rindbosarlar va xarakteristik guruhlar alifbo tartibida old qo'shimcha bilan belgilanadi. Asosiy zanjirdagi uglerod atomlari eng katta xarakteristik guruh joylashgan tomonidan raqamlanadi. Masalan,



2-brom-5-gidroksi-4-metilgeksen-2-al

Organik birikmalarning nomenklaturasi bilan to'laroq organik birikmalarning muayyan sinflarini ko'rib chiqish davomida tanishamiz.

#### **4-§. MOLEKULARDA ELEKTRON ZICHLIGINING TAQSIMLANISHI. ELEKTRON EFFEKTLLAR**

Kimyoviy jarayonlarda elektron zichliklari qayta taqsimlanadi. Reaksiyaning yo'nalishi va mexanizmi ma'lum darajada ta'sirlashuvchi molekulalardagi elektron zichliklarining taqsimlanishiga bog'liq. Aksariyat molekulalarda elektron zichligi notejis taqsimlangan bo'ladi.

Agar kimyoviy bog' har xil elektromanifiylikka ega bo'lgan atomlar o'rtaSIDA hosil bo'lgan bo'lsa, elektromanifiyligi yuqoriroq atomda elektron zichligi kattaroq bo'ladi va natijada qutblanish yuzaga keladi, ya'ni kimyoviy bog' qutbli bo'lib qoladi. Bunday o'zgarishlar effektiv zaryadlar yordamida aks ettiriladi. Masalan,



Atomlardagi effektiv zaryadlar elektron siljishi hisobiga hosil bo‘ladi. Effektiv zaryadlar yordamida kimyoviy bog‘dagi elektron zichligini notejis taqsimlanishini ko‘rish mumkin. Butun molekula bo‘yicha notejis taqsimlanish *dipol momenti* bilan ifodalanadi.

Kimyoviy bog‘dagi elektron siljish strelka yordamida ifodalanishi ham mumkin.



Elektron siljishlar karrali bog‘lar (qo‘shbog‘lar va uchbog‘lar) da ham kuzatiladi. Bunday holatlarda qutblanish kuchliroq bo‘ladi, chunki karrali bog‘lardagi elektronlar harakatchanroq bo‘ladi. Karrali bog‘lardagi elektron siljishlar yosimon strelkalar yordamida ifodalanadi. Masalan,




Agar molekulada elektronoakseptor atom yoki guruh (X), yoki elektronodonor atom yoki guruh (Y) bo‘lsa bog‘larning qutblanishi butun molekulaga ta’sir qiladi.

$\delta+$ $R \rightarrow Y$	$\delta-$ $R \leftarrow Y$
- effekt	+ effekt

Elektron effektlarning ikki xil turi mavjud: induktiv effekt yoki induksion ta’sir va mezomer effekt yoki oralatma (rezonans) effekt.

**Induktiv effekt.** Molekuladagi atomlar zanjiri bo‘yicha elektrostatik induksiya hisobiga zaryad o’tkazilishining tajribada kuzatiladigan effekti induktiv effekt deyiladi va *I* harfi bilan belgilanadi. Induktiv effekt tushunchasi J.Luis tomonidan taklif qilingan. Induktiv effekt musbat yoki manfiy bo‘lishi, ba’zida nolga teng bo‘lishi mumkin. Elektronodonor guruhlar ta’sirida musbat, elektronoakseptor o’rbinosarlar ta’sirida manfiy induktiv effekt hosil bo‘ladi.



$$(\delta''' < \delta'' < \delta')$$

Elektromanfiyligi yuqori bo'lgan xlor atomi uglerod-xlor bog'idagi elektron justini o'ziga tortishi natijasida uglerod atomida elektron taqchilligi vujudga keladi. Buning natijasida navbatdagi uglerod – uglerod bog'ida ham elektron silijishi kuzatiladi va h.k. Induktiv effektida elektron justlari kimyoviy bog'lardagi dastlabki oktet holatida qoladi, faqat joylashuv o'rni nisbatan o'zgaradi.


Induktiv effektning kuchi o'rnbosar tabiatiga bog'liq. Masalan, galogenalkanlarda fitoralkanlardan yodalkanlarga tomon manfiy induktiv effekt ortib boradi.

(\*) Induktiv effektning o'ziga xos xususiyatlardan biri uning uglerod zanjirining oddiy bog'lari bo'yicha tez so'nishidir. Buni tegishli birikmalarning xossalardan bilish mumkin.


**Mezomer effekt.** Mezomer effekt tarkibida bir nechta karrali bog'lar va taqsimlanmagan elektron justlar tutuvchi atomlarga ega bo'lgan molekulalarda kuzatiladi. Mezomer effekt ta'sirida elektron zichligi qayta taqsimlanadi. Biroq, induktiv effektdan farqli ravishda  $\delta$ -bog'lar orqali emas, asosan  $\pi$ -bog'lar va  $\rho$ -elektronlar vositasida vujudga keladi. Bundan tashqari, mezomer effektida kimyoviy bog'lardagi elektron justlari qisman qo'shni oktetlarga ko'chishi mumkin. Mezomer effekt ta'siri tutash  $\pi$ -bog'lar va  $\rho$ -elektronlar orqali butun zanjir bo'ylab elektron zichligi lokallashadigan oxirgi atomgacha tarqalishi kuzatiladi.

Kvant kimyo nuqtayi nazaridan elektron zichligining bunday ko'chishi qo'shni atomlarning tegishli orbitallarini o'zaro qoplanishi natijasida sodir bo'ladi. Orbitallarning o'zaro qoplanishi tegishli  $\rho$ -orbitallar parallel bo'lganda va fazoviy yaqin joylashganda amalga oshadi.

Elektronoakseptor guruhlar manfiy mezomer effektga ega (-M). Elektronoakseptor guruhlarga karbonil guruh, nitril guruh, nitro guruh kabilar kiradi.




Taqsimlanmagan elektronlar justiga ega bo'lgan, elektromanfiyligi yuqori bo'lgan atomlar elektronodonor ta'sir ko'rsatadi. Ular manfiy induktiv effekt (-I) va musbat mezomer effekt (+M) hosil qiladi,



-I; +M

Bunday elektronodonor o'rinxosarlarga galogenlar, aminoguruh, alkilaminoguruh, dialkilaminoguruh, alkoksiguruh kabilar kiradi. Mezomer effektning bunday ko'rinishi  $\rho,\pi$ -bog'lanish ham deyiladi. Jumladan, oqsillar va peptidlarning struktura birligi hisoblanadigan peptid (amid) bog'larida  $\rho,\pi$ -bog'lanish mavjud.


Alkil guruhlar elektronodonor guruhlar bo'lib, musbat induktiv effekt (+I) va musbat mezomer effekt (+M) hosil qiladi.




Bunday effekt *giperkonyugatsiya* deyiladi.

Giperkonyugatsiya, yoki  $\delta,\pi$ -bog'lanish  $\pi,\pi$ - va  $\rho,\pi$ -bog'lanishlarga qaraganda kuchsizroq. Chunki uglerod-vodorod bog'larining elektron bulutlari  $\rho$ -orbitalning o'qiga parallel bo'lмаган  $\pi$ -elektronlar bilan qoplanadi. Shuning uchun elektron bulutlarning qoplanishi to'liq bo'lmaydi.


Qo'shbog'ning  $\pi$ -elektronlari faqat qo'shni uglerod-vodorod bog'larining  $\delta$ -elektronlari bilan qoplama oladi. Shuning uchun  $\delta,\pi$ -bog'lanish effektining kuchi qo'shni uglerod-vodorod bog'larining soniga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, mezomer effekt metil guruhdan tarmoqlangan uglevodorod qoldiqlariga qarab kamayib boradi.



Tutash sistemalardagi elektron siljishlar, ya'ni elektron effektlar haqidagi dastlabki tushunchalar 1915-yilda rus kimyogari V.Izmailskiy tomonidan ilgari surilgan. Elektron effektlar haqidagi tasavvurlar va ularni sinflanishi tamoyillarini 1926–33-yillarda ingliz olimi K.Ingold ishlab chiqqan. Mezomer effektni tushuntirish uchun K.Ingold mezomeriya haqida tushunchani ishlab chiqdi. Ushbu tushunchaga muvofiq, real tutash sistemali molekulada elektron zichligining taqsimlanishi odatdag'i struktura formulalari bilan tasvirlangan ikkita struktura o'rtaсидаги oraliq holatdir.



Ingoldning mezomeriya haqidagi tasavvurlari 1928–38-yillarda L.Poling tomonidan ishlab chiqilgan *rezonans nazariyasiga* asos bo‘lgan. Poling nazariyasiga ko‘ra molekulani ikkita elektron formula o‘rtasida fluktuatsiyalanadigan va ushbu fluktuatsiyaning rezonans energiyasi hisobiga barqaror bo‘lgan ko‘rinishda ifodalash mumkin. Hozirgi paytda rezonans nazariyasi (mezomeriya-rezonans konsepsiysi) tutash elektron sistemali organik birikmalar molekulasida elektron zichligining taqsimlanishini sifat jihatdan tavsiflash usuli tarzida qaraladi. Real molekula elektron zichligi taqsimlangan rezonans strukturalar o‘rtasidagi oraliq struktura ko‘rinishida tavsiflanadi. Masalan, benzol 5 xil rezonans struktura bilan ifodalanishi mumkin:



## 5-§. KIMYOVIY BOG‘LANISH HAQIDAGI ZAMONAVIY TASAVVURLAR

Mikrozarrachalarning kimyoviy bog‘ hosil bo‘lishidagi ishtiroki atroflicha o‘rganilishi natijasida kimyoviy bog‘ to‘g‘risidagi tasavvurlar ham rivojlanib bordi. Kimyoviy bog‘lanish haqidagi klassik nazariya kvant-mexanik tushunchalar bilan takomillashtirildi. Kvant-mexanik nazariyaga asoslanib moddalardagi atomlar yadrolarini joylashuvini aniqlash mumkin, biroq yadro atrofida elektronlarning holatini taxminan hisoblab topish mumkin. Molekulada elektron zichligining taqsimlanishini aniqlab ayni moddadagi kimyoviy bog‘ tavsiflanadi. Buning uchun mikrozarrachalar mexanikasi, ya’ni to‘lqin mexanikasi asosida keltirib chiqarilgan tenglama – Shredinger tenglamasini yetarli aniqlikda yechish kerak. Bu tenglama 1926-yilda avstriyalik fizik E.Shredinger tomonidan taklif etilgan.


$$\frac{\partial^2 \psi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \psi}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \psi}{\partial z^2} + \frac{8\pi^2 m}{h^2} (E - U) \psi = 0$$

$\psi$ -elektronning to‘lqin funksiyasi,  $x, y, z$  fazoviy koordinatalar bo‘yicha funksiya;  $\psi^2$ -fazoning berilgan nuqtasida elektronni bo‘lishi ehtimolini ifodalaydi;  $E$ -elektronning to‘liq energiyasi;  $U$ -potensial energiya.


Hozirgi vaqtida Shredinger tenglamasi bitta elektronli sistemalar, masalan,  $H_2^+$  He<sup>+</sup> lar uchun to'liq yechilgan. Ko'p elektronli sistemalar uchun esa katta taxmin bilan hal qilingan.

Shredinger tenglamasini yechish natijasida elektron energiyasining qiymati  $E$  (xususiy energiya) va to'lqin funksiyasi  $\psi$  (shaxsiy funksiya) ning ifodalari kelib chiqadi. Vodorod atomidagi elektron uchun tenglama yechilganda  $E$  ning bir nechta mumkin bo'lgan qiymatlari hosil bo'ladi.  $E$  ning har bir qiymatiga  $\psi$  va  $\psi^2$  larning ifodalari, bundan kelib chiqib, fazoning elektronni mavjud bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lgan sohasi to'g'ri keladi. Shunday qilib, atomda (atom orbitallarda) elektronni har xil holatlari, ya'ni elektron orbitallar haqida tasavvur hosil bo'ladi. Bu orbitallar bizga noorganik kimyo kursidan ma'lum bo'lgan  $s, p, d, f$  – orbitallardir. Mazkur orbitallar bir-biridan energiyasi va fazoning elektron bo'lishi ehtimoli bo'lgan qismining tuzilishi bilan farq qiladi.

$s$ -holat yoki  $s$ -orbital sharsimon simmetriyaga ega. Sharning radiusi 0,14 nm ga teng.



$p$ -holat yoki  $p$ -orbital silindrsimon simmetriyaga ega. Uch xil  $p$ -holat bo'lishi mumkin:  $p_x$ ,  $p_y$  va  $p_z$ .



$p$ -orbital ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, ularni bog'lovchi (tugun) tekislik bog'lab turadi. Ushbu tekislikda elektronning bo'lishi

ehtimoli nolga teng. Bog'lovchi tekislikda to'lqin funksiyasining ishorasi o'zgaradi. Shuning uchun shartli ravishda p-orbital musbat va manfiy qismlarga bo'linadi.

Beshta *d*-holat mavjud bo‘lib, ular orbitallarning o‘ziga xos shakllari bilan xarakterlanadi.

Shredinger tenglamasi yordamida kimyoviy bog'ni tavsiflash uchun ba'zi bir boshlang'ich tushunchalar kerak bo'ladi. Elektronning kimyoviy bog'da yoki molekulada bo'lishi elektronning molekulyar to'lqin funksiyasi – molekulyar orbital (MO) bilan xarakterlanadi. Ushbu molekulyar orbitallar elektronning atom orbitallariga o'xshaydi, lekin bir nechta atomga tegishli bo'ladi. Agar atom orbitali elektronni atom yadrosining kuch maydonida bo'lishini xarakterlasa, molekulyar orbital elektronni bir nechta atomning kuch maydonida bo'lishini ko'rsatadi.


Bundan tashqari molekulyar orbitallar atom orbitallardan olingan funksiya bilan ifodalanadi. Molekulyar orbitallarni hisoblash uchun bir hechta taxminiy ifodalash, masalan, atom orbitallarning chiziqli kombinatsiyasi qo'llaniladi. Ikki atomli molekulalar uchun chiziqli kombinatsiya quyidagicha ifodalanadi:

$$\Psi = c_1 \psi_1 + c_2 \psi_2$$

$\psi_1$  va  $\psi_2$  — atom orbitallar,  $c_1$  va  $c_2$  — har bir atom orbitalning molekulyar orbitalidagi hissasini ifodalovchi koefitsiyentlar (xususiy vektorlar).

Dastlab  $c_1$  va  $c_2$  noma'lum,  $\psi$  ning qiymatlari Shredinger tenglamasiga qo'yiladi va minimallash prinsipi asosida tenglama yechiladi. Ikki atomli molekula uchun boshlang'ich holatga nisbatan kichik va katta energiyali ikkita molekuliyar orbital kelib chiqadi.

Kimyoviy bog'larda elektronlar bog'lovchi orbitalga joylashadi. Atom orbitali kabi molekulyar orbital ham bog'lovchi molekulyar orbital uchun eng kichik orbital energiyasi bilan xarakterlanadi. Orbitallar energiyasi elektronni kimyoviy bog'dan ajratib olish uchun zarur bo'lgan energiyaga teng bo'lgan ionlanish energivasi (ionlanish potensiali) bilan xarakterlanadi.



Ionlanish energiyasi teskari ishora bilan olingan orbital energiyasiga teng. Kimyoviy bog'ning bog'lovchi molekulyar orbitalidan elektronni ajratib olish tegishli atom orbitalidan ajratib olishdan qiyinroq.


Shredinger tenglamarasidan elektronni mayjud bo'lishi ehtimoli 90 % bo'lgan fazo konfiguratsiyasi haqida ma'lumot olish mumkin. Ta'sirlashayotgan atom orbitallarining turiga qarab har xil molekulyar orbitallar hosil bo'ladi. Mumkin bo'lgan molekulyar orbitallardan biri silindrishimon simmetriyaga ega bo'lib,  $\sigma$ -orbital yoki  $\sigma$ -bog' deyiladi. Bunday bog'lar  $x$  o'qi bo'yicha ikkita  $s$ -orbitalni yoki ikkita  $p_x$ -orbitalni o'zaro qoplanishidan hosil bo'ladi. Bo'shashtiruvchi  $\sigma$ -orbital  $\sigma^*$  bilan belgilanadi.

Molekulyar orbitallardan yana biri yassi simmetriyaga ega. Bunday molekulyar orbitallar  $x$  o'qi bo'yicha  $p_y$  va  $p_z$ , yoki  $p_z$  va  $p_y$  orbitallardan hosil bo'lishi mumkin. Mazkur ko'rinishdagi molekulyar orbitallar  $\pi$ -orbitallar yoki  $\pi$ -bog'lar deyiladi. Bo'shashtiruvchi  $\pi$ -orbital  $\pi^*$  bilan belgilanadi.


Bo'shashtiruvchi orbitallarda atomlar orasida bog'lovchi tekislik bo'lganligi uchun elektronlarning ushbu orbitallarda bo'lishi bog' hosil bo'lishiga sabab bo'lmaydi.

Organik birikmalarda atomlar odatda  $\sigma$ -bog'lar bilan bog'lanadi. Agar atomlar orasida ikkinchi bog' hosil bo'lishi mumkin bo'lsa bu bog'  $\pi$ -bog' bo'ladi. Oddiy bog'lar strukturning formulalarida bitta chiziqcha bilan, qo'shbog'lar ikkita va uchbog'lar uchta chiziqcha bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi nazariy tushunchalar asosida uglerodning to'rt valentlilagini izohlash qiyin. Chunki uglerod atomi tashqi elektron qavatida noekvivalent orbitallar, ya'ni bitta ikki elektronli  $s$ -orbital va ikkita toq elektronli  $p$ -orbital mavjud.



Uglerod atomining boshlang'ich  
normal holati



qo'zg'algan holati


Ushbu holatda *gibriddanish* haqidagi gipotezadan foydalaniladi. Mazkur gipotezaga ko'ra, har xil energiyali va har xil simmetriyali bir nechta atom orbitallardan shuncha bir xil energiyali va bir xil simmetriyali gibriddi orbitallar hosil bo'ladi. Gibriddanish faqat kimyoviy bog'lar hosil bo'lishidagina kuzatiladi, odatda qisman to'lgan atom orbitallari gibriddanadi.

Shunday qilib, uglerod atomida bitta  $s$ - va uchta  $p$ -orbitaldan to'rtta  $sp^3$  orbital hosil bo'ladi. Gibrild orbitalarning simmetriya o'qlari orasidagi burchak  $109^\circ 28'$  ni tashkil qiladi, ya'ni tetraedrik shaklga ega.


Gibrildlanishda bitta yoki ikkita  $p$ -orbital qatnashishi ham mumkin. Bitta  $p$ -orbital gibrildlanishda qatnashmasa  $sp^2$ -gibrildlangan uchta orbital hosil bo'ladi. Bunda simmetriya o'qlari bitta tekislikda joylashadi, ular orasidagi burchak  $120^\circ$  ni tashkil qiladi (trigonal burchak). Gibrildlanmagan  $p$ -orbitalning o'qi uchta gibrild orbital tekisligiga perpendikulyar yo'naladi.

Gibrildlanishda ikkita  $p$ -orbital qatnashmasa  $sp$ -gibrildlangan ikkita orbital hosil bo'ladi. Gibrild orbitalarning simmetriya o'qlari bitta to'g'ri chiziqda joylashadi (digonal burchak). Gibrildlanishda qatnashmagan  $p$ -orbitallar o'zaro perpendikulyar holatda bo'ladi.

$sp^2$  va  $sp$ -gibrildlanish haqidagi tasavvurlar yordamida qo'shbog'lar va uchbog'larning hosil bo'lishini tushuntirish va ularni tasvirlash mumkin. Gibrildlanish haqidagi gipoteza boshqa atomlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.



Xulosa qilib aytganda, organik birikmalarda ikki xil turdag'i bog'lar mavjud bo'lib,  $\sigma$ -bog'lar asosiy hisoblanadi,  $\pi$ -bog'lar va tutash  $\pi$ -elektronli sistemalar  $\sigma$ -bog'lar asosida hosil bo'ladi. Organik birikmalarda elektronlar qat'iy belgilangan energetik pog'onalarda, ya'ni molekulyar orbitallarda joylashadi.




Metan molekulasining qo'zg'alishi.

Agar barcha bog'lovchi molekulyar orbitallar elektronlar bilan to'lgan bo'lsa molekula asosida holatda hisoblanadi. Bunday holat  $S_0$  bilan

beglilanadi. Energiya yutilganda elektron energetik jihatdan yaqinroq bo'shashtiruvchi orbitalga ko'chishi mumkin. Shunday qilib molekula qo'zg'algan  $S_1$  holatga o'tadi.

Masalan, metan molekulasiда to'rtta  $\sigma$ -bog', to'rtta bog'lovchi molekulyar orbital va to'rtta bo'shashtiruvchi molekulyar orbital mavjud. Energiya yutilganda  $\sigma \leftrightarrow \sigma^*$  elektron o'tish bo'lishi mumkin.



Etilen molekulasining qo'zg'alishi.

Etilen molekulasiда beshta  $\sigma$ -bog' va bitta  $\pi$ -bog' mavjud.  $\pi$ -bog'dan elektronni ajratib olish osonroq, ya'ni  $\pi$ -elektronli sistemalar osonroq qo'zg'aladi.

## 6-§. ORGANIK REAKSIYALAR VA REAGENTLARNING TURLARI


Barcha organik reaksiyalar reaksiyaning qanday amalga oshish yo'nalishi va reaksiya natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlar asosida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, birikish reaksiyalari, parchalanish reaksiyalari, o'rin olish reaksiyalari, qayta gruppalanish yoki izomerlanish reaksiyalari, siklobirikish reaksiyalari va boshqa reaksiyalarga bo'linadilar.

Organik reaksiyalar kimyoviy o'zgarish yo'nalishi va mexanizmi bo'yicha sinflanadi.


1. Reaksiya yo'nalishi va oxirgi natijasiga ko'ra quyidagicha sinflanadi:

A) bitta elektronni ko'chishi bilan boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari:  $D: + A \rightarrow D\cdot + A\cdot$


B) birikish reaksiyalari (inglizcha *addition A*):




D) parchalanish reaksiyalari (inglizcha *elimination E*):




E) o'rin olish reaksiyalari (*inglizcha substitution S*):



F) qayta gruppalanish va izomerlanish reaksiyalari:



G) siklobirikish reaksiyalari:




Siklobirikish reaksiyasi deb ikkita va undan ortiq to'yinmagan molekuladan bitta siklik birikma hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyaga aytildi. Bunday reaksiyalarda karrali bog'larning umumiyligi soni kamayadi. Reaksiya peritsiklik yoki ko'p bosqichli bo'lishi mumkin.

Organik reaksiyalarda, asosan o'rinni olish reaksiyalarida ishtirok etuvchi moddalar substratlar va reagentlarga bo'linadi. Lekin bu sinflash shartli. Masalan, galogenalkanlar gidrolizlanish reaksiyalarida substrat, aromatik uglevodorodlarni alkillash reaksiyalarida reagent hisoblanadi.

2. Reagentlarning tabiatini va kovalent bog'ning uzilish turiga qarab reaksiyalar gomolitik, geterolitik va perisiklik reaksiyalariga bo'linadilar.

A) Gomolitik (radikal) reaksiyalar-kovalent bog'lar uzilishi natijasida radikallar, ya'ni toq elektronli zarrachalar hosil bo'ladigan reaksiyalar. Bunday reaksiyalarda yangi kovalent bog' ham reagentni, ham substratni radikali hisobiga hosil bo'ladi. Masalan, alkanlarning xlorlanish reaksiyasi xlor molekulasini atomlarga (radikallarga) parchalanishi bilan boshlanadi.




Gomolitik reaksiyalar gaz fazasida yoki qutbsiz erituvchi muhitida, yuqori temperatura yoki yuqori energiyali yorug'lik ta'sirida boradi.

B) Geterolitik (ionli) reaksiyalar – kovalent bog'ning qutblanishi natijasida ion juftlari hosil bo'lishi bilan boradi. Geterolitik reaksiyalar asosan qutbi erituvchilarda, mo'tadil temperaturalarda va ayrim holatlarda katalizator ishtirokida boradi.

D) Peritsiklik reaksiyalar – bog‘larning uzilishi va hosil bo‘lishi bir vaqtning o‘zida tutash siklik oraliq holat•orqali boradigan reaksiyalar. Bunday reaksiyalarga ayrim siklobirikish reaksiyalarini va qayta gruppalanish reaksiyalarini, jumladan elektrosiklik reaksiyalarini va sigmatrop qayta gruppalanish reaksiyalarini kiradi.

Elektrosiklik reaksiyalarda chiziqli tutash  $\pi$ -elektronli sistemaning chetki qismlaridan  $\sigma$ -bog‘ hosil bo‘ladi. Shuningdek, ushbu reaksiyaga teskarri jarayon ham elektrosiklik reaksiyalarga kiradi.

Sigmatrop qayta gruppalanish reaksiyasida yangi  $\sigma$ -bog‘ hosil bo‘ladi va avval mavjud bo‘lgan  $\sigma$ -bog‘ uziladi. Masalan:



Geterolitik reaksiyalarda ionlar va qutblangan molekulalar ishtirok etadi. Qarama-qarshi ion va erituvchi molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlashuviga bog‘liq ravishda ionlar har xil bo‘lishi mumkin.

Kovalent bog‘ning qutblanishi natijasida kontakt (zich) ion justi hosil bo‘ladi:  $X + Y \leftrightarrow X^+ Y^-$ .

Geterolitik reaksiyalar reagentning tabiatiga ko‘ra *nukleofil* va *elektrofil* reaksiyalarga bo‘linadi.

Nukleofil reaksiyalarda yangi bog‘ reagent (nukleofil) ning elektron justi hisobiga hosil bo‘ladi.



Nukleofil reagentlar o‘rin olish reaksiyalariga kirishadi. Nukleofil o‘rin olish reaksiyalarini geterolitik reaksiyalar bo‘lib, reaksiyaga kirishuvchi guruh *nukleofil reagent* sifatida ishtirok etadi. Bog‘lovchi elektron justi bilan birga chiqib ketuvchi guruh *nukleofug* deyiladi. Yuqorida reaksiyada gidrosil-ion nukleofil, bromid-ion esa nukleofug hisoblanadi.


Nukleofil zarracha deb manfiy zaryadli ionlar (anionlar) va taqsimlanmagan elektron justiga ega bo‘lgan neytral zarrachalarga aytildi. Misol uchun  $\text{NH}_3$ ,  $\text{RNH}_2$ ,  $\text{RR}'\text{NH}$ ,  $\text{RR}'\text{R}^2\text{N}$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{ROH}$ ,  $\text{ROR}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{RSH}$ ,  $\text{RSR}$  kabi birikmalar neytral nukleofil zarrachalar hisoblanadi.

Nukleofil reagentlar nukleofil atomning turiga qarab quyidagicha sinflanishi mumkin:

H-nukleofillar, C-nukleofillar, N-nukleofillar, O-nukleofillar, S-nukleofillar, P-nukleofillar.

Kislota-asos nazariyasiga muvofiq barcha asoslar nukleofil reagentlar bo‘lishi kerak. Aksariyat holatlarda bu to‘g‘ri keladi. Lekin birikmaning asos xossalari uning protonga moyilligini bildiradi, nukleofillik esa kengroq tushuncha bo‘lib, reagentning reaksiyon qobiliyatini ko‘rsatadi. Masalan,  $sp^3$ -gibridlangan uglerod atomida boradigan nukleofil o‘rin olish reaksiyasida nukleofil reagent musbat qutblangan uglerod atomiga moyilligini namoyon qiladi. Shunday qilib, kuchsiz asos ham kuchli nukleofil xossasiga ega bo‘lishi mumkin. Bu ko‘p jihatdan nukleofil reagentning va reaksiyaga kirishuvchi birikma-substratning elektron sistemasi qutblanuvchanligiga bog‘liq.

Elektrofil reaksiyalarda reagent elektrofil zarracha hisoblanadi, yangi kimyoviy bog‘ substratning elektronlari hisobiga hosil bo‘ladi.




Elektrofil reagentlar deb kationlar va tarkibida to‘limgan orbitallarga va elektronoakseptor xossalarga ega bo‘lgan molekulalarga aytildi.  $H^+$  (H-elektrofillar), galogenlar, Lyuis kislotalari, karbokationlar (C-elektrofillar), nitrozoniy va nitroniy kationlari, diazoniy tuzlari (N-elektrofillar), peroksidlar (O-elektrofillar) kabi zarrachalar va birikmalar elektrofil reagentlarga misol bo‘ladi.

Amalda elektronoakseptor zarracha (masalan, galogenlar, borftorid kabi) bilan bog‘langan har qanday atom elektrofil bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, elektrofillik reagentning substratga nisbatan nisbiy reaksiyon qobiliyatini ko‘rsatadi.

Elektrofil o‘rin olish reaksiyasi ham geterolitik reaksiya bo‘lib, reaksiyaga kirishuvchi guruh elektrofil sifatida qatnashadi. Bog‘lovchi elektron jufti bilan birga chiqib ketmaydigan guruh *elektrofug* deyiladi. Yuqoridaq reaksiyada bromid-kation elektrofil, vodorod ioni esa elektrofug hisoblanadi.

Qutblangan molekulalarda va kimyoviy bog‘larda ham nukleofil, ham elektrofil reaksiyon markaz bo‘lishi mumkin. Masalan, karbonil birikmlarda ulerod atomi elektrofil markaz, kislorod atomi nukleofil markaz hisoblanadi. Litiyorganik birikmada esa uglerod atomi nukleofil markaz, litiy atomi esa elektrofil markaz bo‘ladi.



Nukleofil va elektrofil markazlarning nisbiy reaksiyon qobiliyatini umuman molekulaning nukleofilligi yoki elektrofilligini belgilaydi. Shunday qilib, karbonil birikma elektrofil reagent, litiyorganik birikma esa nukleofil reagent hisoblanadi.

Geterolitik reaksiyaning ketishi uchun ham nukleofil, ham elektrofil reagent zarur. Bu noorganik kimyodagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga o'xshab ketadi. Masalan, karbonil guruhga nukleofil reagentning birikishi nukleofil birikish reaksiyasi hisoblanadi, shu bilan birgalikda nukleofil reagentga nisbatan elektrofil hujum reaksiyasi ham hisoblanadi.


Nukleofil va elektrofil reagentlar har xil qutblanuvchanligi bilan xarakterlanadi va sifat jihatda qattiq va yumshoq reagentlarga bo'linishi mumkin. *Qattiq reagentlar* deb past qutblanuvchanlikka ega bo'lgan donor yoki akseptor markaz tutuvchi Lyuis kislotalari va asoslariga aytildi. Masalan,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{OH}^-$ ,  $\text{ROH}$ ,  $\text{RO}'$ ,  $\text{F}^-$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}^+$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{BF}_3$  shular jumlasidandir.

*Yumshoq reagentlar* deb yuqori qutblanuvchanlikka ega bo‘lgan donor yoki akseptor markaz tutuvchi Lyuis kislotalari va asoslariga aytildi. Masalan, R<sub>2</sub>S, RSH, RS<sup>-</sup>, I<sup>-</sup>, R<sup>-</sup>, Cu<sup>+</sup>, Ag<sup>+</sup>, Hg<sup>2+</sup> shular jumlasidandir.

Oraliq xossalarni namoyon qiluvchi reagentlar ham mavjud. Masalan,  $\text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2$ ,  $\text{R}^+$ .

## **7-§. KISLOTALAR VA ASOSLAR NAZARIYASI**

1887-yilda elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi (S.Arrenius) ishlab chiqilgandan keyin kislotalar va asoslarning ion nazariyasi paydo bo'lgan. Ion nazariyasiga ko'ra kislotalar dissotsiyalanganda vodorod ionlarini hosil qiluvchi birikmalar, asoslar esa gidroksil ionlari hosil qiluvchi birikmalardir. Ion nazariyasi suvli eritmalar uchun edi. 1923-yilda Brensted va Louri bir-biridan mustaqil ravishda suvsiz eritmalar va organik moddalar uchun *protoliitik nazariyani* taklif qildilar. Ushbu nazariyaga muvofiq, kislotalar deb proton ajratib chiqaruvchi moddalarga, asoslar deb protonni biriktiruvchi moddalarga aytildi.




Kislota asos asos kislota

Brensted-Louri nazariyasi bo'yicha kislotalilik va asoslik xossalari protonning ko'chirilishi bilan bog'liq. Protonni biriktirish uchun asos taqismlanmagan elektron juftiga ega bo'lishi kerak. Proton asosga bog'lanadi, lekin kislota qoldig'i elektron justini saqlab qoladi. Kislota qoldig'i ham proton biriktirishi mumkin, ya'ni asos hisoblanadi. Proton biriktirgan asos ham o'z navbatida proton ajratib chiqarishi mumkin, ya'ni u ham kislota sifatida qaralishi mumkin.

Brensted-Louri nazariyasiga ko'ra, kislotaling kuchi erituvchiga bog'liq. Chunki erituvchilarning o'zi Brensted bo'yicha kislota yoki asos bo'lishi mumkin. Kislotalilik kislota konstantasi bilan xarakterlanadi. Kislota konstantasi quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$K_a = \frac{[A^-][H^+]}{[AH]}^5$$

Masalan, sirka kislotasini suvda eritilganda quyidagi jarayon sodir bo'ladi:



Sirka kislotasining kislota konstantasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_a = \frac{[\text{CH}_3\text{COO}^-][\text{H}_3\text{O}^+]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]} = 1,79 \cdot 10^{-5}$$

$K_a$  qiymati juda kichik bo'lganligi uchun hisoblash ishlarida uning manfiy ishora bilan olingan logarism qiymatidan foydalilanildi.

$$pK_a = -\lg K_a$$

$$pK_a(\text{CH}_3\text{COOH}) = -\lg 1,79 \cdot 10^{-5} = 4,76$$

$pK_a$  qiymati qancha kichik bo'lsa kislota shunchalik kuchli bo'ladi.

Aksariyat organik moddalar tarkibida vodorod atomlari bo'lganligi uchun ular Brensted bo'yicha kislota bo'lishi mumkin. Ajralib chiqishi mumkin bo'lgan vodorod atomi qaysi atom bilan bog'langanligiga qarab kislotalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:


S-H-kislotalar (masalan, tiospirtlar, gidrosulfidlar);

O-H-kislotalar (masalan, karbon kislotalar, spirtlar);

N-H-kislotalar (aminlar, amidlar);

C-H-kislotalar (masalan, to'yinmagan uglevodorodlar, arenlar).

J.Lyuis kislota-asos tushunchasini yanada kengaytirdi. Lyuis nazarriyasiga ko'ra moddalarning kislota yoki asosligi ularni kimyoiy bog' hosil bo'lishida elektron juftini qabul qilishi yoki berishiga qarab umiqlanadi. Elektron juftini qabul qiluvchi zarrachalar kislotalar, beruvchilari esa asoslar hisoblanadi. Bunga bor ftoridni ammiak bilan o'zaro ta'sirini misol qilish mumkin:



Vakant orbitalga ega bo'lgan noorganik va organik kationlar yoki neytral molekulalar, masalan,  $\text{H}^+$ ,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{BF}_3$ ,  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{ZnCl}_2$  Lyuis kislotalari bo'lishi mumkin. Vodorod ionining hajmi juda kichik bo'lganligi uchun uning ishtirokidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tez boradi. Lyuis kislotalar reaksiyalarda elektrofil reagent sifatida qutnashadi.

Anionlar va taqsimlanmagan elektron justi tutuvchi neytral zarrachalar Lyuis bo'yicha asoslar hisoblanadi. Lyuis kislotalariga spirtlar, oddiy etirlar, aminlar, tiollar va karrali bog' tutuvchi birikmalar kiradi. Lyuis asoslar reaksiyalarda nukleofil reagent sifatida ishtirok etadi.

---

## BIRINCHI QISM

### OCHIQ ZANJIRLI UGLEVODORODLAR

Uglevodorodlar eng sodda organik birikmalar bo'lib, faqat uglerod va vodorod atomlaridan tarkib topadi. Uglevodorodlar uglerod atomlarining soni, oddiy, qo'shbog', uchbog' kabi bog'larning mavjudlig'i va uglerod atomlarining izchil zanjir yoki halqa hosil qilib birikishi bilan bir-biridan farq qiladi. Barcha uglevodorodlar molekulasidagi uglerod va vodorod atomlarining o'zaro nisbati, hamda molekuladagi kimyoviy bog'ning tabiatiga ko'ra quyidagi guruhlarga sinflanadilar:

1. To'yigan uglevodorodlar – alkanlar, sikloalkanlarga bo'linadilar;
2. To'ymagan uglevodorodlar – etilen qatori uglevodorodlari, asetilen qatori uglevodorodlari, diyen qatori uglevodorodlari, hamda aromatik uglevodorodlarga bo'linadilar.



#### **1-BOB. ALKANLAR**

##### **NOMLANISHI VA IZOMERIYASI**

Ochiq zanjirli, uglerodlar orasida oddiy kovalent bog'lar tutuvchi uglevodorodlar *to'yigan uglevodorodlar* yoki *parafinlar*, IYUPAK nomeklaturasi bo'yicha *alkanlar* deb ataladi.

Eng sodda alkan metan –  $\text{CH}_4$  hisoblanadi. Boshqa alkanylarni metan molekulasiga bitta yoki undan ortiq metilen –  $\text{CH}_2$ - guruhlarini qo'shib borish bilan hosil bo'lgan deb qarash mumkin. Ochiq zanjirli alkanylarning umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$  shaklda ifodalanadi.


Agar normal alkanylarni bittadan –  $\text{CH}_2$ - ga ortib borish tartibida joylashtirib chiqilsa gomologik qator hosil bo'ladi. Alkanlarning nomlari yunoncha va lotincha sanoq sonlari bilan nomланади.



Ushbu qator alkanlarning gomologik, yoki analogik qatori deb yuritiladi. Butandan boshlab alkanlarda *izomeriya* kuzatiladi. Izomerlar deb bir xil molekulyar formulaga ega bo‘lgan, lekin atomlarning bog‘lanish tartibi yoki atomlarning fazoda joylashuvi bilan farq qiladigan birikmalarga aytildi. Masalan,



Butan



Izobutan (2-metilpropan)

Atomlarni molekulada joylashuv ketma-ketligi bilan farq qiladigan izomerlar *struktura izomerlar* deyiladi.


Uglerod atomlarining sonini ortib borishi bilan alkanlarning struktura izomerlari soni ham keskin ortadi. Masalan: pentan – 3 ta izomer, heptan – 9 ta, oktan – 18 ta, dekan  $\text{C}_{10}\text{H}_{22}$  – 76 ta, dodekan  $\text{C}_{12}\text{H}_{26}$  – 385 ta, cykozan  $\text{C}_{20}\text{H}_{42}$  – 366319 ta, gektan  $\text{C}_{100}\text{H}_{202}$   $\sim 5,921 \cdot 10^{40}$  ta izomerga ega.

Alkanlarning izomerlari soni stereoizomerlar hisobiga yana ortadi. Stereoizomerlar deb atomlarning, yoki atomlar guruuhining fazoviy joylashuvi bilan farq qiladigan izomerlarga aytildi. Geptandan boshlab xiral molekulalar hosil bo‘lishi mumkin. Xiral molekulalar deb o‘zining oynadagi aksiga to‘g‘ri kelmaydigan molekulalarga aytildi. Xiral molekulalar ikkita enantiomer hosil qiladi. Masalan, gentanning 9 ta izomeridan 2 tasi xiral hisoblanadi.

IYUPAK nomenklaturasi bo‘yicha tarmoqlangan alkanlar quyidagi qoidalar bo‘yicha nomlanadi:


1) Eng uzun tarmoqlanmagan zanjir tanlanadi, uning nomi asos (o‘zak) bo‘lib xizmat qiladi.

2) Tarmoqlar o‘rnbosar sifatida nomlanadi, bunda tarmoqlanmagan zanjirdagi uglerod atomlari eng kichik lokant prinsipida raqamlanadi.



2,3,5-trimetilgeksan

Agar alkanning molekulasida uglerod atomlarining soni va tarmoqlanish darajasi bilan farq qiladigan bir nechta o'rnibosarlar bo'lsa alkanni nomlashda o'rnibosarlar alisbo tartibida keltiriladi.



5-izopropil-2,5-dimetil-4-etiloktan.

Biror uglerod atomi bevosita nechta boshqa uglerod atomlari bilan bog'langanligiga ko'ra birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlar deb yuritiladi.

Alkan molekulasidan bitta vodorod atomi ajratib chiqarilsa alkil qoldig'i hosil bo'ladi. Bu qoldiq odatda *alkil guruhi*, ba'zan *alkil radikal* deyiladi. Lekin radikal deb nomlash unchalik to'g'ri emas. Alkil qoldiqlarining nomi tegishli alkan nomidagi *-an* suffiksi *-il* suffiksiga almashtirish bilan yasaladi.




metil




etil




propil




Izopropil




butil



izobutil




Ikkilamchi butil




Uchlamchi butil

Tarmoqlangan alkil guruhlarni nomlash uchun asosiy zanjir raqamlanishi ham mumkin.



2-metilbutil



3-metilpentil

Alkan molekulasidan vodorod atomi uch xil yo'l bilan ajratilishi mumkin:


1) uglerod-vodorod bog'ning gomolitik parchalanishi natijasida juftlashmagan elektronga ega bo'lgan zarracha – erkin alkil radikali hosil bo'ladi.

2) uglerod-vodorod bog'inining geterolitik parchalanishi natijasida alkil-kation yoki karbokation hosil bo'lishi mumkin, vodorod esa gidridion shaklida ajralib chiqadi.


3) uglerod-vodorod bog'inining geterolitik parchalanishidan alkil-anion yoki karbanion hosil bo'lishi mumkin, vodorod esa proton shaklida ajralib chiqadi.

Alkilkationlar juda kuchli elektrofil zarrachalar, alkilanionlar juda kuchli nukleofil zarrachalar hisoblanadi.

Alkan molekulasidan shartli ravshida ikkita vodorod ajratib olinsa ikki valentli qoldiqlar hosil bo'ladi. Ularning nomi tegishli radikal nomiga -en yoki -iden (agar ikkala erkin bog' bitta uglerod atomiga tegishli bo'lsa) qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi.



Shartli ravishda ikki valetli qoldiqlarga reaksiyalarda hosil bo'ladigan faol zarrachalar – biradikallar ham kiradi. Agar ikkala toq elektron bitta uglerod atomiga tegishli bo'lsa bunday biradikallar *karbenlar* deyiladi.



### ***OLINISH USULLARI***

Alkanlarning asosiy manbalari neft va tabiiy gaz hisoblanadi. Tabiiy gaz asosan metandan iborat (90–99%). Neftni qayta ishlab alkanlar aralashmasi olinadi.

Benzin fraksiyasini fraksion haydash yo'li bilan alohida alkanlar olish mumkin.



Neft haydalib bir necha franksiyalar bo'linadi: 1) benzin fraksiyasi – qaynash temperaturasi 40...180°C, uglerod atomlari C<sub>6</sub> dan C<sub>10</sub> gacha bo'lgan alkanlar aralashmasi; 2) kerosin fraksiyasi – qaynash temperaturasi 180...230°C, uglerod atomlari C<sub>10</sub> dan C<sub>12</sub> gacha bo'lgan alkanlar aralashmasi, 3) dizel yoqilg'isi – qaynash temperaturasi 230...305°C, uglerod atomlari C<sub>13</sub> dan C<sub>17</sub> gacha bo'lgan alkanlar aralashmasi. Qolgan qismidan, ya'ni mazutdan pasaytirilgan bosim ostida yoki suv bug'i yordamidan solyar moyi (C<sub>18</sub>-C<sub>25</sub>), surkov moylari (C<sub>28</sub>-C<sub>38</sub>), vazelin, qattiq parafin olinadi.

Neftni haydashdagi yuqori fraksiyalarini kreking qilib yuqori sifatli benzin olinadi. Bundan tashqari, alkanlar bilan birgalikda kimyo sanoati uchun muhim xomashyo hisoblanadigan eten, propen va butenlar kabi alkanlar ham hosil bo'ladi.

Toshko'mir yoki qo'ng'ir ko'mir 450 – 470°C da molibden, volfram, nikel oksidlari va sulfidlari ishtirokida gidridlansa, ya'ni vodorod bilan boyitilsa, har xil alkanlar va sikloalkanlar aralashmasi hosil bo'ladi. Mazkur uglevodorodlar motor yoqilg'ilarini sifatida ishlataladi.


Gidridlash jarayoni maxsus uskunalar – avtoklavlarda 30 MPa gacha bosim ostida o'tkaziladi. Ko'mir va katalizator mayda kukun holatiga keltiriladi va organik erituvchilarda (neftni qayta ishlash mahsulotlarida) suspenziyaga aylantiriladi. Aralashma qizdiriladi va vodorod yuboriladi (F.Bergius, 1925). Bu jarayon *ko'mirni suyultirishi metodi* ham deyiladi. Reaksiya natijasida motor yoqilg'isi sifatida ishlataladigan har xil alkanlar va sikloalkanlar aralashmasi hosil bo'ladi.

CO<sub>2</sub> va CO ni Ni ishtirokida vodorod bilan qaytarilsa odatda metan hosil bo'ladi. Ushbu reaksiya 1902-yilda fransiyalik olimlar P.Sabatye va I.Sanderan tomonidan ishlab chiqilgan. (**Pol Sabatye (1854 – 1941) – fransuz kimyogari, M.Bertloning shogirdi.** Asosiy ishlari **termokimyo** va katalizga bag'ishlangan. 1912-yilda «Organik birkalmalarni mayda dispersli metallar ishtirokida gidrogenlash metodi» uchun **V.Grinyar** bilan birgalikda Nobel mukofotiga sazovor bo'lган.




Is gazini katalistik gidridlash reaksiyasi ishlataladigan katalizator va temperaturaga bog'liq ravishda turlicha borishi mumkin: Co yoki Fe tutuvchi katalizator ishtirokida 180°–300°C da is gazi H<sub>2</sub> bilan ta'sirlashib

usosan tarmoqlanmagan va kichik molekulyar massali alkanlar hosil qiladi. Ushbu jarayonni 1913–1926-yillarda F.Fisher va X.Tropsh ishlab chiqqan.




Keyinchalik 1936–1941-yillarda mazkur usul F.Fisher va X.Pixler tomonidan takomillashtirilgan. Katalizator, reaksiya temperaturasi va bosim o'zgartirilgan.

Hozirgi vaqtida Fisher – Tropsh metodi bilan ham motor yoqilg'ilar, ham alohida uglevodorodlar – alkanlar, sikloalkanlar, arenlar olinishi yo'lga qo'yilgan. Reaksiya mexanizmi murakkab bo'lib, reaksiya katalizator sirtiga CO ning yutilishi bilan boshlanadi. Buning natijasida kobaltning karbonil birikmalari hosil bo'ladi. Vodorod sorbsiyalangan uglerod oksidiga birikib katalizator sirtiga bog'langan karben ( $:\text{CH}_2$ ) va metil radikalini hosil qiladi. Karben  $\text{CO} - \text{CH}_3$  bog'i bo'yicha birikishi mumkin, natijada uglerod zanjiri uzayib boradi.




Yonaki moddalar sifatida spirtlar, aldegidlar kabi kislorodli organik birikmalar hosil bo'ladi.

Metall – uglerod bog'i tutuvchi birikmalar suv bilan oson ta'sirlashib uglevodorodlar hosil qiladi. Masalan:



$\text{CaC}_2$ ,  $\text{SrC}_2$  va  $\text{BaC}_2$  suv bilan ta'sirlashib atsetilen hosil qilsa,  $\text{Fe}_3\text{C}$  va  $\text{Ni}_3\text{C}$  larning kislotalar bilan ta'sirlashishi natijasida uglevodorodlar aralashmasi hosil bo'ladi.

Galogenalkanlar natriy bilan, yanada osonroq kaliy bilan reaksiyaga kirishib simmetrik uglevodorodlar hosil qiladi. Mazkur reaksiya birinchi marta 1855-yilda A.Vyurs tomonidan o'rganilgan. Shuning uchun Vyurs reaksiyasi ham deyiladi.



Karbon kislotalar tuzlarining eritmalarini elektroliz qilinganda anodda  $\text{CO}_2$  ajralib chiqadi va alkanlar hosil bo'ladi. Ushbu reaksiyani birinchi marta A.Kolbe 1849-yilda o'rgangan.

Bu reaksiyada karbon kislotaning anionidan anodda elektron ajraladi va erkin radikalga aylanadi. Radikal o‘z navbatida  $\text{CO}_2$  ga va alkil radikalga parchalanadi.



Alkil radikallari anodning sirtida dimerlanadi:



Karbon kislotalarning suvsiz tuzlari ishqorlar bilan qizdirilsa ( $250\text{--}300^\circ\text{C}$ ) parchalanish sodir bo‘ladи va alkan ajralib chiqadi.



Karbon kislotasi molekulasidan  $\text{CO}_2$  ajralib chiqishi reaksiyasi dekarboksillanish deyiladi. Ushbu reaksiya odatda metan, etan olishda qo‘llaniladi.

Alkenlar va boshqa to‘yinmagan uglevodorodlarni, galogenalkanlarni, karbonil birikmalarni vodorod bilan qaytarilganda ham alkanlar hosil bo‘ladi. Mazkur reaksiyalar tegishli mavzularda ko‘rib chiqiladi.

### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

To‘yingan uglevodorodlar suvdan biroz yengil moddalardir. Alkanlar odatdagи sharoitda rangsiz gazsimon yoki suyuq, yuqori molekulali alkanlar esa qattiq birikmalardir. Ko‘plab suyuq alkanlar o‘ziga xos «benzin» hidiga ega ekanligi bilan xarakterlanadilar.

2-jadvalda ayrim alkanlarning fizik xossalariga doir ma’lumotlar keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tarmoqlangan alkanlar normal izomerlarga nisbatan pastroq qaynash temperaturasiga ega. Kuchli tarmoqlangan, ayniqsa sharsimon tuzilishga ega bo‘lgan alkanlar esa nisbatan yuqori suyuqlanish temperaturasiga ega bo‘ladilar.


## Ayrim alkanlarning fizik xossalari

Alkan	T <sub>c</sub> °C	T <sub>k</sub> °C	d <sub>4</sub> <sup>20</sup>
CH <sub>4</sub>	-182,5	-161,6	0,436 (-170°C)
C <sub>2</sub> H <sub>6</sub>	-183,3	-88,6	0,561 (-100°C)
C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>	-187,7	-42,1	0,501 (bos. ost.)
n - C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>	-138,4	-0,5	0,573 (-25°C)
i - C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>	-159,6	-11,7	0,551 (-25°C)
n - C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>	-129,7	36,1	0,626
i - C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>	-159,9	27,8	0,620
C(CH <sub>3</sub> ) <sub>4</sub>	-16,6	9,5	0,591 (bosim ost.)
n - C <sub>6</sub> H <sub>14</sub>	-94,0	68,7	0,660
n - C <sub>8</sub> H <sub>16</sub>	-56,8	125,7	0,702
n - C <sub>10</sub> H <sub>22</sub>	-29,7	174,0	0,730


Metan molekulasining fazoviy tuzilishi tetraedrik shaklga ega. Tetraedrning cho'qqilarida vodorod atomlari joyilashgan. Bog'lar orasidagi burchaklar 109°28' ga teng. Uglerod atomlari ko'proq bo'lgan normal alkanlarning molekulalari zigzagsimon tuzilishga ega, bunda uglerod atomlari biroz chetlanish bilan bitta tekislikda joylashti.

C – C bog'ining uzunligi 0,154 nm, C – H bog'ining uzunligi 0,109 nm.

Quyidagi rasmda metan va n-pentan molekulalarining konfiguratsiyasi ko'rsatilgan. Konfiguratsiya deb ma'lum strukturali molekula atomlarining bitta yoki bir nechta oddiy bog'lar atrofida aylanishlardan so'ng yuzaga keladigan farqlarni hisobga olmagan holatdagi fazoviy joylashuviga aytildi.




Alkanlar xiral bo'lishi mumkin. Masalan, 3-metilgeksan 4 xil o'rinosbasar tutuvchi asimmetrik uglerod atomiga ega.




### Enantiomerlar (ko'zgu izomerlari)

Ushbu birikma uglerod-vodorod bog'i bo'yicha ko'rilsa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



S-3-metilgeksan



R-3-metilgeksan

Metan molekulasining to'rtta bir xil uglerod-vodorod bog'laridan iborat tetraedrik tuzilishni aniqlash natijasida uglerod atomining  $sp^3$ -gibrildanishi haqidagi gipoteza (faraz) vujudga kelgan. To'rtta uglerod-vodorod bog'i  $\sigma$ -bog'lar bo'lib, uglerod atomning  $sp^3$ -gibridlangan orbitallari to'rtta vodorod atomining 1s-orbitallari bilan qoplanishidan hosil bo'ladi.

Bir nechta uglerod atomi tutuvchi alkanylarda uglerod-uglerod  $\sigma$ -bog'lari ham mavjud. Uglerod-uglerod va uglerod-vodorod bog'larning o'zaro ta'siri minimal bo'lib, valent elektronlar ma'lum bog'larda lokallahsgan. Lekin  $\sigma$ -bog'lar sonining ortishi alkanning xossalariiga baribir ta'sir ko'rsatadi. Elektron sistema xossalaring eng ahamiyatlari jihatlaridan biri ionlanish energiyasidir.  $\sigma$ -bog'lar sonining ortishi alkanlarning elektronodonor xossasini kuchaytiradi (ionlanish energiyasi kamayadi).

Alkan	Metan	Etan	Butan	Geksan
IE, eV	12,5	11,6	10,5	10,3

Alkanlar juda kuchsiz elektronodonor xossalariiga ega.

Alkanlarning molekulasida faqat  $\sigma$ -bog'lar mavjud, shuning uchun elektronni ajratib olish qiyin. Molekulaning qo'zg'alishi uchun ( $\sigma \rightarrow \sigma^*$  elektron o'tish) katta energiya talab qilinadi. Alkanlar faqat vakuum-UB sohada nur yutadi (125–140 nm), shuning uchun suyuq alkanlar har xil moddalarning yutilish yoki chiqarish elektron spektrlarini olishda qulay erituvchilar hisoblanadi.

Tebranish spektrlarida (yutilishning IQ spektri va kombinatsiya yoyilish spektrlari) alkanlar  $2800\text{--}2960\text{ cm}^{-1}$  ( $3,75 \rightarrow 3,38\text{ }\mu$ ) ( $\text{C-H}$  bog'larning valent tebranishlari) va  $1360\text{--}1480\text{ cm}^{-1}$  ( $7,35\text{--}6,75\text{ }\mu$ ) ( $\text{CH}_2$  va  $\text{CH}_3$  guruhlardagi deformatsion tebranishlar) sohalarda nur yutadi.



### **KIMYOVIY XOSSALARI**

Alkanlar odatdag'i sharoitda nisbatan inert moddalar hisoblanadi, odatdag'i sharoitda kislotalar va ishqorlar, oksidlovchilar bilan ta'sirlashmaydi. Shundan ularning dastlabki nomi «parafinlar» (lotincha parum — kam, affinis — moyil holatda bo'luvchi) kelib chiqqan. Lekin ma'lum sharoitlarda alkanlar inertligini yo'qotadi. Erkin radikallar bilan reaksiyalar, yuqori temperatura va katalizator ishtirokida o'zgarishlar oson amalga oshadi.




**Alkanlarning erkin radikallar bilan reaksiyaları.** Alkanlar faol erkin radikallar bilan o'zaro ta'sirlashib, o'z vodorodlarini erkin radikallarga almashtiradilar. Bu asosan fotokimyoviy, katalitik yoki termik yo'l bilan amalg'a oshirilishi mumkin.

Alkanlar xlor bilan juda shiddatli, xlor bilan yoritib turilganda, brom bilan esa faqat yoritib va qizdirib turilganda reaksiyaga kirishadilar. Yod bilan alkanlar to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlashmaydi.

Alkanlar xlor bilan odatdag'i temperaturada va qorong'ida ta'sirlashmaydi. Quyosh nuri ishtirokida shiddatli, ba'zan portlash bilan tugaydigan reaksiya boshlanadi. Bunday reaksiya natijasida metandan xlormetanlar aralashmasi hosil bo'ladi.



Nur ta'sirida xlor molekulasi faollashadi va xlor radikallariga parchalanadi. Xlor atomlarining elektronga moyilligi yuqori va ular alkan molekulidan vodorod atomini tortib olishga qodir. Buning natijasida alkil — radikal hosil bo'ladi. Alkil — radikal o'z navbatida xlor molekulasi bilan ta'sirlashib bitta xlor atomini biriktirib oladi va xlor radikalini hosil qiladi.





Reaksiyaning har bir bosqichida erkin radikal vujudga kelib, bu radikal reaksiyaning davom etishini ta'minlaydi. Bunday reaksiyalar *zanjir*

reaksiyalar deyiladi. Reaksiya boshlangandan keyin zanjir jarayon vujudga keladi va bu jarayon barcha faol erkin radikallar yo'qolgandan keyin to'xtaydi. Zanjirlar erkin radikallarni rekombinatsiyasi (dimerizatsiyasi) natijasida «uziladi» ( $R^* + Cl^* \rightarrow R - Cl$ ,  $R^* + R^* \rightarrow R - R$ ).

Bunday xlorlash reaksiyalarini etan, propan, butan va boshqa alkanlar bilan ham sodir bo'ladi. Reaksiya natijasida izomer xlorkanlarning aralashmasi hosil bo'ladi.


Shuni ta'kidlash kerakki, alkanlarining galogenlanish reaksiyalarida faolligi *n*-alkan zanjiridagi uglerod atomlarining sonini ortishi bilan kuchayadi.

Alkanlar  $SO_2$  va  $Cl_2$  bilan UB – nur ta'sirida reaksiyaga kirishadi, bunda alkansulfokislotalarning xlorangidridlari  $RSO_2Cl$  hosil bo'ladi. UB – nurlar ta'sirida xlor atomlari va erkin alkil-radikallar hosil bo'ladi. Alkil-radikallar  $SO_2$  bilan ta'sirlashadi.




Alkansulfokislotalarning xlorangidridlari sintetik yuvuvchi vositalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Alkanlar UB – nurlar ta'sirida  $SO_2$  va  $O_2$  bilan reaksiyaga kirishib alkansulfokislotalar  $R - SO_3H$  hosil qiladi. Reaksiyaning borishi uchun reaksiyon idish tinimsiz yoritib turilishi kerak, chunki faqat shundagina alkanlardan erkin radikallar hosil bo'ladi. Keyin alkil-radikallar  $SO_2$  va  $O_2$  bilan ta'sirlashadi.




Alkanlarni suyultirilgan  $HNO_3$ , yoki azot oksidlari bilan ta'sirlashuvi natijasida alkan molekulasidagi vodorod atomlari nitroguruhga almashadi va nitroalkanlar hosil bo'ladi (Konovalov metodi).




Reaksiya radikal mexanizm bo'yicha boradi.

Alkanlar nitrozoniy xlorid ta'sirida nitrozoalkanlarga aylanadi. Nitrozoalkanlar ma'lum sharoitlarda qayta gruppalanib oksimlarni hosil qilishi mumkin.



Alkanlarning kislород bilan aralashmasi oson yonib  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  hosil qiladi. Bunda katta miqdorda energiya ajralib chiqadi (46000-50000 kJ/kg). Gazsimon alkanlarning havo yoki kislород bilan aralashmalari portlash xavfiga ega.

Alkanlarni gaz yoki suyuq fazada havo yoki kislород bilan katalizator ishtirokida oksidlab qisman oksidlanish mahsulotlarini, asosan karbon kislotalarni olish mumkin. Alkanlarni oksidlash reaksiyalarida oraliq mahsulot sifatida alkil-radikallar va peroksibirikmalar hosil bo'ladi. Masalan, butanni  $\text{CH}_3\text{COOH}$  gacha oksidlanishi quyidagi chizma bo'yicha boradi:



Spirtlar va aldegidlar oraliq mahsulotlar hisoblanadi.

Boshqa alkanlar ( $\text{C}_{10}-\text{C}_{20}$ ) oksidlanganda yuqori spirtlar va yuqori kislotalar hosil bo'ladi.

Bu reaksiya sanoatda qo'llaniladi.


500 °C dan yuqori temperaturada alkanlar beqaror bo'lib qoladi va vodorod ajralib chiqishi, hamda kichikroq molekulyar massali uglevodorod hosil bo'lishi bilan parchalanadi. Katalizatorlar parchalanish temperaturasini kamaytiradi. Bunday reaksiyalarda C – C va C – H bog'larning gomolitik uzilishi sodir bo'ladi. Alkanlarning termik o'zgarishi *kreking* deyiladi. Krekingning ikki turi, ya'ni termik va katalitik kreking mavjud va ular sanoat miqyosida keng qo'llaniladi. Metan nisbatan qiyin o'zgarishga uchraydi:




Etan pastroq temperaturalarda parchalanadi.




Uzunroq uglerod zanjirli alkanlar to'yinmagan uglevodorodlar hosil qiladi yoki kichik molekulyar massali uglevodorodlarga parchalanadi. Masalan:



Oltita va undan ortiq uglerod atomi tutuvchi normal alkanlar katalizatorlar ishtirokida siklik shaklga o'tib, benzol va uning gomologlariga aylanadi.



Bu reaksiya alkanlarning *aromatizatsiyasi* yoki *degidrosiklizatsiyasi* deb yuratiladi. Alkanlarning termik katalitik yoki nokatalitik o'zgarishlari erkin radikal mexanizm bo'yicha boradi. Bunda ham C – C bog'larning, ham C – H bog'larning uzilishi sodir bo'ladi va hosil bo'ladigan erkin alkil radikallar keyingi reaksiyalarda ishtirok etadi. Masalan,




Kuchli elektrofil reagentlar (Lyuis kislotalari) ta'sirida normal alkanlar qisman izoalkanlarga, izoalkanlar esa normal alkanlarga aylanadi. Normal alkan va izoalkan muvozanat aralashmasi hosil bo'ladi.

Elektrofil reagent sifatida yuqori temperaturada  $\text{AlCl}_3$  yoki  $\text{AlBr}_3$  dan foydalanish mumkin. Juda kuchli kislotalardan  $(\text{HF}+\text{BF}_3, \text{HF}+\text{SbF}_5, \text{SbF}_5+\text{FSO}_3\text{H})$  foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Bunday kislotalar juda katta proton faolligiga ega va alkanlarni odatdag'i temperaturadayoq izomerlaydi.

Alkanlarning dastlabki vakillari izomerlarga ega emas. Butandan boshlab zanjirni tarmoqlanishi hisobiga izomerlar hosil bo'ladi. Alkan molekulasida uglerod atomlari sonining ortib borishi bilan izomerlar soni ham ortib boradi. Bu hodisa alkanlarning ionlanish energiyasini kamayishi bilan tushuntiriladi, ya'ni ionlanish energiyasi qanchalik kamaysa, elektrofil reagent bilan o'zaro ta'sirlashuv osonlashadi.

Alkanlarning protonga moyilligi kuchsiz, chunki ularning molekulalarida faqat to'yingan bog'lar ( $\sigma$ -bog'lar) mavjud, taqsimlanmagan elektron jufti tutuvchi atomlar yo'q.

Alkanlar juda kuchli kislota bilan ta'sirlashganda ichki molekulyar qayta guruhlanishga qodir bo'lgan karbokationlar hosil bo'ladi. Protonlangan alkan (alkanoniy ioni) birlamchi mahsulot hisoblanadi. Protonning qayerga birikishi noma'lum. Taxmin qilinishicha, uglerod atomi va ikkita vodorod atomi uch markazli ikki elektronli bog' hosil qiladi. Alkanoniy ioni vodorod yoki metan molekulasini ajralib chiqishi va karbokation hosil bo'lishi bilan parchalanadi.



Uchlamchi karbokationlar barqarorligi yuqori bo'lganligi uchun qayta gruppalanish jarayoni asosan tarmoqlangan alkanlar hosil bo'lishi tomoniga yo'naladi.

Alkanlarni juda kuchli kislotalar ta'sirida izomerlanishi sanoat miqyosida yuqori sifatlari motor yonilg'isi ishlab chiqarishga tatbiq etilishi mumkin.

Alkanlarning reaksiyon qobiliyati metandan boshlab tarmoqlanmagan alkanlarga, va ayniqsa tarmoqlangan alkanlarga tomon ortib boradi. Bu bir me'yorda radikal o'rinni olish, degidridlash, krekinglash reaksiyalariga va juda kuchli kislotalar ishtirokidagi o'zgarishlarga tegishli. Ushbu hodisa  $\sigma$ -bog'lar sonining ortish bilan elektronodonor xossalarni qandaydir darajada kuchayishiga, hamda zanjirning uzayishi va tarmoqlanishi bilan C – C va C – H bog'larning dissotsiyalish energiyasini kamayishiga bog'liq.

*3-jadval*

**Ayrim C-H bog‘larning dissotsiyalanish energiyasi**

Dissotsiyalanish reaksiyasi	$\Delta H$ (o‘rt. qiymat)	
	kJ/mol	kkal/mol
$CH_4 \rightarrow CH_3^* + H^*$	425	102
$CH_3CH_3 \rightarrow CH_3CH_2^* + H^*$	406	97
$CH_3CH_2CH_3 \rightarrow CH_3CH_2CH_2^* + H^*$	395	94
$CH_3CH(CH_3)CH_3 \rightarrow CH_3C^*(CH_3)CH_3 + H^*$	375	90

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki,  $-CH_3$  va  $CH_3-CH_2-$  radikallarining barqarorligi kam. Ularning o‘rtacha mavjud bo‘lish muddati  $10^{-3}...10^{-1}$  sekundni tashkil qilishi aniqlangan. Tarmoqlangan erkin radikallar barqarorroq bo‘lib, bu fazoviy effektlar va toq elektronning delokalizatsiyasi kamligi bilan tushuntiriladi. Bunda uchlamchi radikallar ikkilamchi radikallardan barqarorroq.


*4-jadval*

**Ayrim kimyoviy bog‘larning energiyasi ( $\pm 3$  kJ/m)**

Bog‘	Energiya	Bog‘	Energiya	Bog‘	Energiya
C - C	344	C - N	292	C = C	615
N - N	159	C - O	350	N = N	418
O - O	143	C - F	443	C = N	615
C - H	415	C - Cl	328	C = O	725
N - H	391	C - Br	279	C ≡ C	812
O - H	463	C - I	240	C ≡ N	890

Shunday qilib erkin radikal mexanizmlari asosan uchlamchi uglerod atomida yoki ikkilamchi uglerod atomida borishi kerak, ya’ni reaksiyalar *regioselektiv* bo‘lishi mumkin. Regioselektiv reaksiya deb molekulada reaksiya sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir necha holatdan asosan faqat bittasida kimyoviy o‘zgarishlar boradigan reaksiyaga aytildi.

Masalan, regioselektiv reaksiya davomida o‘rin olish ketma-ketligi quyidagicha bo‘lishi kerak:



Alkanlarning reaksiyalarida bu qoidaga qat'iy rioya qilinmaydi. Regioselektivlik reagent faolligiga va reaksiya tezligiga bog'liq. Reagent qanchalik faol va reaksiya tezligi yuqori bo'lsa, regioselektivlik shunchalik kam bo'ladi. Masalan, bromlash reaksiyasining regioselektivligi xlorlash reaksiyasiga qaraganda kattaroq.

Alkanlar oddiy va nisbatan arzon yoqilg'i bo'lib qolmay, balki, yirik sanoat ishlab chiqarish jarayonlari uchun xomashyo hisoblanadi. Masalan, metandan xlormetanlar, nitrometan, rezina sanoati uchun qurum, sintez gazi, uglerod sulfid, formaldegid, sianid kislotasi va boshqa mahsulotlar olinadi.

Neftdan olinadigan alkanlar va boshqa uglevodorodlarning aralashmasi ichki yonuv dvigatellari va reaktiv dvigatellar uchun motor yoqilg'isi hisoblanadi.

Neftning yuqori fraksiyalari yuqori sifatlari benzin olish uchun kreking qilinadi. Bunda alkanlardan tashqari kimyo sanoati uchun muhim bo'lgan alkenlar – etilen, propilen, butenlar ham hosil bo'ladi.


*Metan* – rangsiz, hidsiz gaz, suvda kam eriydi ( $20^\circ\text{C}$  da 100 gr suvda taxminan 50 ml, yoki 0,033 gr). Tabiatda botqoq gazi, kon gazi ko'rinishida uchraydi. Tabiiy gazdagi metanning miqdori 60% dan 99 % gacha bo'ladi. Toshko'mir quruq haydalganda, ko'mir gidridlanganda ham metan hosil bo'ladi.

Alkanlar ko'plab organizmlar uchun tabiiy modda almashinuv mahsulotlari (metabolitlar) hisoblanadi. Masalan, dengiz organizmlari fotosintez natijasida ko'p miqdorda alkanlar hosil bo'ladi va atrof-muhitga tarqaladi.

Tabiatda bakteriyalar faoliyati natijasida kletchatka metanli bijg'ishga uchraydi va to'xtovsiz metan hosil bo'lib turadi. Metan kavsh qaytaruvchi hayvonlar chiqargan nafas havosida, botqoq gazi tarkibida bo'lib, suv havzalari tubida to'planadi.

Ayrim mikroorganizmlar alkanlarni o'zlashtirib uglerod va energiya manbayi sifatida foydalanadi. Alkanlarning tabiiy hosil bo'lishi va ularni inson aralashuvizsiz suv havzalariga kelib tushishi uzoq vaqt tabiiy ehtiyojlar asosida sodir bo'lgan. Insoniyatni xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitning alkanlar bilan ifloslanishi keskin ortib ketdi. Bunga kimyoviy korxonalarining atrof-muhitga chiqaradigan chiqindilari, neft va gaz qazib olish va ularni tashish jarayonidagi yo'qotishlarni misol qilish mumkin.

## Metanning eng muhim kimyoviy xossalari



Alkanlar turli yo'llar bilan atrof-muhitga tushadi. Alkanlar atrof-muhitda suv, havo va tuproqning tabiiy tozalanishiga yordam beruvchi bir qator fizik-kimyoviy omillar ta'siriga uchraydi. Bunday jarayonlarga adsorbsiya, oksidlanish, UB-nurlar ta'sirida parchalanish kabilalar kiradi. Uglevodorodlar tuproq va suv muhitida yashaydigan mikroorganizmlar faoliyatida ham parchalanadi. Bunday mikroorganizmlarga bakteriyalar va zamburug'lar kiradi.

Alkanlar uch xil yo'l bilan oksidlanishi mumkin:

1. Uglerod zanjiridagi chetki uglerod atomining spirt, aldegid va keyin karbon kislota hosil bo'lishi bilan oksidlanishi. Karbon kislota keyin β-oksidlanishga uchraydi.
2. Ikkinchি uglerod atomining oksidlanishi va ikkilamchi spirt hosil bo'lishi, uning metilketonga aylanishi.
3. Ikkita chetki uglerod atomining oksidlanishi va dikarbon kislotaning hosil bo'lishi.

Alkanlar odam organizmiga kuchli narkotik ta'sir ko'rsatadi. Alkanlar suvda kam eruvchan bo'lganligi sababli zaharovchi ta'sir ko'rsatishi uchun havodagi miqdori yuqori bo'lishi kerak. Quyi alkanlarning fiziologik ta'siri odatdagи sharoitlarda juda kam. Beshta va oltita uglerod atomi tutuvchi alkanlar nafas yo'llariga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Yuqori alkanlar teriga tekkanda nisbatan xavfli. Quyi alkanlar odam va hayvonlar hayot faoliyatining mahsulotlari bo'lib, organizmda biologik o'zgarishga uchramaydi va organizmdan o'z-garishsiz chiqariladi.

Tarmoqlangan alkanlarning tarmoqlanganlariga qaraganda teri orqali so'riliishi osonroq. Tarmoqlangan alkanlar organizmda tutib

qolinmaydi, tarmoqlanmaganlari esa tegishli kislotalar hosil bo'lishi bilan terminal oksidlanishga uchraydi. Odam va hayvonlarning to'qimalaridagi modda almashinuvi jarayonlarida geksan, geptan, oktan va boshqa alkanlar o'zgarishga uchrashi mumkin. Jigar to'qimalarida alkanlar oksidlanib karbon kislotalarga aylanadi. Karbon kislotalar esa konyugatlar (birikmalar) ko'rinishida tashqariga chiqariladi va tashqarida suv va karbonat angidridgacha oksidlanadi. Oksidlash jarayonlarida sitoxrom c-reduktazalar, sitoxrom B<sub>s</sub>, P-450 va boshqa fermentlar ishtirok etadi.

Atmosfera havosidagi geksanning maksimal bir martalik kon-sentratsiyasi – 60 mg/m<sup>3</sup>, pentanning konsentratsiyasi – 100 mg/m<sup>3</sup>, butanning konsentratsiyasi – 200 mg/m<sup>3</sup> ga teng.

## 2-BOB. ALKENLAR

Alkenlar umumiy formulasi  $C_nH_{2n}$  bo'lgan to'yinmagan uglevodorodlar bo'lib, molekulasida bitta  $\sigma$  va bitta  $\pi$  bog'dan tarkib topgan qo'shbog' borligi bilan xarakterlanadilar. Eng sodda alken  $CH_2$  formulaga to'g'ri keladigan uglevodorod bo'lishi kerak. Lekin bunday tarkibli alkenni olish mumkin emas. Aniqlanishicha, mazkur birikma juda beqaror faol biradikal xossasiga ega. Keyinchalik u *karben* deb nomlandi.



Alkenlarga etilen –  $C_2H_4$ , propilen –  $C_3H_6$ , butilen –  $C_4H_8$ , pentilen –  $C_5H_{10}$ , geksilen –  $C_6H_{12}$  kabi birikmalar kiradi. Etilenning tuzilish formulasida uglerod atomlari orasiga qo'shbog' yoziladi  $H_2C=CH_2$ .

Alkenlar etilenning hosilalari deb qaraladi. Alkenlarning ilk tarixiy nomi *olefinlar*, ya'ni moy hosil qiluvchilardir. Chunki ular xlor va brom bilan ta'sirlashib moysimon suyuqliklar hosil qilganlar. Alkenlar birikish mahsulotlari hosil qilganliklari uchun to'yinmagan uglevodorodlar ham deyiladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, boshqacha xossalarga ega bo'lgan sikloalkanlarning tarkibi ham  $C_nH_{2n}$  formulaga to'g'ri keladi.


### NOMLANISHI VA IZOMERLANISHI

Xalqaro IYUPAK qoidalariga ko'ra bitta qo'shbog' tutgan ochiq zanjirli to'yinmagan uglevodorodlar *alkenlar* deb yuritiladi. Alkenlarning nomlari tegishli alkan nomidagi – *an* qo'shimchasini – *en* qo'shimchasiga almashtirish bilan yasaladi. – *en* qo'shimchasi uglevodorod zanjirida qo'shbog' borligini bildiradi. Qoidaga ko'ra alkenni nomlash uchun uglevodorod zanjirining qo'shbog' joylashgan eng uzun qismi tanlanadi, uglerod atomlari qo'shbog' eng kichik raqamga ega bo'ladigan qilib raqamlanadi. Qo'shbog'ning raqami – *en* qo'shimchasidan keyin qo'yish qabul qilingan. Ba'zan asosiy zanjir nomining oldidan qo'yilishi ham mumkin.




Alkenlarning struktura izomerlari soni alkanlardagiga qaraganda ko‘proq, chunki alkenlar qo‘shbog‘ning holati bo‘yicha ham izomerlanishi mumkin. Shuningdek alkenlarda fazoviy (geometrik) izomeriya ham kuzatiladi. Masalan, buten-2 ikki xil izomer, *ya’ni sis-buten-2* va *trans-buten-2* hosil qiladi. Odatdagi sharoitlarda qo‘shbog‘ atrofida molekulaning erkin aylanishi mumkin bo‘lmagan uchun metil guruhlari qo‘shbog‘ning bir tomonida (*sis-izomer*) yoki qarama-qarshi tomonlarida (*trans-izomer*) joylashishi mumkin. Bunday fazoviy izomerlarni sis- izomerlar uchun Z (nemischa *zusammen* – birligida) harfi va trans izomerlar uchun E (nemischa *entgegen* – qarama-qarshi) harfi bilan ham ifodalanadi.

Agar qo‘shbog‘ yonida uch yoki to‘rt xil uglevodorod qoldig‘i yoki boshqa o‘rbinosar bo‘lsa *sis-* yoki *trans-* izomerni belgilash uchun ikkita eng katta o‘rbinosar tanlanadi. Qabul qilingan qoidalarga muvofiq, uglevodorod o‘rbinosarlarning kattaligi quyidagi tartibda ortib boradi:



Izomerning tuzilishini belgilash uchun ikkita eng katta izomer aniqlab olinadi. Agar ikkala izomer qo‘shbog‘ joylashgan tekislikning bir tomonida joylashgan bo‘lsa Z-izomer bo‘ladi, aksincha bo‘lsa E-izomer bo‘ladi. Masalan,



Z-3-metil-4-etylhepten-3


Alkenlar qoldiqlarining nomi tegishli alken nomiga -il qo‘shimchasi qo‘shib yasaladi. Ba’zi alken qoldiqlari trivial nomlarini saqlab qolgan.



Etenil yoki  
vinil



Propenil-2  
yoki allil



1-metiletenil




Propenil-1

## **OLINISH USULLARI**


Alkenlar alkanlarni degidridlab, yoki boshqa organik birikmalardan atom guruqlarini ajratish yo‘li bilan olinadi. Ba’zan alkenlar olishda alkinlar yoki bir nechta qo‘shbog‘ tutuvchi birikmalar ishtirok etuvchi, hamda kondensatsiya reaksiyalarini ham qo‘llaniladi.

1. Alkanlarni degidridlash va krekinglash. Ushbu usul sanoat usuli bo‘lib, alkenlar alkanlar molekulasiidan ikki atom vodorod ajratib olish orqali olinadi. Bunday reaksiyalar yuqori haroratlarda va har xil metallarning oksidlari katalizatorligida amalga oshadi. Masalan, pentan xrom (III) oksidi ishtirokida  $450^{\circ}\text{C}$  da qizdirilsa penten hosil bo‘ladi.




Taxminan  $600^{\circ}\text{C}$  da reaksiya davom etadi va pentadiyenlar hosil bo‘ladi. Yanada yuqori haroratlarda C-C bog‘lari uzilib molekulyar massasi dastlabki alkanning molekulyar massasidan kichik bo‘lgan alkanlar va alkenlar aralashmasi hosil bo‘ladi (kreking).


2. Galogenalkanlardan galogenvodorod yoki galogen ajratib chiqarish. Galogenalkanlarga ishqorlarning konsentrangan eritmalari ta’sir ettirilganda alkenlar hosil bo‘ladi. Qo‘shimcha sifatida spirtlar hosil bo‘ladi. Ishqorlarning suyultirilgan eritmalari ta’sirida esa asosan spirtlar hosil bo‘ladi.




Galogenvodorod termik yo‘l ajratilishi ham mumkin.




Vitsinal digalogenalkanlarga rux ta’sir ettirilganda ham alkenlar hosil bo‘ladi.



3. Spirlarni degidratlash. Spirlarni degidratlash ikki xil yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchingisida spirtlar kuchli kislotalar, asosan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan qizdiriladi. Bu alkenlar olishning odatdagи laboratoriya usuli hisoblanadi.





Ikkinci usulida spirtlar qattiq katalizatorlar, odatda  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ishtirokida qizdiriladi.




Ushbu metod sanoatda ham qo'llaniladi.


4. Diyenlar va alkinlarni gidridlash. Selektiv gidridlash katalizatorlari ishtirokida diyenlar va alkinlarni alkenlarga gacha qaytarish mumkin.



5. Kondensatsiya reaksiyalar. Alkenlar va ularning hosilalari faol guruhlari, masalan, karbonil, metilen guruhlari tutuvchi ikkita birikmaning o'zaro ta'siri natijasida ham hosil bo'ladi. Bunday reaksiyalar umumiy tarzda quyidagicha boradi:



6. Alkenlar metatezisi. *Metatezis* (disproporsiyalanish, dismutatsiya, yunoncha qayta joylashtirish ma'nosini bildiradi) reaksiyasi katalizator ishtirokida olefinlar molekulalari o'rtasida alkiliden guruhlarining almashinishidir:




$\text{R, R}^1, \text{R}^2, \text{R}^3 = \text{H}$  yoki boshqa organik o'rinxbosarlar.


Atsiklik oleflinlarning metatezisi deyarli issiqlik effektlarisiz boradigan muvozanat reaksiya bo'lib, muvozanat holati olefin tabiatiga va reaksiya temperaturasiga bog'liq. Katalizator sifatida odatda molibden, volfram, reniy birikmalari, ba'zan boshqa metallarning birikmalari qo'llaniladi. Ko'pincha katalizator sifatida 1) noorganik tashuvchiga ( $\text{MoO}_3/\text{Al}_2\text{O}_3$ ) yuttilgan molibden, volfram va reniyning oksidlari va karbonillari, 2) ayni metallarning birikmalaridan (odatda  $\text{WCl}_6$ ) Sigler-Natta katalizatorlari ishlataladi. 1-tur katalizatorlari ishtirokida metatezis  $20^\circ\text{C}$  dan (reniyli katalizator)  $400^\circ\text{C}$  gacha (volframli katalizator),

2-tur katalizatorlari qo'llanilganda reaksiya 0-20°C da olib boriladi.

Metatezisning boshlang'ich faol markazlari – o'zgaruvchan metallarning organik hosilalarini parchalanishidan yoki olefinlarni kompleks hosil qiluvchi metallning koordinatsion sferasida faollanishi natijasida hosil bo'ladijan karben komplekslaridir. Metatezis mexanizmi olefinni faol karben kompleksiga koordinatsiyalanishidan, oraliq metallsiklobutanni hosil bo'lishi va uning boshlang'ich moddalarga yoki faol markazni regeneratsiyasi bilan boradigan parchalanishidan iborat.



Sikloolefinlarning metatezis reaksiyasi siklning ochilishi va to'ymagan polimer birikmalarining hosil bo'lishi bilan boradi. Bunday holatda odatda 2-tur katalizatorlari qo'llaniladi. Reaksiya temperaturasi -70°C dan 100°C gacha bo'ladi. Zanjirning uzayishi quyidagicha sodir bo'ladi:



O'sib borayotgan zanjirning faol markazlari ham monomerning, ham polimer zanjirining qo'shbog'lari bilan ta'sirlasha oladi. Polimer zanjiri bilan ta'sirlashganda polimer destruksiya uchraydi va siklik oligomer hosil bo'ladi.



Monomerning konsentratsiyasi kamayishi va sistemanı inert organik erituvchi bilan suyultirish natijasida destruksiya jarayoni kuchayadi. Metatezis katalizatorlari shunga o'xshash sxema bo'yicha suyultirilgan eritmalarda polimerlar, masalan, polibutadiyenni destruksiyasiga sabab


bo'ladi. Ushbu polimerlar destruksiya natijasida kichik molekulyar massali siklik va chiziqli birikmalarga aylanadi.

Olefinlar kabi ularning hosilalari hamda atsetilenlar ham metatezis reaksiyasiga kirishadi. Atsetilenlarning metatezisida alkilidin guruhlari almashadi, faol markazlar molibden, volfram va reniyning karbin komplekslari hisoblanadi.

Sanoatda etilen va buten-2 olish uchun propilenni metatezisi, neogeksen olish uchun diizobutilenni etilen bilan birqalikdagi metatezisi, 1,5-geksadiyen va 1,9-dekadiyen olish uchun etilenni 1,5-siklooktadiyen va siklookten bilan birqalikdagi metatezisi, hamda yuqori olefinlarning metatezisi amalga oshirilgan. Metatezis yordamida Fransiyada norbornennenning, GFR da siklooktenning, AQSH da disiklopentadiyenning polimerlari olingan. Dunyo miqyosida metatezis yo'li bilan olingan polimerlarning miqdori yiliga bir necha ming tonnani tashkil qiladi.

Olefinlarning metatezisi birinchi marta 1964-yilda R.Banks va D.Beyli tomonidan amalga oshirilgan.

Bundan tashqari alkenlar ayrim organik birikmalarni termik parchalanishi natijasida ham hosil bo'ladi. Masalan, ksantogen (ditiokarbonat) kislotasining efirlari 200°C gacha qizdirilsa ksantogen kislotasi va alken chiqadi.




### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Alkenlarning dastlabki vakillari ( $\text{C}_2-\text{C}_4$ ) odadagi sharoitda gazsimon, keyingi vakillari esa rangsiz suyuq yoki kristall moddalardir. Molekuladagi uglerod atomlari soni va tarmoqlanish darajasi ortib borishi bilan alkenlarning hidi o'tkir, shilliq pardaga ta'sir etuvchi bo'lib boradi.

Alkenlarning uglerod atomlari soni bir xil bo'lgan alkanlarga qaraganda zichligi, yorug'lik sindirish koeffitsiyenti va molekulyar refraksiyasi kattaroq. Molekulyar refraksiyaning yuqoriligi qo'shbog'ning qutblanuvchanligi kuchliroq ekanligidan darak beradi.

Qo'shbog'ning termokimyoiy energiyasi 615 kJ/mol (147 kkal/mol) ni tashkil qiladi. Bu oddiy bog'ning energiyasidan ancha katta ( $E_{e-c} = 344$  kJ/mol), lekin ikkita oddiy bog' energiyasi yig'indisidan kam. Bu qo'shbog'dagi bog'lardan biri oddiy bog'ga qaraganda osonroq uzilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Etilenning dipol momenti 0 ga teng, lekin simmetrik almashigan alkenlar dipol momentiga ega, ya'ni ularning molekulasi qutblangan.




Masalan, izobutilenning dipol momenti  $\mu = 1,64 \cdot 10^{-30}$  KJ m (0,49D) ga teng.

Demak, metil guruhlari qo'shbog'dagi elektron zichligini o'zgartiradi. Metil guruhi elektronodonor sifatida ta'sir etadi va induktiv effektni namoyon qiladi ( $+I$ ). Shuningdek C-H bog'larining  $\sigma$ -elektronlari va qo'shbog'ning  $\pi$ -elektronlari bilan ta'sirlashishi mumkin ( $\sigma$ ,  $\pi$ -bog'lanish).

Qo'shbog' yonidagi alkil guruhlari alken molekulasining termodynamik barqarorligini orttiradi. Buni standart yonish entalpiyasi (issiqligi) va gidridlash issiqligi qiyamatlaridan bilish mumkin. Bir xil tarkibli birikmalarining yonish issiqligi qanchalik kam bo'lsa, birikma shunchalik barqaror bo'ladi. Masalan, buten-1 uchun  $\Delta H_{\text{yon}} = -2719$  kJ/mol, trans-buten-2 uchun esa  $\Delta H_{\text{yon}} = -2707$  kJ/mol ni tashkil qiladi. Xuddi shunday tartibda gidridlash issiqligi ham kamayadi.


Elektronografik tekshirishlar natijalariga ko'ra etilen molekulasining fazoviy (geometrik) shakli yassi, bog'lar orasidagi burchaklar  $120^\circ$  ga yaqin (trigonial burchaklar),  $>\text{C}=\text{C}<$  bog'ining uzunligi 0,133 nm ni tashkil qiladi.



Etilen va boshqa alkenlarning tuzilishini uglerod atomining  $sp^2$ -gibrildanishi haqidagi faraz bilan tushuntirish mumkin. Etilendagi uglerod atomi  $sp^2$ -gibrildangan orbitallar hisobiga uchta  $\sigma$ -bog' va  $\rho$ -orbitalлarni qoplanishi hisobiga bitta  $\pi$ -bog' hosil qiladi.

Molekulaning  $>\text{C}=\text{C}<$  bog'i atrofida burilishi ancha qiyinlashgan. Burilish uchun energiya sarflanishi zarur. Shuning uchun barqaror sisva trans- izomerlar mavjud bo'ladi. Bunday izomerlar faqat yuqori temperaturada yoki UB-nurlar ta'sirida bir-biriga o'tishi mumkin.


Alkenlarda  $\pi$ -bog'ning mavjudligi ularning yuqori refraksiyasi, bitta bog' energiyasining kam bo'lishi, oson qutblanuvchanligi kabi xossalalarini belgilaydi.  $\pi$ -orbital elektronlari atomlar yadrolaridan uzoqroq joylashganligi uchun harakatchanroq,  $\pi$ -orbitallar energiyasi  $\sigma$ -orbitallar energiyasidan kam.  $\pi$ -orbitaldan elektronni ajratib olish uchun  $\sigma$ -orbitaldan elektron ajartib olishga qaraganda kamroq energiya sarf bo'ladi. Buni alkenlarning ionlanish energiyalari qiyamatlaridan ham ko'rish mumkin.



## KIMYOVIY XOSSALARI

Alkenlar molekulasida bitta  $\sigma$  va bitta  $\pi$  bog'dan tarkib topgan qo'shbog'ni mayjudligi uglerod atomlari orasidagi masofani qisqartirish bilan birga molekulani kimyoviy jihatdan faolligini oshiradi. Alkenlarning reaksiyon qobiliyatini elektronodonor ta'sirga ega bo'lgan, oson qutblanadigan qo'shbog'ning mayjudligi bilan belgilanadi. Qo'shbog'ga yonma-yon turgan C-H bog'larning faolligiga ham ta'sir qiladi. Alkenlar birikish, polimerlanish, oksidlanish, ba'zan almashinish reaksiyalariga kirishadi.


**1. Alkenlarning gidridlanishi.** Alkenlarni qo'shbog' uzilishi evaziga boradigan birikish reaksiyalaridan biri gidridlanish reaksiyasidir. Alkenlar faqat katalizatorlar ishtirokida gidridlanadilar. Gidridlanish reaksiyasini umumiy tarzda quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:



Sabatye va Sanderan 1897-yilda alkenlarni gidridlash reaksiyasini kukunsimon nikel ishtirokida amalga oshirishni taklif etdilar. Bu reaksiya keyinchalik Sabatye - Sanderan reaksiyasi deb nom oldi. Adams tomonidan esa alkenlarni gidridlashda  $\text{PtO}_2$  dan foydalanish taklif etildi. Ushbu katalizator keyinchalik Adams katalizator deb ataladigan bo'lди.

Gidridlash reaksiyasi natijasida issiqlik ajralib chiqadi, ya'ni ekzotermik reaksiya hisoblanadi. Bir xil tarkibli alkenlar gidridlanganda qo'shbog' yonida alkil guruuhlar qanchalik ko'p bo'lsa gidridlanish issiqligi shunchalik kam bo'ladi. Masalan, buten-1 gidridlanganda 126,8 kJ/mol, *trans*-buten-2 gidridlanganda 115,5 kJ/mol issiqlik ajralib chiqishi aniqlangan.


**2. Alkenlarni gidroborlash.** Alkenlar qo'shbog'ni oson uzilishi evaziga bor gidridi bilan birikish reaksiyasiga oson kirishadi. Hatto xona temperaturasida diboranni birkirishi mumkinligi isbotlangan. Reaksiya natijasida sis-birikish mahsuloti hosil bo'lishi tasdiqlangan.



Hosil bo'lgan trialkilboran ishqoriy muhitda vodorod peroksid bilan oksidlansa birlamchi spirtlar hosil bo'ladi.

**3. Alkenlarning elektrofil reagentlar bilan reaksiyalari.** Alkenlar elektronodonor yoki nukleofil reagentlar hisoblanadi. Elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashganda komplekslar va birikish mahsulotlari hosil bo'ladi. Ba'zi holatlarda oligomerlanish va polimerlanish reaksiyalari ham boradi. Alkenlar ayrim kuchli kislotalar, karbokationlar, galogenlar, borgidrid va metallarning ionlari bilan ta'sirlashadi.


A) Alkenlarni kuchli kislotalar bilan reaksiyalari. Alkenlar kuchli kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi. Aksariyat holatlarda kislotalar qo'shbog'ga birikadi.




X=Cl, Br, I, OSO<sub>3</sub>H va boshqalar.

Gidrogalogenlash va sulfat kislotasining birikish reaksiyalari yaxshi o'r ganilgan. Galogenvodorodlar gaz fazasida ham, eritmalarda ham reaksiyaga kirishadi. Reaksiya tezligiga og'ir metallarning tuzlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Galogenvodorodlar nosimmetrik alkenlarga ikki xil yo'nalishda birikishi mumkin. Aksariyat holatlarda reaksiya yo'nalishi alkenning tuzilishiga bog'liq. 1870-yilda rus olimi V.V. Markovnikov alkenlarni birikish reaksiyalarini o'r ganish natijasida vodorodli birikmalar qo'shbog'ga birikkanda vodorod atomini ko'proq saqlagan uglerodga vodorod borib birikishi mumkinligini aniqladi. Bu holat keyinchalik *Markovnikov qoidasi* deb nom oldi. Ushbu qoidani umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.



Bu reaksiya klassik elektron nazariya bilan tushuntiriladi. Nosimmetrik almashingan molekulasi qutblangan bo'lib, alkil guruuhlar elektron donor o'rnbosarlar sifatida protonning birikish mumkin bo'lgan yo'nalishini belgilaydi.



Alkil guruuhlar kuchsiz donorlar bo'lganligi uchun reaksiya yo'nalishi reaksiya sharoitiga, erituvchiga konsentratsiya va haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Erkin radikallar bilan boradigan reaksiyalar elektronoakceptor o'rnbosarlar tutuvchi alkenlardagi kabi Markovnikov qoidasiga «teskari» boradi.




(A= CN, NO<sub>2</sub>, COR)

Reaksiya ion mexanizmi bo'yicha boradi. Protonning birikishi natijasida karbokation hosil bo'lib, unga o'z navbatida anion birikadi.


Biroq erkin karbokationlarning (*uchlamchi* karbokationdan tashqari) hosil bo'lish ehtimoli juda kam, chunki ular juda faol zarrachalar hisoblanadi.

Birikishni trimolekulyar jarayon deb qarash mumkin, bunda kislotaning bitta molekulasi alken bilan  $\pi$ -kompleks hosil qilib  $\pi$ -elektronlarni qutblaydi, ikkinchisi esa anion hosil qiladi.




Shuningdek oraliq ion juftlari hosil bo'lishi ham mumkin.

Boshqa anionlar yoki nukleofil zarrachalar ishtirokida har xil mahsulotlar aralashmasi hosil bo'ladi.




Gidrogalogenlash reaksiyalarda birikishning molekulyar mexanizmi bo'lishi mumkin bo'lib, ionlar hosil bo'lishi mumkin emas va reaksiya siklik o'tish holati orqali boradi.



Reaksiya mexanizmi ko'plab omillarga, ayniqsa, muhitning qutblanganligiga va alken strukturasiga bog'liq. Qutbli erituvchilar muhitida ion mexanizmlar, qutbsiz erituvchilarda va gaz fazasida molekulyar mexanizmlar kuzatiladi.

Alkenlarning sulfat kislotasi bilan reaksiyasi katta ahamiyatga ega. Bunda alkilsulfatlar hosil bo'ladi.



Alkilsulfatlar suv bilan ta'sirlashib alkanollarga aylanadi.



Shunday qilib sulfat kislotasi alkenlarga suvning birikishini ta'minlaydi. Alkenlarni gidratlash ham kislotalar katalizatorlar ishtirokida boradi. Ushbu reaksiyalar yordamida sanoatda alkenlardan spirtlar olinadi.

Uchlamchi karbokationlar hosil qiluvchi tarmoqlangan alkenlar kuchli kislotalar ta'sirida oligomerlanadi va polimerlanadi.

B) Alkenlarni C-elektrofillar bilan reaksiyalar. Alkenlar kuchli C-elektrofillarni, masalan, reaksiyon muhitida ion juftlari ko'rinishida hosil bo'ladigan karbokationlarni biriktiradi:


Reaksiya natijasida yangi karbokation hosil bo'lib, u o'z navbatida keyingi o'zgarishlarga uchraydi. Mazkur jarayon alkenlarni karbokation mexanizmi bo'yicha polimerlanishiga asos bo'lgan.

D) Galogenlanish reaksiyalar. Galogenlar alkenlarga oson birikadi. Ftor juda tez, hatto portlash bilan reaksiyaga kirishsa, yod sost reaksiyaga kirishadi. Buni galogenlarning elektronga moyilligi qiymatlaridan ham ko'rish mumkin:




C-F bog'i hosil bo'lishida 443 kJ/mol, C-Cl bog'i hosil bo'lishida 328 kJ/mol, C-Br bog'i hosil bo'lishida 279 kJ/mol, C-I bog'i hosil bo'lishida 240 kJ/mol energiya ajralib chiqadi.

Reaksiya natijasida digalogenalkanlar hosil bo'ladi. Aksariyat holatlarda birikish fazoviy tanlangan -stereoolektiv ravishda boradi. Bir nechta hosil bo'lishi mumkin bo'lgan fazoviy izomerlardan asosan bittasi hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar stereoolektiv reaksiyalar deyiladi. Galogen atomlari faqat *trans*- holatda birikadi.




Reaksiyaning stereoolektivligi galogen molekulasing fazoviy ta'siri bilan tushuntiriladi. Alkenning galogen bilan o'zaro ta'siri natijasida qo'shbog' bo'yicha elektron zichligini taqsimlanishi o'zgargan  $\pi$ -kompleks (zaryad ko'chirish kompleksi – ZKK) hosil bo'lishi aniqlangan. Taxmin qilinishicha,  $\pi$ -kompleks ionlanishi mumkin va shundan keyin qarama-qarshi tomonidan galogen anioni nukleofil hujum qiladi.




Agar reaksiya erkinradikal mexanizm bo'yicha boradigan bo'lsa, unda stereoselektivlik kuzatilmaydi, *sis*- va *trans*- izomerlar hosil bo'ladi. Radikal reaksiyalar yorug'lik ta'sirida, peroksidlar va boshqa radikal initsiatorlar ishtirokida boradi.



Alkenlarni boshqa anionlar yoki nukleofillar ishtirokida galogenlash mutijasida digalogenli birikmalar, hamda aralash birikish mahsulotlari hosil bo'ladi.




Masalan, alkenlar xlorli suv bilan xlorlanganda xlorgidrinlar (xloralkanollar) hosil bo'ladi.



Ushbu reaksiya alkenga xlorning suvdagi eritmasida hosil bo'ladigan gipoxlorit kislotasini birikishi deb qaralishi mumkin.



E) Metall ionlari bilan o'zaro ta'siri. Alkenlar to'limgan elektron orbitallarga ega bo'lgan metallarning ionlari bilan  $\pi$ -komplekslar hosil qiladi. Masalan,




Bunday komplekslarning hosil bo‘lishi donor-akseptor o‘zaro ta’sir bilan tushuntiriladi. Elektronodonor sifatida alken, elektronoakseptor sifatida esa metall ioni qatnashadi. Ta’sirlashuv natijasida qo‘shbog‘ning tabiatи o‘zgaradi, uglerod atomlarida qisman musbat zaryad paydo bo‘ladi.


$\pi$ -Komplekslardagi bog‘ning tabiatи murakkab. Bunda qo‘shimcha dativ bog‘ ham hosil bo‘ladi. *Dativ bog‘ yoki metallning dativ effekti* deb elektronodonorning bo‘sashtiruvchi orbitali bilan metall atomi elektronlarining o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan qo‘shimcha bog‘ga aytildi.

Ionlar, hamda o‘zgaruvchan metallar atomlari bilan  $\pi$ -komplekslar hosil bo‘lishida alkenlar ikki elektronli ligand sifatida qatnashadi. Alkenlarning  $\pi$ -komplekslari ko‘plab muhim reaksiyalarda oraliq modda bo‘lishi mumkin.

Simob tuzlari bilan boradigan reaksiyalar alohida o‘rin tutadi. Suv ishtirokida o‘ziga xos birikish mahsuloti – guruh tutuvchi simoborganik birikma hosil bo‘ladi.




**4. Alkenlarni gidroformillash.** Alkenlarni gidroformillash reaksiyasi boshqacha nom bilan oksosintez reaksiyasi deb yuritiladi. Alkenlar bosim ostida kobalt katalizatorlari ishtirokida is gazi va vodorod bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya natijasida olingan xomashyoning tuzilishiga ko‘ra aldegidlar, ba’zan ketonlar hosil bo‘ladi. Alkenlarni oksosintez reaksiyasi 1938-yilda O.Roelen tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ushub reaksiya yordamida sanoat miqyosida aldegidlar va ketonlar olishda foydalaniлади.




Oksosintez katalizatori sifatida odatda g‘ovak tashuvchiga cho‘ktirilgan kobalt yoki uning tuzlari ishlataladi. Ta’sir etuvchi katalizator kobalt tetrakarbonilgidrid  $\text{HCo}(\text{CO})_4$  ekanligi aniqlangan. Mazkur birikma kislota tabiatiga ega bo‘lib, kislotaliligi jihatdan nitrat va xlorid kislotalariga yaqin turadi.


Gidroformillash reaksiyasining mexanizmi ancha murakkab.  $\text{HCo}(\text{CO})_4$  kuchli kislota sifatida qo‘shbog‘ga birikadi deb taxmin qiliлади.




Reaksiya borishi mumkin bo‘lgan ikkinchi yo‘nalish –  $\pi$ -kompleks hovil bo‘lishi va alkennenning H-Co bog‘i bo‘yicha birikadi.




Hosil bo‘lgan kobaltorganik birikmadagi C-Co bog‘i bo‘yicha is yuzi birikishi mumkin.




Ushbu birikma kobalt tetrakarbonilgidrid ta’sirida parchalanadi.



Reaksiya muhitida katalizator qayta tiklanadi.




Gidroformillash reaksiyasi sanoatda aldegidlar, hamda birlamchi spirtlar olish uchun keng qo‘llaniladi. Masalan, propendan moy va izomoy aldegidlar, ular qaytarilib tegishli spirtlar olinadi.




Reaksiya harorati orttirilsa aldegidlarni ajratib olmasdan spirtlar olish mumkin.

**5. Alkenlarni oksidlash reaksiyalari.** Alkenlar oson oksidlanadi. Reaksiya sharoiti va oksidlovchiga bog‘liq ravishda glikollar, epoksidlar, aldegidlar, ketonlar va karbon kislotalar hosil bo‘lishi mumkin. Oksidlovchilar asosan qo‘sibog‘ga ta’sir etadi, ba’zida allil holat bo‘yicha ham reaksiya borishi mumkin.


A)  $\text{KMnO}_4$  va  $\text{CrO}_3$  bilan oksidlash. Alkenlar kuchsiz ishqoriy muhitda  $\text{KMnO}_4$  ning suvli eritmalari bilan oksidlanadi. Reaksiya natijasida glikollar hosil bo'ladi. Mazkur reaksiya to'yinmagan uglevodorolarga sifat reaksiya hisoblanadi, ya'ni eritmaning binafsha rangi yo'qoladi va  $\text{MnO}_2$ , cho'kmaga tushadi.



Reaksiya 1888-yilda E.E.Vagner tomonidan ochilgan. Reaksiya stereoselektiv bo'lib ikkita OH-guruh *sis*- holatda birikadi.




Alkenlar  $\text{OsO}_4$  bilan oksidlanganda ham glikollar hosil bo‘ladi. Mazkur reaksiya alkenlarni sifat reaksiyasida qo‘llaniladi.




Reaksiyada juda zaharli osmiy oksidi o‘rniga  $\text{RuO}_4$  qo‘llanilishi mumkin.

Alkenlar  $\text{CrO}_3$  bilan muz sirkal kislota eritmasida oksidlanganda alken molekulasi qo'shbog' turgan joydan parchalanadi va aldegidlargacha, karbon kislotalarigacha oksidlanadi.



B) Peroksikislotalar va kislorod bilan oksidlash. Alkenlar peroksikislotalar ta'sirida oson oksidlanib epoksidlar hosil qiladi.




Reaksiya 1909-yilda rus olimi N.A.Prilejayev tomonidan ochilgan. Peroksibenzoy kislotasi Prilejayev reaktivini ham deyiladi.


Epoksidlar alkenlarni kislorod yoki katalizator ishtirokida havo bilan oksidlash natijasida ham hosil bo'ladi. Mazkur reaksiya asosida sanoat muiyosida etilenoksid olish metodi ishlab chiqilgan.

Oksidlovchilar sifatida katalizator ishtirokida gidroperoksidlar ham ishlataladi.

D) Ozonlash. Alkenlar ozon bilan oson ta'sirlashadi va portlovchi birikmalar – molozonidlar va ozonidlar hosil qiladi.




Molozonid uglerod – uglerod bog'ining uzilishi bilan qayta gruppalanib ozonidga aylanadi. O'rinnbosarlarning turiga qarab ozonidlar besh yoki olti a'zoli sikllar hosil qilishi mumkin.




Ozonidlar gidrolizlanib karbonil birikmalar va vodorod peroksid hosil qiladi. Ozonidlar kompleks gidridlar bilan qaytarilsa spirtlar chiqadi.

Ozonlash reaksiyasi alkenlarning tuzilishini aniqlash uchun qo'llaniladi, chunki ozon alken molekulاسini qo'shbog' turgan joydan tanlab parchalaydi.


E) Palladiy tuzlari ishtirokida oksidlash reaksiyalari. Alkenlar palladiy tuzlari ishtirokida suv bilan ta'sirlashib karbonil birikmalar hosil qiladi. Palladiy metall holatga qaytariladi.



Aniqlanishicha,  $\text{PdCl}_2$  etilen bilan  $\pi$ -kopleks hosil qilishi natijasida etilendagi qo'shbog'ning nukleofil reagentlarga nisbatan faolligi ortadi. Suvning birikishi va palladiyorganik birikma hosil bo'lishi ham mumkin. Ushbu birikma sirkaliga (vinil sperti orqali) va palladiyga parchalanadi.




Ushbu reaksiya asosida sanoat miqyosida etilenden sirka aldegid olish metodi ishlab chiqilgan. Reaksiyon aralashmaga  $\text{CuCl}_2$  qo'shish bilan palladiy yana reaksiyaga qaytariladi. Havo yordamida  $\text{CuCl}$   $\text{CuCl}_2$  ga aylantiriladi.




Shunday qilib, etilen suvli muhitda palladiy va mis tuzlari ishtirokida kislorod bilan oksidlanadi.



**6. Alkenlarning erkin radikallar bilan reaksiyaları.** Alkenlar erkin radikallarni biriktirib yangi erkin alkil radikallari hosil qiladi. Ular o'z navbatida keyingi o'zgarishlarga uchraydi.



Radikallar rekombinatsiyasi, alkil radikalini alkenga birikishida boshqa molekulalardan vodorod atomini ajralishi sodir bo'lishi mumkin. Shunday qilib oligomerlanish, polimerlanish jarayonlari boshlanadi. Bundan tashqari alkil radikal disproporsiyalanishi ham mumkin:




Nosimmetrik alken molekulasiga erkin radikalning birikish yo‘nalishi yangi hosil bo‘layotgan erkin alkil radikalning barqarorligiga bog‘liq. Ko‘proq tarmoqlangan alkil radikallar barqarorroq bo‘ladi. Masalan, propenga HBr ni radikal mexanizm bo‘yicha birikishi quyida gicha:



Birikish Markovnikov qoidasiga zid ravishda boradi, chunki hosil bo‘lgan radikal o‘rtada joylashgan uglerod atomiga nisbatan chetda joylashgan uglerod atomida osonroq hosil bo‘lishi kuzatiladi.


**7. Alkenlarning oligomerlanishi va polimerlanishi.** Alkenlar o‘zaro birikib uzun uglerod zanjirli birikmalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Bunday reaksiyalar faqat faol oraliq zarrachalar keltirib chiqaruvchi moddalar – initsiatorlar ishtirokida va maxsus sharoitlardagina boradi.

A) Kislotalar ishtirokida polimerlanish. Sulfat kislota ishtirokida faqat bir nechta donor alkil guruhlar tutuvchi alkenlarga oligomerlanishi yoki polimerlanishi mumkin. Izobutileni sulfat kislota ishtirokida polimerlanishini birinchi marta A. Butlerov kuzatgan. Sulfat kislota miqdori va haroratga bog‘liq ravishda dimer, trimer yoki polimer olish mumkin. Sulfat kislota ta’sirida izobutilenidan tretbutilkation hosil bo‘lib, u ikkinchi izobutilen molekulasiga birikadi.



2,4,4-trimetilpenten-2 (diizobutilen)


Reaksiya davom ettirilsa poliizobutilen hosil bo'ladi.




poliizobutilen

Uchlamchi karbokationlar uchta alkil guruhning elektronodonor ta'siri natijasida ikkilamchi va birlamchi karbokationlarga nisbatan barqaror. Shuning uchun ular reaksiyon muhitda ko'proq miqdorda hosil bo'ladi.

B) Erkin radikallar ishtirokida polimerlanish reaksiyalari. Agar polimerlanish jarayonini davom etishi uchun zarur sharoit bo'lsa alkenlar faol erkin radikallar ishtirokida polimerlanadi.



Agar erkin radikallar dimerlansa yoki disproporsiyalansa polimerlanish jarayoni to'xtaydi.




Etilen qiyin polimerlanadi. Polimerlanish reaksiyasi yuqori 150 MPa (1500 atm) bosim ostida biroz miqdor kislород ishtirokida olib boriladi. Bunday sharoitda etilen suyuq holatda bo'ladi. Shu yo'l bilan molekulyar massasi  $20000 \div 40000$  bo'lgan yuqori bosimli polietilen olinadi. Bunday polietilen rangsiz, shaffof massa bo'lib,  $112-115^\circ\text{C}$  da yumshaydi, zichligi  $0,92-0,93 \text{ g/sm}^3$  ni tashkil qiladi.


Polietilen elektroizolyatorlar, qoplash, qadoqlash materiallari, tribalar tayyorlashda ishlataladi. Polietilen kislotalar va ishqorlar ta'siriga chidamli, termik jihatdan beqaror bo'lib, quyosh nuri va havo kislodi ta'sirida asta-sekin mo'rt bo'lib qoladi (polimerning eskiri-shi).

Yuqoridagi kabi propenni polimerlanishidan qotish harorati taxminan  $15^{\circ}\text{C}$  bo'lgan yuqori bosimli polipropilen hosil bo'ladi.

D) Telomerlanish. Telomerlanish deb alkenlarni zanjir o'tkazuvchi modda — telogen ishtirokida oligomerlanish reaksiyasiga aytildi. Reaksiya natijasida oligomerlar (telomerlar) aralashmasi hosil bo'ladi. Ularning chetki guruhlari telogenning qismlaridan iborat bo'ladi. Bunga etilenni tetraxlormetan bilan reaksiyasi misol bo'ladi:




Yuqoridagi reaksiya natijasida tetraxlorkalanlarning aralashmasi hosil bo'ladi.




Reaksiya sanoat miqyosida amalga oshiriladi,  $n=3-5$  bo'lgan tetraxlorkalanlar gidroksi- va aminokislotalar olishda boshlang'ich moddalar hisoblanadi.

E) Metallorganik birikmalar ishtirokida polimerlanish reaksiyalari. Alkenlar metall atomi bo'sh orbitalarga ega bo'lgan metallorganik birikmalar bilan ta'sirlashadi. Masalan,



Alkenlar alyuminiy-uglerod bog'i bo'yicha bog'lanadi va uglerod zanjiri uzayadi. Yuqori haroratlarda alyuminiyorganik birikmalar alken molekulasi ajralib chiqishi bilan parchalanadi.

Alyuminiyorganik birikmalar  $\text{TiCl}_4$  bilan birgalikda yanada faolroq katalizatorlar sistemasini hosil qiladi. Mazkur katalizatorlar alkenlarni yuqori molekulyar massali polialkenlargacha polimerlash qobiliyati ega. Bunda titanorganik birikmalar faol zarrachalar hisoblanadi. Masalan:




Ushbu katalizatorlar 1953–1955-yillarda K.Sigler va J.Natta tomonidan tadbiq qilingan va sanoat miqyosida qo'llash joriy etilgan. Shuning uchun Sigler-Natta katalizatorlari ham deyiladi.


Etilenni Sigler-Natta katalizatorlari yordamida polimerlash reaksiyasi 150 MPa dan pastroq bosim ostida olib bariladi va katta molekulyar massali ( $100000 \div 1000000$ ),  $125\text{--}130^\circ\text{C}$  da yumshaydigan, zichligi  $0,95\text{--}0,97$  gr/sm<sup>3</sup> bo'lgan polietilen hosil bo'ladi. Bunday polimer past bosimli (yoki yuqori zichlikka ega bo'lgan) polietilen deyiladi. Texnik ko'rsatkichlari jihatdan yuqori bosimli polietilendan ustun turadi, lekin tezroq eskiradi.

Propenni Sigler-Natta katalizatori ishtirokida polimerlanishidan 160–170°C da yumshaydigan polipropilen hosil bo‘ladi. Yuqori va past bosimli polipropilenlarning xossalari orasidagi keskin farq faqat molekuljar massanening ortishi bilangina emas, balki asosan polimer makromolekulasingin fazoviy tuzilishi bilan tushuntiriladi.

Propenni yuqori bosim ostida polimerlanishi natijasida  $-\text{CH}_3$  guruhlari fazoviy muntazam bo'lmagan polipropilen (ataktik polimer) hosil bo'ladi. Sigler-Natta katalizatorlarida polimerlanish jarayoni stereoregulyar tarzda boradi, ya'ni  $-\text{CH}_3$  guruhlar uglerod zanjirining bir tomonida joylashadi (izotaktik polimer):



ataktik polipropilen




izotaktik polipropilen

**8. Birikish reaksiyaları.** Alkenlar sikllar hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalarga kirisha oladi, ya’ni siklobirikish sodir bo‘ladi.


Sikllar hosil bo‘lishida qatnashadigan atomlar soniga ko‘ra reaksiyalar tibqilanadi (raqamlar kvadrat qavslar ichiga yoziladi).

A) [2+1] siklobirikish. Bunday tipdagi reaksiyalarga alkenlarning karbenlar reaksiyalarini misol qilish mumkin. Reaksiya natijasida siklopropan hosilalari chiqadi:




Epoksidlar hosil bo‘lish reaksiyaları ham qisman [2+1] siklobirikish reaksiyalariga kiradi.

B) [2+2] siklobirikish. Alkenlarni siklobutan hosilalariga aylanish reaksiyaları faqt UB nurlar ta’sirida boradi (fotokimyoviy reaksiya). Bunda qo‘zg’algan alken molekulasi qo‘zg’almagan boshqa molekulaga birikadi.






D) [2+4] siklobirikish. Alkenlar bog‘langan diyenlar bilan o‘zaro ta’sirlashib siklogeksan hosilalarini hosil qilishi mumkin (diyen sintezi):



**9. Alkenlarning allil holatdagi reaksiyaları.** Alkenlarning erkin radikal mexanizmi bo‘yicha boradigan reaksiyaları qo‘shbog‘ yonidagi uglerod atomida (allil holatda) ham borishi mumkin.

A) Avtooksidlanish. Alkenlarning havo kislороди bilan zanjirli erkin radikal mexanizmi bo‘yicha ta’sirlashib gidroperoksidlar va keyingi purchalanish mahsulotlariga aylanish reaksiyası *avtooksidlanish* deyiladi.


Reaksiya allil tipidagi erkin radikallar hosil bo'lishi bilan boshlanadi va ular yo'qolguncha davom etadi.



Erkin allil radikalining hosil bo'lishi birikish reaksiyasiga raqobatlashuvchi bo'lishi mumkin:




B) Izomerlanishi.  $500^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda alkenlar izomerlanishi mumkin.





Ushbu reaksiyalarda qayta gruppalanish qobiliyatiga ega bo'lgan erkin radikallar hosil bo'ladi.

D) Allil galogenlanish. Mahsus bromlovchi reagentlar va erkin radikal reaksiyalarini initsiatorlari (UB-nurlar, harorat, peroksidlar) ishtirokida alkenlarni allil holat bo'yicha bromlash mumkin.




Allil bromlash reaksiyalarida odatda brom radikali hosil qila oladigan reagentlar, masalan, N-bromsuksinimid ishlataladi. Reaksiya initsiator ta'sirida allil radikali hosil bo'lishi bilan boshlanadi.



N-bromsuksinimidning parchalanishidan hosil bo‘ladigan brom molekulasi ham bromlovchi reagent bo‘lishi mumkin.



Yuqori haroratda xlor ta’sirida allil xlorlanish reaksiyasi sodir bo‘ladi.



Allil radikallar oddiy alkil radikallarga qaraganda barqarorroq bo‘lib, oson hosil bo‘ladi va reaksiyalarga oson kirishadi.

Allil radikallarning barqarorligi toq elektronning qo’shbog‘ bilan bog‘lanishi orqali ta’minlanadi. Buni ikkita rezonans (mezomer) tuzilish bilan izohlash mumkin.



Bog‘langan sistemalarni tasvirlash biroz qiyin. Buning uchun punktir chiziqlardan foydalilanadi va elektronlar zichligi qiymatlari ko‘rsatiladi.




Ba’zan elektron zichligini siljishini ifodalovchi egri strelkalardan foydalilanadi.




Yuqoridagi kabi tasvirlashni allil tipidagi boshqa oddiy bog'langan zarrachalar-allil-kationlar va allil-anionlar uchun ham qo'llash mumkin.

Allil-kation 2 ta  $\pi$ -elektron tutadi. Musbat zaryad birinchi va uchinchi uglerod atomlari orasida delokallashgan.




Allil anion esa 4 ta  $\pi$ -elektron tutadi. Ulardan ikkitasi bog'la-maydigan orbitallarda joylashgan bo'lib, birinchi va uchinchi uglerod atomlari orasida delokallahsgan.



ENG MUHIM VAKILLARU

*Etilen* – rangsiz gazsimon modda bo‘lib, eng ko‘p ishlab chiqariladigan va ishlatiladigan alken hisoblanadi. Sanoatda neftni pirolizi va krekingi natijasida hosil bo‘ladigan gazlardan ajratib olinadi. Bunday gaz tarkibida 17–20 % etilen bo‘ladi. Atsetilenni etilengacha vodorod bilan selektiv qaytarish metodi ham ishlab chiqilgan bo‘lib, reaksiya quyidagi tarzda amalga oshadi:



Sanoatda etilen olish uchun etil spirtini katalitik degidratlash metodi ham qo'llaniladi. Laboratoriya da etil spirtini konsentrangan sulfat kislotasi bilan qizdirib olinadi.

*Propen* (propilen) – etilen kabi ko‘p miqdorda ishlatiladigan alken. Propen ham neftni pirolizi va krekingi natijasida hosil bo‘ladigan gäzlardan ajratib olinadi. Uning miqdori 5–8 % ni tashkil qiladi. Toza propen propanni degidridlab olinadi. Propen sanoatda spirtlar, aseton, fenol, moy aldegidi, polipropilen va boshqa mahsulotlar olish uchun ishlatiladi.


### Butenlarning fizik konstantalari

Buten	T <sub>c</sub> °C	T <sub>k</sub> °C	d <sub>4</sub> '	n <sub>D</sub> <sup>20</sup>
Buten-1	-185,4	-6,3	d <sub>4</sub> ' <sup>-110</sup> = 0,740	1,3792
<i>sis</i> - Buten -2	-138,9	3,7	d <sub>4</sub> ' <sup>-78,5</sup> = 0,724	1,3946
<i>trans</i> - Buten -2	-105,6	1,0	d <sub>4</sub> ' <sup>20</sup> = 0,6044	1,3862
Izobutilen	-140,4	-6,9	d <sub>4</sub> ' <sup>-70</sup> = 0,6948	1,3811

**Butenlar** – neft mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladi. Ular bir-biridan past temperaturada haydash yo‘li bilan ajratiladi. Natijada butan-buten fraksiyasi ajratib olinadi.

Buten-1 va buten-2 lar asosan butadiyen-1,3 olish uchun ishlatiladi. Butenlardan kislородли birikmalar ham olinadi.

Izobutilen polimerlansa poliizobutilen hosil bo‘ladi. Izobutilenning dimeri yuqori sifatli motor yoqilg‘isi – izooktan olish uchun qimmatbaho xomashyo hisoblanadi. Reaksiya BF<sub>3</sub> (Ipatyev, 1935-y.) yoki konsentr-langan sulfat kislota ishtirokida boradi.



60–80 % li sulfat kislota ishtirokida 2,2,4-trimetilpenten-1 va 2,2,4-trimetilpenten-2 aralashmasi hosil bo‘ladi. Ushbu alkenlar katalitik gidridlanganda ham izooktan hosil bo‘ladi.

Alkenlar tabiatda neft gazi va yonuvchi slanetslar tarkibida uchraydi. Alkenlar neftni qayta ishlash, kimyo, metallni qayta ishlash korxonalarining chiqindilar bilan birgalikda, payvandlash ishlarida va natriy-butadiyenli kauchukni qayta ishlashda atrof-muhitga tarqalishi mumkin. Alkenlar atrof-muhitga tushganda kislород, azot va oltingugurt oksidlari bilan fotokimiyoviy reaksiyalarga kirishadi. Suvda alkenlar beqaror, past temperaturalarda 10 sutkagacha saqlanib turadi. Alkenlarning eruvchanligi yaxshiroq bo‘lganligi sababli alkanlarga qaraganda kuchliroq narkotik ta’sirga ega. Yuqori alkenlar nafas yo‘llarining shilliq pardalarini qo‘zg‘atadi va talvasa keltirib chiqarishi mumkin. Eten va propenning uzoq vaqt ta’sirida polinevrit kelib chiqadi, sezuvchanlik kamayadi, qon aylanish jarayoni buziladi. Issiq qonli hayvonlar uchun propen prokanserogen va mutagen ta’sirga ham ega ekanligi aniqlangan.

Organizmga alkenlar nafas yo'llari orqali tushadi va lipidlarga boy bo'lgan to'qimalarga tarqaladi. Masalan, etilen mitoxondriyalarning membrana lipidlarida to'planishi aniqlangan. Alkenlarning metabolizmi kam o'rganilgan.

Atmosfera havosidagi eten va propen uchun maksimal bir martalik konsentratsiya ( $PDK_{mm}$ ) va mumkin bo'lgan o'rtacha sutkalik konetratsiya ( $PDK_s$ ) – 3 mg/m<sup>3</sup>, penten-1 uchun – 1,5 mg/m<sup>3</sup>, geksenlar uchun  $PDK_{mm}$  – 0,4 mg/m<sup>3</sup> va  $PDK_s$  – 0,085 mg/m<sup>3</sup>.


### **3-BOB. ALKADIYENLAR**

Molekulasida ikkita qo'shbog' tutuvchi ochiq zanjirli uglevodorodlar *alkadiyenlar* deyiladi. Alkadiyenlarning umumiy formulasi  $C_nH_{2n-2}$ . Ushbu formulaga alkinlar ham to'g'ri keladi. Alkadiyenlar molekulasida qo'shbog'ning joylanishiga ko'ra uchta katta guruhga sinflanadi: 1) kumulirlangan diyen uglevodorodlari; 2) konyugirlangan diyen uglevodorodlari; 3) izolirlangan diyen uglevodorodlari.

#### ***NOMLANISHI VA IZOMERIYASI***

Alkadiyenlar molekulasida qo'shbog'lar har xil joylashishi mumkin.

Qo'shbog'lari bitta uglerod atomida yonma-yon joylashgan birikmalar alkadiyen-1,2 lar yoki allenlar deyiladi. Bunday joylashgan qo'shbog'lar *kumulirlangan bog'lar* deyiladi.




Propadiyen-1,2 (allen)

Alkadiyen molekulasidagi qo'shbog'lar o'rtaida bitta oddiy bog' bo'lishi mumkin:



Butadiyen-1,3




2-metilbutadiyen-1,3 (izopren)

Bunday alkadiyenlar *bog'langan diyenlar* deyiladi.

Qo'shbog'lar 1,4-, 1,5-, 1,6- va h.k. tartibda joylashgan diyenlar ham ma'lum.



Pentadiyen-1,4




Geksadiyen-1,5

## OLINISH USULLARI

Allenlar digalogenalkenlarni rux metali ishtirokida degalogenlab olinishi mumkin:





Ba'zan allenlar alkinlarni ishqor ishtirokida qayta gruppalanishi natijasida ham hosil bo'ladi:




Allenlarning dastlabki ikkita vakili kuchsiz hidli rangsiz gazlar, yuqori vakillari esa suyuq moddalardir.


Allen molekulasi dagi to'rtta vodorod atomi bitta tekislikda joylashmagan, balki o'zaro perpendikulyar tekisliklarda yotadi. Uglerod atomlaridan ikkitasi  $sp^2$ , o'rtadagisi  $sp$  gibridlangan.



Ikki almashingan allenlar stereoizomerlar hosil qiladi:




I



II

Birinchi struktura ikkinchisining ko'zgu aksi hisoblanadi. Ushbu molekulalar xiraldir.


Allenlar har xil kimyoviy reaksiyalarga, asosan birikish va polimerlanish reaksiyalariga kirishadi. Bu jihatdan alkenlarga o'xshaydi.  $sp^2$ -gibridlangan uglerod atomlari elektrofil markaz hisoblanadi.



Qizdirilganda, ayniqsa ishqor ishtirokida allenlar atsetilenlarga qayta gruppalanishi mumkin. Yuzaga kelgan muvozanatning holati komponentlarning termodinamik barqarorligiga bog'liq.


Alkadiyen-1,3 lar alkanlardan, alkenlardan, galogenli hosilalardan, spirtlardan va glikollardan olinishi mumkin.

Butadiyen-1,3 ni olishning birinchi sanoat metodi etil spirtini gaz fazasida katalizator ishtirokida termik qayta ishlashga asoslangan. Ushbu metod 1927-yilda S.Lebedev tomonidan ishlab chiqilgan.




Reaksiya unumi unchalik katta emas. Taxmin qilinishicha katalizator sirtida etil spirti degidridlanib sirka aldegidga aylanadi, u o'z navbatida aldol kondensatsiyasiga uchraydi va hosil bo'lgan aldol keyingi o'zgarishlarga uchraydi.


Butadiyen-1,3 olish uchun nefsti qayta ishlashda hosil bo'ladigan butan-buten fraksiyasini degidridlash qo'llaniladi:




Butadiyen-1,3 olish uchun glikollardan, masalan, butandiol-1,3 yoki butandiol-1,4 dan foydalanish mumkin (V.Reppe).




Izopren olish uchun neftni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan izo-pentan-izopenten fraksiyasini degidrogenlanadi:




Izopren 2-metilpenten-1 (propennenning dimeri) ni katalitik parchalab olish ham mumkin:



Izopren to‘yinmagan spirtni, masalan, 2-metilbuten-3-ol-2 ni degidratlanishidan oson hosil bo‘ladi:




Izopren olishning sanoat metodlaridan biri izobutilen va formal-degiddan olinadigan geterosiklik birikma – 4,4-dimetil-1,3-dioksanni katalitik parchalashga asoslangan:



FIZIK XOSSALARI

Alkadiyen-1,3 lar zanjirning uzunligiga ko‘ra bir-biridan farq qilsa-da, qo‘shbog‘ning 1- va 3-uglerodlarda joylashganligi uchun ular tungsiz gazsimon yoki suyuq holatda bo‘lishlari mumkin. Alkadiyen-1,3 lar yuqori molekulyar refraksiyaga ega. Masalan, izopren uchun  $R_{exp} = 25,22$  ga teng. Bu kattalik hisoblab topilganda  $R_{naz} = 8R_{C-H} + 2R_{C-C} + 2R_{C-C} = 20,89$  chiqadi, ya’ni refraksiyaning ekzaltatsiyasi kuzatiladi:  $R_{exp} - R_{naz} = 4,33$ . Refraksiya ekzaltatsiyasi elektron sistema qutblanuvchanligining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu bog‘langan qo‘shbog‘lar sistemasi uchun xarakterlidir.

Alkadiyen-1,3 lar molekulasining hosil bo‘lish energiyalarini eksperimental qiymatlari bilan bog‘lar termokimyoviy energiyalarining yig‘indisi taqqoslanganda eksperimental qiymatlar 13–16 kJ/mol ko‘proq chiqadi. Energiyalar orasidagi bu farq bog‘langan sistemaning hosil bo‘lishida bog‘lanmagan sistema hosil bo‘lishiga qaraganda ko‘proq energiya ajralib chiqishini ko‘rsatadi, ya’ni bog‘langan sistemalar bargarorroq ekanligi kelib chiqadi. Bunday energiya bog‘langanlik (*delokallanish, rezonans*) energiyasi deyiladi. Butadiyen-1,3 molekulasiagi barcha atomlar bitta tekislikda yotadi. Qo‘sibog‘lar oddiy bog‘ga nisbatan asosan *trans*-holatda joylashadi. C-C bog‘larning uzunligi etilen va etandagi shunday bog‘larning uzunligidan turq qiladi.




Butadiyen-1,3 molekulasida elektron zichliklar chetki uglerod atomlarida yuqoriroq. Shuning uchun elektrofil yoki nukleofil reagentlar

birinchi navbatda 1- yoki 4-uglerod atomlariga hujum qiladi. Har bir atomdagи  $\pi$ -elektron zinchligi yig‘indisi birga teng,  $\pi$ -bog‘ tartibi bordan kichik, oddiy bog‘niki esa noldan ancha katta. Bog‘ tartibi butadiyen sistemasidagi bog‘larning sezilarli darajada tenglashishidan dalolat beradi.


Butadiyen-1,3 ning ionlanish energiyasi (9,1 eV) etilenning ionlanish energiyasi (10,5 eV) dan kam.

### KIMYOVYX XOSSALARI


Alkadiyenlar qo‘shbog‘ni juftligi evaziga o‘ziga xos kimyoviy faollikni namoyon qiladilar. Qo‘shbog‘lar yonma-yon joylashgan alkadiyenlar allenlar deb yuritiladi. Allenlar asos katalizatorlari ishtirokida izomerlanib alkinlarga aylanadi. Masalan, allenden propin hosil bo‘ladi.



Allenlarda  $\pi$ -elektronlar delokallanishi mumkin bo‘lmaganligi uchun ular alkenlar kabi kimyoviy reaksiyalarga kirishishi mumkin. Jumladan allenlar radikal va elektrofil birikish reaksiyalariga kirisha oladi. Masalan, kislotali muhitda gidratlansa ketonlar hosil bo‘ladi.




Alkadiyen-1,3 lar asosan birikish reaksiyalariga, jumladan polimerlanish reaksiyalariga kirishadi.




Alkadiyen-1,3 larning o‘ziga xos xususiyati shundaki, birikish reaksiysi 1,2- yoki 1,4- tarzida borishi mumkin. Hosil bo‘ladigan polymerlarning nisbati reaksiya temperaturasi, erituvchi va reagent tubiatiga bog‘liq.


Alkadiyen-1,3 lar katalitik gidridlanganda alkenlar, keyin alkanlar hosil bo‘ladi:



Alkadiyen-1,3 lar suyuq ammiak muhitida natriy metali bilan qaytarilishi mumkin. Reaksiya natijasida alkenlar hosil bo‘ladi.



Alkadiyen-1,3 larga galogenvodorodlar, galogenlar va boshqa elektrofil reagentlar birikishi mumkin. Bunday reaksiyalar odatda yonaki jaryon polimerlanish reaksiyalari bilan boradi. Birikish reaksiyasi natijasida ham 1,2-, ham 1,4- birikmalar hosil bo‘ladi. Masalan, butadiyen-1,3 bromlanganda 3,4-dibrombuten-1 va 1,4-dibrombuten-2 aralashmasi hosil bo‘ladi. Ularning nisbati reaksiya temperaturasiga bog‘liq.




Past temperaturalarda hosil bo‘lish tezligi yuqori bo‘lgan mahsulot ko‘proq hosil bo‘ladi (reaksiyaning kinetik nazorat qilinadigan mahsuloti). Yuqori temperaturalarda termodinamik barqarorroq bo‘lgan mahsulot ko‘proq hosil bo‘ladi (reaksiyaning termodinamik nazorat qilinadigan mahsuloti).

«Kinetik nazorat» tushunchasi reaksiya mahsulotlarining nisbati ularni hosil bo‘lishga olib boradigan parallel reaksiyalarning nisbiy tezligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. «Termodynamik nazorat» tushunchasi esa reaksiya mahsulotlarining nisbati ularning o‘zaro bir-biriga aylanishi yoki oraliq

mahsulotlarning o'zaro bir-biriga aylanishi muvozanat konstantasi bilan belgilanadi.


Birikish reaksiyasi zaryad ko'chirish kompleksi (ZKK) hosil bo'lishi orqali boradi. Ushbu kompleks alkenlar kabi oxirgi mahsulotga aylanishi mumkin. Bunday holatda faqat 1,2-birikish mahsulotgina hosil bo'ladi. Zaryad ko'chirish kompleksi barqarorlashgan karbokationga aylanishi ham mumkin. Bunda 1,2- va 1,4- birikish mahsulotlari hosil bo'ladi. Yuqori temperaturada va qutbli erituvchilarda oraliq karbokationning hosil bo'lish ehtimoli ko'proq:



Alkadiyen-1,3 lar tuzlar va metallarning karbonillari bilan oson komplekslar hosil qiladi. Masalan, butadiyenning platina tuzlari bilan  $\pi$ -kompleksi oson hosil bo'ladi:  $\text{K}_2[(\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2)\text{Pt}_2\text{Cl}_6]$ .

Mis (I) xloridning butadiyen bilan hosil  $((\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2)\text{Cu}_2\text{Cl}_2)$  qilgan kompleksi katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu birikma gaz aralashmalaridan butadiyenni ajratib olish uchun qo'llaniladi. Kompleks parchalanganda toza butadiyen hosil bo'ladi. Izopren ham shunga o'xshash kompleks hosil qiladi. Yuqoridagi komplekslarda butadiyen ikki atom metall bilan bog'lanadi.

Butadiyen temir karbonillari bilan barqaror  $\pi$ -komplekslar hosil qiladi:  $[\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2]\text{Fe}(\text{CO})_3$ .




Kompleksda butadiyen sis-shaklda bo'lishi va barcha C-C bog'lar teng ( $0,145 \text{ nm}$ ) ekanligi aniqlangan. Butadiyen to'rt elektronli ligand vazifasini bajaradi,  $\text{Fe}(\text{CO})_3$  guruh esa butadiyen molekulasi tekisligining tepasida joylashadi.

Alkadiyen-1,3 lar erkin radikallar yoki metall-organik birikmalar ishtirokida polimerlanish reaksiyalariga kirishadi. Polimerlanish erkinradikal yoki


anion mexanizmi bo'yicha boradi. Ishqoriy metallar ishtirokida anion-radikal mexanizm bo'yicha boradi. Polimerlanish reaksiyasi kation mexanizm bo'yicha borishi ham mumkin.

Polimerlanish reaksiyasida faol erkin radikal alkadiyen-1,3 molekulalariga birikib allil tipidagi yangi radikalni hosil qiladi. U o'z navbatida alkadiyenning boshqa molekulasini biriktirishi mumkin. Shunday qilib polimerlanish zanjiri paydo bo'ladi:




Orada hosil bo'ladigan erkin radikalda toq elektron delokallashadi.

Erkin radikallar dimerlanish yoki disproportsiyalanish natijasida reaksiyon muhitdan yo'qoladi. Erkin radikallar peroksidlarni parchalab hosil qilinadi. Natriy metali ishtirokida reaksiya anion-radikal mexanizm bo'yicha boradi. Butadiyenning anion-radikali natriyning butadiyen bilan o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi, natriy kuchli elektronodonor sifatida ishtirok etadi.



Toq elektron butadiyenning erkin molekulyar orbitali hisobiga delokallahshadi. Birinchi va to'rtinchi uglerod atomlarida elektron zichlik yuqori bo'ladi. Anion-radikal boshqa butadiyen molekulasiga birikadi va radikal mexanizm bo'yicha polimerlanish reaksiyasiga sabab bo'ladi. Polimerlanish reaksiyasi odatda metall sirtida ketadi.

Polimerlanish reaksiyasini metallorganik birikmalar ham boshlab beradi. Masalan, natriy- yoki litiyorganik birikmalar karbanion mexanizm bo'yicha polimerlanish reaksiyasini initsirlaydi.




Karbanion allil tipidagi bog'langan zarracha hisoblanadi. Karbanion mexanizm bo'yicha polimerlanish reaksiyaları alkadiyen-1,3 larga nukleofil birikish reaksiyalariga kiradi.

Sigler-Natta katalizatorlari ishtirokida alkadiyen-1,3 lar oson polimerlanadi va stereoregulyar polimerlarga aylanadi. Sigler-Natta katalizatorlari ishtirokida asosan *sis*-polialkadiyenlar hosil bo'ladi.

Erkin radikal mexanizm bo'yicha polimerlanish jarayonida noregulyar strukturali polimerlar hosil bo'ladi.

Alkadiyen-1,3 lar alkenlarning hosilalari bilan birligida polimerlanganda *sopolimerlanish* reaksiyasi boradi va aralash zanjirli polimerlar — *sopolimerlar* hosil bo'ladi.


Alkadiyen-1,3 lar qo'shbog' yoki uchbog'ga birikishi mumkin. Reaksiya natijasida siklik birikma hosil bo'ladi ([2+4] siklobirikish). Reaksiya ayniqsa faollangan qo'shbog'li (donor yoki akseptor o'rinnbosar tutuvchi) birikmalar bilan oson ketadi. Bunday reaksiya birinchini marta 1928-yilda O.Dils va K.Alder tomonidan butadiyenni *n*-benzoxinon va malein angidridi bilan o'zaro ta'sir etishi jarayonida kuzatilgan.



Reaksiya *diyen sintezi* yoki *Dils-Alder reaksiyasi* deb yuritiladi.

Ikki xil alkadiyen-1,3 o'rtasida diyen sintezi reaksiyasini amalga oshirish ham mumkin. Masalan, izopren siklik dimer-dipenten hosil qiladi.

Ba'zan diyen sintezi qaytar bo'lishi mumkin (retrodiyen sintezi). Birikish mahsuloti qizdirilganda parchalanadi.



Diyen uglevodorodlari tabiatda toshko'mir smolasi tarkibida uchraydi. Atrof-muhitga diyen uglevodorodlarni ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar, jumladan, sintetik kauchuk, sopolimer latekslar ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatini natijasida tarqaladi.

Butadiyen-1,3 past konsentratsiyalarda shilliq pardalarni qo'zg'atadi, markaziy nerv sistemasining faoliyatini izdan chiqaradi, yuqori kon-

Neuratsiyalarda narkoz holatini keltirib chiqaradi. Surunkali zaharliyishda odamlarda zaharlanishning umumiy belgilardan tashqari mukaziy nerv sistemasining funksional o'zgarishlari, arterial bosim va hemoglobinning kamayishi, immunitetning pasayishi, jigar va o't yo'llari kusalliklarining ortishi aniqlangan. Butadiyen-1,3 ning har xil turdag'i shishlarning rivojlanishiga ta'siri haqida ma'lumotlar olingan. Uning metaboliti 1,2-epoksi-buten-3 bakterial hujayralarga mutagen ta'sir etadi, 1,2,3,4-diepoksibutan esa sut emizuvchilarning hujayralarida xromosomalarning struktura o'zgarishlarini keltirib chiqargan.


Butadiyen-1,3 organizmga nafas yo'llari orqali tushadi va 1,2-epoksi-buten-3 ga aylanadi. *In vitro* tadqiqotlarida 1,2-epoksi-buten-3 ni dlicpoksibutanga, buten-3-diol-1,2 ga, 3,4-epoksi-butandiol-1,2 ga va eritritga aylanishi aniqlangan.

Butadiyen-1,3 uchun PDK<sub>m</sub> – 3 mg/m<sup>3</sup>, PDK<sub>s</sub> – 1 mg/m<sup>3</sup>.

## KAUCHUK

Kauchuk sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim organik birikmalardan biridir. Kauchuk 2-metilbutadiyenning muhim hosilasi hisoblanadi. Tabiiy kauchuk past temperaturalarda elastik, yuqoriroq temperaturalarda plastik massa ko'rinishida bo'ladi. U Braziliya geveyasining (*Hevea brasiliensis*) lateksining sutsimon sharbatidan olinadi. Ushbu sharbat tarkibida kauchuk emulsiya ko'rinishida uchraydi. Emulsiyanı qizdirib kauchuk xomashyosi olinadi. Geveyadan kauchuk olish qadimdan mahalliy hindularga ma'lum bo'lgan. Kauchukning xossalariini birinchi marta 1735-yilda fransuz tadqiqotchisi Sh.Kondamin batafsil tavsiflab bergan. 1823-yilda K.Makintosh kauchukdan amalda foydalanish yo'lini topgan. U gazlamalarga kauchuk eritmasini shimdirdib suv o'tmaydigan material olishga muvaffaq bo'lgan. Ch.Gudirning kashfiyoti katta ahamiyatga ega bo'lgan. U kauchukka oltingugurt va oltingugurt birikmalari bilan ishlov berilganda juda yaxshi mexanik xossalarga ega bo'lgan material – rezina hosil bo'lishini aniqlagan (1839). Kauchukdan rezina olish jarayoni *vulqonlash* (*vulkanizatsiya*) deb atalgan.

Kauchukning tuzilishini aniqlash va sintetik kauchuk olish metodlarini ishlab chiqish uchun 100 yildan ortiq vaqt ketgan. 1826-yilda M.Faradey kauchuk faqat uglerod va vodoroddan iborat ekanligini aniqlagan. 1860-yilda G.Vilyams kauchukni quruq haydab izopren olgan. Kauchukning to'liq tuzilishi 1924-yilda nemis kimyogari G.Shtaudinger tomonidan aniqlagan. Uning tadqiqotlari natijasida kauchuk izoprenning polimeri ekanligi to'liq tasdiqlangan.



$n=1500\dots2200$  (mol. massasi  $100000\dots150000$ )

**German Shtaudinger (1881–1965), asosiy ishlari yuqori molekulyar birikmalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Organik birikmalarning yangi sinfi – ketenlarni kashf qilgan. 1953-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.**

Tabiiy kauchuk har xil molekulyar massali poliiizopren molekulalari aralashmasidan iborat. Rentgenostruktura-analizi asosida tabiiy kauchuk *sis*-poliiizopren tuzilishiga ega ekanligi aniqlangan. Tabiatda *guttapercha* deb ataladigan *trans*-poliiizopren ham uchraydi. Guttpaperchaning mexanik xususiyatlari kauchuknikidan ko‘ra yomonroq.

Tabiiy kauchukning kimyoviy tuzilishi va tarkibini aniqlanishi sintetik kauchukni olish bo‘yicha tadqiqotlarga yo‘l ochib bergen. 1878-yildan boshlab sintetik kauchuk olish maqsadida alkadiyen-1,3 larni polimerlash reaksiyalari o‘rganila boshlangan. Chunki o‘sha vaqtida kauchuk yuqori molekulyar to‘ymagan uglevodorod ekanligi ma’lum edi. 1916-yilgacha Na va K ishtirokida, hamda erkin radikallar ishtirokida suyultirilmagan alkadiyen-1,3 lar uchun va suvli emulsiyalari uchun polimerlash reaksiyalarining turli xil usullari ishlab chiqilgan. Lekin sanoat miqyosida sintetik kauchuk ishlab chiqarish uchun alkadiyen-1,3 lar olish metodlarini ishlab chiqish kerak edi.

1916-yilda Germaniyada 2,3-dimetilbutadiyendan sintetik kauchuk olishning sanoat metodi ishlab chiqilgan. Lekin olingan kauchukning xossalari yaxshi chiqmaganligi uchun hozirda ishlab chiqarilmaydi.

Butadiyen kauchuk olishning birinchi sanoat metodi 1927-yilda sobiq SSSR da S. Lebedev tomonidan ishlab chiqilgan. Butadiyen etil spirtidan olingan, polimerlash reaksiyasi Na ishtirokida o‘tkazilgan. 1931-yilda tajriba namunasi tayyorlangan, 1932-yilda esa sanoat miqyosida ishlab chiqarish boshlangan. Germaniyada asosan butadiyenni stirol bilan sopolimeri olingan.


1950-yildan boshlab stereoregulyar kauchuk olish metodlari o‘rganila boshlangan. Birinchi marta izoprenni Li ishtirokida stereoregulyar polimerlanishini rus olimi A. Korotkov o‘rgangan. Keyingi yillarda Sigler-Natta katalizatorlari yordamida stereoregulyar poliiizopren olishning sanoat metodi ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda izopren va butadiyen kauchuklaridan tashqari xlorpren, ftorpren kauchuklari, butadiyen-stirol, butadiyen-nitril va boshqa sopolimer kauchuklar ham olinadi.


## POLIYENLAR

Bir nechta qo'shbog' tutuvchi uglevodorodlar *poliyenlar* deyiladi. Ajratilgan qo'shbog'li poliyenlarga kauchuk makromolekulasini misol qilish mumkin. Ko'plab poliyenlar va ularning hosilalari tabiiy mahsulotlar tarkibida uchraydi.

Pomidor tarkibida poliyen birikma – *likopin* ( $C_{40}H_{56}$ ) uchraydi. Ul pomidor mevasiga qizil rang beradi. Likopin boshqa tabiiy mahsulotlar tarkibida ham topilgan. Likopinning tuzilishi 1931-yilda P.Karrer tomonidan aniqlangan.



Tabiatda ko'p uchraydigan poliyenlardan biri  $\beta$ -karotin ( $C_{40}H_{56}$ ) hisoblanadi. Uning tuzilishini ham P.Karrer aniqlagan (1931).



Organizmda  $\beta$ -karotindan muhim biologik faol modda-A vitamini (retinol) hosil bo'ladi.

Bog'langan qo'shbog'li poliyen molekulasi dagi  $\pi$ -elektronli sistema harakatchan bo'lganligi uchun molekulaning ionlanish energiyasi va qo'zg'алиш energiyasi kamayadi. Shuning uchun ko'plab poliyenlar rangli moddalar hisoblanadi.

Bog'langan qo'shbog'li poliyenlar har xil reagentlarning ta'siriga chidamli bo'ladi. Ular polimerlanish reaksiyalariga kirishmaydi. Kimyoiy o'zgarishlar faqat molekulaning chetki qismlarida boradi.

#### **4-BOB. ALKINLAR**

Ugleod-uglerod uchbog'i tutuvchi ochiq zanjirli uglevodorodlar *alkinlar* yoki *atsetilenlar* deb yuritiladi. Ularning umumiy formulasi alkadiyenlar kabi  $C_nH_{2n-2}$  ga to'g'ri keladi. Alkinlar molekulasidagi uglerodlar orasida bitta  $\sigma$  va ikkita  $\pi$  bog'dan iborat uchbog' hosil qilishligi bilan xarakterlanadilar. Uchbog'ning hosil bo'lishi uglerodlar orasidagi masofani qisqartirishi tabiiy.

Uchbog'lar molekulada bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin.

#### **NOMLANISHI, IZOMERIYASI VA OLINISH USULLARI**


Alkinlarning nomlari alkan nomidagi *-an* qo'shimchasini *-in* qo'shimchasiga almashtirish bilan tuziladi. Alkinlarning birinchi vakili  $C_2H_2$  tarixiy *atsetilen* nomini saqlab qolgan. Shuning uchun ba'zida atsetilennenning gomologlari *atsetilenlar*, uchbog' esa *atsetilen bog'i* deb ham ataladi.

*6-jadval*

#### **Ayrim alkinlarning nomlanishi**

Birikma	Nomenklatura	
	IYUPAK	Ratsional
H-C≡C-H	Etin	Atsetilen
CH <sub>3</sub> -C≡C-H	Propin	Metilatsetilen
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> -C≡C-H	Butin-1	Etilatsetilen
CH <sub>3</sub> -C≡C-CH <sub>3</sub>	Butin-2	Dimetilatsetilen
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> -C≡C-H	Pentin-1	Propilatsetilen
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> -C≡C-CH <sub>3</sub>	Pentin-2	Metiletilatsetilen
H-C≡C-CH <sub>2</sub> -C≡C-H	Pentadiin-1,3	

Alkinlarning qoldiqlari alkinil-qoldiqlar deviladi. Ularning nomi alkin nomiga *-il* suffaksi qo'shib yasaladi.



Etinil  
Propinil-1  
Propinil-2 (propargil)


Alkinlar turli xil usullar bilan olinadi. Quyidagi asosiy olinish usullari bilan tanishib chiqamiz.

1. Atsetilen uglerod va vodoroddan olinishi mumkin. Reaksiya uglerod elektrodlarini vodorod muhitida elektr yoyida qizdirib o'tkaziladi (M. Bertlo, 1860).




Muvozanat 3000°C dan yuqori temperaturada o'ng tomonga siljiydi. Reaksiya unumi juda past bo'lganligi uchun faqat nazariy ahamiyatga ega.

2. Atsetilen metan va etanni piroliz qilib olinadi.




Metan 1500°C gacha qizdirilsa atsetilen hosil bo'ladi. Qizdirish juda qisqa vaqt davomida olib boriladi. Chunki bunday temperaturada atsetilen uglerod va vodorodga parchalanib ketadi. Shuning uchun piroliz mahsulotlari tezda sovitilishi kerak. Ushbu reaksiya asosida sanoatda atsetilen olinadi.


3. Metall karbidlari suv bilan ta'sirlashganda alkinlar hosil bo'ladi. Kalsiy, stronsiy va bariy karbidlari atsetilen hosil qiladi.



Kalsiy karbid kuchli qutblangan uglerod-metall bog'i tutuvchi metallorganik birikma hisoblanadi.




Magniy karbidi  $\text{Mg}_2\text{C}_3$  suv bilan ta'sirlashib propin hosil qiladi.



Ushbu metod ham sanoat miqyosida qo'llaniladi.

4. Galogenalkanlar va galogenalkenlardan galogen atomlarini ajratib olish reaksiyasi alkinlar olishning umumiy reaksiyasi hisoblanadi. Reaksiya konsentrlangan ishqor ta'sirida, yuqori temperaturada boradi.




Digalogenalkanlar alkenlarga galogen biriktirib olinadi.

4. Alkinlardagi vodorod atomini alkil guruhga almashtirish yo'li bilan almashungan alkinlar olinadi. Bu reaksiya alkinlarning tuzlari orqali boradi.



Palladiy tuzlari ishtirokida alkinlarning galogenalkanlar bilan bevosita reaksiyasi ketadi.

5. 1,2-diketonlarning gidrazonlari simob (II) oksidi bilan oksidlanganda alkinlar hosil bo'ladi.



### FIZIK XOSSALARI

Alkinlar normal sharoitda molekulyar massasining kattaligiga ko'ra rangsiz gaz yoki suyuq moddalardir.  $\text{C}_{17}$  dan boshlab alkinlar kristall holatda bo'ladi.

Alkinlardagi karrali bog'larning qutblanuvchanligi yuqori bo'lganligi sababli alkenlarga qaraganda kattaroq molekulyar refraksiyaga ega ( $R_{\text{C}=\text{C}}=4,17$ ,  $R_{\text{C}\equiv\text{C}}=5,96$ ).

Uchbog'ning termokimyoiy energiyasi uchta oddiy bog' energiyasi yig'indisidan kam (quyidagi jadval). Bu shundan dalolat qiladiki, uchbog' qo'shbog'ga nisbatan beqarorroq. Atsetilenning o'zi termodinamik

### Ayrim alkinlarning fizik xossalari

Alkin	T <sub>s</sub> , °C	T <sub>q</sub> °C	d <sub>4</sub> <sup>20</sup>
CH=C-H	-80,8 (170 kPa)	-83,8	0,6200 (-84 °C)
CH <sub>3</sub> C≡C-H	-101,5	-23,3	0,6785 (-27 °C)
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> -C≡C-H	-130	8,6	0,6680 (0 °C)
CH <sub>3</sub> -C≡C-CH <sub>3</sub>	-32,3	27,2	0,6880 (25 °C)

Miqoror birikmadir. Suyuq atsetilen portlash bilan uglerod va vodorodga parchalanish xususiyatiga ega.

Atsetilennenning ionlanish energiyasi etilenning ionlanish energiyasidan katta.

### Uglerod-uglerod bog'larining bog' energiyalari

Bog'	Bog' energiyasi, kJ/M	Bitta bog'ga nisbatan energiya, kJ/M
C-C	344	344
C=C	615	307,5
C≡C	812	270,7

Molekulaga alkil guruhlarning kiritilishi bilan atsetilennenning ionlanish energiyasi keskin kamayadi. Bu alkil guruhlarning elektronodonor ta'siri bilan tushuntiriladi. Masalan, atsetilennenning ionlanish energiyasi 11,4 μ, propinning ionlanish energiyasi 10,4 ga teng.

Atsetilen molekulasi qutbsiz, lekin bitta alkil guruh kiritilganda molekula qutblanib, dipol momenti paydo bo'ladi. Alkil guruhlarning kattalashib borishi bilan dipol momenti ham ortadi.

Birikma	μ, Kл · m · 10 <sup>30</sup>	μ, D
CH <sub>3</sub> -CH=CH <sub>2</sub>	1,17	0,35
CH <sub>3</sub> -C≡C-H	2,51	0,75
(CH <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> C-C≡C-H	2,17	0,65

Alkil guruhlar atsetilen molekulasini etilen molekulasiga qaraganda kuchliroq qutblaydi. Uchbog'dagi uglerod atomi qo'shbog'dagi uglerod atomidan elektromanfiyligi kattaroq. Bu C-H bog'ining dipol momentini ortishi bilan ham tasdiqlangan.

## Alkanlar, alkenlar va alkinlarda uglerod -vodorod bog'ining dipol momenti qiymatlari

Birikma	$\mu, \text{Kl} \cdot \text{m} \cdot 10^{30}$	$\mu, \text{D}$
$\text{R}_3\text{C}-\text{H}$	1,0	0,3
$\text{R}_2\text{C}=\text{CR}-\text{H}$	2,10	0,63
$\text{R}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{H}$	3,51	1,05

Atsetilen molekulasi chiziqli tuzilishga ega. Uchbog'dagi uglerod atomlari sp gibridlangan. Uchbog'ning uzunligi qo'shbog' uzunligidan qisqaroq (0,121 nm).




Atsetilen molekulasida  $\pi$ -bog'larni hosil bo'lishi

### **KIMYOVITY XOSSALARI**

Alkinlar molekulasi uchbog'ni uzilishi evaziga birikish reaksiyalariga yoki uchbog' uglerodida joylashgan vodorodni boshqa atomlarga almashtirish evaziga almashinish reaksiyalariga oson kirisha olishligi bilan xarakterlanadilar. Alkinlar elektrofil va nukleofil reagentlar bilan birikish reaksiyalariga, jumladan dimerlanish, siklooligomerlanish, polimerlanish, karbonillash va oksidlanish reaksiyalariga kirisha oladi. Alkenlardan farqli ravishda molekula oxirida uchbog' tutuvchi alkinlar chetki vodorod ishtirokida ham reaksiyaga kirisha oladi.

1. Alkinlar katalizator (Ni, Pt, Pd) ishtirokida gidridlanadi. Reaksiya bosqichma-bosqich boradi.




Reaksiya jarayonida ham *sis*- ham *trans*- izomerlar hosil bo'ladi.

Alkinlar elektrofil reagentlar (kislotalar, galogenlar, metallarning ionlari va b.) bilan alkenlarga qaraganda sustroq reaksiyaga kirishadi. Atsetilen


eng passiv alkin hisoblanadi. Almashingan alkinlarning aktivligi yuqoriroq. Bu alkinlarning ionlanish energiyasi qiymatlariga muvofiq keladi.

Masalan, alkinlarning vodorod galogenidlar bilan reaksiyasi ancha alkin boradi.




Alkilatsetilenlar osonroq va Markovnikov qoidasiga binoan reaksiyaga kirishadi. Odatda *trans*-izomer hosil bo'ladi.

Uchbog'ga galogenvodorodlarning birikishi bir valentli mis tuzlari ishtirokida keskin tezlashadi. Taxmin qilinishicha uchbog'  $\pi$ -kompleks hosil bo'lishi hisobiga faollahashadi.



Amalda faollahagan uchbog'ga nukleofil birikish reaksiyasi ketadi. Shuning uchun metallarning ionlari ishtirokida boradigan ko'plab birikish reaksiyalar nukleofil birikish reaksiyalarini sifatida qaralishi mumkin. Masalan, alkinlarning suv bilan reaksiyasi faqat simob tuzlari ishtirokida boradi.


Alkinlarning galogenlar bilan reaksiyasi alkenlarga qaraganda sekinoq boradi. Reaksiya natijasida ham *sis*- ham *trans*- izomerlar hosil bo'lishi mumkin.




Reaksiya alkenlarga galogenlarning birikishi kabi ketadi deb taxmin qilingan.

Atsetilenlar suv, spirtlar, kislotalarning anionlari kabi nukleofil reagentlar bilan asosan mis va simob tuzlari ishtirokida birikish reaksiyalariga kirishadi. Ayrim holatlarda, masalan, alkoksidlar bilan boradigan reaksiyalar yuqori temperaturada katalizatorsiz ketadi.


1881-yilda rus olimi M.Kucherov alkinlarni kislotali muhitda simob tuzlari ishtirokida suvni biriktirib aldegidlar yoki ketonlarni hosil qilishi mumkinligini aniqladi. Bu reaksiya keyinchalik M.Kucherov reaksiyasi deb nom oldi. Atsetilenga suv biriksa sirkal degidi, boshqa alkinlarga suv birikkanda esa ketonlar hosil bo'ldi. Reaksiya davomida avval yenol hosil bo'lib, u tezda karbonil birikmaga qayta gruppala-nadi. Reaksiyaning taxminiy mexanizmi quyidagicha:




Alkinlar spirtlar bilan mis yoki simob tuzlari ishtirokida, yoki alkoksidlar ishtirokida reaksiyaga kirishib alkenil efirlari hosil qiladi. Atsetilen vinil efirlari hosil qiladi.



Ishqor yoki alkogolyatlar ishtirokida nukleofil birikish reaksiyasi ketadi.




Yuqoridagi kabi sharoitlarda alkinlar karbon kislotalarni biriktirib murakkab alkenil efirlar hosil qiladi.




Atsetilenga sianid kislotasining birikishidan sintetik tolalar ishlab chiqarishda ishlataladigan birikma – akril kislatasining nitrili (akrilonitril) hosil bo‘ladi.

Alkinlar, asosan atsetilen nikelli katalizatorlar ishtirokida is gazi bilan reaksiyaga kirishadi. Mazkur reaksiya 1944–49-yillarda V. Reppe tomonidan ishlab chiqilgan. Atsetilendan akril kislatosi yoki uning hosilalari hosil bo‘ladi.




$$\text{X} = \text{OH}, \text{OC}_2\text{H}_5, \text{NH}_2$$


Nikel tetrakarbonil  $\pi$ -kompleks hosil bo‘lishi bilan uchbog‘ni aktivlab reaksiyani katalizlaydi.



Keyin is gazi birikadi. Oraliq mahsulot sifatida siklopropenon hosil bo‘lib, u reaksiyon muhitdagi suv, spirtlar yoki ammiak bilan reaksiyaga kirishadi deb taxmin qilinadi.




Erkin radikallar uchbog‘ga oson birikib yangi radikallar hosil qiladi. Ushbu yangi radikallar keyingi erkin radikal reaksiyalariga kirishadi.




Ushbu reaksiyada alkenil – radikal oraliq mahsulot hisoblanadi. Undagi toq elektron  $sp^2$ -gibridlangan orbitalda lokallashadi. Erkin radikalning birikishi natijasida ikki xil fazoviy tuzilishga ega bo‘lgan alkenil-radikal hosil bo‘ladi. Shuning uchun reaksiya natijasida *sis*- va *trans*- izomerlar aralashmasi hosil bo‘ladi. Elektrofil birikishda esa faqat *trans*- izomer ko‘proq hosil bo‘ladi.

Kuchli oksidlovchilar ta’sirida alkinlar uchbog‘ turgan joydan parchalanadi. Reaksiyaning oxirgi mahsuloti karbon kislotalar hisoblanadi. Ba’zan qisman oksidlanish mahsulotlari-  $\alpha$ -diketonlarni ajratib olish mumkin.




Alkinlar katalizatorlar ishtirokida dimerlar, siklik trimerlar va tetramerlar, chiziqli polimerlar hosil qiladi. Katalizator uchbog‘ni aktivlaydi va sikllanish reaksiyasida alkinlarning fazoviy oriyentatsiyasini ta’minlaydi.


Atsetilen  $Cu^+$  ishtirokida kislotali muhitda oson dimerlanib vinilatsetilenga aylanadi.




Mazkur reaksiya atsetilen molekulasiñi aktivlangan uchbog‘ga birikishidir. Shuningdek divinilatsetilen ham hosil bo‘ladi.




Chetki uchbog‘ tutuvchi alkinlar piridindagi eritmalari  $Cu^{2+}$  ishtirokida qizidirilganda tutash alkadiinlar hosil bo‘ladi.




Alkinlar siklotrimerlanib benzol va uning gomologlariga aylanadi. Reaksiya yuqori temperaturada, konsentrangan sulfat kislota yoki  $\text{Cr}_2\text{O}_7$ ,  $\text{Ni}$ ,  $\text{Co}$  kabi metallarning metallorganik birikmalarini ishtirokida boradi. Atsetilen qiyinroq, almashigan atsetilenlar osonroq reaksiyaga kirishadi.



Atsetilen katalizator sirtida siklotetramerlansa siklooktatetrayen, benzol yoki boshqa siklooligomerlar hosil bo'ladi. Bu reaksiya 1949-yilda V. Reppe tomonidan taklif qilingan.




Alkinlar radikal initsiatorlar yoki osonroq maxsus metallorganik katalizatorlar ishtirokida polimerlanadi. Reaksiya natijasida polienlar hosil bo'ladi.



Bunday polien sistemalar kukun yoki plyonka shaklida o'ziga xos elektrofizik xossaga, ya'ni yuqori elektr o'tkazuvchanlikka, yoritilganda elektr o'tkazuvchanlikni orttirish (fotoo'tkazuvchanlik) qobiliyatiga ega. Bunday materiallar *organik yarimo'tkazuvchilar* deyiladi. Ularga xlor bug'lari yoki  $\text{AsF}_5$  kabi kuchli elektronoakseptor birikmalar bilan ishlov berilsa elektr o'tkazuvchanlik keskin ortadi va material ma'lum tem-

peratura oralig'ida metall xossalariiga ega bo'lib qoladi (organik yoki sintetik metallar).


Atsetilen Cu<sup>+</sup> va oksidlovchilar ishtirokida o'ziga xos polimerlanish reaksiyasiga kirishadi.



Polimer molekulasi deyarli to'laligicha sp-gibridlangan uglerod atomlaridan iborat. Polimer zanjirida kumulirlangan qo'shbog'lar mavjudligi aniqlangan: ...=C=C=C=C=... Ushbu polimer *karbin* deb ataladi va olmos, grafit kabi uglerodning allotrop shakli sifatida qaralishi mumkin.


Chetki uchbog'li alkinlardagi C-H bog'ining qutblangan bo'lganligi, ya'ni kislota xossalariiga ega bo'lganligi uchun kuchli asoslar ta'sirida atsetilenid-ion hosil bo'ladi.

Kuchli asos sifatida natriy amidi, metallorganik birikmalar, ba'zan ishqorlarning konsentrangan eritmalar olinadi.



Ishqoriy muhitda atsetilenidlar juda oz miqdorda hosil bo'ladi. Alkinlarning magniyorganik birikmalar bilan reaksiyasi 1902-yilda J.Iosich tomonidan ochilgan.

Og'ir metallar kam eruvchan atsetilenidlar hosil qiladi. Masalan, Cu<sup>+</sup> eritmasidan atsetilen qo'ng'ir rangli cho'kma tushadi. Bir alma-shingan atsetilenlar sariq rangli mis atsetilenidlar hosil qiladi. Kumush atsetilenidlar rangsiz bo'ladi.



Mis va ayniqsa kumush atsetilenidlari termik beqaror birikmalardir. Atsetilen hosilalari portlovchi moddalardir.

Atsetilenidlarda uglerod-metall bog'i metallning tabiatiga ko'ra har qutblanishi mumkin. Natriy atsetilenidlarda ion bog', magniy atsetilenidlarda kuchli qutblangan bog', mis va kumush atsetilenidlarda qutblangan bog' mavjud. Shuning uchun ularning reaksiyon qobiliyati kuchisiz va suvli eritmalardagina hosil bo'ladi. Mis va kumush atsetilenidlarning kam eruvchanligiga molekulalararo donor-akseptor ularning hosil bo'lishiga ham bog'liq. Atsetilenidlar turli reaksiyalarda qo'llaniladi.


Atsetilenidlar galogenalkanlar bilan nukleofil reagentlar sifatida reaksiyaga kirishadi va almashigan atsetilenlarni hosil qiladi.




Reaksiya uchun, ayniqsa yoduglevodorodlar bilan boradigan reaksiyalarda mis atsetilenidlarni qo'llash mumkin. Yodarenlar faqat mis atsetilenidlarni bilan reaksiyaga kirishadi. Pd tuzlari ishtirokida alkinlar halogenuglevodorodlar bilan bevosita reaksiyaga kirishadi.

$R-C\equiv C-H$  tipidagi alkinlar ishqoriy muhitda galogenlansa  $R-C\equiv C-X$  ko'rinishidagi birikmalar hosil bo'ladi.

Atsetilen va biralmashigan atsetilenlar o'yuvchi natriy yoki o'yuvchi kuliq ishtirokida aldegidlar va ketonlarning karbonil guruhiya birikadi. Reaksiya natijasida to'yinmagan spirtlar hosil bo'ladi. Mazkur reaksiyani A.Favorskiy ochgan.



Atsetilenenning suvli muhitda mis atsetilenid ishtirokida bosim ostida formaldegid bilan reaksiyasi keng qo'llaniladi (V.Reppe).



Atsetilenid-ion oksidlanib alkinil radikaliga aylanadi. Dimerlanish natijasida *diinlar* hosil bo'ladi.




Amalda reaksiya havo kislorodi ta'sirida Cu<sup>+</sup> tuzlari ishtirokida boradi. Bunday turdag'i reaksiyalarga atsetilenden karbin hosil bo'lishi reaksiyasini misol qilish mumkin.

### ***ENG MUHIM VAKILLARI***

*Atsetilen* – rangsiz gaz, oson suyuqlanadi, suvda (1,5:1), spirtda (6:1) kam eriydi, atsetonda (25:1), dimetilformamidda (33,5:1) yaxshiroq eriydi. Atsetilen atsetonda bosim ostida (1,5–2,5 MPa) yaxshi eriydi. Shu yo'1 bilan atsetilen balloonlarda tashiladi. Atsetilen tashiladigan balloonlar g'ovak material va atseton bilan to'ldiriladi. Suyultiruvchisiz suyuq atsetilen juda xavfli – katta kuch bilan portlashi mumkin.

Sanoatda atsetilen kalsiy karbiddan, metanni termik krekinglab yoki elektrokrekinglab olinadi.

Termik kreking jarayoni metanni kamroq kislorodda yonishidan ajralib chiqadigan issiqlik hisobiga metanni parchalanishiga asoslangan.



Pechdag'i gazlar temperaturasi 1500°C ga yetadi. Chiqayotgan gazlar tezda sovitiladi. Gaz tarkibida 8 % atsetilen, 54,5 % vodorod, 26 % is gazi, ozroq karbonat angidrid va reaksiyaga kirishmagan metan bo'ladi.

Atsetilen 0,8–1,0 MPa bosim ostida dimetilformamidda eritib ajratib olinadi.

Ishlab chiqariladigan atsetilenning 70 % i organik sintez sanoatida, 30 % i metallarni payvandlash va kesishda ishlatiladi (atsetilen-kislorod aralashmasining yonish temperaturasi taxminan 3150°C).

Molekulasida atsetilen guruhi saqlovchi organik birikmalar sintez qilish va ularni amaliyatga joriy etish bo'yicha A.E.Favorskiy, M.F.Shostakovskiy, A.M.Sladkov, I.Azerbayev, A.G.Mahsumov, S.Sh.Rashidova, Q.Ahmerov, D.Yusupov, S.Turobjonov, A.Ikromov, U.O.Obidov, N.Madixonov, T.Yu.Nasriddinov, E.A.Mirzaboyev, T.Q.Inaqov, I.A.Abdug'ofov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.


## IKKINCHI QISM

### GOMOFUNKSIONAL BIRIKMALARI

#### 5-BOB. FAZOVIY KIMYO ELEMENTLARI VA ORGANIK BIRIKMALARNING OPTIK IZOMERIYASI

Asimmetrik uglerod atomidagi o'rribbosarlarning joylashuvini aniq tasvirlash uchun IYUPAK qoidalariga kiritilgan R,S-nomenklatura qo'llaniladi. Ushbu nomenklaturaga binoan atomlarning kattalik qatori tibq qilingan. Kattalik qatori elementlarning tartib nomeriga asoslangan. Vodorod eng kichik atom va o'rribbosar hisoblanadi. Undan keyin litiy, berilli, bor va h.k. Agar asimmetrik atomdagagi o'rribbosarlar bir xil atomlar bo'lib qolsa o'rribbosarning kattaligi «ikkinchchi qavat» bo'yicha aniqlanadi. Masalan,  $-\text{CH}_3 < -\text{CH}_2\text{CH}_3 < -\text{CH}(\text{CH}_3)_2 < -\text{CH}_2\text{NH}_2 < -\text{CH}_2\text{OH} < -\text{CH}_2\text{F}$ .

Har xil tipdagi bog'lar tutuvchi guruhlarda kattalik qatori quyidagicha bo'lishi mumkin:




R,S-nomenklaturani qo'llash uchun molekula fazoda ma'lum shaklda joylashishi kerak. Molekulaga uglerod – kichik o'rribbosar o'qi bo'yicha uchta o'rribbosar kattadan kichikka tomon qanday tartibda joylashganligiga qaraladi. Agar o'rribbosarlarning kattaligi soat strelkasiga muvofiq kamayib borsa molekula *R(rectus)* – *konfiguratsiyaga*, agar soat strelkasiga teskari tarzda kamayib borsa *S(sinister)* – *konfiguratsiyaga* ega bo'ladi.

#### 5.1. MOLEKULALARING XIRALLIGI. PROYEKSION FORMULALAR. ENANTIOMERLAR VA RATSEMATLAR.

Asimmetrik molekulali organik moddalar optik faollikka ega. Lekin optik faol moddaning molekulasida simmetriya elementlari, masalan, simmetriya o'qi umuman bo'lmaydi deyish noto'g'ri bo'ladi. Shuning uchun asimmetriklik iborasi o'rniiga *xirallik* iborasi ko'proq qo'llaniladi. Xirallik deganda jismning shakli uning ko'zgudagi aksiga muvofiq kelmasligi tushuniladi. Agar molekula ko'zgudagi aksiga muvofiq kelsa axiral molekula deyiladi.

Har bir enantiomer molekulasi o‘zining *absolyut konfiguratsiyasiga*, ya’ni xiral element atrofida o‘rinbosarlarning fazoviy joylashuviga ega. Enantiomerlarning absolyut konfiguratsiyasini belgilash uchun maxsus tizim – R,S – nomenklatura qabul qilingan.

Uglevodorodlardagi uglerod – uglerod bog‘lari atrofida oson aylanish sodir bo‘ladi, shuning uchun molekulaning atomlarni fazoda joylashuv bilan farq qiladigan shakllari, ya’ni konformatsiyalar mavjud. Ma’lum *konfiguratsiyali molekulaning konformatsiyasi deb bog‘lar atrofida aylanish natijasida molekulaning atomlarini fazoda har xil joylashuvidan kelib chiqadigan holatiga aytiladi*. Konformatsiyalar bir-biridan barqarorligi bilan farq qiladi. Fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlanadigan barqaror konformatsiyalar konformerlar deyiladi. Konformer – biroz siljishlardan keyin atomlarni o‘z-o‘zini qaytadigan konformatsiyadagi molekuladir. Atomlararo itarilishlar eng kam bo‘lgan konformatsiyalar eng barqaror konformatsiyalardir. Ular *tormozlangan konformatsiyalar* ham deyiladi. Aksincha atomlari yaqin joylashgan konformatsiyalar (alkanlarda vodorod atomi) beqaror bo‘ladi va *to’silgan konformatsiyalar* deyiladi. Amalda har xil konformatsiyalar dinamik muvozanatda bo‘ladi va bitta tormozlangan konformatsiyani to’silgan konformatsiya orqali ikkinchi tormozlangan konformatsiyaga o‘tish, aylanish baryeri bilan belgilanadi. Konformerlarning strukturasi va tartibini, hamda aylanish energiyasini aniqlash konformatsion analiz vazifalari hisoblanadi.



A - yon proyeysiya, B - Nyumen proyeysiysi: a, d - tormozlangan konformatsiyalar, b - to’silgan konformatsiya (aylanishi baryeri - 12,57 kJ/mol).

Uglerod-uglerod bog‘lar bo‘yicha aylanish jarayonini M.Nyumentning ikki o‘lchamli shakllari, ya’ni *Nyumen proyeysiylari* yordamida tasvirlash juda qulayligi ko‘rsatib o‘tilgan (1955).


Nyumen proyeysiylari molekulani tegishli uglerod-uglerod bog‘i bo‘yicha yasaladi. Old tomondagi (frontal) uglerod atomi undagi bog‘larni

kesishish nuqtasi sifatida, orqa tomondagi uglerod atomi esa aylana ko'rinishida tasvirlanadi.

Alohidə enantiomerlar optik faol bo'ladi. Qutblangan yorug'ilikni burish burchagi o'ng (+) yoki chap (-) tomonga bo'lishi mumkin. Bu qiymat molekulaning R-yoki S-konfiguratsiyaga bog'liq emas. U eksperimental yo'l bilan aniqlanadi. Teng miqdordagi enantiomerlar aralashmasi optik faol bo'lmaydi va ratsemat deb ataladi.

Enantiomerlar deb ko'zgudagi aksiga muvofiq kelmaydigan fazoviy izomerlarga aytildi. Masalan, yuqorida keltirilgan R-2-xlorbutan va S-2-xlorbutanlarning konfiguratsiyasi ustma-ust tushmaydi va ular enantiomerlar hisoblanadi.

Agar sintez jarayonida asimmetrik uglerod atomi paydo bo'lsa, odatda enantiomerlar aralashmasi hosil bo'ladi. Reaksiya davomida xiral bo'lib qoladigan molekula *proxiral* molekula deyiladi. Bittasidan xiral markaz hosil bo'ladigan ikkita bir xil atom *enantiotop* atomlar deyiladi. Masalan, ftorxlorometan molekulasi proxiral bo'lib, vodorod atomlari enantiotop atomlardir. Ftorxlorometan bromlanganda xiral markaz paydo bo'ladi, lekin R- va S-bromftorxlorometanlarning optik faol bo'limgan aralashmasi – ratsemat hosil bo'ladi.




S -bromftorxlorometan


R - bromftorxlorometan

Optik faol R- va S-bromftorxlorometanlarni olish uchun ratsemat optik antipodlarga ajratilishi kerak.


Organik birikma molekulasida ikkita asimmetrik uglerod atomi bo'lishi ham mumkin. Bunda fazoviy izomerlar soni to'rttaga yetadi. Masalan,




R,R-2,3-dibrom-pentan



S,S-2,3- dibrom-pentan



R,S-2,3-dibrom-pentan




S,R-2,3- dibrom-pentan


R,R- va S,S-, S,R- va R,S- izomerlar bir-biriga nisbatan optik antipodlar (ko'zgu izomerlari) hisoblanadi. Lekin, R,R- va R,S- izomerlar yoki S,S- va S,R-izomerlar optik antipodlar emas, balki *diastereomerlar* deyiladi. Diastereomerlar fizik xossalari va qisman kimyoviy xossalari bilan farqlanadi. Agar molekulada yangi asimmetrik uglerod atomi paydo bo'lsa diastereomerlar hosil bo'ladi. Almashirish reaksiysi natijasida qo'shimcha asimmetrik markazga aylanib qoladigan atom *diastereotop* atom deyiladi. Masalan, 2-brompentan molekulasida metilen guruhidagi uglerod atomi diastereotop bo'ladi.

Diastereomerlar ba'zan *eritro-* va *treo-*izomerlar ham deyiladi. Bunday izomerlarni Fisherning proyekzion formulalaridan foydalanib oson aniqlash mumkin. Ikkita bir xil o'rindbosar proyekzion formulada bir tomonda joylashgan bo'lsa eritro-izomer, qarama-qarshi joylashgan bo'lsa treo-izomer deyiladi.


Agar ikkita asimmetrik atomda bir xil o'rindbosarlar bo'lsa, molekula simmetrik bo'lganligi uchun stereoizomerlar bittaga kamayadi. Masalan, 2,3-dibrombutan uchta stereoizomer hosil qiladi: optik faolikka ega R,R-2,3-dibrombutan va S,S-2,3-dibrombutan va optik faol bo'lmagan mezo-shaklga ega bo'lgan R,S-2,3-dibrombutan.



S,S-2,3-dibrombutan



R,R-2,3-dibrombutan



R,S-2,3-dibrombutan

## **6-BOB. GALOGENUGLEVODORODLAR**

Uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini galogen atomlariga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar uglevodorodlarning galogenli hosilalari yoki galogenuglevodorodlar deb yuritiladi. Umumiy formulasi R(Hal)<sub>n</sub>. Ular molekulasisidagi galogen atomlarining soniga ko'ra monogalogenli RHal, digalogenli RHal<sub>2</sub>, trigalogenli RHal<sub>3</sub> va poligalogenli R(Hal)<sub>n</sub> hosilalarga bo'linadilar. Galogenuglevodorodlarni uglevodorod qoldig'ining tuzilishiga qarab shartli ravishda beshta guruuga bo'lish mumkin:

Galogenalkanlar;

Galogensikloalkanlar;

Galogenalkenlar;

Galogenalkinlar;

Galogenarenlar.

Galogenarenlar keyingi boblarda alohida ko'rib chiqiladi.

### **6.1. GALOGENALKANLAR**

#### ***NOMLANISHI VA IZOMERIYASI***


Bunday turdag'i birikmalarga to'yingan uglevodorodlarning galogenli hosilalari kiradi. Molekulasisidagi galogen atomining soniga ko'ra monogalogenli, digalogenli, trigalogenli va poligalogenli birikmalar farqlanadi. Galogenalkanlarni nomlashda galogen atomining soni ko'rsatilib, molekuladagi uglerod soniga taalluqli bo'lgan tegishli uglevodorod nomi o'qiladi. Galogen soni va nechanchi uglerodda joylashganligi ko'rsatib qo'yiladi. Masalan,



Ftormetan




Xlormetan



Brometan



Yodetan




Dixlormetan




Trixlormetan




Tetraxlormetan



Dibrometan  
Tetrabrometan




Bromsiklopropan




Xlorsiklobutan

Agar zanjir tarmoqlangan yoki galogen atomlari turli xil bo'lsa umumiy qoidaga ko'ra nomlanadi.



2-metil-4-xlorpentan



2-brom-5-ftor-4-metil  
3-xlorgeksan

Ayrim galogenuglevodorodlar ko'proq tarixiy nomi bilan ham nomlanadilar. Masalan,



Xloroform  
Bromoform  
Iodoform

To'la almashingan galogenuglevodorodlarni nomlash uchun uglevodorod nomiga *per-* old qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan,



Perftoretan  
Perxlorpropan


### ***OLINISH USULLARI***

Galogenuglevodorodlar uglevodorodlarni to'g'ridan-to'g'ri galogenlab, to'yinmagan uglevodorodlarga vodorod galogenidlar yoki galogenlar biriktirib, kislородли birikmalarni galogenlab olinishi mumkin.

Uglevodorodlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri galogenlash yo‘li bilan sanoatda stor-, xlor- va bromuglevodorodlar olinadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri iodlash reaksiyasi ma’lum emas.


Ftor alkanlar bilan juda shiddatli, hatto portlash bilan reaksiyaga kirishadi. Chunki reaksiya natijasida katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Shuning uchun alkanlarni ftorlash uchun ftor azot bilan suyultiriladi, reaksiya ajralib chiqayotgan issiqlikni kamaytirish uchun mis to‘r bilan jihozlangan maxsus reaktorda o’tkaziladi.

Ftor tashuvchi birikmalar sifatida metallarning ftoridlari, masalan,  $\text{CoF}_2$ ,  $\text{AgF}$ ,  $\text{MnF}_4$  kabi ftoridlardan foydalaniladi. Shunday yo‘l bilan perftoralkanlar olinadi.




Reaksiya erkin radikal mexanizm bo‘yicha boradi.

Alkanlar UB-nur yoki temperatura ta’sirida xlorlanadi. Metan va xloring ekvimolyar aralashmasi portlashi mumkin. Shuning uchun xlorlash reaksiyasi UB lampali reaktorda, mo‘l miqdordagi alkan bilan o’tkaziladi. Reaksiya erkin radikal mexanizm bo‘yicha bosqichma-bosqich boradi.




Uchlamchi uglerod atomidagi vodorod osonroq, ikkilamchi uglerod atomidagi vodorod qiyinroq almashadi. Alkenlar xlorlanganda xlor qo‘shbog‘ga birikadi. Alkilarenlar xlorlanganda xloralkilarenlar hosil bo‘ladi.


Alkanlarni bromlash reaksiyasi UB-nur va temperatura ta’sirida boradi.



Alkanlar yod bilan bevosita ta’silashmaydi. Yodalkanlarni alkanlarga oksidlovchilar ishtirokida iod ta’sir ettirib olish mumkin. Oksidlovchi vodorod iodidni bog‘laydi va qaytar reaksiyaning oldini oladi.



Almashingan alkenlar maxsus bromlovchi reagentlar ta'sirida erkin radikal initisiatorlar ishtirokida allilbromidlar hosil qiladi.




Alkilarenlar bromlanganda yon zanjir bromlanib, bromalkilarenlar hosil bo'ladı.


Alkenlar va alkinlarga galogen biriktirilganda har xil birikish mahsulotlari chiqadi.  $HCl$ ,  $HBr$ ,  $HI$ ,  $Cl_2$ ,  $Br_2$  bilan reaksiya oson ketadi.  $I_2$  bilan reaksiya sekin boradi. Odadagi sharoitda  $HF$  bilan boradigan reaksiya yaxshi natija bermaydi. Suvsiz  $HF$  ishlataliganda reaksiya yaxshi unum bilan boradi.

Har xil galogenlovchi reagentlar ta'sirida karbonil birikmalardagi kislород atomini, spirtlardagi  $-OH$  guruhini galogenga almashtirish mumkin.


Spirtlardagi  $-OH$  guruhini galogenga almashtirish uchun galogen-vodorodlar yoki fosfor va oltingugurt galogenidlari, masalan,  $PCl_3$ ,  $PCl_5$ ,  $POCl_3$ ,  $PBr_3$ ,  $PBr_5$ ,  $PI_3$ ,  $SOCl_2$ ,  $SF_4$  ta'sir ettiriladi.




Aldegidlar va ketonlarni galogenlash  $PCl_5$ ,  $PBr_5$  va  $SF_4$  ta'sirida qizdirish bilan olib boriladi.




Karbon kislotalar  $\text{PCl}_5$  ta'sirida xlorangidridlarni hosil qiladi. Ular fagat yuqori temperaturada va bosim ostida trixloruglevodorodlarga aylanadi.




Karbon kislotalar bosim ostida va yuqori temperaturada  $SF_4$  bilan reaksiyaga kirishib triforuglevodorodlarni hosil qiladi.




Glogenuglevodorodlarning metall galogenidlari bilan ta'sirlashuvi natijasida bitta galogen atomi ikkinchisiga almashadi. Reaksiya qaytar bo'lib galogenid-ionning konsentratsiyasi o'zgarishi bilan muvozanat ham o'zgarishi mumkin.



Ushbu reaksiya asosan fтор- va yodbirikmalar olish uchun qо'llaniladi. Fторhosilalar olish uchun surma fторидидан fойдаланилди. Ko'pincha  $SbF_3$  va  $SbCl_5$  aralashmasи ishlatiladi.



Arenlar formaldegid va vodorod galogenidlari ( $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$ ) bilan katalizatorlar ( $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{ZnCl}_2$ ) ishtirokida reaksiyaga kirishib galogen-metilarenlar hosil qiladi.



Arenlarni galogenmetillash aromatik halqada boradigan elektrofil o‘rin olish reaksiyasiga misol bo‘ladi. Bu reaksiyada gidroksimetil-kation elektrofil zarracha hisoblanadi.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Galogenuglevodorodlar odatdagи sharoitda rangsiz, o‘ziga xos hidli gazsimon moddalar yoki suyuqlıklardir. Suvda deyarlı erimaydi. Aksariyat suyuq galogenuglevodorodlar suvdan og‘ir. Ayrim poligalogenidlар rangsiz kristall moddalar, poliiodbirikmalar esa sarg‘ish rangga ega.

Galogenuglevodorodlarning qaynash temperaturasi uglerod va galogen atomi sonining ko‘payishi bilan ortib·boradi (poliftoralkanlardan tashqari). Galogen atomi radiusining ortishi bilan yorug‘likni sindirish ko‘rsatkichi ham ortadi. Bu galogenuglevodorodlarning qutblanuvchanligini ortib borishidan dalolat beradi.

*10-jadval*

**Ayrim galogenalkanlarning fizik xossalari**

Birikmaning formulasi	Ts°C	Tq°C	d <sub>4</sub> <sup>20</sup>	n <sub>D</sub> <sup>20</sup>
CH <sub>3</sub> F	-141,8	-78,6	0,877 (-79 °C)	
CH <sub>3</sub> Cl	-141,8	-24,2	0,991 (-25 °C)	
CH <sub>3</sub> Br	-93,6	3,6	1,732 (0 °C)	
CH <sub>3</sub> I	-66,1	42,5	2,279	1,5293
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> F	-143,2	-37,7	0,816 (-37 °C)	1,3057 (-40 °C)
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> Cl	-138,7	12,2	0,921 (0 °C)	
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> Br	-119	38,2	1,430	1,4239
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> I	-108,5	72,2	1,993	1,5222
CHCl <sub>3</sub>	-63,5	61,3	1,488	1,4455
CF <sub>4</sub>	-184	-128	1,96(-184 °C)	1,4237
CCl <sub>4</sub>	-22,8	76,8	1,595	1,4603
C <sub>2</sub> H <sub>4</sub> Cl <sub>2</sub>	-35,6	83,5	1,26 (d <sub>4</sub> <sup>15</sup> )	1,4476 (n <sub>D</sub> <sup>25</sup> )

Uglerod-galogen bog‘ining energiyasi asosan galogen tipiga bog‘liq. Eng mustahkam bog‘ C-F bog‘i hisoblanadi.

### Uglerod-galogen bog'larinig xarakteristikasi


Uglerod-galogen bog'i	Bog' energiyasi kJ/mol	CH <sub>3</sub> -X uchun dipol momenti $\mu$		Bog' uzunligi, nm	Galogen atomining kovalent radiusi, nm	Bog'-lar refraksiya-si R
		Kl $\cdot$ m $\cdot$ 10 <sup>30</sup>	D			
C-F	443	6,05	1,81	0,141	0,060	1,44
C-Cl	328	6,11	1,83	0,176	0,099	6,51
C-Br	279	5,98	1,79	0,191	0,114	9,38
C-I	240	5,34	1,60	0,210	0,136	14,61

Monogalogenli hosilalar sezilarli dipol momentiga ega. Galogen atomining elektromanfiyligi uglerodning elektromanfiyligidan katta bo'lganligi uchun elektron zichligi galogen atomi tomonga siljiydi. Buning natijasida effektiv zaryadlar paydo bo'ladi.




Galogen atomida taqsimlanmagan elektronlar mayjudligi uchun molekula kuchsiz elektronodonor xossalarga ega bo'ladi. Masalan, R-Br uchun IE 10,5 eVga, R-I uchun IE 8,5 eVga teng.


Galogenalkanlar molekulasida asimmetrik uglerod atomi bo'lishi mumkin. Masalan,




R-bromftorxlor-metan



S-bromftorxlor-metan



R-2-xlorbutan




S-2 xlorbutan


### **KIMYOVIY XOSSALARI**

Galogenuglevodorodlarning kimyoviy xossalari asosan uglerod-galogen bog'ining qutblanuvchanligi bilan belgilanadi. Reaksiyon qobiliyat ftorli hosilalardan yodli hosilalarga tomon ortib boradi. Ftoruglevodorodlar xossalari jihatdan boshqa galogenuglevodorodlardan ancha farq qiladi.

Shu bilan birgalikda, ugleovodorod qoldig‘ining tuzilishi ham galogenuglevodorodning xossasiga ta’sir ko‘rsatadi. Fazoviy omillardan tashqari uglerod-galogen bog‘ining qutbliliqi ham katta ahamiyatga ega. Qutblilik quyidagi tartibda kamayib boradi:




Galogenalkanlardan ko‘ra allil va benzilgalogenidlarda uglerod-galogen bog‘ining geterolitik uzilishi osonroq kechadi, chunki galogen ajralib chiqishi natijasida hosil bo‘lgan oraliq zarracha barqarorlashadi. Masalan,



Karrali bog‘da galogen atomi tutuvchi birikmalar, ya’ni galogenarenlarda, vinilgalogenidlarda va galogenalkinlarda esa aksincha,  $sp^2$  va  $sp$  gibridlangan uglerod atomlarining ta’siri va galogen atomining +M-effekti natijasida uglerod-galogen kamroq qutblanadi. Shuning uchun galogenarenlar, vinilgalogenidlardan va galogenalkinlar almashinish reaksiyalariga qiyinroq kirishadi.

Galogenli hosilalar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega birikmalardir. Ushbu birikmalar metallar va boshqa nukleofil zarrachalar bilan reaksiyaga kirishadi va almashinish, parchalanish mahsulotlariga aylanadi.


Galogenuglevodorodlar katalizatorlar ishtirokida vodorod bilan uglevodorodlarga qaytariladi.




Qaytarish uchun galogenuglevodorodni vodorod yodid bilan ham qizdirish mumkin. Bunda yodid-ion molekulyar yodgacha oksidlanadi.



Galogenuglevodorodlar metallar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Natriy bilan reaksiyaga kirishganda uglevodorod qoldiqlari o‘zaro birikib yangi alkan hosil bo‘ladi, galogen atomi tuz holatida ajralib chiqadi (A.Vyurs, 1855-y). Reaksiya natriy atomidan galogenuglevodorodga elektronni ko‘chishi bilan boshlanadi. Oraliq mahsulotlar sifatida erkin radikallar va natriyorganik birikmalar hosil bo‘ladi.



Galogenuglevodorodlar dialkil efirlar muhitida magniy bilan reaksiyaga kirishib alkilmagniygalogenidlar hosil qiladi (V.Grinyar, 1901-03-y.).



Nukleofil reagentlar ta'sirida galogenuglevodorodlar o'rin olish reaksiyalariga kirishadi.


Bunday turdag'i reaksiyalar to'yingan uglerod atomida boradigan nukleofil o'rin olish reaksiyasi deb yuritiladi va S<sub>N</sub> simvoli bilan ifodalananadi (inglizcha *substitution* – o'rin olish). O'rin olish bilan birga parchalanish reaksiyasi ham ketishi mumkin.

Nukleofil o'rin olish reaksiyaları ikki xil bo'lishi aniqlangan. Birinchi tur o'rin olish reaksiyalarida reaksiya tezligi nukleofil reagent konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmaydi (1-tartibli reaksiya).

Birinchi tartibli reaksiya ikki bosqichda boradi. Birinchi bosqichda galogenuglevodorodning qutblanishi sodir bo'ladi. Ushbu bosqich sekin boradi. Qutblanish natijasida ion justlari (zich yoki solvatlangan) hosil bo'lishi mumkin.



Ikkinci bosqichda nukleofil reagent bilan o'zaro reaksiya ketadi. Bu bosqich tez amalga oshadi.




Reaksiyaning umumiyligi sekin boradigan bosqich – qutblanish bosqichiga bog'liq. Shuning uchun reaksiya tezligi nukleofil reagentning konsentratsiyasiga va turiga bog'liq emas. Bunday reaksiyalar

monomolekulyar reaksiyalar deyiladi va  $S_N1$  simvoli bilan belgila-nadi.

Aksariyat nukleofil o'rin olish reaksiyalarining tezligi galogenug-levodorodning va nukleofil reagentning konsentratsiyalariga bog'liq (2-tartibli reaksiya).

Ikkinci tartibli reaksiyalarda galogenuglevodorod va nukleofil reagent bir vaqtida reaksiyaga kirishadi.



Reaksiyaning tezligi nukleofil reagentning konsentratsiyasiga va turiga, hamda galogenuglevodorodning konsentratsiyasiga bog'liq. Bunday reaksiyalar bimolekulyar deyiladi va  $S_N2$  simvoli bilan belgila-nadi.

$S_N2$  reaksiyalar sinxron reaksiyalar qatoriga kiradi. Nukleofil reagent substratga C-X bog'ining qarama-qarshi tomonidan yaqinlashadi. Bir vaqtning o'zida C-X bog'i uzeladi va yangi C-Nu bog'i hosil bo'ladi.  $S_N2$  reaksiyalarda uglerod atomining konfi-guratsiyasi o'zgaradi. Masalan, R-2-brombutan ishqoriy muhitda gidroliz qilinsa S-butanol-2 hosil bo'ladi va aksincha S-brombutandan R-butanol-2 hosil bo'ladi.  $S_N2$  reaksiyalar stereospetsifik reaksiyalar jumlasiga kiradi. Agar boshlang'ich moddalar faqat fazoviy tuzilishi bilan farq qilsa va reaksiya natijasida fazoviy tuzilishi har xil bo'lgan mahsulotlarga aylansa bunday reaksiya stereospetsifik reaksiya deyi-ladi.

Optik faol 2-iodbutan NaI bilan reaksiyaga kirishganda ratsemat hosil bo'ladi. Chunki R-2-yodbutan iodid-ion bilan ta'sirlashib S-2-yodbutanga aylanadi, S-2-yodbutan esa o'z navbatida muvozanat qaror topmaguncha, ya'ni ikkala izomer teng miqdorda bo'limguncha R-2-yodbutanga aylanadi.

Muayyan reaksiyalarda nukleofil o'rin olish ikkala mexanizm bo'yicha boradi. Lekin ularning tezligi bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Ayrim holatlarda reaksiyaning tartibi birinchi ham ikkinchi bo'lmaydi. Bunday holatlarda reaksiya tartibi alohida hisoblab topi-ladi.

## Ayrim bromalkanlarning gidrolizlanish reaksiyasi tezlik konstantalari

Birikma	$S_N1$ reaksiyaning tezlik konstantasi	$S_N2$ reaksiyaning tezlik konstantasi
$\text{CH}_3\text{Br}$	$3,5 \cdot 10^{-6}$	$2,14 \cdot 10^{-2}$
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{Br}$	$1,4 \cdot 10^{-6}$	$1,71 \cdot 10^{-3}$
$(\text{CH}_3)_2\text{CHBr}$	$\sim 10^{-5}$	$5 \cdot 10^{-5}$
$(\text{CH}_3)_3\text{CBr}$	$\sim 1$	-

$S_N$  reaksiyalarning mexanizmiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: reagentning nukleofilligi, erituvchi va reagentning solvatlanishi, erituvchining qutblovchilik qobiliyati, nukleofugning (chiqib ketuvchi zarracha) tabiatи, birikmaning fazoviy tuzilishi.

Reagentning qutblanuvchanligi, anionning o'lchamlari ortishi bilan nukleofillik ortadi. Atseton, dimetilformamid, dimetilsulfoksid kabi nukleofil bilan vodorod bog'lar hosil qilmaydigan qutbli erituvchilar reaksiyaning borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kuchsiz asoslar eng yaxshi nukleofuglar hisoblanadi. Galogenid-ionlar ichida asoslik xossalari storid-iondan iodid-ionga tomon kamayib boradi.


$S_N2$  reaksiyaga fazoviy omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Reaksiya markazidagi alkil guruhlar nukleofilning yaqin kelishiga xalaqit beradi. Shuning uchun uchlamchi galogenalkanlar  $S_N2$  mexanizm bo'yicha reaksiyaga kirishmaydi.

Uchlamchi galogenalkanlar, allilgalogenidlari, benzilgalogenidlari kabi barqaror karbokation hosil qiluvchi birikmalar asosan  $S_N1$  mexanizm bo'yicha reaksiyaga kirishadi. Buni fenilmetanlar misolda yaqqol ko'rish mumkin. Agar benzilxloridni  $S_N1$  bo'yicha gidrolizlanish tezligi shartli ravishda 1 ga teng deb olinsa, difenilxlorometanda bu qiymat 2 000 ga, trifenilxlor – metanda 30 000 000 ga teng bo'ladi.


$S_N1$  reaksiyalar karbokation hosil bo'lishi orqali borganligi va unga nukleofil har tomonidan ta'sir etishi mumkin bo'lganligi uchun ko'pincha stereospetsifiklik kuzatilmaydi. Bunday holatda optik faol moddadan ratsemat hosil bo'ladi.

Galogenalkanlar ko'plab nukleofil o'rinni olish reaksiyalarida asosiy modda sifatida ishlatalidi. Ushbu reaksiyalarni quyidagicha sinflash mumkin:

- gidroliz reaksiyalari




- ammonoliz reaksiyalari




- oddiy efirlar olish




- murakkab efirlar olish



- nitrillar olish



- yoduglevodorodlar olish



Amalda barcha nukleofil o'rin olish reaksiyalari biror molekulaga alkil, alkenil, alkinil, arilalkil guruhlarni kiritish reaksiyalari hisoblanadi. Shuning uchun galogenuglevodorodlar alkillovchi reagentlar deyiladi.


Avval ta'kidlanganidek galogenuglevodorodlarning reaksiyon qobiliyati ko'p jihatdan uglerod-galogen bog'ining qutblanganligiga bog'liq. Uglerod-galogen bog'ining qutblanishi turli elektronoakseptor birikmalar yordamida orttirilishi mumkin. Buning uchun Lyuis kislotalaridan foydalaniladi.



Shunday qilib arenlar kabi kuchsiz nukleofillarni alkillash mumkin.


Past temperaturalarda erkin karbokationlar hosil qilish uchun ftoruglevodorodlar va  $\text{BF}_3$ ,  $\text{SbF}_5$ ,  $\text{PF}_5$  kabi Lyuis kislotalaridan foydalanish qulay ekanligi aniqlangan.

Nukleofil o'rin olish reaksiyalariga raqobatlashuvchi reaksiya sifatida ajralish reaksiyasi ham kuzatiladi. Ajralish reaksiyasi natijasida alken hosil bo'ladi.




Ajralish reaksiyasi  $E_N$  simvoli bilan belgilanadi (E-eliminirlanish).

Eliminirlanish reaksiyalari ham o'r'in olish reaksiyalari kabi monomolekulyar  $E_N1$  va bimolekulyar  $E_N2$  bo'lishi mumkin.  $E_N1$  da qutblanish bosqichi ustunlik qiladi va reaksiya tezligini belgilaydi. Hosil bo'lgan karbokation tezda alken va protonga parchalanadi. Proton nukleofiliga birikadi.




$E_N2$  reaksiyaning tezligi nukleofil reagentning konsentratsiyasiga bog'liq. Reaksiya davomida dastlab oraliq birikma hosil bo'ladi. Ushbu oraliq birikmada nukleofil zarracha taxminan  $\beta$ -holatdagi vodorod atomiga birikadi.



Nukleofil reagentning  $\beta$ -holatdagi vodorod atomiga ta'sir etishi galogen atomining induktiv effekti bilan tushuntiriladi. Galogen atomi ta'sirida uglerod-vodorod bog'ining qutblanishi kuchayadi. Umuman olganda nukleofil zarracha  $\alpha$ -holatdagi vodorod atomiga ham ta'sir etishi mumkin.

Nukleofil eliminirlanish reaksiyalari kuchli asoslarning konsentrangan eritmalari yoki ishqorlarning spirtdag'i eritmalari ta'sirida olib boriladi. Agar reaksiya natijasida izomer alkanlar hosil bo'lisa, asosan qo'shbog'da almashingan izomer ko'proq hosil bo'ladi (Zaysev qoidasi). Masalan, 2-metil-3-xlorbutandan 2-metilbuten-1 emas, balki ko'proq 2-metilbuten-2 hosil bo'ladi.

Agar kuchli asos ta'sirida galogenuglevodorod molekulasiidan  $\alpha$ -vodorod atomi ajralib chiqsa karben hosil bo'lishi mumkin. Masalan, xloroformdan dixlorkarben hosil bo'lishi aniqlangan:



Dixlorkarbenning hosil bo‘lishi keyingi reaksiyalar bilan tasdiqlangan.


### **MUHIM VAKILLARI**

Ftormetan va xlormetan – rangsiz gazsimon moddalar bo‘lib, spirtlar, efirlar va boshqa organik erituvchilarda yaxshi eruvchi, suvda erimaydigan birikmalardir.

Dixlormetan – suvda kam eriydigan, narkotik ta’sirga ega bo‘lgan rangsiz suyuqlikdir.

Dixlormetan polimerlarni erituvchisi sifatida ishlatiladi.

Suv xlorlanganda 1–5 mkg/l metilenxlorid hosil bo‘ladi. Atmosferada asta-sekin oksidlanadi.



Tuproqda dixlormetan mikroorganizmlar ta’sirida parchalanadi.

Dixlormetan zaharli modda hisoblanadi, narkozlovchi, teri to‘qimalarini shikastlovchi va mutagen ta’sirga ega. Dixlormetan bilan zaharlanganda jigar va buyraklar, markaziy nerv sistemasi shikastlanadi. Dixlormetan organizmga nafas, oshqozon-ichak yo‘llari, teri orqali kiradi. Teri orqali organizmga kirdganda parenximatoz to‘qimalarida to‘planishi mumkin. Dixlormetan parenximatoz to‘qimalaridan juda sekin chiqariladi.

Dixlormetanning havodagi maksimal bir martalik miqdori 8,8 mg/m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi, suvdagi me’yori 7,5 mg/l dan oshmasligi kerak.

*Trixlormetan* yoki *xloroform* – suvda kam eriydigan, narkotik va og‘riq qoldiruvchi ta’sirga ega bo‘lgan rangsiz suyuqlik. Sanoatda etil spirtini xlorli ohak bilan xlorlab olinadi.


Xloroform yog‘larni, smolalarni va kauchukni yaxshi eritadi. Sanoatda freonlar olishda ishlatilgan.

Xloroform havoda, ayniqsa yorug‘lik ta’sirida oksidlanib zaharli gaz-fosgen hosil qiladi. Shuning uchun xloroform og‘zi yaxshi yopiladigan qoramtil shisha idishlarda saqlanadi.

Xloroform havoda, ayniqsa yorug‘lik ta’sirida oksidlanib zaharli gaz-fosgen hosil qiladi. Shuning uchun xloroform og‘zi yaxshi yopiladigan qoramtil shisha idishlarda saqlanadi.

Xloroform atmosferaga farmatsevtika, rezina, plastmassa sanoati korxonalarining chiqindilari bilan chiqariladi. Xloroform suvli xlorlash jurnyonda ham hosil bo‘ladi.

Xloroform atmosferada asta-sekin fotokimyoiy oksidlanishga uchraydi:




Xloroform suvgaga tushganda asta-sekin gidrolizlanadi:



Xloroform bilan zaharlanganda jigar, buyraklar, markaziy nerv sistemasi va yurak faoliyatiga shikast yetadi. Xloroformning mutagen va kungserogen ta’siri ham aniqlangan.

Xloroformning havodagi o’rtacha sutkalik dozasi  $0,03 \text{ mg/m}^3$  ga teng.

*Tetraxlormetan* — suvda kam eriydigan rangsiz suyuqlik. Sanoatda metanni yoki uglerod sulfidni xlorlab olinadi.



Tetraxlormetan yog‘lar, moylar va smolalarni erituvchisi sifatida, hamda organik sintezda ishlataladi. Tetraxlormetan zaharli, jigar va buyrakni shikastlaydi.

*Dixloretan* (1,2-dixloretan) — rangsiz suyuqlik, suvda kam eriydi. Suv bilan  $71,5^\circ\text{C}$  da qaynaydigan azeotrop aralashma hosil qiladi.

Sanoatda etilenni xlorlab olinadi. Erituvchi sifatida va organik sintezda vinilxlorid, etilendiamin va boshqa birikmalarni olishda ishlataladi.

Dixloretan ham narkotik ta’sirga ega, lekin zaharli, jigarni shikastlaydi.

*Freonlar* — rangsiz gaz yoki suyuq moddalar bo‘lib, sovitish uskulalarida qo’llanilgan. Hozirda freonlardan turmushda foydalanish to‘xtatilgan.

*13-jadval*

### Ayrim freonlarning fizik konstantalari


Birikma	Markasi	$T_{\text{o}} \text{ } ^\circ\text{C}$	Bug‘lanish issiqligi (kJ/mol)
$\text{CCl}_3\text{F}$	F-11	23,8	182,1
$\text{CCl}_2\text{F}_2$	F-12	-29,8	167,1
$\text{CHClF}_2$	F-22	-40,8	234,1
$\text{C}_2\text{Cl}_2\text{F}_4$	F-114	3,6	137,3
$\text{C}_2\text{ClF}_5$	F-115	-38,0	

Freonlar tegishli xloralkanlardan olinadi. Diftorxlormetan organik sintezda tetrftoretilen olishda ishlatiladi.

*Geksaxlorsiklogeksan* – rangsiz kristall modda. 8 xil fazoviy izomeri ma'lum. Ushbu izomerlar ichida  $\gamma$ -izomeri lindan deb nomlanib yuqori biologik faoliyetta ega.

Benzol fotokimyoviy xlorlanganda izomerlar aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmadagi  $\gamma$ -izomerning miqdori 10–18 % ni tashkil qiladi.

Geksaxlorsiklogeksanlar aralashmasi qishloq xo'jaligida «geksaxloran» nomi bilan kuchli insektitsid sifatida ishlatilgan. Eng samaralisi lindan  $\gamma$ -hisoblanadi. Hozirgi vaqtida zaharli ta'siri mavjudligi va tuproqda va tirik organizmlarda to'planishi munosabati bilan geksaxloran amalda qo'llanilmaydi.



*Benzilxlorid* – o'tkir hidli rangsiz suyuqlik, lakrimator. Toluolni xlorlab olinadi. Organik sintezda benzil spirti, benzilsianid va benzil efirlar olish uchun ishlatiladi.

### **BIOLOGIK VA EKOLOGIK JIATLARI**

Uglevodorodlarning galogenli hosilalari sanoat miqyosida keng qo'llaniladigan organik moddalar qatoriga kiradi. Ushbu birikmalar turli yo'llar bilan atomosferaga chiqariladi. Masalan, ftoralkanlar ftorli polimerlar va ftoralkanlar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining chiqindilari tarkibida tashqariga chiqariladi.

Xloralkanlar bilan ifloslanish esa asosan lok-bo'yoq, farmatsevtika, charm sanoati, elektrikimyo korxonalarining chiqindilari hisobiga sodir bo'ldi. Ayrim xloralkanlar chiqindilarni yonishi natijasida ham hosil bo'ldi. Tekshirishlarning ko'rsatishicha, suvni xlorlash jarayonida xlorning gumin moddalari bilan ta'sirlashishi natijasida 50 ga yaqin xlororganik moddalar, jumladan xloralkanlar hosil bo'lishi aniqlangan.

Xloralkanlar tuproqda, yomg'ir va qor suvlardida, tirik organizmlarning to'qimalarida ham topilgan. Bu xlorli birikmalarni tabiatda faol aylanishi va o'zgarishlarga uchrashidan dalolat beradi.

Galogenli hosilalar tirik tabiatga va atmosferaga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Poli- va perftoralkanlar odam organizmiga narkozlovchi ta'sir qiladi, o'pka to'qimalarini shikastlaydi, binobarin ftoralkenlar ftoralkan-

larga qaraganda zaharliroq. Ftoralkan molekulasiga boshqa galogen atomi kiritilsa ham zaharliligi ortishi aniqlangan. Ftoruglevodorodlarning zaharliligi kislorod ishtirokida ortadi.

Ftorli hosilalar bilan surunkali zaharlanganda nafas yo'llari shilliq pardalarini yemirilishiga, qonning buzilishiga va markaziy nerv sistemasini faoliyatining izdan chiqishi kuzatiladi. Aksariyat ftoruglevodorodlar teriga tekkanda qizarish kelitirib chiqaradi.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, ftororganik birikmalar odam organizmiga bir sutkada taxminan 0,04 mg miqdorda suv, oziq-ovqat va havo orqali tushadi. Ular asosan qon plazmasida to'planadi. Monoftorli birikmalar organizmda ftorkarbon kislotalargacha oksidlanadi. Ftorkarbon kislotalar ichida ftorsirka kislotasi kuchli zahar hisoblanadi.


## 6.2. TO'YINMAGAN GALOGENUGLEVODORODLAR

To'yinmagan uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini galogen atomlariga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar to'yinmagan galogenuglevodorodlar deb yuritiladi. To'yinmagan galogenuglevodorodlarga galogenalkenlar va galogenalkinlar kiradi.  $\text{H}_2\text{C}=\text{CHHal}$  vinil galogenid,  $\text{H}_2\text{C}=\text{CH}-\text{CH}_2\text{Hal}$  allil galogenid,  $\text{HC}=\text{C}-\text{CH}_2\text{Hal}$  propargil galogenid kabi birikmalar misol sifatida ko'rsatilishi mumkin. To'yinmagan galogenuglevodorodlarda galogen atomi  $\text{sp}^3$ ,  $\text{sp}^2$  yoki  $\text{sp}$  gibrildlangan uglerod atomiga birikkan bo'lishi mumkin.


### OLINISH USULLARI

Galogenalkenlar asosan ikki xil yo'l bilan olinadi.


1. Digalogenalkanlarga ishqor ta'sir ettirilsa yoki katalizator ishtirokida qizdirilsa vodorod galogenid ajralib chiqadi va galogenalken hosil bo'ladi.



2. Alkinlarga galogenvodorodlarni biriktirish.



3. Propargil spirtiga  $\text{PBr}_3$  ta'sir ettirib propargil bromid olish mumkin.



4. 1,2-Dibrometenga natriy ishqorining spirtdagi eritmasi ta'sir ettirilsa bromatsetilen hosil bo'ladi.



5. Atsetilen va uchbog'i chetda joylashgan alkinlar ishqoriy muhitda galogenlanganda galogenalkinlar hosil bo'ladi.




### FIZIK XOSSALARI

Galogenalkenlar suvda deyarli erimaydigan rangsiz gazsimon moddalar, yoki o'ziga xos hidri suyuqliklardir.

Galogenalkenlarning dipol momenti galogenalkanlardagiga qaraganda kamroq. Bu uglerod – galogen bog'ining kam qutblanganligini ko'rsatadi.


Bog'ning qutblanganligining kamayishiga sabab uglerod atomining gibrildanish holatini o'zgarishidir. Bunday o'zgarish natijasida uglerod atomining elektromanfiyligi ortadi, alkendagi  $\pi$ -elektronlar galogen atomining taqsimlanmagan  $p$ -elektronlari bilan o'zaro ta'sirlashadi ( $p, \pi$ -bog'lanishi).

Taqsimlanmagan elektronlar qo'shbog' bilan qoplashadi va  $\pi$ -elektronlar zichligi uglerod atomi tomonga suriladi. Shunday qilib galogen atomi  $+M$ -effekt namoyon qiladi.




Yuqoridagi kabi bog'lanish natijasida uglerod – galogen bog'ining tabiatli o'zgaradi.

Shu bilan bir vaqtida  $\pi$ -bog'lar bo'yicha kuchli elektronoakseptor induktiv effekt ham kuzatiladi. Shuning uchun  $\pi$ - va  $\sigma$ -bog'lar bo'yicha effektlar yig'indisini sifat jihatdan aniqlash va ayniqsa sxematik tasvirlash qiyin.



Uglerod – galogen bog‘ining uzunligi odatdagidan qisqaroq bo‘lishi niqlangan. Galogenalkenlarning elektronodonor xossalari alkenlarga jaraganda kuchliroq. Misol uchun etilennenning ionlanish energiyasi 10,5 eV ga, vinilxloridning ionlanish energiyasi 10 eV ga teng.




Ionlanish energiyasi vinilgalogenidlarning tutash sistemasini va qisman elektrofil reagentlar bilan reaksiyon qobiliyatini xarakterlaydi.

### KIMYOVIY XOSSALARI

Galogenalkenlar uglerod-galogen bog‘i bo‘yicha o‘rin olish va uglevodorod qoldig‘i bo‘yicha birikish, polimerlanish, parchalanish va o‘rin olish reaksiyalariga kirishadi.

Galogenalkenlarning uglerod-galogen bog‘i bo‘yicha reaksiyası, ayniqsa nukleofil reagentlar bilan reaksiyalari oddiy galogenalkanlarga qaraganda qiyinroq boradi. Quyida ayrim misollar ko‘rib chiqiladi.

Galogen atomini vodorodga almashtirish qiyinroq boradi. Reaksiya nikel yoki palladiy sirtida ketadi, dastlab qo‘sibog‘ to‘yinadi, keyin galogen almashadi.




Galogenalkenlar metallar bilan turlicha ta’sirlashadi. Ishqoriy metallar polimerlanish reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin, magniy esa TGF muhitidagina reaksiyaga kirishadi.




Galogenalkenlarning nukleofil reagentlar bilan reaksiyasi, yuqorida ta'kidlanganidek, qiyin boradi. Buning uchun yuqori temperatura va kuchliroq reagentlar talab qilinadi, shu bilan birga yonaki reaksiyalar ham boradi.

Galogenalkenlarning nukleofil o'rincini olishi reaksiyaları aksariyat holatlarda bormaydi. Odadagi temperatura tuzurada ishqor, alkoksidlar va ammiak bilan reaksiya kutilgan, yo'nalishda bormaydi. 100–200°C da asosan yonaki reaksiyalar – parchalanish, birikish va polimerlanish reaksiyaları kuzatildi. Poligalogenalkenlarni kuchli nukleofillar, masalan, tiolyat-ionlar bilan boradigan reaksiyalarini istisno qilish mumkin.

Galogenalkenlar galogenlar, galogenvodorodlar va boshqa elektrofil reagentlarni biriktirishi mumkin. Birikish reaksiyasi alkenlarga qaraganda sekinroq boradi. Biroq, galogenvodorodlarni biriktirish reaksiyalarida galogen atomi elektronodonor sifatida ta'sir etadi.




Galogenalkenlar va galogenalkadiyenlarning polimerlanish reaksiyaları initsiatorlar yoki katalizatorlar ishtirokida oson boradi. Bu jihatdan alkenlar va alkadiyenlarga o'xshash.



Ushbu reaksiyalar sanoatda muhim ahamiyatga ega. Ular asosida bir qator polimer materiallar olinadi.


Qo'shbog'dagi uglerod atomida vodorod atomi tutuvchi galogenalkenlar ishqorlarning konsentrangan eritmalari bilan ta'sirlashganda galogenvodorod ajralib chiqadi va alkinlar hosil bo'ladi. Reaksiya vodorod ionini ajralishi bilan boshlanadi.




### **ASOSIY VAKILLARI**

*Vinilxlorid* (xloreten) – xloroform hidiga o'xshash hidli rangsiz gazsimon modda, organik erituvchilarda eriydi, suvda erimaydi.


Vinilxlorid sanoatda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Asosan gaz fazasida, katalizator (aktivlangan ko'mir va simob (II) xlorid aralashmasi) shartida atsetilenga vodorod xlorid biriktirib olinadi.



Vinilxlorid olishning ikkinchi usuli ham gaz fazasida o'tkaziladi. Dixloretan 400-500°C da degidroxlorlanadi.



Keyingi paytda dixloretan o'rniغا etilenxlorigidrindan ko'proq foydalanilmoqda.



Vinilxlorid oson polimerланади. Polivinilxlorid (PVX) polimer materiallar va sintetik tolalar olish uchun ishlatiladi.

*Trixloretilen* yoki 1,1,2-trixloreten-xloroform hidli rangsiz suyuqlik. Suvda erimaydi, lekin 73,6 % i trixloretilenden iborat azeotrop aralashma hosil qiladi.

Trixloretilen atsetilendan olinadi.



Trixloretilen yog'lar, moylar, smolalar va kauchuklarni yaxshi eritadi. Shuning uchun matolar, charm, metallarning sirtlarini yog'dan tozalashda, hamda tabiiy mahsulotlardan yog'lar va moylarni ajratib olishda va kiyimlarni kimyoviy tozalashda ishlatiladi.

*Tetraftoretilen* – hidsiz, rangsiz gazsimon modda. Suvda erimaydi.

Tetraftoretilen ko'p miqdorda diftorklometan (freon-22) ni piroliz qilib olinadi.


## 7-BOB. SPIRTLAR

Uglevodorodlarning molekulasidagi vodorod atomlarini bitta yoki bir nechta gidroksil guruhga almashinishidan hosil bo'lgan organik birikmalar *spirtlar* deb ataladi. Spirlarning umumiy formulasi  $R(OH)_n$  bo'lib, molekulasidagi gidroksil guruh soniga ko'ra bir atomli spirlar  $ROH$ , ikki atomli spirlar  $R(OH)_2$ , uch atomli spirlar  $R(OH)_3$  va ko'p atomli spirlarga  $R(OH)_n$  sinflanadi. Spirlar uglevodorod qoldig'ining tuzilishiga ko'ra alkanollar, arilalkanollar, alkenollarga bo'linadi.


### 7.1. ALKANOLLAR

Alkanollar alkanlarning hosilalari hisoblanadi. Gidroksil guruh uglevodorod zanjirida har xil joylashishi mumkin. Bunga ko'ra alkanollar quyidagicha sinflanadi. Gidroksil guruhi qanday uglerodda joylashganligiga ko'ra, hamda molekuladagi gidroksil soniga ko'ra sinflarga bo'linadi.


1. Birlamchi alkanollar;
2. Ikkilamchi alkanollar;
3. Uchlamchi alkanollar.



birlamchi spirt




ikkilamchi spirt




uchlamchi spirt

Bundan tashqari molekuladagi gidroksil guruhlar soniga ko'ra bir atomli, ikki atomli, uch atomli va ko'p atomli spirlarga bo'linadilar.



Tetraftoretilen peroksidlar ishtirokida polimerlansa molekulyar massasi 50000–2000000 bo‘lgan oq rangli kukun holidagi politetraftoretilen (ftorplast, teflon) hosil bo‘ladi. Teflon har xil buyumlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Ushbu polimer kislotalar, ishqorlar, oksidlovchilar, jumladan ftor ta’siriga ham chidamli («karkidon terisiga va olmos yurak» ka ega).

*Xlorpren* (2-xlor-butadiyen-1,3) – o‘ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, suvda erimaydi. Sanoatda ko‘p miqdorda vinilatsetilenga vodorod xlorid biriktirib olinadi.



Xlorpren oson polimerlanadi, buning natijasida xlorpren kauchuk hosil bo‘ladi. Ushbu polimer kabel va shina ishlab chiqarish xomashyosi hisoblanadi.

*Allilxlorid* yoki 3-xlorpropen-1-o‘tkir hidli rangsiz suyuqlik. Ko‘zni yoshlantiradi (lakrimator). Propenni xlorlab olinadi. Organik sintezda epixlorgidrin, glitserin, allil efirlar olishda ishlatiladi.


### Alkanollarning nomlanishi

Struktura formulasi	O'rribosarli nomenklatura bo'yicha	Radikal-funksional nomenklatura bo'yicha
$\text{CH}_3\text{OH}$	Metanol	Metil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$	Etanol	Etil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Propanol-1	Propil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_3$	Propanol-2	Izopropil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Butanol-1	Butil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_2\text{CH}_3$	Butanol-2	Ikkilamchi butil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{OH}$	2-metilpropanol-1	Izobutil spirti
$\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{-OH}$	2-metilpropanol-2	Uchlamchi butil spirti
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{-OH}$	2-metilbutanol-2	Uchlamchi amil spirti
$\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{OH}$	2,2-dimetilpropanol-1	Neopentil spirti
$\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	1,2-etandiol	Etilenglikol
$\begin{array}{c} \text{H}_2\text{C} \\   \\ \text{OH} \end{array} \text{---} \begin{array}{c} \text{CH} \\   \\ \text{OH} \end{array} \text{---} \begin{array}{c} \text{CH}_2 \\   \\ \text{OH} \end{array}$	1,2,3-propantriol	Glitserin


Alkanollarni nomlash uchun o'rribosar va radikal-funksional nomenklaturadan foydalilanadi. Zanjirdagi uglerod atomlari gidroksil guruh eng kichik lokant bilan belgilanadigan qilib raqamlanadi. Gidroksil guruh katta xarakteristik guruh sifatida *-ol* suffaksi bilan belgilanadi. Agar molekulada boshqa kattaroq guruhlar bo'lsa yoki molekula nurakkab tuzilishga ega bo'lsa gidroksil guruh *gidroksi-* yoki *oksi-* prefiksi bilan belgilanadi. Radikal-funksional nomenklatura bo'yicha alkanollar spirtlar deb yuritiladi.

### *OLINISH USULLARI*

Alkanollarni olish uchun galogenalkanlar, alkenlar, karbonil birikmalar, elementorganik birikmalar, is gazidan foydalilanadi. Alkenlarga suv biriktirish, is gazini va karbonil birikmalarni gidridlash va uglevodlarni fermentativ parchalash asosiy sanoat metodlari hisoblanadi.




Galogenalkanlar suv yoki ishqor bilan reaksiyaga kirishib alkanollarga aylanadi.




Alkenlarga suvni birikish reaksiyasi kislota katalizatorlari ishtirokida boradi (sulfat kislota, fosfat kislota, kislota bilan qayta ishlangan alyuminiy oksidi yoki boshqa tashuvchi).

Kislotadan ajralib chiqqan protonning alkenga birikishi natijasida suvning birikishi osonlashadi:




Sanoatda suvning birikishi gaz fazasida katalizator sirtida boradi.

Karbonil birikmalar katalitik gidridlanganda alkanollar hosil bo'lishi mumkin.




Metallarning kompleks gidridlari, masalan, natriy alyumogidrid, litiy borgidrid yumshoq (unchalik kuchli emas) reagentlar hisoblanadi.


Karbon kislotalarning murakkab efirlari gidridlanganda birlamchi spirtlar hosil bo'ladi. Reaksiya katalizator ishtirokida vodorod bilan yoki natriyini spirtda eritilgan vaqtida ajralib chiqayotgan vodorod bilan yoki kompleks gidridlar bilan olib boriladi. Ushbu metod 1903-yilda Buvo va Blan tomonidan ishlab chiqilgan.



Metallorganik birikmalarning aldegidlar va ketonlarga birikishi oson boradi:




Metallorganik birikmalar qo'llaniladigan ikkinchi metod ularni oksidlash reaksiyasiga asoslangan. Sanoatda alyuminiyorganik birikmalarни oksidlash reaksiyasi qo'llaniladi. Ushbu reaksiya K.Sigler tomonidan taklif qilingan.



Shuningdek, bororganik birikmalarни oksidlashdan ham foydalaniлади.

Uglerod oksidi va vodorod ishlatilayotgan katalizator, temperatura va reagentlar nisbatiga qarab har xil reaksiya mahsulotlari, metanol, har xil spirtlar aralashmasi (sintol), metan, uglevodorodlar aralashmasi hosil qilishi mumkin:




Oksosinteza alkenlardan aldegidlar olinadi, ular esa spirtlarga chaqytariladi.

Ayrim oddiy alkanollar uglevodlarning fermentativ parchalanishi – bijg‘ish jarayonida hosil bo‘ladi. Shu usul bilan sanoatda katta miqdorda etanol olinadi. Boshlang‘ich modda va qo‘llanilayotgan mikroorganizm turiga qarab bijg‘ish jarayonida ozroq miqdor propanol, butanol va 2-metilbutanol-1 ham hosil bo‘ladi.

### FIZIK XOSSALARI

Alkanollar o‘ziga xos hidli rangsiz suyuqlik yoki kristall moddalardir. Alkanollarning dastlabki uchta vakili yoqimli hidga ega. Butanollar va pentanollarning hidi yoqimsiz bo‘ladi. Katta molekulyar massali alkanollar xushbo‘y hidga ega.

Alkanollar qutbli birikmalardir. Ularning molekulasida ikkita qutbli bog‘ mavjud: C-O va O-H. Mazkur bog‘larning dipollari kislород atomi tomoniga yo‘nalgan. Alkanollarning dipol momenti yig‘indisi  $5.3-6.0 \cdot 10^{-30}$  (1.6-1.8 D) ga teng. Dipol momenti yig‘indisiga kislород atomidagi taqsimlanmagan elektron jufti ham ta’sir ko‘rsatadi.




Bog‘larning dipol momenti C-O bog‘larning qutbliligi O-H bog‘larining qutbliligidan ancha katta ekanligini ko‘rsatadi.

Kislород atomidagi taqsimlanmagan elektron jufti alkanollarning kuchsiz elektronodonor xossasini ta’minlaydi. Buni ionlanish energiyalaridan ko‘rish mumkin:

Birikma IE, eV	H <sub>2</sub> O 12.6	CH <sub>3</sub> OH 10.8	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH 10.6
-------------------	--------------------------	----------------------------	--

Alkanollarning ionlanish energiyalari suvning ionlanish energiyasidan kam. Buning sababi alkil guruhning elektronodonor ta’siridir (+I-effekt). Ionlanish energiyasi




O-H bog‘ining qutbliligi va kislород atomidagi taqsimlanmagan elektronlar molekulyar assotsiatsiya imkoniyatini vujudga keltiradi. Assotsiatsiya asosan elektrostatik tortishuv hisobiga, qisman kislород atomidagi elektron jufti bilan vodorod atomining orbitalini o‘zaro

qoplanishi hisobiga amalga oshadi. Bunday o'zaro ta'sir *vodorod bog'* deb yuritiladi. Vodorod bog' iborasini 1920-yilda V.Latimer va V.Rodebush taklif qilgan.

Vodorod bog'ning energiyasi oddiy kimyoviy bog'larning energiya-sidan ancha kam. Buni quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin:

Bog'	C-H	C-O	O-H	O . . . H
<i>E, kJ/mol</i>	415	350	463	25-26

Rentgenografik va elektronografik tekshirish natijalariga ko'ra alkanollar molekulasiidagi C-C va C-H bog'larning uzunligi va bog'lar orasidagi burchaklar kattaligi odatdagicha saqlanib qolgan.



Uglerod atomlari  $sp^3$ -gibridlangan holatda bo'ladi, kislород atomining gibridlanish turini aniqlash biroz murakkab. Kislород atomi ikkita holatda bo'lishi mumkin, ya'ni haqiqiy  $sp^3$ -gibridlanish; 1) bunda ikkala elektron jufti bir xil orbitallarda joylashgan; ROH burchagi  $109^{\circ}28'$  ga teng; 2) gibridlanishsiz holat, bunda bitta elektron jufti p-orbitalda, ikkinchisi s-orbitalda joylashadi, R-O-H burchagi  $90^{\circ}$  ga teng.



Yuqoridagi holatlardan birortasini bevosita tasdiqlovchi dalillar mavjud emas, balki valent bog'lar kattaligi, kristalda molekulaning joylashuvi kabi bilvosita ma'lumotlar bor xolos. Kislород atomidagi elektron juftlarining tabiatini alkil guruhning tabiatigiga, agregat holatga va molekulalararo ta'sirga bog'liq deb taxmin qilish mumkin.

Alkanollar yutilishi elektron spektrlarida «shaffof»dir. Kislород atomidagi taqsimlanmagan elektronlarning  $n \rightarrow \sigma$  ko'chishi bilan bog'liq kuchsiz yutilish faqat uzoq UB-sohada ( $170-180$  nm) kuzatiladi.


IQ spektrlarda uglevodorodlar va galogenuglevodorodlardagi suyultirilgan eritmalarida O-H bog'ining valent tebranishlari  $3580-3650$   $\text{sm}^{-1}$  sohada

kuzatiladi. Konsentrangan eritmalarda esa molekulalararo vodorod bog'lar hosil bo'lganligi uchun O-H bog'ining valent tebranishlari 1200–3500 sm<sup>-1</sup> sohada kuzatiladi.

### KIMYOVIY XOSSALARI


Alkanollarning kimyoviy reaksiyalarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) kislород atomining saqlanib qolishi bilan boradigan reaksiyalar va 2) gidroksil guruhni ajralishi bilan boradigan reaksiyalar.

Alkanollarning asosiy reaksiyaları umumiy tarzda quyidagi chizmada berilgan.



**1. Kislород atomining saqlanib qolishi bilan boradigan reaksiyalar.** Bu reaksiyalar kislород-vodorod bog'ining qutbliligi bilan bog'-liq.

Alkanollar juda kuchsiz OH-kislotalar hisoblanadi.



Alkanol anioni (alkogolyat- yoki alkoksid-ion) kuchli asos hisoblanadi. Alkanollarning kislotaliligi unchalik katta emas. Uglevodorod zanjirining uzayib borishi va tarmoqlanish ortib borgan sari kislotalilik kamayib boradi.


### Ayrim alkanollarning $pK_a$ qiymatlari

Alkanol	$\text{CH}_3\text{OH}$	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	$(\text{CH}_3)_2\text{CHOH}$	$(\text{CH}_3)_3\text{COH}$
pKa (suvli eritma)	15,2	15,8	16,9	19,2


Metanol nisbatan kuchli, uchlamchi spirtlar ancha kuchsiz kislota hisoblanadi. Bu yerda kislorod atomida elektron zichligini orttiruvchi alkil guruhlarning donor effekti yaqqol ko‘rinadi ( $+I$  effekt). Uchlamchi spirlarning anionlari nisbatan kuchli asoslardir.

Suvli eritmalarda alkanollarning kislota xossasi kamroq ko‘rinadi. Faqat ishqorlarning  $\text{pH} > 14$  dan katta bo‘lgan konsentrangan eritmalarida alkanollar qisman ionlanadi (masalan, KOH ning suvdagi 15% li eritmasi  $\text{pH}$  i taxminan 15 ga teng).

Odatda alkanolyatlar olish uchun aktiv suvsiz alkanollarga metallar ta’sir ettirish reaksiyalaridan foydalaniladi. Ular oson alkillanib oddiy efirlar (Vilyamson reaksiyasi), atsillanib murakkab efirlar hosil qiladi.




Alkanolyatlar kuchli asoslar sifatida kondensatsiya reaksiyalarida karbanionlar va boshqa anionlarni hosil qilish uchun, hamda galogenvodorodlar ajratish orqali qo’shbog‘lar va uchbog‘lar hosil qilish uchun ishlataladi. Masalan,




Bu yerda  $\text{S}_{\text{N}}$  reaksiyaga fazoviy omillar xalaqit beradi va alkanolyat nukleofil sifatida emas, balki metil guruhdan proton tortib oluvchi asos sifatida ishtiroy etadi.

Birlamchi va ikkilamchi spirtlar oksidlanib aldegidlar, ketonlar va karbon kislotalar hosil qiladi. Oksidlash katalizatorlar ( $\text{Cu}$ ,  $\text{CuO}$ ) ishtirokida kislород, yoki har xil noorganik oksidlovchilar ( $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , +  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{CrO}_3$  va boshqa) bilan olib boriladi. Bundan tashqari alkanollarni  $\text{Sn}$ ,  $\text{Pt}$ ,  $\text{Pd}$  ishtirokida kislорodsiz katalitik degidridlash ham mumkin:





Oksidlanish gomolitik jarayon bo'lib, erkin radikallar hosil bo'lishi orqali boradi.

Taxmin qilinishicha, permanganat yoki xromatlar bilan kislotali muhitda oksidlanganda oraliq mahsulot sifatida oson gomolitik parchalanuvchi va zanjirli jarayonni boshlab beruvchi murakkab efirlar hosil bo'ladi.



Erkin radikallar boshqa erkin radikallar bilan ta'sirlashib karbonil birikmalarga aylanadi.



$\text{R}^2=\text{MnO}_3^*$ ,  $\text{RR}'\text{CHOCrO}_2^*$ ,  $\text{RR}'\text{CHO}^*$ ,  $\text{RR}'\text{C}^*\text{-OH}$  va boshqa.


Uchlamchi spirtlar faqat kislotali muhitda yanada qattiqroq sharoitda oksidlanadi. Uchlamchi spirtdan alken hosil bo'lib, u o'z navbatida oson oksidlanadi.

Kislород atomidagi taqsimlanmagan elektron jufti elektrofil reagentlar bilan donor-akseptor bog' (semipolyar bog') hosil bo'lishi bilan ta'sirlashadi. Bunda kislород atomi musbat zaryadlanib qoladi va *oksoniy birikmalari* hosil bo'ladi.




$\text{E} = \text{BF}_3$ ,  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{SOCl}_2$ ,  $\text{TiCl}_4$ ,  $\text{SnCl}_4$ ,  $\text{H}^+$ ,  $\text{NO}_2^+$  va boshqa Lyuis kislotalari.


Alkanollar kuchsiz asoslar hisoblanadi. Protonning birikishi natijasida alkil-oksoniy kationi hosil bo‘ladi. Alkanollarning asosliligi alkoksoniy-kationining kislotaliligi bilan aniqlanadi.



Alkiloksoniy kationlari juda kuchli kislotalar hisoblanadi, ular faqat kuchli kislotalar ishtirokida hosil bo‘lishi mumkin. Masalan, 20 % li sulfat kislota eritmasining pH i -1 ga teng, bunday eritmada taxminan 10 % metanol metiloksoniy kationiga aylanadi. Kislotalarning kuchsiz eritmalarida alkoksoniy kationi faqat foiz ulushlari miqdorida hosil bo‘ladi. Alkanol molekulalarining aksariyati bunday sharoitlarda vodorod bog‘lar hosil qiladi.




Ko‘pincha alkanollarning elektrofillar bilan reaksiyasi keyingi reaksiyalarga olib boradi. Masalan, atsilxloridlar bilan reaksiyasi natijasida murakkab efirlar hosil bo‘ladi.



Alkanollarni kuchli kislotalar ishtirokida karbon kislotalar bilan o‘zaro ta’siri natijasida ham murakkab efirlar hosil bo‘ladi.


Karbokationlar bilan ta’sirlashib oddiy efirlar hosil qiladi.



Aksariyat holatlarda alkanollarning elektrofil reagentlar bilan reaksiyasi mahsulotlari carbokationlarning manbayi bo‘ladi. Buning natijasida gidroksil guruhning ajralishi, gidroksil guruhning boshqa atomlarga yoki guruhlarga almashinishi sodir bo‘ladi.



A.Y.Favorskiy va M.F.Shostakovskiy etil spirtini atsetilen bilan reaksiyasini o'rganib, viniletil efirini sintez qildilar.




Viniletil efiri polimerlanib poliviniletil efirini hosil qiladi.

## 2. Gidrosil guruhning ajralishi bilan boradigan reaksiyalar.

Bunday reaksiyalar natijasida alkanlarning turli hosilalari yoki alkenlar hosil bo'ladi. Bularni ichida uglerod oksidi bilan reaksiyasi – karbonillash alohida o'rinni tutadi.

Alkanollarni galogenvodorodlar bilan reaksiyasi natijasida galogenalkanlar hosil bo'ladi.




(X= Cl, Br, I).

Parallel ravishda parchalanish reaksiyasi ham boradi.


Vodorod storidning kislotaliligi kam bo'lganligi uchun (HI, HBr, HCl, HF ning suvli eritmalarini uchun  $\text{pK}_{\text{a}}$  -10; -9,5; -7,4 va 3,2 ga teng) ko'zlangan reaksiya mahsulotlari chiqmaydi.

Bu reaksiyani protonlangan gidrosil guruhnini nukleofil almashinishi deb hisoblash mumkin.




Reaksiya alkil guruhning tuzilishi va galogenning tabiatiga ko'ra (Cl, Br yoki I)  $\text{S}_{\text{N}}1$  yoki  $\text{S}_{\text{N}}2$  mexanizm bo'yicha borishi mumkin. Yodid-ion eng aktiv hisoblanadi.

Reaksiyalarda ko'pincha galogenvodorodlar yoki galogenvodorod kislotalari emas, balki ularni hosil qiluvchi reagentlar ishlataladi. Masalan, iodalkanlar olish uchun qizil fosfor va yoddan foydalaniлади.




Alkanollar kislorod tutuvchi noorganik kislotalar bilan ta'sirlashib ushbu kislotalarning murakkab efirlarini hosil qiladi. Kuchsiz kislotalar sulfat kislotasi ishtirokida reaksiyaga kirishadi.

Alkanollar kuchli kislotalar ishtirokida dialkil efirlar hosil qiladi.




Efirlar kislota mo'l miqdorda olinmaganda va reaksiya temperaturasini ancha past bo'lganda hosil bo'ladi. Aks holda alken hosil bo'ladi. Efirlarning hosil bo'lishi alkanolni o'sha (yoki boshqa) alkanoldan hosil bo'lgan alkillovchi reagent ta'sirida boradi. Protonlangan alkanol yoki undan hosil bo'lgan karbokation alkillovchi reagent hisoblanadi.




Birlamchi spirtlar bilan boradigan reaksiyalarning unumi yuqori bo'ladi. Ikkilamchi va uchlamchi spirtlarning bunday reaksiyalarida esa alkenlar ko'proq hosil bo'ladi.


Alkanollar kuchli kislotalar, shu jumladan Luis kislotalari ishtirokida karbokation hosil qila oluvchi elektrofil reagentlarga aylanadi. Masalan:




Alkanollar  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{PBr}_3$ ,  $\text{PCl}_5$  va  $\text{SOCl}_2$  lar bilan ta'sirlashib galogenalkanlar hosil qiladi. Qo'shimcha mahsulotlar sifatida noorganik kislotalarning murakkab efirlari chiqadi. Masalan:




Ushbu reaksiyada sulfit kislotasi xlorangidridining murakkab efiri hosil bo'lib, u o'z navbatida  $\text{SO}_2$  ajralib chiqishi bilan uglerod atomida ichkimolekulyar nukleofil almashinishga uchraydi ( $\text{S}_{\text{N}}\text{i}$ -reaksiya). Gidrosil guruh xlor atomiga uglerod atomining konfiguratsiyasi saqlangan holda almashadi.



Alkanollar kobaltli katalizatorlar ishtirokida bosim ostida CO bilan reaksiyaga kirishib karbon kislotalarga aylanadi.




Kobalt tetrakarbonilgidrid faol katalizator hisoblanib, kuchli kislota xossasiga ega va alkanolni karbokationga aylantira oladi:




Mazkur reaksiya sanoat ahamiyatiga ega.

Alkanoldan bir molekula suv ajralib chiqishi natijasida alken hosil bo‘ladi. Reaksiya kuchli kislota ishtirokida, yoki yuqori temperaturada katalizator sirtida boradi.




Kuchli kislotalar ishtirokida alkanollar murakkab efirlar yoki karbokationlar hosil qilib, ular yuqori temperaturada alkenga aylanadi.




Uchlamchi spirtlar nisbatan oson reaksiyaga kirishadi, chunki ular barqarorraq karbokationlar hosil qiladi. Katalitik degidratlash uchun odatda  $\text{Al}_2\text{O}_3$  qo'llaniladi.

Karbokation orqali E<sub>1</sub> mexanizm bo'yicha boradigan reaksiyalarda qo'shbog'larning ko'chishi yoki allil qayta gruppalanish va uglerod o'zagi (skeleti) ning o'zgarishi, ya'ni skelet qayta gruppalanishi kuzatiladi. Qayta gruppalanishlar bog'langan karbokationlar hosil bo'llishi va carbokationda vodorod atomlarining yoki alkil guruhlarning migratsiyasi bilan bog'liq.

Allil qayta gruppalanish



Retropinakolin qayta gruppalanish



## 7.2. DIOLLAR

Diollar uglevodorodlarning ikkita gidroksil guruh tutuvchi holsilalaridir. Diollar ham umumiy qoidalar bo'yicha nomlanadi. Ayrim diollarning nomlanishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

*16-jadval*


### Ayrim diollarning nomlanishi

Formulası	IYUPAK nomenklaturasi	Boshqa nomlari
$\text{HOCH}_2\text{OH}$	Metandiol	
$\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Etandiol -1,2	Glikol, etilenglikol
$\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Butandiol-1,4	1,4-butilenglikol
$\begin{array}{c} \text{H}_3\text{C}-\text{CH}-\text{CH}-\text{CH}_3 \\   \quad \quad   \\ \text{OH} \quad \text{OH} \end{array}$	2,3-dimetilbutandiol-2,3	Pinakon
$\text{HOCH}_2\text{CH=CHCH}_2\text{OH}$	Buten-2-diol-1,4	

Diollar ba'zan *glikollar* ham deyiladi. Asosiy diollar alohida ko'rib chiqiladi, chunki har bir diolning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

## GLIKOL

Glikol yoki etandiol-1,2 ikki atomli spirtlarning birinchi vakilidir. Etilenden glikol olish uchun u boshlang‘ich modda hisoblanadi. Buning uchun etilen bevosita oksidlanishi, yoki etilenden 2-xloretanol, etilenoksid, 1,2-dixloretan olinib, keyin tegishli reaksiyalar orqali glikol olinishi mumkin.




*Glikol* – rangsiz biroz quyuqroq shirin ta’mli suyuqlik, 197,6 °C da qaynaydi. Zichligi 1,113 g/ml. Suv bilan yaxshi aralashadi.

Glikolning kimyoviy xossalari asosan alkanollarga o’xshaydi. Glikollar ham glikolyatlar hosil qiladi. Monoalkanolyatlar ishqorning suvli eritmasidayoq hosil bo’ladi, chunki ikkinchi gidrosil guruhning elektronoakseptor ta’siri natijasida (-I effekt) glikolning kislota xossasi etanolga nisbatan ortadi.



Odatda glikolyatlar suvsiz glikolga metall (Na, K, Mg, Al) ta’sir ettirib olinadi.

Glikol har xil noorganik oksidlovchilar bilan oson oksidlanadi. Reaksiyaning oxirgi mahsuloti karbonat angidrid va suvdir. Lekin ba’zan oraliq mahsulotlarni, masalan, glikol kislotasini, okslat kislatasini ajratib olish mumkin. Glikolni glioksalgacha katalitik oksidlash metodi mavjud:





Qo‘rg‘oshin tetraatsetat va periodatlar 1,2-diollarning spetsifik oksidlovchilari bo‘lib, uglerod-uglerod bog‘ini parchalaydi. Reaksiya natijasida karbonil birikmalar hosil qiladi.


Gidroksil guruhlar galogen atomlariga almashinishi mumkin:




Glikolning oddiy efirlari alkanollar bilan kuchli kislota ishtirokidagi reaksiyasi natijasida oson hosil bo'ladi. Dastlab mono-, keyin diefir chiqadi:



Kislotalar bilan qizdirilganda glikol siklik efir-dioksan hosil qiladi:




Organik kislotalar yoki ularning hosilalari bilan glikol murakkab efirlar hosil qiladi.




Dikarbon kislotalar yoki ularning hosilalari bilan yuqori molekulyar birikmalar – poliefirlar hosil qiladi.

Glikol sanoat miqyosida olinadi, asosan polimerlar olish uchun ishlatiladi. Glikolning katta qismi erituvchi olish uchun sarflanadi. Glikolning suv bilan aralashmalari past temperaturada (-75 °C gacha) muzlaydi. Shuning uchun ularni avtomobil va traktorlarning dvigatellarini sovitish uchun ishlatiladi.

**Pinakonlar.** Ikkita gidroksil guruh uchlamchi uglerod atomlarida boshlashgan diollar pinakonlar ham deyiladi. Pinakonlar ketonlarni metallar bilan qaytarib olinadi:




Pinakonlar glikollarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Bundan tashqari kuchli kislotalar ta'sirida pinakonlar ketonlarga aylanadi:




Bu reaksiya *pinakolin qayta gruppalanishi* deyiladi, chunki shu yo'l bilan olingan keton ( $R=CH_3$ ) pinakolin deb atalgan.

Pinakolin qayta gruppalanishi karbokationlarning tipik qayta gruppalanish reaksiyasi bo'lib, ular pinakonlarni protonlanishidan hosil bo'ladi.




Pinakolin qayta gruppalanish faqat uchlamchi emas, ikkilamchi va birlamchi OH guruhlar tutuvchi 1,2-diollar ham kuzatiladi. Alkil guruhdan ko'ra vodorod atomi oson ko'chadi.

1,2-diollar qo'rg'oshin tetraatsetat (R.Krige, 1931) va periodat kislotosi va uning tuzlari, parayod ( $H_5IO_6$ ) kislotosi va uning tuzlari (L.Malaprad, 1928) bilan oksidlanganda uglerod-uglerod bog'i uziladi.



Yuqoridagi kabi oksidlanish reaksiyalarini  $\alpha$ -oksikarbonil birikmalar,  $\alpha$ -aminospirtlarda,  $\alpha$ -ketoaldegidlarda va  $\alpha$ -diketonlarda ham kuzatiladi. Periodat oksidlash reaksiyasi uglevodlarni miqdoriy analizida keng qo'llaniladi.


Butandiol-1,3 aldolni gidridlab olinadi:



*Butandiol-1,3* rangsiz, 207,5°C da qaynaydigan suyuqlik. Butandiol-1,3 xiral birikma bo‘lib, (+) va (-) izomerlari va optik faol bo‘lmagan ratsemeti mavjud.


Butandiol-1,3 sanoatda poliesfirlar va butadiyen-1,3 olish uchun ishlataliladi.

Butindiol-1,4 to‘yinmagan glikollarni gidridlab olinadi:



*Butandiol - 1,4* 20,9°C da suyuqlanadigan, 203°C da qaynaydigan rangsiz modda. Sanoatda polimerlar olish uchun ishlataliladi.


*Geksandiol* - 1,6 sanoatda adipin kislotasini gidridlab olinadi.



*Geksandiol* - 1,6 42°C da suyuqlanadigan, 250°C da qaynaydigan, suvda yaxshi eriydigan rangsiz kristall modda. Sanoatda polimerlar olish uchun ishlataliladi.

*Bronopol* (2-brom-2-nitropropandiol-1,3) – sut mahsulotlari konservanti sifatida oziq-ovqat sanoatida ishlataliladi. Qishloq xo‘jaligida fungitsid sifatida, o’simliklarning urug‘lariga kimyoviy ishlov berishda qo’llaniladi. Masalan, chigitning gommozi – ildiz chirishini oldini olishda foydalilaniladi.

Bronopol nitrometandan olinadi.




### 7.3. UCH VA KO‘P ATOMLI SPIRTLAR

Uch atomli spirtlar yoki triollar uglevodorodlarning uchta gidroksil turu tutuvchi hosilalaridir. Triollar ham umumiy qoidalar bo‘yicha nomlanadi. Shuningdek trivial nomlash ham qo’llaniladi.

*Glitserin*. Birinchi marta 1779-yilda K.Sheele tomonidan yog‘larni ishqor bilan qo‘rg‘oshin oksidi ishtirokida qayta ishlab olingan. Yog‘lar

Yiqtiri yog' kislotalari ( $C_{16}-C_{18}$ ) va glitserinning murakkab efirlari hisoblanadi. Ishqoriy muhitda murakkab efir gidrolizga uchraydi; yog' kislotalarining qo'rg'oshinli tuzlari cho'kmaga tushadi, eritmada glitserin qoldi.


Hozirgi vaqtida sanoatda glitserinning bir qismi yog'lardan, katta qismi sintetik yo'l bilan allilxloriddan yoki allil spirtidan olinadi:



Glitserin – yopishqoq, shirin ta'mli suyuqlik,  $17,9^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi,  $290^\circ\text{C}$  da qaynaydi. Glitserin o'ta sovitilgan suyuqlikka aylanib, juda qiyin kristallananadi. Qaynash temperaturasida asta-sekin parchalanadi, shuning uchun vakuum ostida haydaladi. Suv bilan juda yaxshi aralashadi, nuvsiz glitserin gigroskopikdir.

Glitserin alkanollarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Glitserinning molekulasida uchta OH guruhnинг mavjudligi uning reaksiyon qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ishqorlarning suvli eritmalarida monoalkanolyatlар oson hosil bo'ladi. Gilitserin kislotalilik jihatdan glikoldan ustun turadi. Taxmin qilinishicha, chetki kislorod atomlarining induktiv effekti ta'sirida ikkinchi hidroksil guruhi ionlanadi:




Og'ir metallarning, masalan, misning glitserati juda oson hosil bo'ladi. Bunday birikmalarda metall ioni ichki kompleks ko'rinishida bog'langan bo'ladi, shuning uchun ishqor ta'sirida cho'kmaga tushmaydi.

Glitserin oksidlanganda bir qator mahsulotlar hosil bo'ladi. Mo'tadil sharoitlarda oksidlanganda digidroksiatseton va glitserin aldegidi aralashmasi hosil bo'ladi.

Glitserinning murakkab efirlari katta amaliy ahamiyatga ega. Nitrolovchi aralashma ta'sirida nitrat kislotasining murakkab efiri – trinitroglitserin hosil bo'ladi. Trinitroglitserin portlovchi modda, hamda dorivor vosita hisoblanadi.


Organik kislotalar va ularning hosilalari bilan glitserinning murakkab efirlari hosil bo‘ladi. Dikarbon kislotalar va ularning angidridlari asosida poliefirlar olinadi.

Glitserinni yuqori temperaturada kuchsiz kislotga katalizatorlari ishtirokida qizidirilsa ikki molekula suv ajralib chiqib to‘yinmagan aldegid – akrolein hosil bo‘ladi.



Glitserin portlovchi moddalar (nitroglitserin, dinamit) va sintetik polimerlar ishlab chiqarish uchun, to‘qimachilik va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida yumshatuvchi vosita, hamda kosmetik preparatlarga qo‘sishimcha sifatida ishlatiladi.


*Butantetraol* to‘rt atomli spirt bo‘lib, eritrit ham deyiladi. Uning molekulasiida bir xil o‘rnbosar tutuvchi ikkita asimmetrik uglerod atomi mavjud, shuning uchun uchta stereoizomer hosil qiladi.



R- yoki S- konfiguratsiyani aniqlash uchun o‘rnbosarlarning kattaligi kamayib borishi OH, CH(OH)CH<sub>2</sub>OH, CH<sub>2</sub>OH tartibida joylashtirilishi kerak.


Eritritlar tabiiy o’simlik mahsulotlari tarkibida uchraydi.

To‘rt atomli spirlarning vakili bo‘lgan *pentaeritrit* (2,2-bis-gidroksimetilpropandiol-1,3) formaldegid va atsetaldegidning o‘zaro reaksiyasidan olinadigan 263,5°C da suyuqlanadigan, suvda eriydigan kristall modda.




Pentaeritrit parchalanish reaksiyasidan tashqari alkanollarga xos burcha reaksiyalarga kirishadi. Sanoatda poliefirlar va portlovchi moddalar hilib chiqarish uchun ishlatalidi.

Besh atomli spirtlarga pentit misol bo'la oladi.



pentit

Molekulasida oltita gidroksil guruh tutuvchi spirtlar geksitlar deb ataladi. Masalan,



geksit

#### 7.4. TO'YINMAGAN SPIRTLAR

To'yinmagan spirtlar deb molekulasida gidroksil guruh va qo'shbog' yoki uchbog' tutuvchi organik birikmalarga aytildi.

To'yinmagan spirtlarni tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ajratilgan gidroksil guruh va karrali bog' tutuvchi to'yinmagan spirtlar (alkenollar va alkinollar).

2. Qo'shbog'dagi uglerod atomida gidroksil guruh tutuvchi alkenollar (enollar).


3. Molekulasida uchbog' saqlovchi spirtlar yoki alkinollar.

#### ALKENOLLAR VA ALKINOLLAR


Alkenollar va alkinollarni nomlash uchun qo'shbog' yoki uchbog' va gidroksil guruh tutuvchi eng uzun uglevodorod zanjiri tanlanadi. Uglerod atomlarini raqamlash gidroksil guruh joylashgan tomondan boshlanadi. Masalan:



propen-2-ol-1;  
allil spirti




3-metilpenten-3-ol-1;




propin-2-ol-1;  
propargil spirti

Alkenollar va alkinollar olish uchun alkanollarni olish usullaridan foydalaniadi. Ayrim alkinollar karbonil birikmalarga atsetilen biriktirib olinadi:



Alkenollarning birinchi vakili *allil spirti*  $96,9^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan o'tkir hidli rangsiz suyuqlik. Sanoatda allilxloriddan olinadi:



Allil spirti sintetik glitserin, karbon kislotalarning allil efirlarini olish uchun ishlataladi.


Alkinollarning birinchi vakili bo'lgan *propargil spirti*  $115^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan xushbo'y hidli rangsiz suyuqlik, suv bilan aralashadi. Atsetilenga formaldegid biriktirib olinadi. Organik sintezda ishlataladi.

Ayrim to'yinmagan spirtlar tabiiy efir moylarida uchraydi. Masalan, geraniol (3,7-dimetiloktadiyen-2,6-ol-1) va linalool (3,7-dimetiloktadiyen-1,6-ol-3) xushbo'y hidli moddalar bo'lib, ayrim o'simliklarning efir moylaridan olinadi va parfumeriyada ishlataladi.


Alkenollar va alkinollarning kimyoviy tabiatini gidroksil guruh, qo'shbog' yoki uchbog'ning mavjudligi bilan bog'liq. Mazkur birikmalar alkanollarning odatdagisi xossalari namoyon qiladi, qo'shbog' yoki uchbog'ning mavjudligi unchalik ahamiyatga ega emas. Biroq kuchli elektrofil reagentlar ta'sirida gidroksil guruh bilan birgalikda karrali bog'lar ham to'yinmagan uglevodorodlar kabi reaksiyalarga kirishadi.

## YENOLLAR

Yenollar karbonil birikmalarning struktura izomerlari hisoblanadi. Yenollarni nomlash uchun tegishli alken nomiga -ol qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan,




Etenol (vinil spirti)




Propen-1-ol-2

Molekuladagi uglerod atomlari gidroksil guruh eng kichik tartib raqamini oladigan qilib raqamlanadi.


Yenollar alkinlarga suv birikishi reaksiyalari natijasida hosil bo'ladi:



Yenollarning murakkab esfirlari kislotali gidroliz qilinganda ham yenollar hosil bo'lishi mumkin:




Yenollar shuningdek ba'zi moddalarni fotokimyoviy va termik parchalanishida, masalan, glikolni degidratlanish reaksiyasida ham hosil bo'ladi.



Yenollarni reaksiyon aralashmadan ajratib olib bo'lmaydi. Bir uglerodda ham qo'shbog', ham gidroksil bo'lganda molekula beqaror bo'lib, molekula ichida qayta gruppalanish sodir bo'lishligi Eltekov va Erlenmeyer tomonidan izohlab berilgan. Keyinchalik bu qoida *Eltekov – Erlenmeyer qoidasi* deb nom olgan.




Lekin ayrim holatlarda spektroskopik metodlar yordamida reaksiyon aralashmada yenol mavjudligi qayd etish va uni karbonil birikmaga aylanish vaqtini o'lchash mumkin. Yenollarning mavjud bo'lish (yarim o'zgarish) vaqt erituvchi, temperatura va yenolning tuzilishiga qarab 10 sekunddan 30 minutgacha davom etishi mumkin. Bir qator barqaror yenollar ham olingan. Masalan,



pentaftor-  
propen-1-ol-2

Mikroto'lqinli spektroskopiya metodi yordamida vinil spirtidagi bog'lar uzunligi aniqlangan. Uglerod-uglerod, uglerod-vodorod va kislorod-vodorod bog'lari odatdag'i uzunlikka ega, uglerod-kislorod bog'ining uzunligi esa biroz qisqargan.



Yenollar va tegishli karbonil birikmalar vodorod atomi va qo'shbog'ning joylashuvi bilan farq qiladigan izomerlardir. Yenolning karbonil birikmaga aylanishi gidroksil guruhdagi vodorod atomining migratsiyasi bilan bog'liq. Shu bilan birligida karbonil birikma ham yenolga o'tishi mumkin (*yenollanish*). Bunday hodisa dinamik *izomeriya* yoki *tautomeriya* deyiladi.

Karbonil birikma – yenol tautomer sistemasi tautomer muvozanat konstantasi  $K_t$  bilan yoki yenolning soiz miqdori bilan xarakterlanadi:  $K_t = [Y]/[K]$ . Bu joyda Y – yenolning konsentratsiyasi, K – karbonil birikmaning konsentratsiyasi.


Struktura va erituvchiga bog'liq ravishda  $K_t = 10^{-4}-10^{-8}$ , ya'ni yenolning miqdori  $10^{-2}$  dan  $10^{-6}$  % gacha bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar faqat termodynamik muvozanatdag'i sistemalarga tegishli.

Ko'plab reaksiyalarda yenollar ancha ko'p miqdorda hosil bo'ladi va karbonil birikmalar bilan muvozanat sekin qaror topadi.

Muvozanat holati yenol va karbonil birikmaning nisbiy termodinamik barqarorligi bilan, ya'ni birikmalarning hosil bo'lish issiqqliklari bilan aniqlanadi. Odatda karbonil birikmalarning termodinamik barqarorligi yenollarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi.

Yenol-karbonil birikma tautomer o'zgarish protonning ko'chishi (*prototropiya*) va anion hosil bo'lishi orqali boradi.

Yenollar alkanollar kabi kuchsiz OH-kislotalar bo'lib, kislorod atomidagi taqsimlanmagan elektron juftlari va qo'shbog'dagi  $\pi$ -elektronlarning o'zaro ta'sir effekti natijasida ularning kislota xossasi alkanollarga qaraganda yuqoriroq.



Hosil bo'lgan yenolyat-ion alkoxid-iondan farqli ravishda taqsimlanmagan p-elektronlar va qo'shbog'dagi  $\pi$ -elektronlardan iborat bog'langan sistemaga ega.  $-\text{OH}$  guruh, ayniqsa  $-\text{O}^-$  ioni kuchli elektronodonor nisfatida ta'sir etadi.

Yenolyat-ionda manfiy zaryad kislород va vodorod atomlari orasida taqsimlangan.



Yenolyat-ion ikkita reaksiyon markazga ega (ambident-ion). Proton ikki xil yo'nalishda kislород yoki uglerod atomiga birikishi mumkin.

Yenollarning kislota konstantasi ( $pK_a$ ) taxminan 11-12 ga teng. Bundan kelib chiqadiki, yenollar alkanollarga nisbatan, ayniqsa qutbli erituvchilarda oson dissotsiyalanadi va protonni uglerod atomiga biriktirib boshqa turdagi karbonil birikma hosil qiladigan anionga aylanadi ( $\text{CH}$ -kislota).

*Yenol-karbonil birikma* sistemasini nisbatan kuchli OH-kislota va kuchsiz CH-kislotadan iborat muvozanat sistemidan iborat bo'lib, ularning  $pK_a$  si bir-biridan 5-8 birlikka farq qiladi. Ikkala kislota ham ionlanganda ambident yenolyat-ion hosil qiladi.

Muvozanat aralashmada kislotaliligi kamroq tautomerning miqdori ko'proq bo'ladi. Karbonil birikma va yenolning kislota konstantalari tautomer muvozanat konstantasi bilan quyidagicha bog'liq:  $pK_{\text{T}} = pK_{\text{K}} - pK_{\text{Y}}$ .

Yenollarning hosilalari bo'lgan oddiy va murakkab efirlar harakatchan vodorod atomi tutmaydi, shuning uchun odatdagi sharoitlarda karbonil birikmalarning hosilalariga qayta gruppalanmaydi.



Yenollar kuchli elektronodonor o'rinnbosarli qutblangan qo'shbog' tutganligi uchun elektrofil reagentlar, masalan, brom bilan ta'sirlashadi:



Yenollar oz miqdorda aldegidlar va ketonlarda tautomer shaklidagi mavjud bo'ldi.  $\beta$ -dikarbonil birikmalar barqaror yenollar hosil qiladi.

### MUHIM VAKILLARI VA ULARNING XOSSALARI

**Metanol.** Ushbu modda biroz miqdorda sellyuloza-qog'oz sanoatining (58 g/l gacha) va fenolformaldegid smolalari (25 g/l gacha), lok-bo'yoq (2 g/l gacha) ishlab chiqaruvchi korxonalarning oqava suvlari tarkibida uchraydi. Saxaroza o'rniغا slastilin (aspartam) ishlatalgan alkogolsiz ichimliklar ko'p miqdorda iste'mol qilinganda aspartamning organizmda biologik o'zgarishga uchrashi natijasida kuniga 250 mg gacha metanol hosil bo'lishi mumkin.

Suv havzalariga tushganda metanol oksidlanadi, buning natjasida suvda erigan kislородning miqdori kamayadi. Suv havzasidagi metanolning miqdori 4 mg/ml dan oshganda havzaning ekologik holatiga ta'sir etadi, 200 mg/ml dan ortganda esa oqava suvlarni tozalashda biologik faol qatlardagi mikroorganizmlarning faolligini kamaytiradi.

Metanol ko'rish nervlariga va ko'zning to'r pardasidagi tomirlarga ta'sir etuvchi kuchli zahar hisoblanadi. Odam organimiga tushganda metanol okisdlanib formaldegidga, keyin chumoli kislotasiga aylanadi. Buning natijasida atsidoz paydo bo'ladi, qonning kislородга to'yinishi kamayadi, bir qator oksidlanish-qaytarilish jarayonlari buziladi.

O'tkir zaharlanishlarda metanol organizmdan 5–8 kun davomida chiqariladi, uning asosiy qismi (70 % gacha) o'pkalar orqali o'zgarmagan holatda chiqariladi.

Metil spirti bilan zaharlanganda asosiy ziddi zahar etil spirti hisoblanadi.

PDK<sub>m</sub> - 1 mg/m<sup>3</sup>, PDK<sub>c</sub> - 0,5 mg/m<sup>3</sup>, PDK<sub>suv</sub> - 3 mg/m<sup>3</sup>.

**Etanol.** Bu modda organik sintezda sintetik kauchuklar ishlab chiqarishda, oziq-ovqat va lok-bo'yoq sanoatida erituvchi sifatida ishlataladi. Etanol benzin va dizel yoqilg'ilariga ularning energetik parametrlarini yaxshilash, motordan chiqadigan gazlarning tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish uchun qo'shiladi.

Etanol uzoq vaqt davomida iste'mol qilinsa, markaziy nerv sistemasiga, jigarga, oshqozon-ichak sistemasiga, ichki sekretsiya bezlariga zaharli ta'sir etadi. Qondagi testosterone miqdorining kamayishi natijasida erkaklarda jinsiy faoliyat buziladi, ayollarda hayz sikli izdan chiqadi, homiladorlikning patologik o'zgarishlari kuzatiladi. Etanol embriotoksik ta'sirga ega: spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qiluvchi odamlarning farzandlari aqliy noqislik, tug'ma yurak porogi va boshqa kasalliklarga

duchor bo'ladilar. Spirtli ichimlik ko'plab noqulay ekologik omillarning ta'sirini kuchaytiradi.


Etanol oz miqdorda organizmda sintez qilinadi, uning qondagi miqdori 0,08–4 mg/% ni tashkil qiladi. Etanolning metabolizmi asosan jigaarda kechadi (95 % gacha), bunda alkogoldegidrogenaza fermenti ta'sirida sirka aldegidgacha oksidlanadi. Sirka aldegid ta'sirida biologik membaranalalar, jigar to'qimalarining zararlanishi va boshqa o'zgarishlar paydo bo'лади.

$$PDK_m = PDK_e - 5 \text{ mg/m}^3.$$

**Etilenglikol.** Rangsiz, yopishqoq suyuqlik. Etilenglikol sintetik tölalar, plastifikatorlar, portlovchi moddalar ishlab chiqarishda, antifriz tayyorlashda ishlatiladi. Etilenglikol farmatsevtika, parfumeriya, to'qimachilik va tamaki sanoatida ham qo'llaniladi.

Etilenglikol organizmga asosan oshqozon-ichak yo'llari orqali tushadi, u yerdan oson so'rilib organizmga o'tadi. Etilenglikol yuqori darajada zararli modda, asosan markaziy nerv sistemasiga va buyraklarga ta'sir etadi, eritrositlarni parchalaydi, oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining intensivligini o'zgartiradi. Etilenglikolning qondagi miqdori 500 mg/l ga yetganda o'tkir zaharlanish kelib chiqadi.

Organizmda etilenglikolning biologik o'zgarishi ikki yo'l bilan boradi:



Etilenglikolning metabolitlari – glikol aldegidi va oksalat kislotasi zaharli ta'sirga ega. Oksalat kislotasi buyraklarda kalsiy oksalat kristallarining paydo bo'lishi va to'planishiga sabab bo'лади deb hisoblanadi. Kalsiy oksalat nerv hujayralarida ham to'planishi mumkin, natijada bosh miya qon tomirlarida qon aylanishi buziladi.

Glikol aldegidining to'planishi oksidlanishli fosforillanish va oqsillar sintezining ingibirlanishiga, Krebs sikli va glyukoza metabolizmida o'zgarishlarga olib keladi. Buning natijasida ATP hosil bo'lishi kamayadi, sut va pirouzum kislotalari to'planadi.

$$PDK_{\text{suv}} = 1 \text{ mg/l.}$$

## **8-BOB. ODDIY EFIRLAR**

Oddiy efirlar spirtlar, yenollar va fenollarning hosilalari bo'lib, gidroksil guruhdagi vodorod atomi uglevodorod qoldig'iga almashgan.

Oddiy efirlarni besh sinfga bo'lish mumkin:

1. Dialkil efirlar.
2. Siklik efirlar.
3. Vinil efirlar.
4. Alkilalaril efirlar.
5. Diaril efirlar.

Bundan tashqari oddiy efirlarning to'yinmagan vakillari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Alkilalkenil efirlar; alkilaril efirlar; diaroil efirlar; alkilalkinil efirlar.

### **8.1. DIALKIL EFIRLAR**

Dialkil efirlarning umumiy formulasi  $C_nH_{2n+1}-O-C_mH_{2m+1}$  bo'lib, radikallar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin.

Oddiy efirlarni nomlash uchun kislorod atomidagi ikkala o'rinosbasar nomiga efir so'zi qo'shiladi yoki efir uglevodorodning hosilasi sifatida qaraladi. Eng uzun uglevodorod zanjiri asos qilib olinadi. Masalan,

$CH_3-O-CH_3$	dimetil efiri, metoksimetan
$C_2H_5-O-C_2H_5$	dietil efiri, etoksieta
$CH_3CH(CH_3)-O-CH_2CH_2CH_3$	propilizopropil efiri, 1- izopropoksipropan

Dialkil efirlar alkanollarni yoki alkoksidlarni alkillash reaksiyalari asosida olinadi.


Alkanollarni alkillash uchun sanoatda kislotalar ishtirokida alkenlar ta'sir ettiriladi.

Oddiy efirlar odatdagi sharoitda o'ziga xos efir hidli, qaynash temperaturasi past bo'lgan rangsiz suyuq moddalar (dimetil efiridan tashqari)dir.

### Ayrim oddiy efirlarning fizik konstantalari

Birikmaning nomi	T. s., °C	T. q., °C	$d_4^{20}$
Dimetil efiri	-138,5	-23,7	
Dietyl efiri	-116,3	34,6	0,714
Dilizopropil efiri	-60	67,5	0,726
Metiluchlamchi butil efiri		54	0,758
2-metoksietanol		124,3	0,966
2-ctoksietanol		135,1	0,931
1,2-dimetoksietan	-58	84,5	0,863


Oddiy efirlarning dipol momenti alkanollarning dipol momentiga nisbatan kamroq ( $\mu=4\cdot10^{-30} \dots 4\cdot10^{-30}$  yoki 1,2-1,3 D), lekin elektronodonor xossalari kuchliroq. Buni oddiy efirlarning ionlanish energiyasining qiymatidan ko'rish mumkin, masalan, dietyl efirining IE ni 9,6 ga teng. Elektronodonor xossalaring kuchayishiga ikkita alkil guruhning elektronodonor ta'siri sabab bo'ladi. COC valent burchagini kattaligi 109–112° atrofida bo'ladi, ya'ni tetraedrik burchak kattaligiga o'xshaydi.



Oddiy efirlarning reaksiyalarini uch guruhgaga bo'lish mumkin: kislород atomida boradigan reaksiyalar,  $\alpha$ -uglerod atomida boradigan reaksiyalar va C-O bog'ining uzilishi bilan boradigan reaksiyalar.


Oddiy efirlar kislotalar, jumladan Lyuis kislotalari bilan birikish reaksiyasiga kirishadi. Vodorod bog'i orqali birikish mahsulotlari ham ma'lum.

Kuchli kislotalar ta'sirida oddiy efirlar protonlanib dialkilotsoniy kationiga aylanadi:



Oddiy efirlar juda kuchsiz asoslar hisoblanadi, ya'ni dialkiloksoniy kationlari kuchli OH-kislotalardir. Masalan, dietil efiri uchun  $pK_{BH^+}$  -3,6 ga teng. Bu shunga dalolat qiladiki, dietil efiri 30–50 % li sulfat kislota eritmasisidagina sezilarli darajada protonlana boshlaydi.


Lyuis kislotalari bilan ancha barqaror birikish mahsulotlari – efiratlar hosil qiladi:



Mazkur birikmalarda kislород atomidagi taqsimlanmagan elektronlar hisobiga donor-akseptor (koordinatsion) bog' hosil bo'ladi.

Oddiy efirlarni metallarning kationlari bilan ta'sirlashuvi (kationlarni solvatlashi) dialkil efirlar va TGF eritmalarida metallorganik birikmalar olishda katta ahamiyatga ega.




Maxsus sharoitlarda kislород atomiga karbokation biriktirish mumkin. Buning natijasida trialkiloksoniy tuzlari hosil bo'ladi:



Trietiloksoniy tetraftorborat

Trialkiloksoniy tuzlari rangsiz kristall moddalardir. Havodagi suv bilan ta'sirlashib suyuqlanadi va parchalanadi. Ushbu tuzlar kuchli alkilolvchi reagentlardan hisoblanadi. Kuchsiz nukleofillar bilan ham oson ta'sirlasha oladi.


Oddiy efirlar erkin radikalli xlorlanish va avtooksidlanish reaksiyaliga kirishi oladi, odatda reaksiya  $\alpha$ -uglerod atomi bo'yicha boradi. Erkin alkoksil radikallar justlashmagan elektronni kislород atomidagi taqsimlanmagan elektronlar justi bilan o'zaro ta'siri natijasida alkil radikallarga nisbatan barqaror bo'ladi.




Oksidlanish natijasida beqaror portlovchi moddalar – gidroperoksidlar hosil bo‘ladi. Dialkil efirlar havo kiradigan joyda, ayniqsa quyosh nuri tushadigan shaffof idishlarda saqlansa doimo peroksid qo’shimchalar hosil bo‘ladi.

Oddiy efirlardagi C-O bog‘ini parchalash oson kechmaydi. Buning uchun kuchli kislota yoki asos va yuqori temperatura talab qiliлади.

HI, Lyuis kislotalari ishtirokida qizdirib parchalash reaksiyalari amaliy hamiyatga ega.  $BCl_3$  va  $SiCl_4I$  ( $SiCl_4$  va  $NaI$  aralashmasi) eng faol reagentlar hisoblanadi.  $BCl_3$  bilan boradigan reaksiyaning birinchi bosqichida efirat hosil bo‘ladi va ichki molekulyar nukleofil o‘rin olish modir bo‘ladi:



O‘ta kuchli kislotalarning eritmalarida past temperaturalarda karbokationlar paydo bo‘lib, ular yuqori temperaturalarda har xil qayta gruppalanishlarga va alkenlargacha parchalanishga uchmaydi.



Tarmoqlangan guruhlar tutuvchi oddiy efirlar oson parchalanadi.

## MUHIM VAKILLARI

*Dietil efir* etanoldan konsentrланган  $H_2SO_4$  ishtirokida 140–145°C da qizdirib yoki spirtni 300°C da  $Al_2O_3$  ustida degidratlab olinadi. (370–400°C da etilen hosil bo‘ladi).


Dietil efir o‘ziga xos hidli rangsiz suyuqlik bo‘lib, oson uchuvchan, uning bug‘lari havodan og‘ir. Efirlar eritmalar ehtiyyotsizlik bilan bug‘latilsa, efir bug‘lari laborotoriya stoli ustida yoki polda yig‘iladi va havo bilan oson yonuvchi-portlovchi xavfli aralashma hosil qiladi.

Dietil efiri suvda yomon eriydi (20°C da 6 % gacha), suv esa dietil efirda yomon eriydi (1,2 %gacha). Agar suvsiz efir zarur bo‘lsa, efir avval suvsiz  $CaCl_2$  bilan, keyin Na metali bilan quritiladi.

Dietil efir har xil organik moddalarni yaxshi eritadi, shuning uchun ekstraksiya qilishda va metallorganik sintezda erituvchi sifatida keng qo‘llaniladi. Tibbiyotda dietil efiri umumiy narkoz uchun ishlataladi.

*Diizopropil efiri* izopropil spirtini  $BF_3$  ishtirokida propan bilan alkillab olinadi. Texnikada antidentalator sifatida ishlataladi.


*Sellozolvlar* glikolning monoefirlari (2-alkoksietanol) bo‘lib, etilen oksidlardan va alkanollardan olinadi.




(R=CH<sub>3</sub>, bo‘lsa metilsellozolv, R=C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>, bo‘lsa etilsellozolv)

Sellozolvlar yaxshi erituvchilar bo‘lib, ayniqsa selyulozaning murakkab esfirlarini yaxshi eritadi.

*Diglim* (dietilenglikolning dimetil efiri, 2,2’-dimetoksidietil efir) metilselyuzolv va etilenoksiddan olinadi.




Diglim yaxshi erituvchi bo‘lib, metall ionlarini kuchli solvatlaydi (uchta kislorod atomining bir vaqtligi donor effekti).




## 8.2. SIKLIK EFİRLAR


Siklik efirlar diollarning hosilalari bo'lib, ulardagi efir bog'i molekula hujida hosil bo'ladi. Siklik efirlar halqaning kattaligi va kislorod atomlari soniga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Ularni ko'pincha oksidlar ham deyiladi. Ba'zi siklik efirlar geterosiklik birikmalar kabi nomlanadi. Misalan:




epoksidlar  
(etenoksidlar, oksiranlar)




trimetilenoksidlar  
(oksetanlar)




tetrametilenoksidlar  
(teragidrofuranlar, oksolanlar)




dioksolanlar




pentametilenoksidlar  
(tetragidropiranlar)



1,3-dioksanlar




1,4-dioksanlar



[18]-kraun-6


## EPOKSIDLAR

Epoksidlarni nomlashda tegishli uglevodorod nomi asos qilib olinadi, kislorod ko'prigi esa -epoksi qo'shimchasi bilan belgilanadi. Eng sodda vakillari uchun *etenoksidlar*, *propilenoksidlar* nomlari qo'llaniladi. Shuningdek geterosiklik birikmalarni nomlashdagi oksiranlar iborasi ham qo'llaniladi. Misalan,




Epoksidlar galogenalkanollarni ichki molekulyar alkillash metodi bilan va alkenlarni to'g'ridan to'g'ri oksidlash yo'li bilan olinadi.


Galogenalkanollar (galogengidrinlar) kuchli asoslar ishtirokida epoksidlarga aylanadi:



Epoksidlar galogen va kislород atomlari trans holatda joylash-gandagina hosil bo'ladi. Masalan, 2-xlorsiklogeksanol quyidagicha o'zgarishga uchraydi:




Alkenlar peroksikislotalar va boshqa organik oksidlovchilar bilan oksidlanadi. Ba'zan katalizator ishtirokida havo kislороди bilan ham oksidlanadi. Masalan,



Epoksidlar kuchsiz hidli, rangsiz gaz (etenoksid) yoki suyuq moddalardir.


Epoksid halqasi sezilarli darajada deformatsiyalangan valent burchakli deyarli teng burchakli uchburchak shakliga ega. Shuning uchun atom orbitallari qisman qoplanadi va bog'larning energiyasi kamayadi.




Epoksid guruh qutbli, etilenoksidning dipol momenti  $\mu = 6,28 \cdot 10^{-30}$  KJ·m (1,88 D) ga teng. Bunga sabab uglerod-kislород bog'ining qutbliligi va COC burchagini kichikligidir.

Epoksidlarning kimyoiy reaksiyalari umuman olganda oddiy sirlarning ko'plab reaksiyalariga o'xshash, faqat epoksidlar juda oson reaksiyaga kirishadi. Epoksidlardagi uglerod-kislород bog'i ayniqsa kislota katalizatorlari ishtirokida oson uziladi.


Kuchsiz nukleofillar, masalan, suv bilan katalizatorsiz reaksiya yuqori temperaturali bosim ostida boradi. Kuchli nukleofillar, masalan, ammiak, minlar, metallorganik birikmalar oson ta'sirlashadi:




Kislotali muhitda uglerod-kislород bog'ining qutblanishi hisobiga epoksidlarning reaksiyon qobiliyati yanada ortadi. Sulfat yoki fosfat kislota ishtirokida suv va alkanollar oson birikadi:




Katalizator sifatida metallarning ionlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, epoksidlar  $MgCl_2$ ning suvli eritmalari bilan oson reaksiyaga kirishadi, bunda  $Mg(OH)_2$  cho'kmaga tushadi va xloralkanol hosil bo'ladi (bu reaksiyada xlor ioni nukleofil hisoblanadi, magniy ioni esa epoksiddagi kislorod atomiga koordinatsiyalanadi).




Stereokimyoviy tadqiqotlar natijasida *trans-birikish* sodir bo'lishi aniqlangan.



Nosimmetrik almashingan epoksidlarda epoksid halqasining parchalanishi yo'nalishi har xil bo'lishi mumkin. Agar reaksiya  $S_N2$  mexanizm bo'yicha boradigan bo'lsa nukleofil zarracha kamroq ekranlangan (almashingan) uglerod atomiga hujum qiladi. Agar kislotalar ishtirokida stabillashgan karbokation hosil bo'lsa,  $S_N1$  reaksiya mexanizm bo'yicha boradi va nukleofil karbokation markazga birikadi.




Suvsiz muhitda Lyuis kislotalari ishtirokida dimerizatsiya, oligomerizatsiya va polimerizatsiya reaksiyalarini oson boradi.



MUHIM YAKILLARI


*Etilenoksid* – efir hidri rangsiz gaz,  $10,7^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi,  $d_4^{14} = 0,8909$ . Suvda va organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Etilenosksid sanoat uchun muhim mahsulotlardan biridir. Dunyo miqyosida yiliga bir necha million tonna miqdorda ishlab chiqariladi. Sanoatda xlorgidirindan va etilenni oksidlاب olinadi.




Etilenoksid organik sintezda turli xil birikmalarni olishda, jumladan erituvchilar, sintetik tolalar va sirt faol moddalar olishda keng qo'llaniladi.

*Propilenoksid* – rangsiz suyuqlik,  $34,5^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi,  $d_4^{20} = 0,859$ . Propilenoksid molekulasi xiral, bir juft enantiomeri va ratsemati mavjud. Propendan xlorgidrin usuli bilan olinadi.




Propenni havo kislorodi bilan katalitik oksidlash natijasida kutilgan natija chiqmaganligi uchun molibdenning  $\pi$ -komplekslari ishtirokida gildroporessidlar bilan oksidlash metodi ishlab chiqilgan. Propilenoksid ham ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.




*Propilenoksidning ishlatalishi*

*Epixlorgidrin* (3-xlor-1,2-epoksipropan) – xloroform hidli rangsiz suyuqlik,  $110^\circ\text{C}$  da qaynaydi,  $d_4^{20}=1,1807$ . Allilxloriddan xlorgidrin metodi bo'yicha olinadi.




Epixlorgidrin molekulasida epoksid va uglerod-xlor faol bog'lari mavjud. Epixlorgidrin glitserin sintezida oraliq mahsulot hisoblanadi. Epixlorgidrin epoksid smolalar olishda keng qo'llaniladi. Dastlab bis-fenollar bilan ta'sirlashuv natijasida faol monomerlar hosil bo'ladi. Monomer boshqa bis-fenol molekulasi bilan reaksiyaga kirishib oligomer va polimerga aylanadi.



Ushbu polimer faol epoksid guruuhlar tutadi, shuning uchun diaminlar kabi reagentlar bilan reaksiyaga kirishib to'rsimon polimerlar hosil bo'ladi, ya'ni chiziqli makromolekulalar tikeladidi (qotish jarayoni). Buning natijasida polimer materialning termik va mexanik pishiqligi ortadi.


*Tetragidrofuran* – 110°C da qaynaydigan, esir hidli rangsiz suyuqlik,  $d_4^{20} = 0,8892$ . Suvda va organik erituvchilarda eriydi, suv bilan 64°C da qaynaydigan 6 % suv tutuvchi azeotrop aralashma hosil qiladi.



Tetragidrofuran butindiol-1,4 dan yoki furanni katalitik gidridlab olinadi. Teragidrofuran har xil metallarning ionlarini yaxshi solvatlaydi va metallorganik birikmalar hosil bo'lishini osonlashadir. U erituvchi sifatida va ba'zi monomerlarni olishda keng qo'llanadi.

*Dioksan* – suyuqlanish temperaturasi 11,8°C bo'lgan, 101,3°C da qaynaydigan o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik. Suvda va organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Suv bilan 87,8°C da qaynaydigan 18,4 % suv tutuvchi azeotrop aralashma hosil qiladi.


Dioksan etilenoksiddan yoki katalizator ishtirokida etilenglikoldan olinadi.




Dioksan bir qator noorganik birikmalar ( $\text{Br}_2$ ,  $\text{SO}_3$ ,  $\text{ICl}$  va boshqa) kristall holdagi donor-akseptor komplekslari hosil qiladi. Bunday komplekslar juda yaxshi bromlovchi va sulfolovchi reagentlar hisoblanadi. Dioksan →  $\text{ICl}$  kompleksi yodlash reaksiyalari uchun ishlataladi.

## KRAUN-EFIRLAR

Kraun-efirlar deb halqada to'rtta va undan ortiq kislorod atomi tutuvchi makrosiklik poliefirlarga aytildi. Aksariyat holatlarda kraun-efirlar etilenglikolning hosilalari hisoblanadi. Birikmaning nomida makrosikldagi atomlar soni kvadrat qavs ichida ko'rsatiladi, ikkinchi raqam kislorod atomlari sonini bildiradi.




[15]kraun-5



[18]kraun-6


Birinchi kraun-efir dibenzo-18-kraun-6 1967-yilda Vilyamson metodi bo'yicha K. Pedersen tomonidan pirokatexinning natriyli tuzi va bis-(2-xloretil) efiridan olingan.



Kraun-efirlar etilenglikolni, dietilenglikolni, trietilenglikolni muvosiq keluvchi reagentlar, masalan, 2,2 -dixlordietil efiri bilan alkillab olinadi. Eng sodda kraun-efirlar rangsiz quyuq suyuqliklar yoki kristall moddalar bo'lib, ugleodorodlarda va suvda eriydi.

Kraun-efirlarning eng muhim xossasi ularning metallarning ionlari bilan kompleks hosil qilishidir.

Metall ioni makrosikl bo'shlig'ida joylashadi va donor-akseptor bog'lar hisobiga mustahkam ushlab turiladi. Makrosikldagi bo'shliqning diametri kraun-efirning strukturasiga bog'liq. Masalan, [15]kraun-5 ning diametri 0,17–0,22 nm, [18]kraun-6 ning diametri 0,26–0,32 nm, [21]kraun-7 ning diametri 0,36–0,43 nm ga teng. Shuning uchun har xil kraun efirlar metallarning ionlari bilan har xil barqarorlik konstantasiga ega bo'lgan komplekslar hosil qiladi. Metall ionining diametri makrosikl bo'shlig'inining diametriga qanchalik yaqin bo'lsa, kompleks ham shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, [15]kraun-5 ga natriy ioni, [18]kraun-6 ga kaliiy ioni to'g'ri keladi.




Kraun-efirlar noorganik tuzlarni organik erituvchilarda eruvchanligini yaxshilash uchun, fazalararo katalizator sifatida, hamda organik erituvchilarda solvatlanmagan anionlar hosil qilish uchun ishlataladi. Masalan, [18]kraun-6 yordamida KOH ni benzolda eritish mumkin, bunda OH ionining faolligi suvli yoki metanoldagi eritmalariga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Kraun-efir tipidagi birikmalar biologik sistemalarda katta ahamiyatga ega. Ular ionlarni biologik membranalar orqali o'tkazilishini ta'minlaydi.


O.K.Toshmuhammedova benzokraun-efirlari hosilalari sinteziga doir tadqiqotlar olib borgan. Ularni fazalararo katalizda qo'llash uchun tavsiya etgan.

### 8.3. VINIL EFIRLAR

Vinil yoki alkil-alkenil efirlar umumiy qoidalar bo'yicha nomlanadi. Masalan,




etoksietilen




2-metokspenten-2


Vinil efirlar asosan alkinlarga alkanollarni biriktirib olinadi. Shuningdek galogendialkil efirlardan ham foydalanish mumkin:



Vinil efirlari rangsiz, biroz qitiqlovchi hidli suyuq moddalardir. Dialkil efirlardan farqli ravishda vinil efirlarning molekulasida taqsimlanmagan  $\rho$ -elektronlar va  $\pi$ -elektronlardan iborat bog'langan sistema mavjud.




Vinil efirlarning reaksiyalari asosan qutblangan qo'shbog'ning mavjudligi bilan belgilanadi. Vinil efirlari qo'shbog' bo'yicha elektrofil reagentlarni birikishi va polimerlanish reaksiyalariga kirishadi. Alkoksiguruuhning elektronodonor ta'siri natijasida birikish reaksiyasi oson boradi.



Kislotalarning birikish reaksiyalarida oraliq zarracha sifatida alkoxikarbokation hosil bo'lishi mumkin, bu kation musbat zaryadning kislorod atomi ishtirokida delokallanishi natijasida stabillashadi:




Nukleofilligi kam bo'lgan anionli kislotalar va Lyuis kislotalari bilan ta'sirlashganda karbokation mexanizmi bo'yicha polimerlanish reaksiyasi sodir bo'ladi:



Polivinil efirlar polimer materiallar sanoatida ishlataladi.


Vinil efirlari kislotalarning suvli eritmalarida gidrolizlanib yarim atsetallar orqali aldegidlargacha parchalanadi:




Alkanollarning eritmalarida atsetallar hosil bo'ladi.

#### 8.4. ALKILARIL EFIRLAR


*Alkilari efirlar* arenlarning hosilalari hisoblanadi (alkoksiarenlar).



metoksibenzol, metilfenil efiri, anizol



1,2-dimetoksibenzol, pirokatexinning dimetil efiri, veratrol



*o*-metoksifenol, pirokatexinning monometil efiri, gvayakol


Alkilari efirlar asosan fenollarni asoslar ishtirokida alkillab olinadi. Fenollarni kislotali muhitda alkanollar yoki alkenlar bilan alkillash ham mumkin, lekin bunday sharoitda qo'shimcha sifatida benzol halqasi bo'yicha alkillash mahsulotlari ham chiqadi.

Alkilari efirlar yoqimli hidli rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalaridir.


Alkilari efirlar fenollar kabi elektronodonor xossalarga ega. Bog'larning qutblanganligi, dipol momentining yo'nalishi ham fenollarga o'xshash.

Alkilari efirlarda O-R bog'ining qutblanganligi yuqori bo'lganligi uchun efir bog'i oson uziladi. Benzol halqasidagi elektron zichligi katta bo'lganligi sabab elektrofil o'rinni olish reaksiyalari oson ketadi.

Dialkil efirlarga qaraganda arilalkil efirlarning asos xossalari kuchsiz ( $pK_{BH^+} \approx 6\ldots 7$ ). Faqat 60–70 % li sulfat kislotadagina protonlanishni boshlaydi. Proton kislород atomiga va benzol halqasiga birikishi mumkin.



Protonlangan holatda O-R bog'i yanada qutbliroq bo'lib qoladi va uning geterolitik parchalanishi osonlashadi:



Alkilari efirlar HBr, HI kislotalari, Lyuis kislotalari bilan qizdirilganda oson parchalanadi. Alkilari efirlar benzol halqasi bo'yicha juda oson alkillanadi, atsillanadi, galogenlanadi, nitrolanadi, sulfolanadi.

### **MUHIM VAKILLARI**


**Anizol** (metilfenil efiri) – 155°C da qaynaydigan, yoqimli hidli rangsiz suyuqlik,  $d_4^{20} = 0,994$ , suvda erimaydi. Fenolni ishqoriy muhitda dimetilsulfat bilan metillab olinadi. Anizol organik sintezda erituvchi sifatida ishlatiladi.

**Gvayakol** (o-metoksifenol, pirokatexinning monometil efiri) – 98,4°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Pirokatexinni metillab olinadi. Gvayakol xushbo'y moddalar, masalan, vanilin va dorivor moddalar olishda ishlatiladi.


Veratrol (pirokatexinning dimetil efiri) – 22,5°C da suyuqlanadigan, 206,5°C da qaynaydigan rangsiz modda. Pirokatexinni metillab olinadi. Veratrol xushbo‘y moddalarni sintez qilishda ishlataladi.

## 8.5. DIARIL EFİRLAR

Diaril efirlar umumiy qoida bo‘yicha nomlanadi. Ba’zan ular *diariloksidlar* ham deyiladi.



Diaril efirlar fenolyatlarga galogenarenlar ta’sir ettirib olinadi. Reaksiya 200–300°C da boradi. Mis va bir valentli mis tuzlari ishtirokida reaksiya tezlashadi (F.Ulman).



Yodarenlar oson reaksiyaga kirishadi. Diaril efirlar galogenarenlar va ishqordan fenollar olishda qo’shimcha sifatida hosil bo‘ladi.

Diaril efirlar biroz yoqimli hidli, rangsiz kristall moddalardir. Suvda erimaydi. Termik barqaror. Masalan, difenil efiri 400°C da ham o’zgarmaydi.

Diaril efirlarning molekulalarida kislород atomining taqsimlanmagan elektron juftlari benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar sistemalari bilan o’zarot ta’sirlashadi.

Diaril efirlar amalda protonlanmaydi, C-O bog‘ini parchalab bo‘lmaydi. Faqat 220°C dan yuqori temperaturada AlCl<sub>3</sub> bilan ta’sirlashganda parchalanadi. Diaril efirlar ham alkilaril efirlar kabi alkillananadi, atsillanadi, galogenlanadi, nitrolanadi, sulfolanadi.


*Difenil efir* – 26°C da suyuqlanadigan, 259°C da qaynaydigan geran hidli kristall modda. 400°C gacha qizdirilganda ham o’zgarmaydi. Sanoatda bisenil bilan aralashmasi (*dauterm*) issiqlik tashuvchi vosita sifatida qo’llaniladi.

## 9-BOB. KARBONIL BIRIKMALAR


Uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta karbonil yoki aldegid guruhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar karbonil birikmalar deb ataladi. Molekulasida karbonil guruh saqlovchi birikmalar ushbu guruhning radikal yoki vodorod bilan tutashganligiga ko'ra aldegidlar va ketonlarga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda karbonil birikmalar bitta uglerod atomidagi ikkita vodorod atomi (geminal atomlar) kislorod atomiga almashgan uglevodorodlarning hosilalaridir. Shunday qilib C=O guruhi hosil bo'ladi. Bunday guruh *karbonil guruh* yoki *oksoguruh* deb yuritiladi. Agar karbonil guruh bitta vodorod atomi (formaldegidda ikkita vodorod atomi) va bitta uglerod atomi bilan birikkan bo'lsa birikma *aldegid* deyiladi, karbonil guruh esa *aldegid guruh* deb yuritiladi.

Agar karbonil guruh ikkita uglerod atomi bilan birikkan bo'lsa birikma *keton* deyiladi, karbonil guruh esa *ketoguruh* deb yuritiladi.

Aldegidlarning umumiy formulasi quyidagicha:



Ketonlarning umumiy formulasi esa quyidagicha:



Karbonil birikmalar karbonil guruhlar soniga ko'ra va molekulada boshqa funksional guruhlar mavjudligiga asosan sinflanadi. Bundan kelib chiqib karbonil birikmalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- monokarbonil birikmalar;
- dikarbonil birikmalar;
- boshqa funksional guruhlar tutuvchi karbonil birikmalar.

Har bir guruh karbonil guruhga birikkan uglerod atomi tipiga va boshqa funksional guruhlar tabiatiga ko'ra (galogenkarbonil, hidroksikarbonil, aminokarbonil va boshqa) quyi guruhlarga bo'linadi.




Shuningdek, karbonil birikmalarga halqada ikkita karbonil guruh va ikkita qo'shbog' tutuvchi olti a'zoli siklik birikmalar – *xinonlar* ham kiradi.

## 9.1. MONOKARBONIL BIRIKMALAR





### *NOMLANISHI VA IZOMERIYASI*

Monokarbonil birikmalar yoki aldegid va ketonlar deb atalib, karbonil guruhga birikkan uglerod atomining gibridlanish turiga qarab sinflanadi.

1. To'yingan karbonil birikmalar:



2. To'yinmagan ( $\alpha,\beta$ -to'yinmagan) karbonil birikmalar:



Karbonil birikmalarning nomlanishi xilma-xildir. Ularni nomlash uchun ham tarixiy, ham sistematik nomlash qo'llaniladi. Shuning uchun aksariyat karbonil birikmalar bir necha nomlarga ega.


Aldegid guruhi sistematik nomenklatura bo'yicha *-al*, *karbaldegid* suffikslari bilan yoki *okso-*, *formil-* prefikslari bilan belgilanadi. Agar aldegid guruh katta xarakteristik guruh bo'lsa u suffiks bilan belgilanadi. Agar aldegid guruhning uglerod atomi asosiy struktura tarkibiga kirsa *-al* suffiksi, boshqa hollarda *karbaldegid* suffiksi qo'llaniladi. *Okso-* va *formil-* prefikslari molekulada kattaroq guruhlar, masalan, karboksil-, sulfo- guruhlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Aldegid guruh nomenklatura bo'yicha keton guruhdan katta hisoblanadi.

Ko'plab aldegidlar trivial nomga ega. Ularning nomlari aldegidlarni oksidlanishidan hosil bo'lgan tegishli karbon kislotalar nomidan keltirib chiqariladi va aldegid so'zi qo'shiladi.


Keton guruhi o'rinosar nomenklatura bo'yicha *-on* suffiksi yoki *okso-* prefiksi bilan belgilanadi. *Okso-* prefiksi molekulada kattaroq guruhlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Radikal-funksional nomenklatura bo'yicha keton nomi alisbo tartibida uglevodorod qoldiqlari nomlaridan va *keton* prefiksidan yasaladi. Ayrim ketonlar, masalan, atseton, xalkonlar, fenonlar trivial nomlarini saqlab qolgan.




Metanal, formaldegid, chumoli kislotasi aldegidi




Etanal, atsetaldegid, sırka kislotasi aldegidi




Propanal, propion aldegidi




Butanal, butiraldegid, moy aldegidi




2-metilpropanal, izomoy aldegidi




Propenal, akrolein




Buten-2-al, kroton aldegidi



Propinal, propargil aldegidi




Aseton, propanon, dimetilketon




Butanon, metiletilketon



Geksanon-2, butilmeketon



4-metilgeksanon-2



Geksen-4-on-2


## TO'YINGAN KARBONIL BIRIKMALAR

### OLINISH USULLARI


Aldegidlar va ketonlar har xil usullar bilan olinadi.

Alkenlar va alkanollarni oksidlash, digalogenalkanlarni gidroliz qilish, alkinlarga suv biriktirish reaksiyalari yordamida karbonil birikmalar olish metodlari avvalgi boblarda ko'rildi. Bularga qo'shimcha qilib karbon kislotalarning tuzlarini termik parchalash va Udris-Sergeyev reaksiyalarini keltirish mumkin.

Karbon kislotalarining kalsiyli quruq tuzlari  $200^{\circ}\text{C}$  dan yuqori temperaturada qizdirilsa ketonlar hosil bo'ladi.




Shunday usul bilan sikloalkanonlarni ham olish mumkin:



Toriy tuzlari ishtirokida yaxshi unum bilan makrosiklik ketonlar ( $n=7$  va undan yuqori, Rujichka reaksiyasi, 1926-y.) ham olish mumkin.

Udris-Sergeyev reaksiyasida aromatik hidroperoksidlar kislotalar ta'sirida parchalanganda ketonlar hosil bo'ladi.



### FIZIK XOS SALARI

To'yingan aldegidlar va ketonlar o'ziga xos hidli rangsiz suyuq (formaldegiddan tashqari) moddalardir. Karbonil birikmalarning qaynash temperaturalari tegishli alkanollarga qaraganda past.

Karbonil guruh kuchli qutblangan guruh hisoblanadi. Aldegidlarning dipol momenti  $8,3 \cdot 10^{-30} \dots 8,7 \cdot 10^{-30}$   $\text{KJ} \cdot \text{m}$  ( $2,5 \dots 2,6$  D) ga, ketonlarning dipol momenti  $9,0 \cdot 10^{-30} \dots 9,4 \cdot 10^{-30}$   $\text{KJ} \cdot \text{m}$  ( $2,7 \dots 2,8$  D) ga teng. Shuningdek karbonil birikmalar qutblanuvchanlik xossasiga ham ega. Buni bog'larning molekulyar refraksiyasi qiymatlari bilan ham izohlash mumkin. C-O bog'i uchun  $R=1,5$  bo'lsa, C=O uchun  $R=3,3 \dots 3,5$  ga

teng, ya'ni karbonil guruhdagi atomlardagi effektiv zaryadlar tashqi omillar (hujum qiluvchi reagentlar) ta'sirida ko'payadi.

Karbonil birikmalarning qutbliligi va qutblanuvchanligi karbonil guruhning tuzilishiga bog'liq. Karbonil guruh elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qiladigan ikkita atomdan tashkil topgan. Bog' hosil bo'lishida har qaysi atomning ikkitadan orbitali qatnashadi va bittadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog' hosil bo'ladi. Karbonil guruhdagi elektron surilishi C=O bog'ida qaraganda ko'proq C=O bog'i C-O bog'idan qisqaroq (0,12 nm, C-O 0,144 nm).

Karbonil guruhidagi uglerod atomi  $sp^2$ -gibridlangan holatda bo'ladi. Kislorod atomining gibridlanish holati aniq emas. Bunda ikki xil ehtimoli bo'lishi mumkin:


A)  $sp^2$ -gibridlanish va ikkala elektron jufti teng qiymatli (I):




B) kislorod atomi gibridlanmagan, bitti elektron jufti  $p$ -orbitalda, ikkinchisi esa  $s$ -orbitalda joylashgan (II).

Keyingi paytda ikkinchi holatning bo'lish ehtimoli ko'proq deb qaralmoqda.

Karbonil birikmalar kuchsiz elektronodonor hisoblanadi. Shuningdek elektronoakseptor xossalariiga ham ega. Buni elektronni birikishi misolida ko'rish mumkin:



Elektronni birikishi natijasida anion-radikal hosil bo'ladi, toq elektron bo'shashtiruvchi quyi erkin molekulyar orbitalga joylashadi. Shuning uchun anion-radikaldagi  $\pi$ -bog'ning tartibi o'zgaradi va ko'pincha anion-radikal kuchli lokallashgan toq elektronli zarracha ko'rinishida tasvirlanadi.



Karbonil birikmalarning anion-radikali kuchli qaytaruvchilar masalan, Na, Zn bilan boradigan reaksiyalarda hosil bo‘ladi.


Elektron zichligining taqsimlanishi va karbonil guruhning boshqa o‘ziga xos jihatlarini Xyukkelning MO metodi bo‘yicha yaqinlashtirilgan holda tavsiflash mumkin.

Etilenning molekulyar orbitalidan farqli ravishda karbonil guruhda YuBMO ning energiyasi kislorod atomining elektronodonor ta’siri natijasida o‘zgargan. Taqsimlanmagan elektron justi o‘zining orbitalini ( $n$ ) egallagan. Effektiv zaryadlarning qiymatlari uglerod atomida katta elektron yetishmovchiligi mavjudligini ko‘rsatadi. Mana shu atom karbonil guruhdagi elektrofil markaz hisoblanadi.

### **KIMYOVIV XOSSALARI**

Karbonil birikmalarning kimyoviy reaksiyalari asosan qutblangan elektronoakseptor karbonil guruhi bo‘yicha vodorod. Bundan tashqari  $\alpha$ -holatdagi vodorod atomining almashinishi bilan ham o‘zgarishlarga uchraydi. Ba’zi karbonil birikmalar, masalan, formaldegid  $\alpha$ -vodorod atomini tutmaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, aldegidlar ketonlarga qaraganda reaksiyon qobiliyatini yuqoridir.


$\alpha$ -holatda vodorod atomi tutuvchi karbonil birikmalar kuchsiz CH-kislotalar bo‘lib, bog‘langan ambident – ion va enol hosil qilishi mumkin:



Yenollanuvchi karbonil birikmalar tautomer sistemalar bo‘lib, yenolning miqdori juda kam, ya’ni  $10^{-2}$ – $10^{-6}$  % atrosida bo‘ladi. Shuning o‘zi ham ba’zi reaksiyalarni yenol orqali borishiga yetadi.


Karbonil birikmlar juda kuchsiz CH-kislotalar hisoblanadi. Suvli eritmalarida asos katalizatorlar ishtirokida (pH 12–13) anionning konsentratsiyasi ionlanmagan modda miqdoriga nisbatan  $10^{-1}$ – $10^{-5}$  % ga yetishi mumkin. Alkanollarining eritmalarida alkanolyatlar ishtirokida bu ko‘rsatkich 1–10 % ga yetadi.

Kislorod atomidagi taqsimlanmagan elektronlar hisobiga karbonil birikmalar kuchsiz asos sifatida kislotalar bilan ta’sirlasha oladi. Proton kislotalar bilan ta’sirlashganda kislotalichkeit konstantasi va kislota konsentratsiyasiga bog‘liq ravishda proton karbonil guruhga vodorod bog‘i orqali yoki kovalent bog‘ bilan bog‘lanadi. Buning natijasida karbonil guruhdagi uglerod atomining elektrofilligi ortadi.



Lyuis kislotalari bilan donor-akseptor bog'langan birikish mahsulotlari hosil bo'ladi. Aldegidlar va ketonlar juda kuchsiz asoslardir ( $\text{pK}_{\text{BH}^+} \approx -6 \dots -8$ ). Protonlangan karbonil birikmaning miqdori faqat 60–80 % li sulfat kislota dagina 0,1–1 % ga yetadi. Shuni nazarda tutish kerakki, vodorod bog'inining hosil bo'lishi ham karbonil birikmalarning kuchsiz nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishish qobiliyatini oshiradi.

$\alpha$ -uglerod atomidagi reaksiyalar odatda yenol yoki anion ishtirokida boradi. Masalan, brom bilan reaksiya umumiy tarzda quyidagicha boradi:




Ushbu reaksiya sekin boradigan jarayon bo'lib, uning tezligi yenol-lanish tezligiga bog'liq.


Harakatchan  $\alpha$ -vodorod atomi tutuvchi boshqa reaksiyalarga kirisha oladi. Mazkur reaksiyalarни yenol shakl yoki karbonil birikmaning anioni orqali boradigan elektrofil o'rinn olish reaksiyalar deb qarash mumkin. Misol qilib karbonil birikmalarni nitrozolash, nitrolash, aldol kondensatsiyasi reaksiyalarini ko'rsatish mumkin.

Karbonil guruhga nukleofil reagentlarning birikishi oson boradi. Ionlar bilan bir qatorda neytral nukleofillar ham birikadi.

A) H-nukleofillarning birikishiga gidrid-ionlar, masalan, borgidridlar, alyumogidridlar ta'sirida gidridlash reaksiyalarini kiradi.




Gidrid-ionlar donori sifatida kuchli kislota ishtirokida trialkilsilanlardan foydalanish ham mumkin:




Mazkur reaksiyada avvalo karbonil birikma protonlanadi, keyin gidrid-ion musbat zaryadlangan uglerod atomiga o'tkaziladi. Bu metod *ionli gidridlash metodi* deyiladi. Ionli gidridlashning ayrim holatlarida karbonil birikmalar uglevodorodlarga aylanadi.

Karbonil guruhga C-nukleofillarning tabiatiga muvofiq ko'plab birikish reaksiyalar mavjud. Karbanion tabiatiga ega bo'lgan bir qator nukleofillar ma'lum. Bularga asosan C-M bog' tutuvchi metallorganik birikmalar kiradi.




R<sup>2</sup>-uglevodorod qoldig'i alkil, alkenil, alkinil, aril tipida bo'lishi mumkin.

Birikish reaksiyasi natijasida alkanollarning hosilalari, alkanolyatlar hosil bo'ladi. Bu spirtlar olishning muhim metodi hisoblanadi. Karbonil birikmalarning muhim reaksiyalaridan biri – *aldol kondensatsiyasi* yoki *aldol birikish* aldegid yoki ketondan hosil qilingan karbanionni karbonil guruhga birikishiga asoslangan.



**Aldol birikish reaksiyasida**  $\beta$ -gidroksikarbonil birikmalar hosil bo'ladı. Atsetaldegiddan aldol hosil bo'lishini birinchi marta 1872-yilda rus kimyogari va kompozitori A. Borodin va fransuz kimyogari A. Vyurs bir-biridan mustaqil tarzda o'rganganlar.




Ayrim holatlarda aldol birikish reaksiyaları kislota katalizatorları ishtirokida boradi. Bunda neytral va kuchsiz C-nukleofil -yenol-faollahgan karbonil guruhgaga birikadi.

Aldol birikish reaksiyaları mahsulotlarından suv molekulasi oson ajralib to'yinmagan aldeigidlar hosil bo'ladı (kroton kondensatsiyasi).

Karbonil birikmalarga nitroalkanlarning birikishi ham aldol kondensatsiyasi kabi tarzda boradi.



Vodorod sianid karbonil birikmalarga birikib  $\alpha$ -gidroksinitrillar-siangidrinlar hosil qiladi:




Reaksiya qaytar bo'lib, ishqoriy muhitda siangidrinlar siannid tuzga va karbonil birikmaga parchalanadi.


Neytral C-nukleofillarga ayrim fosfoniy va sulfoniy ichki tuzlari (ilidlar) va diazoalkanlar ham kiradi.

Fosfoniyilidlar karbonil birikmalar bilan ta'sirlashib alkenlar (Vittig reaksiyasi), sulfoniyilidlar esa epoksidlar hosil qiladi:






Diazometan va boshqa diazoalkanlar karbonil birikmalarga birikadi. Birikish mahsuloti azot ajralib chiqishi bilan parchalanib epoksidiga aylanadi, yoki izomerlanib ketonga aylanadi:



Reaksiya Lyuis kislotalari ishtirokida boradi.

Alkenlar va elektronodonor guruqlar tutuvchi arenlar (yenollar, yenaminlar, fenollar, arilaminlar, ba'zi holatlarda alkil o'rinosbosar tutuvchi alkenlar) neytral C-nukleofillar hisoblanadi. Yenollar va yenaminlar ikkitadan, ya'ni C va O, C va N atomlarida reaksiya markaziga ega bo'lgan nukleofillardir. Fenollar va arilaminlar o- va n- holatlardagi uglerod atomlarida va O- yoki N-atomlarida reaksiya markazlariga ega.

Karbonil birikmalarni neytral C-nukleofillar bilan reaksiyasini amalga oshirish uchun karbonil guruhi protonlab faollashtirish zarur. Kislota katalizatori ishtirokida karbonil birikmalar fenollar va arilaminlar bilan reaksiyaga kirishadi.




D= -OH, -NR<sub>2</sub>, va boshqa.

Agar D birlamchi yoki ikkilamchi aminoguruh bo'lsa azot atomida parallel reaksiya ketadi.

Fenollar va arilaminlar bilan boradigan reaksiya birinchi bosqichda to'xtab qolmaydi va nukleofilning ikkinchi molekulasi bilan reaksiya davom etadi.

Karbonil birikmalarni nukleofil alkenlar bilan reaksiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin:




D= -OH, -NR<sub>2</sub>, va boshqa.

Agar D= Alk yoki C<sub>6</sub>H<sub>5</sub> bo'lsa reaksiya yanada murakkabroq boradi va 1,3-dioksanlar hosil bo'ladi. Bu ayniqsa formaldegid uchun xarakterlidir (Prins reaksiyasi).

Karbonil guruhlarga H-nukleofillarning birikish reaksiyalariga ammiakni, birlamchi va ikkilamchi aminlarni, gidrazin va uning hosilalarini, gidrosilaminni birikish reaksiyalarini misol qilish mumkin.

Ammiak va birlamchi aminlarning birikishini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:



Reaksiya deyarli doimo bir molekula suv ajralib chiqishi va C=N bog'ining hosil bo'lishi bilan tugaydi. Ayrim holatlardagina keyingi o'zgarishlar – oligomerlanish, geterosiklik birikmalar hosil bo'lishi kuzatiladi.

Karbonil guruhning azot tutuvchi hosilalari quyidagicha nomlanadi:


$R^2$	Hosila
H, Alk, Ar	Azometin (imin)
OH	Oksim
NH <sub>2</sub>	Gidrazon
NHC <sub>6</sub> H <sub>5</sub>	Fenilgidrazon
NHCONH <sub>2</sub>	Semikarbazon

Ushbu hosilalarning aksariyati karbonil birikmalarni suyuqlanish temperaturasi bo'yicha identifikasiya qilishda qo'llaniladi.


**Azometinlar.** Karbonil birikmalar ammiak va birlamchi aminlar bilan ta'sirlashib azometinlar hosil qiladi. Azometinlarning nomi ikki valentli qoldiq nomiga *-amin* yoki *-anilin* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan,




Aldeigidlar ammiak bilan ta'sirlashishi natijasida hosil bo'lgan azometinlar aldiminlar ham deyiladi.




Alifatik karbonil birikmalarning azometinlari yuqori reaksiyon qobiliyatga ega. Metilenamin H<sub>2</sub>C=NH (metanimin) suyultirilgan eritmalardagina mavjud bo'la oladi, oson urotropinga aylanadi.



Etilidenamin CH<sub>3</sub>CH=NH trimerlanib geksagidro-1,3,5-triazin hosilasiga aylanadi.




Aromatik aldegidlar ammiak bilan bis-(arilidenamino)-metilarenlarga aylanadi. Masalan,




Bis-(benzilidenamino)-metilbenzol

Birlamchi aminlar, ayniqsa aromatik aminlar va aromatik aldegidlarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida barqaror azometinlar hosil bo'ladi. Bunday birikmalar *Shiff asoslari* deyiladi.



Azometinlar kuchsiz asoslar hisoblanadi. Ularning molekulasida qutblangan qo'shbog' va elektrofil uglerod atomi mavjud.



Azometinlar protonlanganda immoniy tuzlari hosil bo'ladi. Azometinlar va immoniy tuzlari karbonil birikmalar kabi nukleofil reagentlar hisoblanadi. Ular suvli eritmalarda kislotali muhitda gidrolizga uchraydi, aminobirkmaning tuzi va tegishli karbonil birikma hosil bo'ladi.

Azometinlar va ularning oligomerlanish yoki kondensatsiya mahsulotlari piridin va xinolin hosilalarini olishda ishlataladi.


Azometinlarning aksariyati kristall moddalar bo'lib, aldegidlarni ajratib olish, tozalash va identifikasiya qilishda qo'llaniladi.

**Oksimlar.** Karbonil birikmalarning gidroksilamin bilan kondensatsiyasi natijasida oksimlar hosil bo‘ladi.

Oksimlarning nomi karbonil birikma nomidan va *oksim* so‘zidan keltirib chiqariladi. Masalan,


$\text{CH}_3\text{CH}=\text{N}-\text{OH}$	atsetaldoksim
$\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}=\text{N}-\text{OH}$	benzaldoksim
$(\text{CH}_3)_2\text{C}=\text{N}-\text{OH}$	aseton oksimi

Aldegidlar va nosimmetrik ketonlar ikki xil fazoviy tuzilishga ega bo‘lgan oksimlarni hosil qilishi mumkin.



Anti-izomerning barqarorligi yuqori. Qizdirilganda, yoritilganda va ishqorlar ta’sirida izomerlanish sodir bo‘ladi.


Oksimlar kuchsiz OH-kislotalar va N-, hamda O-asoslar hisoblanadi.




Oksimlar fenollardan ham kuchsizroq kislotalardir. Oksimlarning asos xossalari diarilaminlarning asos xossalariiga yaqin. Oksimlar protonlanganda azot atomi ham, kislorod atomi ham protonlanishi mumkin.

Oksimlar kislotali muhitda suvli eritmalarda asta-sekin gidrolizlanib karbonil birikmaga va gidroksilaminga parchalanadi.

Kuchli kislotalar ishtirokida oksimlar qayta gruppalanishga uchraydi. Ketonlarning oksimlari konsentrangan sulfat kislotasi (polifosfat kislotasi,  $\text{POCl}_3$ ,  $\text{PCl}_5$ ) ta’sirida karbon kislotalarning amidlariga qayta gruppalanadi. Nosimmetrik ketoksimlardan ikki xil amid hosil bo‘lishi mumkin.




Aldoksimilar bunday sharoitda asosan degidratlanib nitrillarga (sis-izomeri) va N-almashingan formamidga (trans-izomeri) aylanadi.



Yuqoridagi qayta gruppalanish reksiyasi birinchi marta 1886-yilda E.Bekman tomonidan aniqlangani uchun organik kimyoda *Bekman qayta gruppalanishi* deyiladi.


Qayta gruppalanish uglevodorod qoldiqlaridan birini uglerod atomidan azot atomiga va kislrorod atomini azot atomidan uglerod atomiga ko'chishi bilan boradi. Odatda barqarorroq karbanion hosil qiladigan uglevodorod atomi ko'chadi. Qayta gruppalanish bitta molekula ichida kechadi va ionlarning ajralib chiqishi kuzatilmaydi.

Bekman qayta gruppalanishi sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin:




Qayta gruppalanishda oksimning fazoviy tuzilishi katta ahamiyatiga ega. Aksariyat hollarda gidroksil guruhga nisbatan trans-holatdagi guruh ko'chishi kuzatiladi.

Bekman qayta gruppalanishi sanoat ahamiyatiga ega. Siklogeksanon oksimi qayta gruppalanganda sintetik tola ishlab chiqarish uchun xom-niyo hisoblanadigan kaprolaktam hosil bo'ldi.




**Gidrazonlar.** Gidrazonlar karbonil birikmalarga gidrazin va uning alkil- yoki arilhosilalari ta'sir ettirib olinadi. Gidrazonlar rangsiz kristall moddalar bo'lib, kuchsiz asos xossasiga ega.




Gidrazonlar aldegidlar va ketonlarni suyuqlanish temperaturalari bo'yicha identifikasiya qilishda qo'llanilishi mumkin.

Buning uchun odatda fenilgidrazin va uning hosilalari 4-nitrofenilgidrazin yoki 2,4-dinitrofenilgidrazin ishlatiladi.




Gidrazonlar ayrim kimyoviy o'zgarishlarga ham uchraydi. Ishqorlar yoki alkogolyatlar ishtirokida 150–200°C gacha qizdirilsa azot ajralib chiqadi va uglevodorod hosil bo'ldi.




Mazkur reaksiya 1910-yilda N.Kijner va undan mustaqil ravishda 1912-yilda L.Volf tomonidan ochilgan. Gidrazonlarni uglevodorod-largacha parchalash yoki karbonil birikmalarni gidrazin va ishqor bilan qaytarish reaksiyasi *Kijner-Volf reaksiyası* deyiladi.


Kijner-Volf reaksiyasida gidrazon diazen hosilasiga izomerlanadi va keyin qizdirish natijasida parchalanadi.




Gidrazonlar simob oksidi yoki boshqa kuchsiz oksidlovchilar bilan oksidlansa diazoalkanlar hosil bo'ladi.



Gidrazinni ikki molekula karbonil birikma bilan o'zaro ta'siri natijasida azinlar hosil bo'ladi:




Ikkilamchi aminlarda reaksiya boshqacha ketadi. Bunda C=N bog'i hosil bo'lmaydi, balki bir molekula suv, ayniqsa kislota katalizatorlari ishtirokida ajralib chiqib yenaminlar hosil bo'ladi. Aminlar mo'l miqdorda olingan bo'lsa diaminlar (aminallar) hosil bo'ladi:




O-nukleofillarni karbonil guruhlarga birikishi bir qator reaksiyalarni, jumladan suv, alkanollar, peroksikislotalar, oligomerlanish va polimerlanish reaksiyalarini o'z ichiga oladi. Anion O-nukleofillar (gidrosidlar, alkanolyatlar) bilan boradigan reaksiyalar natijasida boshqa o'zgarishlar sodir bo'ladi (aldol birikish, disproporsiyalanish).

Suv va alkanollar kuchsiz nukleofillar hisoblanadi. Shuning uchun reaksiya faqat juda faol (formaldegid, galogenalmashigan aldegidlar va ketonlar) yoki kislota katalizatorlari bilan faollangan karbonil birikmalar bilangina boradi. Bunday reaksiyalarni quyidagicha tasvirlash mumkin:




$\text{R}^2=\text{H}$ , alk.


Alkanollar bilan reaksiya natijasida *yarimatsetallar*, alkanollar mo'l miqdorda olinsa *atsetallar* hosil bo'лади:




**Atsetallar.** Karbonil birikmalarni kislota katalizatorlar ishtirokida alkanollar yoki boshqa gidroksil guruh tutuvchi birikmalar bilan o'zaro ta'siri natijasida atsetallar hosil bo'лади. Bunda aldegidlar ketonlarga qaraganda osonroq reaksiyaga kirishadi.





Atsetallar olishning boshqa usullari ham mavjud. Masalan, vinil esfirlariga spirtlar ta'sir ettirish reaksiyasini misol qilish mumkin.




Ketonlar spirtlar bilan juda qiyin reaksiyaga kirishadi. Biroq, ketonlarning oddiy atsetallarni olish uchun ketonga chumoli kislotasining ortoefisrlarini ta'sir ettirib olish mumkin (Xelferix, 1924).



Karbonil birikmalarga 1,2-diollar yoki pirokatexin ta'sir ettirilsa siklik atsetallar-1,3-dioksolanlar hosil bo'ladi.



1,3-Dioksolanlar bir qator monosaxaridlar va disaxaridlarni ketonlar bilan reaksiyasi natijasida ham hosil bo'ladi.





Atsetallar rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir. Ayrim atsetallar xushbo'y hidga ega.

Atsetallar kislotali muhitda gidrotizlanadi, lekin asoslar ta'siriga chidamlari.


Atsetallar erituvchi sifatida, parfumeriya sanoatida xushbo'y modda sifatida va organik sintezda oraliq mahsulot sifatida ishlataladi.

Atsetallar hosil qilish reaksiyalari turli xil kimyoviy reaksiyalarda, masalan, galogenlash, oksidlash, metallorganik birikmalar ishtiroyidagi reaksiyalarda karbonil guruheni himoyalash uchun qo'llaniladi. Monosaxaridlar kimyosida sis-holatda joylashgan hidroksil guruhlarni himoyalashda ham qo'llaniladi.

Gidroksidlar va alkanolyatlari bilan boradigan reaksiyalar natijasida birikish mahsulotlari hosil bo'лади, лекин yenollanadigan karbonil birikmalarda bir vaqtda aldol birikish reaksiyasi, yenollanmaydigan aldegidlarda esa disproporsiyalanish reaksiyasi boradi.




Aldegidlar trimerlanishi, formaldegid esa polimerlanishi mumkin.




S-nukleofillarni karbonil guruhgaga birikish reaksiyalariga vodorod sulfid, tiollar (merkaptanlar), gidrosulfitlarni birikish reaksiyaları kiradi.

Vodorod sulfid va tiollar bilan boradigan reaksiyalar karbonil guruhni faollash uchun kislota katalizatorlari ishtirokida olib boriladi. Vodorod sulfid ta'sirida tiokarbonil birikmalar yoki boshqa mahsulotlar (oligomerlar) hosil bo'ladi:




Karbonil birikmalarni tiokarbonil birikmalarga aylantirish uchun  $\text{P}_2\text{S}_5$  yaxshi reagent hisoblanadi.

Tiollar karbonil birikmalar bilan ta'sirlashib tioatsetallar (merkaptallar) hosil qiladi:



Gidrosulfit-anioni o'ziga xos S-nukleofil hisoblanadi. Gidrosulfitlar karbonil birikmalarga birikib bisulfit birikmalar- $\alpha$ -gidroksisulfon kislotalarning tuzlarini hosil qiladi:




Mazkur birikmalar yaxshi kristallangani uchun karbonil birikmalarini tozalashda qo'llaniladi. Kuchsiz ishqoriy muhitda ular yana karbonil birikmaga va sulfitga parchalanadi.

Karbonil guruhgaga galogen-nukleofillarni birikishi karbonil birikmalarning fosfor, oltingugurt va boshqa elementlarning galogenidlari bilan

boradigan reaksiyalar kiradi. Karbonil birikmalar galogenid-ionlar bilan bevosita ta'sirlashmaydi.


Fosfor va oltingugurt galogenidlari bilan o'zaro ta'sirlashuv natijasida dastlab karbonil guruhning faollanishi, keyin galogenid-ion bilan reaksiya kuzatiladi:




$\text{SF}_4$  bilan ham shunday reaksiya ketadi.

**Karbonil birikmalarni qaytarilishi.** Karbonil birikmalar tegishli spirtlar yoki uglevodorodlargaacha qaytarilishi mumkin. Kompleks gidridlar va silanlar bilan qaytarish reaksiyalar nukleofil birikish reaksiyalar sifatida yuqorida ko'rib o'tildi.


Katalitik gidridlash reaksiyalarida spirtlar hosil bo'ladi:




Ammiak yoki aminlar ishtirokida qaytarish natijasida tegishli alkilaminlar hosil bo'ladi (karbonil birikmalarini qaytarib aminlash yoki ammiak va aminlarni qaytarib alkillash).




Karbonil birikmalarning qaytarilishi suv muhitida faol metallar ta'sirida ham boradi. Masalan, kislotali muhitda rux bilan qaytarish natijasida asosan uglevodorodlar hosil bo'ladi (Klemensen reaksiyasi).



Amalgalangan rux yoki magniy bilan neytral suvli muhitda qaytarish reaksiysi o'ziga xos boradi. Reaksiya natijasida pinakonlar hosil bo'ladi. Reaksiyaning birinchi bosqichida elektron karbonil guruhga birikadi, hosil bo'lgan anion-radikal dimerlanadi va protonlanadi.




Karbonil birikmalarni spirtlargacha qaytarish alyuminiyning alkanolyatlari (alkoksidlar) bilan, ikkilamchi spirtlar (propanol-2, siklogeksanol) ning hosilalari bilan o'zaro ta'siri natijasida ham kuzatiladi. Ushbu reaksiyani X.Meyerveyn va A.Pondorf 1929-yilda, ulardan mustaqil tarzda V.Verley 1926-yilda aniqlaganlar:




Reaksiya qaytardir. Shuning uchun reaksiya mahsuloti – atsetonni reaksiyon muhitdan ajratib olib turilishi kerak. Bu haydash bilan amalga oshiriladi.

Meyerveyn-Pondorf-Verley reaksiyasida vodorod atomini ikkilamchi spirtdan karbonil birikmaga ko'chishi sodir bo'ladi. Bu siklik kompleksda amalga oshadi. Vodorod atomi gidrid-ion ko'rinishida ko'chiriladi deb taxmin qilinadi:




Reaksiyaning borishi uchun mo'l miqdorda alyuminiy alkanolyat talab qilinadi. Alyuminiy alkanolyatning miqdori kamroq bo'lsa qaytarilish reaksiyasi bormaydi. Bunday sharoitda aldegidlar murakkab efirlarga disproporsiyalanadi. Bir molekula aldegid ikkinchi molekula hisobiga qaytariladi, ikkinchi aldegid molekulasi oksidlanadi (V.Tishenko, 1906-y.):



Reaksiyon kompleksda vodorod atomining bir aldegid molekulasidan ikkinchisiga ko'chishi sodir bo'ladi. Reaksiya mexanizmi arenkarbaldegidlarning disproporsiyalanish reaksiyalari mexanizmiga o'xshab ketadi (Kannisaro va Klyayzen reaksiyalari).

**Karbonil birikmalarining oksidlanishi.** Aldegidlar har xil oksidlovchilar ta'sirida oson oksidlanadi. Oksidlanish natijasida karbon kislotalar hosil bo'ladi.


Aldegidlar bir qator noorganik oksidlovchilar ta'sirida oksidlanadi, ya'ni reaksiyada qaytaruvchi sifatida ishtirok etadi. Masalan, kuchsiz ishqoriy muhitda aldegidlar kumush ionini kumush metalligacha qaytaradi, ya'ni «*kumush ko'zgu*» reaksiyasi kuzatiladi. Reaksiya ammiak ishtirokida boradi,  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+$  -kompleks ioni Tollens reaktiv deb yuritilib, oksidlovchi reagent hisoblanadi.



Ishqoriy muhit va ammiakning mavjudligi yonaki reaksiyalarga ham sabab bo'ladi (aldol birikish, iminlar va ularning oligomerlari hosil bo'lishi).

Ayrim aldegidlar ishqoriy muhitda qizdirilganda Feling reaktivini ham qaytaradi. Reaksiya natijasida qizil rangli Cu<sub>2</sub>O ajralib chiqadi. Reaksiyaning imkoniyati cheklangan, masalan, atsetaldegid va arenkarbaldegidlar bunday reaksiyaga kirishmaydi.


Aldegidlarni karbon kislotalarga aylanishi ikkita elektron va vodorod atomini ajralishi bilan bog'liq. Reaksiya gidroksil guruhning birikishi bilan osonlashadi. Umuman olganda ushbu jarayon oksidlovchi tomonidan gidrid-ionni ajratib olinishi sifatida izohlash mumkin:




Amalda jarayon bundan ham murakkab tarzda borishi mumkin.

«Kumush ko'zgu» reaksiyasiga va Feling reaksiyasiga ishqoriy muhitda oksidlanadigan boshqa organik birikmalar, masalan,  $\alpha$ -gidroksiketonlar ham kirishadi.


Ketonlar oksidlovchilar ta'siriga chidamli, faqat kuchli oksidlovchilar ta'sirida qizdirilganda oksidlanadi. Reaksiya natijasida uglerod-uglerod bog'i karbonil guruhning ikkala tomonidan uzeladi va to'rt xil karbon kislotaning aralashmasi hosil bo'ladi.



Ayrim oksidlovchilar, masalan, SeO<sub>2</sub> ta'sirida karbonil birikmalardagi  $\alpha$ -metilen guruhi karbonil guruhga aylanadi.




Ketonlar peroksidlar va peroksikislotalar ta'sirida o'ziga xos oksidlaniadi. Masalan, peroksikislotalar bilan oksidlanguanda murakkab efirlar yoki laktonlar hosil bo'ladi:




### **MUHIM VAKILLARI**

*Formaldegid.* O'tkir hidli, rangsiz gaz. Suvda va organik erituvchilarida yaxshi eriydi. Stabillash uchun 5–15 % metil spiriti qo'shilgan 35–37 % li suvli eritmasi *formalin* deyiladi.

Formaldegid sanoat miqyosida ko'p miqdorda olinadi. Asosan metanolni katalitik oksidlاب olinadi. Shuningdek, metanni katalitik oksidlash ham qo'llaniladi:



Formaldegid suvli eritmalarda suvni oson biriktirib oligomerlanadi va polimerlanadi. Uning chiziqli va siklik oligomerlari ma'lum.




Suvli eritmalari vakuumda bug'latilganda oligomerlar va  $n=8-100$  bo'lgan polimer aralashmasidan iborat, *paraform* deb nomlanuvchi rangsiz kukun hosil bo'ladi. Paraform organik sintezda gazsimon formaldegid o'rniغا ishlataladi.


Formaldegid polimerlar olishda keng qo'llaniladi. Suvsiz formaldegidni inert erituvchilarda polimerlab yuqori molekulali poliformaldegid olinadi ( $n \approx 1000$ ). Polimer 170-180°C da yumshaydi, undan tolalar, plyonkalar va konstruksion detallar olishda foydalaniлади.

Formaldegid organik sintezda gidroksimetil, xlormetil va aminometil guruhlar kiritish uchun, qaytarish uchun ishlataladi.

Formaldegid ammiak bilan adamantan tuzilishiga ega bo'lgan polisiklik birikma – urotropin hosil qiladi.



Urotropin rangsiz kristall modda bo'lib, suvda eriydi. Kislotali sharoitda formaldegid va ammiakka parchalanadi. Organik sintezda formaldegid o'rniغا ishlataladi va tibbiyotda ham qo'llaniladi. Urotropin nitrolanganda kuchli portlovchi modda – *geksogen* hosil bo'ladi.



*Atsetaldegid* oson uchuvchan, o'ziga xos, yuqori konsentratsiyalarda bo'g'uvchi hidli rangsiz suyuqlik. Sanoat miqyosida atsetilenga suv biriktirib, etanolni kislorod bilan katalitik oksidlab va etilenni  $PdCl_2$  va  $CuCl_2$  ishtirokida kislorod bilan oksidlab olinadi.

Atsetaldegid sirkə kislotasi, peroksisirkə kislotasi, butadiyen, pentaeritrit va boshqa birikmalar olishda ishlataladi.

*Atseton* rangsiz, oson uchuvchan suyuqlik. Suv va organik erituvchilar bilan cheksiz aralashadi. Atseton sanoatda propendan ikki xil usul bilan, ya'ni:



1. Propendan propanol-2, undan atseton olinadi.

2. Propendan kumol, undan kumolning gidroperoksiди, undan aseton olinadi.

Atseton erituvchi sifatida, ayniqsa nitrosellyuloza va atsetilsellyuloza, atsetilenni eritishda ko'p miqdorda ishlataladi. Organik sintezda

utsetondan keten, izoproyen, mezitil oksidi (4-metilpenten-3-on-2) olinadi.

*Kamfora* (1,7,7-trimetilbisiklo[2.2.1]geptanon-2) -rangsiz, o'ziga xos kristall modda. 178-179°C da suyuqlanadi, oson sublimatlanadi.



$\alpha$ -pinen

Kamfora tabiatda ko'plab efir moylarining tarkibida uchraydi. U ayniqsa kamfora moyida ko'p bo'ladi. Ushbu moydan optik faol tabiiy kamfora olinadi. Sanoatda  $\alpha$ -pinen (2,6,6-trimetilbisiklo [3.1.1]gepten-2) dan olinadi. Sintetik kamfora optik faol emas (ratsemat aralashma).

Kamfora sanoatda nitroellyulozaning plastifikatori va stabilizatori sifatida, hamda tibbiyotda yurak faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlataladi.

## ALDEGIDLAR EKOLOGIYASI

Aldegidlар atrof-muhitga korxonalar ko'mirda va suyuq yoqilg'ida ishlaydigan issiqlik elektrostansiylarining chiqindilari tarkibida, hamda avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan chiqadi. Aldegidlар tamaki tutunida, tirik organizmlarning hayot faoliyati natijasida hosil bo'ladigan moddalar tarkibida ham uchraydi. Aldegidlар har xil yong'inlar, polimerlarning destruksiyasi va vulqonlarning otlishi natijasida atmosferaga chiqadi.

Aldegidlар shahar atmosferasining doimiy komponenti hisoblanadi. Ular havoda atmosfera va maishiy changlarga yutiladi. Maishiy chang tarkibida asosan chumoli aldegidi, pentanal, gepsanal, oktanal, nonanal va benzaldegid bo'ladi.

Aldegidlар oz miqdorda issiq qonli hayvonlarda modda almashinuvini o'zgartirish mumkin, yuqori konsentratsiyalarda esa neyrotoksik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aldegidlар yallig'lovchi, narkotik, umumiy toksik ta'sirlarni ham namoyon qiladi.

To'yingan aldegidlар asosan yurak-qon tomir sistemasiga ta'sir etadi,  $\alpha$ , $\beta$ -to'yinmagan aldegidlар qonda glutation miqdorini kamayishiga sabab bo'ladi va leykositlarning fagositar faolligini kamaytiradi.

Ayrim aldegidlар mutagen va kanserogen faollikka ega. Hujayralarda to'yinmagan yog' kislotalari gidroperoksidlarining parchalanishi natijasida

hosil bo'ladigan aldegidlar sitostatik ta'sirga ega, ya'ni hujayralarni o'sishi va ko'payishini susaytiradi.

Aldegidlar organizmda modda almashinuv natijasida (endogen) hosil bo'lishi mumkin va tashqaridan nafas yo'llari va oshqozon-ichak yo'llari orqali tushishi mumkin.


Aldegidlarning biologik o'zgarishlari odam organizmida qonda, jigarda va boshqa a'zolarida sodir bo'lishi mumkin. Aldegiddegi hydrogenaza fermenti odam organizmida aldegidlarni tegishli kislotalarga aylanishida asosiy modda hisoblanadi. Ushbu ferment aldegidlarni nafas yo'llari orqali va glitsin va glyukuron kislotasining birikmalari tarzida siyidik bilan ajralib chiqadigan tegishli spirtlarga qaytarishi ham mumkin.

## TO'YINMAGAN KARBONIL BIRIKMALAR

### *OLINISH USULLARI*


$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalar asosan ikki xil usul bilan olinadi.

1. Aldollarni degidratlash reaksiysi, yoki kroton kondensatsiyasi. Aldollar yoki  $\beta$ -gidroksikarbonil birikmalar kislotali muhitda oson degidratlanib tegishli to'yinmagan karbonil birikmaga aylanadi.




$\beta$ -gidroksimoy aldegidining degidratlanishi natijasida kroton aldegidi hosil bo'ladi, shuning uchun ushbu reaksiya ba'zan *krotonlash* ham deyiladi.


Ayrim holatlarda, masalan, aromatik aldegidlarning ketonlar bilan reaksiyalarida birikish mahsulotini ajratib bo'lmaydi, darhol to'yinmagan karbonil birikma hosil bo'ladi. Bunday reaksiyalar *kroton kondensatsiyasi* deyiladi.



2. Oksidlash reaksiyalari. Alkenollar va alkinollar oson oksidlanadi. Oksidlash uchun karrali bog'larga ta'sir qilmaydigan oksidlovchilar, masalan, past temperaturada  $\text{CrO}_3$ , ta'sir ettiriladi.



Yuqori temperaturada maxsus katalizatorlar ishtirokida alkenlarni to'yinmagan karbonil birikmalargacha oksidlash mumkin.




### FIZIK XOSSALARI

$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalarning sodda vakillari o'tkir hidli rangsiz suyuqliklardir. Aromatik guruh tutuvchi vakillari sarg'ish tusli kristall moddalardir.

$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalarda qutbli bog'langan (tutash) sistema mavjud. Karbonil guruhning induktiv effekti (-I) va mezomer effekt (-M) ta'sirida qo'shbog' kuchli qutblanadi. Natijada birikmalarning dipol momenti to'yingan karbonil birikmalardagiga qaraganda yuqori bo'ladi.


$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalardagi  $\pi$ -elektronlar zichligining taqsimlanishini MO metodi bo'yicha quyidagicha tavsiflash mumkin:

$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalar molekulasida ikkita elektrofil reaksiya markazi mavjud.




### KIMYOVIV XOSSALARI

$\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalar oddiy karbonil birikmalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida ikkinchi reaksiyon markaz-  $\beta$ -uglerod atomi bo'yicha reaksiya ketishi ham mumkin.




Yuqoridagi reaksiyalar organik sintezda keng qo'llaniladi. Masalan, mis-organik birikmalar  $\beta$ -uglerod atomiga oson birikadi.



To'yinmagan karbonil birikmalar C-C bog'larga xos bo'lgan, masalan, qaytarilish, polimerlanish reaksiyalariga ham kirishadi. Shuningdek, kuchli diyenofillar sifatida diyen sintezi reaksiyalariga ham kirisha oladi.

Kroton aldegididagi metil guruhi yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lib, aldegidlar bilan kroton kondensatsiyasi reaksiyasiga kirisha oladi, ya'ni karbonil guruhdan qo'shbog' bilan ajratilganiga qaramasdan sirka aldegididagi metil guruhi kabi xossalarga ega. Bu karbonil guruhning elektron effektini qo'shbog' orqali metil guruhga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Mazkur hodisa *vinilogiya* deyiladi.




### ***MUHIM VAKILLARI***

*Akrolein* –  $-87,7^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan,  $52,5^\circ\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz, o'tkir hidli suyuqlik, lakrimator. Organik erituvchilarda va suvda yaxshi eriydi.


Akrolein sanoatda propenni CuO ustida  $300-400^\circ\text{C}$  temperaturada oksidlab olinadi. Akrolein oson polimerlangani uchun unga gidroxinon qo'shib stabillanadi.

Akrolein organik sintezda muhim oraliq mahsulot hisoblanadi. Undan allil spirti, glitserin va boshqa mahsulotlar olinadi. Akrolein faol diyenofil

sifatidagina emas, balki diyen sifatida ham diyen sintezi reaksiyasiga kirishadi.



*Mezitil oksidi* (4-metilpenten-3-on-2)- 128 °C da qaynaydigan o'tkir hidli rangsiz suyuqlik. Aldol kondensatsiyasi reaksiyasi yordamida atsetondan olinadi.




Mezitil oksidi organik sintezda boshlang'ich modda sifatida, masalan, siklogeksandion-1,3 sintezida, hamda ayrim polimerlarning erituvchisi sifatida ishlataladi.


## 9.2. KETENLAR

Ketenlar deb C=C=O bog'lar sistemasi tutuvchi birikmalarga aytildi. Ketenlarning karbonil guruhi oddiy karbonil birikmalardagidan farq qiladi. Ketenlarda karbonil guruhidagi uglerod atomi *sp* gibridlangan holatda.

Ketenlarni nomlash uchun keten nomi asos qilib olinadi, o'rinosar-larning nomi keten so'zidan avval yoziladi. Masalan,




keten




dimetilketen

## OLINISH USULLARI


Eng oddiy ketenlarni yoki karbon kislotalarni fosfat katalizatorlar ishtirokida 700-800°C da piroliz qilib olinadi. Reaksiya natijasida bog'lar gomolitik uziladi.



Ketenlarni yumshoq sharoitlarda olishning umumiyligi at-silxloridlarga kuchli organik asoslar ta'sir ettirib degidrogalogenlash reaksiyasi hisoblanadi.



$\alpha$ -diazoketonlar termik yoki fotokimyoviy parchalanganda ketenlar hosil bo'ladi.




## FIZIK-KIMYOVY XOSSALARI

Ketenlar odatdagagi sharoitlarda gazsimon moddalar yoki o'tkir hidga ega bo'lgan sarg'ish tusli suyuqliklardir. Ketenlar barqarorligi kam bo'lgan moddalar hisoblanadi.


Keten guruhidagi uglerod atomlari  $sp$ - va  $sp^2$ - gibridlangan holatda bo'ladi. Ketenlar elektrofil reagentlardir,  $sp$ -gibridlangan uglerod atomi elektrofil markaz hisoblanadi.

Ketenlar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lgan birikmalardir. Ketenlar nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi, dimerlanadi, siklobirikish reaksiyalariga kirisha oladi.

Nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashganda karbon kislotalarning hosilalari chiqadi.




Ketenlar suyuq holatda oson dimerlanib diketenlarga aylanadi.




Mazkur reaksiya ketenlarning faol qo'shbog'i uchun xos bo'lgan [2+2] shaklidagi siklobirikish reaksiyalariga kiradi.

Diketen atsetosirkma efirining hosilasi bo'lgan to'yinmagan  $\beta$ -lakton hisoblanadi. Diketen organik sintezda atsetosirkma efiri va uning hosilalarini olish uchun ishlatiladi.


Sanoatda ketendan sirkma kislotasi, sirkma kislotasining efirlari, sirkma angidridi va diketen olish uchun ishlatiladi.



Malon kislotasiga fosfat angidrid ta'sir ettirilsa uglerodning  $\text{C}_3\text{O}_2$  tarkibli oksidi hosil bo'ladi. Ushbu oksid ketenlarning o'ziga xos vakili hisoblanadi.



$\text{C}_3\text{O}_2$   $7^\circ\text{C}$  da qaynaydigan o'tkir hidli rangsiz gazsimon moddadir. Ketenlar kabi nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashib malon kislotasining hosilalarini hosil qiladi.



### 9.3. DIKARBONIL BIRIKMALAR


Dikarbonil birikmalar karbonil guruhlarning joylashishiga qarab sinflanadi:

1,2- yoki  $\alpha$  -dikarbonil birikmalar;


1,3- yoki  $\beta$  -dikarbonil birikmalar;

1,4- yoki  $\gamma$ - dikarbonil birikmalar va h.k.


Dikarbonil birikmalar umumiy qoidalarga muvofiq nomlanadi. Dialdegidlarni nomlashda-*dial* suffaksi, diketonlarni nomlashda-*dion* suffaksi qo'llaniladi. Agar aldegid va keton birga kelsa aldegid nomiga *okso*-prefaksi qo'shiladi. Ba'zi birikmalar trivial va ratsional nomlar bilan nomlanadi:




Etandial, glioksal




Butandion-2,3, diatsetil




Propandial, malon aldegidi




Butandial, qahrabo aldegidi




3-oksobutanal, formilatseton



Pentandion-2,4, atsetilatseton



Siklogeksandion-1,3




Indandion-1,3

## 1,2-DIKARBONIL BIRIKMALAR


### *OLINISH USULLARI*

1,2-dikarbonil birikmalar har xil oksidlanish reaksiyalari va oksimlarni gidroliz qilish yo'li bilan olinadi.

1,2-diollar karbonil guruh yonida  $-\text{CH}_2-$  guruh tutuvchi aldegidlar va ketonlar,  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar, ayrim holatlarda uchbog' tutuvchi birikmalar va diariletanlar oksidlanishidan hosil bo'ladi. Oksidlovchi sifatida katalizator ishtirokida kisloroddan, ba'zan  $\text{SeO}_2$ ,  $\text{KMnO}_4$  dan foydalaniladi.



Ketonlar nitrozolansa 1,2-diketonlarning monoooksimlari hosil bo'ladi, ular gidroliz qilinsa 1,2-diketonlarga aylanadi:



## FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI


1,2-dikarbonil birikmalar sariq tusli suyuq yoki kristall moddalar bo'lib, xushbo'y hidga ega.

Yonma-yon turgan karbonil guruhlar bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida karbonil guruhlardagi uglerod atomlarida effektiv (musbat) zaryad monokarbonil birikmalarga nisbatan ortadi.


1,2-dikarbonil birikmalardagi karbonil guruhlar o'zaro  $\pi$ -elektronlar darajasida ta'sirlashadi. Shuning uchun quyi erkin MO monokarbonil birikmalardagiga nisbatan ancha «quyida» joylashadi. Bu yutilishning elektron spektrlarida ham ko'rindi. Kam intensiv  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tish ko'rindigan sohaga suriladi, shuning uchun birikmalar sariq rangga ega bo'ladi. Masalan, diatsetilning geptandagi eritmasi 430–450 nm ( $\epsilon \sim 20-30$ ) sohada yutadi.

1,2-dikarbonil birikmalar oddiy karbonil birikmlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Faqat reaksiyalar tezroq boradi. Monofunksional nukleofillar bilan reaksiyalar bosqichma-bosqich boradi. Avval bitta karbonil guruh, keyin ikkinchisi reaksiyaga kirishadi. Difunksional nukleofil reagentlar siklik birikmalar yoki polimerlar hosil qiladi. Bundan tashqari ba'zi qayta guruhlanish reaksiyalari ham kuzatiladi.


Kuchli elektronodonorlar ta'sirida (masalan, ishqoriy metallar) yoki elektroliz jarayonida (katodda) 1,2-dikarbonil birikmalarga elektron birikishi sodir bo'ladi. Bunday birikmalar EPR metodi bilan aniqlanishi mumkin bo'lgan ancha barqaror anion-radikal hosil qila oladi. Keyin qaytarilganda anion-radikaldan beqaror endiollar hosilasi – dianion-endiolyat-ion hosil bo'ladi:




Faol 1,2-dikarbonil birikmalar, ayniqsa ketoaldegidlar va glioksal kuchsiz nukleofillar bilan ham oson reaksiyaga kirishadi. Masalan, suv oson birikib karbonil birikmaning gidrati hosil bo'ladi.




Ammiak, aminlar, gidrazin va hidroksilamin bilan reaksiya oson ketindi. Masalan, 1,2-dikarbonil birikmalar ammiak bilan aldegidlar mitirokida reaksiyaga kirishib imidazol hosilasiga aylanadi, hidroksilamin ni'sirida dioksimlar hosil qiladi.




Dioksimlarning fazoviy tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin. Dioksimlar metallarning ionlari bilan barqaror ichki komplekslar-xelatlar hosil qilish qobiliyatiga ega. Ushbu birikmalar ichida nikelning komplekslari muhim ahamiyatga ega bo'lib, qizil rangga ega. Dimetilglioksim Chugayev reaktivi deb nomlanadi va analitik kimyoda qo'llaniladi.




1,2-dikarbonil birikmalar hidrazin bilan reaksiyaga kirishganda polikondensatlanish mahsulotlari—poliazinlar hosil bo'ladi.



1,2-diketonlar *o*-diaminoarenlar bilan ta'sirlashib geterosiklik birikmalar—xinoksalinlarni hosil qiladi.



Ishqoriy muhitda benzil difenilgidroksisirka kislotasiga qayta gruppalanishi Yu.Libix va N.Zinin tomonidan o'rganilib, benzil qayta gruppalanishi deb nomlangan. Bu qayta gruppalanish quyidagi tarzda amalga oshadi:




Benzil qayta gruppalanishi ko'proq aril o'rinxbosarlar tutuvchi 1,2-diketonlarga xosdir.

### ***MUHIM VAKILLARI***

*Glioksal* – sariq tusli suyuqlik, suvda oson eriydi, 50,4 °C da qaynaydi. Eritmalarida asta-sekin polimerlanadi.

Glioksal glikolni degidridrlab yoki paraldegidni katalitik oksidlab olinadi.



Glioksal sanoatda geterosiklik birikmalar va bo'yox moddalar olishda ishlatiladi.


*Diatsetil* – sariq rangli suyuqlik, 88°C da qaynaydi. Diatsetil efir moylarida, sariyog'da, pishloqda uchraydi.

Diatsetil oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. Diatsetilning dioksimi dimetilglioksim analitik kimyoda nikelni aniqlash uchun ishlatiladi.

## 1,3-DIKARBONIL BIRIKMALAR


### *OLINISH USULLARI*

1,3-dikarbonil birikmalar asosan ketonlarni atsillab olinadi. Atsillash uchun kislota angidridlaridan (Lyuis kislotalari ishtirokida) yoki murakkab efirlardan (alkogolyatlar yoki natriy metali ishtirokida) foydalaniлади (murakkab efir kondensatsiyasi reaksiyasi).



Ba'zan 1,3-diollarni yoki  $\beta$ -gidroksiketonlarni oksidlab ham olinadi.

**Murakkab efir kondensatsiyasi.** Alkogolyat yoki natriy metali ishtirokida keton va murakkab efirning o'zaro reaksiyasida keton anionining atsillanishi sodir bo'ladi. Birikish reaksiyasidan keyin spirt molekulasi ajralib chiqadi.




Reaksiyon aralashma kislota bilan neytrallansa  $\beta$ -dikarbonil birikmaning tautomer shakllari – karbonil va yenol shakllari aralashmasi hosil bo'ladi.

Ushbu reaksiya birinchi marta L.Klyayzen tomonidan o'rganilganligi uchun *Klyayzen kondensatsiyasi* ham deyiladi. Natriy alkogolyat ishtirokida ikki molekula murakkab efirdan  $\beta$ -ketokarbon kislotalarning murakkab efirlarini hosil bo'lishi reaksiyasi ham kondensatlanish reaksiyalariga kiradi. Reaksiya mexanizmi 1936-yilda F.Arndt va B.Eystert

tomonidan o'rganilgan. Agar reaksiyada chumoli kislotasining murakkab esfirlari ishlatsa  $\beta$ -oksoaldegidlar hosil bo'ladi.

Klyayzen kondensatsiyasi yordamida siklik  $\beta$ -diketonlarni olish ham mumkin.


**2. Ketonlarni Lyuis kislotalari ishtirokida atsillash.** Ketonlarga karbon kislotalarning angidridlari yoki galogenangidridlari ta'sir ettirilganda ham diketonlar hosil bo'ladi. Reaksiya Lyuis kislotalari ishtirokida boradi.



### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

1,3-dikarbonil birikmalarning aksariyati xushbo'y hidli, rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir. Ushbu birikmalar eritmalarida tautomer sistema, ya'ni dikarbonil va yenol shakllarning muvozanatdagi aralashmasini hosil qiladi. Yenol shakl bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Yenol va anion har xil fazoviy tuzilishga ega bo'ladi.

**1. Yenollarni fazoviy tuzilishi.** Ochiq zanjirli 1,3-dikarbonil birikmalar kamida ikki xil yenol shaklni hosil qilishi mumkin.



Sis-shaklda mustahkam vodorod bog' hosil bo'ladi. Trans- shakl esa ikkita burilish izomeriga ega.

Faqat sis-yenol shaklni hosil qiluvchi dikarbonil birikmalar mavjud. Bunday birikmalar sis-fiksatsiyalangan  $\beta$ -dikarbonil birikmalar deyiladi.



2-atsetilsiklogeksanon


Ikkala karbonil guruhi halqada joylashgan siklik  $\beta$ -diketonlar faqat bitta trans-yenol shakl hosil qiladi. Bunday diketonlar trans-fiksatsiyalangan  $\beta$ -diketonlar deyiladi.



Sis-yenol ham, trans-yenol ham karbonil guruhning va  $C=C$  bog'ning 4 ta  $\pi$ -elektronidan iborat bo'lgan, hamda kislород atomining taqsimlanmagan elektronlaridan iborat qutblangan sistema hosil qiladi. Buning natijasida  $C=C$  bog'dagi uglerod atomlaridan birida va karbonil kislородida elektron zichligi ortadi, O-H bog'ining qutblanishi kuchayadi. Sis-yenolda mustahkam vodorod bog'i hosil bo'ladi, trans-yenollar esa molekulalararo vodorod bog'lar hosil qiladi.

**2. Anionlarning fazoviy tuzilishi.**  $\beta$ -dikarbonil birikma qutblanganda har xil fazoviy shaklda mayjud bo'la oladigan anion hosil bo'ladi. Sis-anion metall ioni bilan barqarorlashadi. Metall ioni kislород atomiga koordinatsiyalanadi. Koordinatsiyalanish darajasi metall tabiatiga va erituvchi tabiatiga bog'liq. Koordinatsiyalanish darajasi *Li* dan *Cs* ga tomon kamayib boradi.

$\beta$ -dikarbonil birikmaning anioni fazoviy shaklidan qat'iy nazar 6 ta  $\pi$ -elektronidan iborat sistemani hosil qiladi. Manfiy zaryad delokallashgan bo'lib, elektron zichlik ko'proq o'rtadagi uglerod atomiga to'g'ri keladi.



### KIMYOVIY XOSSALARI

$\beta$ -dikarbonil birikmalar reaksiyon qobiliyati yuqori birikmalardir, ham nukleofil, ham elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi.


$\beta$ -dikarbonil birikmalar kislota xossasiga ega. Odadta eritmarda tautomer shakllar hosil bo'ladi. Dikarbonil shakli-C-H kislota, yenol shakli esa O-H kislota hisoblanadi. Ularning har biri alohida ionlanish konstantasiga ega.

Tautomer aralashmada kislotaliligi kamroq bo'lgan shaklning miqdori ko'proq bo'ladi. Masalan, atsetilatsetonda diketo - shakl ko'proq bo'ladi.

Erituvchi o'zgartirilganda tautomer shakllarning kislotaliligi ham o'zgaradi. C-H kislota va O-H kislotalarning kislotalilik konstantasi har xil darajada o'zgaradi. Shuning uchun erituvchi o'zgartirilganda tautomer shakllarning nisbati ham o'zgaradi.

$\beta$ -dikarbonil birikmalarining kislotaliligiga va yenollanishiga birikma-ning tuzilishi ham ta'sir ko'rsatadi. Trans-fiksatsiyalangan  $\beta$ -dike-tonlarning kislotaliligi yuqori. Olti a'zoli siklik birikmalar besh a'zoli siklik birikmalarga qaraganda ko'proq yenollanadi.


**1. Tuzlar va komplekslar hosil bo'lishi.**  $\beta$ -dikarbonil birikmalar sis-yenol shaklda tuz hosil qiladi. Tuzlarda metall ioni ikkala kislorod atomi bilan koordinatsiyalanadi. Ayniqsa og'ir metallar bilan kam dissotsiyalananadigan komplekslarni oson hosil qiladi. Metall ioni ichki kompleksda – xelatda birikadi. Xelatlar suvda erimaydi, lekin organik erituvchilarda eriydi. Xelatda metall ioni kislorod atomlariga nisbatan simmetrik joylashadi.




**2. Elektrofil reagentlar bilan reaksiyaları.**  $\beta$ -dikarbonil birikmalar ko'plab elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi. Bunday reaksiyalar ichida alkillash, atsillash, galogenlash, sulfolash, nitrozolash, nitrolash, azobirikish, aldegidlar bilan kondensatlanish reaksiyaları ahamiyatlidir.

Yenol-shakl ham, anion-shakl ham ambient zarracha, ya'ni bir nechta reaksiyon markazli reagentlar hisoblanadi. Elektrofil zarracha kislorod atomlariga yoki karbonil guruuhlar o'rtaсидagi uglerod atomiga ta'sir etadi.


Alkillash, atsillash, karbonil birikmalar bilan kondensatlanish reaksiyalariga asosan anion-shakl kirishadi.






Reaksiya natijasida C- va O-alkil yoki C- va O-atsilhosilalar urashmasi hosil bo'ladi. Sis-yenol birikmalar asosan C-almashingan birikmalar hosil qiladi.

Trans-fiksatsiyalangan  $\beta$ -diketonlarda reaksiya yo'naliishi birikmaning tuzilishiga bog'liq. Aldegidlar bilan boradigan reaksiyalarda odatda bis-mahsulotlar hosil bo'ladi.



Bunday turdagи reaksiyalar aldegidlarni aniqlashda va piridin hosilalarini olishda qo'llaniladi.

Elektrofil reagentlar bilan boradigan reaksiyalarni umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:




(E=NO, NO<sub>2</sub>, ArN<sub>2</sub>, SO<sub>3</sub>H, Cl, Br, I)

**3. Nukleofil reagentlar bilan reaksiyaları.**  $\beta$ -dikarbonil birikmalar kuchli nukleofil reagentlar va asoslar bilan ta'sirlashib anionlar hosil qiladi. Aksariyat holatlarda anion dissotsiyalanmagan shakldagi holati bilan muvozanatda bo'ladi. Shuning uchun ko'pincha keyingi o'zgarish-

larning amalga oshishi mumkin bo‘ladi. Bunda nukleofil reagent karbonil guruhdagi uglerod atomiga ta’sir etadi. Kuchsiz nukleofillar va asoslar, masalan, suv, spirtlar, tiollar faqat kislotalar ishtirokidagina reaksiyaga kirishadi.

Ammiak, aminlar, gidrazin va uning hosilalari, gidroksilamin, hamda O-nukleofillar bilan boradigan reaksiyalar muhim reaksiyalardan hisoblanadi.


Ammiak va birlamchi aminlar bilan reaksiyalar natijasida  $\beta$ -amino-vinilkarbonil birikmalar – yenaminonlar hosil bo‘ladi.



Yenaminonda mustahkam ichkimolekulyar vodorod bog‘ hosil bo‘ladi. Gidroksilamin, gidrazinlar, amidinlar bilan reaksiyalar natijasida geterosiklik birikmalar – pirazollar, izoksazollar, pirimidinlar hosil bo‘ladi.

O-nukleofillar bilan boradigan reaksiyalarga gidrolitik parchalanish va atsetallar hosil bo‘lish, ayrim holatlarda yenol efirlar hosil bo‘lish reaksiyalarini kirdi.


$\beta$ -dikarbonil birikmalar ishqorlar yoki kislotlarning suvli eritmalarida qizdirilganda C-C bog‘idan ketonga va karbon kislotaga parchalanadi:



Ushbu reaksiya  $\beta$ -dikarbonil birikmalar olishning aksi, ya'ni retroaldol parchalanish reaksiyasi hisoblanadi.

**4. Gomolitik reaksiyalar.**  $\beta$ -dikarbonil birikmalar faol erkin radikallar yoki anionlar oksidlanishi natijasida barqarorlashgan erkin radikallar hosil qilishi mumkin.


$\beta$ -dikarbonil birikmalarning erkin radikallari darhol reaksiyaga kirishadi, masalan, alkenlar, diyenlar, alkinlarga birikadi yoki dimerlanadi.




### MUHIM VAKILLARI

**Atsetilatseton** – xushbo'y hidli rangsiz suyuqlik, suvda kam eriydi. Sanoatda atsetonni sirka angidridi yoki atsetil xlorid bilan atsillab olinadi. Organik sinteza geterosiklik birikmlar olishda ishlatiladi. Analitik kimyoda ayrim metallarning ionlarini aniqlashda reagent sifatida qo'llaniladi. Atsetilatsetonning temir, kobalt, nikel va boshqa metallar bilan hosil qilgan xelatlari katalizator sifatida qo'llaniladi.

**Dimedon** (5,5-dimetilsiklogeksandion-1,3) – 147°C da suyuqlanadigan kristall modda. Natriy etoksid ishtirokida mezitilen oksidi va malon efiridan olinadi.




Dimedon aldegidlar bilan kondensatsiya mahsulotlari aniq suyuqlanish temperaturasiga ega bo'lgan kristall moddalar hosil qilganligi uchun aldegidlarni identifikasiya qilishda ishlatiladi.




Siklogeksandion-1,3 larning ayrim hosilalari biologik faollikka ega bo'lib, qishloq xo'jaligida begona o'tlarga va zararkunanda hasharotlarga qarshi ishlatishga tavsya etilgan.

Indandion-1,3 rangsiz yoki sarg'ish tusli kristall modda, suvda kam eriydi. Kristall holatda diketo-shaklda mavjud bo'ladi, 2-alkoksikarbonil-indandion-1,3 ni dekarboksillab olinadi.




Indandionning reaksiyon qobiliyati yuqori. Uning anioni kuchli C-nukleofil xossasiga ega. Indandion o'z-o'zidan kondensatlanib bindonga aylanadi.




Bindon birlamchi aminlarga spetsifik reagent hisoblanadi. Qizdirilganda ko'k rang paydo bo'ladi.

Indandion nitrolanganda kuchli kislota xossasiga ega bo'lgan 2-nitroindandion-1,3 hosil bo'ladi.



Ningidrin yoki 2,2-digidroksiindandion-1,3  $\alpha$ -aminokislotalar bilan  $\text{H}^+$  kirlashib ko'k rang hosil qiladi. Shuning uchun  $\alpha$ -aminokislotalarni niqlashda ishlataladi.




Ningidrin birlamchi aminobirikmalar bilan ham rangli birikmalar hosil qiladi.

2-Arilindandion-1,3 lar va ularning hosilalari, masalan, 2-fenilindandion-1,3 (*fenilin*) va 2-fenil-2-gidroksiindandion-1,3 (*omefin*) libbiyotda qonni ivishini oldini oluvchi moddalar – antikoagulyantlar hisfatida ishlataladi. 2-atsilindandion-1,3 lar, masalan, 2-difenilatsetindandion-1,3 kuchli antikoagulyant ta'sirga ega. Ushbu birikmalar zararli kemiruvchilarga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi (*rodentitsidlar*).

## 1,4-DIKARBONIL BIRIKMALAR


### 1. OLINISH USULLARI

1,4-dikarbonil birikmalar amalda 1,4-diollardan olinishi mumkin. Lekin, 1,4-diollar kamyoq moddalar hisoblanadi. Shuning uchun maxsus metodlar ishlab chiqilgan. Masalan, qahrabo aldegidi qahrabo kislotalining dixlorangidrididan olinishi mumkin:




1,4-diketonlar  $\beta$ -dikarbonil birikmalarni dimerlab, yoki  $\beta$ -dikarbonil birikmalarning tuzlarini  $\alpha$ -galogenketonlar bilan alkillab olinadi.

**2. Fizik-kimyoviy xossalari.** 1,4-dikarbonil birikmalar xushbo'y hidli rangsiz suyuq moddalardir. Odatda qisman yenollangan holatda bo'ladи.



1,4-dikarbonil birikmalar karbonil birikmalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashib geterosiklik birikmalarini hosil qiladi.



---

## **10-BOB. KARBON KISLOTALAR VA ULARNING HOSILALARI**

Uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini karboksil guruhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar karbon kislotalar deb ataladi. Ular karbon kislotalar molekulasida — COOH *karboksil guruh* deb ataluvchi atomlar guruhi tutadigan organik birikmalaridir.

Karboksil guruh eng oksidlangan xarakteristik (funksional) guruh hisoblanadi. Buni alkan-spirit-aldegid-kislota qatorida kuzatish mumkin.

Karbon kislotalar uglevodorod qoldig'ining tabiatini va karboksil guruhlar soniga ko'ra tasniflanadi. Karbon kislotalarga ularning almashingan hosilalari — boshqa funksional guruhlar tutuvchi, hamda karboksil guruh bo'yicha hosilalari ham kiradi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) Monokarbon kislotalar (to'yingan, to'yinmagan, arenkarbon kislotalar).
- 2) Dikarbon va polikarbon kislotalar (to'yingan, to'yinmagan, arendikarbon va polikarbon kislotalar).
- 3) Karbon kislotalarning funksional hosilalari (atsilgalogenidlari, angidridlari, murakkab efirlari, amidlar, iminoefirlari, amidinlar, tio- va ditiokislotalar, peroksikarbon kislotalar, nitrillar, izosianidlari);
- 4) Karbon kislotalarning har xil funksional guruhlar tutuvchi hosilalari (galogenkarbon kislotalar, hidroksikarbon kislotalar, aminokarbon kislotalar, oksokarbon kislotalar);
- 5) Karbonat kislotasining shartli ravishda karbon kislotalar hosilalariga kiritilgan hosilalari.

### **10.1. MONOKARBON KISLOTALAR**

Monokarbon kislotalar odatda uglevodorod qoldig'ining tabiatiga ko'ra sinflanadi:

- A) to'yingan monokarbon kislotalar (alkanlar va sikloalkanlarning hosilalari);

B) to‘yinmagan monokarbon kislotalar (alkenlar, alkinlar, alkadiyenlar va boshqa to‘yinmagan uglevodorodlarning hosilalari);

D) arenmonokarbon kislotalar.

Karbon kislotalarning nomi uglevodorod nomidan keltirib chiqariladi, uglevodorod nomiga *kislota* so‘zi qo‘shiladi. Masalan, metan kislotasi, etan kislotasi va h.k. Uglerod atomlarini raqamlash karboksil guruhdagi uglerod atomidan boshlanadi. Agar bunday nomlash noqulay bo‘lsa carboksil guruh tutuvchi uglevodorod o‘rribosar sifatida nomlanib, unga *karbon kislota* iborasi qo‘shiladi. Birinchi yoki eng kichik raqam carboksil guruh tutgan uglerod atomiga qo‘yiladi.


Ko‘plab karbon kislotalarni tarixiy nomlar bilan nomlash qulayroq.

Karboksil guruhdan OH-guruh ajratib olinsa *atsil* guruh hosil bo‘ladi. Atsil guruhlarning nomi tegishli karbon kislotalarning nomlaridan, ko‘proq tarixiy nomlaridan keltirib chiqariladi. Masalan, formil-, atsetil-, propionil, butiril-, izobutiril, valeril-, stearoil, benzoil, fenilatsetil va h.k. -CH<sub>2</sub>COOH guruh ***karboksimetil*** guruh deb yuritiladi.

18-jadval

### Ayrim to‘yingan monokarbon kislotalarning nomlanishi


Formula	Nomlash		
	Trivial	<i>Kislota</i> nomi bilan	<i>Karbon kislota</i> nomi bilan
HCOOH	Chumoli kislotasi	Metan kislotasi	
CH <sub>3</sub> COOH	Sirka kislotasi	Etan kislotasi	Metan karbon kislotasi (qo‘llanilmaydi)
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> COOH	Propion kislotasi	Propan kislotasi	
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> COOH	Moy kislotasi	Butan kislotasi	

$\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COOH}$	Izomoy kislotasi	2-metilpropan kislotasi	
$\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{COOH}$	Pival kislotasi	2,2-dimetilpropan kislotasi	2-metil-propan karbon-2 kislotasi
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	Valerian kislotasi	Pantan kislotasi	
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4\text{COOH}$	Kapron kislotasi	Geksan kislotasi	
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_5\text{COOH}$	Enant kislotasi	Geptan kislotasi	
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_6\text{COOH}$	Palmitin kislotasi	Geksadekan kislotasi	
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{16}\text{COOH}$	Stearin kislotasi	Oktadekan kislotasi	
			Siklogeksan karbon kislotasi

## 10.2. TO‘YINGAN MONOKARBON KISLOTALAR


### OLINISH USULLARI

Monokarbon kislotalar organik birikmalarni oksidlash, galogenli hosilalarni gidroliz qilish yo‘li bilan, hamda metallorganik birikmalar asosida olinadi. Spirtlarni, esirlarni, galogenuglevodorodlarni karbonillash reaksiyasi muhim sanoat metodi hisoblanadi. Bundan tashqari bir qator spetsifik metodlar ham mavjud. Ayrim monokarbon kislotalar tabiiy manbalardan ham olinadi.



**1. Oksidlash reaksiyalari.** Ko‘plab organik birikmalar oksidlanganda karbon kislotalar hosil bo‘ladi. Oksidlovchi sifatida katalizatorlar (Co, Mn tuzlari) ishtirokida havo kislorodi, noorganik ( $\text{H}_2\text{O}_2$ ,  $\text{CrO}_3$ ,  $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{MnO}_2$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{NO}_2$ ) va organik oksidlovchilar (peroksi kislotalar, gidroperoksidlar) ishlatiladi.


**2. Gidroliz reaksiyaları.** Triklormetil va nitril guruh tutuvchi birikmalar, ba'zan murakkab efirlar va amidlar gidroliz qilinganda karbon kislotalar hosil bo'ladi:



**3. Metallorganik sintez.** Faol metallorganik birikmalar  $\text{CO}_2$  bilan reaksiyaga kirishib karbon kislotalarning tuzlarini hosil qiladi:




**4. Karbonillash reaksiyaları.** Uglerod (II) oksidi maxsus katalizatorlar ishtirokida yuqori temperaturada va aniqrog'i bosim ostida spirtlar, galogenuglevodorodlar, oddiy va murakkab efirlar bilan ta'sirlashib karbon kislotalar hosil qiladi:



$$\text{X} = \text{OH, Hal, OR, OOCR}'$$


Katalizator sifatida kobalt va rodiy karbonillari  $\text{HCo}(\text{CO})_4$ ,  $\text{Rh}(\text{CO})\text{L}_3$ ,  $\text{Rh}(\text{CO})\text{L}_2$  qo'llaniladi. Reaksiya temperaturasi  $100\text{-}200^\circ\text{C}$ , bosim  $0,1 \text{ MPa}$  dan  $20 \text{ MPa}$  gacha. Rodiy karbonillari effektivroq hisoblanadi. Katalizator ishtirokida uglerod oksidi molekulalari alkilanadi.

Ayni sharoitlarda alkenlar ham karbon kislotalar hosil qiladi. Alkenlar vodorod ishtirokida karbonillansa aldegidlar hosil bo'ladi:




Karbonillash reaksiyalari ayrim karbon kislotalar olishning sanoat usullari hisoblanadi.

Karbon kislotalar galogenangidridlarga diazometan ta'sir ettirib ham olinadi. Bunda uglerod zanjiri bittaga uzayadi:




Mazkur reaksiya *Arndt-Eystert reaksiyasi* deb yuritiladi.


Ketenlarga suv birikishi natijasida ham karbon kislotalar hosil bo'ladi:



Ketonlar peroksikislotalar ta'sirida o'ziga xos oksidlanishga uchraydi. Bunda murakkab efir va karbon kislota hosil bo'ladi (*Bayer-Villiger reaksiyasi*):



Favorskiy qayta guruhlanishi natijasida kuchli asoslар ta'sirida  $\alpha$ -galogenketonlardan karbon kislotalarning tuzlari hosil bo'ladi:



Karbon kislotalar murakkab efirlar, angidridlar va amidlar gidrolizi natijasida ham hosil bo'ladi.

### ***FIZIK XOSSALARI***


To'yingan monokarbon kislotalar o'ziga xos o'tkir hidli rangsiz suyuq yoki kristall moddalardir.

## Ayrim to‘yingan monokarbon kislotalarning fizik konstantalari

Birikma	T. s., °C	T. q., °C	$d_4^{20}$
HCOOH	8,4	100,7	1,22
$\text{CH}_3\text{COOH}$	16,6	118,1	1,049
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COOH}$	-22,4	141,1	0,992
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	-7,9	163,5	0,959
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COOH}$	-47	154,4	0,949
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	-34,5	187	0,942
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{COOH}$	-37,6	176,7	0,937 (15°C)
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{14}\text{COOH}$	64	271 (13,3 kPa)	0,853 (62°C)
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_{16}\text{COOH}$	69,4	291 (13,3 kPa)	0,847 (69°C)

Yuqori karbon kislotalar ( $\text{C}_{15}-\text{C}_{18}$ ) kuchsiz stearin hidiga ega.

To‘yingan monokarbon kislotalar ancha yuqori qaynash temperaturalariga ega. Elektronografik tadqiqtolar natijalariga ko‘ra karbon kislotalarning molekulalarida karbonil va gidroksil guruhlar mavjud.  $\text{C}=\text{O}$  bog‘i ketonlardagiga qaraganda uzunroq,  $\text{C}-\text{O}$  bog‘i esa spirlardagiga qaraganda qisqaroq. Bu kislorod atomining elektron sistemasini karbonil guruh bilan o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi:




Gidroksil guruhdagi kislorod atomining taqsimlanmagan elektronlari karbonil guruhning  $\pi$ -elektronlari bilan ta’sirlashadi, shuning uchun elektronodonor ta’sirni (+M) namoyon qiladi. Natijada O-H bog‘ining qutbliligi ortadi, uglerod atomidagi musbat zaryad karbonil birikmalarga qaraganda biroz karmayadi. Bir vaqtning o‘zida kislorod atomlarining elektronoakseptor effekti namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, karboksil guruhda kuchli qutblangan musbat zaryadlangan vodorod atomi va uglerod atomi mavjud bo‘lib, ular elektrofil markazlar hisoblanadi. Kislorod atomlari esa nukleofil markazlar hisoblanadi.


## KIMYOVITY XOSSALARI

Monokarbon kislotalar ko'p tomonlama reaksiyon qobiliyatga ega. Bu asosan karboksil guruh bo'yicha boradigan reaksiyalarda ko'rindi. Bundan tashqari  $\alpha$ -uglerod atomi bo'yicha boradigan reaksiyalar ham ma'lum. Bog'larni termik parchalash va karboksil guruhni parchalashning boshqa usullari ham mavjud.

Karbon kislotalarning eritmalari solvatlangan proton va karboksilat-ion hosil bo'lishi bilan ionlanadi.



Karboksilat-ion simmetrik tuzilgan. Odatda u quyidagicha tasvirlanadi:




*20-jadval*

**Ayrim karbon kislotalarning ionlanish konstantasi  $pK_a$  ( $H_2O$ , 25°C)**

Kislota	$pK_a$	Kislota	$pK_a$
$HCOOH$	3,75	$CH_3CH_2CH_2COOH$	4,82
$CH_3COOH$	4,76	$(CH_3)_3CCOOH$	5,03
$CH_3CH_2COOH$	4,87	$C_6H_5COOH$	4,90

Monokarbon kislotalar ichida eng kuchlisi chumoli kislotosi hisoblanadi. Alkil guruhlarning ortishi bilan alkil guruhlarning elektronodonor ta'siri natijasida kislotalilik kamayadi.


Karbon kislotalarning tuzlari suvli eritmalarda qisman gidrolizlanadi:



Karbon kislotalarning tuzlari trivial lotincha nomlanadi. Agar bunday nomi mavjud bo'lmasa *karboksilat*- suffiksi qo'llaniladi. Masalan,

$\text{HCOO}^- \text{M}^+$	formiatlar
$\text{CH}_3\text{COO}^- \text{M}^+$	atsetatlar
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COO}^- \text{M}^+$	propionatlar
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COO}^- \text{M}^+$	butiratlar
$\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COO}^- \text{M}^+$	izobutiratlar
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COO}^- \text{M}^+$	valeratlar
$(\text{CH}_3)_3\text{CCOO}^- \text{M}^+$	pivalatlar
$\text{C}_6\text{H}_{11}\text{COO}^- \text{M}^+$	siklogeksankarboksilatlar

Kislotali muhitda ( $\text{pH} < 3$ ) karbon kislolar deyarli ionlanmaydi, faqat proton karbonil guruhga birikishi mumkin:



Avval barqaror vodorod bog'lar vujudga keladi, muhitning kislotaliligi ortishi bilan protonlangan karbon kislotaning konsentratsiyasi ortadi.

Vodorod bog'ning hosil bo'lishi va karbon kislotaning protonlanishi natijasida karbonil guruhdagi uglerod atomida musbat zaryadning hissasi ortadi. Protonlangan holatda ikkala kislorod atomi deyarli bir xil bo'lib qoladi.

Karbon kislotalarning asosliligi ketonlarning asosliligiga yaqin keladi, lekin oddiy efirlarning asosliligidan ancha kam.

Misol uchun 1 M li sulfat kislotasi eritmasida protonlangan karbon kislotaning miqdori 0,001 % dan ortmaydi. 70 % li sulfat kislotasi eritmasida esa protonlangan karbon kislotasi miqdori 50 % ga yetadi.


Protonlangan karbon kislotaning miqdori kam bo'lishiga qaramasdan reaksiyon muhitda ozgina miqdorda kuchli kislotaning bo'lishi karbon kislotalarning reaksiyon qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kuchli asoslar karbon kislolar bilan ta'sirlashib tuzlar hosil qiladi. Kuchsiz asos hisoblanadigan nukleofillar karbonil guruhga birikishi mumkin, oxir-oqibatda karbon kislotaning hosilasi chiqadi, ya'ni nukleofil reagentning *atsillanishi* sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda reaksiya kislolar ishtirokida boradi.


Kompleks gidridlар karbon kislotalar bilan ta'sirlashganda vodorod ajralib chiqadi va karbon kislotaning tuzi hosil bo'ladi. Reagent mo'l miqdorda olinganda yuqori temperaturada karbon kislotalar birlamchi spirtlargacha qaytariladi:



Sirka kislotaning asetilen bilan o'zaro ta'siri natijasida vinilatsetat hosil bo'lish reaksiyasi Favorskiy va Shostakovskiy tomonidan o'rganilib, hosil bo'lgan birikma asosida polivinilatsetat olish mumkinligi asoslab berildi va amaliyotga joriy etildi.




Vinilatsetat polimerlanib molekulyar massasi 100000 u.b. bo'lgan polimer hosil qiladi. Ushbu polivinilatsetat kislota yoki ishqorlar ta'sirida parchalanib polivinil spirtini hosil qiladi.




Polivinil spirti sintetik iplar, laklar va yelimlar olishda keng ishlatiladi.


Ammiak, aminlar, gidrazin va boshqa N-nukleofillar karbon kislotalar bilan ta'sirlashganda ammoniy tuzlari hosil qiladi. Faqat yuqori temperaturalarda kislota amidlari hosil bo'ladi:



Spirtlar kabi neytral O-nukleofillar karbon kislotalar bilan kislotalar ishtirokida ta'sirlashib murakkab efirlar hosil qiladi.



Galogenid-ionlar karbon kislotalar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Faqat maxsus galogenlovchi reagentlar, masalan,  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{PCl}_5$ ,  $\text{PBr}_3$ ,  $\text{PI}_3$ ,  $\text{SOCl}_2$ , ta'sirida atsilgalogenidlар hosil bo'ladi. Masalan,



Karbon kislotalar kuchsiz nukleofillar sifatida faqat juda kuchli reagentlar bilan ta'sirlashadi. Birikish kislorod atomi bo'yicha boradi.


Kuchsiz elektrofil reagentlar bilan reaksiya o'tkazish uchun karboksil guruhni aktivlash zarur. Buning uchun u karboksilat – ionga aylantiriladi, keyin alkillash, atsillash va boshqa reaksiyalarni o'tkazish mumkin:



Karbon kislotalar molekulasining  $\alpha$ -uglerod atomidagi vodorod atomlari faol bo'lib, almashinish reaksiyasiga kirisha oladi.

Karbon kislotalarning tuzlari, ayniqsa ishqor bilan  $300^\circ\text{C}$  va undan yuqori temperaturada qizdirilganda uglevodorod va karbonat angidrid hosil bo'ladi, ya'ni dekarboksillanish reaksiyasi ketadi.

To'yingan karbon kislotalarning Ca, Ba, Th va Ce li tuzlari parchalanganda asosan ketonlar hosil bo'ladi. Bunda hosil bo'lgan karbanionning ichki molekulyar atsillanishi boradi.



Karboksilat-ion elektrokimyoviy yoki kimyoviy oksidlanganda ham dekarboksillanish sodir bo‘ladi. Karboksil radikal karboksilat-iondan ko‘ra osonroq dekarboksillanadi.


Karbon kislotalarning kumushli yoki simobli tuzlari brom yoki iod ta’sirida ham dekarboksillanadi. Ushbu reaksiya Xunsdikker tomonidan taklif etilganligi uchun Xunsdikker reaksiyasi deb ataladi.



Reaksiyani bevosita kislotaning o‘zi bilan o‘tkazish ham mumkin.




Karbon kislotalar 700-800°C da termik parchalansa ketenlar hosil bo‘ladi.




### **MUHIM VAKILLARI**

*Chumoli kislotasi* – o‘yuvchi xususiyatga ega bo‘lgan o‘tkir hidli, rangsiz suyuqlik. Suv bilan yaxshi aralashadi. Birinchi marta XVII asrda qizil chumolilardan suv bug‘i bilan haydar olingan. Tabiatda ayrim hasharotlarning bezlarida va chayono‘t tarkibida uchraydi.

Sanoatda chumoli kislotasi o‘yuvchi natriy va is gazini bosim ostida qizdirib olinadi.



Is gazi va spirtlar alkoxsidlar ishtirokida chumoli kislotasining efirlarini hosil qiladi.



Chumoli kislotasi boshqa karbon kislotalardan farqli ravishda bir tomonidan aldegid guruhi tutadi. Natijada chumoli kislotasi qaytaruvchi xossasini namoyon qiladi, oksidlovchilar ta'sirida karbonat kislotasiga aylanib suv va karbonat angidridga parchalanadi.



Chumoli kislotasi konsentrangan sulfat kislotasi ta'sirida is gazi va suvgi parchalanadi. Ushbu reaksiya karbon kislotalar ichida faqat chumoli kislotasiga xosdir.

Chumoli kislotasi formamid, dimetilformamid, oksalat kislotasi va boshqa moddalar olish uchun ishlataladi.

*Sirka kislotasi* – o'tkir hidli va nordon ta'mli rangsiz suyuqlik, suv bilan har qanday nisbatda aralashadi. Suvsiz sirka kislotasi 16°C da qotib muz kabi kristallar hosil qilganligi uchun «muz» sirka kislotasi deyiladi. Konsentrangan sirka kislotasi tarkibida 2-3 % suv bo'ladi, 13°C dan past temperaturada qotadi.

Sirka kislotasi qadimdan ma'lum. Uning suyultirilgan suvli eritmalari meva sharbatlari, masalan, uzum sharbatini bijg'ishidan hosil bo'ladi. Suvli eritmalari haydalganda taxminan 80 % li kislotasi eritmasi, ya'ni oziq-ovqat uchun ishlataladigan *sirka essensiyasi* hosil bo'ladi.

Sintetik sirka kislotasi har xil kimyoiy metodlar bilan olinadi. Misol uchun sirka aldegidni, butanni katalitik oksidlash, metil spirtiga is gazi biriktirish shular jumlasidandir.

Sirka kislotasi erituvchi sifatida va sirka kislotasining hosilalarini olishda xomashyo sifatida ishlataladi. Sirka kislotasining tuzlari to'qimachilik sanoatida matolarni bo'yashda ishlataladi.

*Moy kislotasi* – o'tkir hidli, rangsiz suyuqlik. Tabiatda murakkab efir holida yog'lar tarkibida uchraydi. Moy kislotasi butanol-1 ni oksidlab yoki propanol-1 ni karbonillab olinadi. Organik sintezda xushbo'y moddalar olish uchun ishlataladi.

*Palmitin kislotasi* – kuchsiz stearin hidli, rangsiz kristall modda, suvda erimaydi. Tabiatda yog'lar tarkibida uchraydi. Palmitin kislotasi yog'larni ishqoriy muhitda gidrolizlab olinadi. Gidroliz natijasida palmitin kislotasi tuzlarining eritmasi hosil bo'ladi. Eritmaga kislotasi ta'sir ettirilsa palmitin kislotasi cho'kmaga tushadi.

Palmitin kislotasi va uning hosilalari sirt-aktiv moddalar sifatida ishlataladi. Uning natriy tuzi sovun deyiladi.

### 10.3. DIKARBON KISLOTALAR

Uglevodorodlarning ikkita karboksil guruhi tutuvchi hosilalari dikarbon kislotalar deyiladi. Dikarbon kislotalar monokarbon kislotalar kabi nomlanadi.

Dikarbon kislotlar ham monokarbon kislotalar kabi to‘yingan yoki to‘yinmagan, bir asosli, ikki asosli va ko‘p asosli bo‘lishi mumkin.



#### TO‘YINGAN DIKARBON KISLOTALAR



21-jadval

#### Ayrim dikarbon kislotalarning nomlanishi

Formula	Nomlash		
	Trivial	Kislota nomi bilan	Karbon kislota nomi bilan
HOOCCOOH	Oksalat kislotasi	Etan dikislotasi	
HOOCCH <sub>2</sub> COOH	Malon kislotasi	Propan dikislotasi	Metan dikarbon kislotasi
HOOC(CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> COOH	Qahrabo kislotasi	Butan dikislotasi	Etan-1,2 dikarbon kislotasi
HOOC(CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> COOH	Glutar kislotasi	Pentan dikislotasi	Propan-1,3 dikarbon kislotasi
HOOC(CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> COOH	Adipin kislotasi	Geksan dikislotasi	Butan-1,4 dikarbon kislotasi

To‘yingan dikarbon kislotalar monokarbon kislotalarni olinishida qo‘llaniladigan metodlar yordamida olinishi mumkin. Masalan, diollarni, dikarbonil va siklik karbonil birikmalarni oksidlash, dinitrillarni gidroliz qilish, diollarni karbonillash va b.





22-jadval

**Ayrim dikarbon kislotalarning ionlanish konstantasi  
 $\text{pK}_a (\text{H}_2\text{O}, 25^\circ\text{C})$**


Kislota	$\text{pK}_{a,1}$	$\text{pK}_{a,2}$	$\text{pK}_{a,2} - \text{pK}_{a,1}$
Oksalat	1,27	4,27	3,0
Malon	2,86	5,70	2,84
Qahrabo	4,21	5,64	1,43
Glutar	4,34	5,27	0,93
Adipin	4,41	5,28	0,87

Dikarbon kislotalar ikki asosli kislotalar sifatida ikkita ionlanish konstantasiga ega. Ularning kislota xossalari karboksil guruhlarning o'zaro ta'siri natijasida monokarbon kislotalarning kislota xossalardan ancha yuqori.



### MUHIM VAKILLARI

*Oksalat kislotasi* – 189°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvdan 101°C da suyuqlanadigan digidrat shaklida kristallanadi. Suvda va spirtda yaxshi eriydi.

Tuz shaklida tabiatda uchraydi. Natriy formiatni 400°C da qizdirilsa natriy oksalat hosil bo'ladi.




Oksalat kislotasining konsentrangan sulfat kislota ta'sirida parchalanishi va oksidlanishi uning o'ziga xos xususiyatidir.




Oksalat kislotasi matolarni bo'yashda va analitik reagent sifatida ishlataladi.


*Malon kislotasi* – 134°C da parchalanish bilan suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Suvda eriydi. Xlorsirka kislotasidan olinadi.



Malon kislotasi 133–135°C dan yuqori temperaturada qizdirilsa yoki kislotalar ishtirokida suvli eritmalarda qaynatilsa oson dekarboksilanadi.



Malon kislotasi molekulasi aktiv metilen guruhi ega. Asoslar ishtirokida ana shu metilen guruhi hisobiga malon kislotasi oz miqdorda trianion hosil qiladi. Shuning uchun malon kislotasi aldegidlar va ketonlar bilan aldol kondensatsiyasi kabi reaksiyaga kirishishi mumkin.



Ushbu reaksiya to'yinmagan karbon kislotalarni olish uchun qo'llaniladi, 1896-yilda E.Knevenagel tomonidan ochilgan.


Malon kislotasi  $\text{P}_2\text{O}_5$  bilan qizdirilsa uglerodning o'ziga xos birikmasi –  $\text{C}_3\text{O}_2$  hosil bo'ladi.

Malon kislotasi organik sintezda aminokarbon kislotalari, dorivor moddalar olish uchun ishlataladi. Malon kislotasining dietil efiri uning muhim birikmalaridandir.


*Qahrabo kislotasi* – 183°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda va spirlarda eriydi.

Qahrabo kislotasi tabiiy mahsulotlar tarkibida uchraydi. Sanoatda malein kislotasini gidridlab va etilenglikolni karbonillab olinadi.

Qahrabo kislotasi karboksil guruhning barcha reaksiyalariga kirishadi, siklik birikmalarni oson hosil qiladi.



Qahrabo kislotasi angidridi  
suksinangidrid



Qahrabo kislotasi imidi  
suksinimid

Qahrabo kislotasining molekulasida ikkita aktiv metilen guruhi mavjud. Ularning aktivligi malon kislotasidagi metilen guruhining aktivligidan kam bo'lsa-da, kuchliroq sharoitlarda galogenlash, aldegidlar va ketonlar bilan kondensatsiya reaksiyalarni o'tkazish mumkin.

Qahrabo kislotasi organik sintezda va polimer sanoatida keng qo'llaniladi.

*Glutar kislotasi*  $97,5^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda va spirtlarda eriydi.

Tabiiy mahsulotlarda, masalan, lavlagi sharbatida uchraydi. Sintetik glutar kislotasi siklopentanonni nitrat kislotasi bilan oksidlab olinadi.

Glutar kislotasi ayrim aminokarbon kislotalarini olish uchun ishlataladi.

*Adipin kislotasi* –  $149^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda yomon, spirtlarda yaxshi eriydi.

Sanoatda siklogeksanol yoki siklogeksanonni suyultirilgan nitrat kislotasi bilan oksidlab, tetragidrofuranni yoki butandiol-1,4 ni karbonillab, adipin kislotasi dinitrilini gidrolizlab olinadi.

Adipin kislotasi sintetik tola-naylon ishlab chiqarishda xomashyo hisoblanadi. Shuningdek organik sintezda ishlataladi.

#### 10.4. TO'YINMAGAN KARBON KISLOTALAR

To'yinmagan karbon kislotalar deb molekulasida bitta yoki bir nechta karrali bog' tutuvchi karbon kislotalarga aytildi. Ular ham to'yingan kislotalar kabi sinflanadi va nomlanadi.

23-jadval

#### Ayrim to'ymagan karbon kisotalarning nomlanishi



Kislota	Nomi		
	Trivial	Sistemmatik	Ratsional
$\text{CH}_2=\text{CH-COOH}$	Akril kislota	Propen kislota	Etilenkarbon kislotasi
$\text{CH}_2=\underset{\text{CH}_3}{\text{C}}-\text{COOH}$	Metakril kislota	2-metilpropen kislota	Propen-2-karbon kislota
	Kroton kislota	<i>Trans</i> -buten-2 kislota	
	Izokroton kislota	<i>Sis</i> -buten-2 kislota	
	Malein kislota	<i>Sis</i> -buten-2 dikislota	<i>Sis</i> -eten-dikarbon-1,2-kislota
	Fumar kislotasi	<i>Trans</i> -buten-2 dikislota	<i>Trans</i> -eten-dikarbon-1,2-kislota
$\text{H}_2\text{C}=\text{C}(\text{COOH})-\text{CH}_2-\text{COOH}$	Itakon kislota		Propen-2-dikarbon-1,2-kislota

## TO'YINMAGAN MONOKARBON KISLOTALAR


### *OLINISH USULLARI*

To'yinmagan monokarbon kislotalar olishda to'yingan monokarbon kislotalar olish metodlaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari spetsifik metodlari ham mavjud.


To'yinmagan spirtlar yoki aldegidlar yumshoq sharoitlarda oksidlansa tegishli kislotalar hosil bo'ladi.





Ba'zan alkenlarni maxsus katalizatorlar ishtirokida havo kislorodi bilan oksidlash mumkin:




Alkinlar metallarning karbonillari ishtirokida is gazi bilan oson ta'sirlashadi va  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan monokarbon kislotalar hosil qiladi (V.Reppe).




Galogenkarbon kislotalar, oksikarbon kislotalar va ularning murakkab efirlari to'yinmagan karbon kislotalarga aylantirilishi mumkin. Bunday yo'l bilan asosan  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan monokarbon kislotalar olinadi.





Alkoksifosforanlar aldegidlar bilan oson reaksiyaga kirishib to‘yinmagan monokarbon kislotalarning murakkab efirlarini hosil qiladi:




Ushbu yo‘l bilan tabiiy to‘yinmagan karbon kislotalar olinadi.

To‘yinmagan karbon kislotalar malon kislotasining aldegidlar bilan kondensatsiyasi natijasida ham hosil bo‘ladi (Knevenagel reaksiyasi, 1896-y.).

### **FIZIK-KIMYOVİY XOS SALARI**

To‘yinmagan karbon kislotalar rangsiz suyuqliklar yoki oson suyuqlanadigan kristall moddalardir. Eng sodda vakillari suvda eriydi va o‘tkir hidga ega.

$\alpha,\beta$ -to‘yinmagan kislotalarning molekulasida bog‘langan qo‘shbog‘lar sistemasi mavjud. Buning natijasida qo‘shbog‘ning qutblanishi sodir bo‘ladi:



Agar karrali bog‘ karboksil guruhdan uzoqroqda bo‘lsa bog‘langan sistema hosil bo‘lmaydi.

$\alpha,\beta$ -to‘yinmagan monokarbon kislotalari, ayniqsa uchbog‘ tutuvchi kislotalar to‘yingan kislotalarga nisbatan kuchli kislotalar hisoblanadi. Bu bog‘langan sistemaning mavjudligi va  $\alpha$ -uglerod atomining gibrildanish holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

**Ayrim to‘yinmagan kislotalarning  $pK_a$  qiymatlari**


Kislota	$pK_a(H_2O)$
$CH_3CH_2COOH$	4,87
$CH_2=CHCOOH$	4,26
$HC\equiv CCOOH$	1,84
$CH_3C\equiv CCOOH$	2,6
$CH_3CH=CHCH_2COOH$	4,51

To‘yinmagan karbon kislotalar to‘yingan kislotalarga, alkenlarga (alkinlarga) xos bo‘lgan barcha reaksiyalarga, masalan, polimerlanish reaksiyalariga kirishadi. Ayniqsa  $\alpha,\beta$ -to‘yinmagan kislotalar oson polimerlanadi. Bu  $RCH_2CH^*COOH$  radikalning elektronni karboksil guruhda delokallanishi natijasida barqarorlashuvi bilan bog‘liq.

**MUHIM VAKILLARI**

*Akril kislotasi* – o‘tkir hidli rangsiz suyuqlik,  $141^\circ C$  da qaynaydi, suvda yaxshi eriydi. Atsetilen va  $Ni(CO)_4$  dan yoki propenni katalitik oksidlab olinadi. Akril kislotasi oson polimerlanadi, shuning uchun polimer materiallar olishda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa uning efirlari, amidi va nitrili sanoatda muhim ahamiyatga ega.

*Metakril kislotasi* ( $\alpha$ -metilakril kislotasi) – rangsiz suyuqlik,  $160,5^\circ C$  da qaynaydi. Ushbu kislota va uning efirlari atseton va vodorod sianiddan olinadi:




Polimerlar sanoatida metakril kislotasining metil efiri (metilmetakrilat) qo‘llaniladi.

O'zbek olimlari Asqarov I.R., Jo'rayev A.M., Abdullayev R.N. moskvalik olimlar Sergeyev V.A., Polyakova A.M. bilan hamkorlikda metakril kislota efirlari asosida ferrosenning yangi birikmalarini sintez qilib, jigar, buyrak, taloq kabi kesilganda oson qon yo'qotuvchi n'zolarni jarrohlik jarayonlarida foydalanish uchun 40–45 soniyada yelimlash orqali tikmasdan jarrohlikni amalga oshirish imkonini beruvchi Siakrin AP-1 va Siakrin-AndMos yelimlarini ixtiro qilib, amaliyotga joriy etishdi.

### TO'YINMAGAN DIKARBON KISLOTALAR

To'yinmagan dikarbon kislotalar olish uchun to'yingan dikarbon kislota molekulasida karrali bog' hosil qilish yoki to'yinmagan birikma molekulasida karboksil guruhlarning hosil bo'lish usullaridan foydalaniлади.



Ba'zi to'yinmagan dikarbon kislotalar tabiiy moddalar tarkibida uchraydi.

To'yinmagan dikarbon kislotalar to'yingan analoglariga qaraganda kuchliroq kislotalardir. Chunki ikkita karboksil guruhning o'zaro ta'siri  $\pi$ -bog'lar sistemasida kuchliroq o'tkaziladi.

*25-jadval*

#### Ayrim to'yinmagan dikarbon kislotalarning $pK_a$ qiymatlari

Kislota	$pK_{a,1}$	$pK_{a,2}$	$pK_{a,2} - pK_{a,1}$
Malein	1,92	6,23	4,31
Fumar	3,02	4,32	1,30
Itakon	3,82	5,66	1,82
Atsetilendikarbon	1,73	4,40	2,67

## MUHIM VAKILLARI

*Malein kislotasi* – rangsiz kristall modda, 131°C da suyuqlanadi, suvda va spirtda eriydi.


Malein kislotasi benzol, butenlar va furfurol bug'larini katalitik oksidlash mahsuloti – malein angidridining suvda erishi natijasida hosil bo'ladi va toza holatda ajratib olinadi. Malein kislotasi qizdirilganda bir molekula suv ajralib chiqib malein angidridi hosil bo'ladi. Shunday qilib malein kislotasi sanoat miqyosida malein angidridi ishlab chiqarishda oraliq mahsulot hisoblanadi.

Malein angidridi sanoat miqyosida qahrabo, olma va vino kislotalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Malein kislotasining xlorid kislotasi tutuvchi suvli eritmalari qizdirilganda fumar kislotasi hosil bo'ladi.

*Fumar kislotasi* – rangsiz kristall modda, kavsharlangan ampulada 287°C da suyuqlanadi, odatdag'i sharoitda suyuqlanmasdan haydaladi, suvda qiyin eriydi.

Tabiatda fumar kislotasi ko'plab o'simliklarda, ayniqsa qo'ziqorinlarda uchraydi. Fumar yoki malein kislotasining eritmalari UB-nurlar bilan yoritsa ikkala kislotaning muvozanat aralashmasi hosil bo'ladi, ya'ni fotokimyoiy izomerlanish sodir bo'ladi.



*Itakon kislotasi* – rangsiz kristall modda, 167°C da suyuqlanadi, suvda eriydi. Limon kislotasini qizdirish natijasida hosil bo'ladi. Sanoatda glyukozani *Aspergillus terreus* mog'or zamburug'i ishtirokida fermentativ parchalash usuli bilan olinadi. Itakon kislotasi sintetik smolalar, tolalar va sirt-fao moddalar olish uchun ishlatiladi.

## **11-BOB. KARBON KISLOTALARNING FUNKSIONAL HOSILALAR**


Karbon kislotalarning funksional hosilalari karboksil guruhdagi –OH ni boshqa atomlar va atomlar guruhiga almashinishidan hosil bo‘ladi. Bunday birikmalarga asosan quyidagilar kiradi:

- Galogenangidridlar yoki atsilgalogenidlar;
- angidridlar;
- murakkab efirlar, laktonlar;
- amidlar, imidlар va laktamlar;
- gidrazidlar va azidlar;
- nitrillar va izonitrillar.


### **11.1. GALOGENANGIDRIDLAR**

Karbon kislotalarning karboksil guruhidagi -OH ning galogen atomiga almashinishidan hosil bo‘lgan hosilalari *galogenangidridlar* yoki *atsilgalogenidlar* deyiladi.


Galogenangidridlarni nomlash uchun tegishli kislota qoldig‘i nomiga galogenid, masalan, ftorid yoki xlorid so‘zi qo‘shiladi. Masalan,



atsetilxlorid




benzoilbromid



siklogeksankarbonilyodid

### **OLINISH USULLARI**

Karbon kislotalar va ularning tuzlariga oltingugurt, fosfor xloridlari, bromidlari yoki fosgen ta’sir ettirilsa tegishli galogenangidridlar hosil bo‘ladi.



Yodidlar olish uchun atsilxloridlardagi xlор yodga almashtiriladi. Shunday yo'l bilan atsiltoridlар ham olinadi. Perftorkarbon kislotalarning storidlari kislotalarni elektrokimyoviy ftorlash yo'li bilan olinadi.

Formilxlorid is gazi va vodorod xlоридга parchalanadi, formiltorid nisbatan barqarorroq.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI


Atsilgalogenidlар o'tkir hidli, rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir, oson uchuvchan atsilgalogenidlар havoda tutab turadi. Eng sodda atsiltoridlар gazsimon moddalardir. Suvda kam eriydi, lekin tez reaksiyaga kirishadi.

Atsilgalogenidlар kuchli qutblangan birikmalardir. Bunga sabab galogen atomining elektronoakseptor ta'siridir. Atsilgalogenidlар kuchli elektrofil xossalarini namoyon qiladi.


### KIMYOVIY XOSSALARI

1. Nukleofil o'rин olish reaksiyalari. Atsilgalogenidlар har xil nukleofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Atsilgalogenidlар organik birikma molekulasiga atsil guruh kiritish uchun ishlataladi, ya'ni *atsillovchi reagentlar* hisoblanadi.

Kuchsiz nukleofillar, masalan, arenlar bilan reaksiyaga kirishishi uchun atsilgalogenid Lyuis kislotalari bilan aktivlanishi zarur. Atsilgalogenid Lyuis kislotasi bilan ta'sirlashganda donor-akseptor tipidagi kompleks birikma hosil bo'lib, uglerod atomida musbat zaryadning hissasi ortadi.




Koordinatsion bog' metall atomi va kislorod atomi o'rtasida ham hosil bo'ladi. Ayrim holatlarda *atsiliy ion*  $\text{RCO}^+$  hosil bo'lishi ham mumkin.




Atsiliy ionining mavjudligi kristall holatda  $[CH_3CO]^+SbF_6^-$  tuzining olinishi bilan tasdiqlangan.

Atsiliy ionida uglerod atomi sp-gibridlangan holatda bo‘ladi, shuning uchun uning struktura formulasi qutblangan uchbog‘ bilan yozilishi kerak:



Lyuis kislotalari ishtirokida atsillash reaksiyasi aromatik ketonlar olishda qo‘llaniladi.


2.  $\alpha$ -vodorod atomi ishtirokidagi reaksiyalar. Agar atsilgalogenidlar molekulasida  $\alpha$ -vodorod atomi mavjud bo‘lsa yenollanish va galovendorodlarni ajralishi kuzatiladi. Reaksiya natijasida ketenlar hosil bo‘ladi.



Atsilgalogenidlarni qutblanishi (ionlanishi) kuchli asoslar, masalan, uchlamchi aminlar ta’sirida sodir bo‘ladi.


### **ASOSIY VAKILLARI**

*Atsetiklorid* – o‘tkir hidli, rangsiz suyuqlik, havoda tutaydi,  $51,8^\circ C$  da qaynaydi. Natriy atsetatga sulfuriklorid yoki muz sirka kislotaga magniy xlorid ishtirokida fosgen ta’sir ettirib olinadi.



Organik sintezda atsetil guruh kiritish (atsetillash) uchun ishlataladi.

*Benzoilxlorid* – o‘tkir hidli, rangsiz suyuqlik, lakrimator,  $197^\circ C$  da qaynaydi. Benzoy kislotasi va foggandan yoki benzaldegid va xlordan olinadi, yoki triklormetilbenzolni qisman gidrolizlab olinadi.



Organik sintezda benzoil guruh kiritish (benzoillash) uchun ishlataladi.

## 11.2. KARBON KISLOTALARNING ANGIDRIDLARI

Angidridlar karbon kislotalarni termik yoki kuchli suv tortuvchi moddalar, masalan, fosfat angidrid, triftorsirka kislotasining angidridi, karbodiimidlar ta'sirida angidridlash yo'li bilan olinadi. Qizdirilganda siklik angidridlar osonroq hosil bo'ladi.

Atsetilgalogenidlarning karbon kislotalarning tuzlari bilan yoki karbon kislotalarning ketenlar bilan reaksiyasi natijasida ham angidridlar hosil bo'ladi.

Chumoli kislotasining angidridi beqaror birikmadir.


### **FIZIK-KIMYOVITY XOSSALARI**

Karbon kislotalarning angidridlari rangsiz suyuq yoki kristall moddalardir. Dastlabki vakillari o'tkir hidga ega, suvda kam eriydi, asta-sekin gidrolizlanadi.

Angidridlar molekulasidagi bog'lar kuchli qutblangan. Qutblanish atsilgalogenidlarga qaraganda kamroq. Karbon kislotalarga nisbatan angidridlar kuchliroq elektrofil xossalarga ega, chunki ikkita atsil guruhga bitta kislorod atomi to'g'ri keladi.

1. Karbon kislotalarning angidridlari har xil nukleofil reagentlar bilan oson ta'sirlashadi.





Siklik angidridlarning nukleofil reagentlar bilan reaksiyasi natijasida dikarbon kislotalarning bir almashingan hosilalari chiqadi.



Karbon kislotalarning angidridlari atsilgalogenidlari kabi atsillovchi reagentlar bo'lib, Lyuis kislotalari bilan aktivlanadi.

2. Karbon kislotalarning angidridlari molekulasida  $\alpha$ -holatdagি uglerod-vodorod bog'i qutblangan. Asoslar (karbon kislotalarning tuzlari, uchlamchi aminlar) ishtirokida aromatik aldegidlar bilan kondensatsiya


reaksiyasiga kirishadi va to'yinmagan aromatik karbon kislotalar hosil qildi (Perkin reaksiyasi). Reaksiya mexanizmi aldol kondensatsiyasiga o'xshaydi.



### **MUHIM VAKILLARI**




Sirka angidridi – 139°C da qaynaydigan, o'tkir hidli rangsiz suyuqlik, suvda kam eriydi, asta-sekin gidrolizlanadi.

Sanoatda sirka angidridi ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Asosan ketenga sirka kislotasi ta'sir ettirib olinadi. Shuningdek, sirka aldegidini kobalt va mis atsetatlari ishtirokida katalitik oksidlash usuli ham qo'llaniladi.



Sirka angidridi atsetillash reagenti sifatida, hamda ayrim kondensatsiya reaksiyalarini o'tkazishda muhit sifatida ishlataladi.

*Malein angidridi* – 52,8°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda va organik erituvchilarda eriydi, suvda asta-sekin gidrolizlanadi.




Malein angidridi sanoatda ko'p miqdorda benzolni, butenlarni yoki furfurolni vanadiyli katalizatorlar ishtirokida bug' fazali oksidlash yo'li bilan olinadi.

Malein angidridi polimer materiallar, gerbitsidlar olishda, hamda diyen sintezida qo'llaniladi.

*Ftal angidridi* – 130,8°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, oson sublimatlanadi.


Ftal angidridi sanoatda ko'p miqdorda naftalinni yoki o-ksilolni oksidlاب olinadi.



Ftal angidridi poliefirlar (alkid smolalar), plastifikatorlar (ftal kislotasining murakkab efirlari) va bo‘yoq moddalar olishda qo‘llaniladi. Ftal angidridi ayrim biologik faol moddalar olishda ham ishlatiladi.

### 11.3. KARBON KISLOTALARNING MURAKKAB EFIRLARI

Karbon kislotalarning murakkab efirlari spirlarning karbon kislotalar, atsilgalogenidlar va angidridlarning o‘zi bilan o‘zaro ta’siri natijasida yoki karbon kislotalar tuzlarini alkillac olinadi. Shuningdek ayrim spetsifik metodlari ham mayjud. Murakkab efirlar xalqaro ilmiy nomenklatura bo‘yicha nomlanganda dastlab molekula tarkibidagi asosiy zanjir uglerodlari soni aniqlab olinadi. So‘ngra tegishli uglevodorod nomiga *oat* qo‘shimchasi qo‘shib o‘qiladi. Masalan,



Metilmetanoat  
Chumoli  
kislotasining  
metil efiri

Metiletanoat  
Sirkka  
kislotasining  
metil efiri

Etiletanoat  
Sirkka  
kislotasining  
etyl efiri


Etilpropanoat  
Propion  
kislotasining  
etyl efiri

Karbon kislotalarining siklik efirlari *laktonlar* deyiladi. Laktonlar  $\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikarbon kislotalarining ichki molekulyar sikllanishidan oson hosil bo‘ladi.

Karbon kislotasi va spirt aralashmasida asta-sekin murakkab efir hosil bo‘ladi. Reaksiya natijasida suv ham hosil bo‘ladi. Eterifikatsiya reaksiyasi qaytar reaksiya hisoblanadi. Chunki murakkab efirlar suv bilan ta’sirlashib yana karbon kislotasi va spirtga aylanadi.



Laktonlarning hosil bo'lishi yanada tezroq boradi:



Kislotalar ishtirokida eterifikatsiya reaksiyalarining tezligi bir necha marta ortishi aniqlangan. Kislota protoni karboksil guruhni faollaydi va kuchsiz nukleofil bo'lgan spirtning karbon kislotaga ta'sirini osonlashtiradi.

Karbon kislotalarning spirtlar bilan reaksiyasiga carbodiimidlar ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.


Spirlar, fenollar va boshqa gidroksil guruh tutuvchi birikmalar angidridlar va galogenangidridlar bilan oson ta'sirlashib tegishli murakkab efirlarni hosil qiladi. Shuningdek, spirlarning karbon kislotalarning murakkab efirlari bilan, ayniqsa kislotalar yoki asoslar ishtirokidagi reaksiyalarini natijasida yangi murakkab efirlar hosil bo'ladi. Ushbu reaksiya qayta eterifikatsiya reaksiyasini deb yuritiladi.

Karbon kislotalarning tuzlari galogenalkanlar yoki noorganik kislotalarning efirlari bilan alkillanishi natijasida murakkab efirlar hosil bo'ladi:



Karbon kislotalarning murakkab efirlari xushbo'y hidli rangsiz suyuqliklar, ayrimlari kristall moddalardir. Ularning qaynash temperaturalari tegishli kislotalarning (ba'zan spirlarning) qaynash temperaturalaridan ancha past.


Murakkab efirlardagi bog'larning qutbliligi karbon kislotalardagi kabidir. Asosiy farqi shundaki, murakkab efirlarda harakatchan vodorod atomi mavjud emas.




Aktivlangan efir

Karbonil guruhdagi uglerod atomi elektrofil markaz hisoblanadi. Murakkab efirning alkil guruhidagi uglerod ham musbat qutblangan. Murakkab efirning elektrofilligi kislород atomiga bog'langan uglevodorod qoldig'i ining tuzilishiga bog'liq. Agar ushbu uglevodorod qoldig'i vinil yoki aril esirlardagi kabi bog'langan sistema hosil qilsa murakkab efirning reaksiyon qobiliyati ortadi.

Murakkab esirlar nukleofillar bilan ta'sirlashadi, bunda alkoxi guruh ulmashadi – nukleofil atsillanadi. Bazan nukleofilning alkilanishi kuzatiladi.  $\alpha$ -vodorod atomi tutuvchi murakkab esirlar ushbu atom bo'yicha ham reaksiyaga kirishadi (murakkab efir kondensatsiyasi). Xususiy reaksiyalar ham ma'lum, masalan, atsiloin kondensatsiyasi.




1. Nukleofil o'rin olish reaksiyalari. Murakkab esirlar nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashib tegishli karbon kislota yoki ushbu kislotaning har xil funksional hosilalariga aylanadi.




Suv (gidroliz), spirtlar (alkogoliz yoki qayta eterifikatsiya), ammiak va aminlar (ammonoliz), gidrazinlar (gidrazinoliz) bilan boradigan reaksiyalar ko'proq o'rganilgan.


Murakkab esirlarni ishqorlar bilan o'zoro ta'siri natijasida karbon kislotaning tuzi hosil bo'ladi, ya'ni murakkab efirning hidrolizi (sovunlanish) sodir bo'ladi.



Tegishli spirtdagи eritmалarda alkoksidlar bilan reaksiyasi natijasida alkil guruhlarning almashinishi – qayta eterifikatsiya reaksiyasi ketadi. Reaksiya qaytardir:




Kuchsiz nukleofillar – suv va spirtlar bilan boradigan reaksiyalar kislotalar ishtirokida boradi. Kislota murakkab efir molekulasini aktivlaydi.



Suv ishtirokida gidroliz ketadi va karbon kislota chiqadi. Spirtli aralashmada qayta eterifikatsiya sodir bo‘ladi.



2. Murakkab efirlar alkillovchi reagent sifatida. Ayrim hollarda murakkab efirlar nukleofil reagentni alkillaydi. Bu uchlamchi aminlar bilan boradigan reaksiyalar uchun xarakterlidir.



Atsil qoldiqning elektronoakseptor xossasi (tegishli karbon kislutaning kislota konstantasi) ortishi bilan murakkab efirning alkillovchi qobiliyati ortadi.


3.  $\alpha$ -vodorod atom ishtirokidagi reaksiyalar. Karbon kislotalarning  $\alpha$ -vodorod atomi tutuvchi murakkab efirlari kuchli asoslar bilan karbonil birikmalar kabi ta'sirlashib karbanion hosil qiladi.

Karbanionning hosil bo'lishi murakkab efirning ikkinchi molekulasi bilan kondensatsiyaga sabab bo'ladi. Masalan, murakkab efirlar natriy metali yoki natriy alkoksid ishtirokida  $\beta$ -ketokarbon kislota efirining tuzi hosil bo'ladi. Bu reaksiya murakkab efir kondensatsiyasi yoki Klyayzen kondensatsiyasi deyiladi.




Reaksiyon aralashmaga kislota qo'shilsa  $\beta$ -ketokarbon kislotalarning efirlari hosil bo'ladi.


4. Atsiloin kondensatsiyasi. Murakkab efirlar mayda dispersli natriy ishtirokida inert muhitda o'ziga xos reaksiyaga kirishadi va  $\alpha$ -gidroksiketonlar (atsiloinlar) hosil qiladi. Reaksiya anion-radikal hosil bo'lishi va ularning dimerlanishi bilan boradi:



Oraliq mahsulot sifatida  $\beta$ -diketonlar hosil bo‘ladi, keyin ular nata metali ta’sirida atsiloinlarga aylanadi.



Reaksiya katta siklli birikmalar olishda muhim ahamiyatga ega:



## *ASOSIY VAKILLARI*


*Etilatsetat* – rangsiz, o'ziga xos xushbo'y hidli, 77°C da qaynaydigan suyuqlik. Suvda 8 % atrofida eriydi. Sanoatda sirkə kislotasi va etanoldan sulfat kislotası iştirokida olinadi.

Etilatsetat nitroselfulyuloza, atsetilsellyuloza va boshqa bir qator polimer materiallarni eritish uchun, loklar tayyorlash uchun qo'llaniladi.

*Butilatsetat* – rangsiz, o'ziga xos xushbo'y hidli, 126°C da qaynaydigan suyuqlik. Suvda oz eriydi. Sanoatda sirka kislotosi va butanoldan sulfat kislota ishtirokida olinadi. Lok-bo'yoq sanoatida nitrosellyuloza va poliefir smolalarning erituvchisi sifatida ishlatiladi.


*Vinilatsetat* – 73°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Sırka kislotasiga katalizator ishtirokida atsetilen biriktirib olinadi. Kislorod va katalizator ishtirokida etilen va sırka kislotasidan olish metodi ham ishlab chiqilgan. *Vinilatsetat* oson polimerlanadi. Polivinilatsetat (PVA) yelimlar va lok-bo‘yoq mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlataladi.

Aksariyat murakkab efirlar yoqimli hidga ega bo'lganligi uchun oziq-ovqat (meva essensiyalari) va parfyumeriya sanoatida ishlataladi.




Etilformiat, rom essensiyasi  
 Etilbutirat, ananas essensiyasi  
 Izoomilbutirat, nok essensiyasi  
 Alkilizovaleratlar, olma  
 essensiyasi  
 Benzilatsetat, jasmin  
 essensiyasi

*Malon efiri* – 199°C da qaynaydigan xushbo‘y hidli rangsiz suyuqlik. Malon efiri molekulasida faol metilen guruhi mavjud bo‘lganligi uchun C-H kislota xossasiga ega.



Natriy etilat ishtirokida etil spirti muhitida malon efiri natriy dietilmalonat hosil qiladi. Ushbu birikma oson alkillanadi, atsillanadi va boshqa elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi.



Malon efiri galogenlanadi, nitrozolanadi. Organik sintezda karbon kislotalar, geterosiklik birikmalar olish uchun ishlataladi.

Masalan, alkilmalon efirlari gidroliz qilinganda alkilmalon kislotalari hosil bo‘ladi. Ular o‘z navbatida oson dekarboksillanib monokarbon kislotalarga aylanadi.



Ftal kislotasining murakkab efirlari rangsiz suyuqliklar bo‘lib, suvda erimaydi. Sulfat kislotasi ishtirokida ftal angidridi va tegishli spirtdan olinadi.


**Dialliftalat** – polimer kompozitsiyalar tayyorlashda qo'shimcha sifatida, hamda polivinilxlorid, alkid smolalar uchun plastifikator sifatida ishlataladi.

**Dibutilftalat** – polivinilxlorid, nitrosellyuloza, poliakrilatlar va sintetik kauchuklar uchun asosiy plastifikatorlardan biri. Dibutilftalat hasharotlarni haydovchi vosita (repellent) sifatida ham ishlataladi.


**Dioktilftalat** – plastifikator va repellent sifatida ishlataladi.

Poliefirlar – dikarbon kislotalar yoki ularning angidridlari va ko'p atomli spirtlar (glikollar va glitserin) dan olinadigan polimerlardir. Tereftal kislotasining dimetil efiri va etilenglikoldan **polietilentereftalat** polimeri olinadi. Ushbu polimerdan to'qimachilik sanoatida keng qo'llaniladigan sintetik tola – *lavsan* (terilen) tayyorlanadi.

Malein angidridi va glikollardan malein kislotasining poliefirlari – polimaleinatlар olinadi. Ushbu polimerlar plastik shisha tayyorlashda bog'lovchi sifatida ishlataladi. Polimaleinatlarda qo'shbog'lar borligi uchun «tikilgan» strukturali polimerlar ham hosil qila oladi.




Ftal angidridi glikollar, glitserin yoki pentaeritrit bilan poliftalatlar – *alkid smolalari* hosil qiladi. Glitserin bilan reaksiya natijasida *gliftal smolalari*, pentaeritrit bilan esa *pentaftal smolalari* hosil bo'ladi.



Alkid smolalari ko'pincha boshqa komponentlar, masalan, to'yinmagan yog' kislotalari va ularning efirlari qo'shib modifikasiya qilinadi. Shunday yo'l bilan quriydigan alkid smolalari olinadi.

Alkid smolalari loklar va bo'yoqlar tayyorlashda va linoleum ishlab chiqarishda bog'lovchi sifatida ishlataladi.




*Butirolakton* – 204°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik bo‘lib, butandiol-1,4 va tetrgidrofuranni katalitik oksidlab yoki qahrabo angidridini selektiv qaytarib olinadi. Butirolakton erituvchi sifatida va organik sintezda xomashyo sifatida ishlataladi.


#### 11.4. KARBON KISLOTALARINING AMIDLARI

Karbon kislotalardagi gidroksil guruhni aminoguruhga almashinishi natijasida hosil bo‘lgan moddalarni karbon kislota amidlari deb ataladi. RCONH<sub>2</sub>, ko‘rinishidagi amidlarini nomlash uchun tegishli kislotani xarakterlovchi qo‘sishmcha -*amid* qo‘sishmchasiga almashtiriladi, masalan, asetamid, geksanamid, pirrolkarboksamid-1 va h.k. Agar azot atomida boshqa o‘ribbosar bo‘lsa, R<sup>1</sup>CONHR<sup>2</sup>, R<sup>1</sup>CONR<sup>2</sup>R<sup>3</sup> tipidagi birikmalar hosil bo‘ladi va bunday birikmalar N-almashingan amidlar deyiladi, masalan, N-metilatsetamid, N,N-dietilbenzamid kabi. Agar R<sup>2</sup> o‘ribbosar R<sup>1</sup> dan murakkabroq bo‘lsa moddani boshqacha nomlash mumkin. Bunga 1-atsetilpiperidinni misol qilish mumkin. Ko‘plab holatlarda ikki xil nomlashdan birini tanlash imkoniyati mavjud.


Agar R<sup>2</sup> fenil guruhi bo‘lsa, atsetanilid va sulfanilamid kabi nomlar bilan nomlash mumkin.



Ikki asosli kislotalarning siklik amidlari *imidlar* deyiladi. Imidlarni nomlash uchun tegishli kislota nomining oxiriga – *imid* qo‘sishmchasiga qo‘shiladi, masalan, malon kislotasining imidi kabi. Ba’zi imidlар kislota nomi oxirini – *imid* qo‘sishmchasiga almashtirish bilan nomlanadi, masalan, ftalimid, suksinimid va h.k.




Qahrabo kislotasi imidi,  
suksinimid




Ftal kislotasi imidi,  
ftalimid


*Laktamlar* deb siklik amidlarga aytildi. Laktamlar tegishli kislota nomining oxirini-*laktam* qo'shimchasiga almashtirish yo'li bilan, yoki geterosiklik birikma sifatida nomlanadi. Masalan,



$\beta$ -propiolaktam




$\gamma$ -butyrolaktam,  
2-pyrrolidon




$\delta$ -valerolaktam,  
2-piperidon

### *OLINISH USULLARI*


Karbon kislotalarning amidlari va imidlari karbon kislotalarga yoki ularning angidridlariga, murakkab efirlariga ammiak yoki aminlar ta'sir ettirib olinadi. Karbon kislotalarning o'zлari qiyinroq reaksiyaga kirishadi. Avval ammoniyli tuzlari hosil bo'lib, tuzlar 200°C dan yuqori temperaturada qizdirilganda amidlar yoki imidlarga aylanadi.



$\gamma$ - va  $\delta$ -aminokarbon kislotalar oson laktamlarga aylanadi.



Atsilgalogenidlar, angidridlar va murakkab efirlar ammiak va aminlar bilan oson reaksiyaga kirishadi va tegishli amidlar yoki imidlarni hosil qiladi.




(X=Cl, Br, OOCCR, OR)

## **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

Amidlar va imidlar rangsiz kristall yoki suyuq moddalar bo'lib, suvda va organik erituvchilarda eriydi. Amidlarning molekulalari N-H bog'lar mavjudligi uchun molekulalararo vodorod bog'lar hisobiga assotsiya-langan holatda bo'ladi. Shuning uchun ularning qaynash temperaturalari nisbatan yuqoridir.


Amidlarning molekulalarida azot atomidagi taqsimlanmagan elektron justi va karbonil guruhdagi  $\pi$ -elektronlar o'zaro ta'sirlashadi. Buning natijasida C-N va C=O bog'larining tabiatи va ulardagи elektronlar taqsimlanishi o'zgaradi, ya'ni C=O bog'i odatdagidan biroz uzunroq, C-N bog'i esa qisqaroq bo'lib qoladi.

Amid guruhining atomlari (C, N, O) bitta tekislikda joylashadi, C-N bog'i atrofida molekulaning aylanishi qiyinlashadi. C-N bog'i qisman qo'shbog' tabiatiga ega bo'ladi.




## KIMYOVİY XOSSALARI

Amidlar murakkab efirlarga qaraganda elektrofil reagentlar bilan oson, lekin nukleofil reagentlar bilan qiyin reaksiyaga kirishadi. Bu induktiv effektning (-I) kamayishi ( $\text{Cl} > \text{OOCR} > \text{OR} > \text{NH}_2$ ) va mezomer effektning (+M) ortishi bilan bog'liq.



Bundan tashqari amidlar N-H bog'i bo'yicha ham almashinish reaksiyasiga kirishadi.

Karbon kislotalarning amidlari karbonil guruhning ta'siri natijasida aminlarga nisbatan kuchsizroq asos xossasiga ega. Proton odatda kislород atomiga birikadi.




Protonlangan amidlar imidokislolar ko'rinishiga ega va kuchli OH-kislolar hisoblanadi. Masalan, atsetamidning  $pK_{\text{BH}^+}$  qiymati 0,1 ga, benzamidniki 2 ga, kaprolaktamniki 0,2 ga teng.

Amidlar protonlanganda uglerod atomidagi musbat zaryad protonlanmagan holatdagiga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Buning natijasida kuchsiz nukleofil reagentlar bilan boradigan reaksiyalar osonlashadi.

Imidlar kuchsiz asos xossalariga ega.


Agar amid molekulasida N-H bog'i mayjud bo'lsa ushbu bog' qutblanishi mumkin. Qutblanish natijasida amidlar kuchsiz N-H kislota xossalariga ega bo'ladi. Amidlarning aminlarga nisbatan kislota xossalarini ortishi karbonil guruhning ta'siriga bog'liq.



Atsetamidning pK<sub>a</sub> qiymati 15 ga, benzamidniki esa 13,5 ga teng.


İmidlar amidlarga qaraganda kuchliroq N-H kislotalardır. Masalan, qührabo kislotasining amidi yoki suksinimidning  $pK_a$  qiymati 9,6 ga teng. Chunki imidlarda azot atomiga ikkita karbonil guruh ta'sir etadi.

Amidlar nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishganda aminoguruh umashinishi mumkin.




Yuqorida ta'kidlanganidek amidlar nukleofil reagentlar bilan qiyin reaksiyaga kirishadi. Ko'proq gidroliz va alkogoliz reaksiyalari ma'lum.

Amidlarning gidrolizlanish reaksiyasi neytral muhitda juda sekin, ishqoriy yoki kislotali muhitda oson ketadi. Ishqoriy muhitda amidlar karbon kislotalarning tuzlariga aylanadi.




Kislotali muhitda amid molekulasi faollanadi va suv, spirt kabi kuchsiz nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashuvi osonlashadi.




Imidlar yuqoridagi kabi reaksiyalarga faolroq kirishadi.

N-al mashinmagan va N-bir almashinmagan amidlar azot atomi bo'yicha oson galogenlanadi. Galogenlash reaksiyasi ishqoriy muhitda olib boriladi.




N-galogenamidlar oksidlovchi xossasiga ega juda beqaror birikmalaridir. Ular galogenlovchi reagentlar sifatida ishlataliladi. N-galogen bog' gomolitik parchalanishi mumkin.



N-H bog'i tutuvchi N-galogenamidlar o'ziga xos reaksiyon qobiliyatga ega. Ular ishqoriy sharoitda tuzlar hosil qiladi.




N-galogenamidlarning tuzlari qizdirilganda birlamchi aminlarga aylanadi.



Ushbu reaksiya birinchi marta 1881-yilda A.Gofman tomonidan ochilgan. Ushbu reaksiya amidlarni Gofman bo'yicha parchalanish reaksiyasi deb yuritiladi.


Gofman reaksiyasida oraliq moddalar sifatida izosianatlar hosil bo'ladi.




Izosianatlar suv biriktirib karbamin kislotalariga aylanadi va kislota dekarboksillanadi.



Elektrofil reagentlar amid molekulasidagi kislorod atomiga ta'sir etadi. Kuchli alkillovchi reagentlar ta'sirida imidoefirlarning hosilalari chiqadi. Kuchli Lyuis kislotalari ta'sirida esa keyingi o'zgarishlar sodir bo'ladi. N-almashinmagan amidlar nitrillarga aylanadi.



N,N-dialmashingan amidlar  $\text{POCl}_3$  ta'sirida imidokislotalarning xlorangidridlariga – kuchli atsillovchi reagentlarga aylanadi. Masalan, N,N-dimetilformamid  $\text{POCl}_3$  bilan reaksiyaga kirishib kuchli formillovchi reagent-N,N-dimetilformamidning tuzini hosil qiladi.



### ***MUHIM VAKILLARI***

*Formamid* – 210,5°C da qaynaydigan rangsiz gigroskopik suyuqlik, suv va organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Formamid metilformiat va ammiakdan olinadi. Organik sintezda erituvchi va reagent sifatida ishlatiladi.

*N,N-dimetilformamid* (DMFA) – 153°C da qaynaydigan o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, suv va organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Sanoatda ko'p miqdorda bosim ostida dimetilamin va is gazidan olinadi.


DMFA asosan erituvchi sifatida ishlatiladi. DMFA kationlarni yaxshi solvatlaydi, lekin anionlarni solvatlamaydi. Bunday erituvchilar bipolyar aproton erituvchilar deyiladi. DMFA formillash reaksiyalari uchun ham ishlatiladi.

*Suksinimid* (qahrabo kislotasining imidi) – 126°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda eriydi, qahrabo kislotasining ammoniyili tuzini qizdirib olinadi.

Suksinimid organik sitezda ishlataladi. Masalan, N-bromsuksinimid organik birikmalarni bromlash va oksidlash uchun ishlataladi.

*Ftalimid* – 238°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, oson sublimatlanadi, ftal angidrid va ammiakni 170–240°C da qizdirib olinadi.


Ftalimid kuchsiz N-H kislota xossasiga ega ( $pK_a=8,3$ ). Fталimid ishqor eritmalarida erib asta-sekin siklning ochilishi bilan gidrolizlanadi va ftalimin kislotasining tuzi hosil bo'ladi. Fталimidning tuzlari suvsiz muhitda olinadi. Ular organik sinteza, masalan, birlamchi aminlarni olishda ishlataladi. Ushbu reaksiya 1887-yilda Z.Gabriel tomonidan taklif etilgan.



N-almashingan ftalimidlar ishqor yoki kislota eritmalarida gidroliz qilinadi. Gidroliz gidrazin ishtirokida olib borilgani yaxshiroq, bunda ftal kislotasining gidrazidi va birlamchi amin hosil bo'ladi.

Fталimid antranil kislotasi va boshqa aminokislotalarni olish uchun ishlataladi.

$\alpha$ -pirrolidon ( $\gamma$ -butirolaktam) – 25,6°C da suyuqlanadigan, 245°C da qaynaydigan rangsiz modda, suvda eriydi. Butirolakton va ammiakdan olinadi.




$\alpha$ -pirrolidon erituvchi sifatida, hamda ayrim polimerlarni olishda xomashyo vazifasini o'taydigan N-vinilpirrolidon olishda ishlataladi. Molekulyar massasi 20000 bo'lgan toza polivinilpirrolidonning suvli eritmasi tibbiyotda ishlataladi.

N-metilpirrolidon juda yaxshi bipolyar aproton erituvchi hisoblanadi. U ayrim polimerlarni ham yaxshi eritadi.

$\epsilon$ -kaprolaktam – 68°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvdan eriydi. Sanoatda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.

Kaprolaktam ishlab chiqarishning asosiy metodlaridan biri 20–25 % oleum ishtirokida siklogeksanon oksimini Bekman qayta gruppalanish reaksiyasi hisoblanadi.



Kaprolaktam 250–260°C da kuchsiz kislota yoki asos katalizatorlari ishtirotida polimerlanib poliamid – poli- $\epsilon$ -kaproamid hosil qiladi.

Poliamidlar makromolekulasida amid guruhi tutuvchi, molekulyar massasi 10000–30000 bo‘lgan yuqori molekulyar birikmalar hisoblanadi.

Poliamidlar ikki xil usul bilan olinadi: diaminlar va dikarbon kislotalar yoki ularning hosilalaridan va  $\epsilon$ -aminokarbon kislotalar yoki ularning laktamlaridan.

*26-jadval*


#### Ayrim poliamidlar va ulardan olinadigan tolalar

Poliamid	T.s °C	Tolaning nomi
Poligeksametilenadipamid	250	Anid Nylon-6,6 (AQSH)
Poli- $\epsilon$ -kaproamid	225	Kapron Nylon-6 (AQSH) Perlon (Germaniya)
Poli- $\omega$ -enantoamid	223	Enant Nylon-7 (AQSH)
Poli- $\omega$ -undekanamid	180–185	Undekan Nylon-11 (AQSH) Rilsan (Fransiya)

#### 11.5. KARBON KISLOTALARNING GIDRAZIDLARI VA AZIDLARI

Karbon kislotalarning gidrazidlari karboksil guruhdagi  $-OH$  ni gidrazin qoldig‘iga almashinishidan hosil bo‘lgan birikmalardir. Azidlар esa karboksil guruhdagi  $-OH$  ni  $N_3$  ga almashinishidan hosil bo‘lgan birikmalar hisoblanadi. Ularni nomlash uchun kislota nomiga yoki kislota

qoldig'i nomiga -gidrazid yoki -azid nomi qo'shiladi. Karboksil guruhdagi -OH gidroksilaminga almashtirilsa atsildidroksamlar hosil bo'ladi. Masalan,




Sirka kislota  
gidrazidi

Fтalgidrazid


Benzoy kislota  
azidi, benzoilazid

Benzoilgid-  
roksam  
kislotasi


Karbon kislotalarning gidrazidlari yoki atsildidrazinlar karbon kislotalarning galogenangidridlari, angidlari, murakkab esiflari yoki amidlariga gidrazin yoki uning alkil- va arilhosilalari ta'sir ettirib olinadi.



Shuningdek, N,N-diatsilgidrazinlar va va siklik gidrazidlari ham ma'lum.






N,N-diatsetilgidrazin




Fтalgidrazid

Gidrazidlari xossalari jihatdan amidlarga o'xshaydi. Farqi shundaki, gidrazidlardan molekulasida karbonil guruh bilan bezosita ta'sirlashmaydigan -NH<sub>2</sub> mavjud. Shuning uchun gidrazidlardan xossalari namoyon qiladi, kislotalar bilan ta'sirlashib tuzlar hosil qiladi, karbonil birikmalar bilan reaksiyaga kirishadi va N-atsildidrazonlar hosil qiladi, nitrit kislotasi bilan ta'sirlashadi.



Gidrazidlar organik sintezda ishlatiladi.


Karbon kislotalarning azidlari gidrazdlarni nitrozolab olinadi. Reaksiya mexanizmi aminlarni diazotirlash mexanizmiga o'xshash.




Azidlar olishning ikkinchi metodi noorganik azidlarga atsilgalogenidlar ta'sir ettirishdan iborat.




Azid guruhining tuzilishi diazoalkanlarning tuzilishiga o'xshaydi. Azid guruhining tuzilishini bir nechta rezonans struktura yordamida tasvirlash mumkin.



Azidlar beqaror birikmalar bo'lib, quyi vakillari portlash bilan parchalanishga moyil. Azidlarning suvli eritmalari qizdirilganda birlamchi aminlar hosil bo'ladi.




Reaksiyani birinchi marta 1890-yilda nemis kimyogari T.Kursius kashf qilgan va *Kursius qayta gruppalanishi* deyiladi. Reaksiya mexanizmi Gofman reaksiyasi mexanizmiga o'xshash. Azid parchalanganda atsilnitren hosil bo'lishi mumkin, u o'z navbatida izosianatga qayta gruppalanadi.



Izosianat suv ta'sirida karbamin kislotasini hosil qiladi. Karbamin kislotasi dekarboksillansa birlamchi amin hosil bo'ladi.


Azidlarning spirtdagi eritmasi parchalansa uretanlar, ya'ni karbamin kislotasining murakkab efirlari hosil bo'ladi. Azidlarni sof holda ajratib olmasdan eritmada parchalash mumkin. Shunday reaksiyalardan biri karbon kislotalarning azid kislotasi bilan kuchli kislota ishtirokidagi reaksiyasidir.



Mazkur reaksiyani 1923-yilda K.Shmidt ochgan.


Shuningdek, ishqorlar, alkoksidlar, aminlar bilan ta'sirlashuvida azid guruhining nukleofil o'rinish olish reaksiyalari ham ma'lum.

*Gidroksam kislotalari* karbon kislotalarning funksional hosilalariga gidrosilamin ta'sir ettirib olinadi.



Gidroksam kislotalari – termik beqaror, suvda eriydigan rangsiz kristall moddalardir.

Amidlardan farqli ravishda gidroksam kislolarining kislota xossalari kuchliroq.




Gidroksam kislotalari og'ir metallarning ionlari bilan rangli kompleks tuzlar hosil qiladi, masalan, Fe(III) bilan qizil, Cu(II) bilan yashil rangli birikmalar hosil bo'ladi. Shuning uchun mazkur reaksiyalar karbon kislotalarining funksional hosilalarini sifat jihatdan aniqlashda qo'llaniladi.

Gidroksam kislotalarning birlamchi aminlarga qayta gruppalanishi ularning o'ziga xos reaksiyalaridir.




Qayta gruppalanish Lyuis kislotalari, polifosfat kislotasi,  $\text{P}_2\text{O}_5$ , sirka angidrid ishtirokida boradi. Gidroksam kislotalarining kislorod atomi bo'yicha atsilhosilalari yumshoq sharoitlarda qayta gruppalanadi.



Gidroksam kislotalarining qayta gruppalanish reaksiyalarini 1872-yilda V.Lossen kashf etgan. Reaksiya mexanizmi Gofman va Kursius reaksiyalarini mexanizmiga o'xhash.

## 11.6. NITRILLAR


Nitrillar yoki sianidlar deb karboksil guruhdagi kislorod atomi va gidrosil guruhnini azot atomiga almashinishidan hosil bo'lgan birikmalarga aytildi. Shuningdek, nitrillarni uglevodorod molekulasi dagi vodorod atom (lar) ini sianid guruhga almashinish mahsuloti sifatida ham qarash mumkin. Nitrillarning nomlash uchun tegishli kislota nomiga *-nitril* qo'shimchasini, yoki tegishli uglevodorod nomiga *-sianid* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.




Atsetonitril, etanonitril




Butironitril, butanonitril, propilsianid




Izovaleronitril, 3-metilbutanonitril



Adiponitril,  
geksandinitril




Siklogeksankarbonitril,  
siklogeksilsianid




Ftalonitril,  
1,2-ditsianobenzol

Nitrillar asosan quyidagi metodlar yordamida olinishi mumkin.


Karbon kislotalarning amidlari  $\text{P}_2\text{O}_5$ , yoki  $\text{POCl}_3$  ta'sirida degidratlanib nitrillarga aylanadi.




Sanoatda amidlarni  $\text{Al}_2\text{O}_3$  sirtida katalitik degidratlash usuli ham qo'llaniladi. Buning uchun katalizator ustidan karbon kislota va ammiak aralashmasi o'tkaziladi.



Aldoksimlar kislotalar ishtirokida degidratlanib nitrillarni hosil qiladi.



Kaliy yoki natriy sianidlar alkillansa nitrillar hosil bo'ladi.



Aromatik uglevodorodlarning sianidlari DMFA yoki fosfat kislotasining geksametiltriamidi eritmasida galogenarenlarga CuCN ta'sir ettirib olinadi.



Nitrillarni olish uchun arendiazoniy tuzlaridan ham foydalanish mumkin.

### FIZIK XOSSALARI

Nitrillar rangsiz suvda eriydigan moddalardir. Ularning molekulasida qutbli elektronoakseptor sianoguruh mavjud. Ushbu guruhdagi ikkala atom ham *sp*-gibridlangan holatda.

Agar sianoguruh qo'shbog' yoki benzol halqasi yonida joylashgan bo'lsa, bog'lar kuchli qutblanadi.




Elektron effektlar (*-I*, *-M*) nitroguruh effekti kabi, faqat kuchsizroq namoyon bo'ladi.


### KIMYOVIY XOSSALARI

Nitrillar nukleofil reagentlarni biriktiradi. Kuchsiz nukleofillar bilan reaksiya kislota ishtirokida ketadi. Agar nitril molekulasida α-holatda uglerod-vodorod bog'i mavjud bo'lsa, karbanion hosil bo'lishi va keyingi reaksiyalar ketishi mumkin. Shuningdek, nitrillarni gidridlash reaksiyalarini ham ma'lum.


Nitrillar kuchli nukleofil anion reagentlar – karbanionlar, metal-larning amidlari, ishqorlar, alkoksidlar, tiolyatlar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Masalan,




Nitrillarni suv, spirtlar kabi kuchsiz nukleofillar bilan reaksiyasi kislota katalizatorlari ishtirokida boradi. Kislotalar nitril molekulasi dagi azot atomi bilan vodorod bog' hosil qiladi. Nitrillar juda kuchsiz asos xossasiga ega.




Masalan, nitrillar kislotali muhitda gidroliz qilinsa amidlar hosil bo'ladi.



Nitrillar karbon kislotalarning boshqa funksional hosilalari kabi kuchsiz C-H kislotalar hisoblanadi, kuchli asoslar ishtirokida tutash karbanion hosil qiladi.



Bunday karbanion karbonil birikmalarga va nitrillarga oson birikadi. Nitrillar odatda katalizatorlar ishtirokida gidridlanib birlamchi aminlarni hosil qiladi.



### ***ASOSIY VAKILLARI VA ISHLATILISHI***


*Atsetonitril* – 81,6°C da qaynaydigan, kuchsiz hidli rangsiz suyuqlik, suv va organik erituvchilarda eriydi. Suv bilan 16 % suv tutuvchi, 76°C da qaynaydigan azeotrop aralashma hosil qiladi.

Atsetonitril sanoatda katalizator ishtirokida sirka kislotasi va ammiak-dan olinadi.

Atsetonitril asosan erituvchi sifatida ishlatiladi.

Akrilonitril – 77°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik, suvda eriydi. Akrilonitril zaharli modda.

Akrilonitril sanoatda katalizator ishtirokida propen, ammiak va kisloroddan olinadi.




Akrilonitril atsetilenden va etilensiangidrinni degidratlab ham olinishi mumkin.

Akrilonitril oson polimerlanib molekulyar massasi 40000÷70000 bo‘lgan poliakrilonitril (PAN) hosil qiladi.

PAN sintetik tola olish uchun ishlatiladi.


Akrilonitril va butadiyenni sopolimerlanishidan butadiyennitril kauchuk olinadi.

Akrilonitril turli xil organik sintezlarda, masalan, sianetillash reaksiyasida boshlang‘ich modda hisoblanadi.



## 11.7. IZOSIANIDLAR


Izosianidlari yoki izonitrillari nitrillarning izomerlari hisoblanadi. Ularni nomlash nitrillarni nomlash kabidir. Masalan,



Izosianidlari rasman karbon kislotalarning hosilalari hisoblanadi.


## OLINISH USULLARI

1. Sianidlarni alkillash. Kumush sianid galogenalkanlar bilan alkillanganda nitrilllar bilan birga izosianidlari ham hosil bo‘ladi.



Ushbu reaksiyada nitril-ionni ambident xarakteri namoyon bo'ldi.

2. Birlamchi aminlarni dixlorkarben bilan reaksiyasi. Birlamchi aminlar xloroform va ishqor bilan ta'sirlashib izosianidlarni hosil qiladi.




Ushbu reaksiya birlamchi aminlarni hidrobo'yicha sifat jihatdan aniqlashda qo'llanilishi mumkin. Ushbu reaksiya izonitril reaksiyasi deb ataladi. Bu reaksiya birinchi marta 1868-yilda A.Gofman tomonidan o'r ganilgan.

### **FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI VA QO'LLANILISHI**




Izosianidlar yoqimsiz hidli, rangsiz zaharli moddalardir.

Izosianidlarning molekulalarida qutbli uchbog' mavjud, azot atomi to'rtta bog' tutadi, uglerod atomi esa bir just taqsimlanmagan elektronga ega. Izosianid guruh tuzilishi jihatidan is gaziga o'xshaydi. Izosianidlar nukleofil reagentlar qatoriga kiradi.

Izosianidlar elektrofil reagentlar bilan uglerod atomi bo'yicha reaksiyaga kirishadi. So'ng keyingi reaksiyalar kuzatiladi. Masalan, kislotali muhitda izosianidlar gidrolizlanib formamidlar hosil qiladi.






Izosianidlar oksidlanganda izosianatlar, gidridlanganda ikkilamchi aminlar hosil bo'ladi.



Izosianidlar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lganliklari uchun organik sintezda ishlataladi.

## 12-BOB. NITROALKANLAR

Alkanlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini nitro guruhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan moddalar nitroalkanlar deb ataladilar. Nitroalkanlarni nomlash uchun tegishli alkan nomiga *nitro-* old qo'shimchasi qo'shiladi. Uglevodorod zanjiri agar boshqa kattaroq guruh, karrali bog'lar mayjud bo'lmasa, uglerod atomlari nitroguruh yaqin turgan tomonidan raqamlanadi. Uglevodorod zanjiridagi o'rinnbosarlar, galogen atomlari, alkil guruhlar va nitroguruh birikma nomida o'zakdan oldin alisbo tartibida joylashtiriladi. Uglerod zanjiri o'rinnbosar yaqin turgan tomonidan raqamlanadi.



2-nitrobutan


2-metil-3-nitrobutan

3-metil-1-nitro-2 xlorbutan

Nitroalkanlar alkanlarni to'g'ridan to'g'ri nitrolab, noorganik nitrit-larni alkillab, ba'zan nitrozo- yoki aminobirkimalarni oksidlاب olinadi.

Alkanlarni to'g'ridan to'g'ri nitrolash yuqori temperaturada, suyuq yoki gaz fazasidan suyultirilgan nitrat kislota yoki azot oksidlari ta'sirida olib boriladi.


Alkanlarni suyuq fazada nitrolash reaksiyasi birinchi marta M.Konovalov tomonidan o'tkazilgan. Reaksiya alkanlarni 10–25 % li nitrat kislota bilan kavsharlangan ampulada 140–150 °C da qizdirish bilan olib borilgan (1899).




Yonaki mahsulotlar sifatida ketonlar, karbon kislotalar hosil bo'ladi.

Alkanlarni gaz fazasida nitrolash X.Gess tomonidan amalga oshirilgan (1930). Alkan va nitrat kislotasining bug'lari maxsus reaktorlarda

0,2–2 sekund davomida 420–480°C gacha qizdiriladi va tezda sovitiladi. Metandan nitrometan hosil bo‘ladi. Etan, propan yoki butanlar nitrolanganda uglerod-uglerod bog‘lari uziladi va nitroalkanlar aralashmasi hosil bo‘ladi. Aralashma haydash yo‘li bilan ajratiladi.



To‘g‘ridan to‘g‘ri nitrolash reaksiyasi erkin radikal mexanizm bo‘yicha boradi. Erkin radikallar nitrat kislotasining termik parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi.




Kumush nitrit galogenalkanlar bilan alkillanganda nitroalkanlar va alkilnitritlar aralashmasi hosil bo‘ladi (V. Meyer, 1872).




Boshqa nitritlarni ham tegishli erituvchi tanlab alkillash mumkin. Buning uchun bipolyar aproton erituvchilardan, masalan, dimetilsulfoksid va dimetilformamiddan soydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu erituvchilar kationlarni kuchli solvatlaganligi uchun nitrit-ion faollanadi.

Nitrit-ion ikki tomonlama reaksiyon qobiliyatga ega zarracha hisoblanadi (ikkita reaksiyon markazli ambident anion).



Nitroalkanlar rangsiz yoki sarg‘ish tusli suyuq yoki kristall moddalaridir. Mononitroalkanlar katta dipol momentiga ega ( $10,5 \cdot 10^{-30}$ ...  $12,6 \cdot 10^{-30}$  KJ/m, yoki 3,15-3,7 D). Bunga sabab nitroguruhning qutblanganligidir. Nitroguruh semipolyar bog‘ tutadi:



Semipolyar bog'da atomlar orasida ikkinchi bog'lovchi orbital hosil bo'lishi mumkin emas, chunki azot atomi tegishli to'Imagan orbitalga ega emas. Sulfoksidlar, sulfon kislotalaridagi oltingugurt-kislorod bog'ining azot-kislorod bog'idan asosiy farqi ham aynan shunda, ya'ni oltingugurt to'Imagan  $d$ -orbitallarga ega.

Nitroguruh oddiy bog'langan  $\pi$ -elektronli sistema hisoblanadi. Undagi azot atomi -N<sup>+</sup> birinchi kislorod atomi kabi sp<sup>2</sup> gibridlangan holatda, ikkinchi kislorod atomi esa taqsimilanmagan elektron jufti bilan qatnashadi. Shunday qilib 4 ta  $\pi$  elektronli sistema hosil bo'ladi. Ikkala azot-kislorod bog'lari tenglashadi va kislorod atomlari bir xil bo'lib qoladi. Nitroguruhdagi N-O bog'ining uzunligi (0,122 nm) gidroksilamindagiga (0,136 nm) qaraganda qisqaroq, nitrozoguruhdagiga qaraganda esa uzunroq bo'ladi (0,115 nm).


Nitroguruhdagi atomlarning elektronga moyilligi ancha kuchli bo'lib, elektronoakseptor ta'sirga va -I va -M effektlarga ega.

### KIMYOVİY XOS SALARI


Nitroalkanlarning kimyoviy reaksiyalari ikki qismga bo'linadi:

1. Nitroguruh bo'yicha boradigan reaksiyalar;
2.  $\alpha$ -uglerod atomi bo'yicha boradigan reaksiyalar.


Qaytaruvchilar ta'sirida yoki elektrolitik yacheyskaning katodida nitroalkanlar qaytariladi. Ushbu jarayon bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda elektron birikadi va metastabil anion-radikal hosil bo'ladi. Keyin dianion hosil bo'lishi bilan ikkinchi elektron birikadi.



Dianion protonlansa nitrozobirimaga aylanadi:



Ba'zi holatlarda nitrozobirikma izomerlanib oksimga aylanadi:



Nitrozoalkanlar qaytarilish jarayonida alkiligidroksilaminlarga, keyin alkilaminlarga aylanadi:



Birlamchi nitroalkanlar 80–95 % li sulfat kislotasida karbon kislotasi va gidroksilamin tuziga aylanadi:




Shu yo'l bilan sanoatda nitrometandan yoki 1,2-dinitroetandan gidroksilamin olinadi.

Ikkilamchi nitroalkanlardan esa oksimlar hosil bo'ladi:




Birlamchi va ikkilamchi nitroalkanlar CH-kislotalar hisoblanadi:



Nitroalkanlarning kislotaliligi fenollarning kislotaliligiga yaqin keladi. Agar bitta uglerod atomida ikkita yoki uchta nitroguruh bo'lsa kislotaxossasi keskin ortadi.

Nitroalkan anioni yenolyat-ion kabi ambident ion hisoblanadi. Masalan, protonlanganda nitroalkandan tashqari uning tautomer shakli ham hosil bo'ladi:




Nitron kislotasi

Nitroalkanning tautomer shaklini *atsi-nitro* shakl yoki *nitron kislotasi* deyiladi. Ushbu birikma toza holatda ajratib olinmagan. Nitron kislotasi o'rtacha kuchli kislotadir ( $\text{pK}_a = 3,2$ ).


Nitroalkanlarning tuzlari kristall holatda ajratib olinishi mumkin. Ular kuchli qizdirilganda, hatto portlash bilan parchalanadi.

Nitron kislotalari kislotali muhitda gidrolizlanib karbonil birikmaga va  $\text{N}_2\text{O}$  ga parchalanadi (Nef reaksiyasi, 1894).




Birlamchi nitroalkanlardan aldeigidlar, ikkilamchilaridan ketonlar hosil bo'ladi.

Nitroalkanlarning elektrofil reagentlar bilan asoslar ishtirokidagi reaksiyalari. Mazkur reaksiyalarda nitroalkan anioni (nitronat-ion) nukleofil zarracha hisoblanadi. Masalan, galogenlash reaksiyasi oson boradi:




( $\text{X} = \text{Cl}, \text{Br}, \text{I}$ )

Nitrozolanganda nitrozonitroalkanlar hosil bo'ladi:




Alkillash natijasida biroz O-alkil birikma aralashgan (nitron kislota efiri) C-alkil birikmalar hosil bo'ladi. Sharoitni tanlab nitron kislotasi efirlarining unumini oshirish mumkin:




Nitron kislotasining efirlari reaksiyon qobiliyati yuqori bo'lgan birikmalardir.

Nitroalkanlar aldegidlar va ketonlar bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya natijasida nitroalkanollar yoki boshqa nitrogidroksil birikmalar hosil bo'ladi. Ba'zi holatlarda ikki molekula nitroalkan reaksiyaga kirishadi va dinitroalkanlar hosil bo'ladi.



Reaksiya aldol kondensatsiyasi kabi boradi.

Formaldegid bilan reaksiyada diol yoki triol hosil bo'ladi.



2-nitro-2-gidroksi-metilpropandiol-1,3

### ***MUHIM VAKILLARI***

*Nitrometan* – rangsiz suyuqlik. Suvda kam eriydi. Zaharli. Sanoatda propanni nitrolab olinadi.

Sanoatda erituvchi sifatida, asosan polimerlarni eritishda, organik sintezda, hamda reaktiv dvigatellarning yoqilg'isi ishlataladi.

*Nitrosiklogeksan* – rangsiz suyuqlik, suvda erimaydi. Siklogeksanni nitrat kislota bilan nitrolab olinadi. Kaprolaktam olishda boshlang'ich modda sifatida ishlatiladi.

*Trixlornitrometan* xlorpikrin deb atalib, o'tkir hidli rangsiz suyuqlik bo'lib, suvda erimaydi. Nitrometanni yoki pikrin kislotasini xlorlab olinadi.

Xlorpikrin – kuchli lakrimator, ko'p miqdorda bo'lganda bo'g'uvchi ta'sir etadi. Dezinfeksiyada va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda qo'llaniladi.


## 13-BOB. AMINOBIRIKMALAR

Uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini aminoguruhgaga almashinishi natijasida hosil bo'lgan moddalardir. Aminlar ammiakning almashingan hosilalari sifatida qaraladi. Almashingan ammoniy tuzlari esa o'z navbatida ammoniy ioni hosilalari hisoblanadi.


Ammiakning yoki ammoniy ionining almashinish darajasiga ko'ra aminlar ammoniy tuzlari quyidagicha sinflanadi:

$R-\text{NH}_2$	Birlamchi aminlar	$\left[ R-\overset{+}{\text{NH}_3} \right] X^-$	Birlamchi ammoniy tuzlari
$R^1-\overset{\text{NH}}{\underset{R}{\text{--}}}$	Ikkilamchi aminlar	$\left[ R^1-\overset{+}{\underset{R}{\text{NH}_2}} \right] X^-$	Ikkilamchi ammoniy tuzlari
$R^1-\overset{\text{H}}{\underset{R}{\text{N}}}=\text{R}^2$	Uchlamchi aminlar	$\left[ \begin{array}{c} \text{H} \\   \\ R^1-\overset{+}{\underset{R}{\text{N}}}=\text{R}^2 \end{array} \right] X^-$	Uchlamchi ammoniy tuzlari
		$\left[ \begin{array}{c} R^2 \\   \\ R^1-\overset{+}{\underset{R}{\text{N}}}=\text{R}^3 \\   \\ R \end{array} \right] X^-$	To'rtlamchi ammoniy tuzlari


Aminlarning nomenklaturasi uglevodorod yoki uglevodorodlarning qoldiqlari nomiga «amin» qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi. Agar azot atomiga har uglevodorodlarning qoldiqlari birikkan bo'lsa azot atomiga birikkan eng uzun uglerod zanjiri asos qilib olinadi.  $-\text{NH}_2$  guruh *aminoguruh*,  $-\text{NHR}$  guruh *alkilaminoguruh*,  $-\text{NR}_2$  guruh *dialkilaminoguruh* deb yuritiladi, lekin aminning nomini keltirib chiqarishda bu ifodalar faqat murakkab strukturalardagina qo'llaniladi.



metilamin




dimetilamin




trimetilamin



N-metilpropanamin





Geksanamin-3




N,N-dimetilpentanamin-2


Diaminlarning nomlari uglevodorodning ikki valentli qoldig'i nomiga yoki to'yangan uglevodorod nomiga *-diamin* qo'shimchasi qo'shib bilan keltirib chiqariladi:

etilendiamin  
etandiamingeksandiamin-1,6  
geksametilendiamin

Ammoniy tuzlari aminning nomiga *-oniy* yoki *-iniy* qo'shimchasi qo'shib nomlanadi. Masalan:



etilammoniy xlorid







trimetilammoniy bromid

### 13.1. ALKILAMINLAR


Alkilaminlar ammiak va aminlarning alkillash, ayrim azotli organik birikmalarini qaytarish, hamda bir qator maxsus metodlar yordamida olinadi.

**Ammiak va aminlarni alkillash.** Ammiakka galogenalkanlar, alkil-yoki dialkilsulfatlar va boshqa alkillovchi reagentlar ta'sir ettirilsa ammoniy tuzlari va aminlar hosil bo'ladi. Reaksiya 1850-yilda A.Gofman tomonidan ochilgan. Reaksiyaning birinchi bosqichida alkilammoniy tuzlari hosil bo'lib, ular teng qiymatli reaksiyada ammiak bilan ta'sirlashadi va alkilaminlar hosil qiladi. Shunday qilib bosqichma-bosqich trialkil- va tetraalkilammoniy tuzlari hosil bo'ladi:




Mo'l miqdorda ammiak olinganda asosan birlamchi amin hosil bo'ladi. Tetraalkilammoniy tuzlarini olish uchun uchlasmchi aminlarni alkillash maqsadga muvosiqdir.



Alkillash uchun alkanollar, dialkil yoki siklik esirlar olinishi mumkin. Bunda katalizator sifatida  $\text{Al}_2\text{O}_3$ -dan foydalaniladi:




Shunday usul bilan siklik aminlarni ham olish mumkin:




Epoksidlar juda aktiv alkillovchi reagentlar hisoblanadi:







Shuningdek ichkimolekulyar alkillanish reaksiyalari ham mavjud. Masalan, etanolamindan etilenimin hosil bo'ladi. Dastlab konsentrangan sulfat kislota ta'sirida aminoetilsulfat tuzi hosil bo'ladi. Unga ishqor ta'sir ettirilsa 2-aminoetilsulfonat sikllanadi:



Etanolamin suyultirilgan kislotalar bilan qizdirilganda piperazin hosil bo'ladi.



**Qaytarish reaksiyalari.** C-N, N-O, N=O, N-N, N=N, N≡N bog'lar tutuvchi, shuningdek, C=N, C≡N bog'lar tutuvchi azotli organik birikmalar oksidlanganda aminobirikmalar hosil bo'lishi mumkin. Masalan, nitrobirikmalar, oksimlar, nitrillar, izosianidlar va h.k.



**Maxsus metodlar.** Alkilaminlar olish uchun ko'plab maxsus metodlar ishlab chiqilgan. Masalan, sof alkilaminlar karbon kislotalarning amidlarini ishqoriy muhitda galogenlar bilan parchalab olish reaksiyasi A.Gofman tomonidan taklif etilgan.

Birlamchi aminlar stalinidni alkillash va parchalashda ham hosil bo'ladi.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Alkilaminlar odatdag'i sharoitlarda ammiak hidini eslatuvchi hidli rangsiz gazsimon yoki suyuq moddalaridir. Suyultirilgan eritmalarining hidi baliq hidiga o'xshaydi. Katta molekulyar massali aminlar kristall moddalar bo'lishi ham mumkin.

Aminlar suvda yaxshi eriydi. Molekulada uglerod atomlarining soni ortishi bilan eruvchanlik kamayib boradi.

Molekulyar massalari bir-biriga yaqin bo'lgan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarning suyuqlanish va qaynash temperaturalari taqqoslanganda ma'lum qonuniyatni ko'rish mumkin. Uchlamchi aminlarning mazkur temperaturalari bir xil molekulyar massali ikkilamchi va birlamchi aminlarga qaraganda past. Bu molekulalararo vodorod bog'lar hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Lekin bu vodorod bog'lar alkanollardagi vodorod bog'lardan kuchsizroq, chunki azot-vodorod bog'i kislorod-vodorod bog'iga qaraganda kamroq qutblangan.

27-jadval

### Ayrim alkilaminlarning fizik konstantalari

Birikma	$T_S$ °C	$T_Q$ °C	$d_4$	$\mu$	
				$\times 10^{-30}$ Kl • m	D
$\text{CH}_3\text{NH}_2$	-92.5	-6.5	0.769 (-70°C)	4.9	1.46
$(\text{CH}_3)_2\text{NH}$	-96.0	7.4	0.680 (0°C)	3.9	1.17
$(\text{CH}_3)_3\text{N}$	-124.0	3.5	0.662 (-5°C)	2.9	0.86
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{NH}_2$	-80.6	16.6	0.706 (0°C)	4.3	1.3
$(\text{CH}_3\text{CH}_2)_2\text{NH}$	-50.0	55.5	0.706 (20°C)	4.0	1.2
$(\text{CH}_3\text{CH}_2)_3\text{N}$	-114.8	89.5	0.723 (25°C)	3.0	0.9
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$	-83.0	98.7	0.719 (20°C)	4.3	1.3
$(\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2)_2\text{NH}$	-39.6	110.7	0.738 (20°C)	3.7	1.1
$(\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2)_3\text{N}$	-93.5	156.0	0.757 (25°C)	2.5	0.75

Alkilaminlar alkanollarga qaraganda kamroq qutblangan. C-N bog'ining dipol momenti ( $\approx 1.5 \times 10^{-30}$  KJ • m yoki 0.45 D) N-H bog'ining dipol momentidan ( $\approx 4.3 \times 10^{-30}$  KJ • m yoki 1.3 D) kichik.

Ammiakdagi kabi aminlarda azot atomi kislorod atomidagi taqsimlanmagan elektron justflaridan harakatchanroq taqsimlanmagan elektron justiga ega, chunki azot atomining yadro zaryadi va elektromanfiyligi kichikroq.

Elektronodonor xossalari ionlanish energiyalari bilan tavsiflanishi mumkin.  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{NH}_2$ ,  $(\text{CH}_3\text{CH}_2)_2\text{NH}$ ,  $(\text{CH}_3\text{CH}_2)_3\text{N}$  lar uchun ionlanish energiyasi 8.9, 8.0 va 7.5 eV ga teng. Bu ko'satkichlar tegishli alkanollar va efirlarga qaraganda 1.6-1.7 eV ga kam. Nisbatan kam ionlanish energiyalari shuni ko'satadiki, alkilaminlar, ayniqsa uchlamchi aminlar kuchli elektronodonorlardir va oson oksidlanadi.

Aminlar ammiak kabi piramidasimon molekula hosil qiladi. Azot atomi piramidaning uchida joylashadi.  $\text{RNR}'$ ,  $\text{RNR}^2$  va  $\text{RNR}^2$  bog'lari orasidagi burchak o'rtacha  $106\text{-}107^\circ$  ga teng, ya'ni tetraedrik shaklga yaqin keladi (quyidagi rasm):




Azot atomining elektron orbitallari  $\text{sp}^3$ -gibrildanish holatidagi uglerod atomi kabi gibrildangan deb hisoblash mumkin. Shuning uchun azot atomidagi taqsimlanmagan elektronlar justi  $\text{sp}^3$ -tipida fazoviy yo'nalgan orbitalni egallaydi. C-N bog'ining uzunligi 0.145 nm va N-H bog'ining uzunligi 0.1 nm ni tashkil qiladi.

Har xil o'rribosarlar tutuvchi azot atomi asimmetrik bo'lib qoladi, shuning uchun ikkita enantiomer (oyna izomeri) mavjud bo'lishi mumkin, bunda to'rtinchi o'rribosar o'rnidagi taqsimlanmagan elektron justi bo'ladi. Lekin bunday konfiguratsiya o'zgaruvchan bo'lib bitta konfiguratsiya tezda *inversiya* yo'li bilan ikkinchisiga o'zgaradi.

Ammiak molekulasida inversiya juda tez, sekundiga taxminan  $10^9$  marta sodir bo'ladi. Alkiliminlarda inversiya tezligi kamayadi, ya'ni energetik baryer ortadi. Lekin o'tish tez boradi va optik aktiv enantiomerkarni ajratib olish mumkin emas. Faqat ma'lum strukturali aminlar, masalan, etileniminning ayrim hosilalarini ikkala enantiomerini ajratib olish mumkin.



To'rtlamchi ammoniy tuzlari stereokimyoviy jihatdan uglerod birikmalarining to'la analoglari hisoblanadi, ya'ni barqaror optik aktiv enantiomerlar hosil qilishi mumkin.



Aminlarning elektron spektrlarida yutilish faqat 195–215 nm ( $\epsilon=1500\ldots4000$ ) li uzoq UB sohada kuzatiladi. Bu yutilish taqsimlanmagan elektron justining qo'zg'alishi bilan bog'liq ( $n \rightarrow \sigma^*$  o'tish).



Birlamichi va ikkilamchi aminlarning IQ spektrlarida 3200–3500  $\text{cm}^{-1}$  sohada N-H bog'larining valent tebranishlari uchun xarakterli yutilish kuzatiladi. Assotsiyalanmagan aminlarning yutilishi uglevodorodlardagi suyultirilgan eritmalarda kuzatiladi: birlamchi aminlar  $\sim 3500 \text{ cm}^{-1}$  va  $\sim 3400 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda ikkita yutilish chizig'i bilan, ikkilamchi aminlar  $3310\ldots3350 \text{ cm}^{-1}$  sohada bitta chiziq bilan xarakterlanadi. Molekulalararo vodorod bog'lar hosil bo'lishi yutilish maksimumi to'lqin sonini kamaytiradi. Ammoniy tuzlari  $3030\ldots3300 \text{ cm}^{-1}$  da yutadi.

PMR spektrlarda N-H bog'ining kimyoviy siljishi 0.5–3 m.u. sohada kuzatiladi va konsentratsiya, erituvchi va temperaturaga bog'liq ravishda o'zgaradi.

### KIMYOVİY XOSSALARI


Aminlarning kimyoviy reaksiyalari asosan azot atomidagi taqsimlanmagan elektronlar justi bilan bog'liq. N-H va C-H bog'larining nukleofil reagentlar bilan reaksiyalari kamroq kuzatiladi.  $\text{N}^+-\text{C}$  qutbli bog' tutuvchi ammoniy birikmalarining reaksiyalari o'ziga xos ahamiyatga ega.

**Asosliligi.** Alkilaminlar va ularning analoglari,  $\text{C}(\text{sp}^3)-\text{N}$  bog'i tutuvchi aminlar kuchli asoslar bo'lib, proton va Luis kislotalarini oson biriktiradi. Asos xossalari suvli eritmalardayoq bilina boshlaydi.



Asoslilikni tavsiflash uchun ammoniy ionlarining  $pK_{BH^+} = \lg K_{BH^+}$  birliklarida kislotalilik konstantasi  $K_{BH^+}$  dan foydalaniladi.


Ammiakdan farqli o'laroq barcha alkilaminlar va ularning analoglari nisbatan kuchli asoslar hisoblanadi (etilenimindan tashqari). Ikkilamchi aminlarning asos xossalari birlamchi aminlarning asos xossalariiga qaraganda kuchliroq. Uchlamchi aminlar yanada kuchliroq asoslar bo'lishi kerak edi. Lekin suvli eritmalarda spetsifik solvatlanish natijasida bunday bo'lmaydi. Suvsiz muhitda esa uchlamchi aminlar eng kuchli asos xossalarni namoyon qiladi.

Birikma	$pK_{BH^+} (H_2O)$	Birikma	$pK_{BH^+} (H_2O)$
NH <sub>3</sub>	9.25	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> NH <sub>2</sub>	10.5
CH <sub>3</sub> NH <sub>2</sub>	10.6	(C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> ) <sub>2</sub> NH	11.0
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> NH	10.7	(C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> ) <sub>3</sub> N	10.8
(CH <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> N	9.8		11.3

Ikkilamchi va uchlamchi aminlar eng kuchli organik neytral aminlar bo'lib organik sintezda asos katalizatorlar sifatida keng qo'llaniladi.

**Har xil elektrofil reagentlar bilan boradigan reaksiyalar.** Aminlar kuchli nukleofillar sifatida turli xil elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashadi.


Aminlar ammiak kabi har xil metallarning ionlari bilan ta'sirlashadi va donor-akseptor komplekslar hosil qiladi. Bu komplekslarda aminlar elektronodonor (ikkita elektronli ligand) sifatida ishtirok etadi:




Umuman olganda asoslik va nukleofillik bir-biriga unchalik bog'liq etmas. Asos xossasi kuchli aminlар doimo kuchli nukleofil bo'lavermaydi. Asoslik amin va ammoniy ionи o'rtasidagi termodinamik muvozanatni xarakterlaydi, nukleofillik esa ko'proq kinetik xossalarni, reaksiya tezligini xarakterlaydi va substrat tipiga bog'liq (reaksiya qaysi atomda boradi, reaksiyaga qanday fazoviy omillar xalaqit beradi).

Aminlarning reaksiyalari ko'rildganda birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlар orasidagi tafovutlarga e'tibor berish kerak. Birlamchi va ikkilamchi aminlarning elektrofil reagentlar bilan o'zaro ta'siri natijasida aksariyat holatlarda proton ajraladi, ya'ni azot atomida ulmashinish reaksiyasi boradi. Uchlamchi aminlarda esa azot atomi bilan mustahkam kovalent bog' hosil bo'ladi va azot atomida musbat zaryadi paydo bo'ladi.


A) Aminlarning C-elektrofillar bilan reaksiyasi. Bunday reaksiyalarga aminlarning galogenalkanlar, noorganik va elementorganik kislotalarning esirlari bilan alkillash reaksiyalari kiradi.




Karbonil birikmalar va karbon kislotalarining hosilaлari bilan horadigan reaksiyalar ham muhim ahamiyatga ega.



Aminlar karbenlar ta'sirlashib har xil mahsulotlar hosil qiladi. Reaksiya  $N^+-C$  semipolyar bog' hosil bo'lishi bilan boshlanadi, keyin protonni ko'chishi sodir bo'ladi:




Xloroformdan ishqor ta'sirida hosil bo'ladigan dixlorkarben ( $R^1=R^2=Cl$ ) bilan boradigan o'zaro ta'sir natijasida o'ziga xos keyingi reaksiya boradi, bunda qo'lansa hidli zaharli birikmalar – izosianidlar (izonitrillar) hosil bo'ladi.




B) Aminlarning N-elektrofillar bilan reaksiyasi. Bunday reaksiyalar N-N bog' tutuvchi birikmalar olish uchun qo'llaniladi. Aminlarning nitrozolash reaksiyasi kislotali muhitda nitrit kislota ta'sirida olib boriladi. Nitrozolovchi reagent nitrozilhosila-  $O=N^{\delta+}-X^{\delta-}$  ( $X=Cl, Br, HOSO_3, ONO$ ) hisoblanadi. Erkin nitrozoniy kationi  $[NO]^+ X^-$  hosil bo'lishi mumkin deb hisoblanadi.

Birlamchi aminlar nitrozolanganda diazoniy kationi hosil bo'lib, u o'z navbatida azot ajralib chiqishi bilan parchalanadi.



Reaksiyada R-X tipidagi birikmalar (agar  $X=Cl, Br$  bo'lsa) va alkenlar ham hosil bo'ladi.


Ikkilamchi aminlar N-nitrozoaminlar hosil qiladi:




Uchlamchi aminlar birikish mahsulotlari hosil qilishi mumkin:




Aminlar nitroniy tuzlari, masalan, nitroniy tetraftorborat bilan nitrolanish reaksiyasiga kirisha oladi. Bunda N-nitroaminlar hosil bo'ladi:




D) Aminlarning O-elektrofillar bilan reaksiyasi. Bunday reaksiyalar odatda oksidlanish reaksiyalari deyiladi. Oksidlovchi sifatida vodorod peroksid va organik peroksidlar qo'llaniladi. Yumshoq sharoitlarda oksidlash reaksiyalarining birlamchi mahsulotlari sifatida aminlarning N-oksidlari hosil bo'ladi. Birlamchi va ikkilamchi aminlarning reaksiyalarida hosil bo'lgan N-oksidlар гидроксиламин hosilalariga qayta gruppalanadi:



N-oksidlarning DMFA yoki DMSO dagi eritmalari qizdirilganda alkenlar hosil bo'ladi.




Yanada qattiqroq sharoitlarda oksidlanganda erkin radikal reaksiyalar borishi mumkin. Keyin uglevodorod qoldig'idan proton ajraladi va iminning C=N bog'i hosil bo'ladi:



Umuman olganda alkilaminlar va ularning analoglarini oksidlab karbonil birikmalar va karbon kislotalar olish mumkin.


E) Galogenlar bilan boradigan reaksiyalar. Aminlar galogenlar bilan donor-akseptor komplekslar hosil qilib, bunday komplekslar tegishli N-galogenaminlarga aylanadi.



Ftor juda faol bo'lganligi uchun N-floraminlar maxsus usullar bilan olinadi. N-xlor-, N-brom- va N-iodaminlar juda beqaror birikmalar hisoblanadi.


Aminlarning S-elektrofillar bilan reaksiyasi. Bunday reaksiyalarda N-S bog' tutuvchi birikmalar hosil bo'ladi. Bunda asosan aminlarning  $\text{SO}_3$  va sulfonilxloridlar bilan reaksiyalarini keltirish mumkin.

Aminlar  $\text{SO}_3$  bilan donor-akseptor komplekslari hosil qiladi. Birlamchi va ikkilamchi aminlarning komplekslari N-sulfon kislotalariga aylanadi.




Aminlar sulfonilxloridlar bilan sulfonamidlar hosil qiladi.

**N-H bog'ining ionlanishi.** Birlamchi, ikkilamchi alkilaminlar va ularning analoglari juda kuchsiz NH-kislotalar hisoblanadi, r $K \approx 33...35$  ga teng. Faqat metallorganik birikmalar bilan ta'sirlashgandagina N-H bog' qutblanishi va alkilamidlar dialkilamidlarning hosilalari hosil bo'lishi mumkin.




Metallarning almashingan amidlari – kuchli asoslardir. Nukloyesfil hujum uchun fazoviy noqulay bo'lganligi uchun (masalan, litiy diizopropilamid) ular kuchli asos, lekin kuchsiz nukleofillar hisoblanadi. Bunday birikmalar organik sintezda protonni ajratib olish va karbanion hosil qilish uchun ishlatiladi.

**To'rtlamchi ammoniyli tuzlarining o'ziga xos reaksiyon qobiliyati.** Bunday tuzlar rangsiz kristall moddalar bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Tetraalkilammoniy gidroksidlarini galogenidlari Ag<sub>2</sub>O, yoki sulfatlariga Ba(OH)<sub>2</sub> ta'sir ettirib, yoki eritmani ion almashinish smolasi (anionit) bilan to'ldirilgan kolonka orqali o'tkazib olish mumkin.




Tetraalkilammoniy gidroksidlar suvli eritmalarda to'la ionlanadi va o'yuvchi natriyi va o'yuvchi kaliy kabi kuchli asoslar hisoblanadi. Ayrim

to'rtlamchi ammoniy hidroksidlar kristall holda, odatda hidrat shaklida olinishi mumkin. Suvli eritmalari qaynatilganda trialkilamin, alkanol va alkenga parchalanadi.




Alkenlar uzun va tarmoqlangan o'rinnbosarlar tutuvchi tetraalkilammoniy tuzlaridan oson hosil bo'ladi.



Bu reaksiyani A.Gofman 1881-yilda kashf qilgan va o'rgangan. Reaksiya bimolekulyar parchalanish  $E_N^2$  bo'lib, galogenalkanlarning ayrim reaksiyalariga o'xshaydi. Mazkur holatda elektron tortuvchi o'rinnbosar vazifasini trialkilammoniy guruhi bajaradi.

Agar parchalanish reaksiyasida ikkita har xil alken hosil bo'lsa, Zaysev qoidasiga aksincha kam almashigan alken hosil bo'ladi (*Gofman qoidasi*). Masalan, ikkilamchi-butiltrimetilammoniy hidroksid parchalanganda asosan buten-1 hosil bo'ladi.



Tetrametilammoniy hidroksid eng barqaror hisoblanadi. Suvli eritmalari  $250^\circ\text{C}$  dan yuqori temperaturada qizdirilganda trimetilamin va metanolga parchalanadi.



Ayrim tetraalkilammoniy hidroksidlar kuchli asoslar bo'lib, organik erituvchilarda eriganligi uchun organik reaksiyalarda katalizator sifatida, suvsiz titrashda analitik reagent sifatida ishlataladi.

Bitta yoki bir nechta uzun zanjirli uglevodorod o'rinnbosarlari ( $\text{C}_4$ - $\text{C}_{12}$ ) tutuvchi tetraalkilammoniy tuzlari muhim ahamiyatga ega. Ular sirt aktiv xossalarga ega va organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Shuning uchun fazalararo katalizatorlar, ya'ni bir reagentni qattiq yoki suvli fazadan organik fazaga o'tkazish uchun, masalan, karbanionlar va karbenlarni hosil qilish uchun ishlataladi.

## **MUHIM VAKILLARI**

**Metilamin** – o'tkir, ammiak hidli rangsiz gaz, kuchli suyultirilganda tuzlangan baliq hidi keladi. Suvda yaxshi eriydi, to'yingan eritmasi 35–40 % metilamin tutadi. Metilammoniy xlorid 225°C da suyuqlanadigan rangsiz kristallar hosil qiladi.


Metilamin sanoatda vodorod sianidni katalitik gidridlab yoki yuqori temperaturada katalizator ishtirokida metanolga ammiak ta'sir ettirib olinadi.



Metilamin organik sintezda dorivor moddalar, bo'yoqlar va sirtaktiv moddalar olish uchun ishlatiladi.

**Trietilamin** – o'ziga xos hidli rangsiz suyuq modda. Sanoatda ammiakni etanol bilan katalizator ishtirokida alkillab olinadi. Trietilamin organik sintezda boshlang'ich modda, erituvchi va asos katalizatori sifatida ishlatiladi.

**Etilendiamin** – ammiak hidiga ega bo'lgan rangsiz suyuqlik, 8,5°C da suyuqlanadi, 117°C da qaynaydi, suvda yaxshi eriydi. Dixloretan va ammiakdan olinadi:




Etilendiamin analitik reagentlar – kompleksyonlar va fungitsidlar sintezida boshlang'ich modda sifatida ishlatiladi. Etilendiamininning yuqori yog' kislotalari bilan hosil qilgan tuzlari to'qimachilik sanoatida yumshatuvchi vositalar sifatida ishlatiladi.

## **14-BOB. METALLORGANIK BIRIKMALAR**

*Metallorganik birikmalar* deb uglerod-metall bog'i tutuvchi organik birikmalarga aytildi. Bunday birikmalar tarkibida davriy sistemaning birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi guruh metallari va o'zgaruvchan valentli metallarning vakillari bo'lishi mumkin.

### **14.1. BIRINCHI GURUH METALLARINING BIRIKMALARI**


Metallorganik birikmalarning nomlari uglevodorod qoldig'i va metall nomlaridan hosil qilinadi. Birinchi guruh metallarining organik birikmalariga asosan litiy-, natriy- va misorganik birikmalar kiradi.



#### **1. LITIYORGANIK BIRIKMALAR**

##### ***OLINISH USULLARI***

Litiyorganik birikmalar metall ionlarini solvatlaydigan erituvchi (masalan, TGF, dietil efiri) muhitida litiy metalini galogenuglevodorodlar bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi. Reaksiya inert atmosferada (azot, argon) olib boriladi.



##### ***FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI***

Litiyorganik birikmalar organik erituvchilarda eriydigan toza holatda rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir.


Toza holatda va konsentrangan eritmalarda litiyorganik birikmalar dimerlar, tetramerlar, geksameler shaklida mavjud bo'ladi. Assotsiat-

larning hosil bo'lishiga sabab ko'pmarkazli molekulyar orbitallarning hosil bo'lishidir, chunki uglerod-litiy bog'i kuchli qutblangan va ion bog' tabiatiga ega,  $\text{Li}^+$  ioni esa to'limgan orbitalga ega.


### KIMYOVIY XOSSALARI

Litiyorganik birikmalar toza holatda ajratib olinmaydi va ishlatilmaydi, chunki ular kislorod, karbonat angidrid, suv bilan jadal reakiyaga kirishadi, o'z-o'zidan alangalanib ketishi mumkin.




Litiyorganik birikmalar eritmalardan olinadi va shundayligicha ishlatiladi. Litiyorganik birikmalarning oligomerlari eritmalarda solvatlangan monomerlar bilan muvozanat holatda bo'lishi aniqlangan:



Kuchli solvatlovchi erituvchilarda litiyorganik birikmalarning ionlanishi kuzatiladi va karbanion hosil bo'ladi.




Yuqorida ta'kidlanganidek, uglerod-litiy bog'i kuchli qutblangan. Litiyorganik birikmalarning barcha reaksiyalari ionlanishi va karbanion hosil qilishi mumkin bo'lgan uglerod-litiy bog'inining qutblanishi bilan bog'liq. Litiyorganik birikmalar juda kuchli C-asoslar va C-nukleofillar hisoblanadi. Ular kislotalar va boshqa elektrofillar bilan reakiyaga kirishadi. Litiyorganik birikmalar suv, spirtlar, ammiak, aminlar va boshqa faol vodorod atomini tutuvchi birikmalar bilan oson ta'sirlashadi. Mazkur reaksiyalarda uglevodorod va litiyning tuzi hosil bo'ladi. Masalan,




Har xil elementlarning, jumladan metallarning galogenidlari bilan reaksiyasi natijasida boshqa elementorganik birikmalar hosil bo'ladi. Masalan,

Litiyorganik birikmalarning qutbli karrali bog'larga birikishi muhim ahamiyatga ega.



Ayrim reaksiyalarda kam qutblangan va qutblanmagan uglerod-uglerod qo'shbog'larga birikish ham sodir bo'ladi. Bunday reaksiyalar elektronga moyilligi yuqori bo'lgan tutash sistemalarda kuzatiladi va karbanion mexanizmi bo'yicha polimerlanish reaksiyasiga sabab bo'ladi:



Litiyorganik birikmalar havo kislороди bilan eritmalarda oksidlanganda litiyalkogolyatlar (yoki litiy fenolyatlar) hosil bo'ladi.




Oraliq mahsulotlar sifatida gidroperoksidlarning tuzlari hosil bo'ladi.


Litiyorganik birikmalar organik sintezda oraliq mahsulotlar sifatida ishlataladi. Butillitiy sanoatda butadiyenni polimerlashda initsiator sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, alkenlarni, diyenlarni va alkinlarni stereoregulyar polimerlash uchun ishlataladigan kompleks metallorganik katalizatorlar olishda ham qo'llaniladi.

## 2. NATRIYORGANIK BIRIKMALAR

Natriyorganik birikmalar Vyurs reaksiyasi bo'yicha olinishi mumkin. Toza holdagi natriyorganik birikmalar simoborganik birikmaga natriy metalli ta'sir ettirib olinadi. Masalan,



Natriyorganik birikmalar natriyni atsetilenlar, siklopentadiyen kabi CH-kislota xossasiga ega bo'lgan birikmalar bilan reaksiyasi natijasida ham hosil bo'ladi.






Alkilnatriylar rangsiz, tutash sistemali uglevodorodlarning natriyli birikmalari esa rangli kristall moddalardir. Uglerod-natriy bog'i kuchli qutblangan bo'lib, ion bog' hisoblanadi.

Natriyorganik birikmalar juda faol bo'lib, havodagi suv va kislorod bilan ta'sirlashadi, o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin. Shuning uchun ularning faqat eritmalari ishlatiladi. Ayrim natriyorganik birikmalar polimerlanish reaksiyalarining initsiatorlari sifatida ishlatiladi.

#### **14.2. IKKINCHI GURUH METALLARINING BIRIKMALARI**

Ikkinchi guruh metallarining organik birikmalari ikki xil turli bo'lishi mumkin; 1) bitta uglevodorod qoldig'i tutuvchi va 2) ikkita uglevodorod qoldig'i tutuvchi.




Mazkur birikmalar ichida magniy-, rux- va simoborganik birikmalar yaxshi o'rganilgan.

#### **MAGNIYORGANIK BIRIKMALAR**

##### ***OLINISH USULLARI***

Magniyorganik birikmalar galogenuglevodorodlarga magniy qirindisini ta'sir ettirib olinadi. Reaksiya dietil efir yoki TGF muhitida olib boriladi.



Mazkur reaksiyani 1901-1903-yillarda fransuz kimyogari V.Grinyar ishlab chiqgan, shuning uchun Grinyar reaksiyasi, R-MgX shaklidagi birikmalar esa odatda *Grinyar reaktivlari* deyiladi.


*Viktor Grinyar (1871–1935) – fransuz kimyogari. Magniyorganik birikmalarni kashf qilganligi uchun 1912-yilda P.Sabatye bilan birgalikda Nobel mukofoti laureati bo'lgan.*

Reaksiya metall sirtida boradi, magniy elektronodonor, uglerod-galogen bog'i esa elektronoakseptor sifatida qatnashadi. Erkin radikallar oraliq zarrachalar bo'lishi mumkin.


Ushbu reaksiya birinchi marta magniyorganik birikma eriydigan suvsiz dietil efiri muhitida o'tkazilgan. Keyinchalik, reaksiya uchun boshqa oddiy efirlar, jumladan siklik efirlar va uchlamchi aminlar qo'llanilishi mumkinligi aniqlangan.

### **FIZIK-KIMYOVY XOSSALARI**

Magniyorganik birikmalarning faqat eritmalari ishlataladi. Ular quruq kukan holatda ham olinishi mumkin. Qattiq holatda magniyorganik birikmalar poliassotsiatlar shaklida bo'ladi.



Magniyorganik birikmalar eritmalarda efir yoki boshqa elektro-nodonor molekulalari bilan solvatlangan holatda bo'ladi.



Amalda magniyorganik birikmalar eritmalarda solvatlangan RMgX, R<sub>2</sub>Mg va ularning oligomerlaridan tashkil topgan murakkab aralashmadan iborat.

Birikmaning eritmadi tuzilishidan qat'iy nazar odatda RMgX formuladan foydalaniladi, bu yerda asosiy e'tibor qutblangan uglerod-magniy bog'i va uglerod atomining karbanion shakliga qaratilgan.


Kimyoviy xossallari jihatidan magniyorganik birikmalar litiyorganik birikmalarga o'xshaydi, faqat magniyorganik birikmalarning faolligi kamroq va ular kislorod ta'siriga chidamliroq. Shuning uchun magniyorganik birikmalar odatdagi sharoitlarda, inert gaz ishtirotkisiz ishlatalishi mumkin. Bu mazkur birikmalarni organik sintezda keng qo'llash imkoniyatini beradi.

Litiyorganik birikmalar kabi harakatchan vodorod atomi tutuvchi birikmalar bilan oson ta'sirlashadi. Reaksiya natijasida uglevodorod va magniying tuzi yoki boshqa birikmasi hosil bo'ladi:



Agar reaksiyada  $\text{CH}_3\text{MgI}$  ishlatilsa, metan ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan metanning hajmidan faol vodorodli birikmaning miqdorini aniqlash mumkin. Ushbu reaksiya organik moddalarning miqdoriy analizida qo'llaniladi va *Chugayev-Serevitinov metodi* deyiladi.

Atsetilenlar va pentadiyen bilan reaksiyasi natijasida yangi magniyorganik birikmalar hosil bo'ladi. Ular keyingi reaksiyalar uchun ishlatalishi mumkin.





Iotsich reaktivi



Magniy  
siklopentadiyenid


Magniyorganik birikmalarning har xil elementlarni galogenidlari bilan reaksiyasi oson ketadi. Reaksiya natijasida yangi elementorganik birikmalar hosil bo'ladi.

Grinyar reaktivlari qutbli karrali bog'larga birikadi. Organik sintezda ularning karbonat angidrid, aldegidlar va ketonlar, nitrillar bilan reaksiyalar keng qo'llaniladi.



## RUXORGANIK BIRIKMALAR


Ruxorganik birikmalarni birinchi marta 1849-yilda E. Frankland etiliodidiga rux ta'sir ettirib olgan.



Dietilrux organik kimyo tarixidagi birinchi metallorganik birikma hisoblanadi.


Galogenalkanlar rux bilan nisbatan oson reaksiyaga kirishadi, lekin reaksiyaning borishi rux kukuni yoki qirindisi sirtining tozaligiga bog'liq. Vinilgalogenidlар va galogenarenlar rux bilan reaksiyaga kirishmaydi.

Ruxorganik birikmalar olishning umumiyl metodi litiyorganik birikmalarning suvsiz rux xlorid bilan reaksiyasi hisoblanadi:




Eng sodda ruxorganik birikmalar nisbatan past qaynash temperaturali rangsiz suyuqliklardir. Bu magniyorganik birikmalardan farqli ravishda ruxorganik birikmalarning assotsiyalanmaganligini bildiradi. Shuningdek, bitta uglevodorod qoldig'i tutuvchi ruxorganik birikmalar ham mavjud.

Ruxorganik birikmalar kislород билан juda oson reaksiyaga kirishadi, havoda alangananib ketadi (pirofor birikma). Biroq, ruxorganik birikmalar boshqa elementorganik birikmalar olishda qo'llanib kelinadi.




Ruxorganik birikmalar azaldan organik sintezda qo'llanilgan.




Ruxorganik birikmalarning reaksiyon qobiliyati magniyorganik birikmalarga qaraganda kamroq, chunki uglerod-rux bog'i kamroq qutblangan. Shuning uchun ruxorganik birikmalar karbonat angidrid, ketonlar, murakkab esirlar bilan qiyinroq reaksiyaga kirishadi.

### SIMOBORGANIK BIRIKMALAR


Simoboragink birikmalarni birinchi marta 1853-yilda yodalkanlar va simobdan quyosh nuri ta'sirida olgan.




Reaksiyada dastlab alkilsimobiodidlar hosil bo'lib, ular keyinchalik dialkilsimobga aylanadi. Quyosh nuri ta'sirida alkilsimobiodidlarning hosil bo'lishi erkin reaksiya hisoblanadi.




Galogenuglevodorodlarga natriy amalgamasi ta'sir ettirib simoborganik birikmalar olish samaraliroq metod hisoblanadi.




Fao'lroq metallorganik birikmalar yordamida istalgan simoborganik birikmani olish mumkin.



Shuningdek, elektronodonor arenlar yoki harakatchan vodorod atomi tutuvchi birikmalardagi vodorod atomini simobga almashtirish metodlari – *merkurlash reaksiyasi* ham mavjud.



Bundan tashqari simob tuzlarini karrali bog'larga birikish reaksiyalari ham mavjud. Masalan,



$\beta$ -xlorvinilsimobxlorid

Bitta uglevodorod qoldig'i tutuvchi simoborganik birikmalar rangsiz kristall moddalardir. Dialkilsimoblar oson uchuvchan rangsiz suyuqliklar hisoblanadi. Barcha simoborganik birikmalar, ayniqsa uchuvchan vakillari juda zaharli moddalardir.


Uglerod-simob-uglerod guruhi chiziqli tuzilishga ega. Uglerod-simob bog'i kam qutblangan.

Simoborganik birikmalarning reaksiyon qobiliyati nisbatan past, suvli muhitda barqaror.


RHgX shaklidagi birikmalar biroz qutblangan va anionlar almashinishi sodir bo'ladi.



Har xil reagentlar ta'sirida simoborganik birikmalar o'ziga xos simmetrizatsiya va desimetritzatsiya reaksiyalariga ham kirishadi.



Elektrofil reagentlar bilan reaksiyalar sekin ketadi. Masalan, bitta uglevodorod qoldig'i tutuvchi simoborganik birikmalar kislotalar bilan faqat qizdirilgandagina reaksiyaga kirishadi.



Amalda galogenlar, xlorangidridlar, bir qator elementlarning galogenidlari bilan reaksiya o'tkazish mumkin.

Faol metallar simoborganik birikmalardan simobni siqib chiqaradi. Masalan,



Simoborganik birikmalar organik sintezda qo'llanilishi mumkin, lekin bunga ularning zaharliligi monelik qiladi.


### 14.3. UCHINCHI GURUH METALLARINING BIRIKMALARI

Uchinchi guruh metallarining organik birikmalari ichida alyuminiyning birikmalari katta amaliy ahamiyatga ega. Alyuminiyorganik birikmalarning uch xil turi mavjud:  $RAIX_2$ ,  $R_2AlX$ ,  $R_3Al$  ( $X=Cl, Br, I, H, HSO_4, OR, OOCR$  va boshqalar). Bundan tashqari alyuminiyning  $[R_4Al]^-Li^+$  shakldagi birikmalari ham mavjud.

Alyuminiyorganik birikmalar birinchi marta 1859-yilda alyuminiy va galogenalkanlardan olingan.




Biroq mazkur birikmalar toza holatda ajratib olinmagan. Trialkil-alyuminiylar esa 1865-yilda simoborganik birikmalarga alyuminiy ta'sir ettirib olingan.



Trialkilalyuminiylar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lib chiqqan, kislorod va suv bilan juda faol reaksiyaga kirishgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, alyuminiyorganik birikmalarni olish uchun litiy- va magniyorganik birikmalar ishlatalishi mumkin.


1955-yilda K.Sigler vodorod ishtirokida 3–20 MPa bosim va 60–100°C temperaturada alkenlarga alyuminiyi birikish reaksiyasini ishlab chiqqan. Mazkur kashfiyat organik sintezda, ayniqsa polimerlar kimyosida katta amaliy ahamiyatga ega.



Reaksiyon aralashmaga biroz miqdor tayyor trietil alyuminiy qo'shilishi reaksiyaning borishiga ijobjiy ta'sir etadi. Oraliq mahsulotlar sifatida alyuminiy gidridi va alkilalyuminiy gidridlar hosil bo'ladi deb taxmin qilinadi.

Alyuminiyorganik birikmalar rangsiz kristall yoki suyuq moddalardir. Ular ko'pincha vakuum sharoitida haydaladi. Alyuminiyorganik birikmalar asosan dimer shaklida mavjud bo'ladi, faqat suytirilgan eritmardagina monomer shaklida bo'lishi mumkin.

Trimetilalyuminiyning dimeri o'ziga xos tuzilishga ega. To'rtta metil guruhning uglerod atomlari va ikkita alyuminiy atomi bitta tekislikda joylashadi, ikkita metil guruhi esa perpendikulyar tekislikda yotadi.




Alyuminiy-uglerod-alyuminiy burchagini kattaligi  $75^\circ$ , uglerod-alyuminiy-uglerod burchagini kattaligi  $125^\circ$  ga, uglerod-alyuminiy bog'ining uzunligi  $0,19\text{--}0,22$  nm teng. Ikkita uglerod atomi va ikkita alyuminiy atomi o'rtaida ko'p markazli bog' hosil bo'ladi. Bunga alyuminiy atomining to'limgan orbitalari ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

Alyuminiyorganik birikmalar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega. Bunga uglerod-alyuminiy bog'ining qutbliligi va alyuminiy atomining to'limgan orbitali sabab bo'ladi.

Alyuminiyorganik birikmalar suv va kislород bilan juda reaksiyaga kirishadi, o'z-o'zidan alanganib ketishi va portlashi mumkin. Shunga qaramasdan, alyuminiyorganik birikmalar sanoatda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va qo'llaniladi.


Alyuminiyorganik birikmalarning reaksiyalarini shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin: 1) termik parchalanish reaksiyalar; 2) elektronodonor reagentlar bilan boradigan reaksiyalar; 3) elektrofil reagentlar va kislород bilan boradigan reaksiyalar.

Alyuminiyorganik birikmalar termik beqaror birikmalardir. Ular termik parchalanganda alken va diaalkilalyuminiy gidridi hosil bo'ladi.




Triizobutilalyuminiy  $100^\circ C$  dayoq izubutilenga parchalanadi. Trimetilalyuminidi tashqari boshqa barcha alyuminiyorganik birikmalar  $300^\circ C$  da to'la parchalanadi va toza alyuminiy ajralib chiqadi.


Elektronodonor birikmalar alyuminiy atomining to'limgan orbitali hisobiga birikadi.




Alyuminiyorganik birikmalarning alkenlar bilan reaksiyasini ularning muhim reaksiyasiidir. Bosim ostida alkenlar go'yoki alyuminiy va uglerod atomlarining orasiga kirib olib birikadi. Reaksiyada dastlab zaryad ko'chirish kompleksi hosil bo'ladi deb faraz qilinadi.




Reaksiya davom etishi mumkin:



Zanjir uzayishi bilan hosil bo'lgan birikma termik beqaror bo'lib qoladi va dialkilalyuminiy gidrid va alken hosil bo'ladi.



Shunday yo'l bilan alkenlarni dimerlash, oligomerlash mumkin. Masalan,



Alkinlar ma'lum sharoitlarda tutash qo'shbog'li polimerlarni hosil qiladi.

Alyuminiiorganik birikmalarning elektrofil reagentlar bilan reaksiyasi litiyorganik birikmalardagi kabitidir.

Alyuminiiorganik birikmalar boshqa metallorganik va elementorganik birikmalar, jumladan stereoregulyar polimerlanish reaksiyalari uchun kompleks katalizatorlar olishda arzon xomashyo sifatida ishlataladi. Shuningdek, alyuminiiorganik birikmalar alkenlarni oligomerlash uchun ham ishlataladi. Reaksiya natijasida  $\text{S}_6$  dan  $\text{S}_{16}$  gacha bo'lgan, yuqori spirtlar va karbon kislotalar sintezida xomashyo bo'lgan alkenlar hosil bo'ladi.

Dialkilalyumiyyidridlari kuchli qaytaruvchilardir. Alyuminiiorganik birikmalarni termik parchalab 99,999 % tozalikka ega bo'lgan alyuminii olinadi.


#### 14.4. TO'RTINCHI GURUH METALLARINING BIRIKMALARI

To'rtinchi guruh metallarining organik birikmalari valentliklariga bog'liq ravishda to'rt xil turga bo'linadi:  $\text{RMX}_1$ ,  $\text{R}_2\text{MX}_2$ ,  $\text{R}_3\text{MX}$  va  $\text{R}_4\text{M}$ .


Ularni yuqoridagi kabi nomlashdan tashqari gidridlarining nomiga asoslangan nomlash ham tavsiya qilingan.

$\text{CH}_3\text{GeCl}_3$	$(\text{CH}_3)_3\text{SnH}$	$(\text{C}_2\text{H}_5)_4\text{Pb}$
Metilgermaniyyetriklorid (metiltriklorgerman)	Trimetilkalaygidrid (trimetilstannan)	Tetraetilqo'rgoshin (tetraetilplyumban)

To'rtinchchi guruh metallarining organik birikmalari faol metallarning organik birikmalariga germaniy, qalay va qo'rgoshinning galogenidlari ta'sir ettirib olinadi. Ikki valentli qo'rgoshin birikmlarining reaksiyalarida  $\text{Pb(IV)}$  ning birikmalari hosil bo'ladi va qo'rgoshin ajralib chiqadi.



Qo'rgoshinorganik birikmalar o'ziga xos metod — galogenalkanlarga qo'rgoshin va natriy qotishmasi ta'sir ettirib olinishi ham mumkin.



To'rtinchchi guruh metallarining organik birikmalari rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir. Ular zaharli ta'sirga ega. Ayniqsa tetraalkilqo'rgoshin hosilalari kuchli zaharli moddalardir.


Ushbu birikmalarning molekulalari tetraedrik tuzilishga ega. Ularning reaksiyon qobiliyati pastroq, chunki uglerod-metall bog'i kam qutblangan.

28-jadval


### Ayrim germaniyorganik, qalayorganik va qo'rgoshinorganik birikmalarning fizik konstantalari

Birikma	T.s. °C	T.q. °C	$d_4^{20}$	$n_D^{20}$
$(\text{CH}_3)_3\text{GeCl}$		98	1,2435	1,435
$(\text{CH}_3)_3\text{GeH}$	-123	26	1,009	1,389
$(\text{CH}_3)_4\text{Ge}$		44	0,9725	1,39
$(\text{CH}_3)_3\text{Sn}$		78	1,2915	
$(\text{CH}_3)_4\text{Pb}$	-27,5	110	1,995	
$(\text{C}_2\text{H}_5)_4\text{Pb}$	-136	198-202 (parch.) 82 (1,73 kPa)	1,652	1,52

Monogalogenli hosilalari ishqoriy muhitda gidroliz qilinganda germanollar, stannollar va plyumbanollarga aylanadi. Ular o'z navbatida degidratlanib germoksanlar, stanoksanlar va plyumboksanlarni hosil qiladi. Masalan,




Digalogenli birikmalar gidroliz qilinganda esa oligomer birikmalar hosil bo'ladi.



Mazkur reaksiyalar galogensioanlarning reaksiyalariga o'xshaydi.

Germaniy, qalay va ayniqsa qo'rg'oshining tetraalkil birikmalar 250–300°C dan yuqori temperaturada parchalanib metall, alken va alkan hosil qiladi. Reaksiya erkin radikallar hosil bo'lishi bilan boradi.



Termik parchalash reaksiyasi toza metall pardasi hosil qilish uchun qo'llaniladi. Tetraetilqo'rg'oshin ichki yonuv dvigatellari uchun antidetonator sifatida benzinga qo'shiladi.

Qalayorganik birikmalar polimer materiallar uchun stabilizatorlar va antioksidantlar sifatida, fungitsidlar, antisептик vositalar va qishloq xo'jaligida antigel mint moddalar sifatida ishlataladi.

#### **14.5. O'ZGARUVCHAN VALENTLI METALLARNING BIRIKMALARI**

O'zgaruvchan valentli metallar beqaror organik birikmalar hosil qiladi. Mazkur birikmalar oson parchalanadi va natijada erkin uglevodorod radikallari hosil bo'ladi.


O'zgaruvchan valentli metallarning organik birikmalari ushbu metallarning galogenidlari va faol metallarning organik birikmalaridan past temperaturalardan olinishi mumkin. Biroq keyin hosil bo'lgan uglerod-metall bog'i gomolitik parchalanadi.

Quyida ayrim o'zgaruvchan valentli metallarning organik birikmalarini ko'rib chiqiladi.


## TITANORGANIK BIRIKMALAR

Oksidlanish darajasi IV bo'lgan titanni to'rt xil turdag'i organik birikmalar mavjud:  $\text{RTiX}_3$ ,  $\text{R}_2\text{TiX}_2$ ,  $\text{R}_3\text{TiX}$ ,  $\text{R}_4\text{Ti}$ .


Ikki va uch valentli titanning ham organik birikmalar mavjud. Titanning barcha organik birikmaları, ayniqsa tetraalkil- va tetraariltitanlar beqaror birikmalar hisoblanadi. Xlor atomining soni ortishi bilan ularning barqarorligi ham ortadi. Masalan, tetrametiltitan  $0^\circ\text{C}$  da, metiltitan-triklorid esa  $100^\circ\text{C}$  da parchalanadi. Titan atomi bitta yoki ikkita  $\pi$ -ligand bilan bog'langan birikmalar, masalan, dimetil-bissiklopentadiyeniltitan barqarorroq hisoblanadi.



Titanorganik birikmalar metallorganik sintez usuli bilan, ya'ni  $\text{TiCl}_4$  yoki  $\text{Ti}(\text{OR})_4$  ga litiy-, magniy- yoki alyuminiyorganik birikmalar ta'sir ettirib olinadi. Reaksiya  $-80\ldots 0^\circ\text{C}$  da olib boriladi.




Titanorganik birikmalar qizdirilganda oson parchalanadi.



Titanorganik birikmalar orasida eng ahamiyatli vakillari alkenlar, alkadiyenlar va alkinlarni stereoregulyar polimerlanish reaksiyalarining kompleks metallorganik katalizatorlari, masalan, Sigler-Natta katalizatorlari hisoblanadi.

Katalizator olish uchun trietylalyuminiy yoki triizobutilalyuminiy va  $\text{TiCl}_4$  yoki titanning boshqa birikmaları, masalan, ortotitan kislotasining esfirlari ( $\text{Ti}(\text{OR})_4$ ) inert muhitda o'zaro ta'sir ettiriladi.



Katalizator inert erituvchida erimaydigan bo'lishi mumkin. Amalda ushbu geterogen sistema  $RTiCl_3$ ,  $RTiCl_2$ ,  $RAICl_2$ , va  $R_2AlCl$  lar aralashmasidan iborat. Alyuminiyorganik va titanorganik birikmalar dimerlar hosil qiladi. Uch valentli titanning birikmalar faolroq katalizatorlar hisoblanadi. Shuningdek, titanning siklopentadiyenil hosilalari va trietilalyuminiydan yoki titanning boshqa hosilalaridan olinadigan gomogen katalizatorlar ham mavjud.

#### 14.6. O'ZGARUVCHAN VALENTLI METALLARNING $\pi$ -KOMPLEKSLARI

O'zgaruvchan valentli metallar bir qator organik moddalar, erkin radikallar va ionlar bilan o'ziga xos barqaror birikmalar hosil qiladi. Ularning tuzilishi kompleks birikmalarning tuzilishiga o'xshash bo'lganligi uchun  $\pi$ -komplekslar deyiladi. Mazkur birikmalarda metall atomi elektronoakseptor, organik molekula, radikal yoki ion elektronodonor hisoblanadi. Metall-ligand bog'i metall atomining vakant orbitali va uglerod atomining taqsimlanmagan elektronlari hisobiga hosil bo'ladi. Shuning uchun ham  $\pi$ -komplekslar deyiladi. Shuningdek, metall atomining elektronlari va ligandning bo'shashtiruvchi orbitallari bilan ham o'zaro ta'sir (dativ bog') ham hosil bo'ladi.

O'zgaruvchan metallarning  $\pi$ -komplekslarida lokallahsgan uglerod-metall  $\sigma$ -bog'i mavjud emas. Buning o'rniga ko'p markazli delokallahsgan bog'lar hosil bo'ladi. Umumiy tarzda  $\pi$ -kompleksni  $ML_n$  ko'rinishida yozish mumkin.

Agar metall atomi va ligand elektronlarining umumiyo soni 36 ta bo'lsa to'rtinchidagi davrning o'zgaruvchan valentli metallarini nisbatan barqaror  $\pi$ -komplekslar hosil bo'ladi. Agar elektronlarning umumiyo soni 36 tadan kam bo'lsa  $\pi$ -kompleks koordinatsion to'yinmagan bo'ladi va yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'ladi.

#### Cr (0) (atomda 24 ta elektron) ning $\pi$ -komplekslari



6

Cr

24



6

Cr

24



6


$(CO)_3$

6

Dibenzolxrom, jigarrang kristall  
T<sub>s</sub> 282°C

Benzoltrikarbonilxrom, sariq rangli kristall, Ts 161°C

## Fe (0) (atomda 26 ta elektron) ning $\pi$ -komplekslari






Temirpentakarbonil, Ditsiklopentadiyeniltemir  
jigarrang suyuqlik (ferrotsen) sarg'ish-zarg'aldoq  
rangli kristall Siklobutadiyentrikarbo-  
niltemir


29-jadval

### Ligandlarning asosiy turlari

Ligand turi	Nomi	Formulasi
Ikki elektronli	Uglerod oksidi	: $\ddot{\text{C}}=\ddot{\text{O}}$
	Alkenlar	$\begin{array}{c} \text{R} \\   \\ \text{R}-\text{C}=\text{C}-\text{R} \\   \\ \text{R} \end{array}$
Uch elektronli	Allil radikal	$\begin{array}{c} \text{R} \\   \\ \text{R}-\text{C}=\text{C}-\text{CH}_2^* \\   \\ \text{R} \end{array}$
	Siklopropenil radikal	
To'rt elektronli	Siklobutadiyen	
Besh elektronli	Siklopentadiyenil radikal	
Olti elektronli	Siklopentadiyenid-ion	

	Benzol	
	Tropiliy kationi	
Yetti elektronli	Siklogeptatriyenil radikal	

Agar metall atomi atrofida ligandlar yetarli bo'limasa,  $\pi$ -kompleks koordinatsion to'yinmagan bo'ladi va u yangi ligandni biriktirib olishi mumkin. Masalan, o'zgaruvchan valentli metallarning  $\sigma$ -bog'li birikmalarini koordinatsion to'yinmagan  $\pi$ -kompleks deb hisoblash mumkin. Dialkilnikel  $R_2Ni[Ni(0)+2R^*]$  uchta ikki elektronli ligandni biriktirishi mumkin.




Ushbu reaksiya alkinni trimerlanishi, oligomerlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Titan atomida 22 ta elektron mayjud, shuning uchun uning  $\pi$ -komplekslari ko'pincha koordinatsion to'yinmagan bo'ladi. Masalan, bis-siklopetadiyenildietiltitanda titan atomi 22 elektron, ligandlar 12 ta elektron beradi. Demak, yana bitta, ikkita elektronli ligandni biriktirib olish imkoniyati mavjud. Ushbu jarayon oligomerlanish yoki polimerlanish reaksiyasini boshlab beradi.

Aksariyat tutash siklik sistemalni ligandlar tutuvchi barqaror  $\pi$ -komplekslar ligandlar bo'yicha o'rincidan olish reaksiyalariga kirisha oladi. Masalan, ferrotsen elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi, ya'ni aromatik xossalarni namoyon qiladi.

1951-yilda shotlandiyalik kimyogar-talaba Kili ustozи Poson bilan hamkorlikda tasodifan kashf etgan disiklopentadiyeniltemir keyinchalik ferrotsen deb nom oldi. Ferrotsen hosilalari V.Shlyogl, R.Vudvord, A.N.Nesmeyanov, N.S.Kochetkova, V.D.Vilchevskaya, S.Asatiani, A.G.Mahsumov, T.Yu.Nasriddinov kabi olimlar tomonidan olib borilgan

tadqiqotlar natijasida uning o'ziga xos aromatik xossalari asosida yuzlab yangi birikmalari sintez qilindi. A.N.Nesmeyanov, N.S.Kochetkova, V.D.Vilchevskaya Leningrad gemitologiya va qon quyish ilmiy tadqiqot instituti olimlari bilan hamkorlikda «Ferrotseron» deb nomlangan kamqonlik kasalligini davolashga mo'ljallangan dorivor moddani sintez qildilar va amaliyotga joriy etdilar. A.G.Mahsumov va I.R.Asqarov ferrotsenni diazoniy birikmalar bilan reaksiyasini o'rGANIB, sharoitga ko'ra aril almashtgan hosilalari va arildiazoniy birikmalarini hosil bo'lishi mumkinligini isbotladilar. Bu reaksiya umumiy shaklda quyidagi tarzda amalga oshishi ko'rsatib berildi.



A.Q.Qosimov, I.R.Asqarov, T.A.Madumarov, S.K.Karimov, Sh.M.Qirg'izovlar paxtachilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi olimlari bilan hamkorlikda paxta va boshqa ekinlar hosildorligini oshiruvchi ferrostimulyator-1 va MAKSIT deb ataluvchi biologik faol birikmalarni sintez qilib amaliyotga joriy etdilar.

## **15-BOB. GETEROFUNKSIONAL BIRIKMALAR**


Geterofunksional birikmalar deb molekulasida ikki va undan ortiq xildagi funksional guruuhlar tutuvchi organik birikmalarga aytiladi. Geterofunksional birikmaning organik birikmalarni qaysi sinfiga mansubligi funksional guruhlarning qaysi biri kattaligiga qarab belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, har xil funksional guruuhlar tutuvchi organik birikmalarni geterofunksional birikmalar deb alohida ajratish mumkin emas.


### **15.1. GALOGENKARBONIL BIRIKMALAR**

Glogenkarbonil birikmalar aldegidlar va ketonlar molekulasidagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini galogen atom(lar)iga almashinishidan hosil bo'ladi.

Glogenkarbonil birikmalar umumiyl qoida bo'yicha nomlanadi. Ba'zi vakillari tarixiy nomlarini ham saqlab qolgan. Masalan,




xloratseton



Trixlorsirka  
aldegid  
xloral

### **OLINISH USULLARI**

Glogenkarbonil birikmalar ichida  $\alpha$ -glogenkarbonil birikmalar nisbatan yaxshi o'r ganilgan. Ushbu birikmalar karbonil birikmalarni galogenlab, ba'zan galogenalkanolarni oksidlاب olinadi. Galogenlash reaksiyasi yenol orqali boradi.




### FIZIK-KIMYOVITX XOSSALARI

$\alpha$ -galogenkarbonil birikmalar o‘ziga xos o‘tkir hidli rangsiz, suyuq yoki kristall moddalardir, lakrimator. Agar bitta uglerod atomida ikkita yoki uchta galogen atomi bo‘lsa lakrimator xossasi yo‘qoladi.


$\alpha$ -galogenkarbonil birikmalarning molekulalarida qutblangan C=O va C-Hal bog‘lari mavjud. Ushbu bog‘larning o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida karbonil guruhidagi uglerodning elektrofilligi va  $\alpha$ -holatdagi vodorod atomlarining faolligi ortadi.

$\alpha$ -galogenkarbonil birikmalar galogenalkanlar va karbonil birikmalarga xos reaksiyalarga kirishadi. Poligalogenkarbonil birikmalar o‘ziga xos reaksiyalarga ham kirisha oladi.


$\alpha$ -galogenkarbonil birikmalarda galogen atomining nukleofil o‘rin olinish reaksiyasi oson ketadi. Shunday yo‘l bilan  $\alpha$ -gidroksikarbonil-,  $\alpha$ -aminokarbonil birikmalar va boshqa birikmalar olinishi mumkin.




Kuchli asoslar ta’sirida o‘ziga xos qayta gruppalanish reaksiyasi kuzatiladi. Galogenketonlardan karbon kislotalarning tuzlari hosil bo‘ladi. Bunday reaksiyalar *Favorskiy qayta gruppalanishi* deyiladi (1895).



Poligalogenkarbonil birikmalardagi karbonil guruhning elektrofilligi yuqori va suvni biriktirib barqaror hidratlarni hosil qiladi.




Ishqoriy muhitda uglerod-uglerod bog'i gidrolizga uchraydi va galofomrlar hosil bo'ladi.



### **MUHIM VAKILLARI**

*Xloral* – o'tkir hidli rangsiz suyuqlik, etil spirtini xlorlab olinadi. Xloral svuni juda oson biriktirib xloralgidrat hosil qiladi. Xloralgidrat xloroform ishlab chiqarishda oraliq mahsulot hisoblanadi.






*Bromatsetofenon* – rangsiz kristall modda, lakrimator, atsetofenonni bromlab olinadi. Organik sintezda organik birikma molekulasiga fenatsil guruh ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{COCH}_2-$ ) ni kiritish uchun qo'llaniladi.

### **15.2. GIDROKSIKARBONIL BIRIKMALAR**

#### **$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar**

$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar ham umumiy qoida bo'yicha nomlanadi. Ba'zi vakillari tarixiy nomlari bilan ham nomlanadi. Masalan,




gidroksiatseton


2,3-digidroksipropanal

*o*-gidroksibenzaldegid  
salitsil aldegidi

$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar  $\alpha$ -galogenkarbonil birikmalarni gidroliz qilib olinadi. Shuningdek, yenollanmaydigan aldegidlardan benzoin kondensatsiyasi o'xshash reaksiyasi natijasida ham hosil bo'ladi.



Karbon kislotalarning murakkab efirlari natriy metali ishtirokida dimerlanib  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar hosil qiladi. Reaksiya natijasida *atsiloinlar* deb ataluvchi  $\alpha$ -gidroksiketonlar hosil bo‘lganligi uchun *atsiloinkondensatsiyasi* deyiladi.




Shunday yo'l bilan siklik atsiloirlarni olish mumkin.

## FIZIK-KIMYOVII XOSSALARI


$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar rangsiz yoki sarg'ish tusli, yoqimli hidlik birikmalardir.

Gidroksikarbonil birikmalarining molekulalari asimmetrik uglerod atomi tutadi.


$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar spirtlar va karbonil birikmalarning kimyoviy xossalalarini namoyon qiladi. Ularning kislotaliligi spirlardan yuqori ( $+/-$  effekt). Kuchli asoslar ishtirokida dianion hosil bo'lishi mumkin.



$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalarning ishqoriy muhitda oson oksidlanishi dianion hosil bo'lishi bilan bog'liq. Masalan,  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalar Feling reaktiviy bilan oson oksidlanadi. Bu reaksiyada mis'ioni oksidlovchi sifatida ishtirok etadi.



$\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalarning kuchli ishqorli eritmalariga kislota ta'sir ettirilsa yendiol hosil bo'lib, u o'z navbatida ikkita izomer  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikmaga aylanadi.



Yendiol va  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikma ikkita tautomer shakl hisoblanadi. Shuning uchun ishqoriy muhitda  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikma ikkinchi izomerga aylanishi mumkin. Bunday reaksiyalar uglevodlar kimyosida katta ahamiyatga ega.

### $\beta$ -, $\gamma$ -, $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar

$\beta$ -gidroksikarbonil birikmalar odatda aldol birikish reaksiyasi yordamida olinadi.  $\gamma$ -, va  $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar esa boshqa metodlar bilan, masalan, diollarni tanlab oksidlash yo'li bilan olinishi mumkin.


### FIZIK-KIMYOVIY XOS SALARI

$\beta$ -,  $\gamma$ -,  $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar xushbo'y hidli, rangsiz, suyuqlardir. Ular ham spirtlar, ham karbonil birikmalarning kimyoviy xossalariiga ega.

$\beta$ -gidroksikarbonil birikmalar bir molekula suv ajratib to'yinmagan karbonil birikmalarga aylanadi.

$\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar siklik yarimatsetallarni hosil qiladi. Siklik yarimatsetallar ochiq zanjirli shaklda, ham siklik shaklda mavjud bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarish *halgali-zanjirli izomeriya* deyiladi. Ayrim holatlarda ochiq zanjirli va siklik shakllar o'zaro muvozanatda bo'ladi.


Siklik yarimatsetallar spirt muhitida, kislotali sharoitda atsetallar hosil qiladi.




$\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar tetragidrofuran hosilalarini hosil qiladi. Siki hosil bo'lishida molekulada asimmetrik uglerod atomi paydo bo'ladi. 2-alkil-2-gidroksi(alkoksi)tetragidrofuran molekulalari xiral bo'lib, ikkita optik izomer (enantiomer) shaklida mavjud bo'ladi.



$\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar tetragidropiran siklini, ya'ni 2-gidrokxitetragidropiran va 2-alkoksitetragidropiran hosilalarini hosil qiladi. Ushbu birikmalarda asimmetrik uglerod atomi paydo bo'ladi. 2-alkil-2-gidroksi(alkoksi)tetragidrofuran molekulalari xiraldir.



Tetragidropiran hosilalarinig molekulalari kreslo shaklida mavjud bo'ladi. Bunda  $OR^1$  guruhi aksial yoki ekvatorial holatda bo'ladigan ikki xil konformer hosil bo'lishi mumkin.





Asimmetrik uglerod atomi tutuvchi tetragidropiran hosilasining ikkita izomeri (enantiomeri) *A* va *B* bo'lishi mumkin. Ularning har biri ikki xil konformatsiyada (*I* va *II*) mavjud bo'ladi. Agar *B* izomer qog'oz tekisligiga perpendikulyar o'qqa nisbatan  $180^\circ$  ga burilsa *C* konformatsiya hosil bo'ladi. Bunday fazoviy o'zgarishlar uglevodlar kimyosida katta ahamiyatga ega.

### 15.3. AMINOKARBONIL BIRIKMALAR

#### $\alpha$ -aminokarbonil birikmalar

$\alpha$ -aminokarbonil birikmalar odatda  $\alpha$ -galogenkarbonil birikmalardan va ammiak yoki aminobirikmalardan olinadi.




$\alpha$ -oksiminokarbonil birikmalar kislotali muhitda qaytarilganda  $\alpha$ -aminokarbonil birikmalarning tuzlari hosil bo'ladi.



Aminokarbonil birikmalar rangsiz suyuq yoki kristall moddalar bo'lib, suvda yaxshi eriydi, kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Aminokarbonil birikmalar beqaror birikmalardir, o'z-o'zidan kondensatsiyalanish mahsulotlarini hosil qiladi. Shuning uchun aminokarbonil birikmalar tuz yoki atsetal holatda olinadi va saqlanadi.

## FIZIK-KIMYOVIV XOSSALARI


Aminokarbonil birikmalar aminlar va karbonil birikmalarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Ayniqsa birlamchi aminoguruh tutuvchi birikmalar juda faol bo'ladi, ular geterosiklik birikmalar sintezida qo'llaniladi. Masalan, o'z-o'zidan kondensatsiyalanish natijasida digid-ropirazinlar hosil bo'ladi.




$\alpha$ -aminokarbonil birikmalar organik sinteza asosan fiziologik faol birikmalar olish uchun ishlataladi.

### $\beta$ -aminokarbonil birikmalar


$\beta$ -aminokarbonil birikmalar yenollanadigan karbonil birikmalarni formaldegid va ammiak yoki aminlar bilan aminometillash yo'li bilan olinadi.



Reaksiya kislotali muhitda olib boriladi va tegishli tuzi hosil bo'ladi. Ushbu reaksiya 1912-yilda K. Mannix tomonidan ochilgan va o'rganilgan. Shuning uchun *Mannix reaksiyasi*,  $\beta$ -aminokarbonil birikmalar esa *Mannix asoslari* deyiladi. Reaksiya mexanizmi to'la aniqlanmagan. Gidroksimetil birikma faol aminometillovchi reagent deb taxmin qilinadi.




Karbonil birikma anion yoki yenol bilan ta'sirlashadi.




Aksariyat holatlarda Mannix reaksiyasida ikkilamchi aminlar qo'llaniladi.

### FIZIK-KIMYOVİY XOS SALARI

$\beta$ -aminokarbonil birikmalar va ularning tuzlari rangsiz, suvda eriydigan moddalardir, aminlar va karbonil birikmalarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Qizdirilganda  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalar hosil bo'ladi.



Nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashganda aminoguruuhning almashtishi kuzatiladi. Bu ayniqsa to'rlamchi ammoniy tuzlari uchun xosdir.



$\beta$ -aminokarbonil birikmalar asosan fiziologik faol birikmalar olish uchun ishlataladi.

### 15.4. UGLEVODLAR


Uglevodlar deb molekulasi uglerod, vodorod va kislorod atomlaridan tarkib topgan, funksional guruuhlar sifatida esa gidroksil, aldegid yoki keton guruuhlarini saqlovchi organik birikmalarga aytildi.

Uglevodlar tabiatda eng ko'p tarqalgan tabiiy birikmalardan hisoblanadi. O'simliklarning quruq massaga nisbatan taxminan 80 % ini, hayvonot organizmining 2 % ini uglevodlar tashkil etadi. Uglevodlar asosiy ozuqa moddalaridan biridir. Sanoatda qog'oz, etil spiriti, sun'iy

tola va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlataladi.

Uglevodlar, yoki «karbon suvlari» degan ibora 1844-yilda K. Shmidt tomonidan taklif etilgan. Chunki uglevodlarning element tarkibi  $C_n(H_2O)_m$  umumiy formula bilan ifodalangan. Hozirga kelib uglevodlar deganda juda xilma-xil moddalar tushuniladi.

Uglevodlar odatda mono-, oligo- va polisaxaridlarga bo'linadi. Monosaxaridlar eng sodda uglevodlar bo'lib, uglerod zanjiridagi uglerod atomlarining soniga, aldegid yoki keton guruhining mavjudligiga qarab sinflanadi. Masalan,




Kimyoviy tuzilishiga ko'ra monosaxaridlar poligidroksikarbonil birikmalar hisoblanadi. Monosaxaridlarning molekulalari xiraldir, bitta yoki bir nechta asimmetrik markazga ega. Shuning uchun monosaxaridlar ko'plab fazoviy izomerlarga ega. Tabiiy mahsulotlardan ajratib olingan uglevodlar optik faol birikmalardir.


Monosaxaridlar ichida pentozalar va geksozalar, hamda ularning hosilalari keng tarqalgan.

## PENTOZALAR


Pentozalardan aldopentozalar tabiatda ko'p uchraydi. Ularning molekulasida 3 ta asimmetrik uglerod atomi mavjud. Shuning uchun  $2^3 = 8$  ta fazoviy izomer, 4 just enantiomer bo'lishi mumkin.




*D*-riboza




*L*-riboza




*D*-liksoza




*L*-liksoza




*D*-arabinoza



*L*-arabinoza





*D*-ksiloza




*L*-ksiloza

Molekulaning yanada aniqroq tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Aldopentozalar 4- va 5-holatdagi hidroksil guruqlar orqali siklik yarimatsetallar hosil qilishi mumkin. Furanoza sikli hosil bo'lishida 3-4 bog'i atrofida aylanish sodir bo'ladi. Piranoza sikli hosil bo'lishida bunday aylanish kuzatilmaydi.



Aldopentozalarning eritmalarida ochiq zanjirli shakl va siklik shakllar o'zaro muvozanatda bo'ladi, ya'ni o'ziga xos tautomer sistema hosil bo'ladi.


Siklik shaklda yangi asimmetrik uglerod atomi paydo bo'ladi. Buning natijasida ikki xil furanoza yoki ikki xil piranoza hosil bo'ladi. Ikki xil siklik izomerlar anomerlar deyiladi. Ular  $\alpha$  va  $\beta$  harflari bilan belgilanadi. Molekulaning  $\alpha$ - yoki  $\beta$ -izomerligini aniqlash uchun birinchi ugleroddagi hidroksil guruhni va  $\text{CH}_2\text{OH}$  yoki to'rtinchi ugleroddagi OH guruhni fazoviy holati aniqlanadi. Agar ushbu guruhlari *sis* holatda joylashgan bo'lsa  $\beta$ -izomer bo'ladi, *trans* holatda joylashgan bo'lsa  $\alpha$ -izomer bo'ladi. Har bir anomerning o'ziga xos solishtirma optik burish qiymati mavjud.

Aldopentoza kristall holatda ma'lum bir shaklda mavjud bo'lsa, suvda eritilganda  $\alpha$ - va  $\beta$ -izomerlarning miqdori muvozanatga kelgunga qadar tautomer o'zgarishlar kuzatiladi. Buning natijasida solishtirma optik burish ko'rsatkichi doimiy qiymatgacha o'zgaradi. Ushbu hodisa *mutarotatsiya* deyiladi.

### KIMYOVITY XOSSALARI

Aldopentozalar aldegidlar va ko'p atomli spirtlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Ular oksidlanadi, kumush ko'zgu reaksiyasiga kirishadi, Feling reaktivini bilan ta'sirlashadi, kuchsiz oksidlovchilar ta'sirida karbon kislotalar hosil qiladi (lakton shaklida), qaytarilganda besh atomli spirtlar – pentilarga aylanadi va h.k.

Aldopentozalar alkillanganda oddiy efirlar hosil bo'ladi. Avval birinchi ugleroddagi gidrosil guruh — glikozid yoki yarimatsetal guruh reaksiyaga kirishadi. Kuchli alkillovchi reagentlar, masalan, dimetilsulfat ta'sirida tetraalkil efirlar hosil bo'ladi. Ushbu efirlardagi birinchi uglerodga birikkan metil guruh oson ajraladi. Quyidagi chizmada pentozalarning asosiy reaksiyalari tasvirlangan.



### ASOSIY VAKILLARI

*Ksiloza* (yog'och shakari) — 145°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, optik faollikka ega:  $[\alpha]_D = +93,6^\circ$ . Ksilan polisaxaridlari tarkibiga kiradi. Ksilanlar yog'och, kungaboqar po'stloqlarida, makkajo'xori so'tasida, somonda uchraydi. Ular gidroliz qilinganda ksiloza hosil bo'ladi. Ksiloza D-qator monosaxiridlariغا kiradi, kristall holatda piranoza shaklida bo'ladi, fazoviy tuzilishi  $\alpha$ -anomerga to'g'ri keladi.

$\alpha$ -D-ksilopiranoza suvda eritilganda mutarotatsiya kuzatiladi,  $[\alpha]_D = +18,8^\circ$  ga teng bo'lgan, 33 %  $\alpha$ -anomer tutuvchi muvozanat aralashma hosil bo'ladi.

Ksiloza sulfat kislota eritmalarida qizdirilsa degidratlanib geterosiklik birikma — furfurol hosil bo'ladi.


*Riboza* — 87°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, optik faol  $[\alpha]_D = -23,1^\circ$ . D-qator monosaxiridlariغا kiradi, kristall holatda furanoza shaklida bo'ladi, fazoviy tuzilishi  $\beta$ -anomerga to'g'ri keladi. Suvli eritmasida mutarotatsiya kuzatiladi.  $[\alpha]D = -23,7^\circ$  ga teng bo'lgan, 26 %  $\alpha$ -anomer tutuvchi muvozanat aralashma hosil bo'ladi.

Riboza muhim tabiiy birikmalardan bo'lgan ribonuklein kislotalar tarkibiga kiradi. Ribonuklein kislotalarini gidroliz qilib olinadi. Nuklein kislotalar kimyosida nukleozidlar sintezida ishlatiladi.


Dezoksiribonuklein kislotalar tarkibida D-ribozaning hosilasi 2-dezoksiriboza uchraydi. Ushbu birikma 78–82°C da suyuqlanadigan rangsiz kristallar hosil qiladi, optik faol  $[\alpha]_D = -91$ . Kristall holatda furanoza shaklida bo'ladi. Dezoksiriboza nuklein kislotalar kimyosida nukleozidlar sintezida ishlatiladi.

### GEKSOZALAR


Geksozalar ham aldogeksozalar va ketogeksozalar shaklida uchraydi. Aldogeksozalar molekulasida to'rtta asimmetrik uglerod atomi mavjud, shuning uchun  $2^4=16$  ta stereoizomer, yoki 8 just enantiomer mavjud bo'lishi mumkin.




D-alloza



L-alloza





D-glyukoza





L-glyukoza

Aldogeksozalar kristall holatda piranoza shaklida bo'ladi, eritmalarida siklik va ochiq shakllarning muvozanat aralashmasi hosil bo'ladi.


Har bir aldogeksoza molekulasi ikkitadan piranoza va ikkitadan furanoza shakllarida mavjud bo'lishi mumkin. Siklik shakllarni ifodlash uchun E.Fisherning proyektiv formulalaridan, yoki yanada mukammalroq bo'lgan U.Xeuorsning perspektiv formulalaridan foydalanish mumkin. Masalan,  $\alpha$ -D-glyukopiranoza quyidagicha ifodalanadi:



D-glyukoza eritmada halqali-zanjirli tautomer o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Aldogeksozalar 4- va 5- holatlardagi hidroksil guruuhlar orqali siklik yarimatsetallar hosil qilishi mumkin. Bunda tegishli ravishda furanoza (aldogeksozalarda kamroq) va piranoza halqalari hosil bo'ladi. Halqali struktura hosil bo'lishida 4-5 uglerod atomlari o'rtasidagi bog' atrofida aylanish sodir bo'ladi.



$\alpha$ -D-glyukopiranoza



$\beta$ -D-glyukopiranoza


Molekulaning  $\alpha$ - yoki  $\beta$ -izomerligini aniqlash pentozalardagi kabi aniqlanadi. Buning uchun geksozalardagi 4- (furanoza halqalari uchun) yoki 5-(piranoza halqalari uchun) holatdagi hidroksil guruuhnинг konfurmatsiyasi aniqlanadi.

Bukilgan piranoza strukturalarda guruhlarning har xil fazoviy joylashuvi  $\alpha$ -konformatsiyani, bir xil fazoviy joylashuvi  $\beta$ -konformatsiyani belgilaydi.


Piranoza strukturalarida inversiya natijasida ikki xil konformer hosil bo'ladi. Ekvatorial joylashgan OH guruhlari ko'proq bo'lgan konformer nisbatan barqaror bo'ladi. Misol uchun D-glyukozaning stereoizomerlari

ichida  $\beta$ -D-glyukopiranozaning beshta ekvatorial joylashgan OH guruhi tutuvchi konformeri barqarorraq bo'ldi.


Ketogeksozalar molekulasiда uchta asimmetrik uglerod atomi mayjud bo'lganligi uchun 8 ta stereoizomer, ya'ni 4 just enantiomer hosil bo'ldi.




*D*-fruktoza



*D*-sorboza




*D*-psikoza



*D*-tagatoza

Ketogeksozalar furanoza va piranoza shaklidagi siklik strukturalar hosil qiladi. Buni quyidagi chizmada tasvirlash mumkin.



Furanoza strukturalarida glikozid OH guruhi va beshinchgi ugleroddagi CH<sub>2</sub>OH guruhi o'zaro *sis*- holatda joylashsa  $\beta$ -shaklini, *trans*- holatda joylashsa  $\alpha$ -shaklini belgilaydi.


Kreslo ko'rinishidagi piranoza strukturalarida glikozid OH guruhi va beshinchgi ugleroddagi OH guruhi o'zaro *sis*- holatda joylashsa  $\beta$ -shaklini, *trans*- holatda joylashsa  $\alpha$ -shaklini belgilaydi.

## FIZIK – KIMYOVYX KOSSALARI

Geksozalar suvda yaxshi eriydigan rangsiz kristall moddalardir, shirin ta'mga ega.


Geksozalar karbonil birikmalar va ko'p atomli spirlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Masalan, kuchsiz oksidlovchilar ta'sirida *aldon kislotalari* hosil bo'ladi. Aldon kislotalari oksidlanganda tetragidroksidikarbon kislotalar, yoki shakar (glyukar) kislotalari hosil bo'ladi.

Aldogeksozalarning glikozidlari oksidlanganda aldegidokarbon kislotalar, yoki *uron* kislotalari hosil bo'ladi.




Aldogeksozalarni aldron kislotalarigacha bromli suv, kumush oksidi, Feling reaktivini bilan oksidlanadi.

Ishqoriy muhitda aldogeksoza yendiol shakli orqali ketogeksozaga va aksincha izomerlanish kuzatiladi.




Yendiol shakli orqali D-glyukoza D-mannozaga aylanadi va aksincha. Ushbu monosaxaridlar bir-biridan faqat ikkinchi ugleroddagi gidroksil guruhining joylashuvi bilan farq qiladi. Bunday o'zgarish *epimerlanish* deyiladi.

Geksozalar fenilgidrazin bilan qizdirilganda yaxshi kristallananadigan sariq tusli birikmalar – ozazonlar hosil qiladi. Epimer geksozalar bir xil ozazonlar hosil qiladi.





Alkillovchi va atsillovchi reagentlar ta'sirida oddiy va murakkab efirlar hosil bo'ladi. Glikozid hidroksil guruh oson reaksiyaga kirishadi, reaksiya natijasida  $\alpha$ - va  $\beta$ - glikozidlarning aralashmasi hosil bo'ladi.



C-O glikozid oson hosil bo'ladi va parchalanadi. Masalan, pentaatsetil-glyukozadagi birinchi atsetil guruh juda oson parchalandi.


Birinchi ugleroddagi hidroksil guruh galogen atomiga, aminoguruhga oson almashinishi mumkin.





Bir qator geksozalar fermentlar ta'sirida parchalanadi. Bunday parchalanish natijasida har xil birikmalar hosil bo'lishi mumkin. *Zimazalar* deb nomlanuvchi fermentlar aralashmasi ta'sirida parchalanish yoki spirtli bijg'ish jarayoni muhim amaliy ahamiyatga ega. Zimaza fermentlarini xamirturush zamburug'lari ishlab chiqaradi.

Spirtli bijg'ish jarayoni mexanizmi juda murakkab bo'lib umumiy tarzda quyidagicha ifodalanadi:



Xamirturush zamburug'larining fermentlari D-glyukozani, D-mannozani va D -fruktozanigina parchalaydi.

### ASOSIY VAKILLARI

*Glyukoza* (uzum shakari, dekstroza) – eng ko'p uchraydigan monosaxarid. Erkin holatda meva sharbatlari tarkibida uchraydi, ko'plab disaxaridlar va polisaxaridlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tabiiy manbalardan olingan glyukoza D- qatorga mansub. Rangsiz kristallar hosil qiladi, shirin ta'mga ega. Optik faol, eritmaldarda mutarotsiya kuzatiladi.


$\alpha\text{-}D(+)$ -glyukopiraniza suvli eritmadan kristallanadi, monogidrati  $83^{\circ}\text{C}$  da, suvsizi  $146^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = +112,2^{\circ}$ .  $\beta\text{-}D(+)$ -glyukopiraniza piridindan kristallanadi,  $148\text{--}150^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = +18,9^{\circ}$ .

Toza glyukoza kartoshka yoki makkajo'xori kraxmalini gidroliz qilib olinadi.


*Galaktoza* – tabiatda erkin holatda yoki glíkozidlar tarkibida uchraydi. Glyukozadan 4-uglerod atomidagi hidroksil guruhning joylashuvi bilan farq qiladi. Optik faol, ham  $\alpha$ -, ham  $\beta$ -shakli toza holatda olingan.  $\alpha$ -shakli  $167^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = +150,7^{\circ}$ ,  $\beta$ -shakli  $153\text{--}155^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = +54,4^{\circ}$ .

*Fruktoza* (meva shakari, levuioza) – mevalar sharbatlarida keng tarqalgan, ayniqsa asalda juda ko'p. Fruktoza saxarozaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Saxarozanı gidroliz qilib olinadi.

Tabiiy fruktoza *D*- qatorga mansub, kristall holatda  $\beta$ -piranoza shaklida bo'ladi, 102–104°C da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = -133,5^\circ$ . Fruktozaning suvli eritmasida mutarotatsiya kuzatiladi, muvozanat aralashmaning solishtirma burish qiymati  $[\alpha]_D = -92^\circ$  ga teng. Fruktoza eng shirin monosaxarid hisoblanadi, saxarozadan 1,5 marta, glyukozadan 3 marta shirin.



*Sorboza* – tabiiy mahsulotlar tarkibiga kiradi, *L*-qatorga mansub. *D*-sorbitni fermentativ oksidlab olinadi. Kristall holda *L*-sorboza piranoza shaklida mavjud bo'ladi, suvli eritmalarida mutarotatsiya kuzatiladi. *L*-sorboza askorbin kislotasi olish uchun xomashyo hisoblanadi.




*L*-askorbin kislotasi (2,3-degidro-*L*-glikon kisiotasining  $\gamma$ -laktoni) – nordon ta'mli rangsiz kristall modda, suvda yaxshi eriydi, 190–192°C da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = +23^\circ$ .

*L*-askorbin kislotasi yoki C vitamini muhim biologik faol birikmalaridan hisoblanadi, hujayralarda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini katalizlaydi. Askorbin kislotasi kuchli qaytaruvchidir.


Uglevodlar kimyosida, ayniqsa monosaxaridlarning strukturasini aniqlashda uglerod zanjirini bosqichma-bosqich uzaytirish yoki qisqartirish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, uglerod zanjirini oksidlash yo'li bilan parchalash reaksiyalari ham ahamiyatlidir.

Uglerod zanjiri siangidrin metodi bilan uzaytiriladi. Reaksiya davomida ikki xil izomer siangidrin (gidroksinitril) hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan nitrillar gidroliz qilinadi, keyin qaytariladi (G.Kiliani, E.Fisher). Birinchi nitrildan glyukoza, ikkinchisidan mannoza hosil bo'ladi.

Uglerod zanjirini qisqartirish uchun aldegid guruhi oksidlanadi, keyin  $H_2O_2 + Fe^{3+}$  ta'sirida dekarboksillanadi (Ruff).



Uglerod-uglerod bog'ini oksidlab parchalash reaksiyasi metillash va oksidlash yo'li bilan amalga oshiriladi.



Masalan, yuqoridagi reaksiyada tetrametilglukopiranoza metillanmagan gidroksil guruh bo'yicha oksidlanadi, keyin C-C bog'i uziladi. Reaksiya natijasida trimetoksioglutar kislotasi va dimetoksiqahrabo kislotasi hosil bo'ladi. Bundan metillanmagan gidroksil guruh beshinchı uglerod atomida ekanligi kelib chiqadi. Ushbu metod piranoza yoki furanoza halqasining o'lchamini aniqlashda qo'llaniladi.

### **DISAXARIDLAR**

Disaxarid molekulasi o'zaro oddiy efir bog'i, yoki glikozid bog'i bilan bog'langan ikkita monosaxarid qoldig'idan iborat, ya'ni disaxaridlar glikozidlar hisoblanadi.

Glikozid bog'lar har xil shaklda hosil bo'lishi mumkin. Odatda glikozid bog'i to'rtinchi uglerod atomi orqali hosil bo'ladi. Ikkinci monosaxarid qoldig'i bog'lanmagan glikozid gidroksiliga ega bo'lganligi uchun disaxarid qaytaruvchi xossalarni namoyon qiladi, eritmalarida mutarotatsiya kuzatiladi. Qaytaruvchi disaxaridlar *maltoza* tipidagi disaxaridlar deyiladi.



Disaxaridlarning ikkinchi turida ikkala monosaxarid qoldig'i o'zaro glikozid gidroksillari orqali ( $1 \rightarrow 1'$ ) bog'lanadi. Bunday disaxaridlar qaytaruvchi xossalariiga ega emas, chunki ochiq zanjirli karbonil shakl hosil bo'lmaydi. Qaytaruvchi xossaga ega bo'lmagan disaxaridlar *tregaloza* tipidagi disaxaridlarga kiradi.

### **ASOSIY VAKILLARI**

*Maltoza* – oz miqdorda ayrim o'simliklarda uchraydi. Sanoatda kraxmalni fermentativ gidroliz qilib olinadi.


Kristall holatda  $\alpha$ - hamda  $\beta$ -shaklda mavjud bo'ladi, eritmalarida mutarotatsiya kuzatiladi. Maltoza molekulasi o'zaro  $1 \rightarrow 4$

tartibda bog'langan ikki molekula glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan, glikozid bog'i  $\alpha$ -konfiguratsiyaga ega. Maltoza 4-( $\beta$ -D-glyukopiranozido)- $\alpha$ - yoki  $\beta$ - D-glyukopiranoza deb nomlanishi mumkin.



$\alpha$ -maltoza  $108^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda,  $[\alpha]_D = +173^{\circ}$ .  $\beta$ -maltoza esa  $102\text{--}103^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi,  $[\alpha]D = +111,7^{\circ}$ . Maltoza suvda yaxshi eriydi, shirin ta'mga ega. Organizmda glyukozagacha oson fermentativ parchalanadi.

*Galaktoza* (sut shakari) – sut tarkibida bo'ladi. Laktoza molekulasi galaktoza va glyukoza qoldiqlaridan iborat. Ular o'zaro 1 $\rightarrow$ 4 tartibda bog'langan, glikozid bog'i  $\beta$ -konfiguratsiyaga ega. Kristall holatda laktoza  $\alpha$ - hamda  $\beta$ -shaklda mavjud bo'ladi, odatda  $\alpha$ -shaklda kristallanadi, eritmalarida mutarotatsiya kuzatiladi. Laktoza 4-( $\beta$ -D-galaktopiranozido)- $\alpha$ - yoki  $\beta$ - D-glyukopiranoza deb nomlanishi mumkin.




Laktoza suvda kamroq eriydi, shirinligi saxarozadan 5 marta kam. Laktoza spirtli bijg'ishga uchramaydi, maxsus fermentlar ta'sirida sut kislotosigacha parchalanadi.

*Saxaroza* (shakarqamish shakari) – birinchi marta shakarqamishdan olingan. Qadimdan ma'lum bo'lgan, Yevropaga XVI asrda olib kelingan. Qand lavlagi tarkibida saxaroza borligi 1747-yilda aniqlangan.

*Saxaroza*  $185^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda yaxshi eriydi, mutarotatsiya kuzatilmaydi  $[\alpha]_D = +66,5^{\circ}$ . Saxaroza

qaytarmaydigan disaxaridlardan hisoblanadi, chunki erkin glikozid gidroksil guruhi yo'q. Saxaroza molekulasi glyukoza va fruktoza qoldiqlaridan tashkil topgan, ular 1→4 tartibda bog'langan. Saxaroza 4-( $\alpha$ -D-glyukopiranozido)- $\beta$ -D-fruktosiranozid deb nomlanishi mumkin.



Saxarozaning suvli eritmasi kislota ishtirokida qaynaguncha qizdirilsa glyukoza va fruktoza aralashmasi (invert shakar, sun'iy asal) hosil bo'ladi.

## POLISAXARIDLAR

Polisaxaridlар tabiiy yuqori molekulali birikmalar bo'lib, makromolekulalari o'zaro glikozid bog'lar bilan bog'langan monosaxarid monomerlardan tashkil topgan.

### ASOSIY VAKILLARI

*Kraxmal* – o'simliklarda zaxira ozuqa sifatida to'planadi, ayniqsa donli o'simliklarda, kartoshkada ko'p miqdorda bo'ladi. Oq yoki biroz sarg'ish tusli kukunsimon modda. Sanoatda kartoshkadan va makka-joxori donidan olinadi. Kraxmal 20–100 mkm o'lchamli mikroskopik donachalar hosil qiladi. Suvda bo'kadi, asta-sekin gidrolizlanib yopishqoq eritmalar, kleyster hosil qiladi.

Kraxmal bir-biridan tuzilishi bilan farq qiladigan ikki xil polisaxarid dan – *amiloza* va *amilopektindan* tashkil topgan.


Amiloza molekulasi  $\alpha$ -glyukoza qoldiqlaridan iborat, glikozid bog'ları  $\alpha$ -konfiguratsiyaga ega. Amiloza makromolekulasi tarmoqlanmagan, fazoviy tuzilishi spiral ko'rinishga ega.

Amilopektin makromolekulasi 6-uglerod atomi orqali tarmoqlangan, molekulyar massasi 100 000 dan 1 000 000 gacha bo'ladi.

Kraxmal eritmasiga yod eritmasi ta'sir ettirilsa ko'k rang paydo bo'ladi ( $\lambda_{max} = 620$ –650 nm). Ushbu reaksiya yodid-ionlar uchun (yoki kraxmal uchun) sifat reaksiya hisoblanadi.

Kraxmal xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Kraxmaldan glyukoza, patoka (sirop), etil spiriti, butil spiriti, sut kislotasi, limon kislotasi va boshqa mahsulotlar olinadi. Kraxmal to'qimachilik sanoatida, dori-darmon, yelim va bo'yoqlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

*Sellyuloza* – o'simliklarda keng tarqalgan polisaxaridlardan biri. Sellyuloza makromolekulasi asosan  $\beta$ -glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan, struktura birligi takrorlanuvchi  $\beta$ -sellobioza disaxaridi hisoblanadi. Molekulyar massasi 21 000 dan 525 000 gacha.




$\beta$ -sellobioza

Sellyuloza makromolekulasi tarmoqlanmagan, chiziqli tuzilishga ega. Makromolekulalar o'zaro parallel joylashib tola hosil qiladi. Shuning uchun sellyuloza suvda bo'kmaydi va erimaydi, ishqor eritmalarida bo'kadi. Bu alkoxsidlar hosil bo'lishi bilan bog'liq.



Molekulyar massasi kichikroq sellyuloza ishqor eritmasida eriydi. Shuningdek, sellyuloza ikki valentli mis tuzlari va ammoniy gidroksid aralashmasi (Shveyser reaktivisi) da ham eriydi. Shveyser reaktivida  $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$   $2OH^-$  hosil bo'lib, u sellyuloza bilan reaksiyaga kirishadi va mis alkoxsidlari hosil qiladi. Sellyulozaning Shveyser reaktividagi eritmasi kislotalar bilan neytrallansa sellyuloza boshqacha modifikatsiyada cho'kmaga tushadi. Bunday selluloza sun'iy tola (sun'iy ipak, mis-ammoniyli ipak) ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin.

Sellyuloza ishqorda uglerod sulfid ishtirokida oson erib ksantogenatlar hosil qiladi.




Hosil bo'lgan eritma (viskoza) kislota bilan neytrallansa sellyuloza ajralib chiqadi. Viskozani ingichka teshikcha (filyera) lar orasidan kuchli kislota eritmasiga o'tkazib *viskoza tolosi* olinadi. Viskoza yupqa tirqishlardan o'tkazilib *sellofan* olinadi.

Sellyuloza sirkasi angidridi bilan ta'sirlashganda atsetilsellyuloza hosil bo'ladi.



Atsetilsellyuloza organik erituvchilarda eriydi, sun'iy tola – atsetat ipak va yonmaydigan kino- va fotoplyonkalar olish uchun ishlataladi.

Sellyulozaga nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi bilan ishlov berilganda nitrat kislotasining efiri nitrosellyuloza hosil bo'ladi. Nitrolash sharoitiga muvofiq har darajada nitrolangan nitrosellyuloza hosil bo'ladi.



Nitrosellyuloza organik erituvchilarda eriydi. Kam nitrolangan selluloza nitrosellyuloza lakkari tayyorlash uchun ishlataladi. Ko'proq nitrolangan sellyulozadan *kollodiy* – sellyulozaning etil spirti va dietil efiri aralashmasidagi eritmasi olinadi. Eritmadan erituvchilar uchirib yuborilsa plyonka hosil bo'ladi.

Maksimal darajada nitrolangan sellyuloza piroksilin deb ataladi va undan tutunsiz porox va boshqa mahsulotlar olinadi.


Sellyuloza sulfat kislota eritmasida gidroliz qilinganda glyukoza hosil bo'ladi. Olingan glyukozadan gidroliz spirti deb ataluvchi etil spirti olinadi.

Odam organizmida sellyulozani parchalaydigan fermentlar mavjud bo'limganligi uchun sellyuloza parchalanmaydi.

Yuqori molekulyar tabiiy birikmalar asosida Sh.I.Solihov va A.S.To'rayev shogirdlari bilan hamkorlikda «Lagoden», «Timoptin», «Gazolidon» kabi biologik faol moddalarni o'rjanib amaliyotga joriy etdilar. Yu.T.Toshpo'latov, A.S.To'rayev, G.Rahmonberdiyev karbosimetilsellyuloza olish usullarini ishlab chiqdilar.

*Xitin* – aminopolisaxarid bo'lib, hasharotlar va qisqichbaqa-simonlarning muguz qatlaminis tashkil qiladi. Xitin ayrim zamburug'-larning hujayra devorlarida ham mavjud.

Tuzilishi va xossalari jihatdan xitin sellyulozaga o‘xshaydi. Monomeri 2 holatda gidroksil guruh o‘rniga atsetilaminoguruh tutuvchi  $\beta$ -glukoza (N-atsetilglyukozamin) hisoblanadi.



Xitin suvda, kislotalarda va ishqorlarda erimaydi, chumoli kislotasida kam eriydi. Qaynoq ishqor eritmasida deatsetillanib *xitozan* aminopolisaxaridi hosil bo‘ladi.

## **16-BOB. KARBON KISLOTALARNING BOSHQA FUNKSIONAL GURUHLAR TUTUVCHI HOSILALARI**

Karbon kislotalarning boshqa funksional guruuhlar tutuvchi hosilalarini molekuladagi funksional guruh turlariga ko'ra quyidagi sinflarga bo'lish mumkin:

- 1) Galogenkarbon kislotalar;
- 2) Gidroksikarbon kislotalar;
- 3) Oksokarbon kislotalar;
- 4) Aminokarbon kislotalar.


### **16.1. GALOGENKARBON KISLOTALAR**

Galogenkarbon kislotalar odatdagи qoidalar bo'yicha nomlanadi. Ular galogen atominining soni va joylashgan o'rniغا ko'ra quyi sinflarga bo'linadi. Masalan,


$\text{ClCH}_2\text{COOH}$	$\text{CICH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	$\text{ClCH}_2\text{CH}(\text{Cl})\text{COOH}$
Xlorsirka kislota, Xloretan kislota	$\beta$ -xlorpropion kislota, 3-xlorpropan kislota	$\alpha, \beta$ -dixlорpropion kislota, 2,3-dixlорpropan kislota

### **OLINISH USULLARI**

$\alpha$ -galogenkarbon kislotalar karbon kislotalarni galogenlab olinadi (yoddan tashqari). Ftorlash reaksiyasi natijasida perforkarbon kislotalar hosil bo'ladi. Sanoatda ftorkarbon kislotalar suyuq HF eritmasida elektrokimyoviy usul bilan olinadi. Reaksiya natijasida atsifltoridlar hosil bo'ladi.




Karbon kislotalar qizdirilganda va yorug'lik ta'sirida xlordanadi. Reaksiya natijasida vodorod atomlari xlor atomlariga almashinadi. Masalan,



Boshqa karbon kislotalar xloringanda  $\alpha$ -,  $\beta$ - va  $\gamma$ -xlorkarbon kislotalar ham hosil bo'ladi.  $\text{PCl}_3$  ishtirokida xloringanda asosan  $\alpha$ -xlorkarbon kislotalar chiqadi.

Karbon kisotalarni bromlash reaksiyasi qizil fosfor yoki  $\text{PBr}_3$  ishtirokida boradi. Reaksiyada dastlab atsilbromidlar hosil bo'ladi, keyin ular uglevodorod qoldig'i bo'yicha oson bromlanadi.




Karbon kisotalarni qizil fosfor ishtirokida xlorlash va bromlash reaksiyasini birinchi marta 1881-yilda K.Xell, 1887-yilda Ya.Folgard va N.Zelinskiy o'rganganlar.

$\alpha$ -storkarbon va  $\alpha$ -yodkarbon kislotalar xlor — yoki brom atomini nukleofil o'rinish olish reaksiyasi natijasida olinadi. Masalan,




$\beta$ -galogenkarbon kislotalar  $\alpha$ ,  $\beta$ -to'yinmagan kislotalarga vodorod galogenidlar (vodorod storiddan tashqari) biriktirib olinadi.



$\gamma$ -,  $\delta$ -,  $\varepsilon$ - va  $\omega$ -galogenkarbon kislotlar maxsus metodlar bilan olinadi. Laboratoriya tegishli gidroksikislotalardan olinishi mumkin.


Masalan,  $\omega$ -xlorkapron kislotasi alkenlarni telomerlanishidan hosil bo'ladigan 1,1,1,6-tetraxlorgeksandan olinishi mumkin.



### **FIZIK VA KIMYOVİY XOS SALARI**

Galogenkarbon kislotalar suvda eriydigan, rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir.

Galogenkarbon kislotalar oddiy kislotalarga qaraganda kuchli kislotalardir. (galogen atomining manfiy induktiv effekti). Galogen atomining elektromanfiyligi ortishi bilan, hamda galogen atomlarining soni ortishi bilan kislotqa kuchi ham ortadi. Shuningdek, galogen atomi karboksil guruhidan uzoqlashishi bilan kislotalilik kamayadi.




Ayrim galogenkarbon kislotalarning kislotalilik konstantalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

*30-jadval*


#### **Ayrim galogenkarbon kislotalarning suvli eritmalardagi kislotalilik konstantalari**

Kislotqa	$pK_a$	Kislotqa	$pK_a$
$\text{FCH}_2\text{COOH}$	2,58	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	4,82
$\text{ClCH}_2\text{COOH}$	2,86	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{Cl})\text{COOH}$	2,85
$\text{BrCH}_2\text{COOH}$	2,90	$\text{CH}_3\text{CH}(\text{Cl})\text{CH}_2\text{COOH}$	4,05
$\text{ICl}_2\text{COOH}$	3,17	$\text{ClCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	4,60
$\text{CF}_3\text{COOH}$	-0,2		
$\text{CCl}_3\text{COOH}$	0,65		

Galogenkarbon kislotalar karbon kislotalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi, jumladan, atsilxloridlar, murakkab efirlar, amidlar hosil qiladi.




$\alpha$ -galogenkarbon kislotalar va ularning hosilalari har xil nukleofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Reaksiya tezligi galogenalkanlarga qaraganda kattaroq bo'lib, bu karboksil guruhning induktiv effektiv ta'siri bilan bog'liq.




$\text{NuH} = \text{H}_2\text{O}, \text{NH}_3, \text{HNR}_2, \text{HSR}$  va b.

$\alpha$ -galogenkarbon kislotalarning karboksilat-ionlari nukleofillar bilan ta'sirlashganda karbokationning ichki molekulyar stabillashuvi sodir bo'ladi. Reaksiya odatda  $S_N1$  mexanizm bo'yicha, biroq konfiguratsiyaning saqlanishi bilan boradi.




$\alpha$ -galogenkarbon kislotalar gidroksi- va aminokislotalar olishda dastlabki moddalar hisoblanadi.

Shunga o'xshash reaksiyalar  $\beta$ -,  $\gamma$ -,  $\delta$ - va  $\omega$ -aminokislotalarda ham kuzatiladi.  $\beta$ -galogenkarbon kislotalar nukleofil o'rinni olish reaksiyalarini bilan bir vaqtida boradigan parchalanish reaksiyasiga ham kirishadi.




$\alpha$ -galogenkarbon kislotalar, ayniqsa,  $\alpha$ -trigalogenkarbon kislotalar qizdirilganda oson dekarboksillanadi.



### **MUHIM VAKILLARI**

*Xlorsirka kislotasi* – 61°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda va organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Sanoatda xlorsirka kislotasi sirka kislotasini fosfor xloridlar yoki oltingugurt xloridlar ishtirokida xlorlab olinadi. Shuningdek, trixloretilenni 180°C da, 90 % li sulfat kislotadagi eritmada gidratlash va gidroliz qilish usuli ham qo'llaniladi.



Xlorsirka kislotasi bo‘yoq moddalar, gerbitsidlar, kompleksyonlar ionitlar va moddalar olishda qo'llaniladi.


*Triftorsirka kislotasi* – 72,4°C da qaynaydigan, o‘tkir hidli rangsiz suyuqlik, havoda tutaydi, terini shikastlaydi. Suv va organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Triftorsirka kislotasi sanoatda sirka kislotasi yoki sirka angidrididan elektro-kimyoviy usul bilan olinadi.

Triftorsirka kislotasi organik sintezda erituvchi, hamda samarali kislota katalizatori sifatida qo'llaniladi. Triftorsirka kislotasining angidridi 38,5°C da qaynaydigan suyuqlik bo‘lib, atsillash reaksiyalarida katalizator sifatida va suv tortib oluvchi vosita sifatida ishlatiladi.


### **16.2. GIDROKSIKISLOTALAR**

Gidroksikislotalarga gidroksikarbon, gidroksidikarbon, gidroksitrikarbon, digidroksikarbon, digidroksidikarbon va boshqa shu kabi kislotalar, shuningdek, fenolkarbon kislotalar kiradi. Gidroksil guruh joylashgan o‘rniga qarab  $\alpha$ -,  $\beta$ -,  $\gamma$ -,  $\delta$ -gidroksikarbon kislotalarga bo‘linadi.


Formulasi		Nomlanishi	
	Tarixiy	Ratsional	Sistematik
HOCH <sub>2</sub> COOH	Glikol kislotasi	Gidroksisirka kislota	Gidroksietan kislota
H <sub>3</sub> C—CH(OH)—COOH	Sut kislotasi	α-gidroksi-propion kislota	2-gidroksipropan kislota
HO—CH(CH <sub>2</sub> COOH)COOH	Olma kislotasi	Gidroksiqahrabo kislota	2-gidroksibutan-dikislota
HO—CH(HO—CHCOOH)COOH	Vino kislotasi	Digidroksiqahrabo kislota	2,3-digidroksi-butandikislota
	Salitsil kislotasi	o-gidroksibenzoy kislota	

### OLINISH USULLARI

**α-gidroksikislotalar** α-galogenkarbon kislotalardan oson hosil bo‘ladi:




Ikkinchisi usul siangidrin usuli bo‘lib, bunda dastlab vodorod sianid karbonil birikmaga biriktiriladi, keyin hosil bo‘lgan α-gidroksinitril siangidrin gidroliz qilinadi:




Ayrim α-gidroksikislotalar tabiiy mahsulotlarda ham topilgan. Tabiiy α-gidroksikislotalar optik aktiv birikmalardir. Sintetik α-gidroksikislotalar bunday aktivlikka ega emas, ya’ni ratsemat aralashmalardir.

**β-gidroksikislotalar** S. Reformatskiy metodi bo‘yicha oson olinadi (1887-y.). Reformatskiy reaksiyasida α-galogenkarbonkislotalarning murakkab efirlariga rux ishtirokida karbonil birikmalar ta’sir ettiriladi:




Bundan tashqari  $\alpha$ ,  $\beta$ -to'yinmagan karbon kislotalarga suv biriktirib,  $\beta$ -galogenkarbon kislotalarni gidroliz qilib,  $\beta$ -oksokarbon kislotalarni gidridlab ham  $\beta$ -gidroksikislotalar olish mumkin.

$\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikislotalar har xil metodlar bilan olinadi. Masalan,  $\gamma$ -gidroksimoy kislotasi butandiol-1,4 va tetragidrofuranni oksidlab olinadi. Bunda dastlab  $\gamma$ -gidroksimoy kislotasining laktoni ( $\gamma$ -butirolakton, butanolid) hosil bo'ladi. Keyin lakton ishqoriy muhitda gidroliz qilinib  $\gamma$ -gidroksimoy kislotasining tuzi olinadi.



**Digidroksikarbon-** va **digidroksidikarbon** kislotalar to'yinmagan karbon kislotalardagi qo'shbog'ni oksidlab olinishi mumkin:



$\text{KMnO}_4$  bilan oksidlash *sis*-birikish kabi stereoselektiv boradi.

**Fenolkarbon kislotalar.** Fenolkarbon kislotalar arenlarning hosilalarini karboksillab yoki gidroksillab olinish mumkin. Fenollarni karboksillash

reaksiyasi sanoat ahamiyatiga ega. Reaksiya 1860-yilda G.Kolbe tomonidan ishlab chiqilgan, 1885-yilda R.Shmitt reaksiyani bosim ostida o'tkazish usulini taklif qilib takomillashtirilgan.

### FIZIK VA KIMYOVİY XOSSALARI

Gidroksikislotalar rangsiz suyuq yoki kristall moddalar bo'lib suvda yaxshi eriydi, nordon ta'mga ega.

Glioksal kislotasidan tashqari barcha  $\alpha$ -gidroksikislotalarning molekulalari asimmetrik uglerod atomi tutganligi uchun xiraldir. Sof enantiomerlar optik faol. Ularning solishtirma burish burchagi bir xil, lekin qarama-qarshi ishoraga ega.


$\alpha$ -gidroksikislotalar gidroksialdegidlar va monosaxaridlar kabi D- yoki L- izomerlarga bo'linishi mumkin.

Birikma	pK <sub>a</sub> 1	pK <sub>a</sub> 2
HOCH <sub>2</sub> COOH	3.83	
CH <sub>3</sub> CH(OH)COOH	3.06	
HOCH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> COOH	4.72	
HOOCCH(OH)CH <sub>2</sub> COOH	3.40	5.11
ortho-HOC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> COOH	3,00	

R,S-nomenklatura bo'yicha D-qator  $\alpha$ -gidroksikislotalar va  $\alpha$ -gidroksidikarbon kislotalar R-konfiguratsiyaga to'g'ri keladi. O'rindbosarlar kattaligi COOH, OH, R tartibida kamayib boradi (R=alkil, aril).

Barcha gidroksikislotalar odatdag'i karbon kislotalardan kuchliroq kislotalar hisoblanadi (OH guruhining elektronoakseptor ta'siri yoki -I effekt).

Gidroksikislotalar karbon kislotalarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Karboksil guruhning reaksiyalariga ba'zan gidroksil guruh xalaqit beradi, ya'ni bu guruh ham reaksiyaga kirishishi mumkin. Shuning uchun uni oddiy yoki murakkab efir shakliga o'tkaziladi (himoyalananadi). Masalan,




Shu bilan birgalikda gidroksil guruh spirtlarga xos reaksiyalarga kirishadi. Agar carboksil guruh bunga xalaqit bersa, carboksil guruh murakkab efiriga aylantiriladi.

$\beta$ -gidroksikislotalar oson degidratlanib to‘yinmagan karbon kislotalarni hosil qiladi.


Gidroksikislotalarning carboksil va gidroksil guruhlarining o‘zaro ta’siri natijasida siklik murakkab efirlar – *laktonlar yoki laktidlar* hosil bo‘ladi.

$\alpha$ -gidroksikislotalar ikki molekula kislotadan hosil bo‘lgan murakkab efirlar – laktidlar hosil qiladi:





Barqaror  $\alpha$ -laktonlar hozirgacha olinmagan.


$\beta$ -gidroksikislotalar faqat maxsus metodlar yordamida  $\beta$ -laktonlarga aylantirilishi mumkin:



$\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikislotalar juda oson barqaror  $\gamma$ - va  $\delta$ -laktonlar hosil qiladi:




Konsentrangan sulfat kislotasidagi eritmada  $\alpha$ -gidroksikislotalar o‘ziga xos reaksiyaga kirishadi, ya’ni  $\text{CO}$  va  $\text{H}_2\text{O}$  ajratib chiqarib aldegidlar yoki ketonlarga aylanadi.



### MUHIM VAKILLARI

*Glikol kislotasi* –  $80^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda yaxshi eriydi.


Glikol kislotasi lavlagi sharbati, pishmagan uzum suvi kabi tabiiy mahsulotlar tarkibida topilgan. Sintetik glikol kislotasi oksalat kislotasini eletrolitik qaytarish yo‘li bilan, yoki kislota katalizatorlari ishtirokida bosim ostida formaldegid, is gazi va suvdan, yoki xlorsirka kislotasidan olinadi.




Glikol kislotasi organik sintezda ishlataladi.

*Sut kislotasi* uch xil shaklda uchraydi. Ulardan ikkitasi optik faol (enantiomerlar) va uchinchisi ratsemat aralashmadir. O‘ngga va chapga buruvchi sut kislotalarining absolyut konfiguratsiyalari aniqlangan. O‘ngga buruvchi enantiomer *L*-qatorga (*S*-konfiguratsiya), chapga buruvchi enantiomer *D*-qatorga (*R*-konfiguratsiya) mansub.

Toza *L*-sut kislotasi  $26^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan juda gigroskopik kristall modda. Biroq, odatda ushbu kislota yopishqoq suyuqlik ko‘rinishida bo‘ladi. Solishtirma burish burchagi  $[\alpha]_D^S = +3,8^\circ$  (10 % li suvli eritma) ga teng. Birinchi marta go‘sht ekstraktidan ajratib olingan.



*L (+)-sut kislotasi*




*D(-)-sut kislotasi*


( $\pm$ )-Sut kislotasi  $18^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan yopishqoq suyuqlik bo‘lib, sut, tuzlangan karam, bodring tarkibiga kiruvchi uglevodlarni sut kislotali bijg‘ishi natijasida hosil bo‘ladi. Birinchi marta 1780-yilda K.Sheele tomonidan sut tarkibida topilgan.

Sut kislotasi oziq-ovqat, charm sanoati, hamda to'qimachilik sanoatida matolarni bo'yash uchun ishlataladi.

Olma kislotasi rangsiz kristall modda, yoqimli nordon ta'mga ega, suvda yaxshi eriydi. Olma kislotasining ikkita enantiomeri va bitta ratsemat shakli mavjud.



*L* (-)-olma kislotasi



*D*(+)-olma kislotasi

*L*-Izomer S-konfiguratsiyaga to'g'ri keladi, shuning uchun *S*(-)-olma kislotasi va *R*(+)-olma kislotasi ko'rinishida yozish mumkin.




*L*-Olma kislotasi 99-100°C da suyuqlanadi,  $[\alpha]_D = -5,7''$  (atseton)ga teng.

### 16.3. OKSOKISLOTALAR


Oksokislotalar karbon kislotalarning hosilalaridan hisoblanadi. Ular odatdagi qoidalar bo'yicha nomlanadi. Shuningdek trivial nomlash ham qo'llaniladi.

Kislotা	Tarixiy nomi	Ratsional nomi	Xalqaro nomi
	Glioksil kislotা		Oksoetan kislotা
	Malonaldegid kislotasi	Formilsirka kislotasi	3-Oksopropan kislotা
	Pirouzum kislotasi	$\alpha$ -Ketopropion kislotasi	2-Oksopropan kislotা
	Atsetosirka kislotasi	Atsetilsirka kislotasi, $\beta$ -ketomoy kislotasi	3-Oksobutan kislotা

$\alpha$ -oksokislotalar  $\alpha$ ,  $\alpha$ -digalogenkarbon kislotalarni gidroliz qilib,  $\alpha$ -gidroksikislotalarni oksidlab, atsilgalogenidlarga sianidlar ta'sir ettirib olinadi:





$\beta$ -oksokislotalar  $\beta$ -oksokislotalarning murakkab efirlarini gidroliz qilib, yoki yenolyatlarni karboksillab olinishi mumkin.




$\beta$ -oksokislotalar va ularning tuzlari beqaror bo'lib, oson dekarbok-sillanadi. Shuning uchun ko'pincha  $\beta$ -oksokislotalarning murakkab efirlari ishlataladi.

Murakkab efir kondensatsiyasida  $\beta$ -oksokislotalarning tuzlari olinadi. Tuzlar kislotalar bilan neytrallanganda  $\beta$ -oksokislota murakkab efirining yenol va dikarbonil ko'rinishdagi tautomer aralashmasi hosil bo'ladi.






Chumoli kislotasi va boshqa kislotalarning murakkab efirlari aralashmalarini kondensatsiyasi natijasida  $\beta$ -algedidokislotalarning efirlari hosil bo‘ladi.



Dikarbon kislotalarning murakkab efirlarini kondensatsiyasi natijasida sikloalkankarbon kislotalarning efirlari chiqadi (Dikman kondensatsiyasi).




$\gamma$ - va  $\delta$ -oksokislotalar tegishli oksikislotalarni oksidlab olinadi. Shuningdek, maxsus metodlar ham qo‘llaniladi.

### FIZIK – KIMYOVYI XOSSALARI



$\alpha$ -oksokislotalar suvda eriydigan rangsiz moddalardir. Ular karbon kislotalar va karbonil birikmalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Karboksil va karbonil guruhlar bir-birini faollashtirgani uchun  $\alpha$ -oksokislotalar oddiy karbon kislotalarga qaraganda kuchliroq reaksiyon qobiliyatga ega.

$\alpha$ -oksokislotalar  $\alpha$ -gidroksikislotalarga qaraganda kuchliroq kislotalardir. Shuning uchun qizdirilganda osonroq dekarboksillanadi.




$\alpha$ -oksokislotalar nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi, bunda asosan karbonil guruhgaga birikish ketadi.


$\alpha$ -oksokislotalarning oksidlanishi va konsentrangan sulfat kislota ishtirokida dekarboksillanishi ularning o'ziga xos reaksiyalaridir.



$\beta$ -Oksokislotalar rangsiz, termik beqaror birikmalardir. Kislotalar tuzlaridan ko'ra osonroq dekarboksillanadi. Dekarboksillanish ichki molekulyar vodorod bog' hisobiga osonlashadi degan taxmin mavjud.




$\beta$ -Oksokislotalarning murakkab efirlari xushbo'y hidli rangsiz suyuqliklardir. Ular yenol va dikarbonil shakldagi tautomerlar aralashmasidan iborat. Kimyoviy jihatda  $\beta$ -diketonlarga o'xshaydi. Lekin kislota xossalari kuchsizroq. Buni  $\beta$ -oksomoy kislotasining etil efiri (atsetosirkha efiri) ni tautomer o'zgarishida ko'rish mumkin.




Atsetosirkha kislatasining suvli eritmasida 0,8 % yenol, spirtdagi eritmasida 8,7 %, suyultirilmagan eritmasida esa 7 % atrofida yenol bo'lishi aniqlangan.

$\beta$ -Oksokislotalar efirlarining anionlari tenglashgan bog'lar va delokallashgan elektronli tutash sistemaga ega bo'lib, ular bir nechta reaksiyon markazi mavjud bo'lgan ambident anionlar hisoblanadi. Ulaming tuzlari suyultirilmagan eritmalarda ion justlari shaklida bo'ladi.

Og‘ir metallarning ionlari rangli ichki komplekslar – xelatlar hosil qiladi.




$\beta$ -Oksokislotalar efirlarining tuzlari  $\beta$ -diketonlarning tuzlari kabi oson alkillanadi va atsillanadi.




Reaksiya asosan uglerod atomi bo‘yicha ketadi, chunki kislorod atomi sezilarli darajada metall ioni bilan to‘siladi. Faqat kompleks hosil qilishga moyilligi kam bo‘lgan ( $\text{Rb}^+$ ,  $\text{Cs}^+$ ) yoki kompleks hosil qilmaydigan (masalan, tetrametilammoniy) ionlarning tuzlari qo‘llanilgandagina kislorod atomi bo‘yicha alkillash reaksiyasi ketadi.

Atsetosirka efirining, shuningdek, boshqa  $\beta$ -ketokislotalar efirlarining uglerod atomi bo‘yicha alkil hosilalari ketonlar va karbon kislotalar olishda boshlang‘ich moddalar hisoblanadi.


Almashingan atsetosirka efirining suvli eritmalarida kislotalar bilan yoki suyultirilgan ishqor eritmalarida gidroliz qilinishi natijasida dekarboksillanish kuzatiladi va keton hosil bo‘лади. Atsetosirka efirining mazkur reaksiyasi *ketonli parchalanish* deyiladi.




Konsentrangan ishqor eritmaları ta'sirida uglerod-kislород va uglerod-uglerod bog'lari gidrolitik uзiladi va karbon kislotalaning tuzi hosil bo'ladi atsetosirka efirining ushbu reaksiyasi *kislotali parchalanish* deyiladi.




$\beta$ -oksokislotalar efirlarining aldegidlar bilan kondensatsiya reaksiyasi  $\beta$ -diketonlarning ayni reaksiyalariga o'xshaydi.



$\beta$ -oksokislotalar efirlarining N-nukleofil reagentlar bilan reaksiyasi ham  $\beta$ -diketonlarning ayni reaksiyalarini kabi boradi.



Gidrazin bilan boradigan reaksiyada pirazolonlar hosil bo'ladi.  $\gamma$ - va  $\delta$ -oksokislotalar ham karbonil birikmalar va karbon kislotalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida sikllanish reaksiyasi ketishi ham mumkin. Masalan,



Bunday izomer o'zgarishlar  $\gamma$ - va  $\delta$ -gidroksikarbonil birikmalar va uglevodlarda ham kuzatiladi.


### **ASOSIY VAKILLARI**

*Glioksil kislotasi* – 98°C da suyuqlanadigan kristallgidrat shaklida bo'ladi. Ushbu kislota dixlorsirka kislotasidan olinadi. Reaksiyon qobiliyati yuqori bo'lganligi uchun organik sintezda qo'llaniladi.

*Pirouzum kislotasi* – sirka kislota hidli, 165°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Suvda eriydi. Qaynash temperaturasida qisman parchalanganligi uchun vakuumda haydaladi.


Pirouzum kislotasi organizmning har xil to'qimalarida uchraydi, sut kislotali va spirtli bijg'ish jarayonlarida oraliq mahsulot sifatida hosil bo'ladi. Pirouzum kislotasi biologik faol modda hisoblanadi, turli biokimyoiy reaksiyalarda ishtirok etadi.

Sintetik pirouzum kislotasi vino kislotasini  $\text{KHSO}_4$  ishtirokida qizdirib olinadi.



*Atsetosirka efiri* (atsetosirka kislotasining etil efiri) – xushbo'y hidli, 181°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Amalda ikki xil shakldagi tautomer aralashmasidan iborat. Atsetosirka efirining eritmalarini  $-40...-50^\circ\text{C}$  gacha sovitib dikarbonil shaklini toza holatda ajratib olish mumkin.  $-39^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan kristallar hosil qiladi. Xona temperurasida dikarbonil shakl qisman yenol shakliga o'tadi.

Sanoatda atsetosirka efiri etilatsetatdan yoki diketenden olinadi.




Atsetosirka efiri pirazolonlar, akrixin kabi dorivor moddalar, bo‘yoqlar va piridin hosilalari olish uchun ishlataladi.

#### 16.4. AMINOKISLOTALAR


Karbon kislotalardagi radikal vodorodlaridan bir yoki bir nechta aminoguruhg'a almashinishi natijasida hosil bo‘lgan moddalar aminokislotalar deb ataladi. Shuning uchun aminokislotalar karbon kislotalarning aminoguruh tutuvchi hosilalaridir. Tarkibidagi karboksil, aminoguruhlar, hamda aminoguruhning joylashuviga qarab sinflanadi. Aminokislotalar umumiyligi qoidalar bo‘yicha nomlanadi. Ayrim aminokislotalar, xususan oqsillar tarkibiga kiruvchi aminokislotalar tarixiy nomlar bilan ham nomlanadi. Masalan,




Glitsin, aminosirka kislotasi  
aminoetan kislotasi



$\beta$ -aminopropion kislotasi  
3-aminopropan kislotasi



Lizin, 2,6-diaminogeksan kislotasi




Alanin,  $\alpha$ -aminopropion kislotasi  
2-aminopropan kislotasi


**Olinishi.**  $\alpha$ -aminokislotalari asosan tabiiy manbalardan olinadi. Oqsillarning suvli eritmalari kislotali muhitda gidroliz qilinsa  $\alpha$ -aminokislotalar aralashmasi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan aralashmadan alohida aminokislotalar har xil usullar bilan ajratib olinadi. Oqsillardan ajratib olingan aminokislotalar (aminosirka kislotasidan tashqari) optik faol.

**$\alpha$ -aminokislotalar**  $\alpha$ -galogenkarbon kislotalardan, aldegidlardan, galogenuglevodorodlardan sintez qilinishi mumkin.


$\alpha$ -galogenkarbon kislotalar ammiak bilan oson reaksiyaga kirishib tegishli  $\alpha$ -aminokislotalarga aylanadi.




Aldegidlar vodorod sianid va ammiak bilan ta'sirlashib  $\alpha$ -aminokislotalarning nitrillarini hosil qiladi. Reaksiya uchun kaliy sianid va ammoniy xlorid ishlataladi (Shtrekker-Zelinskiy reaksiyasi, 1906-y.).



Hosil bo'lgan nitril gidroliz qilinsa tegishli aminokislotaga aylanadi.




Atsetilaminomalon efiri galogenuglevodorodlar bilan alkillanadi. Hosil bo'lgan birikma gidroliz qilinsa dekarboksillanib tegishli aminokislotasi chiqadi.




Aminokislotalarning kimyoiy sintezi natijasida optik faol bo'limgan ratsemat aminokislotalar hosil bo'ladi. Ratsematlar maxsus usullar yordamida ajratib olinadi.

$\beta$ -aminokislotalar  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbon kislotalarga ammiak biriktirib olinadi. To'yinmagan kislota olinishi va unga ammiakni biriktirishning bir bosqichli qulay usuli ishlab chiqilgan (V.Rodionov, 1926-y.). Reaksiya aldegidni, malon kislotasi va ammiakni sirkalasidagi eritmasida olib boriladi.




Aminoguruhi karboksil guruhidan yanada uzoqroqda joylashgan aminokislotalarni olish uchun maxsus metodlardan foydalilanadi. Ushbu metodlar asosan aminokislotalarning siklik amidlari-laktamlar olishga, keyin ularni ishqoriy muhitda gidroliz qilishdan iborat.

$\gamma$ -butirolaktam (pirrolidon) qahrabo kislotasining imidini katalitik gidrogenlab olinadi.  $\gamma$ -butirolaktam ishqoriy muhitda gidroliz qilinsa  $\gamma$ -aminomoy kislotasining tuzi chiqadi, tuzga kislota ta'sir ettirib qilinsa  $\gamma$ -aminomoy kislotasi olinadi.




$\gamma$ -aminomoy kislotasi  $\gamma$ -butirolaktamga oson aylanishi mumkin.  $\gamma$ -valerolaktam va  $\epsilon$ -kaprolaktam oksimlarni Bekman qayta gruppalanishdan hosil bo'лади.




Aminokislotalar suvda eriydigan rangsiz kristall moddalardir, ayrimlari, masalan, glitsin shirin ta'mga ega. Aminokislotalarning suyuqlanish temperaturalari yuqori (parchalanish bilan suyuqlanadi).

Yuqorida aytib o'tilganidek  $\alpha$ -aminokislotalar optik faollikka ega. Gidroksikislotalar kabi aminokislotalar ham D- yoki L-izomerlarga bo'linadi.




D-aminokislota




L-aminokislota

Aminokislotalarning molekulasida qarama-qarshi tabiatli ikkita funksional guruh mavjud: karboksil va aminoguruuhlar. Ushbu guruhlar molekula ichida o'zaro ta'sirlashib ichki tuzlar – betainlarni hosil qiladi.




$\alpha$ -aminokislotalarning kristallarini rentgenstruktura analiziga ko'ra karboksil guruh ionlangan holatda bo'ladi, uglerod-kislorod bog'larining uzunligi deyarli bir xil.



Boshqa aminokislotalar ham betainlar ko'rinishida mavjud bo'ladi. Aminoarenkarbon kislotalarda aminoguruuhning asosliligi kam bo'lganligi uchun betain hosil bo'lish ehtimoli ham kam.

Aminokislotalarning suvli eritmalarida muhitning pH iga qarab betain, anion yoki kationning miqdorlari o'rtasida muvozanat vujudga keladi.



Betain, anion, kation va aminokislotaning muvozanatdagi nisbati tegishli ionlanish konstantalari bilan aniqlanadi. Protonlangan  $\alpha$ -aminokislota (kation) kuchli OH-kislota hisoblanadi ( $pK_a \sim 2,35$ ). Shuning uchun asosan karboksil guruh ionlanadi va betain hosil bo'ladi. Protonlangan aminoguruh juda kam miqdorda ionlanadi va aminokislota ham juda oz hosil bo'ladi.


Betain kuchsiz NH- kislota hisoblanadi, ionlanishi natijasida aminokislota anioni hosil bo'ladi:  $pK_{\text{betain}} \sim 9,7 \dots 9,9$ . Anion azot atomi bo'yicha protonlanadi.

Betain suvli eritmalarda pH ning keng oralig'i (intervali) da mavjud bo'ladi. Aminokislotaning konsentratsiyasi betain konsentratsiyasining  $10^{-5} \dots 10^{-6}$  qisminigina tashkil etadi.

pH ning shunday qiymati ham mavjudki, unda betainning miqdori maksimal bo'ladi. Ushbu qiymat aminokislota eritmasini pH ning har xil qiymatlarida elektr o'tkazuvchanligini o'lchash asosida aniqlanadi. Eng kam elektr o'tkazuvchanlik betain eng ko'p miqdorda bo'lganda kuzatiladi. pH ning bunday qiymati *izoelektrik nuqta* deyiladi va  $pH_i$  bilan belgilanadi.

$\alpha$ -aminokislotalar uchun  $pH_i$  qiymati taxminan 6,1 ga teng.

Aminoguruh karboksil guruhidan uzoqlashgan sari kislotalilik konstantasi ham o'zgaradi. Masalan,



Diamino- va aminodikarbon kislotalar ham ichki tuzlar hosil qiladi. Diaminokislotalar uchta dissotsiyalanish konstantasiga ega. Ularning


pH<sub>i</sub> qiymati 7 dan kichik bo'ladi. Kislotali muhitda dikation ko'rnishiga ega bo'ladi. Diaminokislotalarning asos xossalari ammiakning xossalariiga yaqin.

Aminodikarbon kislotalarning pH<sub>i</sub> qiymati 7 dan katta, ishqoriy sharoitda dianion ko'rinishda bo'ladi. Aminodikarbon kislotalarning kislota xossalari sirkal kislotaning xossalardan kuchliroq.

**Karboksil guruhning reaksiyaları.** Aminokislotalar oddiy kislotalar kabi asoslar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi.




Og'ir metallarning ionlari aminokislotalar bilan ta'sirlashganda ichki molekulyar kompleks birikmalar – xelatlar hosil qiladi.



Aminodikarbon kislotalar metall ionlari bilan suvda eriydigan komplekslar hosil qiladi. Bunday aminokislotalar *kompleksonlar* deyiladi. Eng ko'p ishlataladigan komplekson etilendiamintetrasirkal kislotasi (trilon B) hisoblanadi.


Aminokislotalar oson murakkab efirlarni hosil qiladi, ular amidlarga aylantirilishi mumkin.




Eterifikatsiya reaksiyasida murakkab efirlarning tuzlari hosil bo'ladi, ulardan toza efirlar ajratib olinadi.

Aminoguruhning reaksiyaga kirishib ketishi mumkin bo'lganligi uchun aminokislotalarning o'zidan bevosita xlorangidridlarni va angidridlarni olib bo'lmaydi. Shuning uchun aminoguruh atsillash yo'li bilan himoyalanadi, keyin N-atsilaminokislotaning xlorangidridi olinadi.

**Aminoguruhning reaksiyalari.** Aminokislotalar birlamchi aminlarga xos barcha reaksiyalarga kirisha oladi. Aminoguruh protonlanmasligi alkillash va atsillash reaksiyalari uchun ishqoriy muhitda o'tkaziladi.




Nitrit kislotasi ta'sirida aminoguruh parchalanadi va gidroksikislota hosil bo'ladi.




Mazkur reaksiyada azot ajralib chiqadi, bu eritmardagi  $\alpha$ -aminokislotalarni miqdorini aniqlashda qo'llaniladi (D.Van Slayk, 1910-y.).

$\alpha$ -aminokislotalarning murakkab efirlarni diazotirlab organik sintezda qo'llaniladigan sarg'ish tusli portlovchi moddalar – diazoefirlar onnadi.




Ushbu birikmalarning tuzilishi va xossalari diazoketonlarga o'xshaydi.

**Iffi tomonlama reaksiyalar.** A)  $\alpha$ -aminokislotalar qizdirilganda ikki molekula aminokislutaning kondensatsiyasidan amid hosil bo'ladi. Bunday birikmalar oqsillar kimyosida *dipeptidlar* deb yuritiladi.




Reaksiya natijasida yonaki mahsulotlar ham chiqadi. Peptidlar olishning maxsus usullari ishlab chiqilgan.

B)  $\alpha$ -aminokislotalarning murakkab efirlari qizdirilganda siklik amidlar – diketopiperazinlar hosil bo'ladi.




Reaksiya sharoitiga bog'liq ravishda chiziqli oligo- va polipeptidlar ham hosil bo'ladi.

$\beta$ -aminokislotalar termik beqaror bo'lib, qizdirilganda ammiak ajralib chiqadi. Faqat ayrim holatlarda, maxsus reagentlar, masalan, karbodiimidlar ishlataliganda  $\beta$ -laktamlar olish mumkin.



$\gamma$ - va  $\delta$ -aminokislotalar juda oson laktamlar hosil qiladi.


D) Oksidlovchilar ta'siri.  $\alpha$ -aminokislotalar kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlanadi. Reaksiya natijasida ammiak, karbonat angidrid va aldegid hosil bo'ladi. Aldegid keyin karbon kislotagacha oksidlanadi.



E) Ningidrin reaksiyasi.  $\alpha$ -aminokislotalarning o'ziga xos reaksiyalardan biri ningidrin (nidantrion-1,2,3 ning gidiatri) bilan reaksiyasidir. Suvli eritmalarida qizdirilganda ko'k-binafsha rang hosil bo'ladi.


Rangning intensivligi aminokislotaning konsentratsiyasiga proporsional.

Aminokislota ningidrin bilan ta'sirlashib azometin tipidagi birikma hosil qiladi.



Kondensatsiya reaksiyasi mahsuloti qayta gruppalanadi va gidrolizlanib 2-aminoindandion hosil qiladi, ushbu birikma ningidrin bilan ta'sirlashib bo'yoq moddaga aylanadi.

Ningidrin reaksiyasida rang hosil bo'lishi bo'yoq modda – *Rueman ko'king* hosil bo'lishi bilan bog'liq.







### **MUHIM VAKILLARI**

$\alpha$ -Aminokislotalar peptidlар va oqsillarning asosiy strukturni elementlari hisoblanadi. Oqsillar tarkibida 20 xil har xil aminokislota uchraydi. Ulardan bir qismi organizmda hosil bo'ladi, qolgan qismi esa ozuqa moddalari bilan birga iste'mol qilinadi. Odam organizmi uchun almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar quyidagilar: lizin, treonin, triptofan, metionin, fenilalanin, leysin, izoleysin va valin.

### Eng muhim tabiiy $\alpha$ -aminokislotalar

Nomi	Kimyoviy formulasi	Shartli belgisi	Solishtirma burish burchagi (L-qator uchun) $[\alpha]_D^{25} (H_2O)$
Glitsin	$H_2N-CH_2-COOH$	Gly	-
$\alpha$ -Alanin	$H_3C-CH(NH_2)-COOH$	Ala	+1,8
Serin	$HO-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Ser	-7,5
Sistein	$HS-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Cys	-16,5
Sistin	$HOOC-CH(NH_2)-CH_2-S-S-CH_2-CH(NH_2)-COOH$	Cys-S-S-Cys	-211,9 (1M HCl)
Metionin	$H_3C-S-CH_2-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Met	-9,8
Treonin	$CH_3-CH(OH)-CH(NH_2)-COOH$	Thr	-28,5
Valin	$CH_3-CH(CH_3)-CH(NH_2)-COOH$	Val	+5,6
Leysin	$CH_3-CH(CH_3)-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Leu	-11
Izoleysin	$CH_3-CH_2-CH(CH_3)-CH(NH_2)-COOH$	Ile	+12,4
Lizin	$H_2N-CH_2-CH_2-CH_2-CH_2-CH(NH_2)-COOH$	Lys	+13,5
Ornitin	$H_2N-CH_2-H_2C-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Orn	+11,5
Arginin	$H_2N-C(NH)=NH-CH_2-H_2C-H_2C-CH(NH_2)-COOH$	Arg	+12,5

Fenilalanin	$\text{C}_6\text{H}_5-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Phe -34,5
Tirozin	$p-(\text{HO})\text{C}_6\text{H}_4-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Tyr -10 (5M HCl)
Asparagin kislotasi	$\text{HOOC}-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Asp +5,0
Asparagin	$\text{H}_2\text{NOC}-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Asn -5,6
Glutamin kislotasi	$\text{HOOC}-\text{H}_2\text{C}-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Glu +12,6
Glutamin	$\text{H}_2\text{NOC}-\text{H}_2\text{C}-\text{H}_2\text{C}-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$	Gln +6,3
Triptofan		Trp -33,7
Gistidin		Hys -38,5
Prolin		Pro -86,2
Oksiprolin		Hypro -72,5

### **AMINOKISLOTALARNING AMALIY AHAMIYATI**

Aminokislotalar dori vositalari sifatida tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ushbu aminokislotlar quyidagilar: glutamin kislotasi, metionin, gistidin, glitsin va sistein.

*Glutamin kislotasi* oqsillar va uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi, atsetilxolin neyromediatori, ATF sintezi, kaliy ionini o'tkazilishini ta'minlaydi, oksidlanish jarayonlarini stimullaydi. Glutamin kislotasi markaziy nerv sisitemasi sinapslarida qo'zg'alishni stimullovchi neyromediatorlardan hisoblanadi. Iste'mol qilinganda hujayra membranalari orqali markaziy nerv sistemasiga oson o'tkaziladi. Glutamin kislotasi markaziy nerv sistemasi kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

*Metionin* organizmda o'sish va azot muvozanatini ta'minlashda ishtirok etadi. Metionin boshqa birikmalarga o'tkazilishi mumkin bo'lган harakatchan metil guruhi tutadi. Ushbu aminokislota qayta metillash kabi muhim jarayonlarda ishtirok etadi. Metil guruhini berish bilan metionin xolin sintezini ta'minlaydi. Xolini yetishmasligi natijasida lipid almashinuvi izdan chiqishi mumkin. Metionin adrenalin sintezida ishtirok etadi, gormonlar, vitaminlar va fermentlar ta'sirini faollashtiradi.

Metionin jigar kasalliklari va toksik zaharlanishlarini oldini olish va davolashda, shuningdek, alkogolizm va diabetni davolashda qo'llaniladi. Metionin aterosklerozda qondagi xolesterin miqdorini kamaytirishda va fosfolipidlar miqdorini ko'paytirishda ham qo'llaniladi.

*Glitsin* tormozlovchi ta'sirga ega bo'lган mediatorlardandir. Glitsin miyadagi modda almashinuv jarayonlarini yaxshilaydi va muskul distrofiyasida ijobjiy ta'sir etadi. Mazkur aminokislota tibbiyotda alkogolga moyillikni kamaytiruvchi va surunkali alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda tushkunlik va serjahllikni kamaytiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Sistein molekulasida reaksiyon qobiliyati yuqori bo'lган sulfgidril guruhi mavjudligi sababli disulfid bog'i hosil qiladi. Sisteinni sistinga oson aylanishi va mazkur reaksiyaning qaytarligi moddalar almashinuvida katta ahamiyatga ega. Tibbiyotda sistein kataraktaning o'sishini va ko'z gavharini tiniqlanishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

## 16.5. PEPTIDLAR VA OQSILLAR

Tabiiy peptidlар va oqsillarning aksariyati asosan 20 ta L- $\alpha$ -aminokislotalardan tashkil topgan.

*Peptidlар* o'zaro peptid (amid) bog'i bilan bog'langan aminokislotalardan iborat tabiiy yoki sintetik birikmalardir. Aminokislolar soniga ko'ra dipeptidlар, tripeptidlар, tetrapeptidlар va boshqalarga bo'linadi. 10 tagacha aminokislota qoldig'idan tashkil topgan peptidlар oligopeptidlар, 10 tadan ortiq aminokislota qoldig'idan tashkil topganlari esa *polipeptidlар* deyiladi. Katta molekulyar massali (6000 dan ortiq

bo'lgan) yoki shartli ravishda 100 tadan ortiq aminokislota qoldig'i tutuvchi polipeptidlar *oqsillar* deyiladi.

Peptidlar va oqsillar har xil birikmalar bo'lishiga qaramasdan ularning tuzilish prinsipi bir xil, ya'ni struktura birligi peptid bog'i hisoblanadi. Peptid bog'i kimyoviy jihatdan amid bog'i hisoblanadi. Peptid bog'i bir aminokislotaning karboksil guruhi va ikkinchi aminokislotaning aminoguruhi hisobiga hosil bo'ladi.

Erkin aminoguruh tutuvchi chetki aminokislota qoldig'i peptid zanjirining N- *uchi*, erkin karboksil guruh tutuvchi aminokislota qoldig'i esa C-*uchi* deyiladi.

Oqsillar yuqori molekulyar massali birikmalar bo'lganligi uchun ularning molekulyar massasi bir necha yuz millionga yetadi. Eng sodda fermentlar va gormonlarning molekulyar massasi nisbatan kichikroq bo'lishi mumkin. Masalan, insulinning molekulyar massasi 6500, gripp virusining molekulyar massasi 3200000g teng.

Polipeptid zanjirining aminokislota ketma-ketligi peptid yoki oqsilning *birlamchi tuzilishini* belgilaydi. Har bir peptid yoki oqsil uning biologik faolligini belgilovchi o'ziga xos aminokislota tarkibiga va ketma-ketligiga ega. Birlamchi tuzilish deganda polipeptid zanjiridagi  $\alpha$ -aminokislotalarning chiziqli ketma-ketligi tushuniladi va odatda *sekvensiya* deb yuritiladi. Oqsil tabiatidagi ayrim gormonlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Angiotenzin II gormoni 8 ta aminokislota qoldig'idan tashkil topgan.



Angiotenzin II gormoni buyrakning po'stloq qismida hosil bo'ladi va qon tomirlarining silliq muskullariga ta'sir etadi. Shuningdek, buyrak usti bezlarining faoliyatiga ta'sir qilib, organizmda tuzlar almashinuvida ishtirok etadigan steroid gormon — aldosteron hosil bo'lishining stimulyatori vazifasini bajaradi.

Oqsillarning aminokislota tarkibini o'rganish uchun oqsillar asosan kislotali gidroliz qilinadi. Buning uchun oqsillar 6–10 mol/l konentratsiyali xlorid kislota eritmasida 100–110°C da qizdiriladi. Gidroliz natijasida aminokislotalar aralashmasi hosil bo'ladi. Aralashmadan ajratib olingan alohida aminokislotalar xromatografik metodlar yordamida ajratib olinadi va analiz qilinadi. Aminokislotalar analizida rentgenostruktura analizi, mass-spektrometriya kabi usullar qo'llaniladi. Aminokislotalar analizi uchun maxsus avtomatlashtirilgan uskunalar ham ishlab chiqilgan.

Oqsillarni fermentativ gidrolizi ham keng qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, ayrim fermentlar oqsil makromolekulasini muayyan aminokislota qoldig'i joylashgan joyidan tanlab parchalaganligi uchun


oqsilni bosqichma-bosqich, aminokislotalarni saqlab qolgan holda gidroliz qilish mumkin. Kimyoviy gidrolizda esa ayrim aminokislolar qisman, ayrimlari esa to'la parchalanib ketadi.

Oqsillar gidrolizida taxminan 30 xil  $\alpha$ -aminokislota hosil bo'ladi. Oqsillar tarkibida asosan 20 xili uchraydi. 20 xil  $\alpha$ -aminokislotadan juda ko'p miqdorda ( $10^{18}$  tadan ortiq kombinatsiya) polipeptid hosil qilish mumkin.

Oqsillar va peptidlarni identifikatsiyalash uchun o'ziga xos reaksiyalardan foydalaniladi. Masalan, *biuret* reaksiyasida  $\text{Cu}(\text{OH})_2$  ta'sirida peptid bog'larni aniqlash uchun qo'llaniladi. *Ksantoprotein* reaksiyasi esa konsentrolangan nitrat kislotasini oqsil molekulasida fenilalanin va tirozin qoliqlari bilan reaksiyasiga asoslangan. Reaksiyon aralashmaga ammiak qo'shilsa zarg'aldoq rang paydo bo'ladi. *Millon* reaksiyasi oqsillarga  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{HNO}_3$  va  $\text{HNO}_2$  aralashmasi ta'sir ettirilganda sariq rang paydo bo'lishiga asoslangan. *Ningidrin* reaksiyasida oqsillarga ningidrin ta'sir ettirilishi natijasida binafsha rang hosil bo'ladi. Oqsillar ishqoriy muhitda qo'rg'oshin tuzlari ishtirokida qizdrilsa qora rangli  $\text{PbS}$  cho'kmaga tushadi. Bu reaksiya oqsil tarkibida oltingugurt tutuvchi aminokislolar borligini bildiradi.

Oqsillar odatda kolloid eritmalar hosil qiladi. Ayrim kimyoviy moddalar ta'sirida oqsillar koagullanishi, ya'ni cho'kishi mumkin. Oqsillar koagulyatsiyasi qaytar yoki qaytmas bo'lishi mumkin. Masalan,  $\text{MgSO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  kabi tuzlar, etil spiriti va atseton ta'sirida oqsillar qaytar koagullanadi. Oqsillarning qaytmas koagulyatsiyasi *denaturatsiya* deyiladi. Oqsillarni qizdirish, mineral kislotalar, pikrin kislotasi, tannin, og'ir metallarning tuzlarini ta'sir ettirish natijasida oqsillar qaytmas denaturatsiyaga uchraydi.

Peptid bog'ining geometrik o'lchamlari aniqlanganda uglerod-azot bog'ining uzunligi odatdagidan qisqaroq, uglerod-kislorod bog'ining uzunligi esa kattaroq bo'lib chiqqan. Bunday o'zgarish ikkita strukturaniнg o'zaro rezonansi bilan tushuntiriladi.



Azot atomining taqsimlanmagan elektronlari karbonil guruhdagi  $\pi$ -elektronlar bilan ta'sirlashadi,  $p, \pi$ -ta'sirlashuv natijasida elektron zinchligi

kislород атоми томон сурлади. Shunday qilib uglerod-azot bog'i qisman qo'shbog' tabiatiga ega bo'ladi. Buning oqibatida peptid zanjirining uglerod-azot bog'i atrosida aylanishi qiyinlashadi. Peptid guruhi va unga qo'shni uglerod atomlari bitta tekislikda joylashadi.


Peptid bog'i polipeptid zanjirining haraktchanligini cheklab molekulaning qat'iy strukturali qismalarini hosil qiladi. Shuning bilan birgalikda peptid zanjiri oddiy  $\sigma$ -bog'lar atrosida erkin aylana olishi mumkin. Shuning uchun polipeptid zanjirida qat'iy va bukiluvchan strukturalar ketma-ketligi kelib chiqadi. Peptid bog'i energetik qulay bo'lganligi uchun uni nisbatan kam energiya sarflab hosil qilish yoki parchalash mumkin.

Qat'iy cho'zilgan polipeptid zanjiri oqsillar uchun xos emas. Nativ (tabiiy) holatda oqsillar o'ziga xos konformatsiyaga ega bo'lib, ushbu konformatsiya aminokislota ketma-ketligi bilan belgilanadi va vodorod bog'lar, hidrofob bog'lar, elektrostatik ta'sirlashuvlar vositasida barqarorlashadi. Oqsillarning to'rt xil tuzilish darajasi farqlanadi. Bunday farqlash nisbiy va eskirgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotmagan va oqsillarning tuzilishi haqida tushuncha hosil qilishni osonlashtiradi.

Ikkilamchi tuzilish polipeptid zanjirini fazoda joylashuvi shaklini ifodalaydi. 1949–1951-yillarda L.Poling va R.Kori oddiy bog'lar atrosida aylanishni cheklovchi omillarni hisobga olgan holda hisoblash yo'li bilan polipeptid zanjiri uchun o'ng tomonga buralgan spiral tuzilish eng qulay ekanligini aniqladilar. Ular bunday tuzilishni  $\alpha$ -spiral deb atadilar.  $\alpha$ -spiralning fazoviy tuzilishini uni qandaydir silindrni atrofiga o'ralgan deb tasavvur qilish mumkin. Spiralning bitta bukilgan bo'lagiga taxminan 3,6 ta aminokislota qoldig'i to'g'ri

keladi. Bo'laklar orasidagi masofa 0,54 nm, silindrning diametri 0,5 nm ni tashkil qiladi.  $\alpha$ -spiral tuzilishning barqarorligini ta'minlanishida peptid bog'ları o'rtaida hosil bo'ladigan vodorod bog'ları asosiy rol o'yndaydi. Vodorod bog'ning energiyasi kam bo'lishiga qaramasdan, vodorod bog'larning soni ko'p bo'lganligi uchun molekulaning fazoviy tuzilishidagi ahamiyati juda kattadir.

Ikkilamchi tuzilishning yana bir shakli  $\beta$ -struktura (yoki  $\beta$ -qatlam, taxlangan varaq) hisoblanadi. Mazkur tuzilish shaklida polipeptid




zanjirlari cho'zilgan va bir-biriga nisbatan parallel joylashtirilgan. Bunday joylashuvda ham polipeptid zanjirlari o'zaro vodorod bog'lar bilan bog'lanadi.

Polipeptid zanjirning o'zagi bitta tekislikda yotmaydi, balki to'lqin-simon qatlamlar hosil qiladi, bunda yon zanjirdagi aminokislota qoldiqlari qatlamlar tekisligiga perpendikulyar joylashadi.

Taxlanuvchan qatlamlar o'zaro parallel (N- va C-uchlari muvofiq keluvchi) yoki antiparallel (N- va C-uchlari muvofiq kelmaydigan) bo'lishi mumkin.

Har xil oqsillarda  $\alpha$ -spiral va  $\beta$ -strukturalarning nisbati turlicha bo'ladi. Mioglobin va gemoglobindan  $\alpha$ -spiralning ulushi 75 % ga yetadi, keratin, fibroin kabi fibrillyar oqsillarda  $\beta$ -strukturaning ulushi ko'proq.



Ikkilamchi tuzilish elementlariga ega bo'lgan oqsillarning fazoviy joylashuvi uchlamchi strukturani belgilaydi. Uchlamchi tuzilish deganda oqsil molekulasingin uch o'lchamli tuzilishiga tushuniladi. Uchlamchi tuzilishning shakllanishida polipeptid tarkibiga kiruvchi aminokislotalar qoldiqlarining yon zanjirdagi o'rinnbosarlari qatnashadi. Ushbu o'rinnbosarlar vodorod bog'lardan tashqari gidrofob bog'lar, elektrostatik tortishuv kuchlari, dipol-dipol tortishuv kuchlari orqali o'zaro ta'sirlashadi.

Oqsillarning uchlamchi tuzilishini shakllanishida disulfid bog'lar katta ahamiyatga ega. Disulfid bog'lar bir-biriga yaqinlashtirilgan sistein qoldiqlari orasida hosil bo'ladi. Bunday bog'lar bitta polipeptid zanjiri ichida yoki boshqa-boshqa zanjir orasida hosil bo'ladi. Disulfid bog'lar vazopressin, oksitotsin, insulin, lizotsim, keratin kabi ko'plab peptidlar va oqsillarda uchraydi.

Gidrofob bog'lar aminokislotalar qoldiqlarining qutbsiz yon qismlari orasida hosil bo'ladi. Ular suv molekulalari ta'sirida molekula ichiga «yashiriladi» va o'zaro tortilib birikadi va yog' tomchilarini hosil qiladi.


Elektrostatik tortishuv kuchlari aminokislotalar qoldiqlarining qarama-qarshi zaryadlangan qismlari orasida hosil bo'ladi. Masalan,

lizinning ikkinchi, ya'ni bog'lanmagan aminoguruhi va glutamin kislotasining ikkinchi karboksil guruhi o'zaro ta'sirlashib birikadi.

Qutblangan guruhlar orasida esa dipol-dipol o'zaro tortishuv kuchlari hosil bo'ladi. Masalan, serin, treonin qoldiqlaridagi gidroksil guruhlari dipol-dipol bog'lanish vujudga keladi.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi tuzilish elementlariga ega bo'lgan bir nechta polipeptid zanjirlari yoki subbirliklar ion, vodorod va hidrofob bog'lar bilan o'zaro birikib o'ziga xos komplekslarni, yoki agregatlarni hosil qiladi. Oqsillarning bunday tuzilish darajasi *to'rtlamchi tuzilish* deyiladi. Kompleks hosil qiluvchi subbirliklar bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin.

To'rtlamchi tuzilishi yaxshi o'rganilgan oqsillardan biri gemoglobinidir. Gemoglobin molekulasi to'rtta polipeptid zanjiridan iborat bo'lib, ulardan 2 tasi ( $\alpha_1$  va  $\alpha_2$ ) 141 tadan, 2 tasi ( $\beta_1$  va  $\beta_2$ ) 146 tadan aminokislota qoldig'i tutadi. Har bir polipeptiddagi «chuqurcha» (cho'ntak)larda gem joylashadi. Chuqurchaning ichki hidrofob qismiga gemning vinil guruhlari joylashadi. Gemning pirrol halqalari va aminokislotalarning hidrosif radikallari chuqurchaning sirtini tashkil qiladi.



Gemdagi temir ioni oktaedrik shaklga ega, ya'ni uning koordinatsion soni 6 ga teng.  $Fe^{2+}$  ioni yassi porfin kvadratining markazida joylashgan va pirrol halqalaridagi to'rtta azot atomlari bilan birikkan.  $\alpha$ -zanjirdagi sis-87 qoldig'i beshinchchi ligand hisoblanadi. Oltinchi koordinatsion joyni kislorod bo'lmaganda suv molekulasi egallaydi. O'pkaga kislorod tushganda suv o'rnini kislorod molekulasi oladi va oksigemoglobin hosil bo'ladi. Bunda  $Fe^{2+}$   $Fe^{3+}$  gacha oksidlanmaydi, chunki kislorod gem chuqurchasida hidrofob guruhlari qurshovida bo'ladi.

Kisloroddan tashqari boshqa ligandlar ham suvning o'rnini olishi mumkin. Jumladan karbonat angidrid, is gazi gemoglobin bilan kislorodga nisbatan kuchliroq bog'lana oladi.

Shunday qilib, har bir murakkab oqsilda bir nechta tuzilish darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri avvalgi tuzilish darajasining uzviy davomidir. Oqsillar ustida o'tkazilgan tajribalar tuzilishni belgilovchi asosiy omil aminokislota tartibi yoki ketma-ketligi ekanligini ko'r-satgan.

## PEPTIDLAR SINTEZI


Oqsillarning o'zaro peptid bog'i bilan bog'langan  $\alpha$ -aminokislotalardan tashkil topganligi XIX asrning oxirida aniqlangan. Dastlabki peptid sintezi 1903–1907-yillarda nemis kimyogari E. Fisher tomonidan amalga oshirilgan. U glitsin va leysin asosida bir nechta oligopeptidni sintez qilishga muvaffaq bo'lgan.

Peptidlар sintezini amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Avvalo  $\alpha$ -aminokislotalarning toza optik izomerlar – enantiomerlar zarur. Bundan tashqari bosqichma-bosqich peptid bog'larini hosil qilish uchun maxsus usullar qo'llanilishi kerak, jumladan aminoguruhni himoyalash, karboksil guruhni faollash, himoya guruhlarni ajratish, hamda ko'plab maxsus reagentlar ishlataladi.

Optik faol bo'lmagan birikmadan optik faol izomer olish ikki usul bilan amalga oshiriladi: 1) ratsematlarni toza optik faol izomerlarga ajratish; 2) to'g'ridan-to'g'ri *asimmetrik sintez*.

Ratsematlarni ajratishning umumiy usuli *diastereomerlarni ajratish* hisoblanadi.


Ratsemat optik faol birikma bilan reaksiyaga kirishganda boshlang'ich moddaga qaraganda asimetrik atomlari ko'proq bo'lgan hosila chiqadi. Shuning uchun reaksiya mahsuloti fizik xossalari bilan farqlanuvchi, kristallah yoki xromatografiya yo'li bilan ajratish mumkin bo'lgan ikkita diastereomerdan iborat.



Shunday yo'1 bilan 1852-yilda L.Paster vino kislotasini optik antipodlarga ajratgan. Buning uchun vino kislotasining optik faol birikma – sinxonin alkaloidi bilan tuzli eritmasi tayyorlangan.  $(-)$ -vino kislotasi tuzining eruvchanligi kam bo'lganligi uchun kristallanib eritmada ajralib chiqqan.

$\alpha$ -aminokislolar ratsematlarini ajratish uchun ularni  $(+)$ -dibenzoilvino kislotasi bilan reaksiyasidan foydalanish mumkin.

Ratsematlarni ajratish uchun biologik va fermentativ usullar ham qo'llaniladi. Aniqlanishicha, ayrim mikroorganizmlar faqat bir enantiomerni iste'mol qiladi, ikkinchisi esa eritmada to'planadi. Fermentativ usullar ko'proq qo'llaniladi. Maxsus fermentlar faqat bitta enantiomerning kimyoviy o'zgarishini katalizlaydi. Masalan, amino-kislotalarning murakkab efirlari fermentlar ishtirokida stereoselektiv gidrolizlanadi.




Faqat bitta enantiomerning murakkab efiri gidrolizlanadi. Aralashma oson ajraladi, chunki murakkab efirning eruvchanligi aminokislotaning eruvchanligidan keskin farq qiladi.

Shunga o'xshash, ratsemat N-atsilaminokislotalar ham gidrolizlanadi (deatsillanadi). Buning uchun moddalar aralashmasi inert tashuvchiga immobilizatsiyalangan ferment bilan to'ldirilgan kolonkadan o'tkaziladi.



Ratsematlarni ajratish uchun xiral sorbentlardagi xromatografiyadan ham foydalaniladi.

Asimetrik sintez metodi molekulada yangi asimetrik atom hosil qilish bilan optik faol bo'limgan birikmadan optik faol birikma olishdan iborat. Bunda faqat bitta enantiomer hosil bo'ladi.

Nazariy jihatdan asimetrik sintez proxiral molekulaning enantiotop atomlari yoki guruuhlarini stereospetsifik o'rin almashtirish, guruhlardan birini stereospetsifik ajratish yoki qo'shbog'ga biriktirish bilan amalgamoshiriladi.




vodorod atomlari  
enantiotop




Tirik organizmlarda asimmetrik sintez biokatalizatorlar – fermentlar ishtirokida boradi. Kolbada bunday reaksiyalarni amalga oshirish qiyin. Bunday sharoitda kerakli optik faol birikmaning unumi kam bo'lib, asosan ratsemat hosil bo'ladi.

Maxsus sharoitlarda, optik faol gidridlash katalizatorlari yoki reagentlari ishtirokida deyarli optik faol birikmalar hosil bo'lishi bilan C=O, C=C, C=N bog'larni gidridlash mumkin. Reaksiya deyarli to'la unum bilan boradi. Masalan, 2-atsetilaminopropen kislotasi optik faol rodiy-fosfinli katalizator ishtirokida gidridlansa optik faol atsetilamino- $\alpha$ -alanin chiqadi.




Ayrim holatlarda xiral molekulada ikkinchi xiral atom hosil bo'ladi. Bunda diastereomerlar chiqadi.





Diastereomerlar optik antipodlar emas, ular bir-biridan fizik xossalari bilan farq qiladi va odatdagisi usullar yordamida ajratish mumkin.

Diastereomerlar hosil bo'lish reaksiyasida xiral katalizatorni ishtirok etishi ularning nisbatiga ta'sir ko'rsatadi va bitta diastereomerning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.


Peptid sintezi reaksiyasi aminoguruhi himoyalangan va karboksil guruhi faollangan aminokislota hamda karboksil guruhi himoyalangan aminokislota o'rtaida ketadi.






Aminoguruhni himoyalash uchun alkoksikarbonil birikmalardan, masalan, ko'pincha *tret*-butoksikarbonilxloriddan, karbobenzoksixloriddan foydalilanildi.



Peptid bog'ini hosil qilish uchun aminoguruhi himoyalangan aminokislotaning karboksil guruhi faollashtirilishi kerak. Buning uchun aminokislota xlorangidridga, murakkab efiriga (E.Fisher), azidiga (T.Kursius) aylantirilishi mumkin. Xlorangidridlar va murakkab efirlarning reaksiyalari faqat suvsiz muhitda ketadi, shuningdek, reaksiya davomida yonaki mahsulotlar ko'p hosil bo'ladi. Azid usulining qulayligi reaksiyani svulvi eritmada aminokislota tuzi bilan borishidadir.




Peptid sintezi uchun qutblangan guruhlar tutuvchi faollangan efirlar ham qo'llaniladi.



Umuman olganda peptid sintezi metodlari karboksil guruhni faollash usuli bilan farqlanadi.

Aminoguruhi himoyalangan aminokislotalarni karboksil guruhi himoyalangan aminokislolar bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyasi maxsus reagentlar-karbodiimidlar ishtirokida o'tkaziladi.



Himoya guruhlarini ajratib olish bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Buning uchun maxsus reagentlar va metodlar zarur. *tret*-Butoksikarbonil guruh triforsirka kislotasi ishtirokida, yumshoq sharoitlarda amalga oshiriladi.

Peptidlarni *qattiq fazali sintezi* metodi boshqa usullarga qaraganda qulayroq hisoblanadi. Mazkur metod 1962-yilda V. Merifild tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, peptid zanjiri granulalangan qattiq polimer tashuvchi sirtida hosil qilinadi. Polimer -CH<sub>2</sub>Cl, -CH<sub>2</sub>OH kabi faol guruhlar tutadi. Aminoguruhi himoyalangan aminokislota polimerga murakkab esir bog'i orqali bog'lanadi. Keyin himoya guruhi ajratib olinadi, ikkinchi aminoguruhi himoyalangan aminokislota bilan peptid bog'i hosil qilinadi va h.k. Polimer tashuvchi sifatida xlormetillangan polistirol, polistirolning divinilbenzol bilan sopolimeri yoki maxsus ishlov berib tayyorlangan polisaxaridlar, masalan, selluloza, dekstranlar qo'l-laniladi.

Kerakli uzunlikdagi peptid hosil bo'lgandan keyin peptid HBr va CF<sub>3</sub>COOH aralashmasi bilan polimer tashuvchidan ajratiladi.

### **PEPTIDLAR VA OQSILLARNING AMALIY AHAMIYATI**

Hozirgi paytda ozuqa oqsili muammosi dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardandir. BMT ning ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining yarmidan ko'prog'i tarkibida zarur miqdorda oqsil bo'lgan ozuqa bilan ta'minlanmagan. Oqsilning ozuqa qiymati uning aminokislota tarkibiga, asosan almashtirib bo'lmaydigan aminokislota miqdoriga bog'liq. O'simlik oqsillari tarkibidan lizin, metionin, triptofan kabi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar juda kam bo'lganligi uchun yetarli ozuqa qiymatiga ega emas. Oson o'zlashtiriladigan hayvonot oqsilining aminokislota tarkibi odam oqsilining tarkibiga yaqin turganligi uchun almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga bo'lgan ehtiyoj go'sht mahsulotlari hisobiga qondirilishi mumkin. Chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish yo'li bilan

oqsil muammosini hal qilish qiyin. Chunki o'simlik oqsilini hayvonot oqsiliga aylantirishda yo'qotishlar katta (6:1), shuningdek, chorva hayvonlarini o'sishi uchun ko'p miqdorda to'yimli ozuqa kerak bo'ladi. Muammoni hal qilish yo'llaridan biri chorva hayvonlari ozuqasiga fermentativ yoki sintetik yo'l bilan olingan aminokislotalarni qo'shilishidan iborat. Masalan, parrandachilikda metionin bilan boyitilgan soya uni asosiy oqsil manbayi hisoblanadi.

Oqsillarni sanoat miqyosida mikrobiologik sintezi muhim ahamiyatga ega.

Qadimdan ozuqa mahsulotlari va ichimliklar olishda, hamda terini oshlashda qo'llaniladigan fermentlar oqsillar ichida alohida ahamiyatga ega. Tozalangan fermentlar sun'iy ozuqa olish uchun aminokislotalar olishda ishlatiladi. Polimer tashuvchilarda immobilizatsiyalangan fermentlarni qo'llash kelajakka ega bo'lgan yo'nalishlardan hisoblanadi. Fermentlar sintetik yuvuvchi vositalar ishlab chiqarishda va kimyo sanoatida qo'llaniladi.

Tibbiyotda peptid tabiatidagi moddalardan bo'lgan gormonlar, jumladan gipofiz gormonlari: kortikotropin, somatotropin, oshqozon osti bezi gormoni insulin keng qo'llaniladi. Ayrim peptidlari, masalan, siklosporin A, aktinomitsinlar antibiotiklar sifatida ishlatiladi.

## UCHINCHI QISM

### SIKLICKIRIKMALAR

Molekulasida uglerod atomlari yoki boshqa atomlar bilan o'zaro birikkan holda turli xil kattalikdagi halqalarni hosil qiluvchi organik birikmalar umumiy nom bilan siklik birikmalar deb yuritiladi. Siklik birikmalar organik birikmalarning katta qismini tashkil qiladi. Siklik birikmalar turli xil organik moddalarning tarkibiga kiradi.

Siklik birikmalar ikkita katta guruhg'a bo'linadi:

1. Karbosiklik (yoki izosiklik) birikmalar.
2. Geterosiklik birikmalar.


Karbosiklik birikmalar o'z navbatida quyidagi kichik sinflarga bo'linadi: *sikloalkanlar*, *sikloalkenlar*, *aromatik uglevodorodlar* yoki *arenlar*.

Geterosiklik birikmalar alohida bobda o'rganiladi.


#### 17-BOB. SIKLOALKANLAR VA ULARNING HOSILALARI

Sikloalkanlar halqaning o'lchami, halqlar soni va halqalarning o'zaro birikish turiga qarab sinflanadi.


Monosiklik sikloalkanlarning nomi tegishli alkan nomiga *siklo-* old qo'shimchasi (prefaksi) qo'shib yasaladi.




siklopropan




siklobutan




siklopentan




siklogeksan



Siklopropen




Siklobuten




Siklopentadiyen

Siklopropan va siklobutan ba'zan kichik halqali sikloalkanlar ham deyiladi. Halqadagi uglerod atomlari soni 6 tadan ko'p bo'lishi ham mumkin. Halqada 14 tadan ko'p uglerod atomi tutuvchi sikloalkanlar *makrosiklik sikloalkanlar* deyiladi.


Monosiklik sikloalkanlar almashingan sikloalkanlar hosil qiladi. Agar o'rribosar bittadan ortiq bo'lsa uglerod atomlari raqamla-nadi.



metilsiklopropan



1,3-dimetilsiklobutan




etilsiklopentan

Ikki almashingan planar sikloalkanlarda o'rribosarlar har xil fazoviy joylashishi mumkin. O'rribosarlar halqa tekisligining bir tomonida (*sis*-izomer) yoki qarama-qarshi tomonida (*trans*-izomer) joylashadi.




*cis*-dimetilsiklopropan




*trans*-dimetilsiklopropan


Ikkita umumiy halqali sikloalkanlar *bisiklik sikloalkanlar* deyiladi. Agar ikkita halqa bitta umumiy uglerod atomiga ega bo'lsa, bunday birikmalar spiroalkanlar deb yuritiladi.



spiro[2.2]pentan






spiro[2.4]heptan




spiro[3.4]oktan


Spiroalkanning nomi tegishli alkan nomidan keltirib chiqariladi va kvadrat qavs ichida umumiy (bog'lovchi) uglerod atomining ikkala tomonida nechtadan uglerod atomi mavjudligi raqamlar bilan ko'rsatiladi. Spiroalkan molekulasida halqlar o'zaro perpendikulyar tekisliklarda joylashgan. Bunday joylashuv umumiy uglerod atomining  $sp^3$ -gibriddanishi bilan belgilanadi. Spiroalkanlardagi uglerod atomlari doim kichik halqadan boshlab, umumiy uglerod atomi oxirida raqamlanadi.



bisiklo[2.2.0]geksan



bisiklo[3.3.0]oktan





bisiklo[2.2.1]geptan


Agar ikkita halqa ikkita va undan ortiq umumiy uglerod atomiga ega bo'lsa, bunday birikmalar *bisikloalkanlar*, ba'zan ko'prikhali *uglevodorodlar* ham deyiladi. Chunki bitta halqaning ikkita uglerod atomi go'yoki, ko'prikhosil qiladi.

Bisikloalkanni nomlashda kvadrat qavs ichida uchta raqam ko'rsatiladi. Birinchi va ikkinchi raqam umumiy (bog'lovchi) atomlarning ikkala tomonidagi uglerod atomlarini sonini, uchinchi raqam esa ko'prikhadagi uglerod atomlari sonini bildiradi. Almashigan bisikloalkanlarni nomlash uchun dastlab bisikloalkanning asosiy halqasi bog'lovchi uglerod atomidan boshlab raqamlanadi, keyin ko'prikhadagi uglerod atomlari raqamlanadi. Raqamlash birinchi bog'lovchi atomdan uzunroq yo'l bilan ikkinchisiga tomon amalgalashadi.

Uchta va undan ortiq halqali sikloalkanlar bo'lishi ham mumkin. Bunday birikmalar molekulasida bir nechta ko'prikhada bo'ladi. Ularni nomlash ancha qiyin. Tri-, tetra yoki penta- qoshimchalari sikloalkanni ochiq zanjirli birikmaga aylantirish uchun uzish kerak bo'lgan bog'larning sonidan kelib chiqadi. Bunday bog'lar formulada ~ belgisi bilan ifodalanadi.




3-metilbisiklo[3.2.1]oktan



trisiklononan




trisiklodekan





pentasiklooktant  
(kuban)

Bunday murakkab birikmalarni to‘g‘ri nomlash uchun asosiy halqani va asosiy (uglerod soni ko‘p bo‘lgan) ko‘prikchani tanlab olish zarur. Kvadrat qavs ichida dastlab asosiy halqani va asosiy ko‘prikchani tashkil qiluvchi bisiklga tegishli uchta raqam ko‘rsatiladi. Keyingi raqamlar boshqa ko‘prikchalardagi uglerod atomlarining sonini ko‘rsatadi. Bunda ba’zan qaysi uglerod atomlari ko‘prikcha bilan bog‘langanligini ko‘rsatib qo‘yish kerak. Shuning uchun asosiy bisikl yuqoridagi qoida bo‘yicha raqamlanadi, ko‘prikcha bilan bog‘langan uglerod atomlari ko‘prikchadagi uglerod atomlarini sonini ifodalovchi raqam bilan birga yoziladi. Masalan,



trisiklo[4.2.1.0^2.5]nonan



trisiklo[3.3.1.1^3.7]dekan,  
(adamantan)


Adamantanda asosiy halqa sakkiz a’zolidir.

$C_nH_n$  tarkibli uglevodorodlar o‘ziga xos fazoviy tuzilishga ega. Ularning fazoviy tuzilishi har xil ko‘p yonli shakllarga, masalan, kubga,


tetraedrga va b. to‘g‘ri keladi. Bunday tuzilishli birikmalar poliedrlar deyiladi. Ularning aksariyati hali sintez qilinmagan.

### 17.1. SIKLOPROPANLAR VA ULARNING HOSILALARI

Siklopropanlar 1,3-digalogenalkanlarga aktiv metallar ta’sir ettirib olinadi. Ushbu reaksiyani Vyurs reaksiyasining ichki molekulyar shakli deb qarash mumkin.




Siklopropanlarni olishning ikkinchi usuli karbenlarga alkenlar yoki alkinlarning birikishi (siklobirikish) dir. Karbenlar bevosita reaksiyon muhitning o‘zida diazalkanlardan yoki galogenalkanlardan hosil qilinadi.



### FIZIK XOSSALARI


Siklopropanlar va siklopropenlar suvda erimaydigan rangsiz gazsimon moddalar yoki suyuqliklardir. Siklopropan molekulasi muntazam uchburchak shakliga ega. H-C-H burchagi odatdagidan ancha katta.



Siklopropan halqasi hosil bo'lishida tetraedrik burchaklar  $60^\circ$  gacha kichrayishi kerak, buning natijasida valent burchaklar kuchlanishi ortadi. 1885-yilda A. Bayer siklopropanning yuqori reaksiyon qobiliyatini aynan valent burchaklarning kuchlanishi bilan tushuntirgan (*Bayerning kuchlanish nazariyasi*).

*Adolf von Bayer (1835–1917) – nemis kimyogari, R. Bunzen va F. Kekulening shogirdi. «Organik bo'yoqlar va gidroaromatik birikmalar bo'yicha ishlari asosida organik kimyo va kimyo sanoatini rivojlanishiga qo'shgan hissasi uchun» 1905-yilda A. Bayerga Nobel mukofoti berilgan.*

Siklopropandagi bog'larning tabiatи propan va propendagi bog'lardan farq qiladi. Siklopropanda  $sp^3$ -gibridlangan orbitalarning qoplanishi orqali C-C bog'i hosil bo'lishida faqat qisman qoplanish bo'lishi mumkin. Natijada bukilgan orbitallar («banansimon bog'lar») hosil bo'lishi mumkin.



siklopropan molekulasida bog'larning hosil bo'lishi

Agar siklopropandagi uglerod atomlari  $sp^2$ -gibridlangan holatda deb faraz qilinsa, bog'lar  $p$ -orbitallarning qisman qoplanishidan hosil bo'ladi va halqaning markazida  $sp^2$ -gibridlangan orbitallar o'zaro ta'sirlashadi. Siklopropan bog'larining hosil bo'lishida gibridlilanmagan atom orbitalari qatnashadi deb taxmin qilish ham mumkin. Siklopropan bog'larining hosil bo'lishida  $p$ -orbitallarning ishtirok etishini ularning IE larini nisbatan past bo'lishi ham tasdiqlaydi, propanda IE 11,5 eV ga, siklopropanda 10,5 eV ga, propenda esa 9,7 eV ga teng.

Sikloalkan	Yonish issiqligi, kJ/mol	Siklogeksanga nisbatan energiya farqi, kJ/mol
Siklopropan	697,1	38,5
Siklobutan	686	27,4
Siklopantan	664	5,4
Siklogeksan	658,6	-
Sikloheptan	662,3	3,7

Sikloalkanlarning yonish issiqliklari taqqoslanganda siklopropan siklogeksanga nisbatan bitta  $\text{CH}_2$  guruh uchun eng ko'p issiqlik farqiga


ega ekanligini ko'rish mumkin, ya'ni siklopropandagi C-C bog'i siklogeksandagiga qaraganda kamroq energiyaga ega.

### KIMYOVIY XOSSALARI

Siklopropanlar reaksiyalarda ikki xil kimyoviy xossalarni namoyon qiladi; alkanlar kabi vodorod atomining almashinishi bilan va alkenlar kabi birikish, ya'ni halqaning ochilishi bilan boradigan reaksiyalariga kirishadi.

Reaksiyaning yo'nalishi reagentning tabiatiga, hamda temperaturaga bog'liq.

Siklopropenlar juda beqaror birikmalar bo'lib, oson polimerlanadi. Uchala uglerod atomiga o'rinnbosarlar biriktirilsa siklopropenlarning barqarorligi ortadi.



Siklopropenlarning o'ziga xos reaksiyalaridan biri barqarorlashgan karbokation-siklopropeniliy-kationining hosil bo'lishidir.




Siklopropeniliy-kationi eng sodda siklik bog'langan sistema hisoblanadi va ochiq zanjirli analogi-allil-kationiga qaraganda barqaror.

## ASOSIY VAKILLARI


*Siklopropan* – rangsiz gazsimon modda,  $-34,5^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi. 1,3-dibrompropandan olinadi. Siklopropan tibbiyotda umumiyl anesteziya uchun ishlataladi.

### 17.2. SIKLOBUTAN VA UNING HOSILALARI


Siklobutanlarni bir necha xil usul bilan ochiq zanjirli birikmalardan olish mumkin. Masalan, 1,4-digalogenalkanlarni va 1,4-digalogenalkenlarni aktiv metallar ta'sirida sikllash, almashingan alkenlarni siklodimerlash reaksiyalari ma'lum.



Ikki molekula alkenning siklobirikishi [2+2] faqat UB-nurlar bilan yoritib turilganda ketadi. Qizdirish natijasida reaksiya bormaydi. Alken molekulasi qo'zg'algan holatda reaksiyaga kirishadi.




Aksariyat hollarda ushbu reaksiya perisiklik reaksiya sifatida qaraladi. Masalan, sis-buten-2 dan ikki xil 1,2,3,4-tetrametilsiklobutan hosil bo'ladi, chunki butenning ikkita molekulasi siklobirikish reaksiyasida ikki xil holatda bo'lishi mumkin.



### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Eng sodda siklobutanlar rangsiz gazsimon yoki suyuq moddalardir, suvda erimaydi. Siklobutan molekulasi kvadrat shakliga ega, C-C bog'laridan odatdagidan uzunroq ( $0,157\text{ nm}$ ). Siklobutan halqasidagi to'rtta uglerod atomi bitta tekislikda yotmaydi. Bunday noplanarlik vodorod atomlarining yoki o'rinxbosarlarning ichki molekulyar itarilishidan kelib chiqadi va ko'p jihatdan tuzilishga bog'liq. Bitta uglerod atomi tekislikdan  $25-30^\circ$  ga chiqishi mumkin. Bu monoalmashingan siklobutanlar ikki xil konformatsiyada bo'lishini ko'rsatadi.




PMR metodi asosida konformatsiyalar orasidagi tez muvozanat qaror topishi tasdiqlangan. Ushbu muvozanatni faqat past temperatura-lardagina to'xtatish mumkin.


Siklobutanda valent burchaklar siklopropanga qaraganda kamroq kuchlangan, atom orbitallari ko'proq bir-biri bilan qoplanishi mumkin, shuning uchun siklobutan halqasi nisbatan barqaror.

## KIMYOVİY XOSSALARI

Siklobutan va uning almashingan hosilalari ko'p jihatdan alkanlarga o'xshaydi. Ular asosan almashinish reaksiyalariga kirishadi. Siklobutan halqasining ochilishi bilan boradigan reaksiyalar, masalan, katalitik gidridlash reaksiyalar ham ma'lum.



Siklobutadiyen o'ziga xos kimyoviy xossalarga ega. Ushbu moddaning reaksiyon qobiliyati juda yuqori bo'lganligi uchun toza holda ajratib olib bo'lmaydi. Siklobutadiyen hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarda faqt uning dimerlanish mahsulotlari chiqadi.




## MUHIM VAKILLARI

*Siklobutan* – rangsiz gazsimon modda, 12,5°C da qaynaydi, 1,4-dibrombutandan olinadi. Siklobutan organik sintezda qo'llaniladi.

### 17.3. SIKLOPENTAN VA UNING HOSILALARI

Siklopentan va uning gomologlari ayrim nefstlar (naftenlar) tarkibiga kiradi. Sintetik yo'l bilan kislородли birikmalarini qaytarib yoki to'ynmagani hosilalarini gidridlab olinadi.




Siklopentadiyen toshko'mirni qayta ishlash mahsulotlaridan yoki neftni piroлиз mahsulotlaridan olinadi.

Ayrim dikarbon kislotalarining kondensatsiya reaksiyalarida siklopentan halqasi hosil bo'ladi.

### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

Siklopentanlar va ularning to'yinmagan hosilalari o'ziga xos hidli rangsiz suyuq moddalardir, suvda erimaydi.

Siklopentan molekulasi to'g'ri beshburchak shakliga ega. Ichki burchak kattaligi  $108^\circ$  ni tashkil qiladi, ya'ni tetraedrik burchakka yaqin. Lekin siklopentan halqasi noplanar tuzilishga ega. Vodorod atomlari orasidagi o'zaro itarilish kuchlari ta'sirida halqadagi ikkita uglerod atomi halqa tekisligidan tashqariga chiqadi. Alovida uglerod atomlari qat'iy joylashmagan, halqa go'yoki to'lqinsimon harakat qilayotganga o'xshaydi.




### **KIMYOVİY XOSSALARI**


Siklopentan alkanlarga xos, siklopenten alkenlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Siklopentadiyen faol diyen-1,3 hisoblanadi, diyen sintezi reaksiyalariga, jumladan dimerlanish reaksiyasiga oson kirishadi.

Disiklopentadiyen odatdag'i sotuvga chiqariladigan shakli bo'lib, undan siklopentadiyen  $200\text{--}250^\circ\text{C}$  gacha qizdirib olinadi. Disiklopentadiyen to'yinmagan trisklik ko'prikhali birikma hisoblanadi, ikki

xil fazoviy izomer shaklida, ya'ni *ekzo*- va *endo*- shakllarida mavjud bo'ladi.



Siklopentadiyen CH-kislota xossasiga ega ( $pK_a \approx 15$ ). Konsentrlangan ishqor eritmalari va alkoxsidlar ta'sir ettirilsa tuzlar – siklopentadiyenidlar hosil qiladi.



Siklopentadiyenid-ion (bog'langan) tutash karbanion bo'lib, uning barqarorligi  $\pi$ -elektronlarning siklik delokallanishiga bog'liq. Siklopentadiyenidlar kuchli nukleofil reagentlardir, oson oksidlanadi. O'zgaruvchan valentli metallarning siklopentadiyenidlari *metallosenlar* yoki *sendvich birikmalar* deyiladi.



### MUHIM VAKILLARI

*Siklopentan* – rangsiz suyuqlik, 49,5°C da qaynaydi. Neftni qayta ishlash mahsulotlaridan olinishi mumkin. Laboratoriya sharoitida siklopentadiyenni gidridlab olinadi. Organik sintezda ishlatiladi.

*Siklopenten* – rangsiz suyuqlik, 44,2°C da qaynaydi. Siklogeksanolni degidratlab olinadi. Organik sintezda siklopentan hosilalarini olish uchun ishlatiladi.


*Siklopentadiyen* – o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, 41°C da qaynaydi. Toshko'mir va neftni qayta ishlash mahsulotlari tarkibida bo'ladigan disiklopentadiyendan olinadi. Siklopentadiyen organik sintezda insektisidlar, metallosenlar olish uchun ishlatiladi.

Siklopenten va siklopentan sistemasi biologik faol moddalardan sanaladigan *prostaglandinlar* tarkibiga kiradi.




#### 17.4. SIKLOGEKSAN VA UNING HOSILALARI

Siklogeksan va uning gomologlari ayrim nefstlar, ya'ni naftenlar tarkibidan ajratib olinadi. Sintetik yo'l bilan benzol va uning gomologlarini gidridlab, yoki siklogeksanonni qaytarib olinadi.




Siklogeksen, siklogeksadiyen va ularning gomologlari alkenlar va alkadiyenler sintez qilish usullari bilan olinadi. Benzol va uning hosilalarini suyuq ammiak muhitida spirit ishtirokida natriy metali bilan qaytarilsa 1,4-siklogeksadiyenlar hosil bo'ladi (A. Berch, 1944-y.).




Siklogeksan hosilalarini olishda perisiklik reaksiyalar; diyen sintezi va geksatriyen-1,3,5 hosilalarining elektrosiklik reaksiyaları alohida o'rindutadi.


[2+4] siklobirikish reaksiyasida diyen sintezi [2+2] siklobirikish reaksiyasidan farqli ravishda xona temperaturasida yoki yengil qizdirilganda oson ketadi.



Geksatriyen-1,3,5 hosilalari qizdirilganda, shuningdek yoritilganda siklogeksadiyen-1,3 hosilalariga aylanadi.




oktatriyen-2, 4, 6




*cis*-5,6-dimetilsiklogeksadiyen-1,3

Odatda, termik sikllash reaksiyasi natijasida sis-dialmashgan siklogeksadiyenlar, fotokimyoiy sikllash natijasida trans-dialmashgan birikmalar hosil bo'ladi. Bu sikllanishda ishtirok etayotgan molekulyar orbitallar xususiyatlariga bog'liq.



band bo'lган yuqori MO

disrotator aylanish



band bo'lмаган quyisi MO


konrotator aylanish

Termik sikllanish reaksiyasida bog'langan geksatriyen sistemasing band bo'lgan yuqori MO ishtirok etadi, fotokimyoviy reaksiyada esa band bo'limgan quyi MO ishtirok etadi (molekula qo'zg'algan holatga o'tganda bitta elektron quyi MO ga o'tadi). Ikkala MO bir-biridan *p*-orbitallarning musbat va manfiy qismlarini joylashuvi (orbital simmetriyasi) bilan farq qiladi. *p*-orbitallarning bir zaryadli qismlari o'zaro qoplanishi uchun bog'lar atrofida aylanish yo'nalishi ikki xil bo'ladi. Band bo'lgan MO uchun aylanish yo'nalishi qarama-qarshi — disrotator, band bo'limgan MO uchun aylanish yo'nalishi — konrotator bo'ladi.

Elektrosiklik reaksiyalar borishini 1965-yilda R.Vudvord va R.Xofman izohlab bergenlar. Ularning izohlashicha, qaysi jarayonda orbitallar maksimal bir-biri bilan qoplanadigan bo'lsa o'sha mexanizm amalgashadi. Vudvord-Xofman qoidasiga asosan kelishilgan (perisiklik) reaksiyalarda orbital simmetriya saqlanib qoladi. Agar orbitallar maksimal darajada qoplanadigan bo'lsa reaksiya minimal faollanish energiyasiga ega bo'ladi. Bunday reaksiya «orbital simmetriya bo'yicha mumkin», aksincha bo'lsa «orbital simmetriya bo'yicha taqiqlangan» bo'ladi.

Misol uchun, oktatriyen-2,4,6 ning disrotator aylanishidagi termik sikllanishida reaksiyaning faollanish energiyasi kam bo'lganligi uchun reaksiya orbital simmetriya bo'yicha ketadi.

Orbital simmetriyaning saqlanishi haqidagi tasavvurlar siklobirikish reaksiyalarining, masalan, ikki molekula etilenden siklobutan hosil bo'lishi reaksiyasingin ketishini izohlashda ham qo'llaniladi. Reaksiyani bitta etilen molekulasining band bo'lgan yuqori MO bilan ikkinchi molekula etilenning band bo'limgan quyi MO ini o'zaro ta'siri deb qarash mumkin. Ushbu orbitallarning simmetriyalari turlicha va maksimal qoplanishi mumkin emas.




Reaksiya simmetriya  
bo'yicha taqiqlangan

Qo'zg'algan molekula  
Reaksiya simmetriya  
bo'yicha ketadi

Shuning uchun reaksiya orbital simmetriya bo'yicha taqiqlangan. Etilenning qo'zg'algan holatida bitta elektron bilan band bo'limgan

quyi MO da joylashadi va mazkur orbital band bo'lgan yuqori MO ga aylanib qoladi. Natijada o'zaro ta'sirlashuvchi orbitallarning simmetriyali bir xil bo'lib qoladi va reaksiya orbital simmetriya bo'yicha ketadi.

Diyen sintezi simmetriya bo'yicha ketadigan termik stimullangan jarayondir.



### FIZIK XOSSALARI VA FAZOVY TUZILISHI

Siklogeksan va uning to'yinmagan hosilalari rangsiz, o'ziga xos hidli suyuq moddalardir.

Olti a'zoli halqanining ichki burchaklari kattaligi, tetraedrik burchak kattaligidan katta bo'lib,  $120^\circ$  ga teng. Noplanar molekulaning hosil bo'lishi fazoviy jihatdan qulay bo'lganligi uchun ichki burchaklar kichrayadi va yonma-yon joylashgan vodorod atomlari bir-biridan itariladi.

Siklogeksan molekulasining bir necha noplana shakllari mavjud. Ushbu shakllardan eng barqarorlari quyidagilar:




«Kreslo» konformatsiyasi

«Vanna» konformatsiyasi


Twist-konformatsiyasi

«Kreslo» shaklning barqarorligi yuqoriroq. Shuningdek «vanna» konformatsiyasidan barqarorroq bo'lgan twist-shakl hosil bo'lishi ham mumkin.

Siklogeksan «kreslo» shaklida ikki xil fazoviy holatda joylashgan vodorod atomlarini tutadi: aksial joylashgan ( $\text{H}_a$ ) va ekvatorial joylashgan ( $\text{H}_e$ ).




Bir almashingan siklogeksanlar «kreslo» shaklida ikkita konformer va «vanna» shaklida bir nechta konformerlarga ega.



Aksial va ekvatorial konformerlarning o'zaro bir-biriga aylanishi *siklning inversiyasi* deyiladi.

Siklogeksen va uning hosilalari ham noplanar tuzilishga ega.




Siklogeksan hosilalarida ham o'rinosbosarlar aksial yoki ekvatorial joylashishlari mumkin.

### **KIMYOVIY XOSSALARI**

Siklogeksan kimyoviy xossalari jihatdan alkanlarga o'xshaydi. Siklogeksan galogenlanadi, nitrolanadi, oksidlanadi. Katalitik degidridlash natijasida benzol hosil bo'ladi.

Siklogeksan siklning kichrayishi bilan boradigan qayta gruppalanish reaksiyalariga ham kirishadi (N.Zelinskiy).




Ayni sharoitda teskari reaksiya ham borishi mumkin.

Siklogeksen va siklogeksadiyen alkenlar va alkadiyenlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi.

### **MUHIM VAKILLARI**


*Siklogeksan* –  $80,7^\circ\text{C}$  da qaynaydigan o‘ziga xos hidli rangsiz suyuqlik. Benzolni katalitik gidridlab olinadi. Siklogeksan erituvchi sifatida, hamda kaprolaktam, adipin kislotasi kabi monomerlarni sintez qilishda xomashyo sifatida ishlataladi.

*Siklogeksen* –  $83^\circ\text{C}$  da qaynaydigan o’tkir hidli rangsiz suyuqlik. Siklogeksanolni digidratlab olinadi. Siklogeksen alkenlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Shuningdek, o‘ziga xos katalitik disproporsiyalanish reaksiyasi ham ma’lum (N.Zelinskiy).




Siklogeksen organik sintezda siklogeksan hosilalarini olish uchun ishlataladi.


*Terpenlar* – ayrim efir moylarining tarkibida uchraydigan moddalardir. Birinchi marta 1887–1889-yillarda O.Vallax va U.Perkin tomonidan terpentin moylari (skipidar) dan ajratib olingan. Terpenlar molekulasining asosini siklogeksanning monosiklik yoki bisiklik hosilalari tashkil etadi. Oddiy terpenlar ikki molekula izoprenning dimerlanish mahsulotlari hisoblanadi. Bunday birikmalarining tabiiy vakillari izoprenoidlar deyiladi. Bitta (gemiterpen), ikki (monoterpen), uch (seskviterpen), to‘rt (diterpen), olti (triterpen), sakkiz (tetraterpen) molekula izoprendan tashkil topgan terpenlar ham ma’lum.




(±) dipenten




α-terpinen




terpinolen




fellandren



kamfen




α-pinene (2,6,6-trimetilbisiklo[3.1.1]hepten-2)




α-pinene sosna skipidarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Terpenlar, ayniqsa α-pinene lok-bo'yq sanoatida, hamda organik sintezda boshlang'ich modda sifatida keng qo'llaniladi. Ayrim terpenlar xushbo'y moddalar olishda qo'llaniladi.

## 17.5. SIKLOGEPTAN VA UNING HOSILALARI

Siklogeptan birinchi marta V. Markovnikov tomonidan kavkaz neftidan ajratib olingan. Siklogeptan siklogeptanonni qaytarib olinishi mumkin.



Siklogeptatriyen benzolga karben biriktirib olinadi.




Geptatriyen birinchi marta alkaloidlarni kimyoviy destruksiyalab olingan.

### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**


Sikloheptanlar o'ziga xos hidli rangsiz suyuqliklardir. Suvda erimaydi.

Sikloheptan molekulasi siklogeksan kabi noplanar tuzilishga ega. Sikloheptan halqasi bir nechta shaklda mavjud bo'la oladi. Masalan, bir almashtagan sikloheptanning to'rt xil konformeri bo'lishi mumkin.




### **KIMYOVIY XOSSALARI**

Sikloheptan va uning gomologlari kimyoviy jihatdan alkanlarga o'xshaydi. Kislota katalizatorlari ishtirokida halqaning kichrayishi bilan boradigan izomerlanish reaksiyalariga kirishadi (teskari reaksiya ham ketadi).



Sikloalkanlar halqaning kichrayishi, aksariyat holatlarda kattalashishi bilan izomerlanadi. Aksariyat holatlarda bunday reaksiyalar har xil qayta gruppalanishlar oson uchraydigan oraliq karbokationlar hosil bo'lishi bilan ketadi.

Sikloheptatriyen tipik to'yinmagan uglevodorod bo'lib, birikish, polimerlanish reaksiyalariga oson kirishadi. Elektronoakseptor reagentlar ishtirokida sikloheptatriyeniliy (tropiliy) kationiga aylanadi.



Tropiliy-kation  $\pi$ -elektronlarning siklik delokallanishi natijasida juda barqarorlashgan karbokation hisoblanadi va aromatik xossalarni narmoyon qilishi mumkin.

### **MUHIM VAKILLARI**


*Sikloheptan* – o‘ziga xos hidri,  $119^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan suyuqlik. Nestni qayta ishlab olinadi, asosan organik sintezda ishlatiladi.

*Sikloheptatriyen* (tropiliden) –  $115,5^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Benzolga mis tuzlari ishtirokida diazometan biriktirib olinadi. Tropiliy tuzlarini olish uchun ishlatiladi.

### **17.6. SIKLOOKKTAN VA UNING HOSILALARI**

Siklooktanlar siklooktatetrayenlarni katalitik gidridlash natijasida hosil bo‘ladi.


Siklooktatetrayen atsetilenni tetramerlab olinadi (V. Reppe).



Siklooktatetrayen birinchi marta 1911-yilda R. Vilshtetter tomonidan psevdopelterin alkaloidini parchalab olingan.


Fizik xossalari va tuzilishi. Siklooktan va uning gomologlari rangsiz, siklooktatriyen esa sariq tusli suyuq moddalardir. Siklooktan molekulasi turli xil konformatsiyalarni hosil qiladi.

Siklooktatetrayen ham konformerlar hosil qiladi.



## KIMYOVIY XOSSALARI

Siklooktan va uning gomologlari alkanlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Kislota katalizatorlari ishtirokida halqa kichrayishi bilan izomerlanadi.



## MUHIM VAKILLARI


*Siklooktan* – kamfora hidli  $145^\circ\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Siklooktatetrayenni katalitik gidridlab olinadi. Organik sintezda qo'llaniladi.

*Siklooktatetrayen* –  $142^\circ\text{C}$  da qaynaydigan sariq rangli suyuqlik. Atsetilenden olinadi. Siklooktatetrayen oson polimerlanadi.

## 17.7. DEKALINLAR


Dekalinlar (dekagidronaftalinlar, bisiklo [4.4.0]dekan) naftalinni katalitik gidridlab olinadi.

Dekalinlar o'ziga xos hidli rangsiz suyuqliklardir. *Sis*-dekalin  $194,6^\circ\text{C}$  da qaynaydi, *trans*-dekalin  $185,5^\circ\text{C}$  da qaynaydi. *Sis*- va *trans*- izomerlar bir-biridan ko'prikchadagi vodorod atomlarining joylashuvi bilan fard qiladi.



Dekalinlarning kimyoviy xossalari siklogeksanlarning xossalariiga o'xshash. Naftalin gidridlanganda *cis*- va *trans*- dekalinlarning aralashmasi hosil bo'ladi. Ular erituvchi sifatida ishlataliladi.


## 17.8. ADAMANTAN




Adamantan  $C_{10}H_{16}$  tarkibli uglevodorod bo'lib, kamfora hidli  $269^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan (sublimatlanadi) rangsiz kristall moddadir.

Adamantan molekulasining fazoviy tuzilishi olmosning kristall panjarasiga o'xshab ketadi. Adamantan kristallari oktaedr shakliga ega.

Adamantan birinchi marta 1933-yilda ayrim neftlarni qayta ishlash natijasida olingen. Sintetik yo'l bilan disiklopentadiyenni gidridlab, keyin qayta gruppab olinadi.



Adamantanning ionlanish energiyasi nisbatan kichik,  $9,25\text{ eV}$  ni tashkil qiladi. Shuning uchun elektrofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirisha oladi. Oraliq zarracha sifatida kislotalarning konsentrlangan eritmalarida hosil bo'ladigan adamantanil-kation bo'lishi mumkin.




Adamantanning ayrim hosilalari biologik faollikka ega.

## 18-BOB. ARENLAR

Arenlar deb molekulasida aromatik halqa saqllovchi uglevodorodlarga aytildi. Arenlar molekuladagi halqalar soniga va halqalarning birikish turiga qarab sinflanadi. Eng sodda arenlar monosiklik arenlar hisoblanadi, ya'ni benzol uning gomologlari va hosilalaridir.

Polisiklik arenlar izolirlangan va kondensirlangan siklik arenlarga bo'linadi. Arenlarni dastlabki vakili benzol birinchi marta M. Faradey tomonidan 1825-yilda toshko'mir gazidan ajratib olingan va miqdoriy analiz qilingan. 1834-yilda E. Mitcherlix benzolni benzoy kislotasining tuzlarini qizdirib olgan va benzin deb nomlashni taklif qilgan. Keyinroq Yu. Libix bu birikmani benzol deb atashni taklif qilgan.

Benzol o'ziga xos hidga ega bo'lib, g'aroyib xossalarni namoyon qilgan. To'yinmaganligiga qaramasdan birikish reaksiyalariga juda qiyin, lekin o'ziga xos almashinish reaksiyalariga oson kirishgan. Shuning uchun benzol va uning gomologlari alohida sinfga ajratilgan va *aromatik uglevodorodlar* deb nomlangan. Ularning hosilalari esa *aromatik birikmalar* nomini olgan. Benzolning struktura formulasini seklogeksatriyen sistemasi sifatida 1865-yilda nemis kimyogari A. Kekule taklif qilgan. Shuning uchun ushbu formula Kekule formulasi deb ham yuritiladi.



Lekin A. Kekule benzolning tuzilishi va kimyoviy xossalari orasidagi bog'liqlikni to'la izohlab bera olmagan. U benzolda haqiqiy qo'shbog'lar yo'q deb taxmin qilgan va *bog'lar ossillyatsiyasi* g'oyasini ilgari surgan.



Bundan kelib chiqib *aromatik birikmalar* va *aromatik xossalalar* tushunchalari alohida ma’no kasb eta boshladi. Uchta qo’shbog‘li, olti a’zoli siklik tuzilishga va o’ziga xos kimyoviy xossalarga ega bo’lgan birikmalar shunday nomlana boshlandi.

Keyinchalik kvant kimyosi rivojlangandan keyin aromatik birikmalarning tuzilishi va kimyoviy xossalari izohlab berildi.

Hozirda *aromatik uglevodorodlar* tushunchasi o’rniga *arenlar*, *aromatik birikmalar* tushunchasi o’rniga *arenlarning hosilalari* ishlatalishi taklif qilingan.

Arenlar molekuladagi sikllar soni va ularning birikish shakliga qarab ajratiladi. Eng sodda birikmalar – *monosiklik arenlarga* benzol va uning gomologlari va hosilalari kiradi. *Polisiklik arenlar* izolirlangan va kondensirlangan arenlarga bo’linadi.

### 18.1. AROMATIKLIK HAQIDA TUSHUNCHA

Benzol sistemasasi o’ziga xos barqarorlikka ega. Benzol sistemasi shartli to’ymagan bo’lsa-da, amalda birikish reaksiyalari qiyin, o’rin olish reaksiyalari esa nisbatan oson ketadi. Shuning uchun benzol halqasi tutuvchi birikmalar alohida sinfga ajratilib, ularga *aromatik uglevodorodlar* yoki *aromatik birikmalar* deb nom berilgan. Tuzilishining o’ziga xosligi va kimyoviy xossalari *aromatik xossalalar* deyiladi. Keyinchalik kondensirlangan polisiklik birikmalar ham aromatik birikmalarga kiritilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, kondensirlangan polisiklik birikmalar o’rin olish reaksiyalardan tashqari birikish, oksidlanish reaksiyalariga ham oson kirishadi.

Benzol qatori birikmalar deyarli barcha reaksiyalarda benzol sistemasini saqlab qolishga, qayta tiklashga (regeneratsiya) moyil. Kondensirlangan polisiklik birikmalarda esa qayta tiklanish qobiliyati kamroq. Bu ayniqsa chiziqli kondensirlangan polisiklik birikmalarda yaqqol ko’rinadi. Perkondensirlangan aromatik birikmalar esa qayta tiklanish qibiliyati kamroq o’zgaradi va bu jihatdan naftalinga o’xshaydi.

Benzol halqasining barqarorligini kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida 1931-yilda nemis fizigi E.Xyukkel tushuntirib berdi. Xyukkel tutash yopiq siklik sistemalar hosil bo’lishida energetik jihatdan qulay bo’lgan  $\pi$ -elektronlarning siklik delokalizatsiyasi sodir bo’lishini ko’rsatib berdi.

Siklik tutash sistemalar uchun «aynigan» orbitallar xarakterlidir. Xyukkelning taxminicha, sistemaning barqarorligi mazkur orbitallarni elektronlar bilan to'lishiga bog'liq. Hisoblashlar natijalariga ko'ra, ikkala bog'lovchi «aynigan» orbital elektronlar bilan to'lganda (4 ta  $\pi$ -elektron) barqaror sistemalar hosil bo'ladi. Shuningdek, har bir siklik sistema ikkita  $\pi$ -elektronli eng quyi joylashgan bitta orbitalga ega. Bundan kelib chiqib Xyukkel siklik tutash sistemalarning barqarorligi qoidasini ishlab chiqdi.





Qoida quyidagicha ta'riflanadi: *halqada  $4n+2$  ta  $\pi$ -elektron tutuvchi siklik planar tutash sistemalar barqaror hisoblanadi. Bunda  $n=0, 1, 2, \dots$*

Shunday qilib, 2, 6, 10, 12 ta  $\pi$ -elektronli siklik planar tutash sistemalar barqarordir.

Shuni ta'kidlash kerakki, Xyukkel qoidasi faqat yassi tuzilishli monosiklik sistemalarga taalluqlidir. Polisiklik sistemalarda, masalan, naftalin, fenantrenda «aynigan» molekulyar orbitallar mavjud emas, shuningdek, ularning barqarorligini xarakterlovchi umumiy qoidalar ham yo'q. Ushbu birikmalarning barqarorligini baholash har bir birikma uchun alohida hisoblash o'tkazilgandan keyin mumkin bo'ladi.

Xyukkel qoidasi asosida birinchi marta benzol qator aromatik birikmalarning va qisman polisiklik birikmalarning barqarorligi va reaksiyon qobiliyatini tushuntirish mumkin bo'ldi.

Barqarorlik effekti faqat olti a'zoli sistemalarga emas, balki,  $\pi$ -elektronlari soni Xyukkel qoidasiga muvofiq keladigan uch-, to'rt-, besh- va yetti a'zoli tutash sistemalarga ham xos ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Keyinchalik shunday birikmalar sintez qilinib, batafsil o'rganilgan. Benzol tuzilishiga ega bo'lмаган, lekin  $\pi$ -elektronlari soni Xyukkel qoidasiga muvofiq keladigan siklik tutash sistemalar *nobenzoid* (*nobenzol*) *aromatik sistemalar* deb nomlangan.



Siklopropenil-kation

Siklobutendil-kation

Siklopentadiyenid-ion


Tropiliy-kation

Agar siklik planar tutash sistemada  $\pi$ -elektronlar soni Xyukkel qoidasiga muvofiq kelmasa, bunday birikmalar odatda beqaror bo'ladi. Mazkur sistemalar ba'zan *antiaromatik sistemalar* ham deyiladi.


Shuni ham ta'kidlash zarurki, katta halqali siklik tutash sistemalarda  $\pi$ -elektronlar soni rasman Xyukkel qoidasiga muvofiq kelsa-da (masalan, 14 ta, 18 ta va h.k.), ularning molekulasi planar bo'lmaydi va barqarorligi ham kamayadi.

## 18.2. BENZOL QATOR ARENLAR


Benzol qator arenlarni benzol siklidagi vodorod atomlarini alkil, alkenil, alkinil guruhlariga almashingan hosilalari deb qarash mumkin. Masalan:




benzol




toluol




*o*-ksitol



1,3,5-trimetilbenzol  
(mezitilen)




izopropilbenzol  
(kumol)




1,2,4,5-tetrametilbenzol  
(durol)

IYUPAK nomenklaturasi bo'yicha arenlarning nomi *-en* qo'shimchasiga ega bo'lishi kerak, ya'ni benzol *benzen*, toluol *toluyen* deb atalishi kerak. Bunday nomlash ingliz tilidagi adabiyotlarda qo'llaniladi. Lekin boshqa tillarda ba'zi chalkashliklarga qaramasdan *-ol* qo'shimchasi bilan nomlash saqlanib qolgan.


Arenlarning qoldiqlarini nomi - il (aryl-) qo'shimchasi bilan yasaladi. Ba'zi qoldiqlar trivial nomlarini saqlab qolgan. Masalan:




fenil-




benzil-




*o*-tolil



2,3-ksilikil-



2-etylfenil-



fenetil-


### ***OLINISH USULLARI***

Sanoatda benzol qator arenlari toshko'mirni va nestni qayta ishlab, hamda benzolni alkillab olinadi. Laboratoriyyada alkillash, hamda atsillab qaytarish metodlari yordamida olinadi.


Arenlarning tarixiy birinchi olinish usuli toshko'mirni quruq haydash hisoblanadi. Toshko'mir havosiz sharoitda 900–1000°C da qizdiriladi. Bunda koks (quruq qoldiq), koks gazi va toshko'mir smolasi hosil bo'ladi. 1 m<sup>3</sup> koks gazida taxminan 30 gr benzol, 10 gr toluol bo'ladi. Smolaning tarkibida esa ozgina miqdor benzol, toluol, ksilollar, polisiklik arenlar, fenollar va geterosiklik birikmalar bo'ladi. Toshko'mir hozircha arenlarning asosiy manbayi hisoblanadi.

Benzol toluol va bir qator oddiy arenlar nestning ayrim navlariida ham bo'ladi. Arenlar nest mahsulotlarini katalitik krekinglab ham olinadi.

Arenlar olishning muhim sintetik usullaridan biri alkanlar va sikloalkanlarni katalitik degidrogenlash hisoblanadi. Masalan, siklogeksan oson benzolga aylanadi.



Alkanlar oksid katalizatorlaridan o'tkazilsa, sikl hosil qilib degidrogenlanadi va arenga aylanadi:





Bu jarayon alkanlarni *degidrosikllash* yoki neftni *aromatizatsiyalash* deyiladi.

**Siklotrimerlanish.** Alkinlar metallorganik katalizatorlar ishtirokida trimerlanib arenlarga aylanadi.

**Alkillash.** Benzolini alkillash reaksiyalarida alkilbenzollar hosil bo'ldi. Alkillash spirtlar, alkenlar yoki galogenalkanlar ta'sirida olib boriladi.

**Kislorodli hosilalaridan olish.** Arenlar kislorodli hosilalarini qaytarish yo'li bilan ham olinishi mumkin. Masalan:



### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Benzol va uning gomologlari rangsiz suyuqlik yoki kristall moddalar bo'lib, o'ziga xos hidga ega. Suvdan yengil va ancha katta nur sindirish ko'rsatkichiga ega.

Atomlardan benzol hosil bo'lganda oddiy va qo'shbog'larning termokimyoviy energiyalarining yig'indisi bo'yicha hisoblangandan ko'ra ko'proq issiqlik ajralib chiqadi. Farq ~160 kJ/molni tashkil qildi.

$\mu 10^{30}, \text{KJ m}$	1.34	1.77
$\mu \text{D}$	0.4	0.53
		1.44
		0.43

Energiyalarning bunchalik katta farqi  $\Delta E$  olti a'zoli halqadagi uchta qo'shbog'ning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida benzol molekulasining spetsifik stabillashuvidan darak beradi (Rezonans, bog'lanish, delokallanish energiyasi). Shunga o'xshash natijani benzol va siklogek-senni gidridlanish reaksiyasi issiqqliklarini taqqoslab ham olish mumkin.

Benzol qutbsiz birikma ( $\mu=0$ ), lekin alkilbenzollar dipol momentiga ega. Bu elektron sistemasining sezilarli bog'langanligidan darak beradi. Benzolning elektron sistemasini suriluvchanligi va alkil guruhlarning elektrodonor xossalalarini ancha kichik ionizatsiya energiyalaridan ham bilish mumkin.


Benzol	9,24 eV	o-Ksilol	8,45 eV
Toluol	8,72 eV	Geksametilbenzol	7,9 eV
Pseudokumol	8,45 eV	Durol	8,1 eV


**Molekulalarning geometriyasи.** Benzol molekulasing elektronografik tahlili asosida molekula yuqori darajada simmetrik to'g'ri yassi oltiburchak shaklga ega ekanligi aniqlangan. C-C bog'lari bir xil va ularning uzunligi oddiy bog'ning ham qo'shbog'ni ham uzunligiga to'g'ri kelmaydi (0,1399 nm, C-C-0,154 nm, C=C 0,133 nm). C-H bog'larning uzunligi – 0,1101 nm < C-C-C= 120°. Benzol gomologlarida bog'larning uzunligi va burchaklar juda kam o'zgaradi.

Benzol sistemasida uglerod atomida  $sp^2$  gidridlangan holda va ular 3 tadan  $\sigma$ -bog' hosil qiladi. Oltita elektrondan iborat yaxlit sistema hosil qilish uchun har bir uglerod atomidan bittadan  $p$ -orbital bilan qatnashadi. Benzol molekulasi oltita  $\pi$ -elektrondan iborat bog'langan sistemani saqlab qolishga intiladi. Shuning uchun ko'plab reaksiyalarda vaqtincha buzilgan siklik bog'langan sistema regeneratsiyalanadi, ya'ni qayta tiklanadi. Taxmin qilinishicha, benzol molekulasida yopiq molekulyar orbitallar hosil bo'lganligi uchun tashqi omillar ta'sirida elektronlarni halqa bo'ylab harakati natijasida qandaydir aylana oqim (tok) vujudga kelishi mumkin.


Bu magnit maydoni ta'sirida kuzatiladi va benzolning diamagnit singdiruvchanligini kamayishi bilan, hamda PMR spektrlarda benzol halqasidagi protonlarning singnallarini yanada kuchsiz maydonlarga tomon surilishi bilan ifodalanadi.

Benzoldagi C-C bog'lar bir xil bo'lganligi uchun benzolning struktura formulasini to'g'ri tasvirlash borasida muammolar kelib chiqqan. Tasvirlashning bir necha xil shakllari mavjud:







I



II



ёки




III

Almashinmagan benzol uchun III formulani yozish maqsadga muvofiq, lekin  $\pi$ -elektronlarning delokallanishi va  $\pi$ -bog'larning tenglashishini nazarda ko'proq Kekule formulasi (I) dan foydalanish odat bo'lgan.

Almashingan benzol sistemalarining simmetriyasi benzoldagidan kamroq, bog'larning uzunligi bir xil emas,  $\pi$ -bog'larning tartibi o'zgargan. Shuning uchun ularga nisbatan (III) formulani qo'llash unchalik to'g'ri kelmaydi. Kekule formulalari ham o'rribosarlarni  $\pi$ -elektron zichligiga ta'sirini to'la ifodalab bera olmaydi.

MO hisoblashlarining ko'rsatishicha, o'rribosarlar benzol halqasidagi uglerod atomlarining  $\pi$ -elektronlar zichligini o'zgarishini keltirib chiqaradi. Elektronodonor o'rribosarlar (D)  $\sigma$ - va  $n$ - holatdagi uglerod atomlarida elektronlar zichligini orttirsa, elektronoakseptor o'rribosarlar (A) aksincha kamaytiradi. Bu egri strelkalar yordamida tasvirlashni qiyinlashtiradi, chunki o'rribosar butun sistemaga ta'sir ko'rsatadi.



Benzol va gomologlari spektrning UB qismida juda katta xarakterli 170–210 nm da intensiv va 240–270 nmda kam intensiv ( $\epsilon \sim 200$ ) nur yutadi. Intensivlikning kamligi  $\pi$ -orbitallarning yuqori simmetrikligi va aynigan orbitallarning mavjudligi bilan tushuntiriladi (birinchi elektron o'tish ehtimoli juda kam). Ushbu struktura qo'zg'algan holatning bir-biridan ancha farq qiladigan tebranma qavatlar (darajalar) ni vujudga kelishiga bog'liq.

IQ-spektrlarda benzol va uning gomologlari 3000–3050  $\text{cm}^{-1}$  (C-H bog'larning valent tebranishlari), 1500–1600  $\text{cm}^{-1}$  (C-C bog'larning valent

tebranishlari) va  $700\text{--}900 \text{ cm}^{-1}$  ( $\text{C-H}$  bog'larining defrematsion tebranishlari) sohalarda nur yutadi. YaMR spektrlarda benzol halqasidagi protonlar kuchsiz magnit maydonlariga siljishi bilan tavsiflanadi ( $\delta = 6,4\ldots8,2$ ).

### KIMYOVİY XOS SALARI

Benzol va uning gomologlari uchun elektrofil reagentlar bilan o'zaro ta'sirlashib, o'rın olish reaksiyasiga kirishi xarakterlidir. Benzol gomologlari shuningdek yon zanjir bo'yicha ham reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiyalar doim erkin radikal mexanizm bo'yicha boradi. Birikish reaksiyalar benzol va uning gomologlari uchun unchalik xos emas. Bunday reaksiyalar alohida sharoitlarda boradi.


#### 1. Elektrofil o'rın olish reaksiyaları.

A) Mexanizmlari. Elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashganda benzol va uning gomologlari dastlab  $\pi$ -kompleks (zaryad ko'chirish kompleksi) hosil qiladi.




Buni yutilishning elektron spektrlari yordamida aniqlash mumkin, chunki kompleksning hosil bo'lishi yutilishning yangi chizig'ini paydo bo'lishi bilan bog'liq.

$\pi$ -kompleks qandaydir miqdor energiya yutib aktivlanish to'sig'idan o'tishi va yangi zarrachaga aylanishi mumkin. Aynan mana shu zarrachada bog'lar qaytadan taqsimlanib yangi  $\text{C-H}$   $\sigma$ -bog' hosil bo'ladi. Bunday zarracha  $\sigma$ -kompleks deb yuritiladi.




$\sigma$ -kompleks bog'langan karbokation bo'lib, unda musbat zaryad beshta uglerod atomi orasida delokalizashgan, 6-uglerod atomi esa  $\text{sp}^3$ -gibridlangan holatda bo'ladi va bog'lanishda qatnashmaydi. Bog'langan

karbokationdagi elektron zichligining taqsimlanishi 3 ta bir-biriga o'tuvchi rezonans struktura bilan ham tasvirlash mumkin.



$\sigma$ -kompleks beqaror zarracha bo'lib, uning hosil bo'lishi benzolning barqaror 6 ta  $\pi$ -elektronli sistemani buzilishi bilan bog'liq, shuning uchun u  $E^+$  yoki  $H^+$  chiqarib yana barqaror benzol sistemasiga aylanadi. Aksariyat holatlarda  $H^+$  ning ajralishi oson kechadi ( $\pi$ -kompleks CH kislota sifatida ishtirok etadi) va almashigan benzol hosil bo'ladi. Oraliq mahsulot sifatida boshqa  $\pi$ -kompleks hosil bo'lishi mumkin. Bu kompleksdagi elektrofil zarracha  $H^+$  hisoblanadi. Shunday qilib o'rin olish jarayonini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:




Benzol halqasida boradigan elektrofil o'rin olish reaksiyalari qaytar reaksiyalardir, ularning yo'nalishi energetik omillar bilan (boshlang'ich va oxirgi holatlар enerjiyasi, C-E bog'ning energiyasi), elektrofil va elektrofugning nisbiy faolligi bilan belgilanadi. Benzol halqasidagi o'rinosarlar va  $\pi$ - va  $\sigma$ -komplekslarning hosil bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va reagentni *ortho*-, *para*- yoki *meta*- holatga yo'naltirishi mumkin.


O'rinosarlar elektrofil o'rin olish reaksiyalarni osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi va oriyentatsiya effektini namoyon qiladi. Elektronodonor o'rinosarlar  $\pi$ -kompleks hosil bo'lishini osonlashtiradi, chunki ular ionlanish energiyasini kamaytirib,  $\sigma$ -kompleksni stabillaydi. Elektro-nokseptor o'rinosarlar  $\pi$ -kompleks hosil bo'lishini ancha qiyinlashtiradi, chunki ionlanish energiyasini orttiradi va  $\sigma$ -kompleksni juda kam

stabillaydi. Elektronodonor o'rribosarlarining  $\sigma$ -kompleksni stabillashi  $\sigma$ -kompleksda guruhlarning ma'lum oriyentatsiyasidagina mumkin bo'ladi.

$\sigma$ -kompleksning stabillashuvi o'rribosar ishtirokida musbat zaryadni faqat *ortho*- yoki *para*- holatlarda qo'shimcha delokalizatsiyasi bilan erishiladi. Buni rezonans chegara formulalari yordamida yaqqolroq ko'rsatish mumkin. Bunday holatda reaksiya tezroq boradi, *meta* izomer faqat ozgina miqdorda hosil bo'ladi.



Alkil, alkenil, aril guruhlar, -OH, -OR, -NH<sub>2</sub>, -NHR guruhlar, shuningdek galogenlar atomlari elektronodonor o'rribosarlar hisoblanadi. Galogenbenzollar alkilbenzollarga qaraganda elektrofil o'rinn olish reaksiyalariga sekinroq kirishadi. Chunki galogen atomlari katta induktiv effektga ega (-I). Galogenbenzollarning ionlanish energiyasi (IE) benzolning ionlanish energiyasiga yaqin keladi. *Ortho*- yoki *para*- oriyentirlovchi o'rribosarlar *birinchi tur o'rribosarlar yoki yo'naltiruvchilar* deyiladi. Elektronoakseptor o'rribosarlar elektrostatik omillar ta'sirida elektrofil reagentlarni *meta*- holatga yo'naltiradi.




Bunday holatda reaksiya sekinroq boradi va yanada kuchliroq sharoitlarni talab qiladi. Reaksiyaning asosiy mahsuloti meta- izomer bo'ladi.

$-\text{COOH}$ ,  $-\text{C}(\text{O})\text{R}$ ,  $-\text{NO}_2$ ,  $-\text{SO}_3\text{H}$ ,  $-\text{C}\equiv\text{N}$  guruhlari elektronoakseptor o'rinnbosarlar hisoblanadi. Ular 2-tur o'rinnbosarlar yoki yo'naltiruvchilar deyiladi.


Bundan tashqari aniq oriyentatsiyalovchi effektga ega bo'limgan o'rinnbosarlar, masalan,  $-\text{CHCl}_2$ ,  $-\text{CCl}_3$  ham mayjud, bunday holatda reaksiyalarda orto-, meta- va para- izomerlarning aralashmasi hosil bo'ladi.


B) H-elektrofillar bilan o'zaro ta'siri. Kuchli kislotalar arenlar bilan  $\pi$ -komplekslar hosil qiladi. Juda kuchli kislotalar ishtirokida ( $\text{HF} + \text{SbF}_5$ ;  $\text{HF} + \text{PF}_5$ ;  $\text{HF} + \text{BF}_3$ ;  $\text{SbF}_5 + \text{FSO}_3\text{H}$ ) bog'langan karbokation-benzoloni ioni ( $\sigma$ -kompleks)hosil bo'lishi bilan proton birikadi.




Shunday yo'l bilan vodorod atomlari almashadi. Deyteriy kislotalari ishtirokida esa deyteroalmashinuv sodir bo'ladi. Masalan, benzol suyultirilgan  $\text{D}_2\text{SO}_4$  bilan qayta ishlansa,  $\text{C}_6\text{D}_6$  hosil bo'ladi.

D) Alkillash. Galogenalkanlar alyuminiy galogenidlari ishtirokida benzol va uning gomologlari bilan ta'sirlashib, almashigan benzollar hosil qilish reaksiyasi 1877-yilda Sh.Fridel va J.Krafts tomonidan o'r ganilgan. Bunda dastlab, alyuminiy galogenid galogenalkan bilan o'zaro ta'sirlashib uglerod-galogen bog'ining qutblanganligini orttiradi, natijada galogenalkanning elektrofilligi ortadi deb hisoblanadi.






Benzol toluol va ksilollarga nisbatan qiyinroq alkinlanadi. Alkinlash reaksiyalarida doim di- va trialkilbezollar ham hosil bo'ladi.




Fridel-Krafts bo'yicha alkillash reaksiyalarida katalizator sifatida boshqa Lyuis kislotalardan, masalan,  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{SnCl}_4$ ,  $\text{TiCl}_4$ ,  $\text{BF}_3$  lardan ham foydalanish mumkin. Arenlarni alkillash uchun galogenalkanlardan tashqari kislotalar ishtirokida alkenlardan yoki spirtlardan foydalanish mumkin. Bunda karbokationlar yoki ularga o'xshash ion juftlari elektrofil reagent bo'lishi mumkin.




Alkil radikallarning tuzilishi ham alkilgalogenidlarning elektrofilligiga ta'sir ko'rsatadi: uchlamchi>ikkilamchi>birlamchi. Bunday tartib uchlamchi alkil-galogenidlarning oson qutblanishi bilan bog'liq. Uchlamchi alkilgalogenidlar katalizatorlar bilan ta'sirlashib barqaror karbokationlarni oson hosil qiladi. Alkenlar alkinlovchi reagentlar sifatida sanoatda ko'proq ishlatalidi.

E) Atsillash. Fridel-Krafts katalizatorlari ishtirokida atsilxloridlar benzol va uning gomologlari bilan o'zaro ta'sirlashib, arilketonlar hosil qiladi.



Alyuminiy xlorid atsilxlorid molekulasini qutblaydi. Koordinatsiya kislород atomi bilan ham galogen atomi bilan ham amalga oshadi. Ba'zan atsiliy ioni  $\text{RCO}^+$  hosil bo'ladi deb taxmin qilinadi.

F) Nitrolash. Benzol va uning gomologlari kons.  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  aralashmasi bilan o'zaro ta'sirlashib, nitrobirikmalar hosil qiladi. Nitrollash reaksiyasida elektrofil reagent ( $\text{NO}_2^+$ ) nitrollash kislotaning protonlanishidan, ayniqsa, kons. sulfat kislota ishtirokida hosil bo'ladi.




Nitrolashni davom ettirish qiyin bo'ladi. Chunki  $\text{NO}_2^+$  guruh kuchli elektronoakseptor o'rindbosar hisoblanadi. Nitrolovchi aralashmalarda  $\text{NO}_2^+$  ionlarning mavjud spektroskopik usullar bilan isbotlangan. Ba'zan nitrolovchi aralshma o'rniga  $\text{KNO}_3$ , va  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , aralashmasidan foydalaniladi. Bunda nitrolovchi reagent miqdorini nazorat qilish va reaksiyon aralashmada suvning miqdorini kamaytirish imkoniyatini beradi. Nitroniy tetaftorborat kuchli kislotali sharoidta faol nitrolovchi reagent hisoblanadi. Oson nitrolanuvchi aromatik birikmalar nitrollash uchun 68 %, 98 % va 100 % li nitrat kislotasi qo'llaniladi.

Nitrat kislotaning sirkal kislotadagi eritmasi yumshoq nitrolovchi reagent bo'lib, polialkilbenzollar va geterosikllarni nitrolashda ishlataladi. Shuningdek nitrolash uchun  $\text{HNO}_3$ , ni  $\text{CCl}_4$  dagi eritmasi, fenollar va anilinni nitrolash uchun tetranitrometan  $\text{C}(\text{NO}_2)_4$  va suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  qo'llaniladi. Nitrolash davomida yonaki reaksiyalar ham ketadi.

Nitrolash reaksiyasining sharoiti aromatik uglevodorod tabiatiga bog'liq. Benzolni nitrolash uchun nitrolovchi aralashmadan foy-dalaniladi, reaksiya 50°C da olib boriladi. Yuqori temperaturada yonaki reaksiyaning borish ehtimoli — dinitrobenzol hosil bo'lishi kuchayadi. Alkilbenzollar benzolga nisbatan oson nitrolanadi. Masalan, toluol xona temperaturasida (~20°C) nitrollanadi.

Alkil radikallarining oriyentatorlik qobiliyatları bir-biridan farq qiladi. O'rindbosar hajmini ortishi o-izomerni unumli kamaytiradi.

G) Sulfolash. Benzol va uning gomologlari sulfat kislotasi (80—100%), oleum ta'sirida sulfolanadi. Ba'zan sulfolash uchun  $\text{SO}_3^-$ , piridin-sulfotrioksid, dioksansulfotrioksid, xlorsulfon kislotasi va sulfuriyl xlorid qo'llaniladi.




Alkilbenzollar benzolga nisbatan oson sulfolanadi. Sulfolash reaksiyalarida  $\text{SO}_3^-$  yoki  $\text{HSO}_3^+$  ionı elektrofil zarracha hisoblanadi. 100 % li yoki konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ishlataliganda ichki protonlanish sodir bo'ladi va  $\text{HSO}_3^+$  ionı hosil bo'ladi.




Oleumda sulfolovchi reagent  $\text{SO}_3^-$  hisoblanadi. Oleum  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ga nisbatan kuchliroq sulfolovchi reagent hisoblanadi. Sulfolash reaksiyalarida bir qator yonaki reaksiyalar ham boradi. Bulardan eng asosiyllari quyidagilar:

1. Arensulfokislotalarning gidrolizi. Bu reaksiya sulfolashga teskari reaksiya hisoblanadi.




Gidroliz reaksiyasini sekinlatish uchun hosil bo'lgan suvni ortiqcha aromatik uglevodorod bilan azeotrop aralashma sifatida reaksiya muhitidan chiqarish, yoki suvni bog'lash usullaridan foydalaniladi. Masalan, reaksiya oleum bilan olib borilsa  $\text{SO}_3^-$  suv bilan bog'lanadi.

Sulfolashda suvni bog'lash uchun  $\text{SOCl}_2$  dan foydalanish qulay hisoblanadi.



2. Oksidlanish reaksiyalari yuqori temperaturalarda tezlashadi, reaksiyon aralashma ko'mirlanadi va  $\text{SO}_3$  ajralib chiqadi.

3. Sulfonlarning hosil bo'lishi.




Temperaturaga bog'liq ravishda reaksiya natijasida turli xil mahsulotlar hosil bo'ladi. Toluol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan sulfolanganda yuqori temperaturalarda m- va n- izomerlarning miqdori ortadi:



izomer	0°C	100°C
Orto	32	13
Meta	6	8
Para	62	79

Arensulfokislota qanchalik oson hosil bo'lsa, shunchalik tez gidrolizlanadi.

H) Benzol va uning gomologlari xlordanadi, bromlanadi va yodlanadi. Reaksiyalarni galogen atomini qutbllovchi katalizatorlar – Luis kislotalari osonlashtiradi. Ba'zan katalizator sifatida temir qirindisi ishlataliladi. Reaksiya natijasida mono-, di- va poligalogenbenzollar hosil bo'ladi.



Arenlarni yodlash maxsus sharoitlarda o'tkaziladi. Yod arenlar bilan to'g'ridan to'g'ri ta'sirlashmaydi. Yod bilan arenlarning reaksiyasi kuchli oksidlovchilar, masalan,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{O}_2$  ishtirokida olib boriladi. Oksidlovchilar ta'sirida yod molekulasidan  $\text{I}^+$ -ioni hosil bo'ladi.



Benzol va toluolni xlorlash sanoatda keng qo'llaniladi. Aromatik birikmalarni bromlash asosan laboratoriya amaliyotida qo'llaniladi. Aromatik uglevodorodlarni to'g'ridan to'g'ri ftorlash juda kam qo'llaniladi. Ftor juda shiddatli reaksiyaga kirishadi. Reaksiya davomida vodorodning o'rinni olishigina emas, C-C bog'larning uzilishi va ftorning birikishi ham sodir bo'ladi. Aromatik birikmalarni ftorlash uchun bilvosita usullardan, masalan, diazoniy tuzlaridan va diazoniyini fторга almashtirish yoki boshqa galogenlarni fторга almashtirish reaksiyalaridan foydalaniladi.

Toluolni to'g'ridan to'g'ri galogenlash reaksiyasi reaksiya sharoitiga qarab ikki xil yo'nalishda borishi mumkin. Katalizator ishtirokida galogen aromatik yadro bo'yicha o'rinni olish reaksiyasiga kirishadi( $E_N^2$ ). Yorug'lilik va temperatura ta'sirida esa yon zanjir bilan radikal mexanizm bo'yicha ta'sirlashadi.

**O'rribbosarlarning benzol halqasining reaksiyon qobiliyatiga va reaksiya mahsulotining izomer tarkibiga ta'siri.**

Kinetik tadqiqotlar yordamida o'rribbosarlarning elektron effektlari reaksiyalar tezligiga va hosil bo'ladigan izomerlar nisbatiga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Quyidagi jadvalda  $\text{C}_6\text{H}_5\text{X} + \text{Br}_2 \leftrightarrow \text{C}_6\text{H}_5\text{Br} + \text{HBr}$  reaksiyاسining nisbiy tezligi qiymatlari keltirilgan:

Reaksiya parametri	X					
	H	$\text{CH}_3$	$\text{OCH}_3$	$\text{N}(\text{CH}_3)_2$	Cl	$\text{NO}_2$
Nisbiy tezlik	1	$3 \cdot 10^2$	$10^9$	$5 \cdot 10^{18}$	0,1	$2 \cdot 10^{-6}$
$\sigma_n^+$	0	-0,3	-0,6	-1,7	-0,1	+0,78
Elektron effekt	-	+I, +M	-I, +M	-I, +M	-I, +M	-I, -M

$\sigma^+n$  – Gammet-Braun konstantasi. Molekulaning tuzilishi – o'rribosar effektini reaksiya tezligiga ta'sirini ifodalaydi.

Quyidagi jadvalda esa  $C_6H_5X + HNO_3 \leftrightarrow O_2NC_6H_4X + H_2O$  reaksiyadagi o-, m-, p- izomerlarning miqdorlari (%) keltirilgan.

Kuchli elektronodonor (+M) effektga va kuchsiz akseptor induktiv effektga ega o'rribosarlar (-I) reaksiyalar tezligini keskin oshiradi. Galogenlar atomlarining donor effekti kuchli -I effekt natijasida reaksiyalar tezligiga kuchsiz ta'sir ko'rsatadi. Nitroguruh esa benzol halqasini passivlashtiradi.

Izomer	X				
	CH <sub>3</sub>	OCH <sub>3</sub>	N(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	Cl	NO <sub>2</sub>
Orto	58,5	16,0	44	29,5	6,0
Meta	4,5	11,5	2	1	93,5
Para	37,0	72,5	54	69,5	0,5


Elektrodonor o'rribosarlar ta'sirida reaksiya mahsulotining 66,7% o-izomer (ikkita o- holat) va 33,3 % n-izomer bo'lishi kerak. Lekin amalda bunday bo'lmaydi. Bu birinchidan sterik omillar (fazoviy itarilish, o-effekt) bilan, ikkinchidan elektron effekt (o-holatda -I effekt kuchliroq ta'sir etadi) bilan tushuntiriladi. o-effekt ayniqsa CH<sub>3</sub> va C(CH<sub>3</sub>)<sub>3</sub> misolida yaqqol ko'rindi.

Elektroakseptor o'rribosarlari reaksiya mahsulotida m-izomerning miqdorini ko'payishiga sabab bo'ladi. o-, m- va p- holatlardagi reaksiya qobiliyat *partsial tezlik omillari* bilan xarakterlanadi va o-, m- va p- o'rinish reaksiyalar tezliklaridan kelib chiqib almashinmagan benzolga nisbatan hisoblab topiladi.

o- va p- holatlari uchun partsial tezlik omillari qanchalik yuqori bo'lsa, m-holat uchun shunchalik kichik bo'ladi va reaksiya regioselektivroq bo'ladi. Regioselektiv reaksiya deb molekulada reaksiya borishi mumkin bo'lgan bir necha holatdan faqat bittasi bo'yicha boradigan reaksiyaga aytildi. Biroq o'rinishning selektivligi reagent aktivligiga ham bog'liq. Reagentning aktivligi qanchalik yuqori bo'lsa reaksiya selektivligi shuncha past bo'ladi yoki akincha. Masalan, toluol bromlanganda 67 % para-izomer va 0,3 % meta-izomer hosil bo'ladi, AlCl<sub>3</sub> ishtirokida izopropil xlorid ta'sir ettirilsa 46 % para- izomer va 26 % meta- izomer hosil bo'ladi. Ikkinci reaksiyaning selektivligi kamroq, chunki reagent ancha aktiv, metil guruh esa kuchsiz +M effektga ega.

Benzol gomologlarining yon zanjir bo'yicha boradigan reaksiyalar. Bunday reaksiyalarga asosan benzol yadrosi bilan bevosita bog'lan-gan uglerod atomi kirishadi. Reaksiyalar odatda radikal tabiatiga ega



(galogenlash, oksidlash). Oraliq zarracha benzil tipidagi erkin radikal hisoblanadi. Radikaldagi toq elektron bog'lanish natijasida sezilarli darajada delokallashgan.




Benzil radikali stabillashgan erkin radikal hisoblanadi.

Benzil radikalining mavjud bo'lish vaqtı oddiy alkil radikallarga qaraganda ko'proq. Barqarorligi jihatdan allil radikallarga yaqin turadi.


Yon zanjir bo'yicha boradigan reaksiyalar qizdirish, yoritish, radikal hosil qiluvchi moddalar qo'shish bilan olib boriladi. Masalan, toluolni yon zanjir bo'yicha xlorlash va bromlash reaksiyasi qizdirish va intensiv yoritish bilan boradi.




Erkin benzil radikallari kislород билан осон та'sirlashib gidroperoksid radikallari, gidroperoksidлар ва ularning keyingi mahsulotлари – aldegидлар ва karbon kislotalar hosil qiladi.



Mazkur reaksiyalar o'zgaruvchan valentli metallarning tuzlari bilan ham katalizlanishi mumkin.  $K_2Cr_2O_7$ ,  $KMnO_4$  kabi oksidlovchilar bilan oksidlanguanda alkilbenzollardan aromatik karbon kislotalar hosil bo'ladi.




Birikish reaksiyaları. Benzol va uning gomologlari yuqori temperatura va bosim ostida, hamda katalizator ishtirokida gidrogenlanadi. Katalizator sifatida metall katalizatorlar, masalan, *Reney nikeli* deb ataladigan g'ovak nikeldan foydalaniladi.



Gidridlash reaksiyasida faqat siklogeksan hosil bo'ladi, oraliq mahsulotlarni ajratib olish mumkin emas, chunki ular benzolga nisbatan tez gidridlanadi. Bu vodorodni benzolning  $6\pi$ -elektron sistemasiga birikishi uchun sikloalken va sikloalkadiyenlarga qaraganda ko'proq energiya talab qilishni ko'rsatadi.


Benzol gidridlanganda  $\sim 208$  kJ/mol issiqlik (gidridlash issiqligi) ajralib chiqadi, siklogeksen gidridlanganda esa  $120$  kJ/mol issiqlik ajraladi. Uchta izolirlangan (ajratilgan) qo'shbog'ni va benzolni gidridlash issiqliklari orasidagi farq  $3 \times 120 - 208 = 152$  kJ/mol ni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, benzolning stabillashuv energiyasi  $\sim 150$  kJ/molga teng.

Xlor intensiv yoritib turganda ayniqsa, UB nurlar bilan yoritib turilganda benzolga birikadi. Bu reaksiyani 1826-yilda birinchi marta M.Faradey xlorni benzoldagi eritmasini quyosh yorug'ida turganda kuzatgan.




Benzol va uning gormologlari ozonni biriktiradi, bunda kuchli portlovchi moddalar – triozonidlar hosil bo'ladi. Triozonidlar gidroliz qilinganda dikarbonil birikmalar va ularning oksidlanish hosilalari – dikarbon kislotalarga aylanadi.

Benzol UB nurlar bilan yoritilganda yana oson benzolga aylanuvchi beqaror valent izomerlar hisoblanadi.




Fotokimyoviy izomerlanish. Benzol UB-nurlar bilan nurlantirilganda yana benzolga oson aylanuvchi beqaror *valent izomerlar* hosil bo'ladi:




## **19-BOB. KONDENSIRLANGAN HALQALI POLISIKLIK ARENLAR**

Kondensirlangan halqali polisiklik birikmalar deb ikki yoki undan ortiq benzol halqalari o‘zaro tutashib hosil qilgan organik birikmalarga aytildi. Kondensirlangan aromatik sistemalarning uch xil turi mavjud:


1. Chiziqli kondensirlangan halqalar:



naftalin




antratsen




tetratsen


2. Angulyar kondensirlangan halqalar:



fenantren




xrizen




pitsen


3. Perkondensirlangan halqalar:



piren




perilen




koronen

Kondensirlangan arenlarga inden, fluoren kabi tarkibida siklopenten halqasi tutuvchi birikmalarini ham kiritish mumkin.



inden




fluoren



Quyida kondensirlangan arenlarning ayrim muhim vakillarini ko'rib chiqamiz.

### 19.1. INDEN


Inden toshko'mir smolasidan natriy metali bilan qizidirib tuz ko'rinishida olinadi. Hosil bo'lgan tuz suv bug'i bilan haydalib toza indenga aylantiriladi.



Inden –  $-2^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan,  $182^\circ\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz suyuqlik, oson polimerlanadi. Indenni spirtli eritmasi natriy metali bilan qaytarilsa indan (gidroinden) ga, katalizator ishtirokida vodorod bilan qaytarilsa bisiklo-[4,3,0]nonan (gidrindan) ga aylanadi.




Inden siklopentadiyen-1,3 kabi asoslar ishtirokida aldegidlar va ketonlar bilan kondensatsiyalanib benzfulvenlarga aylanadi.





## 19.2. FLUOREN

Fluoren inden kabi toshko'mir smolasidan natriy metali yordamida ajratib olinishi mumkin. Shuningdek, fluoren difenilmetanni va 2-metilbifenilni katalizator ishtirokida termik degidridlab olinadi.



Fluoren  $115^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz, yaltiroq kristall modda. Uning molekulasida faol metilen guruhi mavjud bo'lib, ushbu guruhi oson oksidlanishi, karbonil birikmalar bilan kondensatsiyalanishi mumkin.







Elektrofil o‘rin olish reaksiyalarida dastlab 2-holat bo‘yicha, keyin 2- va 7-holatlar bo‘yicha birikmalar hosil bo‘ladi.

I.P.Sukervanik, A.R.Abdurasulova, N.G.Sidorova, X.Yuldashev, Q.Ahmedov, A.Abdushukurov, H.Tojimuhammedov kabi yetakchi olimlar molekulasida aromatik halqa saqlovchi birikmalarni alkillash, atsillash, arillash va boshqa reaksiyalarini o‘rganib, ular asosida xalq xo‘jaligi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan biologik faol moddalarni sintez qilish usullarini ishlab chiqdilar.


### 19.3. NAFTALIN

Naftalin birinchi marta 1819-yilda Garden tomonidan toshko‘mir smolasidan ajratib olingan. Uning tuzilish formulasini 1866-yilda K.Grabe taklif qilgan.




Naftalin molekulasidagi uglerod atomlari bir xil emas.  $\alpha$ -holatdagи to‘rtta uglerod atomi  $\beta$ -holatdagи to‘rtta uglerod atomidan farq qiladi.

Bir almashingan ikkita izomer naftalin bo‘lishi mumkin.



$\alpha$ -metilnaftalin



$\beta$ -metilnaftalin

Ikki almashingan bir xil o'rribosarli naftalinlar o'nta bo'lishi mumkin.

Naftalin asosan toshko'mir smolasidan olinadi. Smoladagi naftalining miqdori 6 % ga yetadi. Benzin va kerosin pirolizi natijasida hosil bo'ladigan qoldiqdan ham naftalin olish mumkin.  $C_{10}-C_{12}$  tarkibli alkanlarni degidrosikllash reaksiyalari orqali ham naftalin va uning gomologlari olinadi.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Naftalin va uning gomologlari o'ziga xos hidli, rangsiz kristall yoki suyuq moddalardir.



Birikma	T. s °C	T. q °C
Naftalin	80	218 (sublimatlanadi)
1-metilnaftalin	-22	241
2-metilnaftalin	32	241
2,6-dimetilnaftalin	110	261

Naftalin molekulasi planar bo'lib, ikkala halqa bir xil, lekin bog'lar uzunligi bir xil emas.

Naftalining tutash  $\pi$ -elektron sistemasi Xyukkelning MO metodi bo'yicha tavsiflanishi mumkin. Naftalindagi  $\pi$ -elektronlarning energiyasi  $E_{\pi} = 10\alpha + 13,684\beta$  ga, delokallanish energiyasi  $\Delta E_{\pi}^{del} = 3,684\beta(255,2 \text{ kJ/mol}^{-1})$  ga teng. Bu ikki molekula benzolning energiyasi ( $150,1 \times 2 = 301 \text{ kJ/mol}^{-1}$ ) dan kam. Naftalining siklik delokallanish energiyasi o-divinilbenzolga nisbatan hisoblangan bo'lib, benzolning ayni energiyasidan kam:  $\Delta E_{\pi}^{skl,del} = 0,844\beta$ . Bu qiymat shuni ko'rsatadi, ikkita halqadan kondensirlangan sistema hosil bo'lishi natijasida energiya tejamkorligi kam bo'ladi va birikish reaksiyalari, naftalin sistemasini ikki almashingan benzol sistemasiga aylanishi, ya'ni halqalardan birining ochilishi bilan boradigan reaksiyalar ketishi osonlashadi.

Naftalining yuqori band bo'lgan molekulyar orbitali (MO) benzolnikiga qaraganda ancha yuqori. Bu naftalining ionlanish energiyasi kamlididan ( $IE=8,13 \text{ eV}$ ) va elektronodonor xossalari kuchliroq ekanlididan darak beradi. Naftalin molekulasidagi elektron zichligi  $\alpha$ -holatda yuqoriroq.

Naftalin molekulasida  $\pi$ -bog'lar benzoldagiga qaraganda lokallashgan. Shuning uchun naftalin molekulasini ifodalashda Kekule formulasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Naftalin molekulasidagi bog'lar uzunligi  
(nm) va valent burchaklar kattaligi


$\pi$ -bog'lar tartibi  $p_n$

### KIMYOVITY XOSSALARI

Naftalin benzolga nisbatan elektrofil o'rincini olish va birikish reaksiyalariga oson kirishadi.


Naftalining elektrodonor xossalari yuqori bo'lganligi uchun  $\pi$ -komplekslarni oson hosil qiladi. Elektrofil reagentlar ta'sirida  $\alpha$ - va  $\beta$ - holatlar bo'yicha  $\sigma$ -komplekslar hosil bo'lishi mumkin.

Shuning uchun elektrofil o'rincini olish reaksiyalarini ikki xil izomer hosil bo'lishi mumkin. Bu kvant-kimyoiy hisoblashlar natijalariga mos keladi. Bundan tashqari,  $\alpha$ -holatdagi  $\sigma$ -kompleksning barqarorligi yuqori bo'lganligi uchun  $\alpha$ -holat bo'yicha reaksiyalar tezroq ketadi. Ayrim hollarda, agar reaksiya qaytar bo'lsa, yuqori temperaturalarda  $\beta$ -izomer hosil bo'ladi. Ba'zan reaksiya yo'naliishiga erituvchi ham ta'sir qiladi.




Naftalin alkillinganda va atsillanganda  $\alpha$ - va  $\beta$ -izomerlarning aralashmasi hosil bo'ladi. Izomerlar nisbati reaksiya temperurasiga va erituvchiga bog'liq.

Naftalin nitrat kislota ta'sirida oson nitrololanadi.




Nitrolash davom ettirilsa 1,5- va 1,8-dinitronaftalinlar aralashmasi hosil bo‘ladi.

Naftalin konsentrasi sulfat kislotada eritilsa sulfolanadi. Reaksiya natijasida  $\alpha$ - yoki  $\beta$ -naftalinsulfon kislotalari hosil bo'ladi.




$\alpha$ -naftalinsulfon kislotasi sulfat kislotasida qizidirilsa  $\beta$ -izomerga aylanadi.  $160^{\circ}\text{C}$  da asosan  $\beta$ -izomerdan iborat bo‘lgan aralashma hosil bo‘ladi.

$\beta$ -izomer termodinamik jihatdan  $\alpha$ -izomerga qaraganda barqaror. Shuning uchun qaytar sulfolash reaksiyasida termodinamik muvozanat qaror topadigan yuqori temperaturalarda  $\beta$ -izomer ko'proq hosil bo'ladi (termodinamik nazorat qilinadigan reaksiya). Nisbatan past temperaturalarda termodinamik muvozanat qaror topmaganligi uchun  $\alpha$ -izomer hosil bo'ladi (kinetik boshqariladigan reaksiya).




Naftalinning bromlanishi ham oson ketadi.




Mo'l miqdorda brom ta'sir ettirilganda 1,4- va 1,5-dibromnaftalinlar aralashmasi hosil bo'ladi. Ba'zida galogenlash reaksiyasida galogenning benzol halqalaridan biriga birikishi ham mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, naftalin uchun birikish reaksiyalari ham xosdir. Masalan, xlor benzolga qaraganda naftalinga oson birikadi. Naftalin katalitik gidridlanganda dastlab halqalardan biri gidridlanib oson tetragidronaftalin yoki tetralin hosil bo'ladi. Ikkinci halqani gidridlash yanada yuqori temperaturada ketadi va reaksiya natijasida dekalin hosil bo'ladi.




Naftalin turli oksidlovchilar ta'sirida oksidlaniishi mumkin. Reaksiya natijasida ftal kislotasi hosil bo'ladi.



Ushbu reaksiya sanoatda bug' fazasida  $V_2O_5$  qo'shilgan oksid katalizator ishtirokida yuqori temperaturada olib boriladi. Reaksiya sharoitida hosil bo'lgan ftal kislotasi ftal angidridiga aylanadi.

Naftalin xrom angidridining sirkal kislotadagi eritmasida oksidlansa 1,4-naftoxinon hosil bo'ladi.





Naftalin asosan ftal angidridi ishlab chiqarish uchun ishlataladi. Naftalin bir qator bo'yoq moddalar, dorivor moddalar va oshlovchi moddalar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida qo'llaniladi. Naftalin insektitsid (*kuyadorti*) sifatida ham ishlataladi.

#### 19.4. ANTRATSEN


Antratsen birinchi marta 1832-yilda Dyuma va Loran tomonidan toshko'mir smolasidan ajratib olingan. Hozirda ham antratsen asosan toshko'mir smolasidan olinadi.

Antratsen olishning sintetik usullari ham mavjud.


Benzol, uning gomologlari, benzilgalogenidlari, ftal angidridi kabi reagentlarni qo'llab antratsen siklini hosil qilish mumkin. Masalan, benzil xlorid  $\text{AlCl}_3$  ta'sirida antratsenga aylanadi. Oraliq mahsulot sifatida 9,10-digidroantratsen hosil bo'ladi.




2,9-dimetilantratsen



9,10-antraxinon rux kukuni bilan qaytarilganda ham antratsen hosil bo'lishi mumkinligi 1867-yilda A. Bayer tomonidan isbotlangan.



2-metilbenzofenon piroliz qilinganda antratsen ajralib chiqishi 1884-yilda Elbs tomonidan amalga oshirilgan.



### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**


Antratsen va uning gomologlari yuqori temperaturalarda suyuqlanadigan, rangsiz yoki sarg'ish tusli kristall moddalardir. Masalan, antratsen  $216,6^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi. Toza eritmalari va o'ta toza kristallarida binafsha rangli fluoressensiya kuzatiladi.

Antratsenning elektronodonor xossalari naftalinga qaraganda kuchliroq bo'lib, ionlanish energiyasi 7,4 eV ga teng. Antratsen molekulasidagi bog'lar uzunligi va valent burchaklar naftalin molekulasidagiga yaqin.

Antratsenning delokallanish energiyasi  $351,5 \text{ kJ/mol}^{-1}$  ga teng, ya'ni aromatik xossasi naftalinga qaraganda kamroq, reaksiyon qobiliyati kuchliroq. Antratsen molekulasida reaksiya markazi asosan 9- va 10-holatdagi uglerod atomlari hisoblanadi.


### **KIMYOVITY XOSSALARI**

Antratsen elektrofil reagentlar bilan naftalinga qaraganda osonroq kirishadi. Aksariyat reaksiyalarda dastlab birikish mahsulotlari hosil bo'lib, ular qizdirilganda almashingan birikmalarga aylanadi. Shuningdek, antratsen birikish reaksiyalariga ham oson kirishadi.




(X=Cl, Br)

Antratsen yuqori temperaturada sulfolanganda 1- va 2-antratsensulfon kislotalarini olish mumkin. Dastlab 9-antratsensulfon kislotasi hosil bo'lib, keyin u qayta gruppalanadi.




Antratsen katalizator ishtirokida gidridlanganda 9,10-digidroantratsen chiqadi.

Fao'l diyenofillar bilan ta'sirlashganda antratsen tutash diyen sifatida reaksiyaga kirishadi.



Antratsen juda oson oksidlanadi. Kislorod bilan yorug'lik ta'sirida oksidlanganda dastlab beqaror fotooksid hosil bo'ladi.




Reaksiyaning oxirgi mahsuloti 9,10-antraxinon hisoblanadi. Antratsen boshqa oksidlovchilar bilan oksidlanguanda ham 9,10-antraxinon chiqadi.

Antratsen asosan bo‘yoq moddalar olish uchun ishlataliladi.


### 19.5. FENANTREN

Fenantren birinchi marta 1872-yilda K. Grabe tomonidan toshko‘mir smolasidan ajratib olingan.


Fenantren antratsenning struktura izomeri hisoblanadi. Bir alma-shingan fenantrenning 5 ta izomeri mavjud: 1-, 2-, 3-, 4- va 9-.



**Olinishi.** Fenantren va uning gomologlari toshko‘mirdan tashqari sintetik usullar bilan ham olinishi mumkin. Ushbu usullar o,o’-dialkilbifenillar yoki 1,2-difeniletan hosilalarini degidrosikllashga asoslangan.




Bundan tashqari o-nitrobenzaldegid va fenilsirka kislotasidan ham antratsen olish mumkinligi 1896-yilda Pshor tomonidan asoslab berilgan. Bu reaksiyada dastlab dolchin kislotasining hosilasi chiqadi, keyin u dekarboksillanib fenantrenga aylantiriladi.



**Fizik xossalari va tuzilishi.** Fenantren va uning gomologlari rangsiz kristall moddalardir. Utarning suyuqlanish temperaturalari antratsen va uning gomologlariga qaraganda past. Masalan, fenantren  $100^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi.


Fenantren molekulasi antratsen molekulasiga qaraganda barqaror, energiya farqi taxminan  $33 \text{ kJ/mol}$  tashkil qiladi. Fenantrenning elektronodonor xossasi antratsenga qaraganda kam ( $\text{IE}=7,9 \text{ eV}$ ) va aromatik xossalari kuchliroq. Bu fenantren molekulasida  $\pi$ -elektronlarning kuchliroq o'zarlo ta'sirlashuvini ko'rsatadi.

**Kimyoiy xossalari.** Fenantren elektrofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Uning reaksiyon qobiliyati antratsenga qaraganda kamroq. Antratsendagi kabi fenantrenda ham 9- va 10- holatlardagi uglerod atomlari asosiy reaksiyon markazlar hisoblanadi. Ayrim holatlarda oraliq mahsulotlarni ajratib olish mumkin.



Fenantren katalizator ishtirokida gidridlanganda 9,10-digidrofenantren hosil bo'ladi. Yanada yuqori temperaturada gidridlab tetragidrofenantren (pergidrofenantren) olish mumkin.


Fenantren oksidlovchilar ta'sirida 9,10-fenantrenxinonga aylanadi.




Fenantren organik sintezda, jumladan bo'yoq moddalar ishlab chiqarishda boshlang'ich modda sifatida ishlataladi. Fenantrenning qisman yoki to'la gidridlangan hosilalari tabiiy birikmalar tarkibiga kiradi.

## 19.6. TETRATSEN VA PENTATSEN

Tetratsen va pentatsen oz miqdorda toshko'mir smolasi tarkibida uchraydi. Tetratsen birinchi marta xromatografiya usuli bilan texnik (tozalanmagan) antratsen tarkibidan ajratib olingan.




tetratsen



pentatsen

**Olinishi.** Tetratsen va pentatsen xinonlar va gidroksilli birikmalaridan vodorod bilan qaytarib olinadi. Xinonlar va gidroksil guruh tutuvchi birikmalar esa atsillash va kondensatsiya reaksiyalari orqali olinadi.



gidroksitetratsenxinon

tetratsenxinon

**Fizik xossalari va tuzilishi.** Tetratsen  $357^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan sarg'ish zarg'aldoq tusli kristall, penatsen esa  $300^{\circ}\text{C}$  dan yuqori temperaturada parchalanadigan ko'k-binafsha tusli kristall moddadir. Pasaytirilgan bosim ostida tetratsen va pentatsen sublimatlanadi.


Chiziqli kondensirlangan arenlarda halqalar sonining ortib borishi bilan ionlanish energiyasi molekulaning qo'zg'algan holatga o'tish energiyasi kamayib boradi. Buni quyidagi jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

**Kimyoviy xossalari.** Tetratsen va pentatsenning ionlanish energiyalari nisbatan kam bo'lganligi sababli ular elektrofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi, oson oksidланади. Tetratsenda 5-, 6-, 11- va 12-uglerod atomlari, pentatsenda 6- va 12-uglerod atomlari asosiy reaksiya markazlari hisobланади.

Birikma	IE, eV	Qo'zg'algan holatga o'tish maksimummi $\lambda, \text{nm}$	$\varepsilon$
Benzol	9,24	261,5	$\sim 200$
Naftalin	8,13	315	$\sim 300$
Antratsen	7,41	374	$\sim 8000$
Tetratsen	7,01	473	$\sim 10000$
Pentatsen	6,64	580	$\sim 12000$

Tetratsen va pentatsen organik yarimo'tkazuvchi va fotoo'tkazuvchi sifatida ishlatilishi mumkin. Tetratsen va pentatsendan tayyorlangan yupqa plyonkalar yoritilganda ularning elektr o'tkazuvchanligi keskin ortadi.


Tetratsenning xalkogenli hosilalari metallar kabi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan materiallar olishda qo'llaniladi.




## 19.7. PERKONDENSIRLANGAN POLISIKLIK ARENLAR

Perkondensirlangan polisiklik arenlarning asosiy manbayi toshko'mir smolasi hisoblanadi. Quyida ularning ayrim vakillari ko'rib chiqiladi.

**1. Piren.** Piren 156°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, uning eritmalari havorangli fluoressensiyalanadi.




Pirenning ionlanish energiyasi 7,4 eV ga teng. Piren elektrofil o'rinish reaksiyalariga oson kirishadi. Piren kimyoiy xossalariga ko'ra naftalinga o'xshaydi. Piren nitrolanganda 1-nitropiren, oksidlanganda 1,6-pirenxonon hosil bo'ladi.



Piren bo'yoq moddalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.


**2. Benzpiren.**



Benzpiren 156°C da suyuqlanadigan sariq rangli kristall modda. Oz miqdorda toshko'mir smolasi tarkibida uchraydi. Benzpiren kanserogen

moddalar qatoriga kiradi, ya'ni organizmda zararli shishlar, asosan teri saratoni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

**3. Perilen.** Perilen 274°C da suyuqlanadigan sariq rangli kristall modda. Birinchi marta toshko'mir smolasidan topilgan. Sintetik yo'l bilan 1,8-diiodnaftalinni mis ishtirokida qizidirib, yoki 3,4,9,10 peri-lentetrakarbon kislotasini termik dekarboksillab olish mumkin.




Perilenning ionlanish energiyasi 7,0 eV ga teng. Perilen elektrofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi, oson oksidlanadi. Perilen kimyoviy xossalariiga ko'ra naftalinga o'xshaydi. Perilen nitrolanganda 3,10-dinitroperilen, oksidlanganda 3,10-perilenxinon hosil bo'ladi.


Perilen hosilalari organik bo'yoqlar, jumladan luminessensiyalanuvchi bo'yoqlar hisoblanadi.

## **20-BOB. GALOGENARENLER**


Galogenarenler ochiq zanjirli galogenli birikmalar kabi nomlanadi. Masalan,



1-brom-3-ethylbenzol



1-brom-2-metil-  
3,5-dixlorbenzol




2,6-dibromnaftalin

### **OLINISH USULLARI**

Galogenarenlar arenlarni to'g'ridan to'g'ri galogenlash, yoki boshqa guruhlarni galogenga almashtirish yo'li bilan olinadi.


To'g'ridan to'g'ri galogenlash galogenarenlar olishning asosiy metodi (florarenlardan tashqari) hisoblanadi.

Arenlarni xlor bilan ta'sirlashuvi ozroq miqdor katalizator ( $\text{Fe}$ ,  $\text{FeCl}_3$ , boshqa Lyuis kislotalari) ishtirokida juda oson boradi. Benzol xlorlanganda xlorbenzol, dixlorbenzol va trixlorbenzol hosil bo'ladi:





Toluol, ksilollar, bifenil, naftalin oson xlorlanadi.

Arenlarni bromlash xlorlashga qaraganda qiyinroq boradi, reaksiya  $\text{Fe}$ ,  $\text{FeBr}_3$ ,  $\text{I}_2$  bilan katalizlanadi:




Arenlar maxsus sharoitlarda yodlanadi. Yod aren bilan to'g'ridan to'g'ri reaksiyaga kirishmaydi, faqat kuchsiz zaryad ko'chirish kompleksi hosil qiladi, chunki brom va xlorga qaraganda elektronga moyilliigi kam. Arenlarni yodlash reaksiyasi oksidlovchilar, masalan, yodat kislotasi, nitrat va sulfat kislotalari aralashmalari, vodorod peroksid ishtirokida boradi. Bunday sharoitda yod nisbatan kuchli elektrofil zarracha - I<sup>+</sup> ga ayla-nadi.



Aktivlangan arenlarni yodlash uchun yod xloriddan ICl foydalanish ham mumkin.

Boshqa guruhlarni galogenga almashtirish reaksiyalari asosan storarenlar olish uchun qo'llaniladi. Masalan, yuqori temperatura va bosim ostida xlor atomi storga almashinishi mumkin.




Galogenarenlar arendiazoni tuzlaridan ham olinishi mumkin.

## FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI


Galogenarenlar rangsiz suyuq moddalar bo‘lib, o‘ziga xos hidga ega, suvda deyarli erimaydi. Galogenarenlarning dipol momenti o‘xshash galogenalkanlardagiga qaraganda ancha kam bo‘ladi. Bu C(sp<sup>2</sup>)–X bog‘ining qutbliligi kam ekanligidan darak beradi.

C–X bog‘ining qutbliligini kamayishi uglerod atomining gibridlanish holatini o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bunday o‘zgarish uglerod atomining elektromansiyligini ortishiga va galogen atomining taqsimlanmagan elektronlarini arenning  $\pi$ -elektronlari bilan ta’sirlashuviga sabab bo‘ladi.

Galogen atomining taqsimlanmagan elektronlari arenning  $\pi$ -elektronli sistemasi bilan bog‘lanishi natijasida galogen atomidagi elektron zichligi uglerod atomlari tomonga suriladi, ya’ni galogen atomi +M-effekt namoyon qiladi:



Bog‘lanish natijasida  $\pi$ -elektronlar zichligining taqsimlanishi va C–X bog‘ining tabiatи o‘zgaradi. Bir vaqtning o‘zida  $\delta$ -bog‘lar bo‘yicha kuchli elektronoakseptor induktiv effekt (-I) ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun  $\delta$ - va  $\pi$ - bog‘lar bo‘yicha umumiy effektni sifat jihatdan baholash,  $\delta$ -zaryadlar ko‘rinishida ifodalash mushkul.




Galogenbenzollar elektronodonor xossalari jihatdan benzolga yaqin turadi. Masalan, fторbenzolning IE si 9.2 eV ga, xlorbenzolniki esa 9.08 eV ga teng.

## KIMYOVİY XOSSALARI


Galogenarenlar galogen atomlarini almashinishi bilan va benzol halqasi bo'yicha reaksiyalarga kirishadi.

Galogenarenlar galogen atomining almashinishi bilan boradigan reaksiyalarga qiyin kirishadi (yodarenlardan tashqari). Galogenarenlar metallar bilan galogenalkanlar kabi reaksiyaga kirishadi:




Galogenarenlarning nukleofil reagentlar bilan reaksiyaları doim qiyin boradi, bunday reaksiyalar uchun yanada kuchliroq sharoit talab qilinadi, lekin reaksiya davomida yonaki reaksiyalar ham kuzatiladi.

Galogenarenlar nukleofil reagentlar bilan faqat 200°C dan yuqori temperaturalarda reaksiyaga kirishadi. Bunday temperaturalarda benzol sistemasi barqaror bo'ladi.




Shu yo'l bilan xlorbenzoldan fenol olinishi mumkin. Bunday reaksiyalarni Cu yoki bir valentli Cu tuzlari katalizlaydi.



Aksariyat holatlarda kerakli anion tutgan bir valentli Cu tuzlaridan foydalaniлади.




Galogenarenlar orasida yodarenlar oson reaksiyaga kirishadi. Reaksiyada Cu yoki Cu tuzlarining ahamiyati unchalik aniqlanmagan. Cu ioni aktiv zarracha bo'lib, u akseptor sifatida qatnashadi va galogen atomi bilan yoki benzolning  $\pi$ - elektron sistemasini bilan zaryad ko'chirish kompleks hosil qiladi deb faraz qilinadi.



Ikkala holatda ham C-X bog'i idagi uglerod atomidagi elektron zichligi kamayib ( $\delta > \delta'$ ), bu o'z navbatida reaksiyaning borishiga ijobjiy ta'sir qiladi.


Ishqorlarning konsentrangan eritmalarini ta'sirida galogenarenlar galogenalkenlar kabi degidrogenlanadi. Lekin hosil bo'lgan uch bog' tutuvchi zarrachani ajratib olib bo'lmaydi. Chunki bu zarracha juda faol bo'ladi. Kuchli asos (odatda litiyorganik birikma) galogenaren molekulasiidan protonni ajratib oladi, natijada karbanion hisoblanadi. Karbaniondan  $X^-$  ajralib chiqishi bilan o'ziga xos neytral zarracha – degidrobenzol hosil bo'ladi (G.Vittig).




Degidrobenzolning strukturasini tasvirlash qiyin. Uni qo'shni uglerod atomlarida lokallashgan zaryadlar tutgan mezomer struktura yoki biradikal shaklida yozish mumkin. Eritmada degidrobenzolni diyen sintezi yordamida bog'lash mumkin. Odatdagida uch bog'li strukturani mayjud

bo'lish ehtimoli juda kam, chunki biradikalda ikkita *p*-orbitalning o'zaro qoplanishi juda kichik.

Degidrobenzol faol diyenosil bo'lib 1,3 diyenlar va antratsenga biri-kadi.




**O'rin olish reaksiyaları.** Galogenarenlar nitrolash, sulfolash, galogenlash reaksiyalariga kirishadi. Reaksiyalarning tezliklari benzolning yuqoridagi kabi reaksiyalarini tezliklariga yaqin. Bunday reaksiyalarda galogen atomlari elektronodonor xossalarni namoyon qiladi va reaksiyaga kirishayotgan o'rinxosarlarni o- va *p*-holatlarga yo'naltiradi.



### MUHIM VAKILLARI

**Xlorbenzol** – o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik. Suv bilan tarkibida 71,6 % xlorbenzol tutuvchi, 90,2°C da qaynaydigan azeotrop aralashma hosil qiladi. Sanoatda benzolni 75–85°C da temir qirindisi ishtirokida xlorlab olinadi. Xlorbenzol erituvchi sifatida, hamda fenol, anilin va boshqa benzol hosilalarini olishda ishlataladi.


*Dixlordifeniltrixlormetilmelan* (1,1,1-trixlor-2,2-bis(4'-xlorfenil)etan, DDT)- 108-109°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. DDT xlorbenzol va trixlorsirka aldegidi (xloral) dan olinadi.




DDT kuchli universal insektitsid bo‘lganligi uchun qishloq xo‘jaligida zararkunanda hasharotlarga qarshi vosita sifatida ishlatilgan. Biroq keyingi paytda DDT ning tuproqda, o‘simliklar, hayvonlar va odam organizmida to‘planishi va surunkali zaharlanishlarga sabab bo‘lganligi bois ushbu birikmadan foydalanish dunyoning ko‘plab mamlakatlarda taqiqlangan.

## **21-BOB. AROMATIK NITROBIRIKMALAR**


Aromatik nitrobirkimlar deb aromatik uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini nitroguruuhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan organik moddalarga aytildi.



Nitrobenzol



o-nitrotoluol



o-dinitrobenzol


### ***OLINISH USULLARI***

Aromatik nitrobirkimlar yoki nitroarenlar va ularning hosilalari to'g'ridan to'g'ri nitrolab olinadi. Ba'zan boshqa azotli birikmalarni oksidlash metodlaridan foydalaniladi.

1. Nitrolash uchun konsentrangan nitrat kislotosi yoki nitrolovchi aralashmadan foydalaniladi. Benzolni nitrolash reaksiyasi birinchi marta 1834-yilda E.Mitcherlix tomonidan amalga oshirilgan.


Nitrolash reaksiyasi benzol halqasidagi elektrofil o'rinni olish reaksiyasi hisoblanadi. Ushbu reaksiyada elektrofil zarracha nitroniy kationi  $-NO_2^+$  dir. Nitroniy kationi har doim qandaydir anion bilan bog'langan bo'ladi. Azot atomidagi zaryadning kattaligi va kationning reaksiyon qobiliyati anionning tabiatiga bog'liq. Eng faol nitroniy kationi  $BF_4^-$ ,  $SbF_6^-$ ,  $PF_6^-$  lar bilan hosil qilgan tuzlari hisoblanadi. Bunday birikmalarda erkin nitroniy kationi hosil bo'ladi. Rentgenostruktura tahlilining ko'rsatishicha nitroniy kationi chiziqli tuzilishga ega.

Nitrat va sulfat kislotalarining aralashmasida, oz miqdorda nitrat kislotosida nitroniy kationi hosil bo'ladi. Amalda protonlangan nitrat kislotosi va nitroniy gidrosulfatning murakkab aralashmasi hosil bo'-ladi.




Reaksiyoning muhitda suv qancha kam bo'lsa nitroniy kationi shunchalik faol bo'ladi. Shuning uchun 100 % li nitrat kislota va ayniqsa uning sulfat kislotasi bilan aralashmasi juda kuchli nitrolovchi reagent hisoblanadi.

Nitrolash reaksiyasida birinchi navbatda mononitroaren hosil bo'ladi. Yana-da yuqori temperaturalarda va kuchli nitrolovchilar ta'sirida dinitro-va trinitroarenlar hosil bo'ladi.




Odatdagi nitrolovchi reagentlar ta'sirida trinitrobenzol hosil bo'imaydi yoki juda oz miqdorda hosil bo'ladi. Lekin nitroniy tetraftorborat ta'sirida benzol oson trinitrobenzolga aylanadi.



Almashingan benzollar, naftalin va boshqa arenlar oson nitrolanadi.



Galogenarenlar nitrolanganda mono- va dinitrohosilalar chiqadi.



Fenollar nisbatan oson nitrolanadi.

2. Aminoguruhnari aromatik halqaga ta'sir etmagan holda oksidlab nitroarenlar olish mumkin. Oksidlovchi sifatida peroksidlar, masalan, peroksisulfat kislotasi  $\text{H}_2\text{SO}_5$  va vodorod peroksid ishlatalishi mumkin.


Nitroanilinlari oksidlanganda to'g'ridan to'g'ri nitrolash yo'li bilan olib bo'lmaydigan nitroarenlar hosil bo'ladi.



### ***FIZIK XOSSALARI***

Nitroarenlar o'ziga xos hidli sarg'ish tusli birikmalardir. Di- va polinitroarenlar kristall moddalardir. Nitrobenzol va boshqa nitroarenlar 10 ta  $\pi$ -elektronli sistemalar hosil qiladi. Ushbu sistema nitroguruhning elektronoakseptor ta'siri natijasida kuchli qutblanadi. Shuning uchun nitroarenlar katta dipol momentiga ega.

Mononitroarenlar kuchsiz elektronoakseptorlar hisoblanadi. Nitroguruhning ortishi bilan akseptor xossalari ham kuchayadi. Masalan, 1,3-dinitrobenzolning elektronga moyilligi 1,35 eV ga, 1,3,5-trinitrobenzolning elektronga moyilligi 1,75 eV ga teng. Nitrobenzoldagi bog'lar uzunligi benzoldagiga qaraganda juda kam o'zgaradi.



Quyi erkin molekulyar orbital nitroalkanlarga qaraganda pastroqda joylashgan. Bundan nitroarenlarning elektronga moyilligi kuchliroq ekanligi kelib chiqadi. Elektron nitroarenga birikkanda erkin molekulyar orbitalga joylashadi va deyarli to'laligicha nitroguruhda lokallanadi.

Effektiv  $\pi$ -elektron zaryadlari  $o$ - va  $n$ - holatlarda kamroq,  $m$ -holatda esa nisbatan ko'proq. Shuning uchun  $o$ - va  $n$ -holatlarda reaksiya ketishi ehtimoli kam.


### KIMYOVITY XOSSALARI

Nitroarenlar nitroguruh bo'yicha va benzol halqasi bo'yicha kimyoviy reaksiyalarga kirishadi. Mono- va trinitroarenlar nukleofil o'rin olish reaksiyalariga ham kirisha oladi. Galogennitroarenlar nitrofenollarning reaksiyalarida alohida o'rin tutadi.


1. Nitroarenlar har xil qaytaruvchilar ta'sirida aromatik aminlarga qaytarilishi mumkin. Reaksiyaning birinchi bosqichida ikkita elektron va ikkita protonning birikishi natijasida nitrozoarenlar hosil bo'ladi.




Nitroarenlarni qaytarib sof holda nitrozoarenlarni ajratib olish juda qiyin. Nitrozoarenlar arilgidrosilaminlarga oson qaytariladi.



Arilgidrosilaminlar nitroarenlargacha qaytariladi. Reaksiya tezligi sezilarli darajada muhitning kislotaliligiga bog'liq. Kislotali muhitda ( $\text{pH} < 6$ ) arilgidrosilaminlar nitroarenlarga aylanadi.




Kisolatali muhitda yonaki reaksiya – qayta gruppalanish reaksiyasi kuzatiladi; arilgidrosilaminlar aminofenollarga aylanadi.




Sof holdagi arilgidrosilaminlar nitroarenlarni neytral muhitda qaytarib olinadi.

Ishqoriy muhitda ( $\text{pH} > 8$ ) arilgidrosilaminlar nitrozoarenlar bilan kondensatlanib azoksi- va azoarenlar hosil qiladi. Ishqoriy muhitda nitrozoarenlar sekin qaytariladi, shuning uchun reaksiyon muhitda ularning kondensatlanishi uchun konsentratsiyasi yetarli bo'ladi.



Azoksiaren molekulasida N-O semipolyar bog'i mavjud. Azoksiarenlar qaytarilganda azobirikmalar va keyin gidrazoarenlar hosil bo'ladi.




Gidrazoarenlar ( $\text{N,N}'\text{-diarilgidrazinlar}$ ) qaytarilganda arilaminlar hosil bo'ladi.



Shunday qilib, muhitning pH ini va qaytaruvchi reagentlarni o'zgartirib har xil qaytarilish mahsulotlari olish mumkin.


2. Nitroarenlarning elektrofil reagentlarga nisbatan faolligi juda kam. Bunga sabab nitroguruhning elektronaoakseptor ta'siridir. Elektrofil o'rin olish reaksiyasi faqat kuchli reagentlar ta'siridagina ketadi. Elektrofil zarracha asosan *meta*-holatga yo'naltiriladi.




3. Mononitroarenlar faqat kuchli nukleofil reagentlar bilangina ta'sirlasha oladi. Di- va ayniqsa polinitroarenlar kuchsiz nukleofillar bilan ham reaksiyaga kirishib zaryad ko'chirish kompleksi ( $\pi$ -kompleks) hosil qiladi.

Mononitroarenlar kuchli nukleofillar va asoslar bilan sekin reaksiyaga kirishadi. Reaksiya asosan nitroguruh bo'yicha ketadi va azoksi-, azobirkimlar va boshqa birikmalar hosil bo'ladi. Ayrim holatlarda ishqorlar va oksidlovchilar ta'sirida nitrofenollar hosil bo'lishi mumkin. Gidrosil guruh *ortho*- va *para*- holatlarga yo'naltiriladi.


Dinitroarenlar faolqoq reaksiyaga kirishadi. Agar nitroguruhlar o'zaro nisbatan *ortho*- yoki *para*- holatlarda joylashgan bo'lsa bir-birini aktivlaydi va nitrit-ionning chiqib ketishi bilan boradigan o'ziga xos nukleofil almashinish reaksiyasi kuzatiladi.



Molekulada *meta*-holatda ikkita, ayniqsa uchta nitroguruhning mavjud bo'lishi nukleofil reagentning benzol halqasiga birikishini osonlashtiradi. Natijada siklik bog'langan sistemasi buzilgan anion hosil bo'ladi. Lekin anion nitroguruh bilan bog'lanishi natijasida barqaror bo'ladi.



4. Galogenaren molekulasiga bitta yoki ikkita nitroguruhning kiritilishi natijasida galogenarenning xossasi keskin o'zgaradi. Oddiy galogenarenlar nukleofil reagentlar bilan qiyin reaksiyaga kirishsa, nitrogalogenarenlarda uglerod-galogen bog'i sezilarli darajada zaiflashadi. Bunga sabab nitroguruhning kuchli elektronoakseptor ta'siri va reaksiyaning oraliq mahsulotlarni barqarorligiga ijobji ty'siridir. Nitroguruhning ta'siri faqat galogen atomiga nisbatan *ortho*- va *para*- holatlarda ko'rinishi. 2,4-dinitro va 2,4,6-trinitrohosilalar ayniqsa faol birikmalar hisoblanadi.



Reaksiya suv, spirtlar, aminlar kabi neytral nukleofillar bilan ham oson ketadi.

5. Fenol molekulasiga nitroguruhlarning kiritilishi natijasida fenolning kislotaliligi keskin ortadi. Trinitrofenol kuchli kislota hisoblanadi. Bunga sabab nitroguruhning elektroakseptor ta'siri va ularning fenolyat-iondagi manfiy zaryadni delokallanishida ishtirok etishidir.



Birikma pKa ( $\text{H}_2\text{O}$ )	Fenol 9,95	n-nitrofenol 7,21	2,4,6-trinitrofenol 0,38
---	---------------	----------------------	-----------------------------

## ***MUHIM VAKILLARI***

*Nitrobenzol* – rangsiz yoki och-sarg‘ish tusli, achchiq bodom hidli suyuqlik. 5,8°C da suyuqlanadi, 210,8°C da qaynaydi. Suvda kam eriydi ( $\approx 0,2\%$ ). Suv bug‘i bilan oson haydaladi, 98°C da qaynaydigan 12 % nitrobenzol tutuvchi azeotrop aralashma hosil qiladi. Nitrobenzol zaharli.

Nitrobenzol sanoatda benzolni nitrolab olinadi. Nitrobenzol organik sintezda ishlatiladi, undan asosan anilin olinadi.

*Nitrotoluollar* – toluolni 30–40°C da nitrolab olinadi. Reaksiya mahsuloti tarkibida 60 % *o*-nitrotoluol, 36 % *p*-nitrotoluol va 4 % *m*-nitrotoluol bo‘ladi. Izomerlar bir-biridan muzlatish va fraksiyalab haydash yo‘li bilan ajratiladi. Asosan *ortho*- va *para*- izomerlar amaliy ahamiyatga ega.

Nitrotoluollar organik sintezda ishlatiladi. Ular qaytarilganda bo‘yoqlar ishlab chiqarishda xomashyo hisoblanadigan toluidinlar hosil bo‘ladi. Metil guruhni oksidlab nitrobenzaldegidlar va nitrobenzoy kislotalar olinadi.

*Trinitrotoluol* – sarg‘ish tusli kristall modda, 80–81°C da suyuqlanadi,  $d_4^{25} = 1,6407$ . Trinitrotoluol nitrotoluolni yoki dinitrotoluolni 100 % li nitrat kislotasi va konsentrangan sulfat kislotasining aralashmasi bilan nitrolab olinadi. Trinitrotoluol amalda ko‘p ishlatiladigan portlovchi moddalardan biridir (trotil, tol).

*Trinitrofenol* (pikrin kislotasi) – sarg‘ish tusli kristall modda, 122,5°C da suyuqlanadi, suvda kam eriydi, achchiq ta’mga ega.


Pikrin kislotasi fenolning sulfat kislotasidagi eritmasini nitrolab olinadi. 2,4-dinitrofenol nitrolanganda ham oson pikrin kislotasi hosil bo‘ladi.

Pikrin kislotasi sariq bo‘yoq sifatida ishlatilgan, portlovchi xususiyati XIX asrda aniqlangan. Pikrin kislotasining tuzlari pikratlar deyiladi. Pikratlar termik beqaror moddalar bo‘lib, qizidirilganda portlaydi.


Pikrin kislotasi kuchli elektronakseptor bo‘lib elektronodonor birikmalar – arenlar, fenollar, aminlar bilan kristall holatdagi zaryad ko‘chirish komplekslari hosil qiladi. Zaryad ko‘chirish kompleksi hosil bo‘lish reaksiyasi organik birikmalarni suyuqlanish nuqtasi bo‘yicha identifikatsiyalash uchun qo‘llaniladi.

### **21.1. NITROZOARENLER**



Nitrozoarenlar nitroarenlarga kuchsiz qaytaruvchilar ta’sir ettirib, yoki arilgidroksilaminlarni har xil oksidlovchilar bilan oksidlab olish mumkin. Shuningdek, metallorganik sintez yordamida ham nitrozoarenlar olinadi.



**Fizik xossalari.** Nitrozoarenlar rangsiz kristall moddalardir, amalda dimer holatida mayjud bo'ladi. Eritmalarida monomer holatga o'tadi va eritma yashil rangga kiradi.




**Kimyoviy xossalari.** Nitrozoarenlar yuqori reaksiyon qobiliyatga ega birikmalardir. Ular nukleofil reagentlar bilan oson ta'sirlashadi. Masalan, aromatik aminlar bilan kondensatsiyalanib azobirikmalar, arilgidrosilaminlar bilan esa azoksibirikmalar hosil qiladi.




Awval ta'kidlanganidek, nitrozobirikmalar, jumladan nitrozoarenlar oson oksidlanib nitroarenlarga aylanadi.

## 21.2. NITROZOFENOLLAR

Nitrozofenollar fenollarni to'g'ridan to'g'ri nitrozolab olinadi.




Nitrozofenollar sarg'ish tusli kristall moddalardir. *o*-nitrozofenol molekulasida mustahkam ichkimolekulyar vodorod bog' hosil bo'ladi.




*n*-nitrozofenollar kristall holatda dimer shakliga ega.

**Kimyoviy xossalari.** Nitrozofenollar nitroarenlarga xos reaksiyalarga kirishadi. *o*-nitrozofenollar og'ir metallarning ionlari bilan ichki kompleks birikmalar – xelatlar hosil qiladi. Shuning uchun ushbu birikmalar analitik kimyoda ayrim metallarni aniqlashda qo'llaniladi.



Nitrozoftollar va Fe(II) asosida yashil rangli bo'yoqlar olinadi. Bo'yoq olish uchun I-nitrozo-2-naftol va I-nitrozo-2-naftol-6-sulfon kislotasi ishlataliladi.




**Muhim vakillari.** *Nitrozobenzol* – 68°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, yashil rangli eritmalar hosil qiladi. Nitrozobenzol nitrobenzolni qaytarib, yoki N-fenilgidroksilaminni oksidlاب olinadi.


*4-nitrozofenol* – 126°C da suyuqlanadigan sariq rangli kristall modda. N,N'-dialkil-4-nitrozoanillardan ikkilamchi aminlar olishda qoshimcha modda sifatida hosil bo'ladi. Shuningdek, fenol nitrozolanganda regioselektiv tarzda hosil bo'ladi.

## **22-BOB. FENOLLAR**


Benzol halqasidagi vodorod atomlaridan biri yoki bir nechtasini gidroksil guruhiga almashinishi natijasida hosil bo'lgan organik birikmalar fenollar deb ataladi. Fenollar molekulasidagi gidroksil guruh soniga ko'ra bir atomli, ikki atomli va ko'p atomli fenollarga sinflanadilar. Fenollar yoki arenollar arenlarning halqadagi uglerod atomi bilan bog'langan gidroksil guruh tutuvchi hosilalari hisoblanadi. Fenollar ( $C(sp^2)$ -OH tipidagi birikmalar qatoriga kiradi. Naftalin molekulasidagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini gidroksil guruhiga almashinishi natijasida hosil bo'lgan moddalar naftollar deb ataladi.



fenol  
(gidroksibenzol)



p-krezol  
(p-metilfenol)




naftol-2  
( $\beta$ -naftol)

Fenollarning nomlari tegishli arenlarning nomidan keltirib chiqariladi. Halqadagi uglerod atomlarini raqamlash gidroksil guruh tutgan uglerod atomidan boshlanadi. Ko'plab fenollar tarixiy (trivial) nomlarini saqlab qolgan. Ba'zan murakkab birikmalarni nomlashda gidroksil guruhlar *gidroksi* (*oksi-*) prefiksi bilan belgilanadi.


### ***OLINISH USULLARI***

Fenol va uning gomologlari toshko'mir smolasidan va sintetik usullar bilan olinadi.


1. Arensulfon kislotalarning tuzlari ishqor bilan suyuqlantirilganda fenolyatlar va sulfitlar hosil bo'ladi.




Xlorbenzoldagi xlor atomini gidroksil guruhga nukleofil almashinishi yuqori temperaturada va bosim ostida boradi.



Arendiazoniy tuzlarining suvli eritmalari qizdirilganda azot ajralib chiqadi va fenol hosil bo'ladi.



Kumol usuli (Udris-Sergeyev reaksiyasi, 1942-y.). Izopropilbenzolning gidroperoksiidi  $H_2SO_4$  ishtirokida parchalansa fenol va atseton hosil bo'ladi.



Ushbu metod yordamida fenolning gomologlarini yoki boshqa arenollarni olish mumkin. Shunga o'xshash reaksiyalarni 1944-yilda X.Xok va S.Lang ham ishlab chiqqanlar.


Bundan tashqari benzol atomidagi vodorod atomlarining o'rniga  $H_2O_2$  ta'sirida gidroksil guruh kiritish usullari ham mavjud. Reaksiya Fe(II), Cu(II), Ti(III) tuzlari ishtirokida boradi.

### **FIZIK XOSSALARI**

Fenollar rangsiz suyuq yoki kristall moddalardir. Ko'pchilik fenollar zaharli birikmalar ekanligi bilan xarakterlanadilar. Ular o'ziga xos barqaror hidga ega bo'lib, bu hid «karbol» hidi degan nomni olgan. Fenollar suvda kam eriydilar. Saqlanish davomida havo kislorodi ta'sirida asta-sekin oksidlanib qorayadi.

Birikmaning formulası	T <sub>s</sub> °C	T <sub>q</sub> °C	d <sub>4</sub> <sup>20</sup>	n <sub>D</sub> <sup>20</sup>
C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> OH	41.0	182.0	1.072	1.5425 (40°C)
<i>o</i> -CH <sub>3</sub> C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> OH	30.0	191.0	1.0465	1.5453
<i>m</i> -CH <sub>3</sub> C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> OH	11.0	203.0	1.034	1.5398
<i>p</i> -CH <sub>3</sub> C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> OH	36.0	202.0	1.035	1.5395

Fenol va uning gomologlari qutbli birikmalar bo'lib, dipol momenti  $5 \cdot 10^{-30} - 5.3 \cdot 10^{-30}$  KJ·m (1,5-1,6 D) ga teng. Dipol moment alkonollar va siklo-alkonollardan farqli o'lar oq benzol halqasi tomoniga yo'nalgan. Bu kislorod atomidagi taqsimlanmagan elektron justini benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar sistemasini bilan o'zaro ta'sirlashuviga bog'liq. Kislorod atomining elektrodonor ta'siri (*+M-effekti*)  $\sigma$ -bog'lar bo'yicha elektroaksetor ta'siridan (*-I effekti*) ustun keladi.




Bunday sistemaning hosil bo'lishi fenollarning elektronodonor xossalari ortishiga sabab bo'ladi. Fenolning ionlanish energiyasi arenlar va alkanollarning ionlanish energiyalaridan kam bo'lib 8,5-8,6 eV tashkil qiladi (C<sub>6</sub>H<sub>6</sub> 9,24 eV, C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH 10,6 eV).

MO metodi bo'yicha fenol molekulasining kvant-mexanik hisoblash natijalariga ko'ra fenolning  $\pi$ -elektron sistemasiga 8 ta elektron - benzol halqasidagi 6 ta va kislorod atomidagi 2 ta elektron kiradi. Xyukkelning MO metodi bo'yicha hisoblash natijalarining ko'rsatishicha, benzol halqasidagi *o*- va *p*- holatlarda joylashgan uglerod atomlarida elektron zichliklari ortadi va kislorod atomida esa elektron zichligi kamayadi.

Fenollarda C-O bog'i haqiqiy  $\delta$ -bog' tabiatini yo'qotadi va qisman  $\pi$ -elektron zichligiga ega bo'lib qoladi. Yuqori band bo'lgan molekulyar orbitalning (YuBMO) energiyasi benzoldagiga qaraganda ortadi. Bu ionlanish energiyasining kamayishiga muvofiq keladi. YuBMO da elektronlarning lokallashuvi elektrofil reagentlar bilan o'zaro ta'sir-

lashganda  $\sigma$ - va  $n$ - holatlarda reaksiyon qobiliyatining ortishiga sabab bo'jadi.



$n-q_r$  effektiv zaryadlari

$n$  – tutash sistemadagi elektronlar soni.

$q_r$  –  $\pi$ -elektron zichligi.

Fenolning  $\pi$ -elektron sistemasi benzol sistemasiga qaraganda oson qo'zg'aladi. Shuning uchun yutilish maksimumlari uzun to'lqinli tomonlarga siljiydi (batoxrom siljish).

IQ spektrlarda OH - guruhning xarakterli yutilish chiziqlari erituvchi va tekshirilayotgan modda konsentratsiyasiga bog'liq ravishda 3200–3600  $\text{cm}^{-1}$  ga to'g'ri keladi.

### Benzol va fenolning geksandagi eritmalarini elektron spektrlardagi xarakterli yutilish maksimumlari

Birikma	Yutilish maksimumi, nm	Intensivligi $\epsilon$
$\text{C}_6\text{H}_6$	~200	8000
	~260	~230
$\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$	~210	6200
	~275	~2000

PMR spektrlarda OH guruqlar protonlarining signali  $\delta = 9,0 \dots 9,3$  da (DMSO dagi eritma) va  $\delta = 4,5 \dots 7,5$  da ( $\text{CCl}_4$  dagi eritma) kuzatiladi,  $\delta$  ning qiymati moddaning konsentratsiyasiga bog'liq.


### KIMYOVIY XOSSALARI

Fenollarning kimyoviy xossalari o'rganilganda alkanollar va yenollarning kimyoviy xossalari bilan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Reaksiyalarning bir qismi qutbli OH-guruh orqali boradi. Bu reaksiyalar asosan kislorod atomining saqlanishi bilan boradigan reaksiyalardir. Kislorod atomini benzol halqasidan ajralishi bilan boradigan reaksiyada qiyin boradi, shuning uchun unchalik

o'rganilgan emas. Fenollar uchun ko'proq benzol halqasi bo'yicha elektrofil o'r'in olish reaksiyaları xosdir. Bunday reaksiyalar ayniqsa fenolyat-ionlar bilan oson boradi.


1. Fenollar kuchsiz OH-kislotalardir, lekin alkanollarga nisbatan ancha kuchli kislotalar hisoblanadi. Bu ikkita omil bilan, ya'ni OH-bog'ining kuchli qutblanganligi va fenolyat-ion hosil bo'lishi bilan bog'liq. Fenolyat-iondagi manfiy zaryad sezilarli darajada delokallashadi.

Fenol va uning gomologlari uchun kislotalilik konstantasi ( $pK_a$ ) 9,9 ÷ 10,4 ga teng. Ishqorlarning suvli eritmalarida fenollar fenolyatlar hosil qiladi. Fenolyat-ionsda *o*- va *n*- holatlardagi uglerod atomlaridagi elektron zichligi fenoldagiga qaraganda ancha yuqori.




Fenollar o'ziga xos rangli reaksiyaga ega, suvli eritmalarida  $\text{FeCl}_3$ , bilan qizg'ish binafsha rangga bo'yaladi. Bu rang kuchli kislota yoki etanol qo'shilganda yo'qoladi. Rang  $\text{Fe}^{+3}$  ishtirokida kompleks fenolyatlar hosil bo'lishiga bog'liq deb taxmin qilinadi.

Fenolyatlar kislorod atomi bo'yicha oson alkillanadi va atsillanadi.




Fenollar karbon kislotalarning angidridlari ta'sirida ham atsillanadi.




Karbon kislotalar bilan  $H_2SO_4$  ishtirokida atsillash reaksiyalari sekin boradi. Bunga sabab kislorod atomidagi elektron zichligining kamayishidir.


2. Fenollar nisbatan oson oksidlanishi mumkin. Elektron ajratib olinganda kation-radikal hosil bo'ladi, u o'z navbatida erkin fenoksil-radikalga va protonga ajraladi. Fenoksil-radikallar fenolyat-ionlar oksidlanganda oson hosil bo'ladi.



Fenoksillar bog'langan  $\pi$ -elektron sistemasiga ega bo'lgan erkin radikallar bo'lib, toq elektron ancha delokallashgan. Lekin alohida atomlarda toq elektron zichligi keyingi reaksiyalar borishi uchun yetarli darajada yuqori (dimerlanish, oligomerlanish).




Fenoksillarning barqarorligi *o*- va *n*- holatlardagi o'rinxbosarlar, ayniqsa hajmi katta o'rinxbosarlar bo'lganda ortadi. Masalan, 4-metil-2,6-bis-*tret*-butilfenol (ionol) barqaror fenoksil radikal hosil qiladi. Bu radikal kristall holatda ajratib olinishi mumkin.



Hajmi katta o'rinxbosarlar dimerlanish reaksiyalari va boshqa o'zgarishlarga sezilarli darajada xalaqit beradi


3. Fenollar elektrofil reagentlar bilan benzol, toluol kislotalarga qaraganda oson reaksiyaga kirishadi. Bu ularning ionlanish energiyalariga muvofiq keladi. Elektrofil reagent benzol halqasidagi elektron zichligi yuqori bo'lgan uglerod atomiga ta'sir etadi.

## Galogenlash reaksiyaları katalizatorsiz oson boradi.




Xlorlashning oxirgi mahsuloti pentaxlorfenol bo'lishi mumkin.


Ayniqsa bromlash reaksiyasi oson boradi. Suyultirilgan suvli eritmalarda darhol 2,4,6-tribromfenol hosil bo'ladi. Fenolyat - ion faol bromlanadi deb taxmin qilinadi. Mo'l brom ta'sirida 2,4,4,6-tetrabromsiklogeksadiyenon hosil bo'ladi.




Fenollar nitrolanganda nitrofenollar hosil bo'ladi. Reaksiyaning oxirgi mahsuloti trinitrofenol hisoblanadi.




Fenollar nitrit kislota ta'sirida nitrozolanadi.




Fenollar sulfolansa fenolsulfokislotalar hosil bo'ladi. *o*- va *p*-izomerlarning nisbati  $t^\circ$  ga bog'liq. *o*- izomer 100°C dan yuqori  $t^\circ$  *p*-izomerga aylanadi.





Fenollar atsilxloridlar va angidridilar bilan Luis kislotalari ishtirokida oson atsillanadi.



Atsilfenollar fenollarning murakkab efirlarini  $\text{AlCl}_3$  ishtirokida qayta gruppalanishi natijasida ham hosil bo'ladi (Fris qayta gruppalanishi).




Fenollarni alkillac turli xil alkil fenollar olinadi. Alkillash uchun alkanollar, ba'zan alkenlar qo'llaniladi. Reaksiya proton kislotalar yoki Luis kislotalari ishtirokida boradi.




Fenollar elektrofil reaksiyalarda aldegidlar va ketonlar kabi kuchsiz elektrofillar bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya kislotalar yoki asoslar ishtirokida boradi.


Formaldegid oson reaksiyaga kirishadi. Agar reaksiya yumshoq sharoitlarda o'tkazilsa gidroksimetilfenollarni ajratib olish mumkin.




Ushbu reaksiyada formaldegidni protonlanishidan hosil bo'ladigan gidroksimetil-kation elektrofil reagent hisoblanadi.




Gidroksimetilfenollar kislotalar ishtirokida alkillovchi reagent sifatida reaksiyaga kirishishi mumkin.




Reaksiyada oraliq zarracha *n*-gidroksifenilmetil-kation hisoblanadi. Bu zarracha gidroksifenil guruhning elektronodonor ta'siri natijasida barqarorlashadi.



Yuqori temperaturada va fenol formaldegid bilan polikondensatsiyalanib fenolformaldegid smolasini hosil qiladi.




muntazam (regulyar)zanjir




nomuntazam (noregulyar)zanjir

Zanjirlar orasida metilen ko'pirikchalarini hosil bo'lishi bilan reaksiya davom etishi mumkin. Bunda to'rsimon polimer hosil bo'ladi.

Fenol ketonlar bilan reaksiyaga kirishganda difenilmekton hosilalari chiqadi.



4. Fenol katalitik gidridlanganda dastlab siklogeksanon, keyin siklogeksanol hosil bo'ladi.




### **MUHIM VAKILLARI**

*Fenol* – rangsiz kristall modda, havo kislorodi ta'sirida oksidlanib qizg'ish rangga kiradi. 43°C da suyuqlanadi, 181,8°C da qaynaydi.

Fenol sovuq suvda kam eriydi, 60°C da to‘la erib ketadi. Fenol zaharli, terini kuydiradi.

Fenol ko‘p miqdorda ishlab chiqariladigan organik moddalardan biri. 90 % fenol sintetik yo‘l bilan, qolgan 10 % i toshko‘mir smolasidan olinadi. Sintetik fenolning taxminan 50 % i kumol metodi bilan olinadi.

Fenolning asosiy qismi fenolformaldegid smolasi olish uchun ishlataladi. Ushbu smoladan fenoplastlar olinadi. Fenolning bir qismi siklogeksanol olish uchun ishlataladi. Siklogeksanol esa sintetik tola ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.




Fenolning ishlatalishi

*Krezollar* toshko‘mir, qo‘ng‘ir ko‘mir, torf va yonuvchi slanetsni quruq haydar olinadi. Krezollarni ajratmasdan yoki alohida ajratib ishlatish mumkin. Krezollar toluoldan ham olinadi.


Krezollar krezoformaldegid smolalari olish uchun ishlataladi. Toza krezollar bo‘yoqlar, tibbiyot preparatlari, antiszeptik moddalar, antioksidantlar olishda ishlataladi.

*Ionol* (4-metil-2,6-bis-*tret*-butilfenol) 70°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Sanoatda *n*-krezolni 2-metilpropen yoki *tret*-butil sperti bilan kislotalar ishtirokida alkillab olinadi. Ionol polime materillarni, atir-upa mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni stabillash uchun antioksidant sifatida ishlataladi. Ionolning antioksidant xususiyati shundan iboratki, ionol faol erkin radikallar bilan ta’sirlashib barqaror fenoksil radikal hosil qiladi. Natijada erkinradikal oksidlanish jarayoni to‘x-taydi.

*4,4’-Digidroksidifenilpropan* (dian) – 156–157°C da suyuqlanadigan kristall modda. Fenol va atsetondan olinadi. Dian har xil sintetik smolalar, masalan, epoksid, fenolformaldegid, polikarbonat smolalar olishda monomer sifatida va antioksidantlar va gerbitsidlar olish uchun xom-ashyo sifatida ishlataladi.




**Naftollar.** Ikki xil naftol mavjud. Birinchisi-  $\alpha$ -naftol  $96^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda,  $\beta$ -izomeri esa  $123^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda. Naftollar naftalinsulfokislotalarni quruq ishqor bilan suyuqlantirilib olinadi. Kumol metodi bilan ham olinishi mumkin.



Naftollar asosan bo‘yoq moddalar olish uchun ishlataladi.


## 22.1. IKKI VA UCH ATOMLI FENOLLAR

Molekulasida ikki yoki uchta gidroksil guruh saqlovchi fenollar arendiollar yoki arentriollar deb ataladi. Arendiollar va arentriollar odadagi qoidalar bo‘yicha nomlanadi. Eng sodda vakillari uchun tarixiy nomlanish saqlanib qolgan. Masalan:




**Pirokatexin** birinchi marta ayrim tabiiy smolalarni piroliz qilib olingan. Pirokatexin sintetik yo‘l bilan  $\alpha$ -xlorfenoldan yoki  $\alpha$ -fenolsulfon kilotasini ishqor bilan  $300^{\circ}\text{C}$  da qizdirib olish mumkin.

Sanoatda fenolni  $\text{H}_2\text{O}_2$  yoki  $\text{RCOOOH}$  bilan kislotalar yoki og‘ir metall tuzlari ishtirokida to‘g‘ridan to‘g‘ri gidroksillash reaksiyasi qo‘llaniladi. Bunda pirokatexin va hidroxinon aralashmasi hosil bo‘ladi.




Pirokatexin suvda yaxshi eriydi, 104°C da suyuqlanadigan kristallar hosil qiladi. Pirokatexin fenol kabi kuchsiz OH-kislota hisoblanadi, ikkita ionlanish konstantasiga ega.



Pirokatexin dianioni faqat kuchli ishqoriy muhitdagina hosil bo‘ladi, ionlanishga ichki molekulyar vodorod bog‘ xalaqit beradi.

$\text{FeCl}_3$ , bilan rangli reaksiya boradi – yashil rang paydo bo‘ladi,  $\text{CH}_3\text{COONa}$  ishtirokida qizil rangga o‘tadi. Pirokatexinning qo‘rg‘oshinli tuzi suvda erimaydi va oq tusli cho‘kma hosil qiladi.

Pirokatexin oson alkillanadi va oddiy efirlar, jumladan siklik efirlar hosil qiladi.




Pirokatexin fenolga qaraganda oson oksidlanadi, oksidlanish mahsulotlaridan biri *o*-xinondir. Pirokatexinning ishqoriy eritmalari yanada oson oksidlanadi.


Benzol halqasida elektrofil o‘rin olish reaksiyalari oson boradi.

Pirokatexin turli xil reaksiyalarda ishlataladi, fotografiyada kuchli qaytaruvchi sifatida, Ti, Mo, W, Fe, Ge kabi metallarni kolorimetrik aniqlash uchun analistik reagent sifatida ishlataladi.

*Rezorsin* – rangsiz kristall modda bo‘lib, suvda yaxshi eriydi, sublimatlanadi, 110,8°C da suyuqlanadi. *Rezorsin* *m*-benzoldisulfon kislotadan olinadi.




Rezorsin ham kuchsiz ikki asosli OH-kislota hisoblanadi.



FeCl<sub>3</sub> bilan ta'sirlashganda to'q-binafsha rang hosil bo'ladi, kuchsiz ishqoriy muhitda (natriy atsetat qo'shilganda) rang yo'qoladi.


Rezorsin juda oson alkilanadi, atsillanadi, nitrolanadi. Reaksiya mahsulotlari bo'yog moddalar, antiseptik moddalar, antioksidantlar, portlovchi moddalar olishda ishlataladi.

Ishqoriy muhitda katalitik gidridlanganda siklogeksadion-1,3 hosil bo'ladi.



*Gidroxinon* rangsiz kristall modda bo'lib, 169–171°C da suyuqlanadi, sublimatlanadi, suvda eriydi. Birinchi marta F.Veler 1844-yilda *p*-xinonni qaytarib olgan. *p*-xinon har xil organik moddalarni oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi.


Gidroxinon *p*-xlorofenol yoki *p*-benzoldisulfonkislotani 280–320°C da ishqor bilan qizdirib olinadi. Bundan tashqari to'g'ridan to'g'ri gidroksillash usuli ham qo'llaniladi.




Gidroxinon ham kuchsiz ikki asosli kislota hisoblanadi.

Ishqoriy oson alkilanib oddiy efirlar hosil qiladi.

Monoanion, ayniqsa dianion juda oson oksidlanadi. Oksidlash reaksiyasining oraliq mahsuloti stabil anion-radikal bo'lib, unda justlashmagan elektron delokallashgan.




Gidroxinon  $\text{FeCl}_3$ , suvli eritmasida ham oson oksidlanadi, qoramtilishin tusli yaltiroq kristallar tushadi. Bu kristallar elektronodonor gidroxinon va elektronoakseptor xinondan tashkil topgan zaryad ko'chirish kompleksidan iborat.



Gidroxinon antioksidant, polimerlanish reaksiyalarining ingibitori va bo'yoyq moddalar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlataladi.

*Pirogallol* rangsiz kristall modda bo'lib,  $133\text{--}135^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi, quruq haydaladi, suvda yaxshi eriydi.

*Pirogallol* birinchi marta 1786-yilda K.Sheele tomonidan o'simlik moddalari – taninlar tarkibiga kiradigan gall kislotasini dekarboksillab olingan.



Piragollol ishqoriy muhitda favqulodda oson oksidlanadi. Uning eritmalarini havo kislorodini intensiv yutadi. Pirogallolning ushbu xossasi gaz aralashmalari analizida foydalaniлади.


Pirogallol samarador qaytaruvchi sifatida va gaz aralashmalaridagi kislorodni bog'lash uchun, analitik kimyoda va ayrim bo'yq moddalarini olishda ishlatiladi.

## 23-BOB. XINONLAR


Xinonlar deb halqada ikkita qo'shbog' va ikkita karbonil guruh tutuvchi siklik birikmalarga aytildi.

Xinonlar molekuladagi halqalar soniga va karbonil guruhlarning joylashuviga qarab sinflanadi. Ularning nomlari tegishli aromatik uglevodorod nomidan keltirib chiqariladi.


### Benzoxinonlar



1,4-benzoxinon  
*p*-benzoxinon




1,2-benzoxinon  
*o*-benzoxinon




tetraxlor-1,4-benzoxinon  
xloranil

### Difenoxinonlar




4,4'-difenoxinon

### Naftoxinonlar




1,4-naftoxinon  
 $\alpha$ -naftoxinon




2,6-naftoxinon


## Antraxinonlar va fenantrenxinonlar



1,4-antraxinon



9,10-antraxinon




2,7-fenantrenxinon




guruhi ko‘pincha *xinoid* guruhi deyiladi.

Xinonlar asosan arenlarni, hamda arenlarning hidroksil va aminoguruh tutuvchi hosilalarini oksidlash reaksiyalari yordamida olinadi.


1. Benzoxinonlar. Benzoxinonlar odatda ikki asosli fenollarni va ularning hosilalarini oksidlab olinadi. Oksidlovchi sifatida xromli aralashma,  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{Ag}_2\text{O}$  va boshqa reagentlar qo‘llanilishi mumkin.



*p*-fenilendiamin hosilalari oksidlanganda benzoxinonning hosilalari – xinoniminlar hosil bo‘lishi mumkin.




Anilin faol xlorlanganda tetraxlor-1,4-benzoxinon (xloranil) hosil bo'ladi.




Pirokatexin xlorlanganda tetraxlor-1,2-xloranil (o-xloranil) hosil bo'ladi.

Naftalin xrom angidridining muz sirka kislotasidagi eritmasi bilan oksidlansa 1,4-naftoxinon hosil bo'ladi.




1,4-naftoxinon naftalinni bug' fazasida oksidlاب fтal angidridi olishda qо'shimcha mahsulot sifatida hosil bo'ladi.


1,4-naftoxinon olish uchun diyen sintezidan foydalanish mumkin.



Antraxinonlar ichida 9,10-antraxinon muhim ahamiyatga ega. Ushbu birikma shunchaki antraxinon ham deyiladi. Antraxinon antratsenni oksidlаб, masalan, xrom angidridi bilan oksidlаб olinishi mumkin. Sanoatda antraxinon benzol yoki uning gomologlarini fтal angidridi bilan atsillab, hosil bo'lган o-benzofenonkarbon kislotani sikllab olinadi.




Antraxinon hosilalari diyen sintezi yordamida ham olinishi mumkin.



### FIZIK XOSSALARI

Xinonlar rangli kristall moddalardir: *p*-benzoxinonlar sariq tusli, *o*-benzoxinonlar qizil; naftoxinonlar, antraxinonlar va fenantrenxinonlar och-sariq rangga ega.

Olti a'zoli xinon siklidagi uglerod-uglerod bog'larining uzunligi bir xil emas.



Karbonil guruhlarning elektronoakseptor ta'siri natijasida uglerod atomlarida elektron zichliklari sezilarli darajada kamayadi. Shuning uchun xinondagi uglerod atomlari sistemasi elektronoakseptor xossalarga ega.

Xinonlarning elektronoakseptor xossalari ularning elektronga moyilligi va qaytarilish potensiallari (oksidlanish-qaytarilish yoki redoks-potensiallar) bilan xarakterlanadi. Elektronga moyillik har xil metodlar, masalan, elektron ko'chirish komplekslarining yutilishning elektron spektrlarini o'rganish yo'li bilan, qaytarilish potensiallari polyarografik yoki voltamperometrik metodlar bilan o'rganiladi. Xinonlar barqaror qaytar *xinon-gidroxinon* redoks-sistemalarini hosil qiladi.

Quyidagi jadvalda ayrim xinonlarning elektronga moyillik qiymatlari va qaytarilish potensiallari (standart elektrod-kalomelektrondogda nisbatan) qiymatlari keltirilgan.

Xloranilning elektronga moyilligi aniq o'lchangan, qolgan birikmaling qiymatlari esa xloranilga nisbatan hisoblab topilgan.


	Antraxinon	1,4-naftoxinon	1,4-benzoxinon	Xloranil	2,3-dixlor-4,5-ditsiano-1,4-benzoxinon
Elektronga moyillik, eV	1,55	1,75	1,85	2,45	3,0
E <sub>qayt</sub> , V	-0,94	-0,7	-0,51	+0,01	+0,51

Jadvaldan ko'rinadiki, elektronoakseptor o'rindbosarlar xinonlarning elektronga moyilligini orttiradi, kondensirlangan halqalar qancha ko'p bo'lsa elektronga moyillik kamayadi. *o*-xinonlar *n*-xinonlarga nisbatan kuchliroq akseptorlardir.

Xinonlarning elektronodonor birikmalar tutuvchi eritmalarida rang hosil bo'lishi mumkin. Bunga sabab xinon va elektronodonor birikma, masalan, fenollar, arilaminlardan iborat bo'lgan zaryad ko'chirish kompleksining (donor-akseptor kompleks,  $\pi$ -kompleks) hosil bo'lishidir. Kompleksning hosil bo'lishi elektron spektrlardagi yutilish maksimumlarini ko'rinadigan sohaga surilishi bilan bog'liq. Kompleksning qo'zg'algan holatga o'tishi boshlang'ich moddalarga nisbatan osonroq bo'ladi. Shuning uchun yangi yutilish maksimumi spektrning ko'rinadigan sohasida paydo bo'ladi va *zaryad ko'chirish maksimumi* deyiladi.

Kompleksda elektron zichligining qayta taqsimlanishi kuzatiladi, akseptor donor hisobiga qandaydir miqdor elektron zichligiga ega bo'ladi. Elektron zichlikning qayta taqsimlanishi zaryad ko'chirish darajasi  $\delta$  bilan ifodaلانadi. Odatda bu qiymat 0,02-0,1 dan oshmaydi.


Kompleks tomonidan yorug'lik kvantini yutilishi natijasida qo'zg'algan holatda o'tadi. Bunday holatda kompleksda elektron zichligi boshqacha taqsimlanadi, odatda elektronni donordan akseptorga to'la ko'chishiga va ion-radikallar justi hosil bo'lishiga to'g'ri keladi.



Agar eritmada xinonning va donorning miqdori ko'p bo'lsa rangli komplekslar kristallanadi.

Kompleks hosil bo'lish konstantasi va kompleksning xossalari (zaryad ko'chirish darajasi, zaryad ko'chirish energiyasi) komponentlarning, asosan akseptorning elektronga moyilligi va donorning ionlanish energiyasiga bog'liq.


Ionlanish energiyasi va elektronga moyillik qiymatlari orasidagi farq qanchalik kichik bolsa elektronning ko'chishi shunchalik oson bo'ladi va zaryad ko'chirish darajasi ortadi. Xilon bitta elektronli qaytarilishi va donor bitta elektronli oksidlanishi mumkin:



Juda kuchli donor va akseptorlardan zaryad ko'chirish kompleksining yoki ion-radikal juftining hosil bo'lishi sezilarli darajada erituvchi tabiat, solvatlanish effektlari bilan belgilanadi. Kuchsiz qutblangan erituvchilarda zaryad ko'chirish komplekslar, kuchli qutblanganlarda esa ion-radikallar oson hosil bo'ladi.


KIMYOVIV XOSSALARI

1. Xinonlarning qaytarilishi va semixinonlarning hosil bo‘lishi. Xinonlarga elektron birikishi natijasida anion-radikal – semixinon anioni hosil bo‘ladi.




Elektron elektroliz natijasida katodda birikishi yoki kuchli noorganik yoki organik qaytaruvchilar (elektronodonorlar) ta'sirida birikishi mumkin.


Semixinon anioni manfiy zaryad va toq elektron delokallashgan. Semixinon anioni yana bitta elektronni biriktirib gidroxinon dianioniga aylanishi mumkin:




Xinonlar va gidroxinonlar qaytar redoks-sistemalar hosil qiladi, semixinon anionlar oraliq moddalardir.



2. Xinonlarning nukleofil reagentlar bilan o'zaro ta'siri. Xinonlar har xil nukleofillarni biriktirishi mumkin. Proton kataliz reaksiyaga ijobjiy ta'sir etadi.






$\text{Nu}$  = piridin, dialkilsulfid va b.

$\text{NuH}$  =  $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$ , alkanollar, arilaminlar, gidrosulfidlar.

Ayrim holatlarda karbonil guruh orqali reaksiya ketadi. Masalan, benzoxinonlar hidroksilamin bilan reaksiyaga kirishib monooksimlarga aylanadi.



Hosil bo'lgan monooksim *p*-nitrozofenolga izmerlanishi mumkin.

Xinonlar aktiv diyenosillar bo'lganligi uchun ko'pincha polisiklik birkimlar olish uchun ishlatiladi.

### ***MUHIM VAKILLARI***

*p*-benzoxinon – sariq tusli, o'ziga xos hidli kristall modda,  $116^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi, anilinni xrom angidrid bilan oksidlab olinadi.

*p*-benzoxinon hidroxinon olish uchun ishlatiladi.


*p*-xloranil – sariq rangli kristall modda,  $290^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi, fenol yoki anilinni sulfat kislotasidan xlorlab olinadi.

*p*-xloranil kuchli oksidlovchi va degidridlovchi sifatida, hamda bo'yoq moddalar olishda boshlang'ich modda sifatida ishlatiladi.

*1,4-naftoxinon* – sariq rangli kristall modda,  $128^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi, naftalinni oksidlab olinadi. Bo'yoq moddalar olishda ishlatiladi.


2-metil-1,4-naftoxinonning ayrim hosilalari biologik faollikka ega. Ushbu birkimlar qonni ivishini yaxshilaydi (qon koagulyantlari) va

K vitaminlari deyiladi. Masalan, K vitamini yoki fitoxinon muhim ahamiyatga ega.




9,10-antraxinon och-sariq rangli kristall moddalardir, 286°C da suyuqlanadi, benzol va ftal angidrididan olinadi. Bo'yoq moddalar olishda ishlataladi.


Antraxinon bo'yoqlari antraxinonning elektronodonor o'rinnbosarlar tutuvchi hosilalaridir. Masalan, 1,2-digidroksiantraxinon yoki *alizarin* metallarning ionlari bilan rangli kompleks birikmalar hosil qiladi. Alyuminiy tuzlari qizil rangli, temir (III) tuzlari binafsha rangli komplekslar hosil qiladi.



alizarin



dispers zarg'aldoq




dispers binafsha

Aminoantraxinonlar dispers bo'yoqlar sifatida va yorug'likka chidamli kub bo'yoqlar olish uchun dastlabki modda sifatida ishlatalildi.


Xinon sistemasi tutuvchi bo'yoqlar. Sharqli ravishda xinoid guruhi tutuvchi ko'plab muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'yoq moddalar mavjud. Bularga xinonimin, difenilmetan, trifenilmetan va bir qator geterosiklik birikmalar (ksantein, akridin, oksazin, tiazin) ni misol qilish mumkin.

Xinonimin bo'yoqlari difenilaminining hosilalari hisoblanadi.




Bindshedler yashili

Difenilmekton bo‘yoqlari elektronodonor o‘rinbosarlar hisobiga stabillangan difenilmekton kationning hosilalaridir.




Mixler ko‘ki

Trifenilmekton bo‘yoqlari kationli yoki anionli bo‘lishi va molekulalarida amino- yoki hidroksil guruhlar tutishi mumkin.



malaxit yashili



qizil


fenolftalein

rangsiz


## **24-BOB. AROMATIK KARBONIL BIRIKMALAR**

· Benzol halqasidagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini aldegid yoki keton shaklidagi karbonil guruhlariga almashinishi natijasida hosil bo‘lgan birikmalarga aromatik karbonil birikmalar deb ataladi. Aromatik karbonil birkmalarga aromatik aldeigidlar va ketonlar kiradi. Aromatik ketonlar ikki turli bo‘lishi mumkin: 1) alkilaromatik ketonlar va 2) diarilketonlar.


Aromatik karbonil birikmalar odatdagi qoidalar bo‘yicha nomlanadi. Ko‘pincha trivial nomlash ham qo’llaniladi. Masalan,




Benzaldegid (C)  
Benzoy aldegid (T)




Metilfenilketon (P)  
Atsetofenon (T)



Difenilketon (P)  
Benz(o)fenon (T)



*o*-Oksibenzoy aldegid  
2-gidroksibenzaldegid  
Salitsil aldegid





4-gidroksi-3-metoksibenzaldegid  
Vanilin

### ***OLINISH USULLARI***


Aromatik karbonil birikmalarni olish metodlari alifatik karbonil birikmalarni olinishiga o‘xshash. Bundan tashqari bir qator boshqa usullari ham mavjud.

Alkilarenlar, diarilmektonlar oksidlangunda aromatik karbonil birikmalar hosil bo'ladi. Oksidlovchi sifatida kobalt yoki marganes tuzlari ishtirokida kislordan foydalanish mumkin. Reaksiya erituvchisiz yoki muz sirka kislota eritmasida olib boriladi. Diarilketonlar olish uchun oddiy noorganik oksidlovchilar qo'llanilishi mumkin. Quyidagi ayrim muhim metodlari bilan tanishib chiqamiz.




Aromatik karbonil birikmalarni aromatik spirlarni oksidlab olish ham mumkin.

Alkilarenlar galogenlangunda digalogenalkilarenlar hosil bo'ladi. Ushbu birikmalar gidroliz qilinganda karbonil birikmalarga aylanadi.




Yuqoridagi usul yordamida aromatik aldegidlarni olish amaliy ahamiyatga ega.

Aromatik uglevodorodlar Lyuis kislotalari ishtirokida atsilxloridlar bilan ta'sirlashib alkilarilketonlarga, yoki diarilketonlarga aylanadi (Fridel-Krafts bo'yicha atsillash).




Aromatik aldegidlar olish uchun arenlarni formillash (aldegid guruhi kiritish) reaksiyasi ham qo'llaniladi. Buning uchun chumoli kislotasining xlorangidrididan foydalaniladi. Lekin ushuu birikma juda beqaror bo'lib, tezda CO va HCl ga parchalanadi. Formillash reaksiyasini  $\text{AlCl}_3$  va  $\text{CuCl}$  ishtirokida CO va HCl aralashmasi bilan o'tkazish mumkin (Gatterman-Kox metodi, 1897).




Chumoli kislotasining storangidridi ( $\text{SbF}_5$  ishtirokida) kuchli formillovchi reagent hisoblanadi.

Galogenmetilarenlarga urotropin ta'sir ettirilsa aromatik aldegidlar hosil bo'ladi (Sommle reaksiyasi, 1913).



Ushbu reaksiyada dastlab urotropin tuzi hosil bo'ladi, keyin mazkur tuz oksidlanish-qaytarilish bilan parchalanadi.  $\text{H}_2\text{C}=\text{NH}$  oksidlovchi,  $\text{ArCH}_2\text{NH}_2$ , qaytaruvchi vazifasini bajaradi.

Aromatik karbon kislotalarning xlorangidridlari vodorod bilan qaytarilganda aromatik aldegidlar hosil bo'ladi.



### FIZIK-KIMYOVITY XOS SALARI

Aromatik karbonil birikmalar xushbo'y hidli, rangsiz suyuqliklar yoki kristall moddalardir.


Karbonil birikmalarning molekulalarida tutash qo'shbog'lar sistemasi hosil bo'lganligi uchun benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar zichligining taqsimlanishi o'zgaradi. Karbonil guruh elektronoakteptor guruh bo'lganligi uchun  $\alpha$ - va  $n$ - holatlarda elektron zichligi kamayadi.

Aromatik karbonil birikmalarning elektron spektrlari yutilish maksimumlari batoxrom siljishga ega. IQ-spektrlarda karbonil guruhning yutilish chiziqlari  $\alpha, \beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalardagi kabi ko'rinishga ega.

Aromatik karbonil birikmalar oddiy karbonil birikmalarga xos bo'lgan reaksiyalarga kirisha oladi. Tutash elektron sistema mavjudligi sababli karbonil guruhdagi uglerod atomida effektiv musbat zaryad kamayganligi uchun aromatik karbonil birikmalarning nukleofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishish qobiliyati kamayadi. Aromatik aldegidlar va diarilketonlarda  $\alpha$ -holatda vodorod atomi mavjud emas, shuning uchun yenollanmaydi. Bundan tashqari aromatik karbonil birikmalar benzol halqasi orgali elektrofil o'rinnishga kirisha oladi.


Aromatik karbonil birikmalarga xos bo'lgan ayrim reaksiyalar ham mavjud.

1834-yilda Yu.Libix va F.Vyoler benzaldegidga kaliy sianid ta'sir ettirib benzoin deb nomlangan birikmani olishiga muvaffaq bo'lganlar. Keyinchalik ushbu birikma  $\alpha$ -gidroksiketon ekanligi aniqlangan.




Mazkur reaksiya benzoin kondensatsiyasi deyiladi. Barcha aromatik aldegidlar shunday reaksiyaga kirisha oladi.


Benzoin kondensatsiyasi karbonil guruhga anion C-nukleofil birikishi reaksiyalariga kiradi. Nukleofil reagent aromatik aldegid molekulasiidan sianid-ion ta'sirida hosil bo'lishi aniqlangan.




Aromatik aldegidlar ishqoriy va ishqoriy-yer metallarining gidroksidlari ishtirokida aromatik karbon kislotalarning tuzlariga va aromatik spirtlarga aylanadi (S.Kannitsaro, 1853).




Ushbu reaksiyada bir molekula aldegid oksidlanib, ikkinchisi qaytariladi. Reaksiya gidroksid-ion ishtirokida boradi.



Yenollanmaydigan alifatik aldegidlar ham Kannitsaro reaksiyasiga kirisha oladi. Formaldegid Kannitsaro reaksiyasida qaytaruvchi vazifasini o'tashi mumkin.




Aromatik aldegidlarga alkogolyatlar ta'sir ettirilsa murakkab efirlar hosil bo'ladi. Alkogolyatning miqdori aldegidning molyar miqdoriga nisbatan 10-20 % ni tashkil etadi. Reaksiya davomida disproporsiyalanish bilan birga qayta eterifikatsiya ham kuzatiladi.




Aldegidlardan murakkab efirlar olish uchun alyuminiy alkogolyatlardan foydalanish mumkinligi 1903-yilda V. Tishenko tomonidan asoslab berilgan. Tishenko reaksiyasiga alifatik aldegidlar ham kirishadi, chunki alyuminiy alkogolyatlari natriy alkogolyatlaridan farqli ravishda aldol birkish reaksiyasini keltirib chiqarmaydi.

Aromatik aldegidlar havo kislороди, yorug'lik ta'sirida oson oksidlanadi. Alifatik aldegidlar bunday o'zgarishga uchramaydi. Aromatik aldegidlarning oson oksidlanishi barqaror aroil radikal hosil bo'lishi bilan izohlanadi.



Shuning uchun aromatik aldegidlar uzoq vaqt saqlanganda antioksidantlar bilan stabillanadi.

Karbonil guruh benzol halqasining faolligini kamaytirgani bois, aromatik aldegidlar elektrofil o'rin olish reaksiyalariga qiyin kirishadi. Reaksiya asosan *m*-holat bo'yicha ketadi. Karbonil guruhning elektronokseptor ta'siri nitroguruhning ta'siriga o'xshaydi, lekin biroz kuchsizroq.




Shuni ham e'tiborga olish kerakki, elektrofil o'rin olish reaksiyasi bilan bir vaqtda aldegid yoki atsil guruh oksidlanishi ham mumkin.

### **MUHIM VAKILLARI**

**Benzaldegid** – achchiq bodom hidiga ega bo'lgan rangsiz suyuqlik, -26°C da suyuqlanadi, 179,5°C da qaynaydi, suvda kam eriydi.

Benzaldegid erkin holda ayrim esfir moylari tarkibida uchraydi. Sanoatda toluolni oksidlab, yoki toluolni benzalchlorid ( $C_6H_5CHCl_2$ ) gacha xlorlab, keyin uni kislotali muhitda gidroliz qilib olinadi. Benzaldegid xushbo'y ta'm beruvchi modda sifatida ishlataladi, organik sintezda trifenilmetan bo'yoqlari, benzoilxlorid va boshqa moddalar olish uchun xomashyo sifatida qo'llaniladi.




**Atsetofenon** (metilfenilketon) – 20°C da suyuqlanadigan xushbo'y hidli modda. Sanoatda benzolni atsetillab, yoki etilbenzolni oksidlab olinadi. Atsetofenon organik sintezda, parfyumeriya sanoatida ishlataladi.

**Benzofenon** (difenilketon) – 49°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Sanoatda difenilmetanni oksidlab olinadi. Benzofenon organik sintezda va *fotosensibilizator* sifatida ishlataladi. Fotosensibilizator deb, qo'zg'algan holatdagi energiyasini boshqa moddaga berish yo'li bilan

fotokimyoviy reaksiyani keltirib chiqaruvchi moddaga aytildi. Benzofenon uzoq muddat mavjud bo'la oladigan ( $\sim 10^{-2}$  sekund) qo'zg'algan triplet holatda bo'la oladi. Bunday holat boshqa moddaga o'tib fotokimyoviy reaksiya, masalan, sis-trans-izomerlanish, alkenlarni dimerlanishi kabi reaksiyalarni boshlanishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari qo'zg'algan benzofenon molekulasi kimyoviy reaksiyaga kirishishi mumkin. Masalan,








Karbonil birikmalar ammiak va aminlar bilan bir qator birikmalarni hosil qiladi. Ushbu birikmalarning molekulasida C=N bog'i mavjud, o'ziga xos kimyoviy xossalarga ega bo'lib, organik sintezda keng qo'llaniladi.

## 25-BOB. AROMATIK KARBON KISLOTALAR

Aromatik karbon kislotalarga benzol halqasi karboksil guruh bilan bevosita yoki bilvosita bog'langan birikmalar kiradi. Aromatik karbon kislotalar bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli bo'lishi mumkin. Shuningdek, benzol halqasida boshqa o'rinnbosarlar ham bo'lishi mumkin.

### 25.1. AROMATIK MONOKARBON KISLOTALAR


Aromatik monokarbon kislotalarning nomi kislotaning tuzilishiga bog'liq. Aksariyat aromatik kislotalar trivial nomlarini saqlab qolgan.

<b>Formula</b>	<b>Nomlash</b>		
	Trivial	Kislotा nomi bilan	Karbon kislotা nomi bilan
	Benzoy kislotasi		Benzol karbon kislotasi
	<i>o</i> -Toluil kislotasi		<i>o</i> -toluol karbon kislotasi
	Fenilsirka kislotasi	Feniletan kislotasi	
	Dolchin kislotasi	<i>trans</i> -3-fenil-propen kislotasi	
			Naftalin-2-karbon kislotasi


## OLINISH USULLARI

Aromatik monokarbon kislotalar asosan alkilarenlardan, ko'proq metilarenlardan olinadi. Bunda benzol halqasida karboksil guruh tutuvchi aromatik karbon kislotalar hosil bo'ladi.


Oksidlovchi sifatida  $KMnO_4$ ,  $CrO_3$  yoki kobalt va marganes tuzlari ishtirokida kislorod ishlataladi.



Metilarilketonlarni oksidlash ham mumkin. Oksidlovchi sifatida odatda gipokloridlardan foydalaniladi.




Nitrilllar, galogenmetilarenlar gidroliz qilinganda ham aromatik karbon kislotalar hosil bo'ladi.



Yuqoridagi usullardan tashqari aromatik karbon kislotalar olishda metallorganik sintez, karbonillash va boshqalardan ham foydalaniлади.

### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

Aromatik monokarbon kislotalar rangsiz kristall moddalaridir, ayrim vakillari xushbo‘y hidga ega. Karboksil guruhi benzol halqasi bilan bevosita bog‘langan kislotalarda tutash elektron sistema hosil bo‘ladi. Karboksil guruhi elektronoakseptor guruhi sifatida ta’sir etadi.




### **KIMYOVİY XOSSALARI**

Aromatik monokarbon kislotalarning kislota xossalari  $\alpha, \beta$ -to‘yinmagan kislotalarning xossalardan kuchliroq. Karboksil guruhi benzol halqasidan uzoqlashishi bilan kislota xossasi kamayadi.


**Ayrim aromatik monokarbon kislotalarning ionlanish konstantasi  
pK<sub>a</sub> (H<sub>2</sub>O, 25°C)**

Kislota	pK <sub>a</sub>	Kislota	pK <sub>a</sub>
Benzoy kislotasi	4,17	Naftalin-1-karbon kislota	3,70
Fenilsirka kislotasi	4,31	Naftalin-2-karbon kislota	4,16
Dolchin kislotasi	4,44		


Aromatik monokarbon kislotalar karboksil guruhi bo‘yicha to‘yingan monokarbon kislotalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Aromatik karbon kislotalar mis kukuni ishtirokida, yoki ularning Ca, Cu li tuzlari 200°C dan yuqori temperaturada qizdirilsa dekarboksillanadi.



Aromatik benzol halqasi bo'yicha monokarbon kislotalar elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashadi. O'rribosar odatda *meta*-holatga yo'naltiriladi.



Arilsirka kislotalar molekulasida faollashgan metilen (-CH<sub>2</sub>-) guruhi mavjud bo'lganligi uchun ular metilen guruhi bo'yicha galogenlanish, kondensatsiya reaksiyalariga kirisha oladi. Arilsirka kislotalari metilen guruhi bo'yicha karbanion hosil qilishi mumkin. Masalan, metallorganik birikmalar ta'sirida tegishli anion hosil bo'lib, u o'z navbatida aldegidlar, ketonlar, angidridlar kabi har xil C-elektrofillar bilan ta'sirlashadi.



### ***MUHIM VAKILLARI***


*Benzoy kislotasi* – 122°C da suyuqlanadigan, rangsiz kristall modda, yaproqchalar shaklida yaxshi kristallanadi, suv bug'i bilan oson haydaladi. Benzoy kislotasi birinchi marta tabiiy mahsulotlar – benzoy smolalaridan ajratib olingan. O'txo'r sutemizuvchilar organizmidan modda almashi-nuvi mahsuloti sifatida benzoy kislotasi gippur kislotasi (N-benzoilglitsin) shaklida siydik bilin ajralib chiqadi. Benzoy kislotasi sanoatda toluolni kobalt tuzlari ishtirokida havo kislороди bilan oksidlаб оlinadi.

Benzoy kislotasi sanoatda bo‘yoqlar, dorivor va xushbo‘y moddalar olishda ishlataladi. Benzoy kislotasi bakteritsid xossaga ega. Uning natriyli tuzi oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda ishlataladi.

*Fenilsirka kislotasi* – 77°C da suyuqlanadigan, rangsiz kristall modda, shirin ta‘mga ega. Benzilsianidni gidroliz qilib, yoki benzilxloridni karboksillab olinadi. Fenilsirka kislotasi dorivor va xushbo‘y moddalar olish uchun ishlataladi.

*Dolchin kislotasi* – 133°C da suyuqlanadigan, o‘ziga xos hidli rangsiz kristall modda.


Dolchin kislotasi murakkab efir ko‘rinishida ayrim efir moylari, smolalar va balzam tarkibida uchraydi. Sintetik dolchin kislotasi suvsiz natriy atsetat ishtirokida benzaldegid va sirka angidrididan olinadi (U.Perkin, 1868).



Dolchin kislotasi xushbo‘y va dorivor moddalar ishlab chiqarish uchun ishlataladi.

*p-aminobenzoy kislotasi* – 186°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda kam eriydi. *p*-aminobenzoy kislotasini qaytarib olinadi.


*p*-aminobenzoy kislotasi vitamin faolligiga ega, modda almashinuvda ishtirok etadi. Uning murakkab efirlari og‘riq qoldiruvchi ta’sirga ega bo‘lib, mahalliy anestetiklar hisoblanadi.



*p*-aminobenzoy kislotasining  
etyl efiri, anestezin

*p*-amino-( $\beta$ -dietilamino)etilbenzoat  
gidroxlorid, novokain

*o*-aminobenzoy kislotasi (antranil kislotasi) – 144°C da suyuqlanadigan, suvda kam eriydigan kristall modda. Sintetik antranil kislotasi Gofman reaksiyasi bo‘yicha stalmiddan olinadi.



Antranil kislotasi ko'plab metallarning ionlari bilan erimaydigan komplekslar hosil qilganligi uchun analitik reagent sifatida ishlataladi. Ayrim efirlari esa parfyumeriya sanoatida qo'llaniladi.

*Salitsil kislotasi* (o-gidroksibenzoy kislotasi) —  $159^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, oson sublimatlanadi, qaynoq suvda eriydi.

Salitsil kislotasi tabiiy mahsulotlar tarkibida, asosan metil efiri shaklida uchraydi. Sintetik salitsil kislotasi fenolni karboksillab olinadi.

Salitsil kislotasi fenollar kabi  $\text{FeCl}_3$  bilan rangli birikma hosil qiladi.

Salitsil kislotasining hosilalari, masalan, atsetilsalitsil kislotasi (aspirin), metilsalitsilat tibbiyotda dori vositalari sifatida qo'llaniladi.


## 25.2. AROMATIK DI- VA POLIKARBON KISLOTALAR

Ayrim aromatik di- va polikarbon kislotalar umumiy qoidalar bo'yicha nomlanadi. Ushbu kislotalar trivial nomlarini ham saqlab qolgan.

Formula	Nomlash	
	Trivial	Karbon kislotasi nomi bilan
	Ftal kislotasi	1,2-benzoldikarbon kislotasi
	Izoftal kislotasi	1,3-benzoldikarbon kislotasi

	Tereftal kislotasi	1,4-benzoldikarbon kislotasi
	Trimellit kislotasi	1,2,4-benzoltrikarbon kislotasi
	Piromellit kislotasi	1,2,4,5-benzoltetrakarbon kislotasi

Aromatik dikarbon va polikarbon kislotalar asosan dimetil-, trimetil-, tetrametil arenlarni oksidlash reaksiyalari yordamida olinadi. Reaksiyalar suyuq yoki gaz-bug' fazasida boradi. Masalan,




Aromatik dikarbon va polikarbon kislotalar monokarbon kislotalarga qaraganda kuchliroq kislotalar hisoblanadi.

### Ayrim aromatik karbon kislotalarning ionlanish konstantasi $pK_a$ ( $H_2O$ , 25°C)

Kislotা	$pK_{a,1}$	$pK_{a,2}$	$pK_{a,3}$	$pK_{a,4}$
Benzoy kislotasi	4,17			
Ftal kislotasi	2,95	5,41		
Izoftal kislotasi	3,46	4,46		
Tereftal kislotasi	3,51	4,82		
Trimellit kislotasi	2,52	3,84	5,20	

## MUHIM VAKILLARI

Ftal kislotasi—200°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, suvda kam eriydi. Sanoatda naftalin yoki o-ksilolni vanadiy angidridi ishtirokida gaz-bug' fazasida oksidlab olinadi. Reaksiya sharoitida ftalangidridi hosil bo'lib, u suvni biriktiradi va ftal kislotasiga aylanadi.



Ftal kislotasining angidridi va murakkab efirlari katta amaliy ahamiyatga ega.

*Tereftal kislotasi* — rangsiz kristall modda, 300°C da haydaladi, kavsharlangan ampulada 425°C da suyuqlanadi. Suvda va organik erituvchilarda kam eriydi.

*Tereftal kislotasi* asosan *n*-ksilolni suyuq fazada katalitik oksidlab olinadi. Sanoatda katta miqdorda lavsan (terilen) ishlab chiqarish uchun ishlatalidi.

*Trimellit kislotasi* — rangsiz kristall modda, 224-225°C da angidrid hosil qilib suyuqlanadi. Suvda eriydi. 1,2,4-trimetilbenzol (psevdokumol) ni katalitik oksidlab olinadi.

*Trimellit kislotasining angidridi* issiqlikka chidamli polimerlar olishda ishlatalidi.


*Pirromellit kislotasi* — rangsiz kristall modda, 275°C da angidrid hosil qilib suyuqlanadi. Suvda yaxshi eriydi. 1,2,4,5-tetrametilbenzol (durol) ni gaz-bug' yoki suyuq fazada katalitik oksidlab olinadi. Gaz fazasida oksidlanganda diangidrid hosil bo'ladi.

*Pirromellit kislotasining diangidridi* issiqlikka chidamli polimerlar olishda ishlatalidi.


## 26-BOB. AROMATIK SULFOBIRIKMALAR

Aromatik sulfobirikmalarga benzol halqasida bitta yoki bir nechta sulfoguruh tutuvchi birikmalar va ularning hosilalari kiradi.


Aromatik sulfobirikmaning nomi uglevodorod nomi va oltingugurt tutuvchi funksional guruh nomidan yasaladi. IYUPAK nomenklaturasi *sulfon kislotalari* nomini qo'llashni tavsiya etadi. Ba'zan *sulfokislotalar* iborasi ham qo'llaniladi.



Benzolsulfon kislota




p-toluolsulfon kislota  
(p-toluolsulfokislota)




1,2-benzoldisulfon kislota

Arensulfokislotalar arenlarni  $H_2SO_4$  yoki oleum bilan sulfolab olinadi.


Arenlarga mo'l miqdorda xlorsulfon kislotasi ta'sir ettirilsa arensulfonil xloridlar hosil bo'ladi:




Sulfonikxloridlar boshqa hosilalarni olishda boshlang'ich modda hisoblanadi:



Sulfolash reaksiyalarida qo'shimcha moddalar sifatida sulfonlar hosil bo'ladi. Reaksiya temperaturasi orttirilganda va boshqa effektiv sulfolovchi reagentlar ta'sir ettirilganda arenlar diarilsulfonlarga aylanishi mumkin.



Sulfonlar sulfonillash reaksiyasida oson hosil bo'ladi (Fridel-Krafts reaksiyasining analogi).




Sulfonlar sulfidlarni oksidlash reaksiyalarining oxirgi mahsuloti hisoblanadi.


### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

Sulfon kislotalari va ularning hosilalari rangsiz, aksariyati suvda eriydigan kristall moddalardir.

Sulfonat-ion tetraedrik tuzilishga ega, bog'lar orasidagi burchaklar 108–110° ni tashkil qiladi.



(X = OH, O-, Cl, NH<sub>2</sub>, OR<sup>1</sup>, R<sup>1</sup>)



S-Ar = 0.182 nm  
S-O = 0.142 nm

Uchala S-O bog'lar bir xil va manfiy zaryad uchala kislorod atomi o'rtaсиda delokallashgan. S=O bog'ining tuzilishini rasman semipolyar bog'lar yordamida quyidagicha tasvirlash mumkin.



Shuningdek oltingugurt atomi to'limagan 3d-orbitallarga ega bo'lib, bu orbitallar kislorod atomining taqsimlanmagan elektron justlarini delokallanishida ishtirok etishi mumkin. Shunday yo'l bilan qutbli S=O bog' hosil bo'lib, zaryadning miqdori  $\delta = 0,5\text{--}0,6$  ga teng. Bu S=O bog'larning dipol momentlaridan kelib chiqadi ( $\mu \approx 10 \times 10^{-30}$  Kl.m yoki 3 D). Agar S=O bog' haqiqiy semipolyar bog' bo'lganda dipol moment  $20 \times 10^{-30} - 23 \times 10^{-30}$  Kl.m yoki  $\sim 6\text{--}7$  D bo'lishi kerak edi.

SO<sub>2</sub> guruh kuchli elektronoakceptor hisoblanib -I va -M effektlarni namoyon qiladi.

### KIMYOVIY XOS SALARI

Sulfon kislotalari juda kuchli kislotalar hisoblanadi, suvli eritmalarda to'laligicha ionlangan bo'ladi.



Sulfon kislotalari kislotalilik jihatdan sulfat kislotaga yaqin turadi. Bu kislotalar barqaror tuzlar hosil qiladi. Aksariyat hollarda natriyli tuzlar suvli eritmalardan sulfon kislotalarning eritmalarini NaCl bilan to'yintirib olinadi.



Sulfoguruh uglerod atomi bilan unchalik mustahkam bog'langan emas. Uni ikki xil yo'l bilan ajratib chiqarish mumkin. Birinchisi elektrofil reagentlar ta'sirida. Bu reaksiya asosan arensulfon kislotalar uchun xosdir:



Reaksiya Ar-SO<sub>3</sub>H ga elektrofil hujum bilan bog'liq. Buning natijasida  $\sigma$ -kompleks hosil bo'ladi.  $\sigma$ -kompleks XSO<sub>3</sub>H ni ajralishi bilan barqarorlashadi. Masalan, kislotalarning suvli eritmalarida 120–150°C da arensulfon kislotalar arenlarga va sulfat kislotalarga aylanadi.


Ikkinchidan, sulfonguruh nukleofil reagentlar ta'sirida boshqasiga almashtirilishi mumkin. Arensulfon kislotalar uchun bunday reaksiyalar yaxshi ma'lum. Masalan, fenollar olishda ishqorlar bilan qo'shib qizdirish (suyuqlantirish)ni ko'rsatish mumkin:



Sulfoguruhning elektronoakseptor ta'siri natijasida aromatik sistemadagi uglerod atomi biroz musbat zaryadlanib qoladi, buning natijasida nukleofil reagentning ta'siri sulfoguruhning sulfit-ion ko'rinishida ajralishi osonlashadi. Biroq reaksiya birmuncha qattiq sharoitlarda, 250–300°C da boradi. Shunday yo'l bilan fenollardan tashqari nitrillar, aminlar olinishi mumkin.


### SULFON KISLOTALARINING HOSILALARI

Sulfonilxloridlar yaqqol namoyon bo'lgan elektrofil xossalari bilan xarakterlanadi va har xil nukleofil reagentlar bilan oson ta'sirlashganligi uchun boshqa hosilalarni olishda boshlang'ich modda sifatida ishlataladi.





*Sulfonatlar* (sulfon kislotalarning efirlari) yaxshi alkillovchi reagentlar hisoblanadi (dimetil sulfat kabi). Ular organik sintezda keng qo'llaniladi.

*Sulfonamidlar* – ancha inert moddalardir. Ular kuchsiz NH-kislotalar bo'lib, ishqor eritmalarida eriydi.



Sulfonamid-anion delokallashgan anion bo'lib, nukleofil xossalarga ega. Uni alkillash, galogenlash mumkin:




Sulfonlar, ayniqsa diarilsulfonlar kimyoviy inert va termik barqaror birikmalardir. Sulfon guruh kuchli elektronoakseptor xossasiga ega va karbanionning elektron justi delokallash qobiliyatiga ega. Alkilsulfonlar kuchsiz CH-kislotalardir.

### **MUHIM VAKILLARI**

*p-toluolsulfon kislota* — rangsiz kristall modda, 104°C da suyuqlanadi (monogidrati), suvda yaxshi eriydi. Toluolni sulfolab, yoki *p*-toluolsulfanilxloridni gidrolizlab olinadi. Ko'plab organik reaksiyalarda kislota katalizator sifatida ishlatiladi, chunki u aksariyat organik erituvchilarda eriydi.

*Akil-p-toluolsulfonatlar* (tozilatlar) — rangsiz kristall moddalar. Suyuqlanish temperaturalari nisbatan past. Masalan, R=CH<sub>3</sub>, uchun 28°C, R=C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>, uchun 32°C. Tozilxloriddan va alkanollardan ishqor ishtirokida olinadi. Alkillovchi reagentlar sifatida ishlatiladi.

*p-toluolsulfonamid* — 138°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Suvda kam eriydi, ishqorda eriydi. Xlorlanganda N-xlor-sulfonamid hosil qiladi. N-xlor-*p*-toluolsulfonamidning natriyli tuzi katta amaliy ahamiyatga ega (xloramin-T).




xloramin-T

Xloramin-T dezinfeksiyalovchi va degazatsiyalovchi vosita bo'lib, kuchli oksidlovchi sifatida ta'sir ko'rsatadi.


*Sintetik yuvuvchi vositalar* har xil sulfon kislotalarning tuzlari aralashmasidan iborat. 10 tadan 20 tagacha uglerod atomi tutuvchi alkanlarning aralashmasi sulfolanganda alkansulfon kislotalar va ularning tuzlari aralashmasi hosil bo'ladi («mersolyatlar»). Ular juda yaxshi sirt - aktiv moddalar va yuvish vositalari hisoblanadi. C<sub>6</sub> dan C<sub>15</sub> gacha bo'lgan alkil zanjirlari tutuvchi alkil benzollar yoki alkilnaftilaminlar sulfolanganda alkilarensulfon kislotalari hosil bo'ladi. Ularning tuzlari yaxshi yuvuvchi vositalar hisoblanadi («sulfonollar»).

## **27-BOB. AROMATIK AMINOBIRIKMALAR**


Benzol halqasidagi bir yoki bir nechta vodorod atomlarini aminoguruhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan organik birikmalarni aromatik aminobirikmalar deb ataladi. Aromatik aminobirikmalar yoki arilaminlar umumiy qoidalar bo'yicha nomlanadi. Aksariyat arilaminlar trivial nomlarini saqlab qolgan. Masalan,




fenilamin  
anilin




*p*-aminotoluol  
*p*-toluidin




N,N-dimetilanilin



*p*-(N,N-dimetil)toluidin



1,2-diaminobenzol  
*o*-fenilendiamin




$\beta$ -naftilamin

### ***OLINISHI***

Aromatik aminobirikmalar-arilaminlar aromatik nitro-birikmalarni qaytarish, arilaminlarni alkillash, ammiakni arillash metodlari bilan olinishi mumkin. Bulardan tashqari ba'zi spetsifik metodlar ham mavjud.


Nitrobenzolni qaytarish reaksiyasi birinchi marta 1842-yilda N.N.Zinin tomonidan amalga oshirilgan. U nitrobenzolni ammoniy sulfid bilan qaytarib anilin olishga muvaffaq bo'lgan.

Laboratoriya sharoitida nitroarenlarni arilaminlargacha qaytarish uchun Fe, Zn, Sn metallari va kislotalardan,  $\text{SnCl}_2$ ,  $\text{TiCl}_4$ , kabi quyi oksidlanish darajasidagi metallarning tuzlaridan, yoki vodorod bilan katalitik gidridlash usulidan foydalaniladi.




Sanoatda asosan suyuq yoki gaz fazasida vodorod bilan katalitik gidridlash metodi qo'llaniladi.

Alkillash reaksiyalar N-alkil, N, N-dialkilarilaminlar olish uchun qo'llaniladi. Alkillash uchun galogenalkanlar, alkanollar va boshqa alkillovchi reagentlar ishlataliladi.



Galogenarenlar ammiak va aminlar bilan faqat kuchli sharoitlarda reaksiyaga kirishadi ( $200\text{--}300^{\circ}\text{C}$ , bosim). Reaksiyalar mis yoki uning tuzlari ishtirokida osonroq boradi.



Agar galogenaren molekulasida *o*- yoki *p*- holatlarda elektro-noakseptor o'rinxbosarlar mavjud bo'lsa, galogen atomining nukleofil o'rinx olish reaksiyalar oson boradi.

Galogenarenlarning mis katalizatorlari ishtirokida arilaminlar bilan reaksiyalarida di- va triarilaminlar hosil bo'ladi.

### **FIZIK XOSSALARI**

Arilaminlar toza holatda rangsiz, suyuq yoki kristall moddalar bo'lib, o'ziga xos hidga ega. Saqlash davomida havo kislorodi ta'sirida sarg'ish tusga kiradi.

Arilaminlar molekulasida kuchli bog‘langan sistema hosil bo‘ladi. Aminoguruh kuchli elektronodonor ta’sir ko‘rsatadi va  $+M$ -effektni namoyon qiladi. Dipol momenti benzol halqasi tomon yo‘nalgan. Arenlar va fenollarga qaraganda arilaminlarning elektronodonor ta’siri kuchliroq. Molekulada alkil va aril guruhlarning ortishi bilan elektronodonor ta’sir ham ortib boradi. Buni ionlanish energiyalaridan ko‘rish mumkin:


Birikma	IE, eV
C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> OH	8,4
C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> NH <sub>2</sub>	7,7
C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> N(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	7,1
(C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> ) <sub>3</sub> N	6,9

Arildiaminlar ichida N,N,N’,N’-tetrametil-*n*-fenilendiamin kabi juda kuchli neytral elektronodonor birikmalar mavjud.

### KIMYOVIY XOSSALARI

Arilaminlar bir necha reaksiyon markazga ega. Elektrofil reagentlar ham azot atomiga, ham benzol halqasidagi *o*- va *p*- holatlardagi uglerod atomlariga hujum qilishi mumkin. Oraliq mahsulotlar sifatida zaryad ko‘chirish komplekslari hosil bo‘lishi mumkin. Ba’zi holatlarda arilamin molekulasidan elektron to‘la ajralishi (oksidlanish) va keyingi o‘zgarishlar mahsulotlari hosil bo‘lishi ham mumkin.

Arilaminlar alkilaminlarga qaraganda kuchsizroq asoslardir, masalan, anilin metilaminga qaraganda deyarli million marta kuchsiz asos hisoblanadi. Proton azot atomiga birikadi.




Anilining asos xossasi kuchsiz bo‘lishiga sabab azot atomidagi taqsimlanmagan elektronlar juftining kuchliroq delokallashganligidir. Protonning birikishiga bog‘langan sistemaning barqarorligi xalaqit beradi, chunki azotning protonlanishi bog‘langan sistemaning buzilishiga olib keladi, taqsimlanmagan elektronlar jufti bog‘lanadi.


Benzol halqasida elektronoakseptor o'rinnbosarning mayjudligi yoki azot atomiga aril guruhning birikishi arilaminlarning asos xossalari keskin kamaytiradi.

Arilammoniy tuzlari suvda eriydigan rangsiz kristallar hosil qiladi. Suvli eritmalarda ular qisman gidrolizlanadi. Arilammoniy gidrosulfatlar nisbatan kam eriydi.


Arilaminlar kuchli elektronoakseptorlar bilan donor-akseptor komplekslarini (zaryad ko'chirish komplekslari) hosil qiladi. Ko'pincha bu holat komponentlar bir-biri bilan aralshtirilganda eritmaning rangini o'zgarishida ko'rindi. Chunki kompleks hosil bo'lishida spektrning ko'rindigan sohasida yangi yutilish chizig'i paydo bo'ladi. Ayrim vaqtarda kompleksni kristall holatida ajratib olish mumkin. Masalan, trinitroarenlnarni hosil bo'lishini quyidagicha tasvirlash mumkin:




Arilaminlar kuchli oksidlovchilar bilan ta'sirlashganda elektron ajralib chiqadi va kation-radikallar hosil bo'ladi. Ushbu kation-radikallar keyin reaksiyaga kirishishda davom etib bo'yq moddalar hosil qiladi.





Arilaminlarning elektronodonor xossalari ortishi bilan barqaror kation-radikallar olish mumkin. Bu *n*-fenilendiamin hosilalari, triarilaminlar uchun xosdir.



Elektrofil reagentning turi, reaksiya sharoitlari va arilaminning ionlanish energiyasiga bog'liq ravishda elektrofil reagentlar bilan boradigan reaksiyalar azot yoki uglerod atomi bo'yicha boradi, yoki oksidlanish reaksiyasi sodir bo'ladi:




C-elektrofillar bilan boradigan reaksiyalar natijasida C-N bog'i hosil bo'ladi. N-alkillash va N-atsillash reaksiyalari ariaminlarning asosligi kamroq bo'lganligi uchun alkilaminlarga qaraganda sekinroq boradi.



Arilaminlar aldegidler bilan ta'sirlashib iminlar hosil qiladi. Ba'zan reaksiya benzol halqasi bo'yicha boradi.


Arilaminlar xloroform va ishqor bilan ta'sirlashib izosianidlar hosil qiladi.

N-elektrofillar bilan boradigan reaksiyalarga nitrozolashni misol qilish mumkin. Birlamchi arilaminlar diazoniy tuzlari hosil qiladi.




Ushbu reaksiya *diazotirlash* reaksiyasi deviladi.

Ikkilamchi arilaminlar nitrozolanganda N-nitrozoaminlar hosil bo'libadi:



Uchlamchi arilaminlar C-nitrozo birikmalar hosil qiladi.




Odatdag'i nitrolovchi reagentlar yordamida nitrolash yaxshi natijalar bermaydi. Kislotali muhitda azot atomi protonlanadi va benzol halqasining faollanishi mumkin bo'lmay qoladi. Yanada kuchliroq sharoitlarda nitrollash, oksidlanish va destruksiya reaksiyalar kuzatiladi. Nitroanilinlar olish uchun N-atsilarilaminlar (N-himoyalangan arilaminlar) dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

$[NO_2]^+BF_4^-$  bilan past haroratlarda nitrollash natijasida N-nitroarilaminlar yoki oksidlanish mahsulotlari hosil bo'ladi.

Peroksidlar ta'sirida arilaminlar oksidlanishga uchraydi. Yumshoq sharoitlarda N-oksidlar hosil bo'lishi mumkin. Elektronakseptor guruhlar tutuvchi arilaminlar oksidlovchilar ta'siriga ancha barqaror bo'ladi.

Galogenlar ishqoriy muhitda xona temperaturasida arilaminlar bilan ta'sirlashib N-galogenarilaminlar hosil qiladi. Mazkur birikmalar galogenarilaminlarga qayta gruppalanadi. Bromli suv ta'sirida bromarilaminlar hosil bo'ladi:




Anilin xlorli suv ta'sirida oksidlanib ko'k rangli bo'yoq moddalarga aylanadi.

S-elektrofillar masalan, R-S-Cl,  $\text{SOCl}_2$ ,  $\text{SO}_3$ ,  $\text{RSO}_2\text{Cl}$  kabi birikmalar ta'sirida azot-oltingugurt bog' tutuvchi arilaminlar hosil bo'ladi:




Sulfat kislota ta'sirida arilamin gidrosulfat tuzi hosil bo'ladi. Reaksiya  $200^\circ\text{C}$  gacha haroratda olib borilsa mazkur tuz sulfon kislotaga aylanadi. Bunda ammoniy ioni bilan muvozanatda bo'lgan, protonlanmagan arilamin sulfolanadi deb taxmin qilinadi.



Elektrofil o‘rin olish reaksiyalarida aminoguruh atsillash yo‘li bilan himoyalanadi. Shunday yo‘l bilan azot atomi bo‘yicha reaksiya borishining oldi olinadi. Lekin atsilmaminoguruh elektronodonor xossasini saqlab qoladi. Reaksiya oxirida atsil guruh kislotali yoki ishqoriy muhitda gidroliz qilib ajratiladi. Mazkur reaksiyalar yordamida nitroarilaminlar, sulfoniylxloridlar va boshqa birikmalar olinadi.

Arilaminlar alkilaminlarga nisbatan kuchliroq N-H kislotalar hisoblanadi. Bu N-H bog‘ida qutblanish va bog‘langan anionda mansiy zaryadning delokallanishi kattaroq ekanligi bilan tushuntiriladi.



Metall arilamidlari arilaminlarga metallorganik birikmalar ta’sir ettirib olinadi.

Arilaminlarning kislota xossalari *o*- va *p*- holatlarga yoki azot atomiga elektronoakseptor o‘rinbosarlar kiritilishi bilan ortadi.

Birimka	$\text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2$	$p\text{-O}_2\text{NC}_6\text{H}_5\text{NH}_2$	$2,4,6\text{-}(\text{O}_2\text{N})_3\text{C}_6\text{H}_2\text{NH}_2$
$\text{pK}_a$	27	18,4	12,2


### ENG MUHIM VAKILLARI

*Anilin* – o‘ziga xos hidli - 6°C da suyuqlanadigan va 184,4°C da qaynaydigan suyuqlikdir. Suvda kam eriydi.

Anilin birinchi marta 1826-yilda O.Unferdorben tomonidan indigoni  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  bilan qizdirib olingen va kristallin deb atalgan. 1834-yilda F.Runge anilinni toshko‘mir smolasidan ajratib olgan va kianol deb


nomlagan. 1841-yilda Yu.Fritsshe indigoni o'yuvchi kaliy bilan qizdirib olingan moddani anilin deb atagan. 1842-yilda N.Zinin nitrobenzolni ammoniy sulfid bilan qaytarib oltgan moddani benzidam deb atagan. 1843-yilda A.Gofman yuqoridagi barcha moddalar bir ekanligini isbotlab anilin degan nomni qoldirilishini taklif qilgan.

Hozirgi vaqtida anilin asosan nitrobenzolni gaz fazasida  $\text{NiS}/\text{Al}_2\text{O}_3$ , yoki  $\text{Cu}/\text{SiO}_2$  sirtida  $200\text{--}300^\circ\text{C}$  da vodorod bilan qaytarib olinadi. Anilin asosan poliuretanlarning monomeri-diizosianatlar, vulkanlash jarayonini tezlashtiruvchi benziazol hosilalari, antioksidantlar, bo'yoqlar, dorivor moddalar va boshqa birkimlar olish uchun ishlataladi.




*N,N-dimetilanilin* — o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik.  $193^\circ\text{C}$  da qaynaydi, suvda kam eriydi. Anilinni sulfat kislota ishtirokida metanol bilan yoki gaz fazasida katalizator sirtida dimetil efir bilan alkitlab olinadi. *N,N-dimetilanilin* bo'yoq moddalar va portlovchi moddalar ishlab chiqarish uchun ishlataladi. Nitrolab portlovchi modda-2,4,6-trinitro-N-nitro-N-metilanilin (tetril) olinadi. Fosgen bilan atsillanganda bo'yoq moddalar olishda xomashyo hisoblanadigan birikma — *Mixler ketoni* hosil bo'ladi.

$\beta$ -*Naftilamin*. Rangsiz, havoda qorayadigan kristall modda,  $113^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi.  $\beta$ -naftol  $130\text{--}150^\circ\text{C}$  da suvli muhitda  $\text{NH}_3$ ,  $\text{SO}_2$  bilan qizdirib olinadi (X.Buxerer, 1903—1904).  $\beta$ -naftilamin bo'yoq moddalar sintez qilish uchun ishlatalgan. Kanserogen ta'siri mavjudligi uchun hozirda ishlab chiqarish to'xtatilgan. Uning hosilalari ichida *N-fenil-* $\beta$ -naftilamin katta ahamiyatga ega. Ushbu birikma rezina va boshqa polimer materiallarni stabillovchi vosita sifatida ishlataladi.



*Benzidin (4,4'-diaminobifenil)* —  $127^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda. Gidrazobenzoldan benzidin qayta gruppalanishi reaksiyasi yordamida olinadi.



Benzidin azobo'yoqlar olishda va analitik reagent sifatida ishlataladi.

*Sulfanil kislotasi* (p-aminobenzolsulfon kislotası) rangsiz, qiyin suyuqlanadigan modda, suvda kam eriydi. Anilinga sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi. Sulfanil kislotasi ichki tuz shaklida mavjud bo'ladi, kuchsiz NH-kislota hisoblanadi ( $pK_a=4,2$ ). Azobo'yoqlar olish uchun ishlataladi.


Sulfanil kislotasining amidi va uning N-almashingan hosilalari (amid guruhi bo'yicha) muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu birikmalar *p*-atsetil-aminobenzolsulfonilxloriddan olinadi.




Mazkur birikmalar umumiy tarzda sulfanilamidlar deb nomlanadi va tibbiyotda effektiv antibakterial vositalar sifatida ishlataladi. Sulfanilamidlarning terapevtik ta'siri 1932-yilda G. Domagk tomonidan aniqlangan. Tibbiyot amaliyotida hozirda oq streptotsid ( $\text{R}=\text{H}$ ), norsulfazol ( $\text{R}=2$ -tiazolil), sulfadimezin ( $\text{R}=3$ -metoksipirazil) kabi sulfanilamid preparatlar qo'llaniladi.

## 27.1. ARENDIAZONIY TUZLARI


Diazoniy tuzlari asosan arilaminlarga nitrozolovchi reagentlar ( $\text{HNO}_2 + \text{HX}$ ,  $\text{NOX}$ ,  $[\text{NO}]^+ \text{BF}_4^-$ ,  $\text{NO} + \text{NO}_2$ ,  $\text{RONO} + \text{HX}$ ) ta'sir ettirib olinadi (*diazotirlash reaksiyası*). Reaksiya  $0-5^\circ\text{C}$  da olib boriladi. Ushbu reaksiya 1858-yilda P. Gris tomonidan ochilgan.




Diazotirlash reaksiyasining mexanizmi ancha murakkab. Oraliq mahsulot sifatida N-nitrozoamin hosil bo'ladi deb taxmin qilinadi.



$\text{NaNO}_2$  ni kislota bilan o'zaro ta'siri natijasida  $\text{HNO}_2$  hosil bo'ladi. U o'z navbatida nitrozil birikmaga aylanadi:



N-nitrozoamin kislotali muhitda tautomer shakli bo'lgan diazogid-roksidga o'tadi. Diazogidroksid esa diazoniy kationiga aylanadi.




Diazoniy tuzlari odatda suvli eritmardan olinib, bevosita keyingi reaksiyalar uchun ishlatiladi. Kristall holatdagi arendiazoniy tuzlarini etanol eritmasida alkilnitritlar bilan kislotali muhitda diazotirlab olish ham mumkin. Ba'zi diazoniy tuzlari suvda kam eriydi, shuning uchun suvli eritmardan ajratib olish mumkin ( $\text{ArN}_2^+ \text{X}^-$ ,  $\text{X}=\text{BF}_4^-$ ,  $\text{ClO}_4^-$ ,  $\text{HgCl}_3$ , va boshqa kompleks anionlar).

### FIZIK XOSSALARI

Arendiazoniy tuzlari suvda eriydigan rangsiz kristall moddalardir. Arendiazoniy tuzlari beqaror, ba'zilari portlovchi moddalar, ayniqsa perdloratlari va nitratlari ishqalanishdan yoki qizdirish natijasida portlab ketishi mumkin. Tetraftorboratlari va boshqa kompleks anionli tuzlari nisbatan barqaror.

Arendiazoniy ioni bog'langan ion bo'lib, unda benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar va diazoniy guruhining uchbog'i o'rtaSIDA kuchli o'zarotasi vujudga keladi.




Ikkala azot atomi ham  $sp^2$ -gibriddlangan holatda bo'ladi. Ulardan bittasi musbat zaryadlanadi. Buning natijasida diazoniy guruhida elektron siljishi sodir bo'ladi.



Ikkinci azot atomi qisman musbat zaryadlanadi. Musbat zaryad ushbu atomda to'la lokallashadi. Shuning uchun diazoniy tuzlarining reaksiyalarida ikkinchi azot atomi asosiy reaksiya markazi bo'ladi.

N-N bog'ining uzunligi uchbog' uzunligiga muvofiq keladi.




Diazoniy guruhi eng kuchli elektronoakseptor guruhlardan hisoblanadi, bu jihatdan nitroguruhdan ham kuchliroqdir. Arendiazoniy ioni kuchli elektronoakseptor hisoblanadi.

### KIMYOVITX XOS SALARI

Arendiazoniy tuzlari uchun ikki xil turdag'i reaksiyalar xarakterlidir: azot atomining saqlanib qolishi bilan, hamda azot ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalar. Barcha reaksiyalar nukleofil reagentlar ta'sirida boradi.


Diazoniy kationi elektrofil zarracha sifatida (Lyuis kislotasi) elektronodonor reagentlar bilan zaryad ko'chirish kompleksi hosil qilishi va azot atomi bo'yicha birikish mahsuloti hosil qilishi mumkin. Kuchli donorlar ta'sirida erkin radikallar hosil bo'lishi bilan elektronning to'la ko'chishi va hosil bo'lgan radikallarning parchalanish va almashinish mahsulotlariga aylanishi mumkin. Termik o'zgarishlar alohida ahamiyatga ega, bunda karbokationlar hosil bo'lishi mumkin. Ayrim almashingan diazoniy tuzlari UB va ko'rindigan nurlar ta'sirida fotokimyoiy parchalanishga uchraydi.



Diazoniy tuzining kimyoviy o'zgarishlari

Nukleofil zarrachaning diazoniy guruhi birikishi natijasida doim *sin*-diazobirikma yoki azobirikma hosil bo'ladi. Bunday o'zgarishlarning sababi aniq emas. *sin*-diazobirikma va azobirikma juda oson *anti*-izomerga aylanadi.


1. Diazotatlar hosil bo'lishi. Diazoniy tuzi eritmasiga ishqor qo'shilsa diazotat tuzlari kristallga tushadi.




Diazotatlar — nisbatan barqaror moddalar bo'lib, suvda eriydi. Har bir diazoniy tuziga ikkitadan diazotat to'g'ri keladi. Eritmadan ajralib chiqadigan diazotat diazoniy tuzlarining ayrim xossalarini saqlab qoladi, masalan, fenollar, arilaminlar bilan azobirikish reaksiyalariga kirishadi. Ushbu diazotatni saqlash yoki kristallashdan keyin hosil bo'ladigan diazotat azobirikish reaksiyasiga kirishmaydi. Diazotat eritmalariga kislotalar ta'sir ettirilsa yana diazoniy tuzlari hosil bo'ladi. 1894-yilda A.Ganch *sin*- va *anti*- tuzilishli diazotatlar mavjudligini tushuntirib bergen.

Diazoniy ioni ishqoriy muhitda juda tez gidroksil ionini biriktirib *sin*-diazotatga aylanadi. U o'z navbatida sekin izomerlanadi va *anti*-diazotatga o'tadi. Izomerlanish reaksiyasi qizdirilganda va benzol halqasida elektronoakseptor o'rindbosarlar bo'lganda tezlashadi. Masalan, *sin*-p-nitrobenzoldiazotat 20°C da bir necha sekund davomida *anti*-izomerga aylanadi.

*Sin*- va *anti*-diazotatlar fazoviy tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. *sin*-izomer halqaning *ortho*- holatida kislород va vodorod atomlarining itarilishi natijasida planar strukturaga ega bo'lmasligi kerak. Bunday holatda sistemaning barqarorligi kamroq bo'ladi.



Yenolyat-ion kabi diazotat-ion bir nechta nukleofil reaksiyon markazli bog'langan ambident ion hisoblanadi. Elektrofil zarracha kislород yoki azot atomiga ta'sir etishi mumkin.




Diazotat-ion protonlanganda tautomer moddalar bo‘lgan diazogidroksid va N-nitrozamin hosil bo‘lishi mumkin.



Aniqlanishicha, kislotali xossasi kamroq bo'lgan tautomer barqarorroq bo'ladi. Aksariyat holatlarda N-nitrozaminning kislotaliligi kam. Kislotali muhitda diazoniy kationiga aylanadi.


2. Nukleofil reagentlar bilan reaksiyaları. Diazony tuzları nukleofil reagentlar bilan ta'sirlashib diazobirikmalar hosil qiladi.



Arendiazoniy tuzlari alifatik va siklik birlamchi, ikkilamchi aminlar bilan reaksiyaga kirishib diazoaminobirikmalar – triazenlar hosil qiladi. Triazenlar kislotali muhitda yana diazoniy tuzlariga aylanadi. Aromatik aminlar ham triazenlar hosil qiladi, lekin oxirgi mahsulot barqaror azobirikmalar hisoblanadi.


Arendiazoniy tuzlarining fenolyatlar va arilaminlar bilan reaksiyasi natijasida azobirikmalar hosil bo‘ladi. Bunda benzol halqasida elektrofil

o'rin olish reaksiyasi boradi. Reaksiya *azobirikish* deyiladi va azobo'yoqlar olishda fundamental ahamiyatga ega.



Azobirikish reaksiyasida dastlab *sin*-azobirikma hosil bo'ladi, keyin u tezda *anti*-azobirikmaga aylanadi.

Arendiazoniy tuzlari kislotali muhitda qaytarilganda arilgidrazinlar hosil bo'ladi.




3. Azot ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalar. Arendiazoniy tuzlari azot ajralib chiqishi bilan reaksiyaga kirishishi mumkin, bunda  $N_2^+$  boshqa guruhga almashishi mumkin. Mazkur reaksiyalar uch xil yo'l bilan amalga oshadi:

A) kuchli elektronodonorlar bilan, ba'zan katalizator ishtirokida ta'sirlashganda;

B) qizdirilganda;


D) UB nurlar bilan, ba'zan ko'rinaldigan nurlar yoritilganda.

A) Arendiazoniy tuzlarining nukleofil reagentlar va alkenlar bilan reaksiyalar. Arendiazoniy tuzlari yodidlar ta'sirlashib yodarenlar hosil qiladi va azot ajralib chiqadi. Reaksiya erkinradikal mexanizmi bo'yicha borishi taxmin qilingan.




Xloridlar va bromidlar arendiazoniy tuzlari bilan reaksiyaga kirishmaydi, chunki ular kuchsiz elektronodonorlar hisoblanadi. Biroq,

Cu(I) tuzlari ishtirokida reaksiya amalga oshishi 1884-yilda T.Zandmeyer tomonidan izohlab berilgan.



Ushbu reaksiyalarda Cu(I) tuzlari elektron tashuvchi vazifasini bajaradi:




Erkin radikallar diazoniy tuzi-mis tuzi kompleksida hosil bo'ladi va reaksiyaga kirishadi, lekin eritmada kinetik jihatdan mustaqil zarracha sifatida hosil bo'lmaydi.

Diazoniy tuzlarini nukleofil reagentlar bilan reaksiyasida katalizator sifatida boshqa o'zgaruvchan valentli metallarning tuzlari ham ishlatalishi mumkin.


Zandmeyer reaksiyasi kabi diazoniy tuzlari simob, qalay, surma, vismut tuzlari ishtirokida metallorganik birikmalar hosil bo'lishi bilan parchalanadi. Bunday reaksiyalar birinchi marta 1929-yilda A.Nesmeyanov tomonidan o'rganilgan. Masalan,



Arendiazoniy tuzlari mis tuzlari ishtirokida aktivlangan qo'shbog'li birikmalar bilan reaksiyaga kirishishi X.Meyerveyn tomonidan asoslab berilgan.




B) Termik parchalash reaksiyaları. Diazoniy tuzlari termik parchalanganda mahsulotlar aralashmasi chiqadi. Diazoniy tuzlarining suvli eritmalari kuchsiz nukleofillar va kompleks anionlar bilan qizdirilganda asosan fenollar hosil bo'ladi.




Parchalanish reaksiyasi ion mexanizmi bo'yicha ketadi deb taxmin qilinadi. Biroq erkin radikal mexanizm bo'lishi ham mumkin.

Arendiazoniy tuzlarni kuchsiz ishqoriy muhitda arenlar yoki geterosiklik birikmalar ishtirokida parchalanishi natijasida fenollar va bis-arillar hosil bo'ladi.




Arendiazoniy tuzlari alkanollar yoki oddiy esirlar ishtirokida qizdirilsa diazoniy guruhi vodorod atomiga almashadi. Reaksiya natijasida arenlar va biroz alkilaril esirlar hosil bo'ladi. Reaksiya diazoniy tuzlarini gomolitik parchalanishi hisoblanadi. Alkanollar va ularning hosilaari vodorod atomining manbayi bo'lib xizmat qiladi.




Reaksiya preparativ ahamiyatga ega bo'lib, arilaminlar molekulasiidan aminoguruuhni ajratish uchun qo'llaniladi.


Bundan tashqari diazoniy tuzlari gipofosiftlar bilan qaytarilganda ham arenlar hosil bo'ladi.



Arendiazoniylarning borstoridlari o'ziga xos termik parchalanishga uchraydi. Ular 100°C dan yuqori temperaturada qizdirilsa fторarenlar hosil bo'lishi Bals va Shiman tomonidan amalga oshirilgan.



D) Fotokimyoviy parchalanish molekulasida elektronodonor guruhlar tutuvchi arendiazoniy tuzlari uchun xosdir.



Molekulaga yorug'lik ta'sir ettirilganda va ma'lum miqdorda energiya yutilganda elektronodonor guruhdan akseptor diazoniy guruhiga ichki molekulyar zaryad ko'chishi kuzatiladi. Natijada uglerod-azot bog'i uzeladi va azot ajralib chiqadi.

Bunday diazoniy tuzlari kumushsiz fotografiya, yoki *diazotipiya* yo'lli bilan ma'lumotlarni yozishda qo'llaniladi.

---

## TO'RTINCHI QISM

### GETEROSIKLIK BIRIKMALAR

Molekulasida halqa hosil bo'lishida uglerod atomlaridan tashqari boshqa atomlar ham ishtirok etishi natijasida hosil bo'lgan moddalar geterosiklik birikmalar deb ataladi.


Geterosiklik birikmalar siklik uglevodorodlar halqasidagi bitta yoki bir nechta uglerod atomlarini boshqa atomga – geteroatomga almasinishidan hosil bo'ladi. Odatda geteroatom sifatida azot, kislород va oltingugurt uchraydi. Ba'zan fosfor, selen ham bo'lishi mumkin.

Geterosiklik birikmalar sikldagi atomlar soniga, geteroatomning turiga va soniga qarab sinflanadi.

Halqadagi geteroatom tegishli prefikslar bilan belgilanadi. Masalan, kislород *oksa-*, azot *aza-*, oltingugurt *tia-*, fosfor *fosfa-*. Ushbu qo'shimchalar tegishli karbosiklik birikma nomiga qo'shiladi.

IYUPAK nomenklaturasiga muvofiq siklning kattaligi maxsus suffiks bilan belgilanadi. Uch a'zoli sikllar *-irin* (azot tutmaydigan sikllar *-iren*), to'rt a'zoli sikllar *-et*, besh a'zoli sikllar *-ol*, olti a'zoli sikllar *-in*, yetti a'zoli sikllar *-yepin*, sakkiz a'zoli sikllar *-otsin* suffikslari bilan nomlanadi. Geteroatomning turi tegishli o'zak so'zi bilan ko'rsatiladi: *oksa-*, *ti-*, *az-* va h. k. Bir xil geteroatomlarning soni esa *di-*, *tri-* va boshqa prefikslar bilan ko'rsatiladi. Agar geterosiklda bir necha xil geteroatom bo'lsa, ular quyidagi ketma-ketlikda belgilanadi: *oksa-*, *tia-*, *selena-*, *aza-*, *fosfa-*, *arsa-* va h.k.

Ikkita va undan ortiq kondensirlangan sikllardan iborat geterosiklik birikmalarda geteroatomlar bitta siklda joylashgan bo'lsa, qolgan sikllar benzol sikli bo'lsa bunday birikmalar **benzologlar** deyiladi. Mazkur birikmalarning nomiga benz- (yoki benzo-), dibenz- (yoki dibenzo-) prefikslari qo'shiladi. Benzol siklining holatini ko'rsatish uchun geterosiklik birikmaning bog'ları a, b, c, d, e va boshqa harflar bilan belgilanadi. Belgilash geteroatom-uglerod bog'idan boshlanadi. Masalan, benz[b]piridin.





Geterosiklik birikmaning nomida geterosiklning qo'shbog'lar sistemasini to'yinganlik (gidridlanish) darajasi ham ko'rsatiladi. Asosiy nom odatda eng ko'p qo'shbog' tutuvchi siklga tegishli bo'ladi. To'la gidridlangan birikmaning nomiga *-idin* yoki *-an* qo'shimchalari qo'shiladi. Qisman gidridlangan birikmalarning nomi *digidro-*, *tetragidro-* kabi qo'shimchalar qo'shish bilan yasaladi va vodorod atomlari birikkan atomlar raqamlar bilan ko'rsatiladi. Agar vodorod bitta atomga birikkan bo'lsa H harfi bilan belgilanadi, yoki gidridlangan atom raqam bilan ko'rsatiladi.


Geterosiklik birikmalarning hosilalarini nomlash uchun sikldagi atomlar raqamlanadi. Raqamlash geteroatomdan boshlanib o'rinosbasar yaqin turgan tomonga qarab amalga oshiriladi. Agar siklda ikkita va undan ortiq geteroatom bo'lsa, raqamlash O, S, Se, Te, N, P, As, Sb, Bi, Si, Ge, Sn, Pb, Hg tartibida bo'ladi. Ko'plab geterosiklik birikmalar uchun trivial nomenklatura saqlanib qolgan.

## 28-BOB. BESH A'ZOLI BITTA GETEROATOMLI GETEROSIKLIK BIRIKMALAR

Geterosiklik halqa hosil bo'lishida bitta geteroatom va to'rtta uglerod atomi ishtirok etgan bo'lsa, bunday moddalarni besh a'zoli, bir geteroatomli birikmalar deb ataladi. Bunday birikmalarga asosan pirrol, furan, tiofen, hamda ularning hosilalari kiradi. Pirrol, furan va tiofening hosilalarini nomlashda o'rinnbosarning joylashgan holati  $\alpha$  va  $\beta$  harflari bilan yoki raqamlar bilan ko'rsatiladi.




2,5-dimetilpirrol



2-furankarbaldegid,  
furfurol

Bundan tashqari pirrol, furan va tiofening qisman to'yingan va to'yingan hosilalari ham mavjud.



2,3-digidro-  
pirrol



2,5-digidro-  
pirrol



1,2-digidro-  
pirrolidin




pirrolidin



tetragidro-  
furan


### *OLINISH USULLARI*

Pirrol, furan, tiofen va ularning hosilalari tabiiy manbalardan, hamda sintetik usullar bilan olinadi.



$\gamma$ -dikarbonil birikmalarning nukleofil reagentlar bilan reaksiyasi natijasida geterosiklik birikmalar, jumladan pirrol, furan, tiofen hosilalari hosil bo'ladi (yuqoridagi chizma).


Furan katalizator ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ) ishtirokida ammiak bilan  $400-500^\circ\text{C}$  da qizdirilsa pirrol, vodorod sulfid bilan qizdirilsa tiofen hosil bo'ladi. Amalda qarama-qarshi o'zgarishlar ham boradi. Reaksiyani 1936-yilda Yu.K.Yuryev ochgan. Ushbu halqali reaksiya Yuryev sikli deb nom olgan.




Pirrol dan tiofen hosil bo'lishi yoki tiosendan furan hosil bo'lishining unumi 2 %dan ortmaydi. Furandan pirrol va tiofen olish reaksiyasigina amaliy ahamiyatga ega.

**Spetsifik olinish usullari.** Pirrol oz miqdorda toshko'mir tarkibida o'ziga xos bo'ladi. Ayrim oqsillar quruq haydalganda ham pirrol hosil bo'ladi.

Pirrol aldogeksozalarni oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan shakar kislotalarining ammoniyili tuzlarini qizdirib olinadi:



Aldopentozalar kislotalar ishtirokida degidratlanib furfurol hosil qiladi. Aldogeksozalar bunday sharoitda 5-oksimetilfurfurolga aylanadi.



Shakar kislotalari 2-furankarbon kislota (piroslez kislotas) hosil qiladi. Furfurol furan va uning hosilalarini olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

Tiofen toshko'mir smolasni tarkibida uchraydi, benzol bilan birgalikda haydaladi. Shuning uchun benzol ishlatalishidan avval tiofen bor yoki yo'qligiga tekshirib ko'riladi. Tiofenni benzoldan kimyoviy usullar bilan ajratiladi, masalan, konsentrangan sulfat kislota (tiofen sulfolanadi) yoki simob atsetat bilan ishllov beriladi. Simob atsetat ta'sirida simoborganik birikma hosil bo'lib, u kislota ta'sirida toza tiofenga aylanadi.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Pirrol, furan va tiofen biroz xushbo'y hidli, rangsiz suyuq, katta molekulyar massali hosilalari esa kristall moddalardir. Pirrol, furan va tiofening molekulalari qo'shbog'lar va taqsimlanmagan elektronlarga ega bo'lgan atomdan iborat sistema hosil qiladi. Rasman 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik bog'langan sistema hosil bo'ladi. Bundan kelib chiqib Xyukkel qoidasiga binoan mazkur birikmalar «aromatik» xarakterga ega.

Geteroatomning taqsimlanmagan  $\pi$ -elektronlari elektronodonor ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun sikldagi uglerod atomlarida  $\pi$ -elektronlarning zichligi ortadi.

Besh a'zoli geterosikllarning delokallanish energiyasi benzolga qaraganda kam (taxminan 150 kJ/mol). Energiya quydagicha kamayib boradi: tiofenda ~120 kJ/mol, pirrolda ~110 kJ/mol, furanda ~80 kJ/mol. Dipol momenti geteroatomdan siklga tomon yo'nalgan.


Pirrol, furan va tiofen elektronodonor birikmalar hisoblanadi. Ularning ionlanish energiyasi benzolning ionlanish energiyasidan kam bo'lib, tegishli ravishda 8.2, 8.9 va 9.0 eVni tashkil qiladi.

Pirrol, furan va tiofendagi uglerod-uglerod, uglerod-azot, uglerod-kislrorod va uglerod-oltigugurt bog'larining uzunligi oddiy bog'larning uzunligidan kamroq ( $C-C = 0,142-0,144$  nm,  $C-N = 0,142$  nm,  $C-O = 0,136$  nm,  $C-S = 0,171$  nm). Bu bog'langan qo'shbog'li sistema hosil bo'lishini ko'rsatadi.

MO metodi bo'yicha hisoblashlar natijasida yuqoridagi sistemalar  $\pi$ -elektronlarning siklik delokallanishi natijasida stabillashadi. Siklik

delokallanish energiyasi geteroatomning elektromansiyligiga va C-X bog'ining rezonans integraliga bog'liq. Siklik delokallanish energiyasi taxminan 0,6  $\beta$  (furanda) dan 0,9  $\beta$  (tiofenda) gacha oraliqda bo'lishi mumkin.

Aksariyat holatlarda  $\beta$ -holatda elektronlar zichligi  $\beta$ -holatdagidan kattaroq bo'ladi. Buni quyidagi tasvirdan ham ko'rish mumkin:




Pirrol, furan va tiofen spektrning UB sohasida nur yutadi. Bu jihatdan benzolga o'xshaydi (furandan tashqari). Intensiv yutilish uzoq UB da (180–210 nm) va kam intensiv yutilish 230–270 nm sohada kuzatiladi.


### KIMYOVITY XOSSALARI

Pirrol, furan va tiofen katalizatorlar ishtirokida, qizdirish va bosim ostida gidridlanadi. Reaksiya natijasida tetragidro- birikmalar hosil bo'ladi. Tiofen va uning birikmalari nisbatan qiyin gidridlanadi. Maxsus sharoitda tiofen sikli ochilishi mumkin:

Pirrol, furan va tiofen kuchli kislotalar bilan ta'sirlashadi. Pirrol, furan va ularning hosilalari kislotalar bilan ta'sirlashib smolalanadi



(oligomerlanadi va polimerlanadi), tiofen sulfat kislota ishtirokida sulfolanadi. Bunday holatda pirrol va furanning, qisman tiofenning *atsidofob* xossasi kuzatiladi. Atsidofoblik protonning asosan  $\alpha$ -holatga birikishi bilan, stabillashgan yopiq sistemaning buzilishi bilan bog'liq. Hosil bo'lgan diyen sistemaning keyingi o'zgarishlariga uchraydi.




Pirrol nisbatan oson, tiofen qiyinroq protonlanadi, shuning uchun u kamroq atsidofobdir.


Molekulaga elektronoakseptor o'rinxbosarlarni kiritilishi natijasida pirrol, furan va tiofening proton biriktirish qobiliyati keskin kamayadi va ularning atsidofobligi ham kamayadi.

Pirrol, furan, tiofen va ularning hosilalari har xil elektrofillar bilan ta'sirlashadi. Ularning faolligi ionlanish energiyasi qiymatlariga muvofiq keladi, ya'ni pirrol nisbatan oson, tiofen esa qiyin reaksiyaga kirishadi. Geterosiklning, elektrofil reagent turiga va reaksiya sharoitiga ko'ra har xil birikmalar hosil bo'ladi: elektrofil almashinish yoki birikish sodir bo'lishi, yoki atsidfoblik kuzatilishi mumkin.

Pirrolning elektronodonorligi yuqoriqoq bo'lganligi uchun kuchsiz elektrofillar, masalan, diazoniy tuzlari, aldegidlar bilan oson ta'sirlashadi. Pirrolning bromlanishi va yodlanishi natijasida tetragalogenli birikmalar hosil bo'ladi. Pirrolni to'g'ridan-to'g'ri nitrolash amalda mumkin emas.  $\alpha$ -nitropirrol pirrol tuzlaridan olinadi. Sulfolash esa yumshoq sharoitlarda kompleks ho'latda birikkan  $\text{SO}_3^-$ , masalan, piridinsulfotrioksid ta'sirida olib borilishi A.P.Terentyev tomonidan asoslab berilgan.



Furan kislotalarning angidridlari bilan Lyuis kislotalari ishtirokida atsillanadi. Piridinsulfotrioksid ta'sirida sulfolash reaksiyasi oson boradi. Nitrolash reaksiyasi esa suvsiz nitrat kislotosi ta'sirida sirka angidridi eritmasida boradi. Bunda atsetilnitrat  $\text{CH}_3\text{COONO}_2$  nitrolovchi reagent hisoblanadi. Oraliq birikish mahsulotini ajratib olish mumkin:




Bunday 2,5-birikish mahsulotlari furan va uning hosilalarini reaksiyalarida, masalan, nitrolashda ko'proq kuzatiladi. Bu hodisa furan sistemasining siklik delokallanish energiyasi ancha kamligini ko'rsatadi.


Tiofen oson galogenlanadi, atsillanadi, sulfat kislotosi bilan sulfolanadi, atsetilnitrat bilan nitrolanadi.

Elektrofil o'rinx olish reaksiyalarini deyarli to'laligicha ikkinchi holat bo'yicha boradi. Bu oraliq ion A ning B ionga nisbatan energetik qulay


tuzilishi, hamda ikkinchi holatda YuBMO dagi elektronlar zichligining kattaligi bilan bog'liq.



Pirrol va uning hosilalarini kimyoviy xossalari. Pirrol qutbli azot-vodorod bog'i tutadi va kuchsiz N-H kislota hisoblanadi ( $pK_a \approx 16.5$ ).



Kislotaliligi jihatdan pirrol etanolga yaqin turadi. Pirrolning tuzlari pirrolga ishqorlar, alkoxsidlar va metallorganik birikmalar ta'sir ettirib olinadi. Pirrol anioni siklopentadiyenid-ion kabi bog'langan ion bo'lib bir nechta reaksiya markaziga ega (azot atomi, 2- va 3- holatlardagi uglerod atomlari).




R=alkyl, aryl; X=halogen

Pirrol tuzlari pirrol molekulasiga alkil yoki atsil guruhlari kiritish uchun ishlataladi.


Past temperaturalarda asosan N-almashingan, yuqori temperaturalarda esa C-almashingan birikmalar hosil bo'ldi.

Formilatsetat bilan reaksiya natijasida pirrolkarbaldegid, alkilnitratlar bilan esa — nitropirrol hosil bo'ladi. Pirrolning formaldegid bilan reaksiyasi natijasida dipirrilmetan hosil bo'lib, uni pirrometengacha oksidlash mumkin.




Pirrol yoki pirrolkarbaldegidni chumoli kislotasi bilan kondensatsiyasi natijasida ham pirrometen hosil bo‘ladi. Pirrometenlar porfirinlar sintezida oraliq mahsulot sifatida hosil bo‘ladi.

Furan ko‘plab reaksiyalarda 1,3-dien kabi reaksiyaga kirishadi; masalan, malein angidridi bilan diyen sintezi reaksiyaga kirishadi.




3,6-endoko-1,2,3,6-tetrahydrophthalik kislotasining angidridi

Pirrolning qaytarilgan halqasi tabiiy aminokislotalar -prolin va oksiprolin tarkibiga kiradi.




Porfin molekulasi makrosiklik bog‘langan sistemadan iborat bo‘lib, to‘rtta pirrol halqasi tutadi. Ikkiti azot atomi metall atomiga almashishi mumkin. Buning natijasida barqaror komplekslar hosil bo‘ladi.




Almashingan porfinlar *porfirinlar* deyiladi. Ular muhim tabiiy birikmalarining asosini tashkil qiladi.

Qonning qizil rangli moddasi — gemoglobin xromoproteid bo'lib, uning oqsil bo'lмаган qismi gem ikki valentli temir ioni tutuvchi porfirin hisoblanadi. Oksidlangan gem- *gemin* uch valentli temir ioni tutadi. Gemning tuzilishini birinchi marta G.Fisher 1927-yilda aniqlagan va to'la sintezini amalga oshirgan.



O'simliklarning yashil pigmenti — *xlorofill* qisman gidridlangan porfin halqasida kompleks bog'langan magniy tutadi. Propion kislotasining qoldig'i fitol spirti bilan eterifikatsiyalangan ( $C_{20}H_{39}OH$ ).



O'simliklardan qoramtil tusli xlorofill *a* va yashil tusli xlorofill *b* ajratib olingan. Xlorofill optik faol. Xlorofillarning strukturasi R.Vilshtetter, M.Shtol va G.Fisherlar tomonidan 1913–18-yillarda aniqlangan. To'la sintezi 1956–60-yillarda R.Vudvord boshchiligidagi amalga oshirilgan.

Xlorofillar fotosintez jarayonida mutlaq ahamiyatga ega: yorug'lik energiyasini kimyoviy energiyaga aylantiradi. Pirrolning muhim tabiiy hosilalaridan biri siankobalamin yoki  $B_{12}$  vitamini hisoblanadi. Bu birikma qizil rangli kristall bo'lib, suvda eriydi, mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqariladi. Siankobalaminning tuzilishini 1948–56-yillarda rentgenografik usul bilan D.Kroufut-Xodjkin aniqlagan.


Uning strukturasi asosini to'rtta qisman gidridlangan pirrol qoldig'idan iborat makrosikl tashkil qiladi.

Siankobalaminning to'la sintezi 1960–71-yillarda R.Vudvord va A.Eshenmozer boshchiligidagi amalga oshirilgan.

Sanoatda siankobalamin mikrobiologik yo'l bilan olinadi. Siankobalamin kamqonlik – anemiyaga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

**Furan va uning birikmalari.** Furan – xloroform hidli rangsiz suyuqlik bo‘lib, 31.3°C da qaynaydi. Saqlanishi davomida qorayib smolaga aylanadi.

Sanoatda furan furfurolni ruxxrom katalizatori yordamida dekarbonillab olinadi.




Laboratoriya sharoitida furan 2-furankarbon kislotasini mis birikmalari ishtirokida dekarboksillab olinishi mumkin.

Furan organik sintezda qo‘llaniladi, undan tetragidrofuran, pirrol, pirrolidin, malein va qahrabo kislotalarining dialdegidlari olinadi.


Furfurol – rangsiz yoki sarg‘ish tusli, yangi pishirilgan non hidli suyuqlik bo‘lib, 162°C da qaynaydi, suvda 9 % eriydi.

Furfurol pentozan polisaxaridlar tutuvchi o’simlik moddalariga kislotalar ta’sir ettirib olinadi.


Furfurol benzaldegidga xos barcha reaksiyalarga, shuningdek, furan halqasi bo‘yicha reaksiyalarga kirishadi. Shuning uchun furfurol organik sintezda muhim xomashyodir. Furfurolni gaz fazasida katalizator sirtida oksidlab malein angidrid olinadi. Atsetilnitrat bilan nitrolash natijasida 5-nitrofurfuoldiatsetat hosil bo‘ladi.



5-Nitrofurfuoldiatsetat 5-nitrofurfuol hosilalarini sintez qilish uchun dastlabki modda hisoblanadi, mazkur birikma meditsina va veterinariyada kuchli bakteritsid sifatida ishlataladi:




R= -NHCONH<sub>2</sub>



furatsilin

furadonin




furazolidon

Tiofen benzol hidiga o'xshash hidli rangsiz suyuqlik bo'lib, 84,1°C da qaynaydi, suvda erimaydi.

Tiofen toshko'mir smolasidan olinadi yoki butan va oltingugurtdan (yoki vodorod sulfiddan) maxsus katalizator ishtirokida sintez qilinadi. Tiofen organik sintezda ishlataladi.



A.G. Maxsumov, T.Yu. Nasriddinov, I.R. Asqarov molekulalasida diatsetilen guruhi saqllovchi temirorganik birikmalardan vodorod sulfidi yordamida 2,5-al mashgan tiofen hosilalarini quyidagi reaksiya asosida amalga oshirdilar:



Olingan moddalar orasida biologik faol birikmalar borligi isbotlandi.

## 28.1. INDOL


Indol va karbazol pirrolning benzologlari hisoblanadi. Indoldagi atomlar geteroatomdan boshlab, karbazoldagi atomlar esa benzol halqasidagi uglerod atomidan boshlab raqamlanadi. Geterosikldagi uglerod atomlari ba'zan  $\alpha$  va  $\beta$  harflari bilan ham belgilanadi.




## OLINISHI

Indol va karbazol toshko'mir smolasidan olinadi. Indol va uning ayrim hosilalari tabiiy birikmalar tarkibida ham uchraydi. Indol, karbazol va ularning hosilalari sintetik yo'llar bilan ham olinadi.


Sintetik usullardan eng ko'p qo'llaniladigani fenilgidrazonlarni kislotalar, masalan, sulfat, fosfat, xlorid, polifosfat kislotalari, bor storid, rux xloridlar ishtirokida siklash reaksiyasidir (E.Fisher, 1883-y.).



Taxmin qilinishicha, Fisher reaksiyasida kislota ishtirokida gidrazonlarni gidrazinlarga keyinchalik sigmatrop qayta guruhlanishi ( $N-N$  bog'larni kelishilgan parchalanishi va  $C-C$  bog'larning hosil bo'lishi) va pirrol siklni hosil bo'lishi bilan kechadigan izomerlanishi sodir bo'ladi.



Karbazol va uning hosilalari sintezi. Karbazol hosilalarini olish uchun bifenil hosilaari boshlang'ich modda bo'lishi mumkin. Masalan:



## FIZIK-KIMYOVIV XOSSALARI

Indol, karbazol va ularning hosilalari rangsiz kristall moddalar bo'lib, sunda erimaydi. Indol va uning alkil hosilalari o'ziga xos yoqimsiz hidga ega.


Indol va karbazol siklik bog'langan sistemaga ega. Indolni benzolning analogi deb, karbazolni esa fenantrenning analogi deb qarash mumkin. Indol va karbazol aromatik tabiatga ega.

Indol va karbazolda azot atomi elektronodonor ta'siri kuzatiladi. Shuning uchun uglerod atomlarida, ayniqsa indoldagi 3, 5 va 7 holatlardagi uglerod atomlarida va karbazoldagi 1, 3, 6 va 8 uglerod atomlarida elektronlar zichligi nisbatan yuqori.


Indol va karbazol elektronodonor birikmalar bo'lib, ularning ionlanish energiyasi tegishli ravishda 7,8 va 7,6 eV ni tashkil qiladi.

Indol elektronodonor birikma va kuchsiz asos sifatida elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashadi. Odatda reaksiya 3 holatdagi uglerod atomi hisoblanadi (pirrol bilan taqqoslang!). Bu benzol halqasining ta'siri bilan izohlanadi. Shuningdek indol kuchsiz NH-kislota sifatida tuzlar ham hosil qiladi.

Kislotalar ta'sirida indol 3 holatdagi uglerod atomi bo'yicha protonlanadi va bog'langan sistema buzilib faol C=N<sup>+</sup> qo'shbog' hosil bo'ladi, natijada indol keyingi o'zgarishlarga uchraydi (dimerlanish, oligomerlanish va h.k.):




Indol yaqqol elektronodonor xossasiga ega bo'lganligi va atsidosobligi uchun kuchli elektrofillar bilan ta'siri natijasida odatda oksidlanish va oligomerlanish reaksiyalari kuzatiladi. Kuchsizroq elektrofillar ta'sirida 3 holatdagi uglerod atomi bo'yicha o'rin olish reaksiyasi boradi. Agar bu holatda boshqa o'rinosarlar bo'lsa elektrofil reagent 2 holatdagi uglerod atomiga ta'sir etadi. Sulfolash reaksiyasi piridinsulfotrioksid ta'sirida, bromlash reaksiyasi bromning dioksan bilan kompleks birikmasi ta'sirida boradi. Formaldegid ta'sirida esa Mannix reaksiyasi kuzatiladi.





Ayrim elektrofil o‘rin olish reaksiyalari indolning metall hosilalari – tuzlari orqali boradi. Indol kuchsiz oksidlovchilar ta’sirida ko‘k rangli bo‘yoq – indigogacha oksidlanadi.

Indol kuchsiz NH-kisloota hisoblanadi ( $\text{p}K_a = 16 \dots 17$  pirrolning kislotaliligi bilan taqqoslang). Ishqorlar, alkoksidlar, metallorganik birikmalar ta’sirida indol tuzlari hosil bo‘ladi.




Indol tuzlari yuqori nukleofil faoliyka ega, alkilanishi, atsillanishi, alkilnitratlar bilan nitrolanishi mumkin. Azot atomi va 3-holatdagi uglerod atomi reaksiya markazlari bo‘lishi mumkin. C- va N-hosilalarning nisbati reaksiya temperaturasi, metall tabiatiga va erituvchiga bog‘liq.



## 28.2. KARBAZOL

Karbozol yoki dibenzopirrol sezilarli elektronodonor xossalarga ega, elektronoakseptorlar (masalan, xinonlar, polinitroarenlar) bilan rangli zaryad ko'chirish komplekslarini hosil qiladi.




Kimyoviy xossalari jihatdan karbazol difenilaminga o'xshab ketadi, juda kuehsiz asos va kuchsiz kislota hisoblanadi. Ishqorlar ishtirokida atsetilen bilan reaksiyaga kirishib N-vinilkarbazol hosil qiladi.

### **MUHIM VAKILLARI VA HOSILALARI**


*Indol* – rangsiz, noxush hidli kristall modda, 52°C da suyuqlanadi, 253°C da qaynaydi. Organik sintezda fiziologik faol moddalar olshida va parfyumeriyada ishlatiladi.

*Indoksil* (3-gidroksiindol) – sarg'ish rangli, noxush hidli kristall modda, 85°C da suyuqlanadi, eritmalarida tautomerlanadi:




Indoksil kristall holatda keto-shaklda (3-oksoindolin) mavjud bo'ladi. Uning kislotaligligi fenolga yaqin turadi.


Indoksil *indikan* glikozidi shaklida *indigofera* turkumi o'simliklarida uchraydi. Indikan fermentlar ta'sirida gidrolizlanib indoksil va glyukozaga aylanadi.



Sanoatda indoksil fenilaminosirka kislotasini siklizatsiyalab olinadi.




Indoksil odatda toza holatda chiqmaydi, balki havo kislorodi ta'sirida, ayniqsa ishqoriy muhitda oson oksidlanib ko'k rangli bo'yq modda-indigoga aylanadi.




*Indigo* yoki indigotin – ko'k rangli qiyin suyuqlanadigan va kam eriydigan kristall modda. Qadimda indigofera turkumi o'simliklaridan olingan. Sintetik indigo fenilaminosirka kislotasidan olinadi.

Indigo kub bo'yoqlar qatoriga kiradi, ya'ni suvdan erimaydi. Suvda eriydigan holatga o'tkazish uchun qaytariladi. Hosil bo'lgan eritma bilan mato bo'yalgandan keyin oksidlash yo'li bilan matoga mustahkamlanadi (fiksatsiyalanadi). Qaytaruvchi sifatida odatda natriy ditionit  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_4$  qo'llaniladi.



Kuchli oksidlovchilar ta'sirida indigo izatinga, ya'ni indolindion-2,3 ga aylanadi.




Indol halqasi bir qator biologik faoliyat moddalar tarkibiga kiradi.


*Triptofan* ( $\alpha$ -amino- $\beta$ -(3-indolil)-propion kislotasi) – tarkibida indol tutuvchi, inson organizmi uchun almashtirib bo'lmaydigan muhim aminokislotalardan biri.



*Serotonin* (3-aminoethyl-5-gidroksiindol) – indol qatoriga mansub biogen amin hisoblanadi. Ushbu modda yuqori biologik faollikka ega, markaziy nerv sistemasida nerv impulslarini o'tkazilishida qatnashadi. Organizmda triptofandan hosil bo'ladi.




Indol qoldig'i ko'plab alkaloid moddalar tarkibiga ham kiradi. Bunday alkaloidlar guruhi *indol alkaloidlari* deb yuritiladi. Masalan, *rezerpin* rauvolfiya turkumi o'simliklaridan ajratib olingan. Uning tuzilishi va to'liq kimyoviy sintezi 1956-yilda R.Vudvord tomonidan amalga oshirilgan.



Rezerpin – rangsiz kristall modda, suvda erimaydi, 284–285°C da suyuqlanadi, kislotalar bilan suvda eriydigan tuzlar hosil qiladi. Rezerpin optik faol  $[\alpha]_D = -118^\circ$  ( $\text{CHCl}_3$ ).

Rezerpin tibbiyotda qon bosimini tushiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi (markaziy nerv sistemasiga ta'sir etadi).

Lizergin kislotosi ayrim zamburug'lar alkaloidlari tarkibida uchraydi.



Uning tuzilishi 1936-yilda aniqlangan, to'liq sintezini 1954-yilda R. Vudvord amalga oshirgan.

Lizergin kislotosi 238°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, kislotalar va ishqorlar bilan tuz hosil qiladi, optik faol,  $[\alpha]_D = +40^\circ$ .

Lizergin kislotosining amidi-ergin yuqori fiziologik faollikka ega, qon tomirlarini toraytiradi, bachadon muskullariga ta'sir qilib, tug'ishni osonlashtiradi.

Lizergin kislotosining dietilamidi *LSD-25* preparati kuchli gallyusinogen vosita.

N-Vinilkarbazol – 65°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Oson polimerlanib polivinilkarbazol (PVK) hosil qiladi. Ushbu polimerdan shaffof plyonkalar olinadi. Bunday plyonkalar elektron-fotografiyada qo'llaniladi.

## **29-BOB. BESH A'ZOLI, IKKI VA UNDAN ORTIQ GETEROATOMLI GETEROSIKLIK BIRIKMALAR**

Molekulasida ikki va undan ortiq geteroatomli birikmalarga pirazol va imidazol, triazol, tetrazol kabi moddalarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.


Pirazol va imidazol hosilalarini nomlash uchun sikldagi atomlar N-H dagi azot atomidan boshlab ikkinchi azot atomi tomoniga raqamlanadi.

Pirazol va imidazolning to'rttadan monoalmashigan hosilalari bo'lishi mumkin. 3- va 5- almashigan pirazol, hamda 4- va 5- almashigan imidazollar muvozanat tautomer aralashmalar hosil qiladi.


Pirazol yoki gidropirazollarni (pirazolin, pirazolidin) hosil qilish uchun C-C-C va N-N guruhlarini tashkil qiluvchi komponentlar zarur. Birinchi komponent sifatida  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalar, yoki  $\beta$ -dikarbonil birikmalar, ikkinchi komponent sifatida gidrazin va uning hosilalari ishlataladi.

Bundan tashqari alkenlar yoki alkinlar va diazobirikmalardan ham foydalanish mumkin.


1.  $\beta$ -dikarbonil birikmalar va gidrazinlar ishtirokidagi sintezlar. Gidrazinlar  $\beta$ -diketonlar bilan oson reaksiyaga kirishadi:




$\beta$ -oksokislotalarning efirlari gidrazinlar bilan ta'sirlashib pirazolonlar (gidrosipirazollar) hosil qiladi:




Malon kislotasining efirlari gidrazinlar bilan reaksiyaga kirishib pirazolidindionlarga aylanadi:




2. Diazoalkanlar ishtirokidagi reaksiyalar. Atsetilen va uning hosilalari diazoalkanlar bilan reaksiyaga kirishib pirazollar hosil qiladi (1,3-dipolyar birikish).




Imidazol yoki uning gidridlangan hosilalarining halqalarini hosil qilish uchun  $\alpha$ -karbonil birikmalarning ammiak va aldegidlar bilan, hamda  $\alpha$ -gidroksikarbonil birikmalarning amidinlar bilan reaksiyalaridan foydalaniladi:






Pirazol, imidazol va ularning hosilalari rangsiz, asosan kristall moddalardir. Pirazol va imidazol halqalari 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik bog'langan sistemalar hosil qildi, ya'ni shartli ravishda Xyukkel qoidasi bajariladi. Azot atomining taqsimilanmagan elektronlari elektronodonor sifatida qatnashadi. Pirazol, ayniqsa imidazol halqasi katta dipol momentiga ega ( $\mu=7,3 \cdot 10^{-30} \text{ KJ} \cdot \text{m}$ ,  $2,2 \text{ D}$ ,  $\mu=13,3 \cdot 10^{-30} \text{ KJ} \cdot \text{m}$ ,  $4,0 \text{ D}$ ).

Pirazol va imidazol atomidagi ikkinchi azot atomining elektromansiyligi kattaroq, uning taqsimilanmagan elektron justi halqadan tashqariga yo'nalган va elektronlarning siklik delokallanishida qatnashmaydi.




Pirazol va imidazol halqalari pirrol halqalariga nisbatan barqarorroq, ya'ni aromatik xossalari kuchliroq.

Pirazol va imidazol amfoter birikmalar, ya'ni kuchsiz NH-kislotalar va o'rtacha kuchli asoslar hisoblanadi.



pirazoliy kationi




imidazoliy kationi

Imidazol nisbatan kuchliroq asos xossasiga ega. Pirazol va imidazol halqalari protonlanganda siklik elektron sistema buzilmaydi. Musbat zaryad ikkala azot atom bo'yicha teng delokallashadi, pirazol halqasida 3- va 5- atomlar bo'yicha, imidazol halqasida 2-atom bo'yicha esa qisman delokallashadi.


Elektrofil reagentlar birinchi navbatda pirazol halqasidagi ham, imidazol halqasida ham ikkinchi azot atomiga hujum qiladi. Hosil bo'lgan pirazoliy va imidazoliy kationlari kuchli elektrofil reagentlar ta'sirida almashinish mahsulotlariga aylanadi. Shunday yo'l bilan nitrolash, sulfolash, galogenlash reaksiyalarini o'tkazish mumkin. Pirazolda 4-holat bo'yicha, imidazolda 4- va 5-holatlar bo'yicha almashinish mahsulotlari chiqadi. Alkillash va atsillash natijasida N-almashingan birikmalar hosil bo'ladi.

Pirazol va imidazol tuzlari kuchsiz elektrofil reagentlar bilan oson ta'sirlashadi.

**Pirazolonlarning kimyoviy xossalari.** Pirazolonlar (gidroksipirazollar) kuchsiz asoslar hisoblanadi va qisman kislota xossalariga ega. Pirazolonlar tautomer sistemalar hosil qiladi. Pirazolon-5 hosilalari muhim ahamiyatga ega.



Kristall holatda C-shakli nisbatan barqaror. Pirazolonlarning tautomerlanishi va ko'plab reaksiyalarini uchta reaksiyon markazga ega bo'lgan anion orqali ketadi. Masalan, azobirikish reaksiyasi uglerod atomi bo'yicha, alkillash reaksiyasi azot atomi bo'yicha boradi.



Pirazolonlar kimyoviy xossalar jihatdan siklik  $\beta$ -diketonlarga o‘xshab ketadi.

### MUHIM VAKILLARI

*Pirazol* – 70°C da suyuqlanadigan, 187°C da qaynaydigan rangsiz kristall modda, biroz piridin hidi keladi.




Pirazol 3,5-dimetilpirazolni 3,5-pirazoldikarbon kislotagacha oksidlаб va hosil bo‘lgan kislotani dekarboksillab olinadi. Pirazol organik sintezda ishlatalindi.

*Antipirin* (1-fenil-2,3-dimetilpirazolon-5) – 114°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda.

Antipirin bir qator dori moddalarini olishda boshlang‘ich modda sifatida ishlatalindi. Shuningdek, ayrim metallarning ionlari bilan erimaydigan komplekslar hosil qilganligi uchun analitik kimyoda ham qo‘llaniladi.


*Amidopirin* (piramidon, 1-fenil-2,3-dimetil-4-dimetilaminopirazolon-5) – 107–109°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Antipirindan olinadi, tibbiyotda og‘riq qoldiruvchi va isitma tushiruvchi vosita sifatida ishlatalindi.

*Analgin* (1-fenil-2,3-dimetil-4-metilaminopirazolon-5-N-metansulfonat natriy) – suvda eriydigan rangsiz kristall modda. Antipirindan olinadi, tibbiyotda og‘riq qoldiruvchi, isitma tushiruvchi va yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida ishlatalindi.





*Imidazol* – 90°C da suyuqlanadigan, 256°C da qaynaydigan rangsiz kristall modda, suvda eriydi. *Imidazol* glioksal, ammiak va formaldegiddan olinadi, organik sintezda ishlataladi.

*Gistidin* (imidazolilalanin) – imidazol halqasi tutuvchi muhim  $\alpha$ -aminokislota hisoblanadi.




## 29.1. 1,3-DITIOLIY TUZLARI VA 1,3-DITIOL HOSILALARI


1,3-ditioliy tuzlari azot atomi o'rniga oltingugurt atomlari tutuvchi imidazol analoglari hisoblanadi.



1,3-Ditiollar yoki 1,3-ditiolanlar har xil usullar bilan olinishi mumkin.  $\alpha$ -galogenkarbonil birikmalar tritiokarbonat kislotasining hosilalari bilan ta'sirlashganda 1,3-ditioltion-2 lar hosil bo'ladi.



1,3-ditioltion-2 lar persirka kislotasi yoki vodorod peroksid bilan oksidlanganda 1,3-ditiol tuzlari hosil bo‘ladi.




FIZIK-KIMYOVII XOS SALARI VA MUHIM VAKILLARI


1,3-ditioltion-2 lar sariq rangli kristall moddalar, ditiolning boshqa hosilalari va ditioliy tuzlari rangsiz moddalardir.

1,3-ditioliy kationining elektron sistemasi imidazoliy kationiga o'xshaydi, ya'ni 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik sistema hosil qiladi, siklik delokallanish bo'lishi mumkin.

Buning natijasida halqaning barqarorligi ortadi. Biroq, 1,3-ditioliy tuzlari ancha beqaror bo'lib, nukleofil reagentlar bilan faol reaksiyaga kirishadi. Reaksiya 2-holatdagi uglerod atomi bo'yicha ketadi. 2-holatda elektronodonor o'rinnbosarlarning, masalan, alkiltio-, ayniqsa dialkylaminoguruhning bo'lishi ditioliy tuzlarining barqarorligini oshiradi.




1,3-Ditiolton-2 lar va 1,3-ditioliy tuzlari asosan *tetratiofulvalen* (2,2'-bi-1,3-ditioliliden) sintezi uchun ishlataladi. Buning uchun ditioltonlar fosfitlar ishtirokida dimerlanadi yoki ditioliy tuzlari trietilamin ishtirokida dimerlanadi.




Tetragidrofulvalenlar juda kuchli elektronodonorlardir ( $IE = 6,3 \dots 6,8$  eV). Kuchli oksidlovchilar ta'sirida barqaror kation-radikal tuzlar hosil qiladi. Tetragidrofulvalen kuchli elektronoakseptor-tetratsianoxinodimetan bilan ta'sirlashib kristall holatda metallar kabi kuchli elektr o'tkazuvchi xossasiga ega bo'lgan ion-radikal tuz hosil qiladi. Ushbu tuz «organik metallar» deb ataladigan birikmalarning birinchi vakilidir (1972-y.). «Organik metallar» ga kristalida  $TTF_2^+X^-$  tipidagi ( $X=BF_4^-$ ,  $ClO_4^-$ ,  $PF_6^-$ ,  $ReO_4^-$  va b.) oksidlanmagan TTF molekulasi tutuvchi tetratiafulvalen (TTF) larning kation-radikal tuzlari ham kiradi. TTF va uning kation-radikalining yassi molekulalari ustma-ust joylashib, taxlam hosil qiladi. Eng yuqori o'tkazuvchanlik taxlam o'qi bo'ylab kuzatiladi.

Tetratseleenafulvalenning kation-radikal tuzlari yanada kuchliroq «organik metall» xossalariiga ega.




Tetraselenafulvalenning shuningdek tetratiafulvalenning kation-radikal tuzlari orasida  $8,5^\circ K$  dan past temperaturada o'ta o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lgan birikmalar topilgan. Bunday birikmalarga bis-etilenditiotratiafulvalen yodidni misol qilish mumkin.




## 29.2. OKSAZOL, TIAZOL VA BENZTIAZOL

Oksazol va tiazol furan va tiofenning 3-holatda uglerod atomi o'rniغا azot atomi tutuvchi analoglari hisoblanadi. Shuningdek, oksazol va tiazol imidazolga ham o'xshaydi. Benziazol esa tiazolning benzologidir.




### *OLINISHI*


Oksazol, oksazolin va oksazolidin halqalarini gidroksiamino-birikmalardan, shuningdek,  $\alpha$ -aminokarbonil birikmalardan hosil qilish mumkin. Buni umumiy tarzda quyidagicha ifodalanadi:



Aldegidlar va etanolamindan oksazolidin halqasini hosil qilish mumkin.




$\alpha$ -atsilaminokarbonil birikmalar kislotalar ishtirokida oksazollarga aylanadi.




Tiazol va uning hosilalarini olinishi.


Tiazol, tiazoli va tiazolidin halqalari ainotiollardan, tioamidlardan hosil qilinishi mumkin.





Tiazolidinlar 2-aminotiollardan va aldegidlardan hosil bo'лади.



$\alpha$ -galogenkarbonil birikmalar tioamidlar bilan ta'sirlashib tiazollarga aylanadi (A.Ganch, 1888-y.).




Benztiazol va uning hosilalari o-aminotiofenol va karbon kislotalardan, yoki anilin, uglerod sulfid va oltingugurtdan olinadi.



## FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI VA MUHİM VAKILLARI


Oksazollar va tiazollar suvda eriydigan rağsiz moddalardir. Oksazol va tiazol molekulasida 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik sistema hosil bo'ladı.  $\pi$ -elektronlarning siklik delokallanishi natijasida sistema barqarorlashishi, ya'ni aromatik xossalarni namoyon qilishi mumkin.



Azot atomining elektromanfiy ta'siri natijasida halqadagi boshqa atomlar qisman musbat zaryadlanib qoladi. Bog'larning uzunligi aromatik birikmalardagi kabi biroz tenglashadi.

Oksazolning siklik delokallanish energiyasi tiazolning ayni energiyasidan kam.

Oksazollar va tiazollar kuchsiz asoslar bo'lib kislotalar bilan oksazoliy va tiazoliy tuzlarini hosil qiladi.




Oksazoliy tuzlari kislotalar bilan qizdirilganda parchalanadi.

Alkillash reaksiyalarida N-alkilosazoliy va N-alkiltiazoliy tuzlari hosil bo'ladı.


*Tiazol* – 117°C da qaynaydigan, piridin hidli rangsiz suyuqlik, xloratsetaldegid va tioformamiddan olinadi.

Tiazol organik sintezda qo'llaniladi. Uning bir qator biologik faol hosilalari mavjud.

*Norsulfazol* (2-(*p*-aminobenzolsulfamido)-tiazol) – 198–200°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, 2-aminotiazoldan olinadi. Norsulfazol samarali sulfanilamid preparat bo'lib, yuqumli kasallikkarni davolashda antimikrob vosita sifatida ishlatiladi.




*Vitamin B<sub>1</sub>* (tiamin) — suvda eriydigan rangsiz krsitall modda. Prostetik guruh sifatida dekrboksillash reaksiyalarida ishtirot etadigan ayrim fermentlar tarkibiga kiradi. Tiamin bir qator mikroorgnaizmlar va o'simliklarda hosil bo'ladi.




Hozirgi paytda tiamin sintetik yo'l bilan olinadi.

*Penitsillinlar* — penitsillan kislotasining hosilalari bo'lgan, har xil mikroorganizmlarga samarali ta'sir etuvchi antibiotiklar guruhi. Penitsillinlar strukturasining asosini kondensirlangan tiazolidin va  $\beta$ -laktam halqlari tashkil etadi.



R=CH<sub>2</sub>C<sub>6</sub>H<sub>5</sub> — benzilpenitsillin  
R=CH<sub>2</sub>OC<sub>6</sub>H<sub>5</sub> — fenoksimetilpenitsillin va b.


Penitsillinlar ayrim mog'or zamburug'larining hayot faoliyati davomida hosil bo'ladi. Biosintetik yo'l bilan olinadigan bir qator penitsillinlar, masalan, benzilpensillin, fenoksimetilpenitsillin, shuningdek, amino-penitsillan kislotasi va atsilxloridlardan olinadigan yarimsintetik penitsillinlar, masalan, ampitsillin ( $R=CH(NH_2)C_6H_5$ ) tibbiyotda keng qo'llaniladi.




Ayrim yiringli kasalliklarni davolashda mog'or zamburug'laridan foydalanishni buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino tavsiya qilgan. Lekin penitsillin birinchi marta 1928-yilda angliyalik mikrobiolog A. Fleming tomonidan aniqlangan.

**2-merkaptobenztiazol** (kaptaks) – 179°C da suyuqlanadigan sarg'ish tusli kristall modda. Tautomerlanadi, benztiatzolintion shakli barqarorroq bo'ladi.


Sanoatda kaptaks anilin, uglerod sulfid va oltingugurtdan olinadi. Kaptaks kauchukni vulkanlanishini tezlashtiruvchi sifatida va boshqa vulkanlashni tezlashtiruvchi moddalar olishda ishlataladi.




### 29.3. TRIAZOLLAR VA TETRAZOL



1,2,3-triazol




1,2,4-triazol




tetrazol


1,2,3-triazollar atsetilen, azidlar yoki azid kislotasidan 1,3-dipolyar birikish ( $[2+3]$  siklobirikish) reaksiyasi yordamida olinadi.



1,2,4-triazollar imidokislotalarning gidrazidlari va karbon kislotalarning hosilalaridan sintez qilinadi.



Tetrazollar nitrilllar, yoki sianid kislotasi va azidlar (yoki azid kislotasi  $\text{HN}_3$ ) ning 1,3-dipolyar birikish ( $[2+3]$  siklobirikish) reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi.



### FIZIK VA KIMYOVITY XOSSALARI

Triazollar, tetrazol va ularning hosilalari suvda eriydigan rangsiz kristall moddalardir.

Ushbu birikmalar pirazol va imidazol kabi 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik delokallashgan sistema hosil qiladi (aromatik xossalarga ega). Lekin bitta yoki ikkita uglerod atomlarini azot atomlariga almashinishi natijasida triazollar va tetrazolning elektronodonor xossalari kamayadi.

Triazollar va tetrazol kuchsiz asoslar va kuchsiz NH-kislotalar hisoblanadi. ularning asosiligi quyidagicha kamayadi: 1,2,4-triazol ( $\text{pK}_{\text{BH}^+}=2,3$ ) $>$  1,2,3-triazol ( $\text{pK}_{\text{BH}^+}=1,2$ ) $>$ tetrazol. Xuddi shunday tartibda kislotali xossalari ortib boradi: 1,2,4-triazol, 1,2,3-triazol ( $\text{pK}=9,4$ ) $<$ tetrazol ( $\text{pK}=4,9$ ).


Elektrofil reagentlar bilan ta'sirlashganda N-almashingan birikmalar hosil bo'ladi. Azot atomi bo'yicha tuzlari orqali reaksiyalar ham mavjud.

*1,2,3-triazol* –  $23^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan,  $203^\circ\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz kristall modda. 1,2,3-triazol-4-karbon kislotasini dekarboksillab olinadi. Organik sintezda ishlatiladi.

*1,2,4-triazol* –  $120^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan,  $260^\circ\text{C}$  da qaynaydigan rangsiz kristall modda. Organik sintezda ishlatiladi.

*Tetrazol* –  $156^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan, rangsiz kristall modda. Oson sublimatlanadi. Sianid kislotasi va azid kislotasidan olinadi.

Tetrazolning ayrim hosilalari portlovchi moddalar va dorivor vositalar sifatida qo'llaniladi. Masalan, korazol preparati markaziy nerv sistemasi faoliyatini stimullaydi.



## **30-BOB. OLTI A'ZOLI BITTA GETEROATOMLI GETEROSIKLIK BIRIKMALAR**


Olti a'zoli bitta geteroatomli geterosiklik birikmalarni benzol molekulasidagi bitta uglerod atomini boshqa element atomiga almashgan birkma sifatida qarash mumkin.

Ushbu birikmalar ichida piridin, piriliy tuzlari va benzologlar katta ahamiyatga ega.


### **30.1. PIRIDIN**

Piridin hosilalarini nomlashda halqadagi atomlari raqamlanishi yoki yunon harflari bilan belgilanishi mumkin.


Ayrim sodda hosilalari trivial nomlarini saqlab qolgan.



$\alpha$ -pikolin



2,4-dimetilpiridin  
(2,4-lutidin)




2,4,6-trimetilpiridin  
(2,4,6-kollidin)

### **OLINISH USULLARI**


1. Piridin va alkilpiridinlar toshko'mirni quruq haydash mahsulotlaridan olinadi. Piridin suyaklarni quruq haydash mahsulotlari tarkibida ham bo'ladi.

Piridin halqasi vitaminlar, alkaloidlar kabi tabiiy mahsulotlar tarkibiga ham kiradi.

2. Piridin sistemasi sintetik usullar bilan olinadi. Masalan,  $\delta$ -dikarbonil birikmalar oson sikllanib 1,4-digidropiridinlarga aylanadi.




1882-yilda Ganch tomonidan  $\beta$ -dikarbonil birikmalar, aldegid va ammiakdan foydalaniolib 1,4-digidropiridin hosilalari olindi.  $\beta$ -dikarbonil birikmalar aldegidlar bilan kondensatlanib  $\beta$ -dikarbonil birikmaning struktura elementi saqlovchi mahsulotlar hosil qiladi. Hosil bo'lgan birikmaga ammiak ta'sir ettirilib halqa hosil qilinadi.




Digidropiridin hosilasi oksidlanganda tegishli almashingan piridin hosil bo'ladi. Agar reaksiyada  $\beta$ -ketokislotanining efiri ( $R^1=OC_2H_5$ ) ishlatalisa mahsulot gidroliz qilinib piridindikarbon kislotasini olish mumkin. Piridindikarbon kislotasi dekarboksillansa 2,4,6-almashingan piridinlar hosil bo'ladi.

Atsetilen va vodorod sianid yuqori temperaturada sikllansa piridin hosil bo'ladi.



Piridinni yuqoridagi usul bilan olish faqat nazariy ahamiyatga ega. O'zgaruvchan metallarning komplekslari ishtirokida sikllash reaksiyasi amaliy ahamiyatga ega.



Aldegidlar va ammiakni katalizator ishtirokida sikllash reaksiyasi natijasida alkilpiridinlar aralashmasi hosil bo'ladi.



Mazkur reaksiyada aldol kondensatsiyasi, iminobirikmalarning hosil bo'lishi, degidratlanish va degidridrlanish sodir bo'ladi.

### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Piridin molekulasida benzoldagi kabi 6 ta  $\pi$ -elektronli siklik bog'langan sistema mavjud. Azot atomi  $sp^2$ -gibridlangan holatda. Azot atomidagi taqsimlanmagan elektronlar fazoviy joylashuviga ko'ra bog'lanishda qatnashmaydi.




$$\mu = 7,3 \cdot 10^{-30} \text{ KJ.m} (2,2 \text{ D})$$

Azot atomining elektronoakseptor ta'siri natijasida uglerod atomlari qisman musbat zaryadga ega bo'lib qoladi.

Piridinning elektronodonor xossasi benzoldagiga qaraganda kamroq. Azot atomidagi elektron justidan ( $IE=9,6$  eV) va bog'langan sistemaning yuqori band bo'lgan molekulyar orbitalidan ( $IE=9,75$  eV) elektronni ajratib olish mumkin. Bundan elektrofil reagentlar birinchi navbatda azot atomiga ta'sir etishi kelib chiqadi.

Piridin molekulasidagi uglerod-uglerod bog'larining uzunligi benzoldagi kabidir.

Xyukkel metodi bo'yicha MO hisoblashlar natijalari ham piridindagi uglerod atomlari musbat zaryadlanishini ko'rsatadi. Agar azot atomiga elektrofil zarracha birikkan bo'lsa, effektiv musbat zaryadlar, ayniqsa  $\alpha$ - va  $\gamma$ -holatlarda ortadi.



Piridin molekulasining siklik delokallanish energiyasi ( $0,99 \beta - 1,03 \beta$ ) benzolning ayni energiyasiga yaqin turadi. Bundan kelib chiqadiki, piridin sistemasi katta barqarorlikka ega (aromatik birikma).


Spektrning UB sohasida piridin uchun ikkita yutilish maksimumi xosdir: 251 nm ( $\epsilon=2000$ ) va 270 nm ( $\epsilon=450$ ). Ikkinci yutilish maksimumi taqimlanmagan elektron justining qo'zg'alishi bilan bog'liq ( $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tish). Suvli eritmada ikkala maksimum 257 nm da ( $\epsilon=2750$ ) qo'shilib ketadi. Piridiniy kation 256 nm da ( $\epsilon=5250$ ) yutadi.

PMR spektrlarda piridin vodorodlarining signallari kuchsiz sohalarda (maydonlarda) kuzatiladi:  $\alpha$ -protonlar 8,29 m.u. da,  $\beta$ -protonlar 6,77 m.u. da va  $\gamma$ -protonlar 7,15 m.u. da.

### KIMYOVIY XOSSALARI



Piridin va uning hosilalari elektrofil reagentlar bilan azot atomi va 3-holatdagi uglerod atomi bo'yicha, nukleofil reagentlar bilan 2- va 4-uglerod atomlari bo'yicha reaksiyaga kirishadi. Piridinlarning N-oksidlari, N-almashingan piridiniy kationlari va  $\alpha$ -piridinlar o'ziga xos reaksiyalarga kirishadi.

Piridin va uning hosilalari asoslar hisoblanadi va kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Piridinning asosligi anilinning asosligiga yaqin turadi ( $pK_{BH^+}=4,60$ ).




$R$	$H$	$\alpha\text{-CH}_3$	$\gamma\text{-CH}_3$
$pK_{BH^+}(H_2O)$	5,23	5,97	6,02

Elektrofil reagentlar azot atomiga birikadi. Ayrim holatlarda bunday birikmalar kristall holda ajratib olinishi mumkin. Alkillash reaksiyasi oson ketadi.




Elektrofil o'rin olish reaksiyaları faqat yuqori temperatura va kuchli reagentlar ta'sirida boradi. O'rinosar  $\beta$ -holatdagi uglerod atomi bo'yicha reaksiyaga kirishadi.




Piridinni  $\beta$ -holat bo'yicha nitrolash va bromlash mumkin.  $\alpha$  - va  $\gamma$ - holat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri elektrofil o'rin olish reaksiyasini o'tkazib bo'lmaydi. Bunday reaksiyani o'tkazish uchun piridinning N-oksiddidan foydalilanadi.

Piridin va uning hosilalari faqat kuchli nukleofillar bilan ta'sirlashadi. Ishqorlar faqat  $400^{\circ}\text{C}$  dagina reaksiyaga kirishib,  $\alpha$ -gidroksipiridon ( $\alpha$ -piridon) tuzlarini hosil qiladi.




Natriy amidi piridin bilan  $130^{\circ}\text{C}$  da ta'sirlashadi. Reaksiya natijasida  $\alpha$ -aminopiridin (ozroq  $\gamma$ -aminopiridin bilan birqalikda) hosil bo'ladi. Ushbu reaksiya 1914-yilda A.E.Chichibabin tomonidan ochilgan.


Reaksiyaning birinchi bosqichida  $\alpha$ -aminopiridininning natriyli tuzi hosil bo‘ladi va vodorod ajralib chiqadi.




Piridin halqasi oksidlovchilar ta’siriga chidamli. Alkilpiridinlar oson oksidlanib tegishli piridinkarbon kislotalariga aylanadi.




Perokskislotalar va vodorod peroksid ta’sirida piridinining N-oksidi hosil bo‘ladi.




Piridinining N-oksidi nisbatan oson nitrolanadi. Reaksiya natijasida  $\gamma$ -nitropiridinining N-oksidi hosil bo‘ladi. Bunday o‘rin olish oriyentatsiyasi kislorod atomidagi taqsimlanmagan elektronlarning elektrondonor ta’siri bilan bog‘liq. Mazkur reaksiya piridinining  $\gamma$ -almashigan hosilalarini olishda qo’llaniladi.






Piridiniy kationi nukleofil reagentlar bilan juda oson reaksiyaga kirishadi, reaksiya natijasida birikish mahsulotlari hosil bo'lishi, hamda halqa ochilishi mumkin.




$\alpha$ - va  $\gamma$ -metilpiridinlardagi metil guruhda harakatchan vodorod atomlari mavjud.  $\alpha$ -pikolindagi metil guruhining reaksiyon qobiliyatini metilketonlarning reaksiyon qobiliyatiga yaqin turadi.


Asoslar, ba'zan kislota katalizatorlari ( $\text{ZnCl}_2$ , polifosfat kislotasi) aldegidlar va ketonlar bilan kondensatsiya reaksiyasi ketadi.



Piridin qiyin gidridlanadi. Nikel metali ishtirokida bosim ostida vodorod bilan qaytarilsa piperidin hosil bo'ladi.



Piridiniy hosilalari kompleks gidridlar bilan oson gidridlanadi.



### **MUHIM VAKILLARI**

*Piridin* – o‘ziga xos hidli rangsiz suyuqlik, 115,6°C da qaynaydi, suvda eriydi, zaharli.


Piridin toshko‘mirni kokslash jarayonida olinadi. Piridin erituvchi sifatida va organik sintezda piperidin, aminopiridin, biologik faol moddalar va boshqa birikmalar olishda ishlatalildi.

*Pikolinlar* – yoqimsiz hidli, rangsiz suyuq moddalar,  $\alpha$ -pikolin 129,5°C da,  $\beta$ -pikolin 144°C da va  $\gamma$ -pikolin 145°C da qaynaydi, suvda yaxshi eriydi.

Pikolinlar toshko‘mir smolasidan olinadi, organik sintezda ishlatalildi.

*Gidroksipiridinlar* – suvda eriydigan rangsiz kristall moddalar. Tegishli galogenpiridinlar, aminopiridinlar yoki piridinsulfon kislotalardan olinadi. Shuningdek,  $\alpha$ - yoki  $\gamma$ -pironlardan, yoki piridinni to‘g‘ridan to‘g‘ri gidroksillab ham olinadi (asosan  $\alpha$ -izomer).

$\alpha$ - va  $\gamma$ -gidroksipiridinlar tautomer birikmalar bo‘lib, nisbatan barqaror tautomer shakli shakli hisoblanadi.




$\beta$ -izomer xossalari jihatdan fenolga o'xshaydi. Barcha gidrosipiridinlar bifunktional birikmalar hisoblanadi, kuchsiz kislotasi va asos xossalari ega, azot va kislorod atomi bo'yicha reaksiyalarga kirishi mumkin. Bundan tashqari uglerod atomlar bo'yicha elektrofil o'rinalish reaksiyalari ham mavjud.

Ayrim almashingan gidrosipiridinlar tibbiyotda ishlataliladi.

*Aminopiridinlar* – suvda eriydigan rangsiz kristall moddalar. Piridinni to'g'ridan to'g'ri aminlab (asosan  $\alpha$ -izomer) yoki nitro- va galogenpiridinlardan arilaminlar kabi olinadi ( $\beta$ - va  $\gamma$ -izomerlar).

$\alpha$ - va  $\gamma$ -aminopiridinlar tautomer birikmalar bo'lib, ikkinchi shakli piridonimin shakl deyliladi, amino- shakli nisbatan barqarordir.




Aminopiridinlar asos xossalari ega. Ular piridinga qaraganda kuchliroq asoslardir.  $pK_{BH^+}$  qiymati  $\alpha$ -izomer uchun 6,9 ga,  $\beta$ -izomer uchun 6 ga va  $\gamma$ -izomer uchun 9,2 ga teng.

Aminopiridinlar dorivor moddalar olish uchun ishlataliladi.

Piridinkarbon kislotalar – suvda eriydigan rangsiz kristall moddalardir. Piridin hosilalarini oksidlab olinadi.

Piridinkarbon kislotalar aminokislotalar sifatida kristall holatda va qisman eritmalarda ichki tuz-betain ko'rinishida bo'ladi.

Nikotin kislotasi birinchi marta nikotinni oksidlab olingen. Kislotaning o'zi provitamin bo'lib, uning amidi *PP* vitaminini hisoblanadi. Ushbu vitamin yetishmasligi natijasida *pellagra* deb ataladigan teri kasalligi kelib chiqadi.



Pikolin kislotasi

Nikotin kislotasi


Izonikotin kislotasi

Izonikotin kislotasining gidrazidi (izoniazid) va uning hosilalari sil kasalligini davolashda ishlataladi.


**Piridoksin** ( $B_6$  vitamini, adermin) — oson eriydigan rangsiz kristall modda. Birinchi marta 1932-yilda oqlangan guruchdan ajratib olingan, molekulaning tuzilishi 1936-yilda aniqlangan. Hozirgi paytda sintetik usullar bilan ishlab chiqariladi.

Piridoksin har xil tabiiy mahsulotlar tarkibida uchraydi. Odam organizmida ichakdag'i ayrim mikroorganizmlar tomonidan ham ishlab chiqariladi.

Umuman olganda piridoksin  $B_6$  vitamini biosintezi uchun boshlang'ich modda vazifasini bajaradi. Organizmda piridoksindan piridoksal-5-fosfat hosil bo'ladi. U o'z navbatida aminokislotalarni o'zgarishlarida (qayta aminlanish reaksiyalari) qatnashadigan fermentlar bilan bog'lanadi.




Piridoksindan tashqari piridoksamin va piridoksal ham  $B_6$  vitamini biosintezi uchun boshlang'ich moddadir.



**Piridin alkaloidlari.** Ushbu birikmalarning eng muhim vakillari nikotin, anabazin va tropan alkaloidlari atropin va kokain hisoblanadi.


**Nikotin** — tamaki hidli rangsiz moysimon modda, 246°C da qaynaydi, suvda eriydi, optik faol  $[\alpha]_D = +102^\circ$  ( $H_2O+HCl$ ). Tamaki tarkibiga kiruvchi asosiy alkaloid. Tamaki sanoatida hosil bo'ladigan chiqindilardan olinadi. Birinchi marta toza holatda 1828-yilda ajratib olingan, tuzilishi 1893-yilda o'rganilgan. To'liq sintezi 1904-yilda A.Pikte tomonidan amalga oshirilgan.




Nikotin zaharli, markaziy va periferik nerv sistemasiga ta'sir qiladi. 40 mg nikotin odamni halok qiladi. Kam dozalarda markaziy nerv sistemasini qo'zg'atadi, qon bosimini oshiradi, yuqori dozalarda nerv sistemasini falajlaydi.

Nikotin insektitsid sifatida ishlataliladi.

*Anabazin* – 276°C da qaynaydigan moysimon suyuqlik. Markaziy osiyo mintaqasida o'sadigan Anabasis tarkumidagi o'simliklardan 1929-yilda A.P.Orexov tomonidan ajratib olingan. Anabazin kuchli ta'sir etuvchi insektitsid sifatida qo'llanilgan. Zaharlilik darajasi yuqori bo'lganligi uchun undan turmushda foydalanish man etilgan.



*Atropin* – tropan qatori alkaloidlaridan biri, molekulasida kondensirlangan pirrolidin va piperidin halqlari tutadi. 115-116°C da suyuqlanadigan kristall modda, parasimpatik nerv sistemasiga ta'sir etadi, ko'z qorachig'ini kengaytiradi. Birinchi marta 1833-yilda Solanaceae oilasiga mansub o'simliklardan ajratib olingan. Atropin periferik nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatadi: oshqozon-ichak, o't pufagi, bronxlar va boshqa a'zolardagi silliq muskullarning tonusini kamaytiradi. Tibbiyotda qo'llaniladi.




*Kokain* – 98°C da suyuqlanadigan kristall modda, kislotalar bilan suvda eriydigan tuzlar hosil qiladi. Kokain Janubiy Amerikada o'sadigan


butasimon o'simlik – *koka* bargidan olinadi. Birinchi marta K.Niman tomonidan Erythroxylon coca L. o'simligidan ajratib olingan (1860-y.). kokainni 1909-yilda R.Vilshtetter to'liq sintez qilgan. Kokainning nisbiy va absolyut konfiguratsiyasi 1953-yilda G.Fodor va S.P.Findel bosh-chilgida aniqlangan.

Kokain gidroliz qilinsa benzoy kislotasi, metanol va ekgonin (2-gidroksi-3-karboksitropan) hosil bo'ladi.

Kokain nerv sistemasini qo'zg'atadi, ko'tarinki kayfiyat hosil qilib, keyin nerv sistemasini tormozlaydi. Kuchli mahalliy og'riqsizlanish (anesteziya)ni keltirib chiqaradi. Asta-sekin organizmda ko'nikish paydo bo'ladi (kokainizm). Kokainning tuzilishi ko'plab sodda, ko'nikish keltirib chiqarmaydigan moddalar sintez qilish uchun model (andoza) bo'lgan.




### 30.2. XINOLIN VA IZOXINOLIN




Xinolin va izoxinolin toshko'mir smolasidan olinadi. Smola tarkibida ayrim metilxinolinlar ham bo'ladi. Xinolin va izoxinolinning struktura elementlari bir qator alkaloidlar molekulalarida uchraydi.

Xinolin asosan aromatik aminlardan sintez qilinadi.

Aromatik aminlar nitrobenzol, mishyak (V) oksidi kabi kuchsiz oksidlovchilar ishtirokida glitserin va sulfat kislotasi bilan ta'sirlashib xinolin va uning hosilalariga aylanadi (Z.Skraup, 1880-y.). Ushbu reaksiyada dastlab glitserindan akrolein hosil bo'lib, u arilamin bilan ta'sirlashadi deb taxmin qilingan.




Arilaminlar HCl, ZnCl<sub>2</sub> va boshqa kislotalar ishtirokida  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan aldegidlar bilan reaksiyaga kirishib xinolinlarni hosil qiladi. Odatda to'yinmagan aldegid bevosita reaksiyon muhitda hosil qilinadi. Reaksiya mexanizmi Skraup reaksiyasiga o'xshash. Oksidlovchi sifatida aldiminlar C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>N=CHR ishlataladi.




Ushbu reaksiya 1881-yilda O. Debner va V. Miller tomonidan amalga oshirilgan.

Izoxinolin va uning hosilalari benzol hosilalaridan olinishi mumkin. 2-feniletilamin atsillanib, sikllanadi va hosil bo'lgan birikma degidridlansa tegishli izoxinolin hosilasi chiqadi.




Boshlang'ich modda sifatida arenkarbaldegidlar ishlatalishi mumkin. Arenkarbaldegidlar  $\alpha$ -aminoaldegidlarning atsetallari bilan kondensatsanadi, keyin hosil bo'lgan birikma sikllanadi. Ushbu reaksiya 1893-yilda S.Pomerans va P.Frich tomonidan amalga oshirilgan.



### FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI

Xinolin, izoxinolin va ularning sodda alkil hosilalari o'ziga xos hidli, rangsiz suyuqliklar yoki oson suyuqlanadigan kristall moddalardir, suvda kam eriydi.


Xinolin va izoxinolin naftalinning azaanaloglari hisoblanadi, 10 ta  $\pi$ -elektronli bog'langan sistemalarni hosil qiladi. Azot atomi ta'sirida halqadagi elektronlarning taqsimlanishi o'zgaradi.



Azot atomining elektromanfiyligi asosan piridin halqasiga ta'sir qiladi. Benzol halqasidagi uglerod atomlarining musbat zaryndi nisbatan kamroq. Zaryadlarning taqsimlanishi elektrofil va nukleofil o'r'in olish reaksiyalari uchun oriyentatsiyani izohlash uchun asos bo'ladi.



### KIMYOVİY XOS SALARI

Xinolin va izoxinolin kuchsiz asoslar hisoblanadi, kuchli kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi.



Xinoliniy kationi uchun  $pK_{\text{BH}^+} = 4,94$  ga, izoxinoliy kationi uchun 5,14 ga teng.



Elektrofil reagent azot atomiga hujum qiladi. Natijada tegishli kation hosil bo'ladi, keyingi o'r'in olish reaksiyasi benzol halqasida elektron zichligining taqsimlanishi asosida ketadi.




(E = SO<sub>3</sub>H, NO<sub>2</sub>)

Xinoliniy kationi 6- va 8- holatlardagi, ba'zan 5- holatdagi uglerod atomi bo'yicha reaksiyaga kirishadi, izoxinoliniy kationi esa 5- va 7- holatlardagi, ba'zan 4- holatdagi uglerod atomi bo'yicha reaksiyaga kirishadi.



Alkillovchi reagentlar ta'sirida oson N-alkil tuzlari hosil bo'ladi.





Nukleofil reagentlar xinolin molekulasida 2-holatdagи uglerod atomiga, izoxinolin molkulasida 1-holatdagи uglerod atomiga hujum qiladi. Ishqor bilan ta'sirlashganda Chichibabin reaksiyasi oson ketadi.



Xinolin va izoxinolin katalitik gidridlanganda birinchi navbatda piridin halqasi gidridlanadi.





1,2,3,4-tetragidroxixinolin





1,2,3,4-tetragidroizoxinolin

Xinolin va izoxinolin yuqori temperaturada, kuchli oksidlovchilar ta'sirida benzol halqasining ochilishi bilan oksidlanadi. Reaksiya natijasida piridin dikarbon kislotalar hosil bo'ladi.





xinolin kislotasi



sinxomeron kislotasi

Peroksi kislotalar va vodorod peroksid ta'sirida N-oksidlar hosil bo'ladi.



*Xinolin* – 237°C da qaynaydigan, juda noxush hidli rangsiz suyuqluk. Toshko'mir smolasidan olinadi. Erituvchi va analitik reagentlar, dorivor moddalar sintez qilishda ishlatiladi.

*Xinaldin* (2-metilxinolin) – 247°C da qaynaydigan, noxush hidli rangsiz suyuqlik. Toshko'mir smolasidan olinadi.


Xinaldindagi metil guruhi kondensatsiya reaksiyalariga oson kirishadi. Bo'yoq moddalar sintezida ishlatiladi.

*Oksin* (8-gidroksixinolin) – 75°C da suyuqlanadigan sarg'ish tusli kristall modda. Skraup metodi bo'yicha o-aminofenoldan yoki 8-xinolinsulfon kislotasini ishqor bilan suyuqlantirib olinadi.

Oksin kuchsiz OH-kislota ( $pK_a=9,7$ ) hisoblanadi, asoslar bilan ta'sirlashib tuzlar hosil qiladi. Ko'plab og'ir metallarning ionlari bilan organik erituvchilarda eriydigan ichki kompleks tuzlar – xelatlar hosil qiladi. Oksin analitik reagent sifatida ishlatiladi.

*Tioksin* (8-xinolintiol) – qizil rangli kristall modda (digidrat). 8-xinolinsulfonilxloridni qaytarib olinadi. Tioksin ko'plab metallarning ionlari bilan organik erituvchilarda eriydigan rangli kompleks tuzlar hosil qiladi. Tioksin juda kam miqdordagi metallarni aniqlash uchun ishlatiladigan analitik reagentdir.


*Xinin* – xinin daraxti po'stlog'idan olinadigan alkaloid. Nordon ta'mli, 177°C da suyuqlanadigan rangsiz kukun, optik faol,  $[\alpha]_D = -158^\circ$  (EtOH). Kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Birinchi marta toza holda 1820-yilda P.J.Palte va J.Kaventu tomonidan ajratib olingan. Tuzilishini 1907-yilda K.Rabe aniqlagan, to'liq kimyoviy sintezi 1944-1945-yillarda R.Vudvord va V.Dyoring tomonidan amalga oshirilgan.



Xinin bezgak kasalligini davolashda ishlatiladi. Xininning tuzilishi bezgakka qarshi ishlatiladigan boshqa moddalar sintezi uchun model vazifasini o'tagan.

*Izoxinolin* – 24,5°C da suyuqlanadigan, 242,5°C da qaynaydigan rangsiz, nordon hidli modda. Toshko'mir smolasidan olinadi. Izoxinolin organik sintezda ishlatalidi.


Izoxinolin strukturasi *izoxinolin alkaloidlari* deb ataluvchi bir qator tabiiy moddalar tarkibiga kiradi. Bunday birikmalarga papaverin va morfinni misol qilish mumkin.



*Papaverin* – 147°C da suyuqlana-digan rangsiz kristall modda. 225°C da suyuqlanadigan xlorid tuzini hosil qiladi. Birinchi marta 1848-yilda V. Merk tomonidan toza holda ko'knori (*Papaver somnifera*) o'simligidan ajratib olingan. Tuzilishini 1883–1898-yillarda G. Goldshmidt aniqlagan. To'liq kimyoviy sintezini 1909-yilda A. Pikte amalga oshirgan.

Papaverin tibbiyotda og'riq qoldiruvchi va qon tomirlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ishlatalidi. Hozirgi paytda asosan sintetik usullar bilan olinadi. Uning sintetik analoglaridan *noshpa* va *dibazol* keng qo'llanilmoqda.

Morfin – ko'knorining asosiy alkaloidi. Toza holda 1806-yilda F. Sertyurner tomonidan ajratib olingan. Morfinning tuzilishini 1925–1927 yillarda R. Robinson aniqlagan. (*Robert Robinson (1886–1975) ingliz kimyogari, tabiiy birikmalar kimyosining asoschilaridan biri. Asosiy ishlari tabiiy birikmalarni o'r ganishga bag'ishlangan. 1947-yilda «Biologik ahamiyatga ega bo'lган o'simlik moddalar, ayniqsa alkaloidlar tadqiqoti uchun» Nobel mukofoti bilan taqdirlangan*).




To'liq kimyoviy sintezi 1951–1956-yillarda G.Tsudi va M.Geyts tomonidan amalga oshirilgan. Morfinning to'liq stereokimyoviy tuzilishi rentgenostruktura analizi yordamida D.Xodjkin tomonidan 1955-yilda aniqlangan.


Morfin kuchli og'req qoldiruvchi modda, narkotik, ko'tarinki kayfiyat paydo qiladi. Organizmda morfinga nisbatan ko'nikish, ya'ni narkomaniya (morphinizm) keltirib chiqaradi. Markaziy nerv sistemasini kuchsizlantirib falajlaydi.

H.M.Shohidoyatov, Yu.V.Kurbatov kabi olimlar tabiiy geterosiklik birikmalar asosida bir qator biologik faol moddalar sintez qilish usullarini ishlab chiqdilar.


### 30.3. PIRILY TUZLARI VA PIRONLAR



Piriliy tuzlari




Benzo[b]piriliy tuzlari




$\gamma$ -piron

Piriliy halqasi to'yinmagan  $\delta$ -dikarbonil birikmalardan hosil qilinishi mumkin.




Odatda piriliy tuzlari  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalardan va metilketonlardan sirka angidridi va kuchli kislota ishtirokida olinadi.



Reaksiyada dastlab ketonni  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikma bilan alkillanishi sodir bo'ladi, natijada  $\delta$ -dikarbonil birikma hosil bo'ladi. Keyin halqa hosil bo'ladi va degidridlanish kuzatiladi. To'yinmagan karbonil birikma vodorod atomining akseptori hisoblanadi.


Fenollar va  $\alpha,\beta$ -to'yinmagan karbonil birikmalardan benzopiriliy tuzlari olinadi.



### **FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI**

Oddiy piriliy tuzlari rangsiz kristall moddalardir. Elektronodonor aril guruhlar tutuvchi hosilalari rangga ega.

Piriliy kationining tuzilishi piridiniy kationining tuzilishiga o'xshaydi. Elektromansiyligi yuqori bo'lgan kislorod atomi ta'sirida bog'lar kuchli qutblanadi. Buning natijasida piriliy kationlari nukleofil reagentlarga nisbatan yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lib qoladi.




### **KIMYOVİY XOSSALARI**


Piriliy tuzlari juda kuchli elektronoakseptorlar hisoblanadi, elektronodonor birikmalar bilan rangli komplekslar hosil qiladi.

Piriliy tuzlari nukleofil reagentlar reaksiyalari xarakterlidir. Nukleofil odatda 2-holatdagisi uglerod atomiga hujum qiladi. Shuningdek, 4-holat bo'yicha ta'sir etishi ham mumkin.

Kuchsiz qaytaruvchilar va gidrid-ion donorlari ta'sirida piriliy tuzlari  $\alpha$ -  $\gamma$ -piranlarga aylanadi.




Nukleofil reagentlar 2-holatdagι uglerod atomiga birikadi. Piriliy halqasining ochilish va yangi siklik sistema hosil bo'lishi ham mumkin.




### MUHIM VAKILLARI

$\alpha$ -pironlar 2-gidroksipiriliy tuzlarining bog'langan asoslari hisoblanadi.




$\alpha$ -pironlar reaksiyon qobiliyatga ega birikmalar bo'lib, bir vaqtning o'zida ham  $\delta$ -lakton va bog'langan diyen hisoblanadi. Ularning diyen sintezi, polimerlanish va gidrolitik parchalanish reaksiyalari ma'lum.

$\alpha$ -pironlarning benzologlari nisbatan barqaror birikmalardir. Masalan, kumarin yangi pichan hidiga ega rangsiz kristall modda bo'lib, uning strukturasi ayrim o'simlik moddalarining tarkibiga kiradi.




kumarin

$\gamma$ -pironlar 4-gidroksipiriliy tuzlarining bog'langan asoslari hisoblanadi.




$\gamma$ -pironlar kuchsiz asos xossalariiga ega. Ishqor ta'sirida parchalanadi, ammiak va aminlar ta'sir ettirilsa  $\gamma$ -piridonlar hosil bo'ladi.  $\gamma$ -pironlarning benzologlari, masalan, xromon, flavon va uning hosilalari tabiatda keng tarqalgan.



Flavonning 3',4',5,7-tetragidroksi- va 3',4',3,5,7-pentagidroksi-hosilalari gullarning sariq rangli pigmentlaridir.

*Antosianidinlar*-2-fenilbenzo[b]pirili tuyzularining hidroksi hosilalari, gullar, mevalar va sabzavotlar pigmentlarining asosini tashkil qiladi, *antosian* ( $R$ -monosaxarid qoldig'i) glikozidlar ko'rnishida gullar, mevalar va sabzavotlar tarkibiga kiradi ( $R^1 = H, OH$ ).




Antosianlar muhitning pH iga qarab rangini o'zgartiradi. Kislotali muhitda qizil rangga, neytral muhitda binafsha va ishqoriy muhitda ko'k rangga kiradi. Rangning o'zgarishi pH ning o'zgarishi bilan gidroksil guruhlarning ionlanishiga bog'liq.

## **31-BOB. OLTI A'ZOLI IKKITA GETEROATOMLI GETEROSIKLIK BIRIKMALAR**


Benzol halqasidagi ikkita uglerod atomini boshqa atomlarga almashinishi natijasida tegishli geterosiklik birikmalar hosil bo'ladi. Bunday birikmalar ichida eng ahamiyatlilari piridazin, pirimidin, pirazin va kondensirlangan purin sistemasi hisoblanadi.

### **PIRIDAZIN, PIRIMIDIN VA PIRAZIN**



### **OLINISH USULLARI**



Piridazin va uning hosilalari. Piridazin halqasini hosil qilish uchun gidrazindan va tegishli to'rtta uglerodli komponent, masalan, malein dialdegidi yoki 4-oksobuten-2 kislotasidan foydalaniladi.




**Pirimidin va uning hosilalari.** Pirimidin halqasini hosil qilish uchun 1- va 3- holatlarda azot atomlari tutuvchi birikmalar, masalan, amidinlar, mochevina, tiomochevina hamda  $\beta$ -dikarbonil birikmalar qo'llaniladi.

Formilsirka kislotasi va mochevinaning o'zaro ta'siri natijasida uratsil hosil bo'ladi.


Formilsirka kislotasi esa olma kislotasi va oleumdan bevosita reaksiyon muhitda olinadi.



Malon efiri va mochevinadan barbitur kislotasi hosil bo'ladi.




**Pirazin va uning hosilalari.** Digidropirazin halqasi  $\alpha$ -aminokarbonil birikmalarning o'zaro kondensatsiyasi natijasida hosil bo'ladi.



## FIZIK XOSSALARI VA TUZILISHI


Piridazin, pirimidin, pirazin va ularning hosilalari suvda eriydigan rangsiz moddalardir. C=O va N-H guruhlar tutuvchi hosilalari mustahkam vodorod bog'larni hosil qilganligi uchun ularning saqlanish temperaturalari ortadi va eruvchanligi kamayadi.

Mazkur birikmalar piridin va benzolning analoglari hisoblanadi, 6 ta  $\pi$ -elektronlarning siklik delokallashuvi natijasida molekulalari barqarorlashadi. Uglerod-uglerod bog'larining uzunligi piridin va benzoldagiga yaqin turadi.




## KIMYOVIY XOSSALARI

Piridazin, pirimidin va pirazin piridinga qaraganda kuchsizroq asos xossalari ega. Bunga sabab ikkinchi azot atomining elektronakseptor ta'siridir.




$pK_{\text{BH}^+}(\text{H}_2\text{O})$  qiymati piridazin uchun -2,33 ga, pirimidin uchun -1,3 ga va pirazin uchun -0,6 ga teng. Ikkinchi azot atomi faqat konsentrangan kislota eritmalaridagina protonlanadi.

Elektrofil reagentlar bilan o'zaro ta'siri. Elektrofil reagentlar azot atomlaridan biriga hujum qiladi. Kuchli alkillovchi reagentlar N-alkiloniy tuzlarini, masalan, N-alkilpirimidiniy tuzini hosil qiladi.




Nitrolash, sulfolash, galogenlash va atsillash reaksiyalarini o'tkazib bo'lmaydi. Elektrofil o'rin olish reaksiyalariga gidroksi- va alkoxsihosilalar oson kirishadi.


Nukleofil reagentlar bilan o'zaro ta'siri. Piridazin, pirimidin va pirazin piridinga qaraganda kuchli nukleofillar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Ular uchun Chichibabin reaksiyasi xosdir.



Nukleofillar bilan galogenli hosilalari faol reaksiyaga kirishadi. Galogenli hosilalar gidroksihosilalardan oson olinishi mumkin.



**Gidridlanishi.** Piridazin, pirimidin va pirazin piridinga qaraganda oson gidridlanadi. Piridazin gidridlanganda halqa ochiladi, pirimidin geksagidropirimidinga, pirazin esa piperazinga aylanadi.



**Oksidlanishi.** Piridazin, pirimidin va pirazin oksidlovchilar ta'siriga chidamli. Peroksikislotalar va vodorod peroksid ta'sirida tegishli N-oksiddlar hosil bo'ladi. Metilhosilalar CrO3 yoki KMnO4 ta'sirida karbon kislotalargacha oksidlanadi.

## MUHIM VAKILLARI

*Piridazin* – suvda eriydigan rangsiz suyuqlik, -8°C da suyuqlanadi, 208°C da qaynaydi.

Piridazin organik sintezda ishlataladi, uning ayrim hosilalari **gerbitsidlar** hisoblanadi.


*Fenazon* (piramin, 2-amino-6-gidroksi-5-xlorpizidazin) – 200°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda, dixlormaleinaldegid kislotasidan va fenilgidrazindan olinadi. Fenazon qand lavlagi dalalarini begona otlardan tozalashda ishlataladigan samarali gerbitsid hisoblanadi.

*Pirimidin* – suvda eriydigan rangsiz suyuqlik, 21°C da suyuqlanadi, 124°C da qaynaydi. Pirimidin 2,4-dixlorpirimidinni katalitik qaytarib olinadi. Organik sintezda ishlataladi. 2,4-dixlorpirimidin esa uratsildan olinadi.

*Uratsil* (2,4-digidroksipirimidin) – kam eriydigan rangsiz kristall modda, 335°C da suyuqlanadi. Uratsil nuklein kislotalarining gidrolizlash mahsulotlaridan, yoki sintetik yo'l bilan olma kislotasi va mochevinadan olinadi.

Uratsil tautomer modda, kuchsiz NH-kislotasi bo'lgan diokso-shakli nisbatan barqaror bo'ladi. Birinchi azot atomidagi N-H birinchi navbatda ionlanadi deb taxmin qilinadi. Uratsil 5-holatdagি uglerod atomi bo'yicha elektrofil o'rinni olish reaksiyasiga kirishadi.

Uratsil muhim tabiiy birikmalardan bo'lgan nukleozidlar va nuklein kislotalar tarkibiga kiradi. 5-floruratsilning hosilalari, masalan, florasur N'-(2-furanidil-5-floruratsil) saraton kasalligini davolashda ishlataladi.




*Timin* (5-metiluratsil) – kam eriydigan rangsiz kristall modda, 318°C da suyuqlanadi. Diokso-shakli nisbatan barqaror bo'ladi.

Timin muhim tabiiy birikmalardan bo'lgan nukleozidlar va nuklein kislotalar tarkibiga kiradi.


*Sitozin* (2-gidroksi-4-aminopirimidin) – kam eriydigan rangsiz kristall modda, 320–325°C da suyuqlanadi.

Sitozin birinchi marta nuklein kislotalarning gidrolizatlaridan ajratib olingan. Sintetik yo'l bilan uratsilni 2,4-dixlorpirimidinga aylantirib, uni ammonoliz qilib, keyin gidroliz qilib olinadi.




Sitozin kuchsiz asos ( $pK_{BH^+} = 4,6$ ) va juda kuchsiz NH-kislota ( $pK_a = 12,2$ ) hisoblanadi. Sitozin nuklein kislotalar tarkibiga kiradi.


*Barbitur kislotasi* – kam eriydigan kristall modda,  $245^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi, malon efiri va mochevinadan olinadi. Triokso-shakli nisbatan barqaror bo'ladi.



Barbitur kislotasi



Fenobarbital, Iyuminal



Geksenal

Barbitur kislotasi CH-kislota ( $pK_a = 4,05$ ) hisoblanadi, xossalari jihatdan siklik  $\beta$ -diketonlarga o'xshaydi.


Tibbiyotda barbitur kislotasining barbituratlar deb ataluvchi 5,5-dialmashgan hosilalari kuchli tinchlantiruvchi (uxlatuvchi) vositalar sifatida ishlataladi.

*Pirazin* – rangsiz kristall modda,  $57^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi,  $118^\circ\text{C}$  da qaynaydi. Suvda eriydi, hidrat hosil qiladi. Pirazin piperazinni katalitik degidridirlab olinadi. Pirazin organik sintezda ishlataladi.

## PURIN


Purin sistemasini kondensirlagan pirimidin va imidazol halqalaridan iborat. Tuzilishi jihatdan naftalinga o'xshaydi.

Purin sistemasidagi atomlar umumiy qoidalardan boshqacha tarzda raqamlanadi. Purin tautomer sistemadir, kristall holatda vodorod atomi 7-holatda bo‘lish ehtimoli ko‘proq.




Purin sistemasiini hosil qilish uchun odatda pirimidin hosilalaridan foydalananildi.

Purin va uning hosilalari 5,6-diaminopirimidin yoki uning gidroksihosilalaridan olinadi (V.Traube).



Boshlang'ich modda sifatida aminogidroksipirimidinlar, aminobarbitur kislotasi olinishi mumkin (E. Fisher).



## FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI


Purin va uning hosilalari – rangsiz kristall moddalardir. Gidroksi-va aminohosilalari molekulalararo vodorod bog'lar ta'sirida kam eruvchan, qiyin suyuqlanadigan birikmalar hisoblanadi.

Purin 10 ta  $\pi$ -elektronli bog'langan sistema hosil qiladi, oksidlovchilar ta'siriga chidamli.

Purin amsoter birikmadir, kuchsiz asos ( $pK_{BH^+} = 2,4$ , imidazol azoti bo'yicha protonlanadi) va kuchsiz NH-kislota ( $pK_a = 8,9$ ) dir, 9-holat bo'yicha alkillanadi.

Gidroksipurinlar tautomer birikmalar bo'lib, okso-shaklida mavjud bo'ladi, kuchsiz NH-kislotalar hisoblanadi.

Purinning galogenli hosilalari gidroksi- va aminopurinlarni nukleofil o'rin olish reaksiyalari orqali olishda boshlang'ich moddalar sifatida ishlatiladi. Masalan, siyidik kislotasi va  $POCl_3$  dan olinadigan 2,6,8-trixlorpurin purin hosilalarini olishda ishlatiladi.



## MUHIM VAKILLARI

*Purin* – suvda eriydigan rangsiz kristall modda, 216°C da suyuqlanadi. 5,6-diaminopirimidindan olinadi. Organik sintezda qo'llaniladi.

*Adenin* (6-aminopurin) – rangsiz kristall modda, 360–365°C da suyuqlanadi, suvda kam eriydi.

Adenin achitqi nuklein kislotalarining gidrolizatlaridan ajratib olinadi. 4,5,6-triaminopirimidin yoki 2,6,8-trixlorpurindan sintez qilib olish usullari ham ma'lum. Sanoatda formamiddan va  $\text{POCl}_3$  dan bosim ostida qizdirib olish metodi ham qo'llaniladi.


Adenin asos xossasiga ega, 1- ( $\text{pK}_{\text{BH}^+} = 9,8$ ) va 7-holatlar ( $\text{pK}_{\text{BH}^+} = 4,15$ ) dagi azot atomlari bo'yicha ikkita proton biriktiradi. Adenin nukleozidlar, nukleotidlari va nuklein kislotalar takribiga kiradi. Organik va mikrobiologik sintezda boshlang'ich modda sifatida, hamda tibbiyotda ishlataladi.

*Guanin* (2-amino-6-gidroksipurin) – rangsiz kristall modda, 365°C da suyuqlanadi. Qushlarning chiqindilarida, baliqlar va sudralib yuruvchilarning terilarida, nuklein kislotalarning gidrolizatlarida uchraydi. Sintetik yo'l bilan 2,6,8-troixlorpurindan yoki boshqa usullar bilan olinishi mumkin.

Guaninning okso-shakli barqaror. Guanin kuchsiz NH-kislota ( $\text{pK}_a = 9,2$ ) va kuchsiz asosdir ( $\text{pK}_{\text{BH}^+} = 3,3$ ).

Guanin nukleozidlar, nukleotidlari va nuklein kislotalar takribiga kiradi.

*Kofein* (1,3,7-trimetilksantin) – rangsiz kristall modda, 365°C da suyuqlanadi, suvda eriydi, sublimatlanadi.



Kofein kofe (qahva) donlaridan, choy barglaridan olinadigan alkaloid.

Kofein asos bo'lib, kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Tibbiyotda markaziy nerv sistemasini stimullovchi vosita sifatida ishlataladi.

Siydik kislotasi – kam eriydigan rangsiz kristall modda. Siydik kislotasi tirik organizmlarning modda almashinuv mahsuloti bo‘lib, ko‘p miqdorda qushlarning chiqindilarida bo‘ladi. Sintetik yo‘l bilan barbitur kislotasidan olinadi.

Siydik kislotasi tautomer birikma, triokso -shakli barqaror. Ikki asosli NH-kislota xossasiga ega va ikki xil tuzlar – *uratlar* hosil qiladi.

$\text{POCl}_3$  bilan reaksiyaga kirishib purin hosilalari olish uchun boshlang‘ich modda – 2,6,8-trixlorpurin hosil qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. П.Каррер. Курс органической химии. Л. Госнаучтехиздат хим. литературы. 1960.
2. К.Д.Неницеску. Органическая химия. М. Изд-во. иностранной литературы. 1962. В 2-х томах.
3. Физер Л., Физер М. Органическая химия. М. Химия. 1966. В 2-х томах.
4. Писаренко А.П., Хавин З.Я. Курс органической химии. М. ВШ. 1968.
5. Sodiqov O.S., Sultonov Q.S., Yo'ldoshev O'.E. Organik ximiya. T. O'qituvchi. 1971.
6. Н.Н.Лебедев. Химия и технология основного органического и нефтехимического синтеза. М. Химия. 1971.
7. Моррисон Р., Бойд Р. Органическая химия. М.: «Мир», 1974 г. 1132с.
8. Несмейнов А.Н., Несмейнов Н.А. Начала органической химии. М.: 1974.
9. Г.Веккер. Введение в электронную теорию органических реакций. М.Мир. 1977.
10. Гауптман Ю. Грефе Х. Ремане. Органическая химия. М.: «Химия» 1979. – 832 с.
11. Терней А. Современная органическая химия. В 2 томах. М. Мир. 1981.
12. Ф.Кери, Р.Сандберг. Углубленный курс органической химии. М. Химия. 1981. В 2-х томах.
13. Перекалин В.В., Зонис С.А. Органическая химия. М., 1982.
14. Перевалова Э.Г., Решетова М.Д., Грандберг К.И. Методы элементоорганической химии. М. Наука. 1983.
15. Марч Дж. Органическая химия: в 4-х т. М.: «Мир». 1985 г. Т.1-4.
16. Грандберг И.И. Органическая химия. М. ВШ. 1987.
17. Овчинников Ю.А. Биоорганическая химия. М. Просвещение. 1987.
18. S.Iskandarov, B.Sodiqov. Organik ximiya. Nazariy asoslari. Toshkent. Mehnat. 1987. 1-2 qism.
19. Робертс Дж., Кассерио М. Основы органической химии. М.: «Мир». 1988.
20. Нейланд О.Я. Органическая химия. Москва. Высшая школа. 1990. 750 с.

21. Днепровский А.С., Темникова Т.И. Теоретические основы органической химии. Л.: «Химия», 1991 г.
22. Н.А.Тюкавкина, Ю.И.Бауков. Биоорганическая химия. М. Медицина. 1991.
23. Х.Беккер, Г.Домшке, Э.Фангхемель, М.Фишер и др. Органикум. М. Мир. 1992. В 2-х томах.
24. Asqarov I.R. Organik birikmalar nomenklaturasi va izomeriyasi. Toshkent. O'qituvchi. 1996.
25. Ahmedov Q.N., Yo'ldoshev H.Y. Organik kimyo usullari. T.: «Universitet». 1998, 2003-у. 1 va 2-qism.
26. Реутов О.А., Курц А.Л., Бутин К.П. Органическая химия. Учебник для студентов химических специальностей. Москва. МГУ. 1999. 1985 с.
27. Аскаров И.Р. Производные ферроцена. Фергана. 1999.
28. Шабаров Ю.С. Органическая химия. М.: «Химия». 2000. 848с.
29. X.S.Tojimuhammedov, X.M.Shohidoyatov. Organik birikmalarni tuzilishi va reaksiyon qobiliyati. Toshkent. Ibp Sino nashriyoti. 2001.
30. Артеменко А.И. Органическая химия. М.: «Химия». 2002, 848 с.
31. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 11-12-tomlar.
32. Mahsumov A.G., Jo'rayev A.J. Bioorganik kimyo. T. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
33. Asqarov I.R., G'opirov K. Kimyo asoslari. Toshkent. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2011.

## MUNDARIJA

So'z boshi .....	3
Kirish .....	5
1-§. Organik moddalarni tozalash usullari .....	10
2-§. Organik kimyoning nazariy asoslari haqida ma'lumot .....	12
3-§. Organik birikmałarni sinflanishi, nomenklaturasi va izomeriyasi .....	18
4-§. Molekulalarda elektron zichligining taqsimlanishi. Elektron effektlar .....	22
5-§. Kimyoviy bog'lanish haqidagi zamonaviy tasavvurlar .....	26
6-§. Organik reaksiyalar va reagentlarning turlari .....	31
7-§. Kislotalar va asoslar nazariyasi .....	35

### *Birinchi qism. OCHIQ ZANJIRLI UGLEVODORODLAR*

1-bob. Alkanlar .....	38
2-bob. Alkenlar .....	56
3-bob. Alkadiyenlar .....	83
Kauchuk .....	93
Poliyenlar .....	95
4-bob. Alkinlar .....	96

### *Ikkinchi qism. GOMOFUNKSIONAL BIRIKMALAR*

5-bob. Fazoviy kimyo elementlari va organik birikmalarning optik izomeriyasi ....	109
5.1. Molekulaning xiralligi. Proyeksiyon formulalar. Enantiomerlar va ratsematlar	109
6-bob. Galogenuglevodorodlar .....	113
6.1. Galogenalkanlar .....	113
6.2. To'yinmagan galogenuglevodorodlar .....	129

<i>7-bob.</i> Spirtlar .....	135
7.1. Alkanollar .....	135
7.2. Diollar .....	148
7.3. Uch va ko'p atomli spirtlar .....	152
7.4. To'yinmagan spirtlar .....	155
 <i>8-bob.</i> Oddiy efirlar .....	162
8.1. Dialkil efirlar .....	162
8.2. Siklik efirlar .....	167
8.3. Vinil efirlar .....	175
8.4. Alkilaril efirlar .....	177
8.5. Diaril efirlar .....	179
 <i>9-bob.</i> Karbonil birikmalar .....	180
9.1. Monokarbonil birikmalar .....	181
9.2. Ketenlar .....	211
9.3. Dikarbonil birikmalar .....	214
 <i>10-bob.</i> Karbon kislotalar va ularning hosilalari .....	229
10.1. Monokarbon kislotalar .....	229
10.2. To'yingan monokarbon kislotalar .....	231
10.3. Dikarbon kislotalar .....	241
10.4. To'yinmagan karbon kislotalar .....	245
 <i>11-bob.</i> Karbon kislotalarning funksional hosilalari .....	251
11.1 Galogenangidridlar .....	251
11.2. Karbon kislotalarning anigidridlari .....	254
11.3. Karbon kislotalarning murakkab efirlari .....	257
11.4. Karbon kislotalarning amidlari .....	265
11.5. Karbon kislotalarning gidrazidlari va azidlari .....	273
11.6. Nitrillar .....	277
11.7. Izosianidlар .....	281
 <i>12-bob.</i> Nitroalkanlar .....	284

<i>13-bob.</i> Aminobirikmalar .....	291
13.1. Alkilaminlar .....	292
<i>14-bob.</i> Metallorganik birikmalar .....	305
14.1. Birinchi guruh metallarining birikmalari .....	305
14.2. Ikkinchchi guruh metallarining birikmalari .....	308
14.3. Uchinchi guruh metallarining birikmalari .....	314
14.4. To'rtinchchi guruh metallarining birikmalari .....	316
14.5. O'zgaruvchan valentli metallarning birikmalari .....	318
14.6. O'zgaruvchan valentli metallarning $\pi$ -komplekslari .....	320
<i>15-bob.</i> Geterofunksional birikmalar .....	324
15.1. Galogenkarbonil birikmalar .....	324
15.2. Gidroksikarbonil birikmalar .....	326
15.3. Aminokarbonil birikmalar .....	330
15.4. Uglevodolar .....	332
<i>16-bob.</i> Karbon kislotalarning boshqa funksional guruhlar tutuvchi hosilalari .....	351
16.1 Galogenkarbon kislotalar .....	351
16.2. Gidroksikislotalar .....	355
16.3. Oksokislotalar .....	361
16.4. Aminokislotalar .....	368
16.5. Peptidlar va oqsillar .....	379
<i>Uchinchi qism. SIKLIK BIRIKMALAR</i>	
<i>17-bob.</i> Sikloalkanlar va ularning hosilalari .....	391
17.1. Siklopropanlar va ularning hosilalari .....	395
17.2. Siklobutan va uning hosilalari .....	398
17.3. Siklopentan va uning hosilalari .....	400
17.4. Siklogeksan va uning hosilalari .....	403
17.5. Siklogeptan va uning hosilalari .....	409
17.6. Siklooktan va uning hosilalari .....	411

17.7. Dekalinlar .....	412
17.8. Adamantan .....	413
18.- <i>bob.</i> Arenlar .....	414
18.1. Aromatiklik haqida tushuncha .....	415
18.2. Benzol qator arenlar .....	417
19.- <i>bob.</i> Kondensirlangan halqali polisiklik arenlar .....	435
19.1. Inden .....	436
19.2. Fluoren .....	437
19.3. Naftalin .....	438
19.4. Antratsen .....	443
19.5. Fenantren .....	446
19.6. Tetratsen va pentatsen .....	448
19.7. Perkondensirlangan polisiklik arenlar .....	450
20.- <i>bob.</i> Galogenarenlar .....	452
21.- <i>bob.</i> Aromatik nitrobirikmalar .....	459
21.1. Nitrozoarenlar .....	466
21.2. Nitrozofenollar .....	467
22.- <i>bob.</i> Fenollar .....	469
22.1. Ikki va uch atomli fenollar .....	480
23.- <i>bob.</i> Xinonlar .....	485
24.- <i>bob.</i> Aromatik karbonil birikmalar .....	495
25.- <i>bob.</i> Aromatik karbon kislotalar .....	503
25.1. Aromatik monokarbon kislotalar .....	503
25.2. Aromatik di- va polikarbon kislotalar .....	508

<i>26-bob.</i> Aromatik sulfobirikmalar .....	511
<i>27-bob.</i> Aromatik aminobirikmalar .....	517
27.1. Arendiazony tuzlari .....	526
<b><i>To'rtinchi qism. GETEROSIKLIK BIRIKMALAR</i></b>	
<i>28-bob.</i> Bes a'zoli bitta geteroatomli geterosiklik birikmalar .....	537
28.1. Indol .....	547
28.2. Karbazol .....	551
<i>29-bob.</i> Bes a'zoli, ikki va undan ortiq geteroatomli geterosiklik birikmalar .....	555
29.1. 1,3-ditioliy tuzlari, 1,3-ditiof hosilalari .....	561
29.2. Oksazol, tiazol va benziazol .....	561
29.3. Triazollar va tetrazol .....	567
<i>30-bob.</i> Olti a'zoli bitta geteroatomli geterosiklik birikmalar .....	569
30.1. Piridin .....	569
30.2. Xinolin va izoxinolin .....	580
30.3. Piriliy tuzlari va pironlar .....	587
<i>31-bob.</i> Olti a'zoli ikkita geteroatomli geterosiklik birikmalar .....	591
Foydalilanigan adabiyotlar .....	601

**I.R. Asqarov, Y.T. Isayev,  
A.G. Mahsumov, Sh.M. Qirg'izov**

### **ORGANIK KIMYO**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan olivy o'quv yurtlarining kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalariga darslik sifatida tasdiqlangan*

Muharrir *A.Maxsumov*  
Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*  
Texnik muharrir *T.Smirnova*  
Musahhih *D.To'ychiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *S.Rahmedova*

Nashr. lis. № 154. 14. 08. 09. Bosishga 02.06.12 y. da ruxsat etildi.  
Bichimi 60×90  $\frac{1}{16}$ . Tayms garniturası. Ofset bosma. 38,0 shartli bosma toboq.  
32,8 nashr bosma tobogi. Adadi 500 nusxa. 203 raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afsur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100128, Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning Internet manzilimiz: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)

E-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz)

I. R. Asqarov, Y.T. Isayev,  
A.G. Mahsumov, Sh.M. Qirg'izov

# ORGANIK KIMYO



ISBN 978-9943-03-446-4

9789943034464